adrift [əd'drɪft] *adv* oqimga qarab, oqim ixtiyorida; **to set ~ a)** oqimga qarab qo'yib yubormoq; b) o'z holiga tashlab qo'ymoq.
adroit [əd'drɔɪt] *a* epchil, chaqqon; mohir, hozirjavob.
adroitly [əd'drɔɪtli] *adv* epchillik bilan; mohirlik bilan; hozirjavoblik bilan.
adroitness [əd'drɔɪtnəs] *n* epchillik, chaqqonlik; mohirlik; hozirjavoblik.
adsorb [əd'sɔ:b] *v* *kim.* o'ziga tortib olmoq, shimdirmoq.
adsorbent [əd'sɔ:bənt] *n* *kim.* yutuvchi modda.
adsorption [əd'sɔ:pʃn] *n* *kim.* yutish, o'ziga tortish, shimib olish.
adularia [ædju'leəriə] *n* *min.* oytosh (*nim shaffof, yashil tovlanadigan mineral*).
adulate [ædjuleɪt] *v* laganbardorlik qilmoq; xushomadgo'ylik qilmoq; egilib ta'zim qilmoq.
adulation [ædju'leɪʃn] *n* laganbardorlik; xushomadgo'ylik; egilib ta'zim qilish; **master of ~** laganbardor.
adulatory [ædjuleɪtəri] *a* xushomadgo'ylarcha, laganbardorlarcha.
adult [ædʌlt] **1.** *n* katta yoshli, balog'atga yetgan kishi; **courses for ~s** kattalar maktabi; **2.** *a* 1) balog'atga yetgan, voyaga yetgan; 2) kattalar uchun; ~ **film** kattalar uchun film.
adulter [əd'ɒltə] *esk.* = **adulterer**.

- adulterant** [ədˈdʌltərənt] **1.** *n* aralashma (*sifati pasaytiradigan*); **2.** *a* aralash, aralashgan; toza (sof) emas.
- adulterate** [ədˈdʌltəreɪt] *v* qalbakilashtirimoq.
- adulteration** [ədˈdʌltəˈreɪʃn] *n* soxtalashtirish.
- adulterer** [ədˈdʌltərə] *n* yomon yo'lga yuradigan erkak.
- adulteress** [ədˈdʌltərəs] *n* yomon yo'lga yuruvchi ayol.
- adultery** [ədˈdʌltəri] *n* erga (*yoki* xotinga) xiyonat qilish.
- adumbrate** [ˈædʌmbreɪt] *v* 1) xomaki reja tuzmoq, nazarda tutmoq; 2) oldindan aytib bermoq, karomat qilmoq; 3) umumiy tushuncha bermoq.
- adust** [ədˈdʌst] *a* 1) kuydirilgan, quyoshda kuydirilgan; 2) quyoshda toblangan.
- ad valorem** [ˌædvəˈlɔːrem] *a* qiymatiga munosib, arziydigan.
- advance** [ədˈvɑːns] **1.** *n* oldinga harakat qilish; **2.** *v* oldinga harakat qildirmoq; **to ~ in years** eskirmoq.
- advanced** [ədˈvɑːnst] *a* ilg'or, yetakchi.
- advance-guard** [ədˈvɑːnsɡɑːd] *n* ilg'or, avangard (1) *harbiy harakat vaqtida asosiy kuchlarning eng oldida turuvchi yoki boruvchi harbiy qism, bo'linma va sh.k.*; 2) *ko'ch. ijtimoiy guruh yoki sinfning oldingi safda boruvchi yetakchi, ilg'or qismi*).
- advancement** [ədˈvɑːnsmənt] *n* ilgarilash, olg'a yurish.
- advantage** [ədˈvɑːntɪdʒ] **1.** *n* afzallik, ustunlik; **take ~** foydalanib qolmoq; **to take an ~ of the situation** vujudga kelgan vaziyatdan foydalanmoq; **to have an ~ over smb., smth** biror kimsa yoki narsadan ustunlik qilmoq; **to give smb. an ~ over smb. else** kimgadir ustunlikni berib qo'y-moq.
- advantageous** [ˌædvəntɪdʒəs] *a* qulay, foydali.
- advant** [ˌædvənt] *n* kelish, yetib kelish.
- adventitious** [ˌædvənˈtɪʃəs] *a* tasodifiy, kutilmagan.
- adventure** [ədˈventʃə] **1.** *n* 1) sarguzasht; 2) tavakkal qilish; **2.** *v* 1) tavakkal qilmoq; 2) xavf ostida qoldirmoq.
- adventurer** [ədˈventʃərə] *n* tavakkalchi.
- adventurous** [ədˈventʃərəs] *a* xavfli, xatarli.
- adverb** [ˈædvəːb] *n* *gram.* ravish.
- adverbial** [ədˈvɜːbiəl] *a* *gram.* ravishga oid.
- adverbialize** [ədˈvɜːbiəlaɪz] *v* ravishlashtirmoq.
- adverbially** [ədˈvɜːbiəli] *adv* *gram.* ravish sifatida, ravishdek.
- adversary** [ˈædvəsəri] *n* dushman, raqib.
- adversative** [ədˈvɜːsətɪv] *a* 1) *tilsh.* zid tushunchani anglatadigan (*so'z, atamalar to'g'risida*); 2) *gram.* zidlovchi.
- adverse** [ˈædvɜːs] *a* 1) dushmanlarcha; 2) zararli.
- adversity** [ədˈvɜːsətɪ] *n* baxtsizlik, omadsizlik.
- advert** [ədˈvɜːt] *v* dalil keltirmoq, isbot keltirmoq.
- advertence, -cy** [ədˈvɜːtəns, -sɪ] *n* e'tiborlilik, mehribonlik, g'amxo'rona munosabat.
- advertise** [ˌædvətəɪz] *v* e'lon qilmoq; **to ~ for workers** ishchilar yollash uchun e'lon bermoq; **to ~ various things** turli narsalarni reklama qilmoq.
- advertisement** [ədˈvɜːtɪsmənt] *n* e'lon; reklama; **an ~ for workers** ishchilar yollash uchun e'lon.
- advertiser** [ˌædvətəɪzə] *n* 1) reklama beruvchi shaxs; 2) e'lonlar yozilgan gazeta.
- advertize** [ˌædvətəɪz] *amer.* = **advertise**.
- advice** [ədˈvaɪs] *n* 1) maslahat, nasihat; kengash; **to give ~** maslahat bermoq; **to take (follow) smb's ~** maslahatga amal qilmoq; 2) *pl* xabar, axborot.
- advisable** [ədˈvaɪzəbl] *a* 1) o'ylab (aql bilan) ish qiladigan, aqlli, dono, mulohazali, ehtiyotkor; 2) tavsiya etilayotgan.
- advise** [ədˈvaɪz] *v* maslahat bermoq.
- advised** [ədˈvaɪzd] *v* 1) maslahat berilgan, kengash berilgan; 2) puxta o'ylangan.
- advisedly** [ədˈvaɪzɪdli] *adv* puxta o'ylab, andisha bilan.
- adviser** [ədˈvaɪzə] *n* maslahatchi.
- advisor** [ədˈvaɪzə] = **adviser**.
- advisory** [ədˈvaɪzəri] *a* maslahatli.
- advocacy** [ˌædvəkəsi] *n* himoya; oqlash.
- advocate** **1.** *n* [ˌædvəkət] himoyachi, tarafdor; **2.** *v* [ˌædvəkət] himoya qilmoq.
- adz(e)** [ædz] **1.** *n* poytesha, randa; **2.** *v* randalamoq, tekislamoq.
- aegis** [ˈiːdʒɪs] *n* himoya, tayanch, suyanchiq; **under the ~** of biror narsa yoki kimsa himoyasida.
- aegrotat** [iːˈgrəʊtæt] *n* kasallik haqida ma'lumotnoma.
- aeon** [iːən] *n* 1) doimiylik, adabiylik; 2) *geol.* era (*katta geologik davr*).
- aerate** [ˈɛəreɪt] *v* shamollatmoq.
- aerated water** [ˈɛəreɪtɪd,wɔːtə] *n* gazli suv.
- aeration** [eəˈreɪʃn] *n* 1) shamollatish, havoni yangilash; ~ **of the soil** tuproqning havoga to'yintirilishi.
- aerial** [ˈɛəriəl] **1.** *n* antenna; **2.** *a* havoga oid.
- aerie** [ˈɛəri] *n* 1) yirtqich qush uyasi; 2) burgut ini; 3) tik qoyadagi uy.
- aeriform** [ˈɛərɪfɔːm] *a* havoga oid; gazsimon.
- aerify** [ˈɛərɪfaɪ] *v* gazli qilmoq, gaz bilan to'yintirmoq.
- aerobatics** [ˌɛərəʊˈbætɪks] *n* *av.* figurali uchish.
- aerobic** [eəˈrəʊbɪk] *a* *biol.* aeroba (*faqat erkin kislorod bo'lgan sharoitda yashay oladigan*); ~ **organism** aerob organizmlar.
- aerobics** [eəˈrəʊbɪks] *n* aerobika.
- aerobiology** [ˈɛərəʊbaɪˈɒlədʒɪ] *n* aerobiologiya.
- aerobomb** [ˈɛərəʊbɒm] *n* aviabomba.
- aerocamera** [ˌɛərəʊˈkæməɪə] *n* aerokamera.
- aerocarrier** [ˌɛərəʊˈkæriə] *n* avianosos (*samolyotlar uchishi va qo'nishi uchun moslangan harbiy kema*).

aerodrome [ˈeərədrʊm] *n* aerodrom.
aerodynamic(al) [ˌeərəudaɪˈnæmɪk(əl)] *a* aerodinamikaga oid.
aerodynamics [ˌeərəudaɪˈnæmɪks] *n* aerodinamika.
aerodyne [ˈeərəudam] *n* havodan ogʻirroq boʻlgan uchish apparati.
aeroembolism [ˌeərəuˈembəɪzɪm] *n* kesson kasalligi (*kesson sharoitida ishlovchilarda yuz beradigan kasallik*).
aero-engine [ˌeərəuˈendʒɪn] *n* aviatsiya dvigateli.
aerofoil [ˈeərefɔɪl] *n* av. aerodinamika yuzasi.
aerogram [ˈeərəugræm] *n* radiogramma.
aerogun [ˈeərəugʌn] *a* aviapushka.
aerogjet [ˌeərəuˈdʒet] *a* havo-reaktiv.
aerolite [ˈeərəulaɪt] *n* geol. aerolit.
aerology [eəˈrɒlədʒɪ] *n* aerologiya (*atmosfera-ning yuqori qatlamlari xususiyatlarini oʻrgana-digan fan*).
aeromechanics [ˌeərəumiˈkænɪks] *n* aeromexanika.
aerometer [eəˈrɒmɪtə] *n* aerometr.
aeronaut [ˈeərənɔ:t] *n* aeronavt, havoda yengil apparatlarda uchuvchi.
aeronautic(al) [ˌeərəˈnɔ:trɪk(əl)] *a* havoda uchish-ga oid.
aeronautics [ˌeərəˈnɔ:trɪks] *n* aeronavtika.
aeronavigation [ˈeərəˌnæviˈgeɪʃn] *n* aeronavigatsiya (*havo navigatsiyasi*).
aerophone [ˈeərəfəʊn] *n* tovush kuchaytirgich.
aeroplane [ˈeərəpleɪn] *n* samolyot.
aerosol [ˈeərəʊsɒl] *n* kim. aerozol.
aerostat [ˈeərəustaɪt] *n* aerostat, havo shari.
aerostatics [ˌeərəuˈstætɪks] *n* aerostatika.
aerostation [ˌeərəuˈsteɪʃn] *n* havoda uchish (*su-zish*).
aerotechnics [ˌeərəuˈteknɪks] *n* aviatsiya texnikasi
aery [ˈtɛəri] *n* burgut uyasi.
aesthete [i:ˈsθi:t] *n* estet (*goʻzallika, nafis sanʼat-ga berilgan kishi*).
aesthetic [i:sˈθetɪk] *a* 1) nafis; 2) estetik.
aesthetics [i:sˈθetɪks] *n* pl estetika.
aestho-physiology [i:sθəʊfɪzɪˈɒlədʒɪ] *n* sezish organlarining fiziologiyasi.
aetiology [i:tiˈɒlədʒɪ] *n* tib. etiologiya (*kasallik paydo boʻlish sabablari haqidagi bilim*).
afar [əˈfɑ:] *adv* uzoq; ~ **from** uzoqdan.
affability [ˌæfəˈbɪləti] *n* xushmuomalalik.
affable [ˈæfəbl] *a* xushmuomala.
affair [əˈfeə] *n* ish, xizmat; **it's none of my** ~ bu mening ishim emas.
affect [əˈfekt] *v* 1) taʼsirini oʻtkazmoq; 2) mugʻambirlik qilmoq.
affectation [ˌæfekˈteɪʃn] *n* mugʻambirlik.
affected [əˈfektɪd] **1. p. p.** **affect** *dan*; **2. a** yuzaki.
affection [əˈfekʃn] *n* mehribonlik, muhabbat.
affectionate [əˈfekʃnət] *a* mehribon, sevuvchi.

affective [əˈfektɪv] *a* his-tuygʻuga (hissiyotga) oid.
afferent [ˈæfərənt] *a* fiz. markazga intilish, markazga intiladigan.
affiance [əˈfaɪəns] **1. n** unashtirish; **2. v** unashtir-moq.
affiant [əˈfaɪənt] *n* yur. guvoh.
affidavit [ˌæfɪˈdeɪvɪt] *n* yur. qasam yoki tantanali vaʼda bilan tasdiqlangan yozma guvohlik (*maʼlumot*).
affiliate [əˈfɪliət] *v* birlashtirmoq, tasarrufiga (oʻt-kazmoq) bermoq.
affiliated societies [əˈfɪliətɪdɪsəˈsaɪətɪz] *n* pl filiallar.
affiliation [əˈfɪliˈeɪʃn] *n* qoʻshilish.
affined [əˈfaɪnd] *a* yaqin, oʻxshash, bogʻliq (*biror narsa bilan*).
affinity [əˈfɪnəti] *n* qarindoshlik.
affirm [əˈfɜ:m] *v* tasdiqlamoq.
affirmation [ˌæfəˈmeɪʃn] *n* tasdiqlash.
affirmative [əˈfɜ:mətɪv] *a* tasdiqlovchi.
affix **1. n** [ˈæfɪks] *gram.* affiks; **2. v** [əˈfɪks] 1) birlashtirmoq; 2) qoʻl (imzo) qoʻymoq.
affixation [ˌæfɪkˈseɪʃn] *n* affiksatsiya.
afflict [əˈflɪkt] *v* xafa qilmoq.
afflicted [əˈflɪktɪd] *a* ranjigan.
affliction [əˈflɪkʃn] *n* baxtsizlik.
affluence [ˈæfluəns] *n* moʻlchilik, toʻkin-sochinlik.
affluent [ˈæfluənt] *a* serob; moʻl-koʻl.
afflux [ˈæflʌks] **1. v** oqib kelmoq; **2. n** oqib kelish.
afford [əˈfɔ:d] *v* 1) imkoniyat boʻlmoq; 2) biror narsani oʻziga ep koʻrmoq (*koʻpincha can afford, to be able to afford*); **to ~ smth.** biror narsani oʻziga ep koʻrmoq; **to ~ to do smth.** biror narsa qilishni oʻziga ep koʻrmoq; 3) bermoq, bagʻishlamoq; **to ~ pleasure** rohat (huzur) bagʻishlamoq.
afforest [əˈfɔrɪst] *v* daraxtzorlashtirmoq.
afforestation [əˈfɔrɪsteɪʃn] *n* daraxtzorga aylantirish, daraxt ekish.
affranchise [əˈfræntʃaɪz] *v* ozodlikka chiqarmoq.
affray [əˈfreɪ] *n* urishish, yoqalashish.
affreightment [əˈfreɪtmənt] *n* deng. yuk tashishga kema yollash.
affricate [ˈæfrɪkət] *n* fon. qorishiq tovush.
affright [əˈfraɪt] *v* sher. qoʻrqitmoq.
affront [əˈfrʌnt] **1. n** haqorat qilish; **2. v** haqorat qilmoq.
affusion [əˈfju:ʒn] *n* sepish, purkash.
Afghan [ˈæfgæn] *a* Afgʻonistonga va afgʻonlarga oid.
afghani [æfˈgɑ:nɪ] *n* afgʻoni (*Afgʻonistonning pul birligi*).
aficionado [əˈfɪʃəˈnɑ:dəʊ] *n* ishqivoz, havaskor.
afield [əˈfi:ld] *adv* 1) dalada, maydonda; 2) uydan uzoqda; 3) yoʻlning chekkasida.
afire [əˈfaɪə] *a* 1) oʻtda; 2) oʻtda yonayotgan.
afame [əˈfleɪm] *a* 1) oʻtda; 2) olovli, oʻtli.

- afloat** [ə'flæt] *adv* tekis, yassi, yalpoq.
- afloat** [ə'fləut] *a* suvda, suvning ustida suzayotgan, oqimga qarab suzayotgan.
- afoot** [ə'fʊt] *a* 1) piyoda; 2) harakatda; **to be ~** urinmoq.
- afore** [ə'fɔ:] *adv* 1) oldinda; **marching on ~** oldinda harakat qilib; 2) boshlanishida, oldin, ilgari.
- aforecited** [ə'fɔ:saitrɪd] *a* yuqorida keltirilgan; yuqorida aytib o'tilgan.
- aforegoing** [ə'fɔ:gəʊɪŋ] *a* oldingi, ilgarigi.
- aforenamed** [ə'fɔ:neɪmd] *a* yuqorida nomi aytilgan.
- aforesaid** [ə'fɔ:sed] *a* yuqorida eslatib o'tilgan.
- aforethought** [ə'fɔ:θɔ:t] *a* oldindan o'ylab (mo'ljallab) qo'yilgan.
- aforetime** [ə'fɔ:tɑɪm] *adv* avval, oldin, qadim zamonda.
- afraid** [ə'freɪd] *a* qo'rqqan; **be ~** qo'rqmoq; **to be ~ of smth.** nimadandir qo'rqmoq.
- afreet** [ˈæfri:t] *n* *afs.* shayton, iblis.
- afresh** [ə'freʃ] *adv* yangidan, qaytadan.
- African** [ˈæfrɪkən] **1.** *n* afrikaliklar; **2.** *a* Afrikaga oid.
- African(d)er** [ˌæfrɪˈkæn(d)ə] *n* afrikander (*asli Gollandiyalik bo'lgan Janubiy Afrika fuqarosi-ga berilgan nom*).
- afrit** [ˈæfri:t] = **afreet**.
- aft** [ɑ:ft] *adv* *deng.* kemaning quyruq qismida.
- after** [ɑ:ftə] *a* keyin, so'ng; ~ **breakfast** nonush-tadan so'ng; ~ **all** nihoyat, oxiri, oqibatda; **day ~ day** kundan kunga, kun ortidan kun; **the day ~ tomorrow** indinga, ertadan keyin; **long ~** ko'p vaqt o'tgandan keyin; **not long ~** birozdan so'ng; **to name ~ somebody** kimningdir nomiga qo'yim, kimningdir nomi bilan atamoq; ~ **classes** darsdan so'ng.
- afterbirth** [ˈɑ:ftəbɜ:θ] *n* *anat.* yo'ldosh, bolalar joyi.
- afterburning** [ˈɑ:ftəbɜ:nɪŋ] *n* *tex.* yonib tamom bo'lgan yoqilg'i.
- after-care** [ˈɑ:ftəkeə] *n* sog'ayayotgan kasalni parvarish qilish.
- aftercrop** [ˈɑ:ftəkrɒp] *n* *q.x.* ikkinchi hosil; ikkinchi o'rım.
- afterdamp** [ˈɑ:ftədæmp] *n* zaharli gaz aralash-masi.
- after-dinner** [ˈɑ:ftədɪnə] *a* tushlikdan keyingi.
- after-effect** [ˈɑ:ftəri,fekt] *n* natija, oqibat, yakun, samara.
- after-game** [ˈɑ:ftəgeɪm] *n* qaytadan yutib olish uchun urinib ko'rish.
- afterglow** [ˈɑ:ftəgləʊ] *n* kechki shafaq.
- after-grass** [ˈɑ:ftəgrɑ:s] *n* yangi o't (maysa).
- afterimage** [ˈɑ:ftəɪmɪdʒ] *n* *tv.* yo'qolmaydigan (qoldiq) tasvir.
- after-life** [ˈɑ:ftələɪf] *n* narigi dunyodagi hayot.
- afterlight** [ˈɑ:ftələɪt] *n* *teatr.* orqadagi yorug'lik.
- aftermath** [ˈɑ:ftəmæθ] *n* oqibat, talafot, falokat.
- aftermost** [ˈɑ:ftəməʊst] *a* *deng.* kema quyruq'iga yaqinroq joyda.
- afternoon** [ˈɑ:ftə'nu:n] *n* kunduzi, tushdan keyin; **good ~!** (kunduzgi) salom! **in the ~** kunduzi, kunduz kuni.
- afterpiece** [ˈɑ:ftəpi:s] *n* tomoshaning oxirida ko'rsatadigan kichik sahna asari *yoki* konsertning oxirida beriladigan qo'shimcha konsert dasturi.
- afters** [ˈɑ:ftəz] *n* *pl* ikkinchi va uchinchi taom.
- aftershave** [ˈɑ:ftəʃeɪv] *n* soqol olingandan so'ng surtiladigan suyuqlik.
- aftertaste** [ˈɑ:ftəteɪst] *n* ovqatdan keyingi og'izda qoladigan ta'm.
- afterthought** [ˈɑ:ftəθɔ:t] *n* vaqt o'tgandan so'ng keladigan g'oya (fikir).
- afterwards** [ˈɑ:ftəwədz] *adv* so'ngra, keyin.
- again** [ə'geɪn, ə'geɪn] *adv* qaytadan, yana; ~ **and ~** ko'p marta.
- against** [ə'geɪnst] *prep.* qarshi, qarama-qarshi; **to lean ~ something** nimagadir tayanib turmoq; **to strike one's foot ~ something** oyog'ini nimagadir urib olmoq.
- agamic** [ə'gæmɪk] *a* *biol.* erkak *yoki* urg'ochilik alomati yo'q.
- agape** [ə'geɪp] *a* angrayib (*hayratdan*).
- agarcic** [ˈægərɪk] *n* *bot.* qalpoq'ining osti burmali (plastinkasimon) qo'ziqorin.
- agate** [ˈægət] *n* *min.* aqiq (*qizil rangli qimmatbaho tosh*).
- agave** [ə'geɪvɪ] *n* *bot.* agava (*katta-katta bargli tropik o'simlik*).
- agaze** [ə'geɪz] *a* *predic.* hayratda qolgan, mahliyo bo'lgan.
- age** [eɪdʒ] **1.** *n* 1) yosh; **at the ~ of ...** yoshda; **at an early ~** yoshligidan, yoshlikdan; 2) asr, davr; **stone ~** tosh davri; **2.** *v* qarimoq, keksaymoq, yoshi qaytmoq.
- aged** [eɪdʒd] *a* keksaygan, qarigan, yoshi qaytgan.
- ageing** [eɪdʒɪŋ] *n* 1) qarish, keksayish; 2) yetilish.
- ageless** [eɪdʒləs] *a* eskirmaydigan, abadiy; bir umr yashaydigan, umrbod qoladigan.
- agelong** [ˈeɪdʒləŋ] *a* azaliy, abadiy.
- agency** [ˈeɪdʒənsɪ] *n* 1) harakat; 2) agentlik.
- agenda** [ə'dʒendə] *n* kun tartibi, ko'riladigan ma-sala.
- agent** [ˈeɪdʒənt] **1.** *n* agent; **2.** *a* harakat qiluvchi.
- agential** [ə'dʒenʃəl] *a* agent *yoki* agentlikka oid.
- age-old** [eɪdʒ'əʊld] *a* qadimdan qolib kelayotgan, azaliy.
- agglomerate** [ə'glɒməreɪt] *v* yig'moq, to'plamoq.
- agglomeration** [ə'glɒmə'reɪʃn] *n* to'plash, jam-lash, yig'ish.
- agglutinate** **1** *v* [ə'glu:tɪneɪt] yelimlab (*sirachlab*) yopishtirmoq; **2.** *a* [ə'glu:tɪnət] yelimlab yopish-tirilgan.
- agglutination** [ə'glu:tɪneɪʃən] *n* yopishtirish.

agglutinative [ə'glu:tmətv] *a* yopishadigan; ~ **languages** agglutinatīv tillar.
aggrandize [ə'grændaɪz] *v* kattalashtirmoq.
aggrandizement [ə'grændɪzmənt] *n* ko'paytirish.
aggravate [ægrə'veɪt] *v* yomonlashtirmoq, yomon holatga keltirmoq.
aggravating [ægrə'veɪtɪŋ] *a* yomonlashtiradigan, yomon holatga tushirib qo'yadigan.
aggravation [ˌægrə'veɪʃn] *n* yomonlashish.
aggregate 1. n [ˌægrɪgət] *tex.* agregat (*mashinalar to'plami*); **2. a** [ˌægrɪgət] bir joyga yig'ilgan; **3. v** [ˌægrɪget] bir joyga to'plamoq.
aggression [ə'greʃn] *n* hujum, tajovuz.
aggressive [ə'gresɪv] *a* tajovuzkor; hamla qiluvchi.
aggressiveness [ə'gresɪvnis] *n* tajovuzkorlik, hujumkorlik.
aggressor [ə'gresə] *n* bosqinchi, tajovuzkor.
aggrieve [ə'gri:v] *v* ranjitmoq, xafa qilmoq.
aggrieved [ə'gri:vd] *a* achchiqlangan, xafa.
aghost [ə'gɑ:st] *a* qo'rquvdan esankirab qolgan.
agile [ˌædʒaɪl] *a* epchil, uddaburon, chaqqon.
agility [ə'dʒɪləti] *n* chaqqonlik, epchillik, uddaburonlik.
agin [ə'gɪn] *prep.* qarshi, teskari.
aging [ˌeɪdʒɪŋ] *n* 1) qarish, keksayish; 2) yetilish.
agiotage [ˌædʒɪətɪdʒ] *n* ajiotaj; sun'iy ko'tarilgan shov-shuv; birja o'yini; chayqovchilik, olibso'tarlik.
agitate [ˌædʒɪteɪt] **1. v** tashviqot yurgizmoq; **2. v** hayajonlanmoq.
agitated [ˌædʒɪteɪtɪd] *a* hayajonlangan.
agitation [ˌædʒɪ'teɪʃn] **1. n** tashviqot; **2. n** hayajon.
agitator [ˌædʒɪteɪtə] *n* 1) tashviqotchi; 2) *tex.* aralashtirgich, chilcho'p, qorg'ich.
aglet [ˌæglɪt] *n* 1) shurning metallidan qilingan uchi 2) *bot.* bargak (*osilib turgan meva guli*).
aglow [ə'gləʊ] *a* qizib (cho'g' bo'lib) turgan.
agnail [ˌægneɪl] *n* milk (*tirmoqning milki*).
agnate [ˌægneɪt] **1. n** er tomonidan qarindosh; **2. a** yaqin, qardron (*qarindoshlar haqida*).
agnation [ˌæg'neɪʃn] *n* ota tomonidan qarindoshlik.
agnostic [ˌæɡ'nɒstɪk] **1. n** agnostitsizm tarafdori; **2. n** agnostikaga oid.
agnosticism [ˌæɡ'nɒstɪsɪzəm] *n* agnostitsizm (*falsafiy ta'limot*).
ago [ə'gəʊ] *adv* muqaddam; **not long** ~ yaqinda; **years** ~ ancha yil ilgari; **five days** ~ besh kun ilgari (oldin).
agog [ə'gɔɡ] *a* ko'zi to'rt bo'lib kutayotgan.
a-going [ə'gəʊɪŋ] *a* harakatda.
agonic [ə'ɡɒnɪk] *a* burchak chiqazmaydigan.
agonistic [ˌæɡəʊ'nɪstrɪk] *a* atletikaga va atletika-chiga oid.
agonize [ˌæɡənaɪz] *v* qiynalmoq, azob bermoq.

agonized [ˌæɡənaɪzd] **1. p. p.** agonize *dan*; **2. a** azob beradigan, qiynaydigan, qiyin, og'ir, mashaqqatli.
agonizing [ˌæɡənaɪzɪŋ] **1. pres. p.** agonize *dan*; **2. a** mashaqqatli, qiyin, og'ir, murakkab.
agony [ˌæɡəni] *n* eng kuchli og'riq.
agoraphobia [ˌæɡərə'fəʊbiə] *n* tib. keng (bo'sh) joydan qo'rqiş.
agrarian [ə'greəriən] *a* agrar (*yer va undan foydalanish masalalariga oid*).
agree [ə'ɡri:] *v* rozi bo'lmoq (**to, with**); kelishmoq; **to ~ with smb.** kimningdir fikriga qo'shilmog
agreeable [ə'ɡri:əbl] *a* ma'qul, maqbul, kelishib bo'ladigan.
agreeably [ə'ɡri:əblɪ] *adv* yoqimli.
agreed [ə'ɡri:d] *a* kelishilgan, rozi bo'lgan.
agreement [ə'ɡri:mənt] *n* 1) (*ikki tomonlama*) rozilik (**about, on**); ~ **of opinion** hamfikrlik; 2) shartnoma, bitim (**about, on; between; with**); **to come to an ~** bitim tuzmoq; 3) *gram.* moslashuv (**in**).
agricultural [ˌægrɪ'kʌltʃərəl] *a* qishloq xo'jaligiga oid.
agriculture [ˌægrɪkʌltʃə] *n* qishloq xo'jaligi.
agriculturist [ˌægrɪ'kʌltʃərɪst] *a* 1) agronom; 2) yer mutaxassisi.
agrimony [ˌægrɪməni] *n* *bot.* chakamug', alomatchoy.
agrimotor [ˌægrɪ,məʊtə] *n* q-x. traktor.
agrobiological [ˌægrəʊbɪəʊ'lɒdʒɪkəl] *a* agrobiologiyaga oid.
agrobiologist [ˌægrəʊbɪə'ɒlədʒɪst] *n* agrobiolog.
agrobology [ˌægrəʊbɪə'ɒlədʒɪ] *n* agrobiologiya (*o'simlikshunoslik va chorvachilikka bevosita aloqador umumiy biologik qonuniyatlarni o'rganuvchi fan*).
agronomic(al) [ˌægrəʊ'nɒmɪk(əl)] *a* agronomik.
agronomics [ˌægrəʊ'nɒmɪks] *n* agronomiya (*qishloq xo'jaligi va ziroatchilik haqidagi fan*).
agronomist [ə'ɡrɒnəmɪst] *n* agronom.
agronomy [ə'ɡrɒnəmi] *n* qishloq xo'jaligi, ziroatchilik.
agrostology [ˌægrəs'tɒlədʒɪ] *n* o'tlarni o'rgatadigan ilm (fan).
aground [ə'graʊnd] *a* deng. og'ir ahvolda.
ague [ˌeɪɡju:] *n* bezgak; isitma.
ague-cake [ˌeɪɡju:kɛɪk] *n* uzoq davom etgan isitma natijasida jigarning kattalashishi.
ague-spleen [ˌeɪɡju:spli:n] *n* tib. bezgak natijasida kattalashgan jigar.
aguish [ˌeɪɡjuʃ] *a* bezgakka oid.
ah [ɑ:] *int.* a! eh!
aha [ɑ:'hɑ:] *int.* aha!
ahead [ə'hed] *a* oldinga, oldinda; **to get ~ (of)** o'zib ketmoq ~ **of time** muddatdan ilgari; **go ~** olg'a, davom eting, boshlang; **to be ~ of** oldinda bormoq, orqada qoldirmoq.
ahead [ə'hi:p] *adv* g'aramda, to'dada.

- ahem** [hm] *int.* hm (*shubha, kinoya kabi ma'onalarni ifodalaydi*).
- ahorse (back)** [ə'hɔ:s(bæk)] *a* ot ustida; ot mingan.
- ahoy** [ə'hɔɪ] *int.deng.* chaqiriq ovozi, chaqiriq; **Ship** ~! Ey kemadagilar! (*chaqiriq*).
- ahull** [ə'hʌl] *adv deng.* yelkanlari yig'ishtirilgan va kemanding yon tomoni shamolga qaratib qo'yilgan holat.
- aid** [eɪd] **1.** *n* yordam, ko'mak; **2.** *v* yordam bermoq.
- aide** [eɪd] *n* yordamchi, maslahatchi.
- aide-de-camp** [ˌeɪdəˈkɑːŋ] *fr:n* (*shaxsiy*) adyutant.
- aide-memoire** [ˌeɪdməˈmɔː] *fr: n* xotira yozuvi.
- aigrette** [ˈeɪgrɛt] *n* 1) jig'a, ukpar; 2) oq qo'ton; 3) *tex.* nur tarami.
- aiguille** [ˈeɪgwɪːl] *n fr:* tog' cho'qisi.
- ail** [eɪl] *v* kasal bo'lmoq, betob bo'lmoq.
- aileron** [ˈeɪləron] *n* eleron (*samolyot qanotlarining burilishiga xizmat qiladigan qismi*).
- ailing** [ˈeɪlɪŋ] betob, tobi qochgan, kasal.
- ailment** [ˈeɪlmənt] *n* kasallik, betoblik.
- aim** [eɪm] **1.** *n* maqsad, niyat; nishon; **take** ~ nishonga olmoq; **to ~ at** ...ni mo'ljalga (nishonga) olmoq; **2.** *v* (**at**) nishonga olmoq.
- aimless** [ˈeɪmləs] *a* maqsadsiz, bemaqsad.
- ain't** [eɪnt] *qisq.* 1) *dial.* = **am not, is not, have not**; 2) *so'zl.* = **are not**.
- air** [eə] **1.** *n* 1) havo; havo qatlami; **in the open** ~ ochiq havoda; **by** ~ samolyot bilan; 2) muhit; **friendly** ~ do'stona muhit; **2.** *a* havoga oid; **3.** *v* shamollatmoq.
- air-balloon** [ˌeəbəˈluːn] *n* havo shari.
- air-barrage** [ˌeəˈbærɑːʒ] *n* havoni to'sish (*aerostallar bilan*).
- air-base** [ˈeəbeɪs] *n* aviatsiya bazasi.
- air-bed** [ˈeəbed] *n* damlama matras.
- air-bladder** [ˌeəˈblædə] *n* 1) suzgich pufak (*baligda*); 2) shishacha, kichkina shisha.
- air-blast** [ˌeəblɑːst] *n* havo to'lqinining birdan kuchayishi.
- airborne** [ˈeəbɔːn] *a* havo yo'li orqali tashiladigan.
- air-brake** [ˈeəbreɪk] *n tex.* pnevmatik (*siqilgan havo yordami bilan ishlaydigan*) tormoz.
- air-brick** [ˈeəbrɪk] *n* xom g'isht.
- air-bridge** [ˈeəbrɪdʒ] *n* havo (ko'prigi) yo'li.
- air-brush** [ˈeəbrʌʃ] *n* bo'yoq purkagich.
- air-cell** [ˈeəsel] *n anat.* o'pka pufakchalari.
- air-chamber** [ˌeəˈtʃeɪmbə] *n tex.* havo kamerasi.
- Air Chief Marshal** [ˌeəˈtʃiːf mɑːʃl] *n* aviatsiya bosh marshali.
- air command** [ˌeəˈkɔːnd] *n* aviatsiya qo'mondoni (*BBCning harbiy havo kuchlarining oliy tashkiliy birlashmasi*).
- air-condition** [ˌeəkənˌdɪʃn] *v* havo haroratini bir xilda yoki maromda ushlab turmoq.
- air-conditioner** [ˌeəkənˌdɪʃnə] *v* konditsioner, sovutgich.
- air-conditioning** [ˌeəkənˌdɪʃnɪŋ] *n* havo haroratini bir xilda saqlash.
- air-cooled** [ˌeəkuːld] *a* havo yo'li bilan sovutiladigan.
- air-cooling** [ˌeəˌkuːlɪŋ] *n* havo bilan sovutish.
- aircraft** [ˈeəkrɑːft] *n* samolyot.
- aircraft(s)man** [ˌeəkrɑːft(s)mən] *n* aviatsiya oddiy askari (*Angliyada*).
- air-cushion** [ˌeəˌkuʃn] *n* damlama yostiq.
- airdrome** [ˈeədrəʊm] *n* aerodrom.
- airdrop** [ˌeədrɒp] *n harb.* parachutchi desantning samolyotdan tashlashi.
- Airedale** [ˈeədeɪl] *n* erdelteryer (*it zoti*).
- air-engine** [ˌeərˌendʒɪn] *n* samolyot motori.
- air-exhauster** [ˌeərɪŋˌzɔːstə] *n* tortuvchi ventilyator.
- airfield** [ˈeəfiːld] *n* aerodrom.
- Air Force** [ˈeəfɔːs] *n* harbiy havo kuchlari.
- air-frame** [ˈeəfreɪm] *n* uchish apparati korpusi.
- air-freighter** [ˌeəˌfreɪtə] *n* yuk samolyoti.
- air-gap** [ˈeəɡæp] *n* zazor (*mashina qismlari o'rtasidagi juda tor tirgich*).
- air-gas** [ˌeəɡæs] *n* yonuvchi aralashma.
- air-gauge** [ˌeəɡeɪdʒ] *n* manometr.
- air-gun** [ˌeəɡʌn] *n* havo kuchi bilan ishlaydigan miltiq.
- air-hammer** [ˌeəˌhæmə] *n* pnevmatik bolg'a.
- air-hardening** [ˌeəˌhɑːdnɪŋ] *n metal.* havoda chiniqtirish.
- air-highway** [ˌeəˌhaɪweɪ] *n* havo yo'llari trassasi.
- air-hole** [ˌeəhəʊl] *n* 1) havo (gaz) chiqib turadigan tuynuk; 2) daryoning erigan yoki muzlamay qolgan joyi; 3) *av.* havo o'pqoni.
- air-hostess** [ˌeəˌhəʊstɪs] *n* samolyotning styuardessasi.
- airily** [ˈeərəlɪ] *adv* 1) yengil, oson; 2) nazokatli; 3) tuturiqsizlarcha, yengiltaklik bilan.
- airing** [ˈeərɪŋ] *n* shamollatish va quritish.
- air-jacket** [ˌeəˌdʒæktɪ] *a* damlanadigan qutqarish nimchasi.
- airless** [ˈeələs] *a* 1) shamolsiz; 2) havosiz.
- air-lift** [ˈeəɪft] *n harb.* havo yo'li orqali boshqa joyga ko'chirish.
- airline** [ˈeəlaɪn] *n* havo yo'li.
- air liner** [ˌeəˌlaɪnə] *n* 1) muayyan bir yo'nalishda uchuvchi samolyot; 2) odam tashiydigan samolyot.
- air-lock** [ˌeəˌlɒk] *n tex.* havo probkasi.
- air mail** [ˈeəmeɪl] *n* havo pochatasi.
- airman** [ˈeəmən] *n* uchuvchi.
- airmanship** [ˌeəmənʃɪp] *n* uchuvchilik mahorati.
- air-map** [ˌeəməp] *n* havo navigatsiyasining xaritasi.
- Air Marshal** [ˌeəˌmɑːʃl] *n* aviatsiya marshali.
- air mechanic** [ˌeəmiˌkæniˌk] *n* bortmexanik (*uchish apparati mexanigi*).

air-minded [ˈeə,mændɪd] *a* aviatsiya masalalarini farqiga boradigan.

air-monger [ˈeə,mʌŋgə] *n* xayolparast.

air-photo [ˈeə,fəʊtəʊ] *n* samolyotda olingan surat.

air-photography [ˌeəfəˈtɒgrəfi] *n* samolyotdan suratga olish.

airplane [ˈeəpleɪn] *n* amer. samolyot.

air-powered [ˈeə,pauəd] *a* pnevmatik (*siqilgan havo yordami bilan ishlaydigan*).

air-pocket [ˈeə,pɒkɪt] *n* adv havo o'pqoni.

airport [ˈeəpɔ:t] *n* aeroport.

air-raid [ˈeəreɪd] *n* havo hujumi.

air-route [ˈeəru:t] *n* havo trassasi.

air scout [ˈeəskaut] *n* *harb.* 1) havo razvedkachisi; 2) havoni kuzatuvchi.

airscrew [ˈeəskru:] *n* havo parragi.

air-shaft [ˈeəʃɑ:ft] *n* ventilatsiya shaxtasi.

airshed [ˈeəʃed] *n* angar (*samolyot, vertolyot va sh.k. turadigan yoki ta'mirlaydigan maxsus bino*).

airship [ˈeəʃɪp] *n* havo kemasi.

air show [ˈeəʃəʊ] *n* aviatsiya ko'rgazmasi.

airsick [ˈeəsɪk] *a* havo kasalligidan azob chekayotgan.

airsickness [ˈeə,sɪkɪnɪs] *n* havo kasalligi.

air-space [ˈeəspeɪs] *n* havodagi bo'shliq.

air speed [ˈeəspi:d] *n* samolyotning uchish tezligi.

air spraying [ˈeə,spreɪŋ] *n* havodan dori sepish.

air-stop [ˈeəstɒp] *n* odam tashiydigan vertolyotning stansiyasi yoki qo'nish maydonchasi.

air strip [ˈeəstri:p] *n* uchish-qo'nish maydoni.

air target [ˈeə,tstɑ:ɡɪt] *a* havodagi nishon.

air-tight [ˈeətaɪt] *n* havo o'tkazmaydigan.

air-to-air [ˈeətuˈeə] *n* bir samolyotdan ikkinchisiga o'tish.

air-to-ground [ˌeətuˈgraʊnd] *a* reaktiv (*tex. orqaga tepish kuchidan foydalanadigan*).

air-unit [ˈeə,ju:nɪt] *n* aviatsiya bo'limi.

airway [ˈeəweɪ] *n* havo yo'li.

airwoman [ˈeə,wʊmən] *n* uchuvchi ayol.

airworthiness [ˈeə,wə:ðɪnəs] *n* samolyotning uchishga yaroqliligi.

airworthy [ˈeə,wə:ðɪ] *a* uchishga yaroqli (*samolyot to'g'risida*).

airy [ˈeəri] *a* havoga oid.

aisle [aɪl] *n* (*poyezd va teatrda*) o'rindiqlar orasidagi yo'lak.

ait [eɪt] *n* orolcha (*asosan, daryoda*).

aitchbone [ˈeɪtʃbəʊn] *n* dumg'aza suyagi.

ajar [əˈdʒɑ:] *a* yarim ochiq, zich yopilgan.

akimbo [əˈkɪmbəʊ] *adv* ikki qo'lini beliga qo'yib

akin [əˈkɪn] *a* qarindoshlikka oid.

akinesia [ˌækiˈni:siə] *a* tib. akinetsia (*qimirlash holatini yo'qotish*).

alabaster [ˈæləbɑ:stə] *n* ganch, alebastr.

alack [əˈlæk] *int.* afsus! attang!

alacrity [əˈlækrəti] *n* tayyor turish.

aland [əˈlænd] *adv* qirg'oqda, quruqlikda.

alar [ˈerlə] *a* qanotli.

alarm [əˈlɑ:m] **1.** *n* 1) vahima; 2) trevoga (*xavfli bildiruvchi signal*); **2.** *v* qo'rqitmoq;

alarm-clock [əˈlɑ:mklɒk] *n* qo'ng'iroqli soat.

alarmed [əˈlɑ:md] *a* bezovta bo'lgan, hayajonlangan, hayajonga tushgan; bezovta, hayajonli, tashvishli, notinch.

alarming [əˈlɑ:mɪŋ] *a* cho'chitadigan, qo'rqitadigan; hayajonli.

alarmingly [əˈlɑ:mɪŋli] *adv* tashvishlanib, xavtirlanib, qo'rqib, xavfsirab.

alarmist [əˈlɑ:mɪst] *n* vahimachi.

alarm-post [əˈlɑ:mpəʊst] *n* trevoga vaqtida qo'shin to'planadigan joy.

alarum [əˈlærəm] *n* soatning jiringlashi.

alas [əˈlæs] *int.* afsus, attang.

alb [ælb] *n* *cher.* stixar (*dyakolarning ibodat vaqtida kiyadigan uzun kimxob kiyimi*).

Albanian [ælˈbeɪnjən] **1.** *n* 1) albaniyalik erkak yoki ayol; 2) alban tili; **2.** *a* Albaniyaga va albanlarga oid.

albatross [ˈælbətɾɒs] *n* zool. albatros (*tumshug'i uzun, katta dengiz qushi*).

albert [ˈælbət] *n* erkaklar soatining zanjiri.

albescence [ælˈbesnt] *a* rangi oqaradigan.

albinism [ælbɪnɪzəm] *n* teri yoki sochlarda ularga xos normal rang beruvchi pigmentning yetishmasligi.

albino [æˈbi:nəʊ] *n* albinos (*albinizm belgilari bo'lgan kishi, o'simlik yoki jonivor*).

Albion [ˈælbɪən] *n* *cher.* Albion, Angliya.

albugo [æfˈbju:ɡəʊ] *n* tib. ko'z dog'i, ko'zga tushgan oq.

album [ˈælbəm] *n* albom.

albumen [ˈælbjʊmɪn] *n* *biol.* oqsil, oqsil modda.

albumin [ˈælbjʊmɪn] *n* *kim.* albumin.

albuminoid [ælˈbju:mɪnɔɪd] *a* oqsilsimon.

albuminous [ælˈbju:mɪnəs] *a* albumin yoki oqsil xususiyatiga ega bo'lgan.

albumum [ælˈbɔ:nəm] *n* po'stloq osti qatlami (*daraxtning po'stloq ostidagi yanqi yog'och qismi*).

alchemic(al) [ælˈkemɪk(əl)] *a* alkimyoviy (*alkimyo o'rta asrlarda: oddiy metallarni oltin yoki kumushga aylantiruvchi «hikmat toshi» – ikisir izlash bilan shug'ullangan xayoliy fan*).

alchemist [ˈælkəməst] *n* kimyogar.

alchemy [ˈælkəmə] *n* alkimyo.

alcohol [ˈælkəhɒl] *n* alkogol; spirt.

alcoholic [ˌælkəˈhɒlɪk] *a* 1) spirtga oid; 2) spirtli.

alcoholism [ˈælkəhɒlɪzəm] *n* alkogolizm (*ichkilik kasalligi*).

alcoholometer [ˌælkəhɒˈləmɪtə] *n* spirtomer.

Alcoran [ˌælkɔˈrɑ:n] *n* Qur'on.

alcove [ˈælkəʊv] *n* tokcha, tahmon.

alder [ˈɔ:ldə] *n* bot. olxa (*daraxti va butasi*).

alderman [ˈɔ:ldəmən] *n* shahar boshqarmasining a'zosi.

aldermanry [ˈɔ:ldəmənri] *n* shahar boshqarmasidagi rayon.

- ale** [eɪl] *n* pivo.
- aleak** [əˈli:k] *a predic.* oqayotgan; **the vessel is ~** kemaga suv kiriyapti.
- aleatory** [ˌæliˈeɪtəri] *a* tasodifiy.
- alee** [əˈli:] *a* shamol esayotgan tomonga.
- ale-house** [ˈeɪlhaus] *n* pivoxona.
- alembic** [əˈlembɪk] *n tex.* suv qaynatish yoki suyuqliklarni haydash uchun ishlatiladigan berk idish.
- alert** [əˈlɜ:t] *n* 1) tashvish, vahima, xavotirlik; 2) xavfni bildiruvchi ishora (xabar); 3) *harb.* jangovar tayyorgarlik holati; **to be on the ~** tayyorlanib (shaylanib) turmoq; **to keep on the ~** tinchini buzmoq.
- ale-wife** [ˈeɪlwaɪf] *n* pivoxona sohibasi.
- Alexandrine** [ˌæɪlɪŋ ˈzændraɪn] *n* Aleksandrning she'ri.
- alexandrite** [ˌæɪlɪŋ ˈzændraɪt] *n min.* aleksandrit (*qimmatbaho tosh*).
- alfalfa** [ælˈfælfə] *n bot.* beda.
- alfresco** [ælˈfreskəu] *a* ochiq havoda yuz beradigan.
- alga** [ˈælgə] *n* dengiz suv o'tlari (o'simliklari).
- algae** [ˈældʒi:] *n* dengiz to'lqinlari.
- algebra** [ˈældʒɪbrə] *n* algebra.
- algebraic** [ˌældʒɪˈbreɪk] *a* algebraik; jabriy.
- Algerian** [æɪl dʒɪəriən] *a* Jazoirga va jazoirliklarga oid.
- algid** [ˈældʒɪd] *a* sovuq, izg'irin.
- algorithm** [ˈælgəriðm] *n mat.* algoritim (*biror masalani yechish qoidalari yoki amallari majmui*).
- alias** [ˈeɪliəs] *adv* boshqacha (*nomlanadigan*).
- alibi** [ˈæləbəri] *yur.* aybdor emasligiga dalil.
- alidad, alidade** [ˈæɪlɪdæd, -deɪd] *n tex.* burchak o'lchagich.
- alien** [ˈeɪliən] **1.** *n* chet ellik kishi; **2.** *a* begona, chet ellik.
- alienable** [ˈeɪlɪənəbl] *a yur.* begonalashtiriladigan (*mulk to'g'risida*).
- alienate** [ˈeɪljənert] *v* begonalashtirmoq.
- alienation** [ˌeɪlɪəˈneɪʃn] *n* begonalashish.
- alienee** [ˌeɪlɪəˈni:] *n yur.* mulk foydasiga begonalashtirilayotgan shaxs.
- alien-enemy** [ˈeɪlɪən,ɛnɪmɪ] *n yur.* dushman davlatning mamlakatda yashovchi fuqarosi.
- alien-friend** [ˈeɪlɪən,frɛnd] *yur.* do'st davlatning mamlakatda yashovchi fuqarosi.
- alienism** [ˈeɪlɪənɪzəm] *n* chet ellik kishining begona mamlakatdagi holati.
- alienist** [ˈeɪlɪənɪst] *n* ruhiy kasallik shifokori.
- aliform** [ˈeɪlɪəfɔ:m] *a* qanotsimon.
- alight** [əˈlaɪt] **1.** *v* 1) tushmoq (*tramvay va b.*); **2.** *a* yondirilgan, yoritilgan.
- alighting** [əˈlaɪtɪŋ] *n* kelib qo'nish.
- align** [əˈlaɪn] *v* saf tortmoq, saflanmoq.
- aligning** [əˈlaɪnɪŋ] **1.** *n* bir qator qilib joylashtirish; **2.** *v* bir qator qilib joylashtirmoq.
- alignment** [əˈlæɪnmənt] *n* bir qator qilib joylashtirish.
- alike** [əˈlaɪk] *a* o'xshash, ayni o'sha; **to be ~** bir-biriga o'xshamoq.
- aliment** [ˈæɪlmənt] *n* 1) taom, ovqat; 2) moddiy va madaniy qo'llab quvvatlash.
- alimentary** [ˌæɪlɪˈmentəri] *a* oziq-ovqatga oid.
- alimentation** [ˌæɪlɪmenˈteɪʃn] *n* ovqatlantirish.
- alimony** [ˈæɪlməni] *n* alimant, nafaqa.
- aliped** [ˈæɪlɪped] *a zool.* panjaqanotli (*ko'rshapalak va b.lar*).
- aliquant** [ˈæɪlɪkwənt] *a mat.* qoldiqsiz bo'linadigan.
- alive** [əˈlaɪv] *a* 1) jonli; **more dead than ~** na o'lik, na tirik; **to be ~** tirik bo'lmoq; **to remain ~** tirik qolmoq, omon qolmoq; 2) tetik.
- alizarin(e)** [əˈlɪzəri:n] *n kim.* alizarin (*ro'yan o'simligi ildizidan olinadigan yoki sun'iy yo'l bilan tayyorlanadigan bo'yoq modda*).
- alkalescence** [ˌæɪlkəˈlesns] *n kim.* (*kuchsiz*) ish-qorlilik.
- alkalescent** [ˌæɪlkəˈlesnt] *n kim.* kam ishqorli.
- alkali** [ˈæɪlkəli] *a kim.* ishqor.
- alkalimetry** [ˌæɪlkəˈlɪmətri] *n kim.* alkalimetriya.
- alkaline** [ˈæɪlkəlaɪn] *a kim.* ishqorli.
- alkaloid** [ˈæɪlkəloɪd] *n kim.* alkaloid.
- all** [ɔ:l] *a* barcha; **first of ~** eng avvalo; **most of ~** hammasidan ko'ra; **~ of us** biz hammamiz; **~ day (all day long, all the day)** kun bo'yi.
- Allah** [ˈælə] *n* Oloh, xudo, tangri.
- all-around** [ˌɔ:ləˈraʊnd] *n sport.* ko'p kurash (*sporting turli xillari*).
- allay** [əˈleɪ] *v* tinchlantirmoq, ovutmoq.
- all-clear** [ˌɔ:lˈklɪə] *n* havo xatari tugaganligi haqidagi ishora.
- allegation** [ˌæləˈdʒeɪʃn] *n* tasdiqlash (*dalilsiz*).
- allege** [əˈledʒ] *v* tasdiqlamoq.
- allegedly** [əˈledʒɪdli] *adv* go'yo, go'yoki.
- allegiance** [əˈli:dʒəns] *n* sodiqlik.
- allegoric(al)** [ˌæləˈdʒɔrɪk(əl)] *a* kinoyali.
- allegorize** [ˈæɪlɪgəraɪz] *v* kinoya (shama) qilib gapirmoq.
- allegory** [ˈæləgəri] *n* kinoya.
- all-embracing** [ˌɔ:lɪmˈbreɪsɪŋ] *a* keng qamrovli, ko'p narsani o'z ichiga olgan.
- allergic** [əˈlɜ:dʒɪk] *a tib.* allergiyaga oid.
- allergy** [ˈælədʒɪ] *n tib.* allergik, o'ta ta'sirchanlik.
- alleviate** [əˈli:vɪet] *v* yengillashtirmoq.
- alleviation** [əˌli:vɪˈeɪʃn] *n* yengillashtirish.
- alley** [ˈæli] *n* xiyobon.
- alleyway** [ˈæɪlweɪ] *n* tor ko'cha, tor o'tish yo'li.
- All Fool's Day** [ˌɔ:lˈfu:lz,deɪ] *n* hazil, yolg'onlar kuni (*1-aprel*).
- all-honoured** [ˌɔ:lˈɔ:nəd] *a* hamma hurmat qiladigan.
- alliance** [əˈlæɪns] *n* 1) ittifoq; 2) qarindoshlik.
- allied** [əˈlaɪd] *a* ittifoqdosh.
- allegation** [ˌæɪlˈdʒeɪʃn] *n* qotishma, aralashma.
- alligator** [ˈæɪlɪgətə] *n zool.* alligator, timsoh.

- all-in** [ˌɔ:l'ɪn] **1.** a charchagan, toliqqan, holdan toygan; **2.** *adv* hammasini qo'shib hisoblaganda.
- all-in-all** [ˌɔ:lɪn'ɔ:l] a juda muhim, juda kerakli.
- all-in-one** [ˌɔ:lɪn'wʌn] a *tex.* butun, yaxlit, nuqul.
- all-metal** [ˌɔ:l'metl] a nuqul metallardan qilingan (yasalgan).
- all-night** [ˌɔ:l'naɪt] a tungi, tun bo'yi ishlaydigan (*restoran, qahvaxona va b.*).
- allocate** ['æləukeɪt] v 1) joylashtirmoq; 2) tayinlamoq (to).
- allocation** [ˌælə'keɪʃn] n 1) taqsimot; 2) tayinlash.
- allocation** [ˌælə'kju:ʃn] a pand-nasihatli nutq, murojaat.
- alldial** [ə'ləudjəl] a *tar.* soliq majburiyatlaridan ozod bo'lgan.
- alldium** [ə'ləudjəm] n to'la xususiy mulk hisoblanadigan va soliq majburiyatlaridan ozod yer.
- allogamy** [ə'lɔgəmi] n *bot.* chetdan changlanish.
- allopath** ['æləpæθ] n allopat.
- allopathy** [ə'lɔpəθi] n allopatiya.
- allot** [ə'lɔtɒb] v taqsimlamoq, bo'lmoq.
- allotment** [ə'lɔtmənt] n taqsimlash, bo'lish.
- allottee** [ə,lɔ'ti:] n 1) yer maydonini oluvchi; 2) mayda ijarachi.
- all-out** [ˌɔ:l'aut] **1.** a to'la; umumiy, yalpi; **2.** *adv* bor kuch bilan.
- all-outer** [ˌɔ:l'autə] n *amer.* qat'iy yoki so'nggi choralar tarafdori.
- all-overish** ['ɔ:l'əʊvərɪʃ] a mazasi qochayotgan.
- all-overishness** ['ɔ:l'əʊvərɪʃnɪs] n so'zl. umumiy darmonsizlik.
- allow** [ə'lau] v 1) ijozat bermoq; 2) bermoq; ~ time vaqt bermoq.
- allowable** [ə'lauəbl] a 1) bo'lishi mumkin bo'lgan, yo'l qo'yish mumkin bo'lgan; 2) ijozat berilgan, ruxsat etilgan, yo'l qo'yilgan; 3) qonuniy.
- allowance** [ə'lauəns] n ruxsat; ijozat.
- allowedly** [ə'lauɒli] *adv* ijozat berilgan yo'sinda.
- alloy** ['ælɔɪ] n (*qandaydir metalning*) qotishmasi.
- all-powerful** [ˌɔ:l'pauəfəl] a har narsaga qodir, qudratli, kuchli.
- all-right** [ˌɔ:l'raɪt] **1.** a qoniqarli; hammasi joyida; **2.** *adv* juda ma'qul tarzda; **3.** *int.* yaxshi! xo'p! bo'pti!
- all-round** [ˌɔ:l'raʊnd] *adv* har taraflama, ko'p tomonlama.
- all-rounder** [ˌɔ:l'raʊndə] n *sport.* o'ntukurashchi.
- allspice** ['ɔ:l'spɪsɪs] n *bot.* Yaman murchi.
- all-steel** [ˌɔ:l'sti:l] a nuqul po'lat, nuqul po'latdan yasalgan.
- all-time** [ˌɔ:l'taɪm] a misli ko'rilmagan, eshitilmagan.
- allude** [ə'lʊ:d] v aytib o'tmoq, sha'ma qilmoq.
- All-Union** ['ɔ:l'ju:njən] a umumittifoq.
- allure** [ə'ljuə] v maftun etmoq.
- allurement** [ə'ljuəmənt] n qiziqtiradigan (havasini keltiradigan) narsa, jozibadorlik, ko'rkamlik.
- alluring** [ə'ljuəriŋ] a qiziqtiradigan, jozibador, maftunkor.
- allusion** [ə'lʊ:ʒən] n 1) luqma; 2) shama; 3) dalil; 4) eslatish.
- allusive** [ə'lʊ:sɪv] a kinoyali, shamali, qochirimli (to).
- alluvial** [ə'lʊ:vɪəl] a *geol.* o'tirindi, cho'kindiga oid.
- alluvion** [ə'lʊ:vɪən] n o'tirindi, cho'kindi.
- alluvium** [ə'lʊ:vɪəm] n cho'kindi qatlamlari.
- all-wool** [ˌɔ:l'wʊl] a sof jundan qilingan.
- ally** **1.** n ['ælaɪ] ittifoqdosh; **2.** v [ə'laɪ] birlashtirmoq.
- almanac** ['ɔ:l'mənæk] n taqvim; almanax.
- almighty** [ˌɔ:l'maɪti] a qudratli, qodir.
- almond** ['ɑ:mənd] n *bot.* bodom (*daraxti*).
- almond-shaped** [ˌɑ:mənd'ʃeɪpt] a bodomsimon.
- almoner** ['ɑ:mənə] n *esk.* xayr-ehson ulashuvchi (*saroy va b.lardagi mansabdor shaxs*).
- almost** ['ɔ:l'məʊst] *adv* deyarli.
- alms** [ɑ:mz] n xayr-ehson.
- alms-deed** ['ɑ:mzdi:d] n muhtojlarga yordam, xayr-saxovat, ehson.
- alms-house** ['ɑ:mzhaus] n g'aribxona.
- almsman** [ɑ:mzmən] n xayr-sadaqa hisobiga kun kechiradigan kishi.
- alldial** [ə'ləudɪəl] = **alldial**.
- aloe** ['ælaʊ] n *bot.* aloy, sabur.
- aloft** [ə'lɔft] *adv* yuqorida, tepada.
- alone** [ə'ləʊn] a yolg'iz; **let** ~ tinch qo'ymoq.
- along** [ə'lɔŋ] *prep.* bo'ylab, yoqalab; **to go (come)** ~ **with smb.** kim bilandir birga bormoq; ~ (**a street**) **a river** (ko'cha) daryo bo'ylab.
- along-shore** [ə,lɔŋ'ʃɔ] *adv* qirg'oqda, qirg'oq bo'yida.
- alongside** [ə,lɔŋ'saɪd] *adv* yonma-yon, bir qator-da; yaqinida.
- aloof** [ə'lʊ:f] *adv* nariroqda, chetroqda.
- aloofness** [ə'lʊ:fɪnəs] n 1) uzoqlashib ketganlik, begonalik; 2) befarqlik, beparvolik, e'tiborsizlik.
- aloud** [ə'lauɒd] *adv* baland, ovoz chiqarib.
- alp** [ælp] n tog' cho'qqisi.
- alpaca** [æ'l'pækə] n alpoka junidan qilingan gazlama.
- alpenstock** ['ælpɪnstɔk] n *sport.* alpenshtok (*alpinistlarning nayzador uzun tayog'i*).
- alpha** ['ælfə] n alfa (*grek alifbosining birinchi harfi*).
- alphabet** ['ælfəbet] n alifbo.
- alphabetic** [ˌælfə'betɪk] a alifboga oid.
- alphabetical** [ˌælfə'betɪkəl] a alifboga oid.
- alphabetically** [ˌælfə'betɪkəli] *adv* alifbo tartibida.
- alphabetize** ['ælfəbətəɪz] v alifbo tartibida joylashtirmoq.
- alpha rays** [ˌælfə'reɪz] n *pl fiz.* alfa nurlari.
- alpine** ['ælpɪn] a baland tog'larga xos yoki mansub bo'lgan.
- alpinist** ['ælpɪnɪst] n alpinist.
- already** [ɔ:l'reɪdɪ] *adv* allaqachon.

- alright** [ˌɔ:lˈraɪt] *predic.* yaxshi, qoniqarli, qanoatlantirarli; ma'qul.
- Alsatian** [æɪˈseɪʃn] **1.** a elzasga oid; **2.** n elzaslik.
- also** [ˈɔ:lsoʊ] *adv* shuningdek, ham.
- alt** [ælt] *n* : **in** ~ oktavada baland ovoz.
- altar** [ˈɔ:lteɪ] *n* mehrob.
- alter** [ˈɔ:lteɪ] *v* o'zgartirmoq, qayta yasamoq.
- alterable** [ˈɔ:lteɪəbl̩] *a* o'zgaruvchan.
- alterant** [ˈɔ:lteɪənt] *adv* taklifni o'zgartirishga olib keladigan.
- alteration** [ˌɔ:lteɪˈreɪʃn] *n* o'zgartirish.
- alterative** [ˈɔ:lteɪətɪv] *a* o'zgartirishga sabab bo'lishga qodir.
- altercate** [ˈɔ:lteɪkət] *v* janjallashib qolmoq; gap talashmoq (**with**).
- altercation** [ˌɔ:lteɪˈkeɪʃn] *n* janjal, mojaro.
- alter ego** [ˌæltərˈi:ɡəʊ] *n* *lot.* eng yaqin do'st va hamfikir.
- alternate** **1.** *a* [ɔ:lˈtə:nət] navbati bilan qilinadigan; **2.** *v* [ɔ:lˈtə:nət] *v* galma-gal qilmoq.
- alternating** [ˈɔ:lteɪnɪŋ] *a* almashib turadigan.
- alternation** [ˌɔ:lteɪˈneɪʃn] *n* galma-gal qilish.
- alternative** [ɔ:lˈtə:nətɪv] **1.** *n* ikki yo'ldan birini tanlash; **2.** *a* ikki yo'ldan birini tanlashni taqozo etadigan.
- alternatively** [ɔ:lˈtə:nətɪvli] *adv* muqobil ravishda.
- although** [ɔ:lˈðəʊ] *conj* garchi; ... ga qaramay.
- altigraph** [ˈæltɪgrə:f] *n* altigraf.
- altimeter** [ˈæltɪ,mɪ:tə] *n* altimetr, balandlik o'lchagich.
- altonant** [æɪˈtɪsənənt] *a* dabdabali, balandparvoz.
- altitude** [ˈæltɪtju:d] *n* balandlik.
- alto** [ˈæltəʊ] *n* alt (*ovoz va torli musiqa asbobi*).
- alto-cumulus** [ˌæltəʊˈkju:mjʊləs] *n* osmondagi to'p-to'p bulutlar.
- altogether** [ˌɔ:lteɪˈɡeðə] *adv* butunlay; to'la, tamoman.
- alto-relievo** [ˌæltəʊˈri:li:vəʊ] *n* me'mor. gorelef (*tekis sathda ishlangan bo'rtna naqsh*).
- alto-stratus** [ˌæltəʊˈstreɪtəs] *n* meteor. ko'p qatlamli bulut.
- altruism** [ˈæltruɪzəm] *n* altruizm.
- altruist** [ˈæltruɪst] *n* altruist, g'amxo'rlik ko'rsatuvchi odam.
- altruistic** [ˌæltruˈɪstɪk] *a* altruistik.
- alum** [æləm] *n* achchiqtosh.
- alumina** [əˈlu:mɪnə] *n* aluminiy oksidi.
- aluminium** [ˌæljʊˈmɪniəm] *n* aluminiy.
- aluminous** [əˈlu:mɪnəs] *a* achchiqtoshga oid.
- alumna** [əˈlʌmnə] *n* *lot.* sobiq shogird (*kollej yoki universitetda*).
- alumnae** [əˈlʌmni:] *pl* alumna *dan*.
- alumni** [əˈlʌmni] *pl* alumna *dan*.
- alumnus** [əˈlʌmnəs] *n* sobiq shogird (*kollej yoki universitetda*).
- alveolar** [ˈælvɪələ] *a* anat. pufakchalardan tuzilgan.
- alveolate** [ˈælvɪələɪt] *a* alveolalarga oid.
- alveolus** [ˈælvɪələʊləs] *n* anat. pufakchalar; katak, ko'z, uyacha.
- always** [ˈɔ:lweɪz] *adv* doimo, har doim, muntazam.
- am** [æm] **to be** *fe'lining hozirgi zamonda birinchi shaxs uchun birlik sonda ishlatiladigan aniqlik maylidagi shakli*.
- amadou** [ˈæmədu:] *a* pilik, qov.
- amain** [əˈmeɪn] *adv* esk. 1) tez, tezda, darrov, darhol; 2) bor kuch bilan.
- amalgam** [əˈmælgəm] *n* 1) amalgama; 2) ko'chm. kitob. aralash-quralash narsa.
- amalgamate** [əˈmælgəmeɪt] *v* birlashtirmoq.
- amalgamated** [əˈmælgəmeɪtɪd] *a* o'zaro bog'langan.
- amalgamation** [əˈmælgəˈmeɪʃn] *n* aralashish.
- amanuenses** [əˈmænjuˈensi:z] *pl* amanuensis *dan*.
- amanuensis** [əˈmænjuˈensis] *n* *lot.* oqqa ko'chiruvchi; kitob (*aytib turganni*) yozadigan, shaxsiy kotib.
- amaranth** [ˈæmərənθ] *n* 1) bot. amarant; 2) baxmalrang, to'q qizil rang.
- amaranthine** [ˌæməˈrænθaɪn] *a* 1) so'lmaydigan, so'lmas; 2) to'q qizil, qirmizi.
- amass** [əˈmæs] *v* yig'moq, to'plamoq.
- amassment** [əˈmæsmənt] *n* uyum, g'aram.
- amateur** [ˈæmətə] *n* havaskor; **an** ~ **pointer** havaskor rassom; **an** ~ **show** havaskorlik konserti.
- amateurish** [ˈæmətərɪʃ] *a* havaskorga oid.
- amative** [ˈæmətɪv] *a* (tez, darrov) oshiq bo'ladigan, hadeb sevaradigan, sevuvchan.
- amatol** [ˈæmətəl] *n* amatol (*portlovchi modda*).
- amatory** [ˈæmətəri] *a* ishq-muhabbatga oid.
- amaze** [əˈmeɪz] *v* taajjublantirmoq.
- amazed** [əˈmeɪzd] *a* hayratlangan; **to be** ~ **at smth. smb.** nimadandir yoki kimdandir qoyil qolmoq, hayratda qolmoq.
- amazement** [əˈmeɪzmənt] *n* taajjublanish.
- amazing** [əˈmeɪzɪŋ] *a* hayratlanarli.
- amazingly** [əˈmeɪzɪŋli] *adv* hayron qolarli darajada, hayratomuz.
- Amazon** [ˈæməzən] *n* grek. mif. amazonka (*yunon afsonalarida jangovar xotin*).
- ambages** [æmˈbeɪdʒi:z] *n* kinoya, imo-ishora, qochirim, shama.
- ambassador** [æmˈbæsədə] *n* elchi.
- ambassadorial** [æmˈbæsədəˈdɔ:riəl] *a* elchiga va elchixonaga oid, elchi...; elchixonona...
- ambassador** [æmˈbæsədɪs] *n* 1) elchining xotini, 2) ayol elchi.
- amber** [ˈæmbə] **1.** *n* kahrabo; **2.** *a* kahraboga oid.
- ambergris** [ˈæmbəgrɪ(:)s] *n* kulrang anbar.
- ambidext(e)rous** [æmbrɪˈdekstrəs] *a* ikkala qo'lini bir xilda ishlata oladigan (*odam*).
- ambience** [ˈæmbiəns] *n* muhit, sharoit, tevarakatrof.

ambient [ˈæmbiənt] *a* har tomondan oʻrab olgan.
ambiguity [ˌæmbɪˈɡjuːəti] *n* 1) ishora, piching, shama, kinoyali (ikki maʼnoli) gap; 2) noaniqlik, nomaʼlumlik; noaniq (gap, fikr) narsa.
ambiguous [æmˈbɪɡjuəs] *a* ikki maʼnoli.
ambit [ˈæmbɪt] *n* atrof, tevarak, tevarak-atrofdagi joylar, oʻrab olgan muhit, sharoit.
ambition [æmˈbɪʃn] *n* 1) shuhratparastlik; 2) kuchli orzu, niyat, maqsad, ishtiyoq; **it is her ~ to become a teacher** uning maqsadi oʻqituvchi boʻlish; **to realize one's ~s** oʻz orzularini amalga oshirmoq.
ambitious [æmˈbɪʃəs] *a* shuhratparast.
ambivalence [æmˈbɪvələns] *n* ikkilanish.
ambivalent [æmˈbɪvələnt] *a* (oʻy-fikr haqida) teskari, zid, qarama-qarshi.
amble [ˈæmbl] *n* 1) yoʻrgʻalash, yoʻrgʻalab yurish; 2) yengil qadam tashlash, chaqqon yurish.
ambler [ˈæmblə] *n* yoʻrgʻa (ot).
ambrosia [æmˈbrəʊziə] *n* 1) *grek. mif.* yunon afsonalarida ilohlar taomi; 2) asalari ovqati (asalarilarning uyasiga gul changlaridan toʻplagan asal bilan aralashirilgan ovqatlari).
ambulance [ˈæmbjuləns] *n* tez yordam mashinasi.
ambulance-chaser [ˈæmbjələns,tʃeɪsə] *n* *amer.* baxtsiz hodisalardan jabrlanganlarga oʻz xizmatini taklif qiluvchi advokat.
ambulant [ˈæmbjulənt] *a* bir joydan ikkinchi joyga oʻtadigan; koʻchma (*kasallik haqida*).
ambulatory [ˈæmbjuletəri] *a* 1) koʻchma; 2) ambulatoriyaga oid.
ambuscade [ˌæmbəˈskeɪd] = **ambush**.
ambush [ˈæmbʊʃ] **1.** *n* pistirma; **2.** *v* bir joyda oʻtirmoq; pistirmada boʻlmoq; qurshovda boʻlmoq.
ameer [əˈmiːə] *n* amir.
ameliorate [əˈmiːliəreɪt] *v* yaxshilamoq.
amelioration [əˈmiːliəˈreɪʃn] *n* yaxshilash.
ameliorative [əˈmiːliəreɪtɪv] *a* yaxshilaydigan; meiorativ.
amen [ɑːˈmen] *int* omin.
amenability [əˈmiːnəˈbɪləti] *n* javobgarlik, masʼuliyat.
amenable [əˈmiːnəbl] *a* javobgar.
amend [əˈmend] *v* yaxshilamoq, tuzatmoq.
amendable [əˈmendəbl] *a* tuzaladigan.
amended [əˈmendɪd] *a* tuzatilgan.
amendment [əˈmendmənt] *n* (*xatoni*) tuzatish, yaxshilash; **to move an ~** tuzatish kiritmoq (*rezolyutsiyaga, qonun loyihasiga*).
amends [əˈmendz] *n* qoplash, oʻmini toʻldirish.
amenity [əˈmiːnəti] *n* yoqimlilik, mehribonlik.
amenta [əˈmentə] *n pl tib.* aqli zaif kishi.
amentia [eɪˈmenʃə] *n* aqli zaiflik.
amentum [əˈmentəm] = **amenta**.
amerce [əˈmɜːs] *v* jarima solmoq; jazolamoq.
amercement [əˈmɜːsmənt] *n* jarima solish.
American [əˈmerɪkən] **1.** *n* amerikalik; **2.** *a* amerika oid.

Americanism [əˈmerɪkənɪzəm] *n* amerikanizm.
Americanize [əˈmerɪkənəɪz] *v* amerikalashtirish.
amethyst [ˈæməθɪst] *n* ametist (*qimmatbaho tosh*).
amethystine [ˌæməˈθɪstɪn] *a* ametistga oid.
amiability [ˌeɪmɪəˈbɪləti] *n* mehribonlik.
amiable [ˈeɪmiəbl] *a* xushmuomala; doʻstona.
amianthus [ˌæmɪˈænthəs] *n* *min* togʻ zigʻiri.
amicability [ˌæmɪkəˈbɪləti] *n* doʻstona munosabat.
amicable [ˈæmɪkəbl] *a* doʻstona.
amid [əˈmɪd] *prep.* oʻrtasida (*biror narsaning*).
amides [ˈæmaɪdz] *n pl* *kim.* amidlar.
amidships [əˈmɪdʃɪps] *adv* *deng.* kemanding oʻrtasida.
amidst [əˈmɪdst] = **amid**.
amildar [ˈæmədɑː] *n* soliq yigʻuvchi inspektor.
amir [əˈmiːə] = **ameer**.
amiss [əˈmɪs] *adv* adashib.
amity [ˈæməti] *n* doʻstlik.
ammeter [ˈæm,mɪ:tə] *n* *el.* ampermetr.
ammonal [ˈæmənəl] *n* ammonal (*portlovchi modda*).
ammonia [əˈmɒniə] *n* *kim.* ammiak.
ammoniac [əˈmɒniæk] *a* *kim.* ammiakka oid.
ammonite [ˈæmənait] *n* *geol.* ammonit.
ammonium [əˈmɒniəm] *n* *kim.* ammoniy.
ammunition [ˌæmjuˈnɪʃn] **1.** *n* oʻq-dorilar; **2.** *v* oʻq-dori bilan taʼminlamoq.
amnesia [æmˈniːziə] *n* xotirasini yoʻqotish.
amnesty [ˈæmnəsti] **1.** *n* gunohidan oʻtish; jazodan ozod qilish; **2.** *v* gunohidan oʻtmoq; jazodan ozod qilmoq.
amoeba [əˈmiːbə] *n* *zool.* (*pl -ae, -as*) amyoba.
amoebae [əˈmiːbiː] *pl* *zool.* amyobalar.
amok [əˈmɒk] = **amuck**.
among [əˈmʌŋ] *prep.* (*uch va undan ortiq narsa yoki kishilar uchun ishlatiladi*) oʻrtasida, orasida
amongst [əˈmʌŋst] = **among**.
amoral [eɪˈmɔːrəl] *a* axloqsiz, adabsiz, odobsiz, beadab.
amorous [ˈæməərəs] *a* 1) oshiq; 2) tez oshiq boʻladigan.
amorousness [ˈæməərəsnəs] *n* hadeb sevaverish.
amorphous [əˈmɔːfəs] *a* shaklsiz.
amort [əˈmɔːt] *adv* oʻlik, jonsiz.
amortization [əˈmɔːtaɪˈzeɪʃn] *n* *yur.* qarzni toʻlash.
amortize [əˈmɔːtaɪz] *v* *yur.* qarzni toʻlamoq.
amount [əˈmaʊnt] **1.** *n* 1) son, miqdor; **a large ~ of work** koʻp ish; 2) umumiy son, miqdor, yigʻindi, jami, hammasi, majmuyi; **2.** *v* (*miqdorni, summani*) tashkil qilmoq.
amour [əˈmuə] *n* sevgi, muhabbat.
amourette [ˌæmuˈret] *n* ishqiy fitnachi.
amour-propre [ˌæmuəˈprɒprə] *fr.* *n* taʼbi noziklik.
amp [æmp] *n* amper (*elektr kuchi birligi*).

amperage [ˈæmpərəɪdʒ] *n* *el.* elektr tok kuchi.
ampere [ˈæmpɛə] *n* *fiz.* amper (*elektr kuchi birligi*).
ammeter [ˈæmpɛə,mi:tə] *n* ampermetr.
ampere turn [ˈæmpɛə,tə:n] *n* amper-vitok.
ampersand [ˈæmpəsænd] *n* (&) (= **and**) belgisi.
Amphibia [æmˈfɪbiə] *n* *pl* *zool.* ham suvda ham quruqlikda yashovchilar.
amphibian [æmˈfɪbiən] *a* suvda va quruqlikda yashovchi.
amphibious [æmˈfɪbiəs] *a* suvda ham quruqlikda ham yashovchi.
amphibology [ˌæmfɪˈbrələdʒɪ] *n* ikki ma'noni ifodalovchi ibora.
amphitheatre [ˌæmfɪθiˈeɪtə] *n* amfiteatr (*balandlab boruvchi o'rinlar*).
amphora [ˈæmfərə] *n* (*pl* -ae) ko'zasimon qo'sh-quloq sopol idish (*qadimgi Yunonistonda*).
ample [ˈæmpl] *a* mo'l-ko'l, yetarli, ko'p.
amplification [ˌæmplɪfɪˈkeɪʃn] *n* ko'paytirish, kengaytirish.
amplifier [ˈæmplɪfəɪ] *n* (*radio*) kuchaytirgich.
amplify [ˈæmplɪfaɪ] *v* ko'paytirmoq, oshirmoq, kengaytirmoq, keng yoymoq.
amplitude [ˈæmplɪtju:d] *n* *fiz.* amplituda.
amply [ˈæmplɪ] *adv* serob, to'kin-sochin; yetarli.
ampule, ampule [ˈæmpu:l, ˈæmpju:l] *n* ampula (*dori va shu kabi quyib og'zi payvandlangan naycha*).
amputate [ˈæmpjutet] *v* kesib tashlamoq.
amputation [ˌæmpjuˈteɪʃn] *n* kesib tashlash.
amputee [ˌæmpjuˈti:] *n* qo'li *yoki* oyog'i kesilgan odam.
amuck [əˈmʌk] *adv* jahli chiqqan, g'azablangan.
amulet [ˈæmjulɪt] *n* tumor.
barman [ˈbɑ:mən] *n* barda ishlaydigan erkak.
barmy [ˈbɑ:mi] *a* ko'pikli, ko'pigi bor; serko'pik.
baron [bɑ:n] *n* 1) omborxonona, ombor, xirmon, saroy; 2) depo, garaj; **car** ~ *amer.* tramvay parki.
barnacle [ˈbɑ:nəkl] *n* tikan, tikanak; tishlamasligi (baqirmasligi) uchun og'izga tiqib qo'yiladigan latta, yog'och (*o'ynoqi otlarda*).
barn-door [ˈbɑ:n,dɔ:] *n* omborxonona darvozasi.
barncostom [ˈbɑ:nstɔ:m] *v* saroyda tomosha ko'rsatmoq (*sayyor aktyorlar to'g'risida*).
barograph [ˈbærəʊgrɑ:f] *n* barograf (*atmosfera bosimini o'zi yozib turadigan asbob*).
barometer [bə ˈrɒmɪtə] *n* barometr (*atmosfera bosimini o'lchovchi asbob*).
barometric(al) [ˌbæ:rɛːrɪˈmetrɪk(əl)] *a* barometrga (*atmosfera bosimiga*) oid.
baron [ˈbærən] *n* baron (*grafdan quyi unvoni va shu unvondagi kishi*).
baronage [ˈbærənɪdʒ] *n* baronlik, baron unvoni.
baroness [ˈbærənɛs] *n* baronessa (*baronning qizi yoki xotini*).
baronet [ˈbærənɪt] **1.** *n* baronet (*unvon*); **2.** *v* baronet unvonini bermoq.
baronetcy [ˈbærənɪtsɪ] baronet unvoni.
baronial [bɛˈrɒniəl] *a* baronga oid, baronlik, baron.
barony [ˈbærənɪ] *n* baron mulki.
baroque [bə ˈrɒk] *n* (the ~) barokko (*san'atda, xususlan, me'morchilikda: 16–18 asrlarda rasm bo'lgan serhasham badiiy uslub*).
baroscope [ˈbærəskəʊp] *n* baroskop.
barouche [bə ˈru:ʃ] *n* lando; to'rt kishilik soyabonli arava.
barque [bɑ:k] *n* kema.
barrack [ˈbærək] **1.** *n* 1) barak (*yengil-yelpi qurilgan yog'och uy*); 2) kazarma (*harbiy qismlarda*); **2.** *v* kazarmalarga joylashtirmoq.
barracouta [ˌbærə ˈku:tə] = **barracuda**.
barracuda [ˌbærə ˈku:də] *n zool.* dengiz cho'rtan balig'i.
barrage [ˈbærɑ:ʒ] *n* to'siq, g'ov, damba, barroj.
barrator [ˈbærətə] *n* g'iybatchi, ig'vogar.
barratry [ˈbærətri] tuhmat, g'iybat.
barrel [ˈbærəl] **1.** *n* 1) bochka; 2) barrel (*suyuq, sochiladigan va ayrim qattiq materiallar o'lchov birligi*); **2.** *v* bochkalarga quymoq, to'plamoq.
barrel-head [ˈbærəlhed] *n* bochkaning tagi.
barrel-roll [ˈbærəlrəʊl] *n av.* bochka (*oliy pilotaj figurasi*).
barren [ˈbærən] **1.** *a* hosilsiz; **2.** *n* hosilsiz yer.

barret [ˈbærət] *n* barret.
barricade [ˌbæri ˈkeɪd] **1.** *n* 1) barrikada (*chep*); 2) to'siq, g'ov; **2.** *v* barrikada qurmoq, chep bog'lamoq.
barrier [ˈbæriə] **1.** *n* g'ov, to'siq; **2.** *v* to'smoq.
barring [ˈbɑ:rɪŋ] **1.** *prep.* dan tashqari; **2.** *n* *tex.* ishga tushirish (*mashinani*).
barrister [ˈbæristə] *n* advokat.
barrow [ˈbærəʊ] *n* zambilg'altak, g'altak arava.
barrow-boy [ˈbærəʊbɔɪ] *n* ko'cha savdogari.
bartender [ˈbɑ:tendə] *n* *amer.* bar xodimi.
barter [ˈbɑ:tə] **1.** *n* 1) ayirboshlash; 2) ayirboshlashga asoslangan savdo; **2.** *v* ayirboshlamoq.
bartizan [ˈbɑ:tɪzæn] *n* tar, soqchilar minorasi.
barton [ˈbɑ:tn] *n* qo'rg'oncha.
baryta [bɛ ˈraɪtə] *n* *kim.* bariy oksidi.
barytone [ˈbæri:təʊn] *n* bariton (*ovoz va musiq asbobi*).
basal [ˈbeɪsl] *a* 1) zaminida yotgan; 2) asosiy, muhim.
basalt [ˈbæso:lt] *n* *min.* basalt (*shishasimon vulkanik tog jinsi*).
basaltic [bɛ ˈso:ltrɪk] *a* *min.* bazaltga oid.
bascule [ˈbæskju:l] *n* ko'prikning ko'tariladigan tomoni.
bascule-bridge [ˈbæskju:lbrɪdʒ] *n* ko'tarma ko'prik.
bascule-door [ˈbæskju:l ˈdɔ:] *n* ko'tarma darvoza.
base [beɪs] **1.** *a* pastkash, yaramas; past tabaqadan chiqqan; **2.** *n* asos, manba; **3.** *v* asos solmoq.
baseball [ˈbeɪsbɔ:l] *n* *sport.* beysbol.
baseboard [ˈbeɪsbɔ:d] *n* *qur.* plintus (*devorning pastki turtib chiqqan qismi*).
base frequency [ˌbeɪs ˈfri:kwənsɪ] *n* *fiz.* asosiy chastota.
baseless [ˈbeɪsləs] *a* asossiz, dalilsiz, asoslanmagan.
basely [ˈbeɪslɪ] *adv* razilona, vijdonsizlarcha.
basement [ˈbeɪsmənt] **1.** *n* 1) asos, manba; 2) eng pastki, poydevorda qolib ketgan qavat; 3) yer-to'la; 4) zamin, poydevor.
bash [bæʃ] **1.** *n* zarba; **2.** *v* 1) urmoq; 2) qattiq zarba bermoq.
basher [ˈbæʃə] *n* *amer.* qotil, bosqinchi.
bashful [ˈbæʃfəl] *a* uyatchan, tortinchoq, kamtarin.
bashing [ˈbæʃɪŋ] *n* savalash, qamchilash, urish.
basic [ˈbeɪsɪk] *a* asosiy, bosh, eng muhim; ~ **instruction** asosiy kurs (*o'qitish protsessida*); **literacy**~ savod chiqarish manbayi (asosi)
basicity [beɪ ˈsɪsɪtɪ] *n* *kim.* valentlik, asosiylik.
basil [ˈbæzl] *n* *bot.* rayhon.
basilica [bɛ ˈzəɪlɪkə] *n* bazilika (*ichki qismi gator ustunlar bilan bir nechta qismga bo'lingan bino*).
basilisk [ˈbæzəlɪsk] **1.** *n* *afs.* ajdaho; **2.** *a* zaharli.
basin [ˈbeɪsn] *n* tos, jom, tog'oracha.
basinet [ˈbæsmet] *n* po'latdan qilingan dubulg'a, temir qalpoq.

basis [ˈbeɪsɪs] *n* 1) asos, zamin; 2) asosiy (tarkibiy) qism.
bask [bɑːsk] *v* 1) isinmoq (*quyoshda, o'tda*); 2) rohatlanmoq (*tinchlikdan, baxtdan*).
basket [ˈbɑːskɪt] **1.** *n* savat; **2.** *v* 1) keraksiz narsalarni savatga tashlamoq; 2) savatga solmoq.
basket-ball [ˈbɑːskɪtbɔːl] *n sport.* basketbol.
basketful [ˈbɑːskɪtful] *n* nima bilandir to'la savat.
basketry [ˈbɑːskɪtrɪ] *n* to'qish, o'rish, to'qilgan (savat) buyumlar.
basket-work [ˈbɑːskɪtwɜːk] = **basketry**.
Basque [bæsk] **1.** *n* 1) basklar; 2) bask tili **2.** *a* basklarga oid.
bas-relief [ˌbɑːrɪˈliːf] *n* barelyef (*tekis yuzaga ishlangan bo'rtma naqsh*).
bass [bæs] *n* olabug'a (*balig*).
basset [ˈbæsɪt] *n* taksa (*itning bir turi*).
basso [ˈbæsəʊ] *n* (*pl -os [-əʊz]*) muz. bas (*ovoz*).
bassoon [bəˈsuːn] *n* fagot (*yog'ochdan yasalgan surnaysimon musiqa asbobi*).
bass-viol [ˈbeɪs,vaɪəl] *n* violonchel (*skripkasimon katta musiqa asbobi*).
bass-wood [ˈbæsɪwud] *n* jo'ka (lipa) daraxti.
bast [bæst] *n* tola, po'stloq (*kanop, zig'ir va sh.k. o'simliklar poyasining tolas*).
bastard [ˈbæstəd] *n* 1) nikohsiz tug'ilgan bola; 2) soxta, qalbaki, yasama.
bastardize [ˈbæstədəɪz] *v* nikohsiz tug'ilgan deb e'lon qilmoq.
bastardy [ˈbɑːstədi] *n* bolaning nikohsiz tug'ilishi.
baste [beɪst] *v* 1) qovurish paytida qozonga yog' quymoq; 2) urmoq, yanchmoq; 3) koyimoq, so'kmoq.
bastille [bæˈstiːl] *n fr.* qal'a, qamoqxona.
bastinado [ˌbæstɪˈneɪdəʊ] **1.** *n* (*pl -ous [-əʊz]*) kaltak bilan urish (*asosan, oyoqning kaftiga; sharqdagi jazolash usuli*); **2.** *v* kaltak bilan urmoq (*asosan, oyoqning kaftiga*).
bastion [ˈbæstɪən] *n* *harb.* qo'rg'on.
bat [bæt] **1.** *n* 1) *zool.* ko'rshapalak; 2) so'yil, to'qmoq; **2.** *v* tayoq (so'yil, to'qmoq) bilan urmoq.
batata [bæˈtɑːtə] *n* bata (*janub o'simligining bir turi va uning kartoshka ta'mli shirin ildiz mevasi*).
bat-blind [ˈbætblænd] *a* butunlay ko'rmaydigan.
batch [bætʃ] *n* 1) bir yo'la pishiriladigan non miqdori; 2) bir dasta, bir bog'lama.
batcher [ˈbætʃə] *n* *tex.* bunker; ta'minlagich.
bate [beɪt] **1.** *v* qahr, g'azab, jahl; **2.** *v* kamaytirmoq.
batfowl [ˈbætfəʊl] *v* tunda qushlarni yorug'lik bilan ko'zini qamashirib, tayoq bilan urib ovlamoq.
bath [bɑːθ] *n* (*pl baths [bɑːðz]*) 1) vanna; 2) cho'milish (*vannada*); 3) hammom; cho'miladigan joy.
Bath chair [ˌbɑːθˈtʃeə] *n* kasallar uchun g'ildirakli kreslo.
bathe [beɪð] **1.** *n* cho'milish; **2.** *v* cho'milmoq.

bather [ˈbeɪðə] *n* cho'miluvchi.
bath-house [ˈbɑːθhaʊs] *n* hammom.
bathing [ˈbeɪðɪŋ] *n* cho'milish.
bathing-dress [ˈbeɪðɪŋdres] *n* cho'milish kiyimi.
bathos [ˈbeɪθɔːs] *n* chuqurlik, jar.
bathrobe [ˈbɑːθrəʊb] *n* cho'milish xalati.
bath-room [ˈbɑːθrʊm] *n* vannaxona.
bath-tub [ˈbɑːθtʌb] *n* vanna.
bathyscaphe [ˈbæθɪskeɪf] *n* batiskaf (*suv ostida harakat qiladigan mexanizmlı suvosti kamerasi*).
bathysphere [ˈbæθɪsfɪə] *n* batisfera (*simli kanop orqali tushirilgan suvosti kamerasi*).
bating [ˈbeɪtɪŋ] *prep.* ...dan boshqa, ...dan tashqari.
batiste [bæˈtiːst] *n* batist (*gazlama*).
batman [ˈbætmən] *n* *harb.* navkar, chopar.
baton [ˈbætən] **1.** *n* politsiya tayog'i; **2.** *v* tayoq bilan urmoq (*politsiyachi haqida*).
batsman [ˈbætsmən] *n* to'pni urib qaytaruvchi (*kriketda va beysbolda*).
battalion [bətˈæljən] **1)** *harb.* batalyon; **2)** *amer.* artilleriya divizioni.
batten [ˈbætn] **1.** *n* polbop taxta, pol taxta; **2.** *v* 1) pol qoqmoq; 2) yaxshi boqilib semirmoq; 3) bo'rdoqiga boqilmoq.
batter [ˈbætə] **1.** *n* ko'pirtirilgan xamir; **2.** *v* qattiq urmoq.
battered [ˈbætəd] *n* ko'p urilgan.
battery [ˈbætrɪ] *n* batareya; akkumulator (*asosan, avtomashinada*).
battery locomotive [ˈbætərɪˈləʊkə,məʊtɪv] *n* elektrovoz.
batting [ˈbætɪŋ] *n* vatin (*astar bilan avra orasiga qo'yiladigan mato*).
battle [ˈbætl] **1.** *n* urush, kurashish, olishish; **2.** *v* jang olib bormoq; kurashmoq.
battle-array [ˈbætlə,ri] *n* jangovar tartib.
battle-axe [ˈbætlæks] *n* jangovar bolta.
battlecraft [ˈbætlkrɑːft] *n* harbiy mahorat.
battle-cruiser [ˈbætl,kruːzə] *n* safdagi kreysler.
battle-cry [ˈbætlkri] *n* jangovar shior.
battledore [ˈbætldeɪ] *n* g'o'la, o'qlog', jova, raketka (*bodminton o'yinida*).
battle dress [ˈbætlɪdres] *n* *harb.* poxod formasi.
battle-field [ˈbætlfiːld] *n* urush (jang) maydoni.
battle-fleet [ˈbætlfliːt] *n* safdagi flot.
battle-ground [ˈbætlgraʊnd] *n* harbiy harakatlar maydoni.
battlement [ˈbætlmənt] *n* dandanali devor, tuynukli devor.
battle-order [ˈbætl,ɔːdə] *n* *harb.* 1) jangovar tartib; 2) harbiy buyruq.
battle-piece [ˈbætlpiːs] *n* urush manzaralari tasvirlangan rasm.
battle-plane [ˈbætlpleɪn] *n* *av.* jangovar samolyot.
battler [ˈbætlə] *n* 1) jangchi; 2) chidamli bokschi.
battle-seasoned [ˈbætl,sɪːznd] *a* jangda (urushda) chinigqan, urushni ko'rgan.
battleship [ˈbætlʃɪp] *n* safdagi kema.

battle-ried [ˈbætltraɪd] *a* jang tajribasiga ega boʻlgan.

battle-wagon [ˈbætl,wægən] *n amer. deng. soʻzl.* safdagi kema (*linkor*).

battue [bæˈtuː] *fr. n* oʻrab (qurshab) olish (*ovda*).

batty [ˈbæti] *a soʻzl.* aqldan ozgan, jinni, telba.

bauble [ˈbɔːbl] *n* oʻyinchoq.

baubling [ˈbɔːblɪŋ] *a* arzimas.

baulk [bɔːk] *v* 1) sarkashlik (terslik) qilmoq (*ot haqida*); 2) oʻjarlik (qaysarlik) qilmoq; bosh tortmoq, boʻyin tovlamoq.

bauxite [ˈbɔːksaɪt] *n min.* boksit, aluminiy rudasi.

bawd [bɔːd] *n ogʻz.* 1) qoʻshmachu ayol; 2) fohisha.

bawdry [ˈbɔːdri] *n soʻkinish*; haqorat.

bawdy [bɔːdi] *1. n soʻkinish*; 2. *a* yaramas, axloqsiz.

bawdy-house [ˈbɔːdihaus] *n* fohishaxona.

bawl [bɔːl] **1.** *n* qichqiriq, baqiriq; **2.** *v* qichqirmoq, baqirmoq.

bay [beɪ] **1.** *n* 1) qoʻltiq, koʻrfaz; 2) akillash; 3) toʻriq ot; 4) toʻgʻon; 5) dafna (*daraxti*); **2.** *a* toʻriq; **3.** *v* toʻsib oʻtmoq.

bayonet [ˈbeɪənɪt] **1.** *n* miltiq nayzasi; **2.** nayza tiqmoq.

bay-salt [ˌbeɪˈsɔːlt] *n* dengiz yoki koʻl choʻkindi tuzi.

bay window [ˌbeɪˈwɪndəʊ] *n meʼmor.* tomdagi oynaband (*oynali tuynuk*; *deraza va b.*).

baz(a)ar [bæˈzɑː] *n* bozor (*sharqda*).

bazooka [bɔːˈzuːkə] *n amer. harb.* tankka qarshi qoʻllanadigan «Bazuka» reaktiv granatamyoti.

be [biː] *v* (**was, pl were; been**) boʻlmoq, bor boʻlmoq; ~ **about** to a) hozirlanmoq **my father is about to go** otam ketmoqchi; b) nima bilandir band boʻlmoq; d) oyoqqa turmoq; ~ **at** rejalashtirmoq; ~ **away** ishtirok etmaslik; ~ **back** qaytmoq; ~ **for** a) (*kimningdir yoki nimaningdir*) tarafdori boʻlmoq; b) ...ga joʻnamoq; ~ **in** kelmoq (*poyezd va b.*); ~ **off** ketmoq; ~ **on** boʻlib oʻtmoq; ~ **out** uйда boʻlmaslik; ~ **up** a) tugamoq; b) turmoq.

beach [biːtʃ] **1.** *n* dengiz boʻyi; plyaj; **2.** *v* qirgʻoqqa tortib chiqmoq.

beach-comber [ˈbiːtʃ,kəʊmə] *n* qirgʻoqqa uriluvchi okean toʻlqini.

beach-head [ˈbiːtʃhed] *n harb.* sohildagi platsdarm (*desant tushirishda*).

beach-master [ˈbiːtʃ,mɑːstə] *n harb.* dengiz desantini tushirish joyi komendanti.

beacon [ˈbiːkən] *n* mashʼal.

bead [biːd] **1.** *n* munchoq, marjon; **2.** *v* marjon bilan bezatmoq.

beaded [ˈbiːdɪd] *a* marjon bilan bezatilgan.

beadledom [ˈbiːdlɪdəm] *n* rasmiyatchilik.

bead-roll [ˈbiːdrəʊl] *n* roʻyxat, kelib chiqish, naslnasab.

beady [ˈbiːdi] *a* munchoqqa oʻxshash.

beagle [ˈbiːgl] **1.** *n* tozi (*it*); **2.** *v* tozi it bilan ov qilmoq.

beak [biːk] *n* tumshuq (*qushlarda va baʼzi hayvonlarda*).

beaked [biːkt] *a* tumshuqli.

beaker [ˈbiːkə] *n* menzurka (*oʻlchovli shisha idish*); laboratoriya stakani.

beam [biːm] **1.** *n* nur; **2.** *v* nur sochmoq.

bean [biːn] *n* loviya.

bean-feast [ˈbiːnfiːst] *n* korxonaga egasi yilda bir marta oʻz xizmatchilari uchun uyushtiradigan anʼanaviy tushlik.

bean-pod [ˈbiːnpɒd] *n* loviya dukkagi.

bear [beə] **1.** *n* 1) ayiq; 2) qoʻpol, tarbiyasiz odam; **2.** *v* (**bore; borne**) 1) olib bormoq, 2) (**born**) tugʻmoq; 3) chidamoq; ~ **away** yutib chiqmoq (*sovrin va b*); ~ **down** yengib chiqmoq; ~ **off** chetlashmoq; ~ **on** tegishli boʻlmoq; ~ **out** qoʻllab-quvvatlamoq.

bearable [ˈbeərəbl] *a* chidasa boʻladigan.

bear-baiting [ˈbeə,bertɪŋ] *n* tozi solib ayiq ovlash.

beard [brəd] *n* soqol.

bearded [ˈbrɪədɪd] *a* soqolli, sersoqol.

beardless [ˈbrɪdləs] *a* soqolsiz, koʻsa.

bearer [ˈbeərə] *n* yuklarni tashuvchi.

beargarden [ˈbeə,gɑːdn] *n ogʻz.* ayiq ovlanadigan joy, ayiqxonaga.

bearing [ˈbeərɪŋ] **1.** *n* 1) olib yurmoq; 2) tugʻish; 3) toqat qilish; **2.** *a* 1) olib yuradigan; 2) tugʻadigan.

bearish [ˈbeərɪʃ] *a* 1) ayiqqa oid; 2) tarbiya koʻrmagan, qoʻpol.

bearskin [ˈbeəskɪn] *n* ayiq terisi.

beast [biːst] *n* hayvon, mol; ~ **of burden** yuk hayvoni (*ot, eshak, xachir*); ~ **of prey** yirtqich hayvon.

beastliness [ˈbiːstlɪnəs] *n* yaramas ish (*xatti-harakat*), razolat.

beastly [ˈbiːstli] *a* hayvonlarga xos boʻlgan, hayvoniy.

beat [biːt] *v* (**beat, beaten**) 1) urmoq, qoqqmoq, savalamoq, kaltaklamoq, zarba bermoq; 2) urib qaytarmoq, qarshi zarba bermoq; 3) koʻpirtirmoq (*xamirni, tuxumni*); 4) urib toblamoq, bogʻlamoq (*metalni*); 5) qoqib chiqarmoq, urib chiqarmoq (*gilam va b.lardan changni*); 6) yengmoq, zoʻr (*kuchli*) chiqmoq; 7) oʻtib ketmoq, gʻolib (*zoʻr*) chiqmoq; 8) *amer.* muttahamlik qilmoq, firib bermoq (*qonunga va b.larga*); **that ~ s me!** tushuna olmadim, anglay olmadim; **to ~ back (off)** qaytarmoq (*zarbani, hujumni*).

beaten [ˈbiːtn] *a* 1) urilgan; 2) magʻlubiyatga uchragan.

beater [ˈbiːtə] *n* uradigan (*kaltaklaydigan*) odam.

beatific(al) [ˌbiːtɪfɪk(əl)] *a* gʻoyat baxtli, shod-xurram.

beatify [biˈætɪfaɪ] *v* baxtli qilmoq.

beating [ˈbiːtɪŋ] *n* urmoq, tushirmoq, tepmoq, qoqqmoq.

beatitude [brˈætɪtjuːd] *n* baxt-saodat, rohat-farogʻat.

beau [bəu] *n fr.* 1) olifta; 2) kavaler, oshiq.
beauteous [ˈbju:təs] *a* goʻzal, juda chiroyli, juda yaxshi.
beautician [bju:ˈtʃɪn] *n* kosmetolog.
beautiful [ˈbju:təfl] *a* chiroyli, koʻrkli, zebo, barno, goʻzal.
beautify [ˈbju:tɪfaɪ] *v* bezamoq, bezatmoq, yasatmoq.
beauty [ˈbju:tɪ] *n* goʻzallik, chiroylilik, barnolik.
beauty parlour [ˈbju:tɪ,pa:lə] *n* kosmetika kabineti.
beauty-sleep [ˈbju:tɪslɪ:p] *n* kunduzgi uyqu.
beaver [ˈbi:və] *n* 1) suv qunduzi; 2) *tar.* dubulgʻa pardasi.
becalm [bɪˈkɑ:m] *v* tinchitmoq, yupatmoq.
became [bɪˈkeɪm] *past.* **become** *dan.*
because [bɪˈkɔ:z] **1.** *conj.* chunki; **2.** *n prep.* ~ of tufayli, sababli; ~ of him u tufayli; ~ of the weather ob-havo tufayli.
bechamel [ˌbeɪʃəˈmel] *n* beshamel (*tuxum va sutga un qorib tayyorlanadigan qayla*).
beck [bek] **1.** *n* imo-ishora; **2.** *v* imo-ishora qilmoq.
beckon [ˈbekən] *v* imo-ishora qilmoq.
becloud [bɪˈklaʊd] *v* qorongʻilashmoq.
become [bɪˈkɑ:m] *v* (**became; become**) **1)** boʻlmoq, boʻlib qolmoq; **2)** yarashmoq (*kiyim haqida*).
becoming [bɪˈkɑ:mɪŋ] *a* 1) munosib (*loyiq*) boʻlmoq, lozim (*tegishli*) boʻlmoq; **2.** *n filos.* shakllanish, tashkil topish, vujudga kelish.
bed [bed] **1.** *n* karavot; koʻrpa-toʻshak, koʻrpa-yostiq, yotar joy, oʻrin; **to go to** ~ uxlagani yotmoq; **2.** *v* joy solmoq, yotqizmoq.
bedabble [bɪˈdæbl] *v* hoʻllamoq, namlamoq, ivitmoq, suv purkamoq.
bedaub [bɪˈdɔ:b] *v* bulgʻamoq, bulgʻab qoʻymoq; ustidan boʻyamoq.
bedazzle [bɪˈdæzl] *v* yaltirab koʻzni olmoq.
bed-bug [ˈbedbʌg] *n* taxtakana, qandala.
bed-clothes [ˈbedkləʊðz] *n pl* choyshab, yostiq jildi va sh. k.
bedding [ˈbedɪŋ] *n* koʻrpa-yostiq (*yotoq buyumlari*).
bedeck [bɪˈdek] *v* bezamoq, bezatmoq, yasatmoq.
bedevil [bɪˈdevl] *v* 1) azoblamoq, qiynamoq; 2) tilka-pora qilmoq.
bedew [bɪˈdju:] *v* maydalab sepmoq, shakarob qilib sepmoq.
bedfast [ˈbedfɑ:st] *n amer.* oʻrnidan qimirlamay qolish (*kasallikdan*).
bedfellow [ˈbed,feləu] *n* 1) er, xotin; yostiqdosh; biror oʻrinda yotib-turib yuradigan kishi (*kim bilandir*).
bedgown [ˈbedgaʊn] *n* ayollar tungi koʻylagi.
bedim [bɪˈdɪm] *v* qorongʻi qilmoq, panalamoq, tuman qoplamoq, xiralashtirmoq.
bedizen [bɪˈdaɪzn] *v* chiroyli qilib yasantirmoq, kiyintirmoq.

bedlam [ˈbedləm] *n* jinnixonona.
bedlamite [ˈbedləmaɪt] **1.** *n* jinnixonada saqlanayotgan kishi, jinni; **2.** *a* jinni, aqldan ozgan.
bedouin [ˈbeduɪn] *n* koʻchmanchi loʻli.
bedpan [ˈbedpæn] *n* tuvak (*ogʻir kasallarga tutiladigan tuvak*).
bedpost [ˈbedpəʊst] *n* karavot ustunchasi.
bedraggle [bɪˈdrægl] *v* kir qilmoq, bulgʻamoq.
bedrid(den) [ˈbed,rɪd(n)] *a* 1) kasallikdan oʻrnidan turolmaydigan boʻlib qolgan; **2)** kuchsiz.
bed-rock [ˈbedrɒk] *n* asosiy prinsiplar.
bedroom [ˈbedru:m] *n* yotoqxona, uxlash xonasi.
bed-side table [ˈbedsaɪd,teɪbl] *n* karavot oldidagi tumbochka.
bed-sitting-room [ˌbedˈsɪtɪŋru:m] *n* yashaydigan xona (*yotoqxona va mehmonxona*).
bedsore [ˈbedsɔ:] *n* yotaverishdan uyushib jonsiz boʻlib qolgan joy.
bed-spread [ˈbedspred] *n* oʻringa yopiladigan choyshab.
bedstead [ˈbedsted] *n* karavot (*toʻshaksiz*).
bedtime [ˈbedtaɪm] *n* yotish (uxlash) vaqti.
bee [bi:] **1)** asalari; **2)** mehnatsevar odam.
beech [bi:tʃ] **1.** *n* qoraqayin (buk) daraxti; **2.** *a* qoraqayinga (bukka) oid.
beef [bi:f] **1.** *n* (*pl* **beeves**, *amer.* ~s [-s]) mol goʻshti; **horse** ~ ot goʻshti; **2.** *v* shikoyat qilmoq.
beefsteak [ˈbi:fsteɪk] *n* bifshteks.
beef tea [ˌbi:fˈti:] *n* quyuq qaynatma shoʻrva.
beef-witted [ˌbɪfˈwɪtɪd] *n* anqov; miyasi yoʻq, esi past.
beefy [ˈbi:fɪ] *a* 1) goʻshti koʻp, suyagi yoʻq, sergoʻsht; 2) baquvvat, kuchli.
bee-garden [bi:ˈgɑ:dn] *n* asalari qutilari qoʻyilgan joy; asalari xoʻjaligi.
beehive [ˈbi:haɪv] *n* asalari qutisi, arixona.
bee-keeper [ˈbi:ki:pə] *n* asalarichi, asalari boquvchi, asalarichilik mutaxassisi.
bee-line [ˈbi:lɪn] *n* toʻgʻri chiziq (*havoga oid*).
Beelzebub [bɪˈelzɪbʌb] *n* shayton, iblis.
bee-master [ˈbi:ˌmɑ:stə] = **bee-keeper**.
been [bi:n] *p. p.* **be dan.**
beep [bi:p] *n* qisqa, qattiq ovoz (*masalan, avtosignal*).
beer [bɪə] *n* pivo.
beerhouse [ˈbɪəhaʊs] *n* pivoxona.
beery [ˈbɪəri] *a* pivoga oid, pivo bilan beriladigan.
beestings [ˈbi:stɪŋz] *n* ogʻizsut, ogʻiz suti.
beeswax [ˈbi:zɹwæks] **1.** *n* mum; **2.** *v* mum surtmoq (*surkamoq*).
beet [bi:t] *n* lavlagi.
beetle [ˈbi:tl] **1.** *n* 1) qoʻngʻiz; 2) *tex.* zichlash, shibbalash; 3) osilib tushgan, engashgan; **2.** *v* 1) zichlamoq, shibbalamoq; 2) osilmoq, osilib tushmoq.
beetle-browed [ˈbi:tlbraʊnd] *a* 1) gʻamgin, xafa, maʼyus; 2) juda oʻsib qayrilib tushgan qoshli.
beetle-head [ˈbi:tlhed] *n* toʻnka.

beetroot [ˈbi:tru:t] *n* qand lavlagi.
bees [bi:vz] *pl* **beef** *dan*.
befall [brˈfɔ:l] *v* (**befell**; **befallen**) yuz bermoq, sodir boʻlmoq.
befallen [brˈfɔ:lən] *v* voqea (sodir) boʻlmoq.
befell [brˈfel] *past*. **befall** *dan*.
befit [brˈfɪt] *v* yarashmoq; munosib boʻlmoq (*kingadir*).
befog [brˈfɔ:g] *v* tuman bosmoq, xiralashmoq, xiralashtirmoq.
befogged [brˈfɔ:gɪd] *a* xiralashgan.
befoo [brˈfu:l] *v* 1) ahmoq qilmoq; 2) aldamoq.
before [brˈfɔ:] *adv* oldin, avval, ilgari, barvaqt; ~ **long** koʻp oʻtmay, tezda.
beforehand [brˈfɔ:hænd] *adv* oldindan, avvaldan, ilgaridan, barvaqt, oldin; **to be** ~ shoshilmoq, shoshqaloqlik qilmoq.
before-mentioned [brˈfɔ:ˈmenʃənd] *a* yuqorida qayd qilib oʻtilgan, yuqorida aytib oʻtilgan, yuqorida koʻrsatilgan.
befoul [bɛˈfaʊl] *v* harom qilmoq, murdor qilmoq, bulgʻamoq.
befriend [brˈfrend] *v* 1) doʻstona munosabatda boʻlmoq; 2) yordam bermoq.
befuddle [brˈfʌdl] *v* miyasini aynitmoq, ongini zaharlamoq.
beg [beg] *v* iltimos qilmoq, yalinmoq; **to** ~ **for money** pul soʻramoq; **to** ~ **for pardon** kechirim soʻramoq; ~ **leave** ruxsat soʻramoq.
begad [brˈgæd] *int. soʻzl.* xudo haqi.
began [brˈgæn] *past* **begin** *dan*.
begot [brˈget] *v* (**begot**; **begotten**) 1) tugʻilishiga sabab boʻlmoq; 2) ishlab chiqarmoq.
begotter [brˈgetə] *n* ota, dada, padar; dunyoga kelishga sababchi.
beggar [ˈbegə] **1.** *n* gadoy, tilanchi; **2.** *v* xonavayron qilmoq, xarob qilmoq.
beggarly [ˈbegəli] **1.** *a* qashshoq; **2.** *adv* gadoylarcha.
beggary [ˈbegəri] *n* qashshoqlik, kambagʻallik.
begging [ˈbegɪŋ] **1.** *pres. p.* **beg** *dan*; **2.** *n* gadoy-chilik, gadoylik; **3.** *a* qashshoqlikda yashayotgan.
begin [brˈɡɪn] *v* (**began**; **begun**) boshlab bermoq, kirishmoq (*biror narsaga*); boshlamoq, boshlanmoq; **to** ~ **with** avvaldan, oldindan, birinchidan.
beginner [brˈɡɪnə] *n* 1) boshlovchi; 2) yangi kelgan kishi.
beginning [brˈɡɪnɪŋ] **1.** *pres. p.* **begin** *dan*; **2.** *n* boshi, boshlanishi, boshlanish joyi.
begird [brˈɡe:d] *v* oʻrab olmoq.
begone [brˈɡɒn] *int. yoʻqol!* qorangni koʻrsatma!
begot [brˈɡɒt] *past*. **beget** *dan*.
begotten [brˈɡɒtn] *p. p.* **beget** *dan*.
begrime [brˈɡrɪm] *v* bulgʻamoq, kir (iflos) qilmoq.
begrudge [brˈɡrʌdʒ] *v* havas qilmoq.
beguile [brˈɡaɪl] *v* aldamoq.

begum [ˈbeɪgəm] *n* begim, beguma (*Hindiston zodagon ayoli*).
begun [brˈɡʌn] *p. p.* **begin** *dan*.
behalf [brˈhɑ:f] *n* 1) **in** ~ **of** uchun, deb, foydasiga, himoyasiga; 2) **on** ~ **(of)** (*kimningdir*) nomidan; **on** ~ **of his people** oʻz xalqi nomidan.
behave [brˈheɪv] *v* 1) oʻzini tutmoq; ~ **yourself!** oʻzingizni yaxshi tuting! 2) ishlamoq (*mashina haqida*) **his new car** ~ **ed well** uning yangi mashinasi yaxshi ishladi.
behaviour [brˈheɪvɪə] *n* axloq, xulq, xatti-harakat.
behead [brˈhed] *v* boshini uzmoq; kallasini olib (kesib) tashlamoq; boshini tanidan judo qilmoq.
behemoth [brˈhi:məθ] *n* *bibl.* begemot (*afsonaviy maxluq*).
behest [brˈhest] *n* buyruq, farmoyish.
behind [brˈhaɪnd] **1.** *adv* orqadan, orqasida; **2.** *prep.* orqa tomonida; **3.** *n* soʻzl. orqa.
behold [brˈhəʊld] *v* koʻrmoq, bilmoq, anglamoq.
beholden [brˈhəʊldən] *a* minnatdor, qarzdor; **to be** ~ **to someone for his kindness** qilgan yaxshiligi uchun birovdan minnatdor boʻlmoq.
beholder [brˈhəʊldə] *n* guvoh, tomoshabin, kuzatuvchi.
behoof [brˈhu:f] *n* foyda, naf, manfaat.
behoove [brˈhu:v] = **behave**.
behove [brˈhəʊv] *v* lozim (kerak) boʻlmoq.
beige [beɪʒ] *n* sargʻish (*och jigarrang*).
being [ˈbi:ɪŋ] **1.** *n* mavjud boʻlish; **2.** *a* mavjud boʻlgan.
belabour [brˈleɪbə] *v* soʻzl. urmoq; yanchimoq.
belated [brˈleɪtɪd] *a* kechikkan, kechki.
belaud [brˈleɪ:d] *v* maqtab koʻklarga koʻtarmoq.
belay [brˈleɪ] *v* (**belayed** [-d]) *int. soʻzl.* toʻxta! toʻxtating! yetar!
belch [beltʃ] **1.** *n* 1) kekirik, kekirish; 2) ustun (*burqirab yoki buralib tik koʻtarilayotgan olov yoki tutun*); **2.** *v* 1) kekirmoq; 2) haqorat qilmoq.
belcher [ˈbelʃə] *n* guldor (ola-bula) roʻmolcha yoki sharf.
beldam(e) [ˈbeldəm] *n* jodugar, yalmogʻiz.
beleaguer [brˈli:ɡə] *v* oʻrab (qurshab) olmoq.
belfry [ˈbelfri] *n* qoʻngʻiroqxona, minora.
Belgian [ˈbeldʒən] **1.** *a* Belgiyaga oid; **2.** *n* belgiyalik kishi (ayol).
Belial [ˈbi:lɪəl] *n* iblis, shayton.
belie [brˈleɪ] *n* yolgʻon gapirib birovn qoralamoq; tuhmat qilmoq.
belief [brˈli:f] *n* ishonch, ishonish.
believable [brˈli:vəbl] *a* ehtimol, haqiqatga oʻxshash.
believe [brˈli:v] *v* ishonmoq; **I don't** ~ **you** men senga ishonmayman.
believer [brˈli:və] *n* ishonuvchi, eʼtiqod qiluvchi.
belike [brˈleɪk] *adv* esk. ehtimol, balki.
belittle [brˈlɪtl] *v* kamsitmoq, yerga urmoq.
bell I [bel] *n* qoʻngʻiroq; qoʻngʻiroqcha; zang.

- bell II** [bel] **1.** *n* baqiriq, qichqiriq, hayqiriq; **2.** *v* baqirmoq, ma'ramoq.
- bell-bottomed** ['bel,bɒtəmd] *a* ostki qismi kengaytirilgan kiyim, shim.
- bell-boy** ['belbɔɪ] *n* mehmonxonada bir necha xonaga qarovchi xodim, xat-xabar eltuvchi (*mehmonxonada*).
- belle** [bel] *n* go'zal, nozanin, sohibjamol.
- belles-lettres** [bel'letrə] *n fr. pl* badiiy adabiyot.
- bell-flower** ['bel,flaʊə] *n bot.* qo'ng'iroqgul.
- bell-glass** ['belglɑ:s] *n* shishadan yasalgan qopqoq.
- bellicose** ['belikəʊs] *a* 1) jangovar; tajovuzkor; 2) urushqoq.
- bellicosity** [belɪ'kɒsəti] *n* 1) jangovarlik; 2) urushqoqlik.
- belligerency** [brɪ'lidʒərənsɪ] *n* urush holati.
- belligerent** [brɪ'lidʒrənt] **1.** *n* urushayotgan tomon; **2.** *a* urush holatida turgan.
- bellow** ['beləʊ] **1.** *n* ma'rash (*hayvonlar to'g'risida*); **2.** *v* ma'ramoq.
- bellows** ['beləʊz] *n pl* temirchining bosqoni.
- bell-push** ['belpuʃ] *n* qo'ng'iroq tugmasi.
- bell-ringer** ['bel,rɪŋə] *n* qo'ng'iroq chaluvchi.
- bell-tent** ['beltent] *n* dumaloq (aylana) chodir.
- bell-wether** ['belwedeð] *n* qo'ng'iroqli yetakchi (*yo'l ko'rsatuvchi*) qo'y.
- belly** ['belɪ] **1.** *n* qorin; **2.** *v* shishmoq.
- belly-ache** ['belreɪk] *n so'zl.* qorindagi og'riq.
- belly-band** ['belɪbænd] *n* 1) qorinbog', ayil; 2) qullob (*tananing kasal bo'lgan joyini tortib bog'lab qo'yadigan belbog'*).
- belly-button** ['belɪ,bʌtn] *n so'zl.* kindik.
- bellyful** ['belɪfʊl] *n so'zl.* to'qlik.
- belly-pinched** ['belɪpɪntʃt] *a* qorni ochgan.
- belong** [brɪ'lɒŋ] *v* birovga qarashli bo'lmoq.
- belonging** [brɪ'lɒŋɪŋ] *n* buyum.
- belongings** [brɪ'lɒŋɪŋz] *n pl* tegishli buyumlar (*narsalar*), bisot.
- beloved** [brɪ'lʌvd] **1.** *n* birovni dildan sevgan kishi; **2.** *a* oshiq bo'lib qolgan.
- below** [brɪ'ləʊ] *adv* quyida, pastda; **to go** ~ pastga tushmoq; ~ **the mark** past, sifati past.
- belt** [belt] **1.** *n* kamar, belbog'; **2.** *v* belbog' bilan bog'lamoq; 3) tor bo'g'oz.
- belted** ['beltɪd] *a* belbog' bilan bog'langan.
- belting** ['beltɪŋ] *n tex.* tasmali uzatuvchi.
- belt-line** ['beltlaɪn] *n amer.* tramvay, metro va b.ning aylanma yo'li.
- belt-saw** ['beltsɔ:] *n* lenta (tasma) arra.
- bemoan** [brɪ'məʊn] *v* aza tutib yig'lamoq; ko'z yoshi to'kmoq.
- bemuse** [brɪ'mju:z] *v* hayratga solmoq.
- bench** [bentʃ] *n* skameyka; xarak.
- bench-mark** ['bentʃmɑ:k] *n* balandlik belgisi.
- bench-show** ['bentʃʃəʊ] *n* hayvonlar ko'rgazmasi (*masalan, iltar*).
- bench-vice** ['bentʃvaɪs] *n tex.* dastgoh qirrasi.
- bench-warrant** ['bentʃ,wɔ:rənt] *n yur.* sud hukmi.
- bend** [bend] *v* (**bent**; **hent**) egmoq, bukmoq.
- bended** ['bendɪd] *a* egilgan, bukilgan.
- bender** ['bendə] *n* qisqich.
- beneath** [brɪ'ni:θ] **1.** *adv* pastda, tagda, ostda; **2.** *prep.* ostida, pastida.
- benedick** ['benɪdɪk] = **benedict**.
- benedict** ['benɪdɪkt] *n* yangi uylangan.
- benediction** [ˌbenɪ'dɪkʃn] *n* oq fotiha.
- benedictory** [ˌbenɪ'dɪktɔrɪ] *a* oq fotiha beruvchi.
- benefaction** [ˌbenɪ'fæktʃn] *n* muruvvat, yaxshilik.
- benefactor** ['benɪfæktə] *n* muruvvat ko'rsatuvchi.
- benefactress** ['benɪfæktɹəs] *n* muruvvat ko'rsatuvchi (*ayol*).
- benefication** [ˌbenɪfɪ'keɪʃən] *n tog'*. rudani boyitish.
- benefice** ['benɪfɪs] *n* ruhoniy unvoni; prixod (*biror cherkovning qavmlari*).
- beneficence** [brɪ'nefɪsəns] *n* 1) muhtojlarga yordam berish; 2) ehson.
- beneficent** [brɪ'nefɪsənt] *a* muruvvatli, marhamatli.
- beneficial** [ˌbenɪ'fɪʃl] *a* 1) marhamatli; 2) foydali.
- benefit** ['benɪfɪt] **1.** *n* 1) foyda, naf; 2) nafaqa, yordam; **sick** ~ kasallik nafaqasi; **2.** *v* 1) yordam bermoq; 2) foyda keltirmoq.
- benefit-society** ['benɪfɪtsə,səɪəti] *n* o'zaro yordam jamiyati.
- benevolence** [bə'nevələns] *n* xayrixohlik.
- benevolent** [bə'nevələnt] *a* boshqalarga yaxshilik istovchi.
- Bengal** [ˌbenʃ'gɔ:l] *a* bengal va bengalliklarga oid.
- Bengali** [ˌbenʃ'gɔ:lɪ] **1.** *n* bengallik kishi (*ayol*); **2.** *a* bengal va bengaliyaliklarga oid.
- benighted** [brɪ'naɪtɪd] *a* kechga qolgan, kechikkan.
- benign** [bə'nəɪn] *a* yaxshi, rahmdil.
- benignity** [bə'nɪŋnəti] *n* yaxshilik, ezgulik.
- Benjamin** ['bendʒəməɪn] *n ko'chma.* kenja o'g'il, suyuqlik bola.
- bent** [bent] **1.** *n* mayl, havas; **2.** *a* egilgan, bukilgan.
- Benthamism** ['benθəmɪzəm] *n* Bentam ta'limoti, utilitarizm.
- benthos** ['benθɒs] *n* bentos (*dengiz osti jonivorlari va o'simliklari*).
- benumb** [brɪ'nʌm] *v* sustlashtirmoq (*hissiyotni*).
- benzene** ['benzi:n] *n* benzol.
- benzine** ['benzi:n] **1.** *n* benzin; **2.** *v* benzin bilan tozalamoq.
- benzol(e)** ['benzɔl(-əʊl)] *n* benzol (*kimyo sanoatida ishlatiladigan yonuvchi suyuqlik*).
- bequeath** [brɪ'kwɪ:ð] *v* vasiyat qilib qoldirmoq.
- bequest** [brɪ'kwɛst] *n* meros, meros qolgan mulk.
- berate** [brɪ'reɪt] *v* so'karmoq, qarg'amoq.
- Berber** ['bɛ:bə] **1.** *n* barbar, barbarlar; **2.** *a* barbarlarga oid, barbarlar.
- bereave** [brɪ'ri:v] *v yur.* judo qilmoq, tortib olmoq.

bereaved [bɪˈri:vɪd] *a* yaqin kishisi (o'lgan) vafot etgan.

bereavement [bɪˈri:vmənt] *n* og'ir yo'qotish.

beret [bɪˈreɪt] *past., p. p. bereave dan.*

beret [ˈberɪt] *n* beret (*jiyaksiz yumshoq yalpoq bosh kiyim*).

berg [bɜːg] *n* aysberg, suzib yuruvchi muz tog'.

berhyme [bɪˈraɪm] *v* she'r yozmoq.

beriberi [ˌberɪˈberɪ] *n* beri-beri (*B vitamini yetishmasligi natijasidagi kasallik, avitaminoz*).

berry [ˈberɪ] **1.** *n* reza meva (*qulupnay, maymunjon kabi buta va o't-alafklar mevasi*).

berserker [bɜːsɜːkə] *a* quturgan, achchig'i tez.

berth [bɜːθ] **1.** *n* yotish uchun joy (*tem. yo'l va gonlarida, samolyotda*); **2.** *v* 1) uxlash uchun joy bermoq; 2) taxta yotqizmoq yoki taxta bilan qoplamoq.

bertha [ˈbɜːθə] *n* to'r yoqa.

beryl [ˈberəl] *n* min. berill (*mineral, uning ba'zi shaffof turlari, masalan, akvamarin, zumrad qimmatbaho toshlardir*).

beryllium [beˈrɪljəm] *n* kim. berilliy.

beseech [bɪˈsi:tʃ] (**besought**) *v* iltimos qilmoq, yalinmoq.

beseeching [bɪˈsi:tʃɪŋ] *a* yalinayotgan (*qarash, ohang haqida*).

beseem [bɪˈsi:m] *v* munosib bo'lmoq, yarashmoq.

beset [bɪˈset] *v* o'rab (qurshab) olmoq.

beside [bɪˈsaɪd] *prep.* yonida; oldida, yaqinida.

besides [bɪˈsaɪdz] **1.** *adv* undan tashqari; **2.** *prep.* tashqari, -dan bo'lak.

besiege [bɪˈsi:dʒ] *v* ko'mib tashlamoq (*savolga*).

beslaver [bɪˈslævə] *v* so'lakayini (so'lagini) oqizib iflos qilmoq.

besmear [bɪˈsmiə] *v* bulg'amoq.

besmirch [bɪˈsmɜːtʃ] *v* 1) dog' tushirmoq; 2) bulg'amoq.

besom [ˈbiːzəm] **1.** *n* supurgi; **2.** *v* supurmoq.

besot [bɪˈsɒt] *v* mast qilmoq.

besotted [bɪˈsɒtɪd] gangigan (*spirtli ichimlik va b. dan*).

besought [bɪˈsɔ:t] *past., p. p. beseech dan.*

bespangle [bɪˈspæŋɡl] *v* tangachalar bilan qoplamoq, bezamoq.

bespatter [bɪˈspætə] *v* loy sachratmoq.

bespeak [bɪˈspi:k] *v* (**bespoke; bespoke, bespoken**) oldindan buyurtma bermoq.

bespectacled [bɪˈspektəklɪd] *a* ko'zoynak taqib yuradigan; ko'zoynakli.

bespoke [bɪˈspəʊk] **1.** *past., p. p. bespeak dan;* **2.** *a* buyurtma asosida qilingan.

bespoken [bɪˈspəʊkən] *p. p. bespeak dan.*

bespread [bɪˈspred] *v* (**bespread**) yoyib qo'y-moq.

besprinkle [bɪˈsprɪŋkl] *v* purkamoq, sepmoq.

best [best] **1.** *a* (**good ning orttirma darajasi**) eng yaxshi; **2.** *adv* (**well ning orttirma darajasi**) eng yaxshi; juda yaxshi.

bestead [bɪˈsted] *v* *kit.* (**besteaded** [-ɪd]; **bested, bestead**) yordam bermoq; foydasi tegmoq.

best girl [ˌbestˈgɜ:l] *n* so'zl. ma'shuqa; kelin.

bestial [ˈbestɪəl] **1.** *a* 1) qoramol (hayvonga) oid; 2) qo'pol.

bestiality [ˌbestɪˈælətɪ] *n* hayvoniylik, uyatsizlik.

bestir [bɪˈstɜː] *v* 1) qo'zg'atmoq, harakatga solmoq; 2) g'ayrat bilan kirishmoq, harakat qilmoq.

best man [ˌbestˈmæn] *n* kuyov jo'ra.

bestow [bɪˈstəʊ] *v* bermoq, topshirmoq, in'om qilmoq.

bestowal [bɪˈstəʊəl] *n* sovg'a, hadya.

bestrew [bɪˈstru:] *v* (**bestrewed** [-ɪd]; **bestrewed, bestrewn**) hamma yoqqa sochib tashlamoq.

bestridden [bɪˈstrɪdn] *p. p. bestride dan.*

bestride [bɪˈstraɪd] *v* (**bestrode; bestridden**) 1) minib o'tirmoq, minmoq; 2) himoya qilmoq.

bestrode [bɪˈstrəʊd] *past. bestride dan.*

best seller [ˌbestˈselə] *n* tez sotiladigan kitob.

bet [bet] **1.** *n* garov; **2.** *v* (**bet, betted** [-ɪd]) garov bog'lash.

betake [bɪˈteɪk] *v* (**betook; betaken**); (**to**) jo'namoq (*qayergadir*).

betaken [bɪˈteɪkən] *p. p. betake dan.*

beta-particle [ˈbiːtəˌpɑːtɪkl] *n* fiz. beta zarralar.

beta rays [ˈbiːtəreɪz] *n* pl fiz. beta nurlar.

betatron [ˈbiːtətrɒn] *n* fiz. betatron (*elektronlar tezlatgichi*).

bethel [ˈbeθl] *n* sektantlar cherkovi (*Angliyada*).

bethink [bɪˈθɪŋk] *v* (**bethought**) eslamoq, esga olmoq.

betide [bɪˈtɑɪd] *v* (**betid**) sodir bo'lmoq.

betimes [bɪˈtaɪmz] *adv* 1) o'z vaqtida; 2) tez.

betoken [bɪˈtəʊkən] *v* anglatmoq.

betook [bɪˈtʊk] *past. betake dan.*

betray [bɪˈtreɪ] *v* xiyonat qilmoq.

betrayal [bɪˈtreɪəl] *n* xoinlik, sotqinchilik.

betrayer [bɪˈtreɪə] *n* sotqin, xoin.

broth [brɒθ] *v* nikohlamoq, nikohdan o'tkazmoq.

brothal [brɒθəl] *n* unashtirish.

brothed [brɒθəd] *a* unashtirilgan.

better [ˈbetə] **1.** *a* (**good ning qiyosiy darajasi**) yaxshiroq; **now he is ~** hozir u o'zini yaxshi his qilyapti; **2.** *adv* (**well ning qiyosiy darajasi**) yaxshiroq; **now he speaks English ~ than he did last year** u hozir ingliz tilida bulturgiga nisbatan yaxshiroq gapiradi.

betterment [ˈbetəmənt] *n* yaxshilanish, tuzalish.

betting [ˈbetɪŋ] *n* garov o'ynash.

between [biˈtwi:n] *adv* *prep.* orasida (*o'rtasida*).

bevel [ˈbevl] **1.** *n* tex. qiyshqlik; **2.** *a* qiyshiq; **3.** *v* qiyshaytirmoq.

bevel-gear [ˈbevəlɡɜː] *n* konus shaklidagi tishli g'ildirak.

bevel pinion [ˈbevəlˌpɪnjən] *n* konus shaklidagi tishli (yetakchi) g'ildirak.

- beverage** [ˈbevərɪdʒ] *n* ichimlik.
- bevy** [ˈbevi] *n* 1) (qushlar) galasi; 2) (bug‘u) to‘dasi.
- bewail** [brˈweɪl] *v* ko‘z yoshni to‘kmoq; motam tutmoq.
- beware** [brˈweə] *v* ehtiyot bo‘lmoq.
- bewilder** [brˈwɪldə] *v* xijolat tortmoq (qilmoq).
- bewildered** [brˈwɪldəd] *a* xijolatda qolgan, xijolat tortgan, uyalib qolgan, xijolatdagi; xijil, xijolat.
- bewilderment** [ˈbrˈwɪldəmənt] *n* xijolat tortish.
- bewitch** [brˈwɪtʃ] *v* 1) sehlamoq; 2) maftun etmoq.
- bewitching** [brˈwɪtʃɪŋ] *a* dilbar, jozibali.
- bewitchment** [brˈwɪtʃmənt] *n* 1) sehrgarlik, jodugarlik; 2) afsun, sehr, jodu; 3) dilbarlik, jozibadorlik.
- bewray** [brˈreɪ] *v* g‘ayriixtiyoriy oshkor qilmoq.
- beyond** [brˈjɒnd] **1.** *adv* uzoqda; **2.** *prep.* orqasida; u tomonida.
- bi-** [bar-] *pref.* ikkitali; ~ **cameral** ikki palatali, ikki palatadan iborat bo‘lgan.
- bias** [ˈbiəs] **1.** *n* qiyalik, nishablik; **2.** *v* bukilmoq; **3.** *a* qiyshiq.
- bib** [bɪb] **1.** *n* bolalarning oshxo‘ragi; **2.** *v* so‘zl. aroqxo‘rlik qilmoq.
- bibb** [bɪb] *n* jo‘mrak, qulf, probka, tamba.
- bibber** [ˈbɪbə] *n* ichkilikboz, aroqxo‘r.
- bib-cock** [ˈbɪbkɒk] *n* jo‘mrak, chumak.
- bibelot** [ˈbɪbləʊ] *n* fr. mayda-chuyda bezak.
- Bible** [ˈbaɪbl] *n* bibliya, tavrot (*yahudiy va xristian dinining „muqaddas kitoblar“ yig‘indisi*).
- biblical** [ˈbɪblɪkl] *a* bibliyaga oid.
- bibliographer** [ˌbɪblɪˈɔɡrəf] *n* bibliograf.
- bibliographic(al)** [ˌbɪblɪəˈɡræfɪk(əl)] *a* bibliografik.
- bibliography** [ˌbɪblɪˈɔɡrəfi] *n* bibliografiya.
- bibliolater** [ˌbɪblɪˈɔlətə] *n* kitobsevar.
- bibliomania** [ˌbɪblɪəˈmeɪniə] *n* kitobsevarlik.
- bibliomaniac** [ˌbɪblɪəˈmeɪniæk] *n* kitobsevar.
- bibliophile** [ˈbɪblɪəfɪl] *n* kitobsevar.
- bibliopole** [ˈbɪblɪəpəʊl] *n* sahhof (*eski va nodir kitoblar sotuvchi kishi*).
- bibulous** [ˈbɪbjuləs] *a* namni singdiradigan.
- bicameral** [baɪˈkæmərl] *a* ikki palatali (*parlamentda*).
- bicentenary** [ˌbaɪsənˈti:nəri] **1.** *n* ikki yuz yillik; **2.** *a* ikki yuzga kirgan.
- bicephalous** [baɪˈsefələs] *a* ikki boshli.
- biceps** [ˈbaɪseps] *n* anat. bitseps, ikki boshli mushak.
- bicker** [ˈbɪkə] **1.** *n* o‘zaro aytishib qolish; **2.** *v* bahs-lashmoq.
- biconcave** [baɪˈkɒŋkəv] *a* opt. ikki yoqlama botiq.
- biconvex** [baɪˈkɒnveks] *a* opt. ikki yoqlama qabariq.
- bicycle** [ˈbaɪsɪkl] **1.** *n* velosiped; **2.** *v* velosipedda yurmoq.
- bicyclist** [ˈbaɪsɪklɪst] *n* velosipedchi.
- bid** [bɪd] **1.** *n* narx qo‘yish; **2.** *v* (**bade, bid; bidding, bid**) narx qo‘ymoq.
- biddable** [ˈbɪdəbl] *a* gapga quloq soladigan.
- bidden** [ˈbɪdn] *p. p.* **bid** **2** *dan.*
- bidder** [ˈbɪdə] *n* xaridor.
- bidding** [ˈbɪdɪŋ] *n* narx qo‘yish.
- bide** [baɪd] *v* : **to ~ one’s time** qulay vaziyatni kutmoq (poylamoq).
- biennial** [baɪˈeniəl] **1.** *n* ikki yillik o‘simlik; **2.** *a* ikki yillik.
- bier** [bɪə] *n* tobut; qabr.
- biff** [bɪf] **1.** *n* so‘zl. qattiq zarba; **2.** *v* urmoq.
- bifid** [ˈbɪfɪd] *a* ikkiga bo‘lingan.
- bifurcate** **1.** *a* [ˌbaɪˈfəːkeɪt] ikkiga bo‘lingan; **2.** *v* [ˌbaɪˈfəːkeɪt] ikkiga bo‘lmoq.
- bifurcation** [ˌbaɪˈfəːkeɪʃən] *n* ikkiga bo‘lish.
- big** [bɪɡ] *a* katta, yirik, yaxlit.
- bigamist** [ˈbɪɡəməst] *n* ikki xotinli kishi; ikki erli ayol.
- bigamy** [ˈbɪɡəmə] *n* ikki xotinlilik; ikki erlilik.
- Big Ben** [ˌbɪɡˈben] *n* katta (*ingliz parlamenti binosidagi soat*).
- bigg** [bɪɡ] *n* to‘rt qatorli arpa.
- biggin** [ˈbɪɡɪn] *n* bolalar bosh kiyimi.
- bight** [baɪt] *n* deng. o‘ram (*arqon, tros va shu k. o‘rami*).
- bigness** [ˈbɪɡnəs] *n* kattalik.
- bigot** [ˈbɪɡət] *n* ko‘r-ko‘rona ergashuvchi.
- bigoted** [ˈbɪɡətɪd] *a* o‘taketgan, mutaassib, sabrsiz.
- bigotry** [ˈbɪɡətɪ] *n* nimagadir ko‘r-ko‘rona ergashish.
- big time** [ˈbɪɡtaɪm] *n* yutuq, katta muvaffaqiyat.
- bigwig** [ˈbɪɡwɪɡ] *n* katta odam, do‘kay, mansabdor odam.
- bijou** [ˈbiːzuː] *n* qimmatbaho tosh.
- bijouterie** [biˈʒuːtəriː] *n* fr. zargarlik buyumlari.
- bike** [baɪk] *n* velosiped.
- bikini** [brˈkiːni] *n* bikini (*ayollarning cho‘milish kiyimi*).
- bilabial** [baɪˈleɪbɪəl] *a* fon. lablangan.
- bilateral** [baɪˈlætrəl] *a* ikki tomonlama.
- bilberry** [ˈbɪlbəri] *n* bot. chernika (*butasi va mevasi*).
- bile** [baɪl] *n* o‘t, safro.
- bile-duct** [ˈbaɪldʌkt] *n* anat. o‘t yo‘li (*zarda oqib keladigan tomir*).
- lingual** [baɪˈlɪŋwəl] *a* ikki tilli; ikki tilda gapira oladigan.
- bilious** [ˈbɪlɪəs] *a* o‘tga (safroga) oid.
- bilker** [ˈbɪlkə] *n* muttahaq, qallob.
- bill** [bɪl] **1.** *n* 1) tumshuq; 2) hisob raqam, to‘lov-noma; 3) qonun loyihasi; **2.** *v* tumshuqlari bilan o‘pishmoq.
- billboard** [ˈbɪlbɔːd] *n* e‘lonlar taxtasi.
- bill-broker** [ˈbɪlbrəʊkə] *n* birja dalloli.
- billet** [ˈbɪlɪt] *n* yorilgan g‘o‘la.
- billet-doux** [ˌbɪleɪˈduː] *n* fr. ishqiy noma.
- billfold** [ˈbɪlfəʊld] *n* hamyon.
- billhead** [ˈbɪlhed] *n* hisob raqamlar uchun blank.

billiard [ˈbɪljəd] *a* bilyardga oid; ~ **room** bilyard xona.

billiard-ball [ˈbɪljədbɔ:l] *n* bilyard shari.

billiard-marker [ˈbɪljəd,mɑ:kə] *n* markyor (*bilyard o'yinida: hisob olib boruvchi va bilyard-chilarga xizmat ko'rsatuvchi kishi*).

billiards [ˈbɪljədz] *n pl* bilyard; **to play** ~ bilyard o'ynamoq.

billion [ˈbɪljən] *n num. card.* billion (*Angliyada*), milliard (*Amerikada*).

billionaire [ˌbɪljəˈneə] *n amer.* milliarder.

billon [ˈbɪlən] *n* billon, sifati past oltin yoki kumush.

billot [ˈbɪlət] *n* oltin yoki kumush yombi.

billow [ˈbɪləʊ] **1.** *n* baland to'lqin; **2.** *v* to'lqinlanmoq.

billowy [ˈbɪləʊ] *a* baland ko'tarilgan, to'lqinlangan.

bill-poster [ˈbɪl,pəʊstə] *n* afishalarni yopishtiruvchi kishi.

billy [ˈbɪlɪ] *n* tayoq, gavron.

billyboy [ˈbɪlɪbɔɪ] *n deng.* kabotaj (*yelkanli kema*).

billycock [ˈbɪlɪkɔk] *n* kotelok (*bosh kiyim turi*).

billy-goat [ˈbɪlɪgəʊt] *n* taka, serka.

bimестrial [baɪˈmɛstrɪəl] *a* ikki oy davom etadigan.

bi-monthly [ˌbaɪˈmʌnθli] **1.** *a* ikki oyda bir marta chiqadigan; **2.** *adv* ikki oyda bir marta; bir oyda ikki marta; **3.** *n* ikki oyda bir marta chiqadigan jurnal.

bin [bɪn] **1.** *n* ombor; **2.** *v* omborda saqlamoq.

binary [ˈbɪnəri] *a* ikki hissa ortiq, ikkilangan, qo'shqavat, ikki tomonlama.

bind [baɪnd] *v* (**bound; bound**) **1)** biriktirmoq, bog'lamoq, birga tugmoq; **to ~ up** bog'lamoq (*yarani*); **2)** ustiga yuklamoq, vazifa qilib qo'y-moq.

binder [ˈbaɪndə] *n* **1)** muqovalovchi; **2)** yopishtiruvchi moddalar (*yelim, sement va b.*).

bindery [ˈbaɪndəri] *n* muqovalash ustaxonasi.

binding [ˈbaɪndɪŋ] **1.** *n* muqova; **2.** *a* **1)** ulaydigan; **2)** to'qiydigan.

bindweed [ˈbaɪndwi:d] *n bot.* pechak o't.

binge [bɪndʒ] *n* aysh-ishrat; ichkilikbozlik, mayxo'rlik.

bingo [ˈbɪŋgəʊ] *n* bingo (*lotoga o'xshagan o'yin*);

binocular [bɪˈnɔkjulə] *a* ikki ko'zli.

binoculars [bɪˈnɔkjuləz] *n pl* binokl, durbin.

binominal [baɪˈnɔmmɪnəl] **1.** *n mat.* ikkihad; **2.** *a* ikki nomli.

biochemist [ˌbaɪəʊˈkɛmɪst] *n* bioximik.

biochemistry [ˌbaɪəʊˈkɛmɪstrɪ] *n* bioximiya.

biodegradable [ˌbaɪəʊdɪˈɡreɪdəbl] *a* tabiiy eskiradigan, chirydigan.

biographer [baɪˈɔgrəfə] *n* biograf.

biography [baɪˈɔgrəfi] *n* tarjimaiy hol.

biological [ˌbaɪəˈlɔdʒɪkl] *a* biologiyaga oid.

biologist [baɪˈɔlədʒɪst] *n* biologiya mutaxassisi, biolog.

biology [baɪˈɔlədʒɪ] *n* biologiya.

bionomics [ˌbaɪəʊˈnɔmɪks] *n pl* (*sing dek ishlatiladigan*) ekologiya.

bioplasm [ˈbaɪəʊplæzm] *n* bioplazma.

bioplast [ˈbaɪəʊplæst] = **bioplasm**.

bipartisan [ˌbaɪˈpɑ:tɪˈzæn] *a* ikki partiyalik.

bipartite [baɪˈpɑ:tɪt] **1)** ikki tomonlama (*shartnoma va b.*); **2)** ikki qismdan iborat bo'lgan.

biped [ˈbaɪpɛd] **1.** *n* ikki oyoqli (*hayvon*); **2.** *a* ikki oyoqli.

bipedal [ˌbaɪˈpi:d] *a* ikki oyoqli.

biplane [ˈbaɪpleɪn] *n av.* biplan (*ustma-ust qanotli samolyot*).

birch [bɜ:tʃ] **1.** *n bot.* qayin; **2.** *attr.* qayinga oid; **3.** *v* xipchin bilan savalamoq.

birchen [ˈbɜ:tʃən] *a* qayinga oid, qayindan qilingan.

bird [bɜ:d] *n* qush, parranda.

bird-cage [ˈbɜ:dekɪdʒ] *n* qafas (*qushlar uchun*).

bird-call [ˈbɜ:dkɔ:l] *n* qushlarning ovozi.

bird's-eye [ˈbɜ:dzɑɪ] *n bot.* navro'zgul.

bird's-eye view [ˌbɜ:dzɑɪˈvju:] *n* qush uchadigan (*juda*) balandlikdagi ko'rinish.

Biro [ˈbaɪrəʊ] *n* sharikli ruchka.

birth [bɜ:θ] *n* tug'ilish, dunyoga kelish; **to give ~ (to)** tug'moq.

birthday [ˈbɜ:θdaɪ] *n* tug'ilgan kun; ~ **present** tug'ilgan kuniga atab beriladigan sovg'a.

birth-mark [ˈbɜ:θmɑ:k] *n* xol.

birth-place [ˈbɜ:θpleɪs] *n* tug'ilgan joy, vatan.

birth-rate [ˈbɜ:θreɪt] *n max.* tug'ilish (tug'ish) miqdori.

biscuit [ˈbɪskɪt] *n* suxari, quritilgan non, biskvit (*pechenye turi*).

bisect [baɪˈsekt] *v* kesmoq; ikkiga bo'lmoq.

bisection [baɪˈseksjən] *n* ikkiga bo'lish.

bisector [baɪˈsektə] *n mat.* bissektisa.

bisexual [ˌbaɪˈseksjuəl] *a* ikki jinsli.

bishop [ˈbɪʃəp] *n* **1)** *shaxm.* fil; **2)** episkop.

bismuth [ˈbɪzməθ] *n* vismut (*kimyoviy element va undan tayyorlangan dori*).

bissextile [bɪˈseksɪtɪl] *n* kabisa yili; **the ~ day** 29 fevral.

bit [bɪt] *n* kichik bo'lak, burda; **a ~** ozgina.

bitch [bɪtʃ] **1.** *n* urg'ochi; ~ **wolf** urg'ochi bo'ri; **2.** *v so'zl.* shikoyat qilmoq.

bite [baɪt] **1.** *n* tishlash, qopish; chaqish; **2.** *v* (**bit; bit; bitten**) tishlamoq, qopmoq.

biter [ˈbaɪtə] *n* **1)** tishlovchi; **2)** tishlaydigan hayvon.

biting [ˈbaɪtɪŋ] *a* o'tkir, achituvchi.

bitten [ˈbɪtn] *p. p.* **bite** **2 dan.**

bitter [ˈbɪtə] **1.** *a* achchiq, o'tkir; **2.** *adv* achitib; **3.** *n* achchiq ta'm.

bitter earth [ˈbɪtəə:θ] *n kim.* magneziya (*magniy oksidi, yengil kukun modda*).

- bitterish** [ˈbɪtərɪʃ] *a* achchiqroq.
- bitterly** [ˈbɪtəli] *adv* achchiq, achitib, shiddatli.
- bittern** [ˈbɪtn] *n zool.* koʻlbuqa (*qush*).
- bitterness** [ˈbɪtənəs] *n* achchiqroq taʼm.
- bitter salt** [ˈbɪtesoːlt] *n tib.* achchiq tuz.
- bitumen** [ˈbɪtʃumɪn] *n* 1) asfalt; 2) bitum (*uglevodoroddan iborat smolali moddalarning, masalan, neft, gudron, asfalt va sh.k.ning umumiy nomi*)
- bituminous** [brˈtʃuːmɪnəs] *a* bitumga oid.
- bivalent** [ˌbaɪˈveɪlənt] *a* ikki valentli.
- bivalve** [ˈbɑːvælɪv] **1.** *n* ikki tabaqali moluska; **2.** *a* ikki tabaqali, qoʻsh tabaqa.
- bivvy** [ˈbɪvi] *n* 1) lashkargoh; 2) chodir.
- bi-weekly** [ˌbaɪˈwiːkli] **1.** *a* 1) ikki haftada bir marta chiqadigan; 2) bir haftada ikki marta chiqadigan; **2.** *adv* 1) ikki haftada bir marta; 2) bir haftada ikki marta.
- bizarre** [brˈzɑː] *a fr.* ajoyib; antiqa.
- blab** [blæb] **1.** *n* 1) sergap odam, ezma; 2) bekorchi gap, safsata; **2.** *v* vaysamoq.
- blabber** [ˈblæbə] **1.** *n* 1) sergap odam, ezma; 2) gʻiybatchi odam.
- black** [blæk] **1.** *a* qora; **2.** *n* qora rang; **3.** *v* qora boʻyoq bilan boʻyamoq.
- blackamoor** [ˈblækəmoː] *n* qora tanli kishi.
- black and white** [ˌblækənˈwaɪt] *n* oq-qora tasvir (*kino, rasmda*).
- black-beetle** [ˈblækˌbiːtl] *n* suvarak.
- blackberry** [ˈblækbəri] *n* maymunjon (*buta va mevasi*).
- blackbird** [ˈblækbəːd] *n zool.* qorayaloq.
- black-board** [ˈblækbɔːd] *n* sinf (doskasi) taxtasi.
- black-cap** [ˈblækkæp] **n** 1) oʻlim jazosi hukmini oʻqiyotganda sudyalari kiyadigan bosh kiyim; 2) qora malina (*mevasi va oʻsimligi*).
- blackcap** [ˈblækkæp] *n* qora boshli moyqut (*qush*).
- black-chalk** [ˈblæktʃɔːk] *n min.* grafit (*qalam ichidagi, qattiq siyoh*).
- black-cock** [ˈblækkɔːk] *n* qur, qarqur (*qush*).
- black-currant** [ˌblæk ˈkʌrənt] *n* qora qoragʻat.
- Black-Death** [ˌblæk ˈdeθ] *n* «Qora Oʻlim» (*Yevropadagi oʻlat 1348 – 49 yillar*).
- black draught** [ˌblæk ˈdraːft] *n* suzgi.
- black earth** [ˌblæk ˈɜːθ] *n* qora tuproq.
- blacken** [ˈblækən] *v* 1) qoralamoq; 2) bulgʻamoq.
- black-face** [ˈblækfərs] *n amer.* qora tanli kishi rolini oʻynaydigan aktyor.
- black-friar** [ˌblæk ˈfraɪə] *n* dominikan (*rohib*).
- blackguard** [ˈblæɡɑːd] **1.** *n* ablah kishi; **2.** *a* ablahona; **3.** *v* urishmoq.
- blackguardism** [ˈblæɡɑːdɪzəm] *n* yomon axloq-odob.
- blackguardly** [ˈblæɡɑːdli] *adv* ablahona.
- black-head** [ˈblækhed] *n* husnbuzar.
- black-hearted** [ˈblæk ˈhɑːtɪd] *a* yaramas.
- blackening** [ˈblækɪŋ] *n* etikmoy.
- blackening-out** [ˈblækɪŋˌaʊt] *n* matnni chizib tashlash (*nazorat qiluvchi tomonidan*).
- blackish** [ˈblækɪʃ] *a* qoraygan, qop-qora, qoramtir.
- black jack** [ˈblækdʒæk] **1.** *n* pivo idishi; **2.** *v amer.* gavron; gavron bilan urmoq (*tayoqlamoq*).
- black-lead** [ˌblæk ˈled] *n min.* grafit (*qalam ichidagi qora siyoh*).
- blackleg** [ˈblækleg] shtreykbrexer (*ishchilar ish tashlagan vaqtda ularga qoʻshilmay ishchilar manfaatiga xiyonat qiladigan ishchi*).
- black-letter** [ˌblæk ˈletə] *n* qadimiy ingliz gotik shrifti.
- black-list** [ˈblæklist] **1.** *n* qora roʻyxat; **2.** *v* qora roʻyxatga kiritmoq.
- black-listing** [ˈblæklistɪŋ] *n* qora roʻyxatga kiritilgan shaxs *yoki* buyum.
- blackly** [ˈblækli] *a* qoramtir.
- blackmail** [ˈblækmeɪl] **1.** *n* qoʻrqitib tovlash; **2.** *v* qoʻrqitib tovlamoq.
- blackmailer** [ˈblækmeɪlə] *n* tovlamachi, shantajchi.
- black market** [ˈblæk ˈmɑːkɪt] *n* qora bozor.
- black marketeer** [ˌblækmaːkɪˈtri] *n* qora bozorda savdo qiluvchi, chayqovchi.
- blackness** [ˈblæknəs] *n* qoralik, qorongʻilik.
- black-out** [ˈblækaut] **1.** *pl n teatr.* zaldagi va sahnadagi chiroqlarni oʻchirish; **2.** *a* qorongʻilashgan.
- Black Power** [ˌblæk ˈpaʊə] *n amer.* «Qoralar hokimiyati» (*AQSHdagi qoratanlilarni mamlakatning siyosiy va madaniy hayotida koʻproq qatnashish huquqini talab qiluvchi qoratanlilar harakati*).
- black-shirt** [ˈblækʃɜːt] *n* fashist; qora koʻylakli.
- blacksmith** [ˈblæksmɪθ] *n* taqachi, temirchi.
- blackthorn** [ˈblækθɔːn] *n bot.* tikanli olxoʻri.
- bladder** [ˈblædə] *n anat.* pufak, koʻpik.
- bladdery** [ˈblædəri] *a* pufakchali, qavariqli.
- blade** [bleɪd] *n* olmos (*dam, tigʻ*).
- blague** [blɑːg] *n fr.* maqtanchoqlik, maqtanishlik.
- blame** [bleɪm] **1.** *n* ayblash; **2.** *v* ayblamoq.
- blameful** [ˈbleɪmfʊl] = **blameworthy**.
- blameless** [ˈbleɪmləs] *a* beayb, benuqson, kamkoʻstsiz.
- blameworthy** [ˈbleɪmˌwɜːðri] *a* tanbeh berishga loyiq.
- blanch** [blɑːntʃ] *v* oqlamoq, oqartirmoq.
- bland** [blænd] *a* odobli, xush-muomala, xushxulq, xushfeʼl.
- blandish** [ˈblændɪʃ] *v* yalinib koʻndirmoq, oʻtinib soʻrab rozi qilmoq, unatmoq.
- blandishment** [ˈblændɪʃmənt] *n* 1) yoʻldan ozdirish, avrash; aldash; 2) xushomad, tilyogʻlama maqtov.
- blandly** [ˈblændli] *adv* odob (*xushmuomalalik, xushxulqlik, xushfeʼllik*) bilan.

blank [blæŋk] **1.** *a* bo'sh, toza, yozilmagan (*qog'oz to'g'risida*); **2.** *n* bo'sh joy (*qog'oz-da*).

blanket ['blæŋkɪt] **1.** *n* jun adyol; **2.** *a* umumiy, to'la, keng qamrovli; **3.** *v* yopmoq (*adyol bilan*).

blankly ['blæŋkɪli] *adv* 1) beparvo; 2) nochor ahvolda.

blankness ['blæŋknɪs] *n* 1) bo'shliq; 2) xijolat tortish; xijolat bo'lish.

blare [blæə] **1.** *n* bo'kirish; **2.** *v* baland ovoz bilan jar solmoq.

blarney ['blɑ:nɪ] **1.** *n* so'zl. xushomad; **2.** *v* xushomad qilmoq.

blaspheme [blæs'fi:m] *v* 1) haqorat qilmoq; 2) xudoga shak keltirmoq.

blasphemous ['blæsfəməs] *a* dinni tahqirlovchi.

blasphemy ['blæsfəmə] *n* xudoga shak keltirish.

blast [blɑ:st] **1.** *n* shamolning birdan kuchayishi; **2.** *v* portlamoq.

blasted ['blɑ:stɪd] *a* buzilgan, xarob bo'lgan.

blast-furnace ['blɑ:st,fə:nɪs] *n* domna pechi.

blasting ['blɑ:stɪŋ] **1.** *a* halokatga olib boradigan; **2.** *n* 1) ishdan chiqish; 2) halokat.

blast-off ['blɑ:stɒf] *n* raketalarning uchishi.

blatant ['bleɪtənt] *a* 1) odobdan tashqari, beadab, dag'al; 2) baqiroq.

blaze [bleɪz] **1.** *n* 1) alanga; 2) (*oq dog'*) qashqa (*hayvonning peshanasida*); 3) belgi (*daraxtda*); **2.** *v* 1) alanga bilan yonmoq; 2) daraxtga belgi qo'ymoq.

blazer ['bleɪzə] *n* ochiq rangli sport kurtkasi.

blazing ['bleɪzɪŋ] *a* lovullab yonayotgan.

blazon ['bleɪzən] *n* qerb, emblema.

bleach [bli:tʃ] **1.** *n* oqartirish; **2.** *v* oqartirmoq.

bleacher ['bli:tʃə] oqartiruvchi.

bleaching powder ['bli:tʃɪŋ,pəʊdər] *n* oqlash uchun ishlatiladigan ohak.

bleak [bli:k] **1.** *a* ochiq, shamoldan bekitilmagan; **2.** *n* ukleyka (*karpSimonlar oilasiga mansub kichik baliq*).

bleakness ['bli:knəs] *n* yalanglik, ochiqlik (*joy*).

blear [blɛə] **1.** *a* qorong'ilashtirilgan; tushunib bo'lmaydigan; **2.** *v* qorong'ilashtirilmoq.

bleary ['blɛəri] *a* xiralashgan (*ko'z haqida*).

bleary-eyed [ˌblɛəri'aid] *a* xira ko'z bilan.

bleat [bli:t] **1.** *n* ma'rash; **2.** *v* ma'ramoq.

bleed [bli:d] **1.** *v* qon ketmoq; **2.** *a* poligr. hoshiyasiz.

bleeder ['bli:də] *n* qon to'kuvchi.

bleeding ['bli:dɪŋ] **1.** *n* qon ketish; **2.** *a* ko'p qon yoqotgan.

bleep [bli:p] *n* yer yo'ldoshining signali.

- cartographic(al)** [ˌkɑːtə ˈgræfɪk(əl)] *a* kartografik.
- cartography** [kɑː ˈtɒgrəfi] *n* kartografiya (*xaritalar chizish*).
- cartomancy** [ˈkɑːtə,umænsɪ] *n* qarta bilan fol ochish.
- carton** [ˈkɑːtn] *n* (*katta*) karton quti.
- cartoon** [kɑː ˈtuːn] **1.** *n* 1) hajviy tasvir; 2) multfilm; **2.** *v* hajviy tasvir chizmoq.
- cartoonist** [kɑː ˈtuːnist] *n* hajvnavis, karikaturachi.
- cartouche** [kɑ ˈtuːʃ] *n fr.* kartush (*ustun yoki kitob titulida*).
- cartridge** [ˈkɑːtrɪdʒ] *n* 1) kartrij; 2) *harb.* patron.
- cartridge-belt** [ˈkɑːtrɪdʒbɛlt] *n* patron sumka.
- cartridge-box** [ˈkɑːtrɪdʒbɒks] *n* patron solindigan quti.
- cartridge-case** [ˈkɑːtrɪdʒkeɪs] *n* patron gilzasi.
- cartridge-clip** [ˈkɑːtrɪdʒklɪp] *n* patron oboymasi (*oboyma o'tish qurollarining o'q joylanadigan ramkasi*).
- cartridge-paper** [ˈkɑːtrɪdʒpeɪpə] *n* qalin qog'oz (*rasm chizish va patron gilzasi uchun*).
- cartridge-pouch** [ˈkɑːtrɪdʒpaʊtʃ] *n* patron sumkasi, o'qdon.
- cart-road** [ˈkɑːtrəʊd] *n* qishloq yo'li, tuproq yo'l.
- cart-track** [ˈkɑːtræk] = **cart-road**.
- cartulary** [ˈkɑːtjʊləri] *n* qayd daftari, kundalik daftar.
- cart-wheel** [ˈkɑːtwiːl] *n* arava g'ildiragi.
- cart-wright** [ˈkɑːtraɪt] *n* fayton (yengil arava) ustasi.
- caruncle** [kə ˈrʌŋkl] *n* ortiqcha go'sht.
- carve** [kɑːv] *v* (**carved** [-d]; **carved, carven**) **1.** o'yib naqsh solmoq (*daraxtga*); **2.** o'ymoq.
- carvel** [ˈkɑːvəl] *n* *tarix.* karavella (*XV–XVII asrdagi Ispaniya kemasi*); yelkanli kema turi.
- carver** [ˈkɑːvə] *n* o'ymakor usta.
- carving** [ˈkɑːvɪŋ] *n* 1) o'ymakorlik, naqqoshlik; 2) o'ymakorlik ishlari.
- carving chisel** [ˈkɑːvɪŋ,tʃɪzəl] *n* o'yadigan iskanana.
- carving-knife** [ˈkɑːvɪŋnaɪf] *n* go'sht kesadigan pichoq (*stol atrofida*).
- car-wash** [ˈkɑːwɒʃ] *n* yuvish (*avtomobillarni*).
- caryatid** [ˌkæri ˈætɪd] *n* (*pl* -s [-z], -es [-iːz]) *me' mor.* kariatida (*binoning ayollar gavdasi shaklida ishlangan tayanch ustuni*).
- cascade** [kæ ˈskeɪd] **1.** *n* kaskad, pog'onali sharshara (*shovva*); **2.** *v* yuqoridan oqib tushmoq; shovullab oqib tushmoq.

- case** [kɛs] **1.** *n* 1) hodisa, voqea; 2) *yur.* sud ishi; 3) chamadon; 4) quiti; 5) *gram.* kelishik; **2.** *v* qutiga joylashtirmoq.
- case-harden** [ˈkeɪs,hɑːdn] *v* *tex.* sementlamoq (*po'latni*).
- case-hardened** [ˈkeɪs,hɑːdnd] *a* *tex.* chiniqqan, toblangan.
- case-hardening** [ˈkeɪs,hɑːdnɪŋ] *n* sementlash.
- case-history** [ˌkeɪsˈhɪstəri] *n* kasallik tarixi (tafsiloti).
- casein** [ˈkeɪsɪn] *n* *kim.* kazein (*sutda bo'ladigan oqsil modda*).
- case-knife** [ˈkeɪsnaɪf] *n* qindagi pichoq.
- case-law** [ˈkeɪslɔː] *n* *yur.* teng huquq.
- casemate** [ˈkeɪsmet] *n* *harb.* harbiy kemada zirhlangan xona, bo'lma; mudofaa istehkomi.
- casement** [ˈkeɪsmənt] *n* deraza tavaqasi.
- caseous** [ˈkeɪsiəs] *a* pishloqqa o'xshagan, pishloqsimon.
- case-record** [ˈkeɪs,rekɔːd] *n* kasallik tarixi.
- casern(e)** [kæzə:n] *n* *fr.* kazarma, barak (*muvaqqat yog'och uy, kasalxonada, yuqumli kasalliklar uchun alohida bino*).
- case-shot** [ˈkeɪsʃɒt] *n* yirik pitra, o'q, yadro.
- case-worm** [ˈkeɪswɔːm] *n* *zool.* g'umbak, g'undak; pill.
- cash** [kæʃ] **1.** *n* pul, mablag'; **2.** *v* chek orqali pul to'lamoq yoki olmoq.
- cash-book** [ˈkæʃbʊk] *n* kassa daftari.
- cashew** [kæʃuː] *n* *bot.* Janubiy Amerikada o'sadigan daraxt turi (*anakord*).
- cashier** [kæʃiə] **1.** *n* kassir, kassachi; **2.** *v* xizmatdan (ishdan, vazifadan) bo'shatilmoq.
- cashmere** [ˈkæʃmɪə] **1.** *n* kashmiri (*yung gazlama*); **2.** kashmiri sholro'moli.
- casings** [ˈkeɪsɪŋ] *n* qoplama, jild.
- casino** [kəˈsiːnəʊ] *n* (*pl -os [-əʊz]*) qimor o'ynaydigan joy, qimorxona.
- casek** [kɑːsk] *n* bochka, kichkina bochka.
- caseket** [ˈkɑːskɪt] *n* 1) quticha, ishquti, g'aladon; 2) *amer.* tobut.
- casque** [kæsk] *n* *tar.* temir qalpoq, dubulg'a.
- casation** [kəˈseɪʃn] *n* *yur.* shikoyat (norozilik) arizasi.
- casserole** [ˈkæsərəʊl] *n* *fr.* kastrulka (*o'ta chidamli materialdan*).
- cassia** [ˈkæsiə] *n* *bot.* kassiya (*surgi dori sifatida ishlatiladigan dukkaklilar oilasiga mansub o'simlik doni va barglari*).
- cassock** [ˈkæsək] *n* jubba (*pravoslaviye ruho-niylari kiyadigan keng yengli, uzun ustki kiyim*).
- cassowary** [ˈkæsəwɛəri] *n* *zool.* kazuar (*tuyaqushning bir turi*).
- cast** [kɑːst] **1.** *n* irg'itish, tashlash. otish; **2.** *v* (**cast; cast**) 1) irg'itmoq, tashlamoq, otmoq; 2) *yur.* zararlarni to'lashga hukm qilmoq; ~ **about** yaxshilab o'ylab ko'rmoq; ~ **away** yuz o'girmoq; ~ **down** tashlab yubormoq (yiqitmoq); ~ **out** haydab yubormoq ~ **up** otib chiqarmoq.
- castanets** [ˌkæstəˈnets] *n* *pl* qayroq.
- castaway** [ˈkɑːstəˈweɪ] *n* kema halokatidan jabr ko'rgan kishi; 2) xo'rlangan.
- caste** [kɑːst] *n* tabaqa, toifa.
- castellan** [ˈkɑːstlən] *n* *esk.* kastelan (*qasr yoki jamoat uyi nazoratchisi*).
- castellated** [ˈkæstɪleɪtɪd] *a* qasr shaklida qurilgan.
- caster** [ˈkɑːstə] *n* 1) quyuvchi (*degrez*); 2) g'il-dirakcha (*mebel oyoqlarida*).
- castigate** [ˈkæstɪgeɪt] *v* jazolamoq, jazo bermoq.
- castigation** [ˌkæstɪˈgeɪʃn] *n* jazo.
- casting** [ˈkɑːstɪŋ] **1.** *n* tashlash, uloqtirish; irg'itish; **2.** *a* metall quyishga oid.
- casting-voice** [ˌkɑːstɪŋˈvɔɪs] *n* hal qiluvchi ovoz.
- casting-vote** [ˌkɑːstɪŋˈvəʊt] = **casting-voice**.
- cast iron** [ˌkɑːstˈaɪrən] *n* cho'yan.
- castle** [ˈkɑːsl] *n* qal'a, saroy.
- castle-builder** [ˈkɑːslˌbɪldə] *n* xayolparast, orzu-xayollarga beriluvchi odam.
- cast-off** [ˈkɑːstɒf] **1.** *a* xo'rlangan (tahqirlangan) odam; **2.** *n* yaroqsiz, keraksiz, tashlandiq.
- castor** [ˈkɑːstə] *n* 1) suv qunduzi mo'ynasi; 2) g'il-dirakcha (*mebel oyoqlarida*).
- castor oil** [ˌkɑːstəˈɔɪl] *n* kanakunjut moyi.
- castor sugar** [ˈkɑːstəˈʃʊgə] *n* qand kukuni.
- castrate** [kæstˈreɪt] **1.** *n* axta qilingan (bichilgan) hayvon; **2.** *v* axta qilmoq, bichmoq.
- castration** [kæstˈreɪʃn] *n* axtalash, bichish.
- casual** [ˈkæʒuəl] **1.** *a* tasodifiy; **2.** *n* vaqtinchalik ishchi.
- casualize** [ˈkæʒuəlaɪz] *v* doimiy bo'lmagan ishga o'tkazmoq.
- casualty** [ˈkæʒuəlɪtɪ] *n* 1) baxtsiz hodisa (falokat); 2) *harb.* yarador.
- casualty clearing station** [ˈkæʒuəlɪtɪklɪərɪŋˈsteɪʃn] *n* evakuatsion punkt.
- casualty list** [ˌkæʒuəlɪtɪˈlɪst] *n* (*urushda*) bedarak yo'qolganlar, o'lganlar va yarador bo'lganlarning ro'yxati.
- casualty ward** [ˌkæʒuəlɪtɪˈwɔːd] *n* kasalxonadagi baxtsiz hodisalardan jabrlanganlar uchun ajratilgan palata (*xona*).
- casuist** [ˈkæʒuɪst] *n* kazuist (*chigal, murakkab ishlarni ochishga usta, mohir yurist*).
- casuistic(al)** [ˌkæʒuˈɪstɪk(əl)] *a* kazuistikaga oid; kazuistikaga asoslangan.
- casuistry** [ˈkæʒuɪstrɪ] *n* kazuistika (*qonunning umumiy moddalarini turli yuridik holatlarga tatbiq qilish*).
- cat** [kæt] *n* mushuk; **tom** ~ erkak mushuk.
- cataclysm** [ˈkætəklɪzəm] *n* *yur.* katalizm (*tabiatda, ijtimoiyi hayotda keskin o'zgarish, ag'dar to'ntar, halokat, falokat*).
- catcomb** [ˈkætəkuːm] *n* katakomb (yer ostidagi aylanna chalkash yo'llar, g'orlar).

catapult [ˈkætəpɔːlt] *n* katalok (*dafn marosimida tobut qo'yiladigan arava yoki mashina*).

cataplexy [ˈkætəpleksɪ] *n* katalapsiya (*asabiy yoki ruhiy kasallik, qattiq hayajon yoki gipnoz natijasida taxta bo'lib qotib qolish*).

cataleptic [ˌkætəˈleptɪk] *a tib.* katalapsiyaga oid, kataleptik.

catalog [ˈkætəlɔːɡ] = **catalogue**.

catalogue [ˈkætəlɔːɡ] **1.** *n* katalog (*kitob, surat, eksponat va sh.k. narsalarning ma'lum tartibda tuzilgan ro'yxati*); **2.** *v* katalog tuzmoq, katalogga kiritmoq.

cataloguer [ˈkætəlɔːɡɜː] *n* katalog tuzuvchi.

catalogue raisonné [ˌkætəlɔːɡreɪzəˈneɪ] *n fr.* qisqacha tushuntirish berilgan sistemali katalog.

catalysis [kəˈtæləsɪs] *n kim.* kataliz (*katalizator tufayli kimyoviy reaksiyaning tezlashuvi yoki sekinlashuvi*).

catalyst [ˈkætəlɪst] *n kim.* katalizator (*kimyoviy reaksiyani tezlashtiruvchi yoki sekinlashtiruvchi modda*).

catalyzer [ˈkætələɪzə] = **catalyst**.

catamaran [ˌkætəməˈræn] *n deng.* katamaran (*umumiy paluba bilan birlashtirilgan ikki korpusli kema*).

catamount [ˈkætəmaʊnt] *n zool.* 1) yevropa yovvoyi mushugi; 2) Shimoliy Amerika silovsini.

cat-and-mouse [ˌkætnˈmaʊs] *n* mushuk-sichqon o'yini (*bir-birini qovlab o'ynaladigan bolalar o'yini*).

cataplasma [ˈkætəplæzm] *n* priporka (*og'rigan joyga suyuq dori yoki issiq suvga ho'llangan bint bog'lash bilan davolash*).

catapult [ˈkætəpɔːlt] **1.** *n* manjaniq (*qadimiy tosh otish qurol*); **2.** *v* katapult bilan otmoq.

cataract [ˈkætərəkt] *n* 1) katta sharshara; 2) kuchli yomg'ir.

catarrh [kəˈtɑːrɪ] *n tib.* 1) katar (*shilliq pardalarining yallig'lanishi*); 2) shamollash.

catastrophe [kəˈtæstrəfi] *n* halokat, katta baxtsizlik, falokat.

catastrophic [ˌkætəˈstrɒfɪk] *a* halokatga olib boradigan, halokatli.

catbird [ˈkætbɜːd] *n amer.* qorayaloq.

catcall [ˈkætkɔːl] **1.** *n* 1) hushtak chalish; hushtak ovozi; 2) hushtak; **2.** *v* hushtak chalmoq.

catch [kætʃ] **1.** *v* (**caught**; **caught**) ushlamoq; tutmoq; **2.** *n* ushlash, tutib (ilib) olish ~ **at** nimadandir xursand bo'lmoq; ~ **away** sudrab ketmoq; ~ **off amer.** uyquga ketmoq; ~ **on** tushunmoq; ~ **up** yerdan ko'tarmoq.

catching [ˈkætʃɪŋ] *a* yuqumli, yuqadigan.

catchment [ˈkætfmənt] *n tex.* drenaj (*yerning zaxini qochirish*).

catchment-area [ˈkætfməntˌeərɪə] *n* suv to'plash joyi; daryoning havzasi; sun'iy ko'l.

catchment-basin [ˈkætfməntˌbeɪsn] = **catchment-area**.

catchpenny [ˈkætfˌpenɪ] *a* yuzaki, yengil muvafiqiyatga erishib, xaridorlarni jalb qilishga mo'ljallangan.

catch phrase [ˈkætfˌfreɪz] *n* ommalashgan ibora.

catchpoll [ˈkætfpɔːl] *n* sud ijrochisi.

catchup [ˈkætfʊp] = **ketchup**.

catchword [ˈkætfwɔːd] *n* rasm bo'lgan so'z.

catchy [ˈkætfɪ] *a* yoqimli, jozibali, jozibador.

catechism [ˈkætəkɪsəm] *n* 1) *cherk.* katexizis (*diniy aqidalarning savol-javob tarzidagi qisqacha bayoni*); 2) so'roq, so'roq qilish.

catechize [ˈkætəkəɪzɪz] *v* savol-javob tarzidagi bayon (hikoya) qilmoq.

catechu [ˈkætətʃuː] *n* teri oshlash ekstrakti (*ekstrakt – kimyoviy yo'l bilan organik to'qimalardan olingan modda*).

catechumen [ˌkætəˈkjuːmən] *n* endigina kirishgan, endigina boshlangan, yosh.

categorical [ˌkætəˈɡɒrɪkl] *a* shak-shubhasiz, muqarrar, qat'iy, aniq.

categorically [ˌkætəˈɡɒrɪklɪ] *a* qat'iy, uzil-kesil, keskin, so'zsiz.

categorize [ˈkætɪgəraɪz] *v* toifa (daraja, kategoriya) ga qarab bo'lmoq.

category [ˈkætəɡɒrɪ] *n* kategoriya, daraja, toifa.

catena [kəˈtiːnə] *n* (*pl -nae*) zanjir, bog'lanish.

catenae [kəˈtiːniː] *pl catena dan.*

catenarian [ˌkætnˈneəriən] *n* zanjirga oid.

catenary [kəˈtiːnəri] *n mat.* zanjir chiziq.

catenate [ˈkætneɪt] *v* 1) ulamoq; 2) zanjir hosil qilmoq.

catenation [ˌkætnˈneɪʃn] *n mat. kim.* zanjir hosil qilish.

catel [ˈkeɪtə] *v* oziq-ovqat yetkazib (oborib) bermoq.

catel-cousin [ˈkeɪtəˌkʌzn] *n* uzoq qarindosh.

catel [ˈkeɪtə] *n* oziq-ovqat bilan ta'minlovchi, oziq-ovqat yetkazib beruvchi.

catering [ˈkeɪtərɪŋ] *n* umumiy ovqatlanish.

catel-pillar [ˈkætəpɪlə] *n zool.* kapalak qurti.

catel-waul [ˈkætəwɔːl] **1.** *n* mushuklarning (miyovlashi) miyov-miyovi; **2.** *v* mushukka o'xshab miyovlamoq.

catgut [ˈkætgʌt] *n jar.* ketgut (*jarrohlidka ishlatiladigan ichakdan eshilgan ip*); ichakdan qilingan tor.

catharsis [kəˈθɑːsɪs] *n tib.* oshqozonni (*mezoni*) tozalash; surgi bilan davolash.

cathartic [kəˈθɑːtɪk] **1.** *n* surgi dori; **2.** *a* ich suradigan, ichni bo'shashtiradigan.

Cathay [kəˈθeɪ] *n og'z. shoir.* Xitoy.

cathedral [kəˈθiːdrəl] **1.** *n* 1) katta butxona, bosh cherkov; **2.** *a* bosh butxonaga oid.

Catherine-wheel [ˈkæθərɪnwiːl] *n* langa g'ildiragi; mushakbozlik.

caveat [ˈkeɪvɪət] *n* tanbeh, ogohlantirish, oldini olish.

cave-dweller [ˈkeɪv,dwələ] *n* g'orlarda yashovchi ibtidoiy odam.

cave-man [ˈkeɪvmæn] = **cave-dweller**.

cavern [ˈkævn] *n* g'or.

cavernous [ˈkævənəs] *a* g'orga boy (serob, mo'l-ko'l) bo'lgan.

caviar(e) [ˈkæviɑ:] *n* ikra (*uvildiriqdan tayyorlangan oziq-ovqat mahsuloti*).

cavil [ˈkævl] **1.** *n* tirnoq ostidan kir qidirish; **2.** *v* birovni asossiz ayblamoq.

caviller [ˈkævlə] *n* tirnoq ostidan kir izlaydigan odam.

cavity [ˈkævəti] **1.** *n* chuqurcha, chuqur; **2.** biror narsaning ichidagi bo'shliq.

cavity magnetron [ˈkævətriˈmægnətrɒn] *n* katta energiyani chiqishini taminlaydigan magnetron.

cavort [kəˈvɔ:t] *v* so'zl. sakramoq, irg'itmoq.

caw [kɔ:] **1.** *n* qaqillash, qag'-qag'; **2.** *v* qag'illamoq (*qarg'a, quzg'un kabi qushlar haqida*).

cay [ki:] *n* marjon qoyalari.

cayenne [keɪˈen] *n* qizil qalampir.

cayman [ˈkeɪmən] *n* zool. kayman (*markaziy va janubiy amerikada yashovchi timsohlarning bir turi*).

cease [si:s] **1.** *v* to'xtatmoq; **2.** *n* to'xtatish.

cease-fire [ˈsi:s,farə] *n* *harb.* o't ochishni to'xtatish.

ceaseless [ˈsi:sləs] *a* uzluksiz, to'xtamaydigan.

cecils [ˈseslz] *n* *pl* go'shtli frikadelka (*sho'rvada pishiriladigan yumaloq qiyma*).

cecily [ˈsi:sətli] *n* ko'rlik, so'qirlik.

cedar [ˈsi:də] *n* *bot.* kedr (*ignabargli doim yashil yirik daraxt*).

cede [si:d] *v* topshirmoq (*maydonni*).

ceil [si:l] *v* 1) qoplamoq; 2) suvoq qilmoq, suvamoq.

ceiling [ˈsi:lɪŋ] *n* shift.

celadon [ˈseləðən] *n* kulrang-ko'kimitir rang yoki dengiz to'lqinining rangi.

celandine [ˈseləndaɪn] *n* *bot.* qoncho'p (*xalq tibbiyotida: bazi teri kasalliklarini davolash uchun ishlatiladigan ko'p yillik o'simlik*).

celebrant [ˈseləbrənt] *n* cherkov ibodatini o'tayotgan (*qilayotgan*) ruhoniy (*pop, kashish*).

celebrate [ˈseləbreɪt] *v* bayram qilmoq (*nishonlamoq*).

celebrated [ˈselɪbreɪtɪd] *a* mashhur, atoqli.

celebration [ˌseləˈbreɪʃn] *n* bayram qilish; bayram tantanasi.

celebrity [sɪˈlebrəti] *n* 1) mashhurlik; 2) taniqli odam.

celerity [sɪˈlerəti] *n* tezlik, chaqqonlik.

celery [ˈseləri] *n* *bot.* selderey (*kashnichsimon oshko'k*).

celestial [səˈlestriəl] *a* 1) osmonga (ko'kka) oid, osmondagi, ko'kdagi; 2) astronomik; ~ **map** osmon yulduzlarining xaritasi.

celibacy [ˈseləbəsi] *n* nikohsizlik, uylanmaslik (*yoki erga tegmaslik*) haqidagi ahd.

celibatarian [ˌseləbəˈteəriən] **1.** *a* nikohdan o'tmagan, nikohsiz, nikohlanmagan; **2.** *n* uylanmagan kishi, bo'ydoq.

celibate [ˈseləbɪt] **1.** *n* 1) uylanmagan kishi, bo'ydoq; 2) uylanmaslik ahdini bergan odam, turmushga chiqmaslik ahdini bergan qiz; **2.** *a* 1) uylanmagan, bo'ydoq; 2) uylanmaslikka (turmushga chiqmaslikka) ahd qilgan.

cell [sel] **1.** *n* 1) qamoqxonadagi xona; 2) katak; 3) *biol.* hujayra; **2.** *v* 1) katakka joylashtirmoq, qamamoq; 2) qamoqda yotmoq.

cellar [ˈselə] **1.** *n* yerto'la; **2.** *v* vino saqlanadigan yerto'lada saqlamoq.

cellarage [ˈselərədʒ] *n* 1) yerto'la; 2) yerto'lada saqlash.

cellarer [ˈselərə] *n* kelar (*monastir mutasaddisi*).

cellaret [ˌseləˈret] *n* safar qutisi (*oziq-ovqat, idish-tovoq solib yuriladigan quticha*).

cellist [ˈtʃelɪst] *n* violonchelchi, violonchel chaluvchi.

cello [ˈtʃeləu] *n* violonchel (*skripkasimon katta musiqa asbobi*).

cellophane [ˈseləfəni] *n* sellofan (*sellulozadan tayyorlangan material*).

cellular [ˈseljələ] *a* hujayraga oid.

cellulate [ˈseljuleɪt] *a* 1) hujayralardan tarkib topgan; 2) teshik-teshik, serg'ovak.

cellule [ˈselju:l] *n* *biol.* hujayra.

celluloid [ˈseljuloɪd] *n* selluloid (*sellulozadan tayyorlangan qattiq plastik material*).

cellulose [ˈseljələus] *n* selluloza (*yog'ochdan, o'simlikdan olinib, qog'oz, sun'iy ipak, portlovchi narsalar tayyorlash uchun ishlatiladigan modda*).

Celsius [ˈselsɪəs] *n* selsiy termometri, selsiy termometrining shkalasi.

Celt [kelt] *n* keltlar (*G'arbiy Yevropada yashagan qabilalar*).

celt [selt] *n* *arxeol.* toshdan yoki bronzadan yasalgan uskuna.

Celtic [ˈkeltɪk] **1.** *a* keltlarga oid; **2.** *n* kelt tili.

celtuce [ˈseltəs] *n* selderey (*kashnichsimon ochko'k*) bilan salatning chatishmasi (*aralashmasi*).

cembalo [ˈtʃembələu] *n* (*pl* -os [-əuz]) simbal (*changsimon cholg'u asbobi*).

cement [səˈment] **1.** *n* sement; **2.** *v* sement quymoq (*qum va shag'al aralashtirib*).

cementation [ˌsi:menˈteɪʃn] *n* sement quyish, sementlash.

cemetery [ˈsemətəri] *n* qabriston, go'riston, mozor.

cenotaph [ˈsenəta:f] *n* qabr ustiga qo'yilgan yodgorlik (*sag'ana, maqbara*); 2) noma'lum askarga qo'yilgan yodgorlik.

cense [sens] *v* cherk. ladan (*tutamoq*) solmoq.

censer [ˈsensə] *n* ladandon (*ibodat vaqtida ladan tutatadigan idish*).

censor [ˈsɛnsə] **1.** *n* nashr qilinadigan, sahnaga qo'yiladigan material yoki asarlarni nazorat qiluvchi shaxs; **2.** *v* ko'rib chiqmoq.

censorial [senˈsɔːriəl] *a* senzorga oid, sensor.

ensorious [senˈsɔːriəs] *a* talabchan, qat'iy talab qiladigan.

ensorship [ˈsɛnsəʃɪp] *n* narsalar qilinadigan, sahnaga qo'yiladigan material yoki asarlarni nazorat qilish.

ensorable [senʃərəbl] *a* tanbeh berishga arziydirgan.

ensure [ˈsɛnʃə] **1.** *n* tanbeh (*berish*); **2.** *v* tanbeh bermoq.

ensus [ˈsɛnsəs] *n* ro'yxat qilish, ro'yxatga olish; ~ **population** aholini ro'yxatga olish.

ensus-paper [ˈsɛnsəs,pɛɪpə] *n* ro'yxatga olish vaqtida to'ldiriladigan blank.

cent [sɛnt] *n* sent (*dollar, gulden, rupiyning 0,01 qismi*).

centaur [ˈsɛntɔː] *n* afs. kentavr (*yunon afsonalarida: yarmi odam, yarmi ot maxluq*).

centenarian [ˌsɛntɪˈnɛəriən] *a* yuz yillik.

centenary [sɛnˈtiːnəri] *n* 1) yuz yillik vaqt (*muddat*); 2) yuz yillik (*marosim*) yubiley; 3) yuz yillik (*marosimni*) yubileyini nishonlaydigan kun.

centennial [sɛnˈtɛniəl] *a* 1) yuz yillik, yuz yashar; 2) yuz yilda bir marta bo'ladigan.

center [ˈsɛntə] **1.** *n* *amer.* 1) markaz; 2) *sport.* markaziy o'yinchi (*hujumchi, himoyachi va b*); **2.** *attr.* markaziy, markazdagi; **3.** *v* markazda (*markazga*) joylashtirmoq.

centering [ˈsɛntərɪŋ] *n* *tex.* markazlashtirish (*markazda joylashtirish*).

centesimal [sɛnˈtɛsəml] *a* 1) yuzinchi, yuzinchi raqamli; 2) yuz qismga bo'lingan; 3) yuz so'mlik, yuz kishilik.

centigrade [ˈsɛntɪɡreɪd] *a* 1) yuz darajali; 2) yuz darajaga bo'lgan.

centigram(me) [ˈsɛntɪɡræm] *n* santigramm (*yuzdan bir gramm*).

centime [ˈsɑːntiːm] *n* *fr.* santim (*frankning 0,01 qismi*).

centimeter [ˈsɛntɪ,mɪːtə] *amer.* = **centimetre**.

centimetre [ˈsɛntɪ,mɪːtə] *n* santimetr (*metrning yuzdan bir qismi*).

centipede [ˈsɛntɪpiːd] *n* *zool.* mingoyoq.

centner [ˈsɛntnə] *n* sentner.

central [ˈsɛntərə] **1.** *a* asosiy, bosh, markaziy; **2.** *n* *amer.* markaziy telefon stansiyasi.

centralization [ˌsɛntərəlaɪˈzeɪʃn] *n* markazlashtirish.

centralize [ˈsɛntərəlaɪz] *v* markazlashtirmoq.

centralized [ˈsɛntərəlaɪzɪd] *a* markazlashgan.

centre [ˈsɛntə] = **center**.

centring [ˈsɛntərɪŋ] *v* markazlashtirish, markazga joylashtirish.

centre-piece [ˈsɛntəpiːs] *n* stol o'rtasidagi naqshinkor guldon.

centric(al) [ˈsɛntɪk(əl)] *a* markaziy.

centrifugal [ˈsɛntɪˈʃjuːɡl] *a* markazdan qochma yoki ko'chirma.

centrifuge [ˈsɛntɪʃjuːdʒ] *n* sentrifuga (*markazdan qochish kuch ta'sirida qorishmani mexanik ravishda ajratuvchi asbob*).

centring [ˈsɛntərɪŋ] = **centering**.

centripetal [sɛnˈtrɪpɪtəl] *a* markazga intiladigan.

centuple [ˈsɛntjʊpl] **1.** *a* yuz marta kattalashtirilgan (*ko'paytirilgan*); **2.** *v* yuzga ko'paytirmoq.

centuplicate [sɛnˈtjuːplɪkət] *n* yuz nusxada.

century [ˈsɛntʃəri] *n* yuz yillik, asr.

century plant [ˈsɛntʃərɪplɑːnt] *n* *bot.* aloy, sabur (*o'simlik*).

cephalic [sɛˈfæliːk] *a* *anat.* boshga (*miyaga*) oid.

cephalitis [ˌsɛfəˈlɑːtɪs] *n* *tib.* ensefalit (*bosh miyaning yallig'lanishi*).

cephalopoda [ˌsɛfələˈpɒdə] *n* *pl* *zool.* bosh-oyoqlilar.

ceramic [səˈræmɪk] *a* kulolchilikka oid.

ceramics [səˈræmɪks] *n* 1) kulolchilik; 2) kulolchilik buyumlari.

ceramist [ˈsɛrəmɪst] *n* kulol.

cerastes [sɪˈræstɪːz] *n* *zool.* qora ilon.

cereal [ˈsɪəriəl] **1.** *n* boshqoqli g'alla o'simligi; **2.** *a* g'allaga (*donga*) oid.

cerebellum [ˌsɛrəˈbɛləm] *n* *anat.* kichik miya.

cerebral [ˈsɛrəbrəl] *a* *anat.* miyaga oid.

cerebration [ˌsɛrəˈbreɪʃn] *n* miyaning faoliyati.

cerebrum [ˈsɛːrɪːbrəm] *n* *anat.* bosh miya.

cerecloth [ˈsɪəklɒθ] = **cerement**.

cerement [ˈsɪəmənt] *n* kafan.

ceremonial [ˌsɛrəˈmɔːniəl] **1.** *a* rasmiy; **2.** *n* marosim.

ceremonious [ˌsɛrəˈmɔːniəs] *a* rasmiy tantanaga (*tantanali marosimga*) oid.

ceremony [ˈsɛrəmənɪ] *n* marosim, rasm-rusum, udum.

cerise [səˈriːz] *a* och qizil.

cerium [ˈsɪəriəm] *n* *kim.* seriy (*kimyoviy element*).

cermet [ˈsɛːmet] *n* *tex.* metall buyumlari.

ceroplastics [ˌsɪərəʊˈplæstɪks] *n* *pl* mumdan narsalar yasash.

cert [sɛːt] *n* to'g'ri ish.

certain [ˈsɛːtn] *a* aniq, ma'lum, muqarrar.

certainly [ˈsɛːtnli] *adv* albatta, turgan gap, shubhasiz.

certainty [ˈsɛːtnɪ] *n* 1) shubhasiz dalil, isbot; 2) ishonch.

certificate **1.** *n* [səˈtɪfɪkət] 1) guvohnoma; 2) yozma tasdiqlash; **2.** *v* [səˈtɪfɪkɪt] 1) tasdiqlamoq; 2) guvohlik bermoq, guvohnoma bermoq.

certificated [səˈtɪfɪkətɪd] *a* diplom olgan, diplomli.

certification [ˌsɛːtɪfɪˈkeɪʃn] *n* 1) tasdiqlash (*dalilni*); 2) guvohnoma berish.

certify [ˈsɛːtɪfaɪ] *v* 1) tasdiqlamoq; 2) ishontirmoq.

certitude [ˈsɛːtɪtjuːd] = **certainty**.

- cerulean** [sɪ ˈru:ljən] *n* havorang, moviy; koʻm-koʻk.
- cerumen** [səˈru:men] *n* quloq kiri.
- ceruse** [ˈsɛrʊ:s] *n* qoʻrgʻoshinning oq mineral boʻyogʻi.
- cervical** [sə: ˈvɪkəl] *a anat.* 1) ensaga oid; 2) boʻyinga oid.
- cervine** [ˈsɛ:vɪn] *a* bugʻuga oid.
- cervix** [ˈsɛ:vɪks] *anat.* (*pl* -vices, -es [-ɪz]) boʻyin.
- cess** [ses] *n* oʻlpon; soliq.
- cessation** [se ˈseɪʃən] *n* 1) toʻxtatish; 2) tanaffus.
- cession** [ˈseʃən] *n* yon berish, rozi boʻlish.
- cesspit** [ˈseɪpɪt] *n* axlatxona, axlat (toʻkiladigan, tashlanadigan) oʻra.
- cesspool** [ˈseɪspu:l] = **cesspit**.
- cestoid** [ˈseɪtɔɪd] *n zool.* lentasimon chuvalchang.
- cetacean** [sɪ ˈteɪʃən] **1.** *a zool.* kitga oid; **2.** *n* kitlar oilasiga mansub boʻlgan hayvon.
- cetaceous** [sɪ ˈteɪʃəs] *a zool.* kitga oʻxshagan.
- cevitamic acid** [ˌsi:vɪtæmɪk ˈæsɪd] *n farm.* Kristaldan iborat boʻlgan C vitamini.
- chafe** [tʃeɪf] **1.** *n* shilingan joy, chaqa (*badanda*); **2.** *v* ishqalamoq, ishqamoq.
- chafer** [ˈtʃeɪfə] *n zool.* tillaqoʻngʻiz.
- chaff** [tʃɑ:f] **1.** *n* 1) toʻpon; 2) maydalangan somon; **2.** *v* maydalamoq, chopmoq (*poxolni*).
- chaff-cutter** [ˈtʃɑ:f.kʌtə] *n q-x.* poxolqirqqich (*po-xol, pichan, beda va h. qirqadigan mashina, jodi*).
- chaffer** [ˈtʃæfə] **1.** *n* savdolashish; **2.** *v* savdolashmoq.
- chaffinch** [ˈtʃæfɪntʃ] *n zool.* zyablik (*sayroqi qush*).
- chaffy** [ˈtʃɑ:fɪ] *a* toʻpon bilan qoplangan.
- chafing-dish** [ˈtʃeɪfɪŋdɪʃ] *n* 1) kabob qoʻra; 2) elektrik kastrulka (*termos*).
- chafing-gear** [ˈtʃeɪfɪŋɡɪə] *n deng.* ishqalanishdan saqlash uchun troslarni oʻramoq.
- chagrin** [ˈʃægrɪn] **1.** *n* achinish, xafagarchilik; **2.** *v* xafa qilmoq, ranjntmoq.
- chain** [tʃeɪn] **1.** *n* zanjir; zanjircha; **2.** *v* zanjirlamoq.
- chain-drive** [ˈtʃeɪndraɪv] *tex.* zanjirli uzatuvchi harakatni mashinaning bir qismidan boshqa qismiga oʻtkazuvchi mexanizm).
- chainlet** [ˈtʃeɪnlɪt] *n* zanjircha.
- chainsmoke** [ˈtʃeɪnsməʊk] *v* uzluksiz (tinmay) chekmoq.
- chainsmoker** [ˈtʃeɪnsməʊkə] *n* ashaddiy chekuvchi.
- chain-stitch** [ˈtʃeɪnstɪtʃ] *n* kashta choki.
- chain-stores** [ˈtʃeɪnstɔ:z] *n pl amer.* bitta firma-dagi bir xil magazinlar.
- chair** [tʃeə] **1.** *n* 1) stul; oʻrindi; 2) raisning oʻmi; **2.** *v* boshqarmoq.
- chair-bed** [ˈtʃeəbed] *n* kreslo karavot, buklama kreslo.
- chair-car** [ˈtʃeəkɑ:] *a amer.* salon-vagon.
- chairman** [ˈtʃeəmən] *n* rais.
- chairmanship** [ˈtʃeəmənʃɪp] *n* raislik lavozimi (vazifasi).
- chairperson** [ˈtʃeəpə:sn] *n pl* majlis yoki yigʻilishni boshqaruvchi (olib boruvchi).
- chair warmer** [ˈtʃeəwɔ:mə] *n amer. jarg.* dangasa, tanbal, ishyoqmas.
- chairwoman** [ˈtʃeə,wʊmən] *n* raisa, rais ayol.
- chaise** [tʃeɪz] *fr. n* fayton, foytun, izvosh.
- chaise-longue** [ˌʃeɪz ˈlɔŋ] *n* shezlong (*yengil kresloning bir turi*).
- chalcedony** [kæl ˈsedəni] *n min.* xolsedon (*kvars yoki chaqmoq toshning bir turi boʻlgan yarim qimmatli tosh*).
- chalcography** [kæl ˈkɔgrəfɪ] *n* misga (oʻyib) naqsh tushirish.
- Chaldean** [kæl ˈdi:ən] **1.** *a* xaldeylarga oid, xaldeycha, xaldeylar; **2.** *n* xaldey, xaldeyda yashovchi kishi.
- chaldron** [ˈtʃɔ:ldrən] *n* burchak oʻlchovi (=1,66m³)
- chalet** [ˈʃæleɪ] *n* qishloq uyi (*asosan, Shveysariyada*).
- chalk** [tʃɔ:k] **1.** *n* boʻr; **2.** *v* boʻr bilan yozmoq.
- chalk-stone** [ˈtʃɔ:kstəʊn] *n* ohaktosh.
- chalky** [ˈtʃɔ:kɪ] *a* boʻrga oid, boʻrli; 2) ohakdan qilingan, ohakli.
- challenge** [ˈtʃælɪndʒ] **1.** *n* daʼvat qilish (*musobaqada*); **2.** *v* daʼvat qilmoq.
- challenger** [ˈtʃælɪndʒə] *n* daʼvatchi, chaqiruvchi.
- challenging** [ˈtʃælɪndʒɪŋ] *a* katta kuch talab qiladigan.
- chalybeate** [kə ˈlɪbɪət] *a* tarkibida temir boʻlgan, temirli (*kon, manba haqida*).
- chamber** [ˈtʃeɪmbə] **1.** *n* xona, boʻlma, uy; **2.** *a* kameraga oid, kamerada boʻladigan; **3.** *v* kameraga qamab qoʻymoq.
- chamber-maid** [ˈtʃeɪmbəmeɪd] *n* mehmonxona xodimasi (*mehmonxona uylariga qarovchi ayol*).
- chamber-pot** [ˈtʃeɪmbəpɒt] *n* tuvak.
- chameleon** [kə ˈmi:lɪən] *n* gapida turmaydigan (ikkizuzlama) odam.
- chamfer** [ˈtʃæmfə] *n* 1) tarnov, nov; 2) chuqur (*oʻyilgan joy*).
- chamois** [ˈʃæmwɑ:] *n fr. zool.* togʻ kiyik, qora echki.
- chamois-leather** [ˈʃæmi,lɛðə] *n* zamsh (*bugʻu, qoʻy va boshqa mollarning terisidan tayyorlangan yumshoq baxmalsimon charm*).
- champ** [tʃæmp] **1.** *n* chapillatib chaynash; **2.** *v* chapillatib chaynamoq.
- champagne** [ˌʃæm ˈpeɪn] *n fr.* shampan vinosi.
- champaign** [ˈtʃæmpɛɪn] *n* tekislik, tekis yer.
- champerty** [ˈtʃæmpətɪ] *n yur.* noqonuniy ravishda sotib olish (xarid qilish).
- champignon** [ˈtʃæmpi:njən] *a fr. bot.* shampinion (*qoziqorinning bir turi*).
- champion** [ˈtʃæmpiən] **1.** *a soʻzl.* birinchi darajali, eng yaxshi; **2.** *v* 1) himoya qilmoq; 2) nima uchun-

- dir kurashmoq; **3.** *n* 1) kurashchi, kurashuvchi; 2) chempion, g'olib.
- championship** [ˈtʃæmpjənʃɪp] *n sport.* birinchilik, musobaqa.
- chance** [tʃɑːns] *n* 1) imkoniyat; 2) tasodif.
- chance-comer** [ˈtʃɑːns,kʌmə] *n* tasodifiy yoki kutilmagan mehmon.
- chanceful** [ˈtʃɑːnsfʊl] *a* qaltis; xavfli, xatarli.
- chancel** [ˈtʃɑːnsəl] *n* mehrob (*cherkovning ibodat qiladigan asosiy qismi*).
- chancellor** [ˈtʃɑːnsələ] *n* kansler (*ba'zi davlatlarda: oliy martabali amaldorlar unvoni*).
- chancellory** [ˈtʃɑːnsələri] *n* kanslerlik (*ba'zi davlatlarda: oliy martabali amaldorlar unvoni*).
- chance-medley** [ˈtʃɑːns,medli] *n yur.* qotillik.
- chancery** [ˈtʃɑːnsəri] *n* lord-kansler sudi.
- chancer** [ˈtʃæŋkə] *n tib.* yara.
- chancy** [ˈtʃɑːnsi] *a so'zl.* qaltis.
- chandelier** [ˌʃændəˈliə] *n* qandil, katta shamdon (*childiroq*).
- chandler** [ˈtʃɑːndlə] *n* sham ishlab chiqadigan fabrika egasi.
- chandlery** [ˈtʃɑːndləri] *n* sham ombori.
- change** [tʃeɪndʒ] **1.** *n* almashtirish; **2.** *v* almashtirmoq.
- changeability** [ˌtʃeɪndʒəˈbɪləti] *n* o'zgaruvchanlik.
- changeable** [ˈtʃeɪndʒəbl̩] *a* o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan.
- changeful** [ˈtʃeɪndʒfʊl] *a* o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan.
- changeless** [ˈtʃeɪndʒləs] *a* o'zgarmaydigan, doimiy.
- change-over** [ˈtʃeɪndʒ,əʊvə] *n* o'zgartirish, almashtirish.
- channel** [ˈtʃænl] **1.** *n* kanal; **2.** *v* ariq qazimoq (*kovlamoq*).
- chanson** [ʃɑːnˈsɔːn] *n fr.* ashula, qo'shiq, o'lan.
- chant** [tʃɑːnt] **1.** *n she'r.* ashula, qo'shiq; **2.** *v* ashula (qo'shiq) aytmoq.
- chantage** [ˈtʃɑːntɪʒ] *n fr.* qo'rqitib, do'q qilib undirish (*olish*).
- chanterelle** [ˌʃɑntəˈrel] *n fr.* qo'ziqorinning bir turi.
- chantry** [ˈtʃɑːntri] *n cherk.* 1) o'lganlar ruhiga duoyi fотиha qilish uchun qoldirilgan pul; 2) mehrobsiz kichik butxona; kichik ibodatxona.
- chanty** [ˈʃænti] *n dengizchilar* (matroslar)ning xor bo'lib kuylaydigan qo'shiqlari.
- chaos** [ˈkeɪs] *n* o'ta tartibsizlik.
- chaotic** [keɪˈɔːtɪk] *a* tartibsiz, chalkash.
- chap** [tʃæp] *n* 1) *so'zl.* o'spirin, yigitcha; 2) yoriq, darz; 3) *n* jag' (*asosan, hayvonlarniki*).
- chaparral** [ˌʃæpəˈræl] *n amer.* tikanli buta.
- chap-book** [ˈtʃæpbʊk] *n* arzon narxda nashr etilgan xalq ertaklari kitobi.
- chapel** [ˈtʃæpəl] *n* mehrobsiz kichik butxona (*kichkina ibodatxona*).
- chaperon** [ˈʃæpərəʊn] **1.** *n* yosh qizni balga kuza-tib boruvchi keksa ayol; **2.** *v* kuzatmoq (*yosh qizni*).
- chap-fallen** [ˈtʃæp,fɔːlən] *a* osilgan jag' bilan.
- chapter** [ˈtʃæptə] *n me'mor.* ustunning qoshi (*ustunning shippa tutashgan yuqori qismi*).
- chaplain** [ˈtʃæplɪn] *n* ruhoni.
- chaplet** [ˈtʃæplət] *n* gulchambar.
- chapman** [ˈtʃæpmən] *n* sayyor savdogar.
- chappie** [ˈtʃæpi] *n so'zl.* yigitcha, yigit, o'spirin.
- chappy I** [ˈtʃæpi] **1.** *a* yoriladigan; **2.** *n so'zl.* yigitcha.
- chappy II** [ˈtʃæpi] = **chappie.**
- chapter** [ˈtʃæptə] **1.** *n* bob (*kitoblarda*); **2.** *v* kitobni boblarga bo'lmoq.
- char I** [tʃɑː] **1.** *n* kundalik (*kunbay, kunli*) ish; **2.** *v* kundalik ishni bajarmoq.
- char II** [tʃɑː] **1.** *n* kuyib ko'mirga aylangan narsa; **2.** *v* ko'mirga aylantirmoq.
- charabanc** [ˈʃærəbæŋ] *n* uzoqqa qatnaydigan (*o'rindiqli*) avtobus.
- character** [ˈkærəktə] **1.** *n* xarakter, tabiat, xususiyat; **2.** *v* aks ettirmoq, gavdalandirmoq.
- characteristic** [ˌkærɪktəˈrɪstɪk] **1.** *a* keskin harakatli, o'jar; boshqalardan ajralib turadigan; **2.** *n* o'ziga xos fazilat.
- characteristically** [ˌkærɪktəˈrɪstɪklɪ] *adv* o'ziga xoslik bilan.
- characterization** [ˌkærɪktəraɪˈzeɪʃn] *n* ta'rif, tas-nif, baho.
- characterize** [ˈkærɪktəraɪz] *v* ta'riflamoq, baho bermoq, ifoda etmoq.
- characterless** [ˈkærɪktələs] *a* irodasiz, irodasi sust.
- charade** [ʃəˈrɑːd] *n* sharada (*topishmoqning bir turi*).
- charcoal** [ˈtʃɑːkəʊl] **1.** *n* pista ko'mir; **2.** *v* ko'mir bilan chizmoq.
- charcoal-burner** [ˈtʃɑːkəʊl,bɜːnə] *n* ko'mir qazuvchi.
- chare** [tʃeə] = **char I.**
- charge** [tʃɑːdʒ] **1.** *n* 1) ayblash; 2) hujum; 3) *el.* zaryad (*elektrlangan jismdagi elektr miqdori*); **2.** *v* 1) ayblamoq; 2) hujum qilmoq; 3) narxni tayinlamoq (*belgilamoq*); 4) yozmoq (*kimningdir hisobiga*); 5) *el.* zaryadlash.
- chargeable** [ˈtʃɑːdʒəbl̩] *a* 1) ayblashga ta'na qilishga arziydigan; 2) mas'ul (*javobgar*).
- charge d'affaires** [ʃɑːʒeɪdæˈfeə] *fr.* *n dip.* ishonchli vakil (*martabasi elchidan pastroq bo'lgan diplomatik vakil*).
- charger** [ˈtʃɑːdʒə] *n* 1) yuklovchi odam; 2) *yur.* ayblovchi, qoralovchi.
- charge-sheet** [ˈtʃɑːdʒiːt] *n* 1) politsiya bayonnomasi; 2) ayblov xulosasi.
- chariness** [ˈtʃærɪnəs] *n* 1) ehtiyotkorlik; 2) tejamkorlik; 3) g'amxo'rlik, mehribonlik.
- chariot** [ˈtʃærɪət] **1.** *n she'r.* ikki g'ildirakli jang (*yoki poyga*) aravasi (*qadimgi yunonlarda va rimliklarda*); **2.** *v* ikki g'ildirakli aravada yurmoq.

charioteer [ˌtʃærɪəʊtɪə] *n soʻzl.* aravakash. izvoshchi.

charisma [ˈkærɪzmə] Ollohning inʼoni.

charitable [ˈtʃærɪtəbl̩] *n* muhtojlarga yordam beruvchi.

charity [ˈtʃærɪtɪ] *n* 1) rahm (*shafqat, marhamat*); 2) muhtojlarga yordam (*xayr-saxovat; ehson*).

charity-school [ˈtʃærɪtɪsku:l] *n* yetimxona.

charivari [ˌʃɑːrɪˈvɑːrɪ] *n fr.* shovqin, shovqin-suron.

charlatan [ˈʃɑːlətən] *n* 1) aldoqchi; 2) tovlamachi; 3) duxon.

Charley [ˈtʃɑːli] *n soʻzl.* tungi qorovul.

charlock [ˈtʃɑːlək] *n bot.* yovvoyi xantal (*oʻsimlik*).

charlotte [ˈʃɑːlət] *fr. n* sharlotta (*qat-qat xamir ichiga olma solib pishirilgan ovqat*).

charm [tʃɑːm] **1.** *n* joziba, dilrabolik, dilbarlik; yoqimlilik; **2.** *v* maftun etmoq.

charmer [ˈtʃɑːmə] *n* dilbar (juda goʻzal) kishi (*asosan, ayollar haqida*).

charming [ˈtʃɑːmɪŋ] **1.** *pres. p.* **charm** **2 dan;** **2.** *a* juda chiroyli, koʻrkam, dilbar.

charnel-house [ˈtʃɑːnlhauz] *n* yer ostidagi sagʻana (*daxma*).

charred [ˈtʃɑːd] *a* kuygan, kuyib qoraygan.

chart [tʃɑːt] **1.** *n* dengiz xaritasi; **2.** *v* 1) xaritaga kiritmoq; 2) xarita tuzmoq.

charter [ˈtʃɑːtə] **1.** *n* 1) xartiya (*qadimgi qoʻlyozma, hujjat va shunday qoʻlyozma yozilgan material yoki qogʻoz*); 2) nizom; **2.** *v* imtiyoz (yengillik) bermoq.

chartered [ˈtʃɑːtəd] *a* imtiyozga ega boʻlgan.

charterer [ˈtʃɑːtərə] *n deng.* kemani kiraga oladigan kishi *yoki* tashkilot.

Charterhouse [ˈtʃɑːtəhaus] *n* nafaqaga chiqqan qariyalar uyi (*London*).

charter-party [ˈtʃɑːtəˌpaːtɪ] *n deng.* kemani yollash shartnomasi.

chartism [ˈtʃɑːtɪzəm] *n tar.* chartizm.

chartist [ˈtʃɑːtɪst] *n tar.* chartizm tarafdori.

chateuse [ʃɑːˈtəʊz] *n* likor (*oʻtkir shirin spirtli ichimlik*).

charwoman [ˈtʃɑːˌwʊmən] kunbay (*qatlab*) ishlaydigan uy xodimasi.

chary [ˈtʃɛəri] *a* ehtiyotkor.

chase [tʃeɪs] **1.** *n* 1) quvish, taʼqib qilish; 2) ov; 3) ov qilish joyi; **2.** *v* 1) ov qilmoq; 2) oʻyib naqsh tushirmoq.

chaser [ˈtʃeɪsə] *n* 1) taʼqib (quvgʻin) qiluvchi; 2) zarb qiluvchi (bosuvchi, oʻymakor) usta.

chasing [ˈtʃeɪsɪŋ] *n* 1) taʼqib qilish; ketidan quvish; 2) oʻymakorlik ishi.

chasm [ˈkæzəm] *n* 1) chuqur dara; 2) tubsiz chuqurlik, jar.

chassis [ˈʃæsi] *n (pl chassis)* *tex.* shassi; yurgizadigan qism.

chaste [tʃeɪst] *a* iffatli, bokira.

chasten [ˈtʃeɪsn] *v* tartib-intizom solmoq.

chastise [tʃæˈstaɪz] *v* jazo bermoq (*asosan, tan jazosi*).

chastisement [tʃæˈstaɪzmənt] *n* intizomiy jazo.

chastity [ˈtʃæstəti] *n* iffatlilik, bokiralik.

chasuble [ˈtʃæzjʊbl̩] *n cherk.* riza (*ruhoniylarning ibodat vaqtda kiyadigan libosi*).

chat I [tʃæt] **1.** *n* 1) doʻstona suhbat; 2) safsata; **2.** *v* tortinmasdan (bemalol) gapirmoq.

chat II [tʃæt] *n* sirchumchuq.

château [ˈʃætəʊ] *n fr.* qasr, saroy, ark, qoʻrgʻon.

chateaux [ˈʃætəʊz] *n pl* qasr, qoʻrgʻon, saroy, ark, oʻrda.

chatelaine [ˈʃætələɪn] *n fr.* qasr, saroy (*yer-suv sohibasi*) bekasi.

chatoyant [ʃəˈtɔɪənt] *a fr.* yarqiraydigan (*rang haqida*).

chattel [ˈtʃætəl] *n* koʻchirib boʻladigan mol-mulk (mol-dunyo).

chatter [ˈtʃætə] **1.** *n* bekorchi gap, safsata; **2.** *v* vaysamoq.

chatterbox [ˈtʃætəbɒks] *n* sergap odam, ezma.

chatterer [ˈtʃætərə] *n* sergap odam, ezma.

chatty [ˈtʃæti] **1.** *a* sergap, vaysaqi; **2.** *n hind.* sopol koʻza.

Chaucerian [tʃɔːˈsɪəriən] *a* Choserga oid.

chauffer [ˈtʃɔːfə] *n* koʻchma temir pechka (*kichkina*).

chauffeur [ˈʃəʊfə] *n fr.* haydovchi.

chauvinism [ˈʃəʊvɪnɪzəm] *n* shovinizm (*ashaddiy millatchilik*).

chauvinist [ˈʃəʊvɪnɪst] *n* shovinizm, shovinizm tarafdori.

chauvinistic [ˌʃəʊvɪnɪstɪk] *a* shovinizmga oid, shoviniztlarcha.

chaw [tʃɔː] **1.** *n* 1) chaynash; 2) saqich; **2.** *v* chaynamoq.

chaw-bacon [ˈtʃɔːˌbeɪkən] *n* qoʻpol (madaniyat-siz) yigit.

cheap [tʃiːp] **1.** *a* arzon, narxi past; **2.** *adv* arzimagan narxga, suvtekin.

cheapen [ˈtʃiːpən] *v* arzonlashmoq (*narx-navo toʻgʻrisida*).

cheap jack [ˈtʃiːpdʒæk] *n* koʻtarib yurib sotuvchi, arzon narxlarga sotuvchi kishi.

cheaply [ˈtʃiːpli] *adv* arzimagan narxga.

cheat [tʃiːt] **1.** *n* 1) firib berish, aldash; 2) tovlamachilik, qalloblik; **2.** *v* 1) aldamoq; 2) tovlamachilik qilmoq.

check I [tʃek] **1.** *n* 1) nazorat; 2) tekshirish; 3) toʻxtatish, orqaga surish; 4) *shaxm.* kishit; **2.** *v* 1) nazorat qilmoq; 2) toʻxtatmoq, orqaga surmoq.

check II [tʃek] *n* 1) toʻsiq, toʻxtash; 2) tekshirish, nazorat; 3) belgi (*tekshirilganlik belgisi*).

check III [tʃek] **1.** *n* 1) yuk qogʻoz; 2) *amer.* chek; **2.** *v* bermoq, topshirmoq (*omonat va b.*).

checker [ˈtʃekə] *n amer.* shashka (*oʻyin*).

checkerboard [ˈtʃekəbɔːd] *n* shaxmat taxtasi.

checkered [ˈtʃekəd] = **chequered**.
checkin [ˈtʃekɪn] *n* ro'yxatdan o'tish joyi, mehmonxonaga joylashish.
checking [ˈtʃekɪŋ] *n* tekshirish, qiyoslash.
checking-room [ˈtʃekɪŋru:m] = **check-room**.
checkmate [ˈtʃekmeɪt] **1.** *n* shoh va mot; **2.** *v* mot qilmoq.
check-nut [ˈtʃeknʌt] *n* *tex.* kontrgayka (*asosiy gayka bo'shab ketmasligi uchin uning ustidan, burab qo'yiladigan ikkinchi gayka*).
check-off [ˈtʃekɔf] *n* *amer.* ish haqidan ushlab qolish (*a'zolik badali, kvartira haqini*).
check-out [ˈtʃekaut] *n* 1) nazorat, sinov; 2) mehmonxonadan chiqib ketish; mehmonxonada egallab turgan joyni bo'shatish.
check-point [ˈtʃekpɔɪnt] *n* nazoratdan o'tqazish, (tekshirib ko'rib) o'tishga ijozat beradigan joy.
check-room [ˈtʃekrum] *n* 1) ust-bosh yechib qo'yiladigan joy, kiyim shkafi; 2) omonatxona.
checkrow [ˈtʃekrəʊ] *n* *q-x* kvadrat uyalab ekish.
check-taker [ˈtʃek,tɛkə] *n* *teatr.* chipta tekshiruvchi.
check-up [ˈtʃekʌp] *n* tekshirish, nazorat.
check-weigher [ˈtʃek,weɪə] *n* nazorat qilib turadigan tarozibon.
Cheddar [ˈtʃedə] *n* cheddar (*pishloqning navi*).
cheek [tʃi:k] **1.** *n* bashara, yonoq; **2.** *v* so'zl. surbetlik qilmoq.
cheek-bone [ˈtʃi:kbəʊn] *n* yuz (yonoq) suyagi.
cheek-tooth [ˈtʃi:ktu:θ] *n* oziq tish, jag' tishi.
cheeky [ˈtʃi:ki] *a* so'zl. surbet.
cheep [tʃi:p] **1.** *n* chiyillash, chirqillash (*qush va sichqonlar to'g'risida*); **2.** *v* chirqillamoq.
cheeper [ˈtʃi:pə] *n* qush bolasi, jo'ja.
cheer [tʃɪə] **1.** *n* xushchaqchaqlik, quvnoqlik; **2.** *v* 1) ruhlantirmoq; 2) xursand qilmoq.
cheerful [ˈtʃɪəfəl] *a* quvnoq, xushchaqchaq.
cheerfulness [ˈtʃɪəfəlnɪs] *n* shodlik, xursandchilik.
cheerio [tʃɪəriə] *so'zl.* sizning sog'lig'ingiz uchun.
cheerless [ˈtʃɪələs] *a* ma'yus, g'amgin, umidsiz.
cheers [ˈtʃɪəz] *n* 1) nutq so'zlab qadah ko'tarish; 2) rahmat; 3) xayr.
cheery [ˈtʃɪəri] *a* shod, xursand, vaqti chog'.
cheese [tʃi:z] *n* pishloq; --**cake** pishloqli pirog.
cheese-cloth [ˈtʃi:zklɔθ] *n* doka.
cheesemonger [ˈtʃi:z,mɒŋgə] *n* pishloq sotuvchi kishi.
cheese-paring [ˈtʃi:z,pɛəriŋ] *n* xasislik.
cheesy [ˈtʃi:zi] *a* pishloqqa oid.
cheetah [ˈtʃi:tə] *n* *zool.* gepard, chita (*yirtqich hayvon*).
chef [ʃef] *fr.* *n* bosh oshpaz.
chef-d'oeuvre [ʃeɪˈdɔ:vʁə] *n* *fr.* shoh (durdona) asar.
cheiromancy [ˈkaɪərəʊmænsɪ] = **chiromancy**.
chiroptera [kaɪəˈrɒptərə] *n* *pl* *zool.* qo'lqanotlilar (*sutemizuvchilar otradi*).
chela [ˈki:lə] *n* *zool.* panja, changal (*hasharotlarda*).

chemical [ˈkemɪkl] **1.** *a* kimyoviy; **2.** *n* *pl* kimyoviy preparatlar.
chemise [ʃəˈmi:z] *n* ayollar ko'ylagi.
chemisette [ˌʃemɪˈzɛt] *n* manishka (*ayollar ko'y-lagining, qadama ko'krak qismi*).
chemist [ˈkemɪst] *n* 1) kimyogar; 2) dorixonada ishlovchi.
chemistry [ˈkemɪstrɪ] *n* kimyo.
chemotherapy [ˌki:məʊˈθerəpi] *n* *tib.* kimyoterapiya (*yuqumli kasalliklarni kimyoviy moddalar bilan davolash*).
chenille [ʃəˈni:l] *n* baxmal ip, xom ip (*gul tikish, popik yasash uchun*).
cheque [tʃek] *n* bank cheki.
cheque-book [ˈtʃekbʊk] *n* chek daftarchasi.
cheque card [ˈtʃekka:d] *n* plastik kartochka.
chequer [ˈtʃekə] *v* shaxmat tartibida joylashtirmoq.
chequered [ˈtʃekəd] *a* katak gulli, katak-katak.
chequer-wise [ˈtʃekəwɪz] *adv* shaxmat tartibida.
cherish [ˈtʃerɪʃ] *v* 1) umid bog'lamoq; 2) yodda tutmoq.
cherished [ˈtʃerɪʃt] *a* qimmatli, ardoqli, aziz, muqaddas, tabarruk.
cherry [ˈtʃɛrɪ] **1.** *n* olcha (*mevasi*); **2.** *a* 1) to'q qizil, olcha rang; 2) olchadan qilingan.
cherry-pie [ˈtʃerɪpaɪ] *n* olchadan qilingan (olchali) pirog.
cherry-stone [ˈtʃɛrɪ,stəʊn] *n* olcha danagi.
cherry-tree [ˈtʃɛrɪtri:] *n* olcha daraxti.
chert [tʃɔ:t] *n* kremniyli slanec.
cherry-stone [ˈtʃɛrɪ,stəʊn] *n* olcha danagi.
cherub [ˈtʃɛrəb] *n* (*pl* - *s* [-z], -**him**) oliy martabali farishta (*xristian dinida*).
cherubic [tʃəˈru:bɪk] *a* farishtadek begunoh.
cherubim [ˈtʃɛrəbɪm] *pl* **cherub** *dan*.
chess [tʃɛs] *n* 1) shaxmat; 2) deraza romi.
chess-board [ˈtʃesbɔ:d] *n* shaxmat taxtasi.
chess-man [ˈtʃesmæn] *n* shaxmat donalari.
chess-player [ˈtʃes,pleɪə] *n* shaxmat o'yinchisi, shaxmatchi.
chest [tʃɛst] *n* sandiq, quti.
chesterfield [ˈtʃɛstəfi:ld] *n* katta yumshoq divan.
chestnut [ˈtʃɛsnʌt] **1.** *n* *bot.* kashtan (*qoraqayinlar oilasiga mansub daraxt va uning yong'og'i*); **2.** *a* jigarrang, qizg'ish.
chest-voice [ˈtʃɛstvɔɪs] *n* ichdan (ko'krakdan) chiqariladigan past ovoz.
chevalier [ˌʃevəˈliə] *n* yigit, yigitcha.
chevaux de frise [ʃəˈvəʊdəˈfri:z] *n* g'ov, to'siq.
cheviot [ˈtʃɛvɪət] *n* sheviot (*jum gazlama*).
chevron [ˈʃevrən] *n* shevron (*muddatidan ortiq harbiy xizmatni davom ettirayotgan, harbiylarning yengidagi taqiladigan uga*).
chevy [ˈtʃɛvi] **1.** *n* 1) ov; 2) quvish; **2.** *v* quvmoq.
chew [tʃu:] **1.** *n* saqich; **2.** *v* chaynamoq.
chewing-gum [ˈtʃu:ɪŋgʌm] *n* chaynaladigan rezinka, saqich.

- chibouk, chibouque** [tʃɪˈbu:k] *n* nay, chilim nayi.
chic [ʃi:k] **1.** *n fr.* nazokatilik, orastalik; **2.** *a* orasta, kelishgan. zebo.
chicane [ʃɪˈkeɪn] *n* 1) asossiz ayblash; 2) ishkal chiqarish.
chicanery [ʃɪˈkeɪnəri] *n* safsatobozlik.
chick [tʃɪk] *n* 1) joʻja; 2) qush bolasi.
chickabiddy [ˈtʃɪkəˈbɪdi] *n* erkak joʻjacha, xoʻrozcha); qushcha.
chickaree [ˈtʃɪkəri:] *n* shimoliy Amerika olmaxoni.
chicken [ˈtʃɪkɪn] *n* joʻja, qush bolasi.
chicken-hearted [ˈtʃɪkɪnˌhɑːtɪd] *a* qoʻrqoq, yuraksiz.
chicken-liver [ˈtʃɪkɪnˌlɪvə] *n* qoʻrqoq.
chicken-pox [ˈtʃɪkɪnpɒks] *n* tib. suvchechak.
chick-pea [ˈtʃɪkpi:] *n* bot. turk noʻxati.
chickweed [ˈtʃɪkwi:d] *n* bot. qum oʻt (*qumda boʻladigan bargli oʻsimlikning nomi*).
chicle [ˈtʃɪkl] *n* 1) chikl (*tabiiy kauchuk*); 2) saqich.
chicory [ˈtʃɪkəri] *n* bot. sachratqi (*oʻsimlik*).
chide [tʃaɪd] *v* (**chid**; **chid**, **chidden**) soʻkmoq, urishmoq, koyimoq.
chief [tʃi:f] **1.** *n* 1) boshliq, rahbar; bosh, eng katta, boshchilik qiluvchi; 2) eng muhim, asosiy, bosh; ~ **problem** eng muhim masala; **2.** *a* rahbarlik qiluvchi.
chiefly [ˈtʃi:flɪ] *adv* xususan, ayniqsa.
chieftain [ˈtʃi:ftən] *n* qabila sardori (boshligʻi).
chiff-chaff [ˈtʃɪftʃæf] *n* zool. qoramtir (kulrang) patli kichkina sayroqi qushcha.
chiffonier [ˌʃɪfəˈniə] *n* shifoner (*kiyim shkafi*).
chilbain [ˈtʃɪlbem] *n* sovuqqa oldirib qoʻyilgan joy.
child [tʃaɪld] *n* (*pl children*) chaqaloq, goʻdak.
child-bearing [ˈtʃaɪldˌbeərɪŋ] *n* tugʻish, bolalash.
childbed [ˈtʃaɪlɪdɪd] *n* tugʻish bolalash.
child-birth [ˈtʃaɪldbɜːθ] *n* 1) tugʻish, bolalash; 2) tugʻish (tugʻilish) miqdori.
childhood [ˈtʃaɪldhʊd] *n* 1) bolalik davri; 2) bolalarga xos; ~ **disease** bolalar kasalligi.
childish [ˈtʃaɪldɪʃ] *a* bolalarga xos boʻlgan.
childless [ˈtʃaɪldləs] *a* bolasiz, befarzand.
childlike [ˈtʃaɪldlaɪk] *a* oddiy, gunohsiz, samimiy.
childly [ˈtʃaɪldli] **1.** *a sheʻr.* bolalarga xos boʻlgan; **2.** *adv* bolalarcha ish tutadigan.
child-minder [ˈtʃaɪldˌmaɪndə] *n* enaga.
childness [ˈtʃaɪldnəs] *n* bolalarga xos soddalik, bolalarga xos xulq-atvor.
children [ˈtʃɪldrən] *n* pl bolalar.
childʼs-play [ˈtʃaɪldzpleɪ] *n* oson topshiriq; oson ish.
Chilean [ˈtʃɪlɪən] **1.** *a* Chili va chililiklarga oid; **2.** *n* chililik ayol (*erkak*).
chiliad [ˈkɪlɪæd] *a* 1) ming; 2) ming yillik.
Chilian [ˈtʃɪlɪən] = **Chilean**.
chill [tʃɪl] **1.** *n* sovuq; **2.** *a* salqin; **3.** *v* sovutmoq.
chilli [ˈtʃɪli] *n* *isp. bot.* qizil garmdori.
- chilling** [ˈtʃɪlɪŋ] *a* qoʻrqinchli, vahimali, dahshatli, mudhish, bahaybat.
chilly [ˈtʃɪli] **1.** *n* bot. achchiq qizil qalampir; **2.** *a* sovuq, salqin.
chime [tʃaɪm] **1.** *n* 1) qoʻngʻiroq; 2) qoʻngʻiroq ovozi, jarangli; **2.** *v* jaranglamoq (*qoʻngʻiroqlar haqida*).
chimera [kaɪˈmɪərə] *n* xomxayol; amalga oshmaydigan orzu.
chimerical [kaɪˈmerɪkl] *a* amalga oshmaydigan.
chimney [ˈtʃɪmni] *n* moʻri.
chimney-cap [ˈtʃɪmnikæp] *n* moʻring qalpoqʻi.
chimney-piece [ˈtʃɪmni:pi:s] *n* kamin (*oʻchoqsimon uy pechkasi*)ning ustidagi taxtadan qilingan tokcha.
chimney-stack [ˈtʃɪmniˌstæk] *n* moʻri, moʻrkon.
chimney-stalk [ˈtʃɪmniˌstɔ:k] *n* zavodda tayyorlangan truba.
chimney-sweep [ˈtʃɪmniˌswi:p] *n* moʻri tozalovchi.
chimpanzee [tʃɪmpənˈzi:] shimpanze (*odamsimon maymun*).
chin [tʃɪn] *n* iyak, engak.
China [ˈtʃaɪnə] *a* Xitoy va xitoyliklarga oid.
china [ˈtʃaɪnə] **1.** *n* chinni, chinni buyumlar; **2.** *a* chinnidan qilingan (yasalgan).
china-clay [ˈtʃaɪnəkleɪ] *n* chinnibop loy.
china-closet [ˈtʃaɪnəkloʊzɪt] *n* bufet (*idish-tovoq javoni*).
China ink [ˈtʃaɪnɪŋk] *n* Xitoy tushi (*siyohi*).
Chinaman [ˈtʃaɪnəmən] *n* xitoylik.
chinaman [ˈtʃaɪnəmən] *n* chinni buyumlarni sotuvchi.
Chinatown [ˈtʃaɪnətəʊn] *n* xitoylar mahallasi (*Xitoyga qarashli boʻlmagan shaharlarda*).
china-ware [ˈtʃaɪnəweə] *n* chinni buyumlar.
Chinawoman [ˈtʃaɪnəˌwʊmən] xitoylik ayol.
chinch [tʃɪntʃ] *n* 1) hayvon umurtqasi; 2) dara.
chine [tʃaɪn] *n* 1) hayvon umurtqasi; 2) suyaksiz goʻsht; 3) togʻ tizmasi; 4) dara.
Chinee [tʃaɪˈni:] *n* xitoylik.
Chinese [tʃaɪˈni:z] **1.** *a* Xitoy va xitoyliklarga oid, xitoycha; **2.** *n* xitoylik erkak (*ayol*).
chink [tʃɪŋk] **1.** *n* 1) jaranglash (*stakan; tanga*); 2) kovak; tirqish; yoriq; **2.** *v* jaranglamoq.
chintz [tʃɪnts] *n* chit.
chip [tʃɪp] **1.** *n* mayda tarasha; **2.** *v* kesmoq, chopmoq; yormoq.
chipmuck [ˈtʃɪpmʌk] = **chipmunk**.
chipmunk [ˈtʃɪpmʌŋk] *n* zool. olasichqon.
chippie [ˈtʃɪpi] *n* amer. buzuq (yengiloq) xotin, fohisha.
chippy [ˈtʃɪpi] *a* 1) dami (tigʻi) qaytgan (*pichoq toʻgʻrisida*); 2) singan (*idishning cheti toʻgʻrisida*).
chirk [tʃɜ:k] **1.** *a* amer. soʻzl. xursand, quvnoq; **2.** *v* xursandchilik (vaqtichogʻlik) qilmoq.
chirm [tʃɜ:m] *n* qushning sayrash.

chiromancy [ˈkairəʊ,mænsɪ] *n* qoʻlga qarab bashorati qilish.

chiropodist [kɪˈrɒpədɪst] *n* qadoqlarni kesuvchi xodim.

chiropody [kɪˈrɒpədi] *n* pedikyur (*oyoq tirnoqlariga pardozi berish va qadoqlarni kesish*).

chirp [tʃɪ:p] *n* chugʻurlash (*qush toʻgʻrisida*).

chirpy [ˈtʃɪ:pɪ] *a* quvnoq, xushchaqchaq, shod, xursand.

chirr [tʃɪ:] **1.** *n* chirillash; **2.** *v* chirillamoq.

chirrup [ˈtʃɪrɒp] **1.** *n* 1) qushlarning sayrashi; 2) chugʻullash; **2.** *v* chugʻur-chugʻur qilib sayramoq (*qushlarga oid*).

chisel [ˈtʃɪzl] **1.** *n* 1) *tex.* iskana; 2) kesish asbobi, keskich; **2.** *v* *tex.* iskana bilan ishlamoq.

chiselled [ˈtʃɪzld] *a* charxlangan.

chit [tʃɪt] **1.** *n* 1) chaqaloq, goʻdak; 2) nish, nihol; 3) qisqa xat; **2.** *v* nish urmoq.

chit-chat [tʃɪttʃæt] *n* bekorchi gap, safсата.

chiton [ˈkætən] *n* xiton (*qadimiy yunonlar kiyimi*).

chitterlings [ˈtʃɪtəlɪŋz] *n pl* ichak-chovoq.

chivalrous [ˈtʃɪvələrs] *a* ritsarlarga oid.

chivalry [ˈtʃɪvəlri] *n* ritsarlik unvoni.

chive [tʃaɪv] *n* bot. nish piyozi.

chivied [ˈtʃɪvɪd] *a* juda charchagan.

chivy [ˈtʃɪvi] = **chevy**.

chloric [ˈklɔ:ɪk] *a* kim. xlorli; ~ **acid** xlor kislotasi.

chloride [ˈklɔ:ɪd] *a* kim. xlorli.

chlorine [ˈklɔ:ri:n] **1.** *n* kim. xlor (*kimyoviy element*); **2.** *a* och yashil.

chloroform [ˈklɔ:rəfɔ:m] **1.** *n* xloroform (*koʻpincha narkoz uchun qoʻllaniladi, shirinroq hidli suyuqlik*); **2.** *v* xloroform bermoq (*xloroform yordamida uyquga ketkazmoq*).

chlorophyll [ˈklɔ:rəfɪl] *n* bot. xlorofill (*oʻsimlikka yashil rang berib turuvchi modda*).

chlorosis [klɔ:ˈrəʊsɪs] *n* 1) tib. kamqonlik (*qon tanachalarida gemoglobin yetishmasligi natijasida paydo boʻladigan kasallik*); 2) bot. rangsizlik, oʻz rangini yoʻqotish (*oʻsimliklarda xlorofill moddasi yetishmasligi sababli hosil boʻladigan kasallik*).

chlorous [ˈklɔ:rəs] *a* kim. xlorli; ~ **acid** xlor kislotasi.

chock [tʃɔk] **1.** *n* 1) pona; 2) tirgovich, tirak; **2.** *v* tirgak qoʻymoq.

chock-a-block [tʃɔkəˈblɔk] *a* soʻzl. liq, toʻla.

chock-full [ˈtʃɔkful] *a* liq toʻlgan, lim-lim boʻlgan, niqtalab joylashtirilgan.

chocolate [ˈtʃɔklət] *n* shokolad.

choice [tʃɔɪs] **1.** *n* tanlab olish; **2.** *a* eng yaxshi, tanlangan, saralangan.

choicely [ˈtʃɔɪsli] *adv* 1) tanlab; 2) ehtiyot boʻlib.

choir [ˈkwaɪə] **1.** *n* 1) xor ansambli; 2) cherkov xori; **2.** *v* xor boʻlib kuylamoq.

choir-master [ˈkwaɪə,mɑ:stə] *n* xormeyster (*xor rahbari*).

choke [tʃɔk] **1.** *n* boʻgʻish, boʻgʻib oʻldirish; **2.** *v* boʻgʻmoq, boʻgʻib oʻldirmoq; ~ **down** qiyinchilik bilan (*zoʻrgʻa yutmoq*).

choke-coil [ˈtʃɔkkoɪl] *n* drossel gʻaltagi.

choke-damp [ˈtʃɔkdæmp] *n* boʻgʻuvchi gaz (*konlarda*).

choke-full [ˈtʃɔkful] *a* liq toʻla, tiqilinch.

choker [ˈtʃɔkə] *n* boʻgʻuvchi.

chokidar [ˈtʃɔkɪdɑ:] *hind.* *n* qorovul, soqchi, qoʻriqchi.

choky [ˈtʃɔkɪ] *a* nafasni qaytaradigan.

choler [ˈkɔlə] *n* gʻazab, nafrat, qahr, jahl, zarda.

cholera [ˈkɔlə] *n* tib. vabo.

choleraic [ˈkɔləˈreɪk] *a* tib. vaboga oid.

choleric [ˈkɔləɪk] *a* vaboga yoʻliqqan.

cholesterol [kɔˈlestəɪrɔl] *n* xolesterin (*organizmda, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarida boʻladigan va hayotiy ahamiyatga ega boʻlgan yogʻsimon modda*).

choose [tʃu:z] *v* (**choose**; **chosen**) tanlamoq.

chooser [ˈtʃu:zə] *n* tanlovchi kishi.

choos(e)y [ˈtʃu:zɪ] *a* soʻzl. injiq, nozik tabiatli.

chop [tʃɔp] **1.** *n* 1) chopish (*bolta va b. lar bilan*); 2) toʻqmoqlangan goʻshtdan tayyorlangan kotlet; **2.** *v* kesmoq.

chop-chop [ˌtʃɔpˈtʃɔp] *adv dial.* tez-tez.

chop-house [ˈtʃɔphaʊs] *n* arzon restoran.

chopper [ˈtʃɔpə] **1)** qassobning pichogʻi; **2)** *hind.* poxol yopilgan tom, poxolli tom.

chopper switch [ˈtʃɔpəswɪtʃ] *n* rubilnik (*kuchli elektr toklarini ulash va uzish uchun ishlatiladigan moslama*).

choppy [ˈtʃɔpi] *a* tez-tez oʻzgarib turadigan; birdan kuchayib yana pasayib ketadigan (*shamol*).

chopsticks [ˈtʃɔpstɪks] *n pl* ovqat yeyish uchun ishlatiladigan tayoqcha (*xitoyliklar, koreyaliklar va yaponiyaliklarda*).

chop-suey [ˌtʃɔpˈsu:ɪ] *n* xitoylar jarkopi.

choral [ˈkɔ:ɪl] *a* xorga oid, xor bilan aytiladigan.

choral(e) [kɔˈɪ:ɪ] *n* xoral.

chord [kɔ:d] **1)** tor (*sim, ip*); **2)** akkord (*turli balandlikdagi bir necha tovushning hamohang birligi*).

chorda [ˈkɔ:də] *n* anat. xorda (*baʼzi hayvonlarning oq skeleti*).

chordae [ˈkɔ:di:] *pl* **chorda** dan.

chorea [kɔˈɪə] *n* tib. shaytonlash (*kasallik*).

choree [kɔˈɪ:ɪ] *n* sheʼr. xorey (*sheʼriy vazn*).

choreographer [ˌkɔ:ɪˈɔgrəfə] *n* baletmeyster (*raqslarni sahnalashtiruvchi rahbar*).

choreographic [ˌkɔ:ɪˈgræfɪk] *a* xoreografiyaga oid; xoreografik.

choreography [ˌkɔ:ɪˈɔgrəfi] *n* xoreografiya (*raqs sanʼati*).

chorine [ˈkɔ:ri:n] *n* amer. xorda qatnashadigan ashulachi (*ayol*).

chorister [ˈkɔ:ɪstə] *n* xorda qatnashadigan ashulachi.

- chortle** [ˈtʃɔːtl] **1.** *n* qiqillab (hingillab) kulish; **2.** *v* past ovozda kulmoq.
- chorus** [ˈkɔːrəs] **1.** *n* xor, xor guruhi; **2.** *v* xor bilan qoʻshiq aytmoq, xor bilan qaytarmoq.
commission [kəˈmɪʃn] **1.** *n* vakolat; 2) vakolat-noma; 3) komissiya (*ayrim masala yuzasidan tuzilgan muvaqqat yoki doimiy tashkilot*); **2.** *v* 1) biror vazifaga tayinlamoq; 2) vakolat bermoq.
commissioned [kəˈmɪʃnd] *a* vakolatli; ishonilgan.
commissioner [kəˈmɪʃnə] *n* 1) maxsus vakil; 2) ko-missiya aʼzosi.
commit [kəˈmɪt] *v* 1) (*jinoyat*) sodir qilmoq; **to ~ suicide** oʻz joniga qasd qilmoq; 2) fikrini ochiq ifoda etmoq; 3) vaʼda bermoq.
commitment [kəˈmɪtmənt] *n* majburiyat, burch.
committee [kəˈmɪtɪ] *n* 1) komitet (*saylanma or-gan*); 2) *yur.* vasiy.
committee-man [kəˈmɪtɪmən] *n* komissiya yoki komitetning aʼzosi.
commixture [kəˈmɪkstʃə] *n* aralashma; qorishma.
commode [kəˈmɒd] *n* komod (*kiyim-kechak tura-digan qutili javon*).
commodious [kəˈmɒdɪəs] *n* keng.
commodity [kəˈmɒdətɪ] *n* mahsulot.
commodore [ˈkɒmədɔː] *n* deng. 1-rang kapitan.
common [ˈkɒmən] **1.** *a* 1) umumiy; 2) oddiy; **2.** *n* umumiy hol, umumiylik.
commoner [ˈkɒmənə] *n* oddiy odam.
common law [ˌkɒmən ˈlɔː] *n* urf-odatlarga asos-langan (odatiy) huquq.
commonly [ˈkɒmənli] *adv* odatga koʻra.
commonplace [ˈkɒmənpleɪs] **1.** *a* siyqasi chiqqan, koʻp chaynalgan; **2.** *n* siyqasi chiqqanlik (*ibora, fikr haqida*).
commonplace-book [ˈkɒmənpleɪsˌbʊk] *n* umumiy daftar.
common-room [ˈkɒmənruːm] *n* umumiy xona (*ja-moat tashkilotlarida*).
commons [ˈkɒməns] *n* 1) oddiy xalq; 2) (**the C**) parlamentning quyi palatasi (*Angliyada*).
commonweal [ˈkɒmənwiːl] *n* umumiy manfaat.
commonwealth [ˈkɒmənwelθ] *n* 1) mamlakat, davlat; 2) hamdoʻstlik; 3) ittifoq, uyushma.

commotion [kə'məʊʃn] *n* (*yurakdagi*) g'ashlik; iztirob, g'ulg'ula.
communal [ˈkɒmjʊnəl] *a* jamoaga qarashli.
commune **1.** *n* [ˈkɒmjʊ:n] 1) kommuna (*mulk va mehnatni umumlashtirish asosida tuzilgan kishilar jamoasi*); 2) jamoa; **2.** *v* [kə'mju:n] muomala qil-moq, aralashib yurmoq.
communicable [kə'mju:nɪkəbl̩] *a* odamga el bo'ladigan, dilkash.
communicate [kə'mju:nɪkeɪt] *v* xabar qilmoq.
communicating [kə'mju:nɪkeɪtɪŋ] *a* yonma-yonlik (*xona to'g'risida*).
communication [kə,mju:nɪ'keɪʃn] *n* axborot, xabar.
communicative [kə'mju:nɪkətɪv] *a* odamga el bo'ladigan.
communicatory [kə'mju:nɪkeɪtəri] *a* axborot beradigan.
communion [kə'mju:njən] *n* 1) aloqa qilish, aloqada bo'lish; 2) umumiylik, bir xillik.
communiqué [kə'mju:nɪkeɪ] *fr. n* rasmiy xabar.
communism [ˈkɒmjʊ,nɪzəm] *n* kommunizm.
communistic [ˌkɒmjʊ'nɪstɪk] *a* kommunizmga va kommunistlarga oid.
community [kə'mju:nəti] *n* 1) jamoa; 2) umumiylik.
commutable [kə'mju:təbl̩] *a* almashtirishga yaraydigan, almashtirsa bo'ladigan (*samolyot, poyezd va boshqalarning chiptalari haqida*).
commutation [ˌkɒmjʊ'teɪʃn] *n* almashtirish.
commutator [ˈkɒmjuteɪtə] *n* kommutator (*telefon apparatlarini uzib-ulab turadigan qurilma*).
commute [kə'mju:t] *v* almashtirmoq.
compact [ˈkɒmpækt] **1.** *n* bitim, kelishuv; shartnoma; **2.** *a* zich, g'uj; **3.** *v* zichlamoq.
companion [kəm'pænjən] **1.** *n* o'rtoq, og'ayni; **2.** *v* o'rtoq bo'lmoq.
companionable [kəm'pænjənəbl̩] *a* odamga el bo'ladigan, dilkash.
company [ˈkʌmpəni] *n* shirkat; jamiyat.
comparable [ˈkɒmpərəbl̩] *a* taqqoslab (solishtirib) bo'ladigan.
comparative [kəm'pærətɪv] **1.** *a* qiyosiy, solishtirma; chog'ishtirma; **2.** *n* gram. cho'g'ishtirma daraja.
comparatively [kəm'pærətɪvli] *adv* nisbatan.
compare [kəm'peə] *v* qiyoslamoq, solishtirmoq, taqqoslamoq.
comparison [kəm'pærɪsn] *n* qiyoslash, taqqoslash.
compartment [kəm'pɑ:tmənt] *n* kupe (*temir yo'l vagonlarida*; *ayrim xona*) bo'lma.
compass [ˈkʌmpəs] **1.** *n* 1) kompas; 2) *pl* sirkul, pargar; **2.** *a* kompasga oid; **3.** *v* amalga oshirmoq, yuzaga chiqarmoq.
compassion [kəm'pæʃən] *n* rahm; shafqat.
compassionate [kəm'pæʃənət] **1.** *a* rahmdillikni ifodalovchi; **2.** *v* rahm (shafqat) qilmoq.

compatibility [kəm,pætə'biləti] *n* bir-biriga to'g'ri (mos) kelish.
compatible [kəm'pætəbl̩] *a* birga (ayni bir vaqtda) bo'la oladigan, bir-biriga to'g'ri (mos) keladigan, sig'ishadigan, mos.
compatriot [kəm'pætriət] *n* vatandosh.
compeer [ˈkɒmpɪə] *n* tengdosh, o'rtoq, jo'ra.
compel [kəm'pel] *v* majbur qilmoq, zo'r'lamoq.
compelling [kəm'pelɪŋ] *a* yengib bo'lmaydigan.
compendium [kəm'pendiəm] *n* 1) konspekt; 2) qisqa xulosa, qisqacha mazmun, yakun.
compendious [kəm'pendiəs] *a* qisqa; qisqartirilgan.
compensate [ˈkɒmpənsət] *v* mukofotlamoq.
compensation [ˌkɒmpen'seɪʃn] *n* mukofotlash.
compensator [ˌkɒmpən'seɪtə] *n* fiz. el. transformator (*o'zgaruvchan elektr tokining kuchlanishini pasaytiradigan yoki oshiradigan moslama*).
compère [ˈkɒmpɛə] *n* konferansye (*dasturni olib boruvchi va ora-sira qiziq gaplar bilan tomoshabinlarni mashg'ul qiluvchi artist*).
compete [kəm'pi:t] *v* musobaqalashmoq, bellashmoq.
competence [ˈkɒmpɪtəns] *n* mahorat; qobiliyat.
competent [ˈkɒmpɪtənt] *a* 1) yetarli ma'lumotga ega bo'lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, xabardor; 2) asosli, e'tiborli, diqqatga sazovor.
petition [ˌkɒmpə'tɪʃn] *n* musobaqa.
petitioner [ˌkɒmpə'tɪʃnə] *n* musobaqa qatnashchisi.
competitive [kəm'petətɪv] *a* 1) raqobatlashadigan, raqobatga ega; 2) raqobatbardosh.
competitor [kəm'petɪtə] *n* raqib.
compilation [ˌkɒmpɪ'leɪʃn] *n* quramachilik (*boshqalarning ishlaridan ulab-qurab asar yozish*).
compile [kəm'paɪl] *v* tuzmoq (*lug'at va b.*).
compiler [kəm'paɪlə] *n* tuzuvchi.
complacence, -cy [kəm'pleɪns, -sɪ] *n* 1) o'ziga ishonib ketish, mag'rurlik; 2) muloyimlik.
complacent [kəm'pleɪsnt] *a* 1) o'ziga ishonib ketgan, mag'rur; 2) ko'ngilchan.
complain [kəm'pleɪn] *v* shikoyat qilmoq.
complainant [kəm'pleɪnənt] *n* shikoyatchi.
complaint [kəm'pleɪnt] *n* 1) shikoyat; 2) norozilik.
complaisance [kəm'pleɪzns] *n* xushmuomalalik, iltifot.
complaisant [kəm'pleɪznt] *a* xushmuomala, iltifotli.
complement [ˈkɒmplɪmənt] *n* gram. to'ldiruvchi.
complementary [ˌkɒmplɪ'mentəri] *a* qo'shimcha qilingan.
complete [kəm'pli:t] **1.** *a* mukammal, to'liq; **2.** *v* tugatmoq, oxiriga yetkazmoq.
completely [kəm'pli:tli] *adv* mutlaqo.
completeness [kəm'pli:tneəs] *n* mukammallik.
completion [kəm'pli:ʃn] *n* oxiriga yetkazish, tugatish.
completive [kəm'pli:tɪv] *a* yakunlovchi, oxirgi, so'nggi.

complex [ˈkɒmpleks] **1.** *a* murakkab; **2.** *n* kompleks (*uygʻun birlik tashkil etgan predmellar, voqea-hodisalar, harakat, belgi va sh. k. majmuyi*).

complexion [kəmˈplekʃn] *n* betning tusi (rang).

complexity [kəmˈpleksəti] *n* murakkablik.

compliance [kəmˈplaɪəns] *n* rozilik.

compliant [kəmˈplaɪənt] *a* yon beradigan, gapga koʻnadigan.

complicate [ˈkɒmplɪkəst] = **complexity**.

complicate [ˈkɒmplɪkeɪt] *v* murakkablashtirmoq, mushkullashtirmoq, qiyinlashtirmoq.

complicated [ˈkɒmplɪkeɪtɪd] *a* murakkab.

complication [ˌkɒmplɪˈkeɪʃn] *n* murakkablik.

complicity [kəmˈplɪsɪti] *n* birga qatnashish (*jinoyat va b.*).

compliment **1.** *n* [ˈkɒmplɪmənt] maqtov; xushomad; **2.** *v* [ˈkɒmplɪment] maqtamoq; xushomad qilmoq.

complimentary [ˌkɒmplɪˈmentəri] *a* tabriklashga oid.

comply [kəmˈplaɪ] *v* (**with**) **1)** bajarmoq, ijro etmoq; **2)** boʻysunmoq; **to ~ with the rules** qoidalarga rioya qilmoq; **3)** koʻnmoq, rozi boʻlmoq; **4)** biror narsadan kechmoq, bahridan oʻtmoq, bermoq, inʻom qilmoq.

component [kəmˈpəʊnənt] *a* tarkibiy qism.

comport [kəmˈpɔ:t] *v* **1)** oʻzini yaxshi tutmoq; **2)** muvofiq kelmoq.

compose [kəmˈpəʊz] *v* **1)** tuzmoq; **2)** yozmoq, ijod qilmoq, yaratmoq (*musiqali yoki badiiy asarni*).

composed [kəmˈpəʊzd] *a* **1)** yuvosh, beozor; oʻzini tuta biladigan; **2)** yozilgan.

composer [kəmˈpəʊzə] *n* bastakor.

composing-room [kəmˈpəʊzɪŋrʊm] *n* *poligr.* harf terish sexi.

composing-stick [kəmˈpəʊzɪŋstɪk] *n* *poligr.* harf teriladigan taxtakach, verstatka.

composite [ˈkɒmpəzɪt] **1.** *n* aralashma, qorishma; **2.** *a* murakkab.

composition [ˌkɒmpəˈzɪʃn] *n* musiqali yoki adabiy (badiiy) asar.

composition-metal [kɒmpəˈzɪʃn,metl] *n* jez (*mis va rux qotishmasi*).

compositive [kəmˈpɔzɪtɪv] *a* sintez usuliga asoslangan, sintetik.

compositor [kəmˈpɔzɪtə] *n* harf teruvchi.

compost [ˈkɒmpɔst] *n* *q-x.* kompost (*har xil chiqindilardan tuproq yoki torfdan chiritib tayyorlangan organik oʻgʻit*).

composure [kəmˈpəʊzə] *n* **1)** xotirjamlik, ogʻirlik, bosiqlik; **2)** sovuqqonlik.

compte [ˈkɒmpəʊt] *n* *fr.* kompot.

compound **1.** *n* [ˈkɒmpaʊnd] **1)** birikma, aralashma, tarkib; **2)** *ling.* murakkab soʻz; **2.** *a* [ˈkɒmpaʊnd] **1)** qoʻshma; murakkab; **2)** *gram.* bogʻlangan qoʻshma gap; **3.** *v* [kəmˈpaʊnd] aralash-tirmoq.

comprador [ˌkɒmprəˈdɔː] *n* komprador (*chet el kapitali bilan mahalliy bozor oʻrtasida vositachilik qiluvchi yerlik savdogar*).

comprehend [ˌkɒmprɪˈhend] *v* tushunmoq, anglamoq.

comprehensible [ˌkɒmprɪˈhensəbl] *a* tushunarli, tushunsa boʻladigan.

comprehension [ˌkɒmprɪˈhenʃn] *n* tushunish, anglash.

comprehensive [ˌkɒmprɪˈhensɪv] *a* **1)** mufassal; **2)** har tomonlama.

compress **1.** *n* [ˈkɒmpres] *tib.* kompress (*ogʻrigan joyga biror dorili suvga botirib yoki quruq holda bogʻlanadigan latta, paxta va h.*); **2.** *v* [kəmˈpres] siqmoq, bosmoq.

compressed [kəmˈprest] *a* siqilgan, qisilgan.

compressibility [kəmˈpresəˈbɪləti] *n* siqilish xususiyati.

compression [kəmˈpreʃn] *n* siqish, qisish.

compressor [kəmˈpresə] *n* *tex.* kompressor (*dam beradigan, bosim ostida havo, gaz, bugʻ yuboradigan mashina*).

comprise [kəmˈpraɪz] *v* ichiga olmoq.

compromise [ˈkɒmprəmaɪz] **1.** *n* bir-biriga yon berish (*murosa*); komprimes, kelishuv; **2.** *v* murosa qilmoq.

compromiser [ˈkɒmprəmaɪzə] *n* kelishuvchi, murosachi.

comptometer [ˌkɒmpˈtɒmɪtə] *n* arifmetr (*arifmetik amallarni bajaradigan sodda hisoblash mashinasi*).

comptroller [kəmˈtrəʊlə] = **controller**.

compulsion [kəmˈpʌlʃn] *n* majbur qilish, zoʻrlash.

compulsive [kəmˈpʌlsɪv] *a* majburiy.

compulsory [kəmˈpʌlsəri] *a* majburiy.

compunction [kəmˈpʌŋkʃn] *n* vijdon azobi.

computable [kəmˈpjʊ:təbl] *a* hisoblanadigan, sanaladigan.

computation [ˌkɒmpjuˈteɪʃn] *n* hisoblash.

compute [kəmˈpjʊ:t] *v* sanamoq, hisoblamoq.

computer [kəmˈpjʊ:tə] *n* kompyuter.

computerization [kəmˈpjʊ:təraɪˈzeɪʃn] *n* hisoblash mashinasidan foydalanish; kompyuterlash-tirish.

comrade [ˈkɒmreɪd] *n* oʻrtoq, doʻst.

comrade-in-arms [ˌkɒmreɪdɪnˈɑ:mz] *n* *pl* qurol-dosh.

comradely [ˈkɒmreɪdlɪ] *a* doʻstona, oʻrtoqlarcha.

comradeship [ˈkɒmreɪdʃɪp] *n* doʻstlik munosabatlari.

con I [kɒn] *v* yodlab olmoq.

con II [kɒn] **1.** *n* **1)** firibgar, qallob, muttaham; **2)** firibgarlik, qalloblik; muttahamlik; **2.** *a* qalloblikdan iborat boʻlgan; **3.** *v* qalloblik (muttahamlik) qilmoq.

concatenate [kənˈkætəneɪt] *v* ulamoq, bogʻlamoq.

concatenation [kənˈkætəˈneɪʃn] *n* **1)** *tex.* zanjir; **2)** ulash, bogʻlash.

concave [kənˈkeɪv] **1.** *a* ichiga botgan, bukilgan, egilgan; **2.** *v* bukmoq, egmoq; **3.** *n* chuqur, churqacha.

conceal [kənˈsi:l] *v* berkitmoq, yashirmoq.

concealer [kənˈsi:lə] *n* yashiruvchi, berkituvchi.

concealment [kənˈsi:lmənt] *n* yashirish.

concede [kənˈsi:d] *v* 1) yon bermoq; 2) ruxsat etmoq.

conceit [kənˈsi:t] *n* manmanlik, o'ziga ortiqcha ishonish.

conceited [kənˈsi:tid] *a* o'ziga bino qo'ygan, mag'rur.

conceivable [kənˈsi:vəbl] *a* aqlga to'g'ri keladigan (sig'adigan).

conceivably [kənˈsi:vəblɪ] *adv* taxminan.

conceive [kənˈsi:v] *v* fikr yuritmoq; ko'z oldiga keltirmoq, tasavvur etmoq, o'ylamoq.

conceiving [kənˈsi:vɪŋ] **1.** *pres. p.* **conceive** *dan*; **2.** *n* homilador bo'lish.

concentrate [ˈkɒnsəntreɪt] *v* 1) to'plamoq, jamlamoq; 2) to'planmoq, jamlanmoq.

concentrated [ˈkɒnsəntreɪtɪd] *a* bir yerga to'plangan.

concentration [ˌkɒnsənˈtreɪʃn] *n* to'plash.

concentre [kənˈsɛntə] *v* bir yerdagi to'plamoq (*biror narsaga qaratmoq fikr va b.*).

concentric [kənˈsɛntrɪk] *a* konsentrik (*bitta umumiy markazga ega bo'lgan*).

concentrically [kənˈsɛntrɪklɪ] *adv* kotsentrik (*bitta umumiy markazga ega bo'lgan*).

concentricity [ˌkɒnsənˈtrɪsɪtɪ] *n* bitta umumiy markazga egalik, konsentriklik.

concept [ˈkɒnsept] *n* tushuncha, g'oya.

conception [kənˈsepʃn] *n* tushunish.

conceptual [kənˈseptʃuəl] *a* tajribaga asoslanmagan, sinalmagan.

concern [kənˈsɜ:n] **1.** *n* 1) munosabat, aloqa; **it is no ~ of mine** bu mening ishim emas; **to have no ~ with ...** ga hech qanday aloqasi bo'lmaslik; 2) tashvishlanish, g'amxo'rlik; **to show ~ for an invalid** nogironga g'amxo'rlik qilish; 3) ishtirok etish, qiziqish; 4) firma, korxonasi; **paying ~** daromadli korxonasi; 5) muhimlik, ahamiyatlilik; **matter of great ~** o'ta muhim masala; **2.** *v* 1) aloqador bo'lmoq, daxldor bo'lmoq; **That doesn't ~ you at all.** Uni sizga hech qanday aloqasi yo'q; 2) tashvishlanmoq, g'amxo'rlik qilmoq; 3) qiziqmoq, shug'ullanmoq.

concerned [kənˈsɜ:nd] **1.** *p. p.* **concern** *2 dan*; **2.** *a* 1) aloqador bo'lgan (*biror narsaga*); bog'liq bo'lgan (*biror narsa bilan*); manfaatdor; **all ~** barcha manfaatdor shaxslar; 2) tashvishli, tashvishlangan; 3) band bo'lgan, mashg'ul (*biror narsa bilan*).

concerning [kənˈsɜ:nɪŋ] **1.** *p. p.* **concern** *2 dan*; **2.** *prep.* 1) haqida, to'g'risida; xususida; 2) taalluqli, tegishli.

concernment [kənˈsɜ:nmənt] *n* 1) ish, korxonasi; 2) munosabat; **matter of private ~** xususiy tuzilish; 3) muhimlik; **of vital ~** hayotiy muhim; 4) ishtirok etish, manfaatdorlik.

concert **1.** *n* [ˈkɒnsərt] 1) konsert; 2) rozilik, kelishish; **2.** *v* [kənˈsɜ:t] kelishmoq.

concerted [kənˈsɜ:tid] **1.** *p. p.* **concert** *2 dan*; **2.** *a* kelishib olingan.

concertina [ˌkɒnsəˈti:nə] *n* konsertino (*1. olti qirrali garmon*; *2. konsert tipidagi sodda musiqa asari*).

concerto [kənˈtʃɛtəu] *n* ital. konsert (*musiqa asari*).

concession [kənˈseʃn] *n* 1) yon berish (*ko'nish, rozi bo'lish*); 2) yer, kon, korxonasi va sh.k. dan foydalanish haqida davlat bilan ayrim kapitalist yoki firma o'rtasida tuziladigan shartnoma (*konsessiya*).

concessionaire [kənˌseʃəˈneə] *n* fr. konsessioner.

concessive [kənˈsesɪv] *a* 1) yon beradigan, gapga ko'nadigan; 2) gram. to'siqsiz.

conch [kɒŋk] *n* chig'anoq.

concha [ˈkɒŋkə] *n* anat. quloq chanog'i (*suprasi*).

concilia [kənˈsɪlə] *pl* **concilium** *dan*.

conciliate [kənˈsɪliət] *v* 1) murosaga keltirmoq, yarashirmoq; 2) tinchlantirmoq, yupatmoq.

conciliation [kənˌsɪlɪˈeɪʃn] *n* murosaga keltirish, yarashirish.

conciliatory [kənˈsɪlɪətəri] *a* murosaga keltiruvchi, yarashtiruvchi.

concilium [kənˈsɪliəm] *n* konsilium (*og'ir yoki noaniq kasallikni aniqlash va uni davolash choralarini belgilash uchun chaqiriladigan shifokorlar kengashi*).

concise [kənˈsaɪs] *a* qisqartirilgan, qisqa, lo'nda.

conciseness [kənˈsaɪsnəs] *n* qisqalik, qisqachalik, lo'ndalik.

concision [kənˈsɪʒn] = **conciseness**.

conclave [ˈkɒŋkleɪv] *n* maxfiy kengash.

conclude [kənˈklu:d] *v* 1) tugatmoq, yakunlamoq; **to ~ a lecture** ma'ruzani yakunlamoq; 2) tuzmoq; **to ~ a treaty** shartnoma tuzmoq; 3) xulosaga kelmoq, xulosa chiqarmoq; 4) hal qilmoq, qarorga kelmoq (*biror narsa qilishga*).

conclusion [kənˈklu:ʒn] *n* 1) tugatish, yakunlash; **the ~ of a speech** nutqning yakuniy qismi; 2) tuzish; **~ of force** yarash ahd tuzish; 3) xulosa; **to draw a ~** xulosa chiqarmoq; 4) yakun, natija; 5) *yur.* sud qarori.

conclusive [kənˈklu:sɪv] *a* 1) yakunlovchi, so'ngi, oxirgi; 2) hal qiluvchi.

concoct [kənˈkɒkt] *v* 1) ovqat tayyorlamoq (pishirmoq, qilmoq); 2) o'ylab topmoq, to'qimoq.

concoction [kənˈkɒkʃn] *n* 1) qaynatma ovqat, suyuq osh; 2) uydirma, to'qima, bo'lmagan, yolg'on; 2) o'ylab topish.

concomitance [kənˈkɒmɪtəns] *n* birga yurish, bir vaqtda sodir bo'lish.

- concomitant** [kən'kɔmɪtənt] **1.** a birga yuradigan, bir vaqtda sodir bo'ladigan; **2.** n ketidan keladigan ahvol.
- concord** [ˈkɒŋkɔ:d] n 1) rozilik; 2) bitim, shartnoma.
- concordance** [kən'kɔ:dəns] n moslik, muvofiqlik.
- concordant** [kən'kɔ:dənt] a rozi bo'lgan, rozilik bergan.
- concordat** [kən'kɔ:dæɪt] n shartnoma, bitim.
- concourse** [ˈkɒŋkɔ:s] n 1) oмма to'planadigan ochiq joy; 2) xalqning yog'ilib kelib to'planishi, olomon.
- concrecence** [kən'kresəns] n *biol.* bitish, ulanish, bitgan (ulanagan) joy.
- concrete** [ˈkɒŋkri:t] **1.** n beton (*sement, qum va qorib tayyorlangan qurilish materiali*); **2.** a 1) aniq, ravshan; 2) betondan ishlangan; **3.** v betonlamoq, beton bilan mustahkamlamoq.
- concrete-mixer** [ˌkɒŋkri:t' mɪksə] n betonqorg'ich, beton yoradigan mashina.
- concretion** [kən'kri:ʃn] n bitish, ulanish.
- concretize** [ˈkɒŋkri:təɪz] v aniqlamoq.
- concubinage** [kən'kju:bɪnɪdʒ] n nikohsiz birga yashash.
- concubine** [ˈkɒŋkjubam] n o'ynash, nikohsiz xotin, jazman.
- concupiscence** [kən'kju:pɪsəns] n 1) zo'r istak, xohish, orzu; suqlanish; 2) nafs, hirs, shahvat.
- concupiscent** [kən'kju:pɪsənt] a shahvatparastlarcha, shahvoniy.
- concur** [kən'kɔ:] v 1) to'g'ri kelmoq; 2) rozi bo'lmoq.
- concurrency** [kən'kʌrəns] n 1) mos kelish, o'xshashlik (*fikr va b.*); 2) rozilik.
- concurrent** [kən'kʌrənt] **1.** n ajralmas qism; **2.** a 1) bir-biriga to'g'ri keladigan; 2) bir vaqtda yoki birgalikda amalga oshadigan.
- concuss** [kən'kʌs] v 1) tebratmoq; 2) majbur qilmoq (*nimagadir*).
- concussion** [kən'kʌʃn] n 1) titrash; chayqalish; turtki; ~ **of the brain** miyaning chayqalib lat yeyishi; 2) kontuziya; 3) *yur.* do'q yoki zo'raonlik bilan biror narsa qilishga majburlash.
- condemn** [kən'dem] v 1) ayblamoq, tanbeh bermok; 2) *yur.* hukm qilmoq; 3) yaroqsiz deb topmoq; **to ~ to death** o'limga hukm qilmoq; 4) musodara qilmoq, hibsga olmoq.
- condemnation** [ˌkɒndem'neɪʃn] n qoralash, ayblash; hukm.
- condemnatory** [kən'demnətəri] a ayblash bilan bog'liq bo'lgan.
- condemned** [kən'demd] a jazoga hukm qilingan.
- condensation** [ˌkɒnden'seɪʃn] n quyulish, zichlanish.
- condense** [kən'dens] v quyultirmoq, zichlashtirmoq.
- condensed** [kən'denst] a quyultirilgan, zichlangan; ~ **milk** quyultirilgan sut.
- condenser** [kən'densə] n kondensator (*1. elektr to'playdigan asbob*; 2. *bug'ni sovitiib suyuqlikka aylantiradigan kondensat to'playdigan asbob*).
- condescend** [ˌkɒndr'send] v marhamat ko'rsatmoq; iltifot qilmoq.
- condescending** [ˌkɒndr'sendɪŋ] a marhamatli, iltifotli, iltifot bilan qilingan.
- condescension** [ˌkɒndr'senʃn] n ko'ngilchanlik, ko'ngli bo'shlik.
- condign** [kən'daɪn] a loyiq, sazovor (*jazoga*).
- condiment** [ˌkɒndɪmənt] n ziravor (*ovqatni xushxo'r qilish uchun ishlatiladigan narsa*).
- condition I** [kən'dɪʃn] n 1) holat, ahvol; **in good** ~ iste'molga yaroqli; 2) *pl* muhit, shart-sharoit; ~ **s of life** turmush shart-sharoitlari; 3) shart; **to meet the** ~ s shartlarni bajarmoq.
- condition II** [kən'dɪʃn] v shart qo'ymoq, talab qo'ymoq.
- conditional** [kən'dɪʃnl] a shartli, o'zaro shart qilingan.
- conditioned** [kən'dɪʃnd] a shart qilingan.
- conditioning** [kən'dɪʃnɪŋ] a *sport.* chiniqtirish; umumrivojlantiruvchi mashqlar.
- condolatory** [kən'dəʊlətri] n xayrixoh.
- condole** [kən'dəʊl] v 1) hamdard bo'lmoq; 2) ta'ziya bildirmoq.
- condolence** [kən'dəʊləns] n dardiga (qayg'usiga) sherik bo'lish, ta'ziya bildirish.
- condominium** [ˌkɒndə'mɪnɪəm] n kondominium (*bir hududning bir necha davlat tomonidan birgalikda tasarruf qilinishi, boshqarilishi*).
- condonation** [ˌkɒndə'neɪʃn] n chidab turishlik (*asosan, er-xotinning xiyonatida*).
- condone** [kən'dəʊn] v murosa qilmoq, ko'nikmoq; chidamoq.
- condor** [ˈkɒndɔ:] n *zool.* kondor (*Janubiy Amerikada yashaydigan o'limtixko'r yirik yirtqich qush*).
- conduce** [kən'dju:s] v imkon (imkoniyat) tug'dirmoq.
- conducive** [kən'dju:sɪv] a yaxshi ta'sir ko'rsatadigan.
- conduct 1.** n [ˈkɒndʌkt] 1) yurish-turish, xulq-atvor; **good (bad)** ~ yaxshi (yomon) xulq-atvor; 2) yuritish, rahbarlik qilish; ~ **of a business** ishni boshqarish; **2.** v [kən'dʌkt] 1) olib bormoq, hamroh bo'lmoq; 2) boshqarmoq, rahbarlik qilmoq; **to ~ a meeting** majlisni boshqarmoq; 3) dirijorlik qilmoq (*orkestrga, xorga*).
- conductance** [kən'dʌktəns] = **conduction**.
- conduction** [kən'dʌktʃn] n *fiz.* o'tkazuvchanlik, o'tkazish qobiliyati.
- conductivity** [ˌkɒndʌk'tɪvətɪ] n *fiz.* elektr o'tkazuvchi.
- conductor** [kən'dʌktə] n 1) chipta sotuvchi, konduktor (*tramvay, avtobusda*); 2) yo'l ko'rsatuvchi, gid, rahbar; ~ **of a party** guruh rahbari; 3) dirijor; 4) *fiz.* o'tkazgich.

conductress [kən'dʌktrəs] *n* chipta sotuvchi ayol (*avtobus, tramvay va b.*).

conduit [ˈkɒndɪt] *n* 1) suv quvuri. 2) truboprovod (*uzoq masofaga quvvur orqali gaz, suv yoki suyuqlik o'tkazadigan inshoot*).

cone [kəʊn] *n* 1) *mat.* konus; 2) *bot.* so'ta (*ignabargli daraxtlarning so'tasimon to'p guli*).

coney [ˈkəʊni] = **cony**.

confabulate [kən'fæbjulət] *v* suhbatlashmoq; gaplashmoq.

confabulation [kən,fæbjʊ'leɪʃn] *n* 1) do'stona suhbat; 2) bekorchi gap.

confection [kən'fekʃn] **1.** *n* shirinliklar (*qandqurs*); **2.** *v* shirinliklar tayyorlamoq (pishirmoq).

confectionary [kən'fekʃnəri] qandolat mahsulotlari.

confectioner [kən'fekʃnə] *n* qandolatchi, shakar-paz.

confectionery [kən'fekʃnəri] *n* 1) qandolat do'skoni; 2) qandolatchilik.

confederacy [kən'fedərəsi] *n* konfederatsiya (*ba'zi tashkilotlarning ittifoqi, birikmasi*).

confederate **1.** *n* [kən'fedərət] 1) ittifoqchi; 2) konfederatsiya a'zosi; **2.** *a* [kən'fedərət] o'zaro birlashgan; ittifoq tuzgan; **3.** *v* [kən'fedərət] o'zaro birlashmoq, ittifoq tuzmoq.

confederation [kən,fedə'reɪʃn] *n* ittifoq, uyushma.

confer [kən'fə:] *v* 1) bermoq, bag'ishlamoq; 2) (*ilmiy daraja va b.*) bermoq; 3) maslahatlashmoq, kengashmoq.

conferee [ˌkɒnfə'rei:] *n* kengash qatnashchisi.

conference [ˈkɒnfərəns] *n* kengash, konferensiya.

confermment [kən'fə:mənt] *n* 1) unvon berish; 2) (*ilmiy daraja*) berish.

confess [kən'fes] *v* 1) tan olmoq, e'tirof qilmoq; 2) e'tiqod (amal, rioya) qilmoq.

confession [kən'feʃn] *n* 1) bo'yniga olish; iqror bo'lish (*xatosini, aybini*); 2) *cherk.* tavba, gunohlariga tavba qilish.

confessor [kən'fesə] *n* tavbani qabul qiluvchi ruhoni.

confetti [kən'fetɪ] *n* *it.* konfetti (*bayramlarda kishilar ustidan sochiladigan rangli qog'oz tangachalar*).

confidant [ˈkɒnfɪdənt] *n* sirdosh (yaqin) do'st, ishonchli shaxs.

confidante [ˈkɒnfɪdənt] *n* sirdosh (yaqin) dugona.

confide [kən'faɪd] *v* ishonmoq.

confidence [ˈkɒnfɪdəns] *n* ishonch, ishonish.

confident [ˈkɒnfɪdənt] *a* 1) ishonch bilan qilingan; 2) o'ziga ishongan.

confidential [ˌkɒnfɪ'denʃl] *a* maxfiy.

confidentially [ˌkɒnfɪ'denʃlɪ] *adv* maxfiy ravishda, yashirincha.

configuration [kən,figju'reɪʃn] *n* tashqi ko'rinish (qiyofa, shakl).

confine [kən'faɪn] *v* cheklamoq, cheklanmoq.

confined [kən'faɪnd] *a* chegaralangan, cheklan-gan.

confinement [kən'faɪnmənt] *n* chegaralash, cheklash.

confines [ˈkɒnfəɪnz] *n* *pl* chegaralar, hududlar.

confirm [kən'fə:m] **1.** *v* tasdiqlamoq; **2.** *n* tasdiqlash.

confirmation [ˌkɒnfə'meɪʃn] *n* tasdiq, isbot, tasdiqlash.

confirmative [kən'fə:mətɪv] *a* tasdiqlaydigan, tasdiqlovchi.

confirmed [kən'fə:md] *a* 1) uzoq davom etadigan (cho'ziladigan); 2) qat'iy ishongan.

confiscate [ˈkɒnfɪskət] *v* musodara qilmoq.

confiscation [ˌkɒnfɪs'keɪʃn] *n* musodara qilish.

confiture [ˈkɒnfɪtʃə] *n* murabbo, qiyom.

conflagration [ˌkɒnflə'ɡreɪʃn] *n* katta yong'in.

conflict **1.** *n* [ˈkɒnflɪkt] 1) nizo, mojaro; 2) to'qnashuv; 3) ziddiyat, qarama-qarshilik; **2.** *v* [ˈkɒnflɪkt] 1) qarshi chiqmoq; 2) kurashmoq.

conflicting [kən'flɪktɪŋ] **1.** *pres. p.* **conflict** **2** *dan*; **2.** *a* qarama-qarshi, zid, teskari.

confluence [ˈkɒnfluəns] *n* 1) daryoning tutashgan joyi; 2) xalqning yog'ilib kelib to'planishi; 3) yo'llar kesishib o'tgan joy (chorraha).

confluent [ˈkɒnfluənt] *n* irmoq, jilg'a.

conform [kən'fɔ:m] *v* to'g'ri (muvofig) kelmoq.

conformable [kən'fɔ:məbl] *a* to'g'ri (muvofig) keladigan.

conformation [ˌkɒnfɔ:'meɪʃn] *n* tuzilish.

conformity [kən'fɔ:məti] *n* to'g'ri kelish (*munosiblik*).

confound [kən'faʊnd] *v* 1) uyaltirib qo'ymoq; 2) adashtirmoq; 3) buzmoq, barbod qilmoq (*reja, orzu-umidni*).

confounded [kən'faʊndɪd] *a* so'zl. o'taketgan, ashaddiy.

confoundedly [kən'faʊndɪdlɪ] *adv* favqulodda, haddan tashqari.

fraternity [ˌkɒnfrə'tə:nəti] *n* do'stlik, qardoshlik.

confront [kən'frʌnt] *v* yuzma-yuz turmoq, qarshi turmoq.

confrontation [ˌkɒnfrʌn'teɪʃn] *n* qarshi kurashish, qarshilik ko'rsatish, konfrantatsiya.

confuse [kən'fju:z] *v* adashtirmoq, chalkash-tirmoq.

confused [kən'fju:zd] *a* 1) chigal, chalkash-chulkash; 2) xijolatda (uyalib) qolgan.

confusedly [kən'fju:zɪdlɪ] *adv* xijolat bo'lib, uyalib, xijolatda.

confusion [kən'fju:ʒn] *n* 1) xijolat bo'lish, uyalib qolish; 2) tartibsizlik.

confutation [ˌkɒnfju'teɪʃn] *n* rad (etish) qilish.

confute [kən'fju:t] *v* rad qilmoq, noto'g'riligini isbot qilmoq.

congeal [kən'dʒi:l] *v* muzlatmoq.

congelation [ˌkɒndʒɪ'leɪʃn] *n* muzlatish.

congeneric(al) [ˌkændʒɪˈnerɪk(əl)] *a* bir turdagi, o'xshash.

congenerous [kənˈdʒenərəs] *a* 1) bir turdagi, o'xshash; 2) qarindoshlikka oid.

congenial [kənˈdʒiːniəl] *a* munosib, bop, muvofiq.

congeniality [kənˈdʒiːniˈæləti] *a* 1) yaqinlik; 2) o'xshashlik.

congenital [kənˈdʒenɪtl] *a* tug'ma, zotida bo'lgan.

conger [ˈkɒŋgə] *n* *zool.* dengiz ilonbalig'i.

congeries [kənˈdʒəriːz] *n* 1) (*pl* o'zgarishsiz) juda ko'p; bir talay; 2) yig'ish, to'plash, jamg'arish.

congest [kənˈdʒest] *v* 1) ortiqcha yuklamoq; 2) to'ldirib yubormoq.

congested [kənˈdʒestɪd] **1. p. p.** **congest dan;** **2. a** aholisi g'oyat ko'p (*rayon va b.*).

congestion [kənˈdʒestʃən] *n* aholining juda zichligi, aholining tig'iz joylashganligi.

conglobate [ˈkɒŋgləʊbeɪt] *a* sharsimon, dumaloq.

conglomerate **1. n** [kənˈglɒməreɪt] konglomerat (*xilma-xil narsalarning tartibsiz, tasodifiy yig'indisi*); **2. v** [kənˈglɒməreɪt] yig'moq, to'plamoq.

conglomeration [kənˈglɒməˈreɪʃn] *n* yig'ish, to'plash.

conglutination [kənˈgluːtɪˈneɪʃn] *n* yopishtirish, yelimplab ulash.

congou [ˈkɒŋɡuː] *n* Xitoy qora choyining bir navi.

congratulate [kənˈgrætʃuleɪt] *v* tabriklamoq, qutlamoq.

congratulation [kənˈgrætʃuˈleɪʃn] *n* tabriklash, qutlash.

congratulatory [kənˈgrætʃuˈleɪtəri] *a* tabriklashga (qutlashga) oid.

congregate [ˈkɒŋgrɪget] *v* yig'moq, yig'ilmoq.

congregation [ˌkɒŋgrɪˈgeɪʃn] *n* yig'in, yig'ilish.

congress [ˈkɒŋɡres] *n* 1) kongress (*siyosiy, ilmiy yoki jamoat tashkilotlarining xalqaro majlisi, kengashi*); 2) qurultoy.

congressional [kənˈɡresʃnəl] *a* kongressga oid.

Congressman [ˈkɒŋɡresmən] *n* *amer.* kongress a'zosi.

congruence [ˈkɒŋɡruəns] *n* bir-biriga to'g'rilik, moslik, muvofiqlik, birdamlik, hamjihatlik, kelishilganlik.

congruent [ˈkɒŋɡruənt] = **congruous.**

congruous [ˈkɒŋɡruəs] *a* mos, muvofiq, munosib, loyiq, tog'ri keladigan.

conic(al) [ˈkɒnɪk(əl)] *a* konusga oid, konusga o'xshagan.

conifer [ˈkɒnɪfə] *n* ignabargli daraxt.

coniferous [kəʊˈnɪfərəs] *a* *bot.* ignabargli daraxtga oid, ignabargli daraxtdan olingan.

coniform [ˈkəʊnɪfɔːm] = **conic(al).**

conjectural [kənˈdʒektʃrəl] *a* taxminiy, chamalab belgilangan.

conjecture [kənˈdʒektʃə] **1. n** taxmin, faraz; **2. v** taxmin (faraz) qilmoq, chamalamoq.

conjee [ˈkɒndʒɪ] *n* yovg'on xo'rda.

conjoin [kənˈdʒɔɪn] *v* qo'shilmoq, birlashmoq.

conjoint [kənˈdʒɔɪnt] *a* qo'shilgan, birlashgan.

conjugal [ˈkɒndʒugəl] *a* nikohga (er-xotinlikka) oid.

conjugal [ˌkɒndʒuˈɡæləti] *n* er-xotinlik.

conjugate [ˈkɒndʒugət] *a* *gram.* tuslamoq (*grammatik shakllar bo'yicha o'zgartirmoq*).

conjugation [ˌkɒndʒuˈgeɪʃn] *n* *gram.* tuslanish.

conjunct [ˈkændʒʌŋkt] *a* 1) *gram.* bog'lovchi; 2) birikish, qo'shilish.

conjunction [kənˈdʒʌŋkʃn] *a* 1) qo'shilish; aloqa; **in** ~ birgalikda; 2) *amer.* bog'lovchi.

conjunctive [kənˈdʒʌŋktɪv] *a* 1) bog'laydigan, bog'lovchi; 2) *gram.* bog'lovchili, bog'lovchi orqali bog'langan.

conjuncture [kənˈdʒʌŋktʃə] *n* voqealarning bir-biriga to'g'ri kelib qolishi, zamonaning zayli.

conjurat [ˌkɒndʒuəˈreɪʃn] *n* sehrgarlik, jodugarlik.

conjure [ˈkɒndʒə] *v* sehlamoq, sehr-jodu qilmoq.

conjurer, conjuror [ˈkɒndʒərə] *n* sehrgar, jodugar, afsungar.

conk [kɒŋk] **1. n** 1) burun; 2) burunga urish; 3) dvigatelning ishdan chiqishi; **2. v** 1) burunga urmoq; 2) o'lmoq; ~ **out** buzilib qolmoq (*mashina haqida*).

connate [ˈkɒneɪt] *a* tug'ma, zotida bor.

connect [kəˈnekt] *v* bog'lamoq, ulamoq.

connected [kəˈnektɪd] *a* bog'langan, aloqador.

connecting [kəˈnektɪŋ] *n* bog'lanish.

connecting-link [kəˈnektɪŋlɪŋk] *n* bog'lovchi bo'g'in.

connecting-rod [kəˈnektɪŋrɒd] *n* *tex.* shatun (*porshen va dvigatelni birlashtiruvchi detal*).

connection [kəˈnekʃn] *n* bog'lanish, aloqa.

connective [kəˈnektɪv] **1. a** biriktiruvchi, bog'lovchi; **2. n** *gram.* biriktiruvchi so'z.

connexion [kəˈnekʃn] = **connection.**

conning tower [ˈkɒnɪŋˌtauə] *n* *deng.* jangovar rubka (*rubka – kema palubasi ustiga qurilgan va kemani boshqarish postlari turadigan joy*).

connivance [kəˈnaɪvns] *n* erkalatib yuborish, erk berish.

connive [kəˈnaɪv] *v* erkalatib yubormoq, erk bermoq.

connoisseur [ˌkɒnəˈseɪː] *n* *fr.* yaxshi biladigan (bilimdon, bilarmon) kishi.

connotation [ˌkɒnəˈteɪʃn] *n* qo'shimcha ma'no.

connote [kəˈnəʊt] *v* qo'shimcha ma'noga ega bo'lmoq (*so'z to'g'risida*).

connubial [kəˈnjuːbiəl] *a* er-xotingga va er-xotinlikka oid.

conquer [ˈkɒŋkə] *v* 1) zabt etmoq; 2) yengmoq, g'alaba qilmoq.

conqueror [ˈkɒŋkərə] *n* 1) zabt etgan kishi; 2) g'olib (*yengib chiqqan kishi*).

conquest [ˈkɒŋkwɛst] *n* 1) zabt etish; 2) g'alaba.
consanguine [kɒnˈsæŋwɪn] = **consanguineous**.
consanguineous [ˌkɒnsæŋˈɡwɪnɪəs] *a* qon-qarindosh, qondosh.
consanguinity [ˌkɒnsæŋˈɡwɪnətɪ] *n* qon-qarindosh, qondoshlik.
conscience [ˈkɒŋʃəns] *n* 1) vijdon; **clear (good)** ~ toza vijdon; **freedom (liberty) of** ~ vijdon erkinligi; 2) ong; **public** ~ ijtimoiy ong.
conscienceless [ˈkɒŋʃənsləs] *a* or-nomusni bilmaydigan, vijdotsiz, insofsiz.
conscientious [ˌkɒŋʃɪˈɛnʃəs] *a* halol, vijdonli, insofli.
conscientiously [ˌkɒŋʃɪˈɛnʃəsli] *adv* vijdonan, insof bilan.
conscious [ˈkɒŋʃəs] *a* 1) anglaydigan, tushunadigan; 2) sezadigan; ~ **of pain** og'riqni sezadigan; 3) *predic.* aql-hushi o'zida bo'lgan.
consciousness [ˌkɒŋʃənsɪs] *n* 1) tushunish, bilish, anglash; 2) onglilik, ong.
conscript [ˈkɒnskɪpt] *1. n* harbiy xizmatga chaqirilgan kishi; *2. a* harbiy xizmatga chaqirilgan.
conscription [kɒnˈskɪptʃn] *n* majburiy harbiy xizmat.
consecrate [ˈkɒnsəkreɪt] *1. a* bag'ishlangan; *2. v* bag'ishlamoq; *3. n* bag'ishlash.
consecration [ˌkɒnsɪˈkreɪʃn] *n* bag'ishlash; **the ~ of one's life to study** hayotini fanga bag'ishlash.
consecution [ˌkɒnsɪˈkju:ʃn] *n* ketma-ketlik.
consecutive [kɒnˈsekjʊtɪv] *a* ketma-ket (birin-кетин) sodir bo'ladigan.
conescence [ˌkɒnsɪˈnesns] *n* keksayish, qarib qolish.
consensus [kɒnˈsensəs] *n* rozilik, kelishuv.
consent [kɒnˈsent] *1. n* rozilik; 2) ijozat, ruxsat; *2. v* rozi bo'lmoq.
consentaneity [ˌkɒnsɪˈtəni:ti] *n* bir-biriga to'g'rilik, moslik.
consentaneous [ˌkɒnsɪˈtɛniəs] *a* bir-biriga mos, muvofiq.
consentient [kɒnˈsɛnʃənt] *a* yakkilik bilan qabul qilingan, yakkil, hamjihat.
consequence [ˈkɒnsɪkwəns] *n* 1) oqibat, natija; 2) xulosa, yakun; 3) ahamiyatga ega bo'lgan ish, ahamiyat, imkoniyat; **a matter of great** ~ muhim, ahamiyatga ega bo'lgan narsa.
consequent [ˈkɒnsɪkwənt] *1. a* ketma-ket sodir bo'ladigan; *2. n* natija.
consequential [ˌkɒnsɪˈkwɛntʃəl] *a* muhim.
consequently [ˌkɒnsɪˈkwɛntʃəlɪ] *adv* shunday qilib.
conservation [ˌkɒnsəˈveɪʃn] *n* saqlash.
conservatism [kɒnˈsɜ:vətɪzəm] *n* konservatizm, eskilikka yopishib olish.
conservative [kɒnˈsɜ:vətɪv] *1. a* eskilikni yoqlovchi, eskilikka yopishib olgan; *2. n* eskilik tarafdori.
conservatoire [kɒnˈsɜ:vətwa:] *n fr.* konservatoriya.

conservatory [kɒnˈsɜ:vətɪri] *n* 1) issiqxonona; 2) *amer.* konservatoriya (*oliy musiqa o'quv yurti*).
conserve [kɒnˈsɜ:v] *v* saqlamoq, asramoq.
consider [kɒnˈsɪdə] *v* 1) ko'rib chiqmoq; 2) e'tiborga olmoq; 3) hisoblamoq, deb bilmoq, tushunmoq.
considerable [kɒnˈsɪdərəbl] *a* muhim, ahamiyatli, zarur.
considerate [kɒnˈsɪdərət] *a* xushmuomala.
consideration [kɒnˈsɪdəˈreɪʃn] *n* 1) ko'rib chiqish, muhokama qilish; 2) fikr, mulohaza; 3) e'tibor, hurmat.
considering [kɒnˈsɪdərɪŋ] *prep.* nazarga (e'tiborga, hisobga) olib.
consign [kɒnˈsaɪn] *v* zimmasiga yuklamoq, topshirmoq.
consignee [ˌkɒnsaɪˈni:] *n* yukni oluvchi kishi, vazifa yuklangan kishi.
consignor [kɒnˈsaɪnə] = **consignor**.
consignment [kɒnˈsaɪnmənt] *n* yuk; bir to'p mol.
consignor [kɒnˈsaɪnə] *n* yuk jo'natuvchi kishi.
consilience [kɒnˈsɪlɪəns] *n* bir-biriga to'g'ri kelish.
consilient [kɒnˈsɪlɪənt] *a* bir-biriga to'g'ri keladigan.
consist [kɒnˈsɪst] *v* ... dan iborat bo'lmoq, tuzilgan bo'lmoq, tarkib topmoq.
consistence [kɒnˈsɪstəns] *n* qalinlik, zichlik.
consistency [kɒnˈsɪstənsɪ] *n* 1) ketma-ketlik; 2) doimiylik, o'zgarmaslik.
consistent [kɒnˈsɪstənt] *a* 1) to'g'ri keladigan, uyg'unlashadigan; 2) izchil, mantiqiy, tadjijiy.
consolation [ˌkɒnsəˈleɪʃən] *n* yupatish so'zlari, taskin beradigan so'zlar.
consolatory [kɒnˈsɒlətəri] *a* yupatadigan, taskin beradigan.
console [kɒnˈsəʊl] *v* yupatmoq, taskin bermoq.
console-mirror [ˌkɒnsəʊlˈmɪrə] *n* tosh oyna, tikka turadigan katta tosh oyna.
consolidate [kɒnˈsɒlɪdeɪt] *v* 1) mustahkamlamoq; mustahkamlanmoq; 2) birlashtirmoq; birlashmoq.
consolidation [ˌkɒnˈsɒlɪˈdeɪʃn] *n* mustahkamlash.
consols [kɒnˈsɒlz] *n pl* uzoq muddatga aylantirilgan davlatning qisqa muddatli qarzlari; konsolidatsiya qilingan renta.
consonance [ˌkɒnsənəns] *n* 1) hamohanglik, ohangdoshlik; 2) *mus.* tovuslarning o'zaro ohangdoshligi.
consonant [ˌkɒnsənənt] *1. a* to'g'ri keladigan, bir xil; *2. n fon.* undosh tovush.
consort *1. n* [ˌkɒnsɔ:t] *er:* xotin (*asosan, qirol oilalarida*); *2. v* [kɒnˈsɔ:t] aloqada bo'lmoq, muomala qilmoq (*kim bilandir*).
consortium [kɒnˈsɔ:tɪəm] *n* konsorsium (*bir necha bank yoki bankirlarning yirik moliyaviy operatsiyani amalga oshirish uchun tuzgan muvaqqat bitimi, monopolistik birlashmasi*).
conspicuous [kɒnˈspɪkjʊəs] *a* ko'zga ko'ringan, atoqli, taniqli.

conspiracy [kənˈspɪrəsi] *n* fitna, til biriktirish.
conspirator [kənˈspɪrətə] *n* fitnachi, til biriktiruvchi.
conspiratorial [kənˈspɪrəːˈtɔːriəl] *a* makkorona.
conspire [kənˈspɪə] *v* til biriktirmoq.
constable [ˈkɒnstəbl] *n* politsiyachi, mirshab (*lavozim*).
constabulary [kənˈstæbjuləri] *a* politsiyaga oid.
constancy [ˈkɒnstənsɪ] *n* doimiylik.
constant [ˈkɒnstənt] **1.** *a* doimiy; **2.** *n mat.* o'zgar-mas miqdor, kattalik.
constellation [ˌkɒnstəˈleɪʃn] *n astr.* yulduzlar turkumi (*burj*).
consternation [ˌkɒnstəˈneɪʃn] *n* qo'rquv.
constipation [ˌkɒnstɪˈpeɪʃn] *n tib.* ich qotish (*qabziyat*).
constituency [kənˈstɪtjuənsɪ] *n* 1) saylovchilar; 2) saylov okrugi.
constituent [kənˈstɪtjuənt] **1.** *a* 1) saylovga oid; 2) tarkibiy, tarkibli, murakkab; **2.** *n* 1) saylovchi; 2) tarkibiy qism.
constitute [ˈkɒnstɪtjuːt] *v* 1) yaratmoq, hosil qilmoq; 2) tayinlamoq, belgilamoq.
constitution [ˌkɒnstɪˈtjuːʃn] *n* 1) *siyos.* konstitutsiya (*asosiy qonun*); 2) qaddi-qomat, bo'y-bast; 3) tuzilish.
constitutional [ˌkɒnstɪˈtjuːʃnəl] *n* 1) konstitutsion, konstitutsiyaga oid; 2) *tib.* organik.
constitutor [ˈkɒnstɪtjuːtə] *n* joriy etuvchi, tuzuvchi, asos soluvchi.
constrain [kənˈstreɪn] *v* majbur qilmoq; zo'r-lamoq; qamamoq.
constrained [kənˈstreɪnd] **1.** *p. p.* **constrain** *dan*; **2.** *a* noiloj, majburiy.
constrainedly [kənˈstreɪndli] *adv* g'ayriixtiyoriy; majburan.
constrain [kənˈstreɪnt] *n* majbur qilish, zo'r-lash.
constrict [kənˈstrɪkt] *v* qattiq (siqib) bog'lamoq.
constriction [kənˈstrɪkʃn] *n* qattiq (tortib, siqib) bog'lash.
constrictor [kənˈstrɪktə] *n zool.* oddiy bo'g'ma ilon.
construct [kənˈstrʌkt] *v* 1) qurmoq; 2) yaratmoq, ishlab chiqmoq.
construction [kənˈstrʌkʃn] *n* 1) qurish, bino qurish, qurilish; 2) inshoot, qurilayotgan bino.
constructional [kənˈstrʌkʃnəl] *a* qurilishga (binokorlikka) oid.
constructive [kənˈstrʌktɪv] *a* 1) qurilishga (binokorlikka) oid; 2) ijodiy, ijod qilishga oid.
constructor [kənˈstrʌktə] *n* quruvchi, binokor.
construe [kənˈstruː] *v* sintaktik tahlil qilmoq.
consul [ˈkɒnsl] *n* konsul (*biror davlatning boshqa bir davlat shahariga o'z davlatining fuqarolarining manfaatlarini himoya qilish uchun qo'ygan rasmiy vakili*).
consular [ˈkɒnsjələ] *a* konsulga va konsullikka oid.

consulate [ˈkɒnsjələt] *n* 1) konsulxona; 2) konsullik vazifasi.
consulship [ˈkɒnsəlʃɪp] *n* konsullik vazifasi.
consult [kənˈsʌlt] *v* 1) maslahat olmoq, maslahatlashmoq; 2) maslahat bermoq.
consultant [kənˈsʌltənt] *n* maslahatchi.
consultation [ˌkɒnsʌlˈteɪʃn] *n* konsultatsiya (*biror masala yuzasidan mutaxassis maslahati*); 2) kengash (*maslahat majlisi*).
consultative [kənˈsʌltətɪv] *a* maslahat beruvchi.
consume [kənˈsjʊːm] *v* iste'mol qilmoq, ehtiyojga ishlatmoq; sarf qilmoq.
consumer [kənˈsjʊːmə] *n* iste'molchi, iste'mol qiluvchi.
consummate **1.** *a* [kənˈsʌmət] tugatilgan; **2.** *v* [ˈkɒnsəmeɪt] tugatmoq.
consummately [kənˈsʌmətli] *adv* mutlaqo, g'oyat.
consummation [ˌkɒnsəˈmeɪʃn] *n* ishni tugatish.
consumption [kənˈsʌmpʃən] *n* 1) iste'mol qilish, ehtiyojga ishlatish; 2) *tib.* o'pka sili.
consumptive [kənˈsʌmpʃɪv] *a* sil kasaliga oid.
contact [ˈkɒntækt] **1.** *n* 1) aloqada (*muomalada*) bo'lish; 2) aloqa, munosabat; **2.** *v* aloqa o'rnatmoq, kim bilandir.
contagion [kənˈteɪdʒən] *n* 1) yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi mikroblar; 2) infeksiya (*kasallikning yuqishi*).
contagious [kənˈteɪdʒəs] *a* yuqumli, yuqadigan.
contain [kənˈteɪn] *v* o'z ichiga olmoq.
container [kənˈteɪnə] *n* 1) konteyner (*yuk joylab avtomobilga yoki temir yo'l platformasiga o'rtiladigan maxsus quti*); 2) biror narsa saqlanadigan idish.
contaminate [kənˈtæmɪneɪt] *v* iflos (kir) qilmoq.
contamination [kənˈtæmɪˈneɪʃn] *n* iflos (kir) qilish.
contemplate [ˈkɒntəmpleɪt] *v* 1) o'ylamoq, fikr yuritmoq; mulohaza qilmoq; 2) xayoliga keltirish, eslamoq.
contemplation [ˌkɒntəmˈpleɪʃn] *n* 1) xayoliga keltirish, eslash; 2) o'ylash, fikr yuritish.
contemplative [kənˈtɛmpleɪtɪv] *a* 1) xayolotga beriluvchi, o'z fikr-xayoliga cho'madigan; 2) o'y-chan.
contemporaneity [kənˌtempərəˈniːəti] *n* zamonaviylik, zamon talabiga moslik.
contemporary [kənˈtempərəri] **1.** *a* zamonaviy, hozirgi kundagi; **2.** *n* zamondosh, asrdosh.
contempt [kənˈtɛmpt] *n* nafratlanish, jirkanish.
contemptible [kənˈtɛmptəbl] *a* jirkanch, razil.
contemptuous [kənˈtɛmptjuəs] *a* nafrat (*yoki jirkanish*)ni ifodalaydigan.
contemptuously [kənˈtɛmptjuəsli] *adv* nafratlanib, nafrat bilan; jirkanib.
contend [kənˈtend] *v* 1) kurashmoq; 2) tasdiqlamoq.
contender [kənˈtendə] *n* raqib (*saylov va b.*).
content **I** [ˈkɒntent] *n* ichidagi narsalar, ichidagi bor narsalar.

content II [kən'tent] **1.** *a* mamnun, xursand, shod; **2.** *v* mamnun (xursand) qilmoq.
contented [kən'tentɪd] **1.** *p. p.* **content II**, **2.** *dan*:
2. *a* mamnun, xursand, shod.
contention [kən'tenʃən] *n* 1) bahs, kurash; 2) musobaqa.
contentious [kən'tenʃəs] *a* munozarali.
contentment [kən'tentmənt] *n* mamnunlik, xursandlik; mamnuniyat.
contents ['kɒntents] *pl* mazmun; mundarija (*kitabda*).
contemnerious [kən'tə:mɪnəs] *a* yonma-yon, chegaradosh.
contest 1. *n* [kən'test] 1) bahs; 2) musobaqa; **2.** *v* [kɒntest] bahslashmoq, musobaqalashmoq, ko'rik o'tkazmoq; kurashmoq.
contestant [kən'testənt] *n* raqib.
contestation [kɒntes'teɪʃn] *n* 1) musobaqa; 2) kurash.
contested [kən'testɪd] **1.** *p. p.* **contest 2.** *dan*; **2.** *a* bahsga qatnashgan, kurashgan; ~ **election amer.** bir nechta nomzodlarning nomlari ko'rsatilgan saylov.
context ['kɒntekst] *n* 1) kontekst (*nutq yoki asarning tugal fikr anglatuvchi parchasi*); 2) vaziyat.
contextual [kən'tekstʃuəl] *a* kontekstdan kelib chiqadigan.
contexture [kən'tekstʃə] *n* to'qish, to'qib yasash.
contiguity [kɒntrɪ'gju:əti] *n* yonma-yonlik, qo'shnilik.
contiguous [kən'tɪgjuəs] *n* chegaradosh, qo'shni.
continence ['kɒntɪnəns] *n* o'zini tuta bilish, vazminlik.
continent I ['kɒntɪnənt] *a* o'zini tuta biladigan, og'ir, bosiq.
continent II ['kɒntɪnənt] *n* materik, qit'a.
continental [kɒntrɪ'nentl] *n* qit'aga (materikka) oid.
contingency [kən'tɪndʒənsɪ] *n* tasodifiy (kutilmagan) hol.
contingent [kən'tɪndʒənt] *n* 1) miqdor; 2) *harb.* shaxsiy tartib.
continual [kən'tɪnjuəl] *a* doimiy.
continuance [kən'tɪnjuəns] *n* davom etish (cho'zilish) muddati (uzunlik, uzoqlik).
continuant [kən'tɪnjuənt] *n fon.* sirg'aluvchi undosh tovush.
continuation [kən'tɪnju'eɪʃn] *n* davom (etish) ettirish (*biror narsaning davomi*).
continue [kən'tɪnju:] *v* 1) davom ettirmoq; 2) davom etmoq.
continued [kən'tɪnju:d] **1.** *p. p.* **continue dan**; **2.** *a* uzluksiz, to'xtovsiz.
continuity [kɒntrɪ'nju:əti] *n* uzluksiz.
continuous [kən'tɪnjuəs] *a* 1) uzluksiz, to'xtovsiz; 2) doimiy harakatdagi; 3) *gram.* uzoq davom (etadigan) etgan; davomli.

contort [kən'tɔ:t] *v* 1) egib (qiyshaytirib) yubormoq, egmoq, bukmoq; 2) noto'g'ri talqin qilmoq, buzib ko'rsatmoq.
contortion [kən'tɔ:ʃn] *n* 1) egib (qiyshaytirib) yuborish, egish, bukish; 2) noto'g'ri talqin qilish, buzib ko'rsatish.
contortionist [kən'tɔ:ʃnɪst] *n* akrobat.
contour ['kɒntʊə] *n* 1) yotiq chiziq; 2) sirtqi ko'rinish (shakl; chiziq).
contra- ['kɒntrə-] *pref.* *qo'shma so'zlarda* «qarshi» *ma'nosini bildiradi*.
contraband ['kɒntrəbænd] **1.** *n* kontrabanda (*davlat chegarasidan yashirincha, boj to'lamasdan mol o'tkazishi*); **2.** *a* kontrabandaga oid.
contrabandist ['kɒntrəbændɪst] *n* kontrabanda bilan shug'ullanuvchi kishi.
contrabass [kɒntrə'beɪs] *n mus.* kontrabas.
conception [kɒntrə'sepʃn] *n* homilador bo'lishdan saqlaydigan vositalardan foydalanish.
conceptive [kɒntrə'septɪv] *a* homilador bo'lishdan saqlanadigan dori (*vosita*); homila bo'lishga qarshi.
contract 1. *n* ['kɒntrækt] shartnoma, bitim; **2.** *v* [kən'trækt] 1) shartnoma (bitim) tuzmoq; 2) to'raymoq; 3) qisqarmoq.
contracted [kən'træktɪd] *a* shartnoma asosidagi; shartnomadan kelib chiqadigan.
contractile [kən'træktɪl] *a* kamayuvchan, qisqaradigan.
contractility [kɒntræk'tɪləti] *n fiz.* siqilish qobiliyati.
contracting parties [kən'træktɪŋ'pa:rtɪz] *n* bitim tuzuvchi tomonlar.
contraction [kən'træktʃn] *n* 1) qisqarish, qisqartirish; 2) siqish, qisish.
contractor [kən'træktə] *n* pudratchi.
contractual [kən'træktʃuəl] *a* shartnoma asosidagi.
contradict [kɒntrə'dɪkt] *v* 1) qarshi chiqmoq, e'tiroz bildirmoq; 2) rad qilmoq.
contradiction [kɒntrə'dɪkʃn] *n* ziddiyat, qarama-qarshilik.
contradictor [kɒntrə'dɪktə] *n* raqib; muxolif.
contradictory [kɒntrə'dɪktəri] *a* qarama-qarshi, zid, tezkor.
contradistinction [kɒntrədɪ'stɪŋkʃən] *n* 1) qarshi (zid, tezkor) qo'yish; 2) farq qilish.
contradistinguish [kɒntrədɪ'stɪŋgwɪʃ] *v* 1) qarshi (teskari) qo'ymoq; 2) farq qilmoq.
contrail ['kɒntreɪl] *n* samolyotning o'rin almashtirishdagi izi.
contraindication [kɒntrəɪndɪ'keɪʃn] *n tib.* (*biror dori yoki davolashni*) yoqmasligini yoki to'g'ri kelmasligini ko'rsatuvchi belgi.
contralto [kən'tra:ltəʊ] *n* kontralto (*ayollarning eng past, yo'g'on ovozi*).
contraposition [kɒntrəpə'zɪʃn] *n* qarama-qarshi qo'yish.

- contraption** [kənˈtræpʃn] *n* soʻzl. makkorlik bilan oʻylab chiqarilgan narsa (*ish, gap va b.*).
- contrapuntal** [ˌkɒntɹəˈpʌntl] *a* kontrapunktga oid; kontrapunkt prinsiplariga asoslangan (*kontrapunkt – musiqa nazariyasining koʻp ovoqlik prinsiplari haqidagi boʻlimi*).
- contrapuntist** [ˌkɒntɹəˈpʌntɪst] *n* mus. kontrapunktchi.
- contrariety** [ˌkɒntɹəˈrɪəti] *n* qarama-qarshilik, ziddlik.
- contrariness** [ˌkɒntɹərɪnəs] *n* 1) qaysarlik, oʻjarlik; 2) oʻz boshimchalik.
- contrariwise** [ˌkɒntɹərɪwaɪz] *adv* 1) aksincha, teskari; teskarisiga; 2) boshqa tomondan.
- contrary** [ˈkɒntɹəri] **1.** *a* qarshidagi, roʻparadagi; **on the ~** aksincha; **2.** *n* oʻxshamaslik; **3.** *adv* qaramay, aksincha.
- contrast** **1.** *n* [ˈkɒntɹɑːst] 1) kontrast, farq, aksi; 2) qiyoslash, taqqoslash, solishtirish; **in ~ with ...ga** qiyoslanganda; **2.** *v* [kɒntɹɑːst] qiyoslamok, taqqoslamok, solishtirmok.
- contravene** [ˌkɒntɹəˈviːn] *v* buzmoq (*qonunni*).
- contravention** [ˌkɒntɹəˈvenʃn] *n* buzish (*qonunni*).
- contribute** [kənˈtrɪbjʊːt] *v* 1) inʻom qilmoq, sadaqa qilmoq (*pul va shu kabilarni*); 2) hissa qoʻshmoq (*fan va shu kabilarga*) (**to**); 3) hamkorlik qilmoq (*gazetada, jurnalda*) (**to**).
- contribution** [ˌkɒntɹɪˈbjʊːʃn] *n* 1) inʻom, xayr-ehson, sadaqa (*pul va b.lar*); 2) hissa, ulush; ~ **of peace** tinchlik ishiga hissa qoʻshish; 3) hamkorlik (*gazetada, jurnalda*); 4) yordam berish; 5) soliq; **to lay under ~** soliq solmoq.
- contributor** [kənˈtrɪbjʊtə] *n* yordamchi.
- contributory** [kənˈtrɪbjʊtəri] *a* yordam beruvchi.
- contribute** [ˈkɒntrɪt] *a* qattiq xafa boʻladigan (*qaygʻuradigan*).
- critically** [ˈkɒntrɪtɪlɪ] *adv* qattiq xafa boʻlib, qaygʻurib; kuyib-pishib.
- criticism** [kənˈtrɪʃn] *n* achinish, afsuslanish; pushaymon boʻlish.
- contrivance** [kənˈtrɪvns] *n* 1) oʻylab topilgan narsa; 2) ijodkorlik; 3) *tex.* moslama, asbob.
- contrive** [kənˈtrɪv] *v* 1) oʻylab (*chiqarmoq*) topmoq; 2) ixtiro qilmoq.
- contriver** [kənˈtrɪvə] *n* ixtirochi.
- control** [kənˈtrəʊl] **1.** *n* 1) tekshirish; nazorat qilish; 2) idora qilish, boshqarish; **2.** *v* 1) tekshirmok; nazorat qilmoq; 2) boshqarmoq.
- control-gear** [kənˈtrəʊlɡɪə] *n* *tex.* boshqarish mexanizmi.
- controllable** [kənˈtrəʊləbl] *a* boshqariladigan (*boshqarsa boʻladigan*).
- controller** [kənˈtrəʊlə] *n* tekshiruvchi, nazoratchi.
- controversial** [ˌkɒntɹəˈvɜːʃl] *a* munozarali.
- controversialist** [ˌkɒntɹəˈvɜːʃlɪst] *n* bahsni yaxshi koʻradigan odam.
- controversy** [ˈkɒntɹəvɜːsɪ] *n* bahs, tortishuv, munozara.
- controvert** [ˌkɒntɹəˈvɜːt] *v* 1) bahslashmoq, tortishmoq; 2) rad etmoq.
- contumacy** [ˈkɒntjʊməsi] *n* boʻysunmaslik, itoat qilmaslik.
- contumelious** [ˌkɒntjʊˈmiːliəs] *a* haqoratomuz, tahqirli.
- contumely** [ˈkɒntjʊːmli] *n* haqorat, soʻkish.
- contuse** [kənˈtjuːz] *v* (*biror joyga*) urib olib lat yedirmok, shikastlamok.
- contusion** [kənˈtjuːʒn] *n* urilgan (lat yegan) joy.
- conundrum** [kəˈnʌndrəm] *n* 1) jumboq, muammo; 2) topishmoq.
- conurbation** [ˌkɒnəːˈberʃn] *n* konurbatsiya (*rivojlanib, oʻsib, birlashib ketgan bir qancha shaharlar guruhi*).
- convalesce** [ˌkɒnvəˈles] *n* sogʻayib ketish, tuzalish.
- convalescent** [ˌkɒnvəˈlesnt] *a* tuzaladigan, tuzatadigan.
- convection** [kənˈvekʃn] *n* fiz. konveksiya; issiqlik yoki elektr zaryadining muhit oqimi tufayli koʻchishi, tarqalishi.
- convene** [kənˈviːn] *v* (chaqirmok) oʻtkazmoq (*yigʻilish, qurultoy*).
- convenience** [kənˈviːniəns] *n* qulaylik.
- convenient** [kənˈviːniənt] *a* 1) qulay; 2) munosib, muvofiq.
- convent** [ˈkɒnvənt] *n* ayollar monastiri.
- convention** [kənˈvenʃn] *n* 1) yigʻilish, qurultoy; 2) shartnoma; bitim.
- conventional** [kənˈvenʃnəl] kelishilgan.
- converge** [kənˈvɜːdʒ] *v* bitta nuqtada kesishmoq (*chiziqlar va b.*).
- conversable** [kənˈvɜːsəbl] *a* odamga el boʻladigan, kirishimli.
- conversance** [kənˈvɜːsəns] *n* xabardor ekanlik, yaxshi bilish.
- conversant** [kənˈvɜːsənt] *a* yaxshi tanish boʻlgan.
- conversation** [ˌkɒnvəˈseɪʃn] *n* suhbat, gaplashish, soʻzlashish.
- conversational** [ˌkɒnvəˈseɪʃnəl] *a* soʻzlashuvga oid.
- converse** [ˈkɒnvɜːs] **1.** *n* suhbatlashmoq, gaplashmoq; **2.** *a* 1) orqaga yoʻnalgan; 2) agʻdarilgan.
- conversely** [ˈkɒnvɜːsli] *adv* 1) qarama-qarshi tomonga; 2) teskarisiga.
- conversion** [kənˈvɜːʃn] *n* boshqa narsaga aylanish, aylantirish.
- convert** [kənˈvɜːt] *v* boshqa narsaga aylantirmok.
- convertible** [kənˈvɜːtəbl] *a* asl holiga qayta (tiklana) oladigan; qaytariladigan, qaytariluvchi.
- converting** [kənˈvɜːtɪŋ] *n* boshqa narsaga aylanish.
- convex** [ˌkɒnˈveks] *a* qavariq, doʻng.
- convexity** [ˌkɒnˈveksəti] *n* qavariqlik, doʻnglik.

convey [kən'vei] *v* 1) yubormoq, jo'natmoq (*mollarni*); 2) bayon etmoq (*fikr*).

conveyance [kən'veiəns] *n* bir joydan ikkinchi joyga olib borish.

conveyor [kən'veiə] *n* *tex.* konveyer (*yuk tashish yoki ishlanayotgan narsalarni bir ish joyidan ikkinchi joyga ketma-ket yetkazib berish uchun to'xtovsiz aylanib turadigan lentasimon maxsus qurilma*).

convict 1. *n* [kən'vikt] jazoga hukm etilgan kishi; 2. *v* [kən'vikt] *jur.* aybdor deb hisoblamoq.

conviction [kən'vikʃn] *n* *jur.* hukm qilish (kesish)

convince [kən'vins] *v* ishontirmoq.

convinced [kən'vinst] 1. *p. p.* **convince** *dan*; 2. *a* qat'iy ishongan.

convincing [kən'vinstɪŋ] 1. *pres. p.* **convince** *dan*; 2. *a* ishontiradigan.

convive [kənvaiv] *n* hamtovoq, hamshisha.

convivial [kən'vivɪəl] 1) bayramga oid, bayramda bo'ladigan; 2) quvnoq, xushchaqchaq.

conviviality [kən,vi'vɪæləti] *n* vaqtichog'lik, quvnoqlik.

convocation [kən'və'keɪʃn] *n* chaqiriq, chaqirish; 2) yig'ilish.

convoke [kən'vəuk] *v* chaqirmoq, o'tkazmoq (*yig'ilish*).

convoy [kən'vɔɪ] 1. *n* kuzatish, kuzatib borish, kuzatib qo'yish; 2. *v* kuzatmoq, kuzatib bormoq, kuzatib qo'ymoq.

convulse [kən'vʌls] *v* silkitmoq, qoqmoq.

convulsion [kən'vʌlʃn] *n* 1) silkitish, qoqish; 2) akashak (changak) bo'lish (*tomir tortishish*).

convulsive [kən'vʌlsɪv] *a* akashak (changak) qilib qo'yadigan.

convy [kəunt] *n* uy quyoni.

coo [ku:] 1. *v* g'uv-g'uvlamoq (*kaptarlar haqida*); 2. *n* g'uv-g'uvlash.

cook 1 [kuk] 1. *v* ovqat (tayyorlamoq) pishirmoq; 2. *n* oshpaz.

cooker [kukə] *n* plita, pechka, o'choq.

cookery [kukəri] *n* 1) pazandalik, oshpazlik; 2) ovqat tayyorlash.

cookery-book [kukəribuk] *n* oshpazlik kitobi.

cookie [kuki] *n* *amer.* pishirilgan (yopilgan) narsalar (*pishiriqlar*).

cook-room [kuku:ɹm] *n* oshxona.

cook-table [kuk,teɪbl] *n* oshxona stoli.

cooky [kuki] *n* oshpaz ayol.

cool [ku:l] 1. *a* 1) salqin, sovuq; 2) sovuqqon; 3) qo'pol, qo'rs; 2. *n* salqin, shabada; 3. *v* sovi-moq, salqinlashmoq.

cooler [ku:lə] *n* sovitgich.

cool-headed [ku:l'hedɪd] *a* sovuqqon; og'ir, bosiq.

coolie [ku:li] *n* kuli (*ba'zi Osiyo mamlakatlarida; qora ishchi; hammol*).

cooling [ku:lɪŋ] *n* sovitish.

coolness [ku:lənəs] *n* 1) salqinlik, toza havo; 2) sovuqqonlik, bosiqlik.

coomb [ku:m] *n* jar, jarlik.

coon [ku:n] *n* *amer.* yenot (*J. sarg'ish kulrang mo'y-nali kichkina hayvon*; 2. *shu hayvon terisi*).

currency [ˈkʌrənsɪ] *n* 1) qo'llanuvchanlik, tarqalganlik; **words in common** ~ keng tarqalgan (*ko'p ishlatiladigan*) so'zlar; **to give ~ to smth** biror narsani muomalaga (ishlatishga) kiritmoq; 2) pul muomalasi; 3) valuta, pul; **paper** ~ qog'oz pul; **gold (silver)** ~ oltin (kumush) valuta; 4) davomiyligi, amalda bo'lish muddati (*biror narsaning*); **during the ~ of contract** shartnoma amalda bo'ladigan muddat mobaynida.

current [ˈkʌrənt] **1.** *a* 1) joriy, shu kungi, zamona-viy; ~ **month** joriy (shu) oyda; 2) amalda (ishlatilishda) boʻlgan, muomalada boʻlgan; ~ **coin** ishlatilishda (muomalada) boʻlgan tanga; 3) ogʻz. silliq (*uslub toʻgʻrisida*); **2.** *n* 1) oqim; **great ocean** ~s such as the **Gulf Stream** Golfstrim kabi kuchli okean oqimlari; 2) borish, oqim; **the ~ of events** voqealarning borishi.

curricle [ˈkʌrɪkl] *n* qoʻsh otli fayton, yengil arava.

curricula [kə ˈrɪkjʊlə] *pl* **curriculum** *dan*.

curriculum [kə ˈrɪkjʊlə] *n* (*pl* -la) 1) oʻquv kursi; 2) oʻquv rejası (*maktab, institut, universitetda*).

currish [ˈkɜːrɪʃ] *a* tarbiyasiz, dagʻal, qoʻpol.

curry [ˈkʌrɪ] *v* 1) ot qashlagich bilan qashlamoq (tozalamoq); 2) terisini shilmoq (ajratmoq); 3) urmoq, doʻpposlamq, poʻstagini qoqmoq.

curry-comb [ˈkʌrɪkəʊm] *n* otqashlagich.

curse [kɜːs] **1.** *n* 1) laʼnat, nafrat, qargʻish; **to call down** ~ **s upon smb.** bировga laʼnatlar yogʻdirmoq; 2) soʻkish; 3) ofat, kulfat; **2.** *v* 1) laʼnatlamoq, qargʻamoq; **He ~ d the day he was born.** U tugʻilganiga laʼnatlar oʻqirdi; 2) soʻkinmoq; **He ~ d loudly.** U bor ovozi bilan soʻkinadi; 3) dinni tahqirlamoq, shakkoklik qilmoq.

curse 1. [ˈkɜːst] *p. p.* **curse 2** *dan*; **2.** *a* [ˈkɜːsɪd] laʼnatlangan, laʼnati.

cursedly [ˈkɜːsɪdli] *adv* yoqimsiz bir holda.

curstive [ˈkɜːsɪv] **1.** *n* sodda tez yozuv (*qadimiy qoʻlyozmalarda*); **2.** *a* 1) tez yozish usuliga asoslangan; 2) qoʻlyozmaga oid.

cursor [ˈkɜːsɜː] *n* *tex.* strekla, mil, koʻrsatkich.

cursorial [kɜː ˈsɜːrɪəl] *a* yuguradigan, chopadigan (*qushlar toʻgʻrisida*).

cursorly [ˈkɜːsɪ] *a* naridan beri qilingan, yuzaki.

curst [kɜːt] qoʻzgʻatilgan.

cut [kɜːt] *a* qisqa, loʻnda (*javob haqida*).

curtail [kɜː ˈteɪl] *v* qisqartirmoq.

curtailment [kɜː ˈteɪlmənt] *n* qisqartirish, ixchamlashtirish.

curtain [ˈkɜːtɪn] **1.** *n* parda; **2.** *v* parda tutib qoʻymoq.

curtain-call [ˈkɜːtnkɔːl] *n* (*sahnaga*) aktyorni chaqirish, taklif qilish (*qarsaklar ostida*).

curtain-fire [ˈkɜːtn,faɪə] *n* *harb.* oʻt parda.

curtilage [ˈkɜːtəlɪdʒ] *n* *yur.* uyga taqalib (yaqin) turadigan yer maydoni.

curtsey [ˈkɜːtsɪ] *n* tiz choʻkib taʼzim qilish.

curtsey [ˈkɜːtsɪ] = **curtsey**.

curvature [ˈkɜːvətʃə] *n* 1) egrilik, qiyshqlik; 2) qiyshayan (bukilgan) joy.

curve [kɜːv] **1.** *v* 1) egmoq, bukmoq; 2) egilmoq, bukilmoq; **2.** *n* egri (qiyshiq) chiziq.

curve piece [ˈkɜːvpiːs] *n* *qur.* gumbaz qolipi (*gumbaz qurish uchun qilingan yoy shaklidagi qolip*).

curvet [kɜː ˈvet] **1.** *n* otning oldingi oyoqlarini bukib sakrashi; **2.** *v* oldingi oyoqlarini bukib sakramoq (*ot haqida*).

curvilinear [ˈkɜːvɪˈlɪnə] *a* egri chizikli, qingʻir-qiyshiq.

cushat [ˈkʌʃət] *n* govkaptar.

cushion [ˈkʊʃən] **1.** *n* 1) divan yostigʻi; 2) bilyard stolining yon devori (*bori*); **2.** *v* yostiq qoʻymoq.

cushiony [ˈkʊʃni] *a* yostiqa oʻxshagan yumshoq.

cushy [ˈkʊʃɪ] *a* yengil va yaxshi toʻlanadigan; **a ~ job** issiq joy; ~ **wound** yengil jarohat.

cuspid [ˈkʌspɪd] *n* togʻ choʻqqisi.

cuspid [ˈkʌspɪd] *n* *anat.* qoziqtish, soʻyloqtish.

cuspidal [ˈkʌspɪdl] *a* uchi oʻtkir, uchli.

cuspidate(d) [ˈkʌspɪdeɪt(ɪd)] *a* uchi oʻtkir, uchli.

cuspidor [ˈkʌspɪdɔː] *n* *amer.* tupdon (*tupurish uchun ishlatiladigan idishi*).

uss [kʌs] **1.** *n* soʻzl. qargʻish, laʼnat; **2.** *v* soʻkishmoq, urishmoq.

cussed [ˈkʌsɪd] *a* soʻzl. oʻjar, qaysar.

custard [ˈkʌstəd] *n* (*tuxum va sutdan qilingan*) shirin krem.

custodian [kʌs ˈtəʊdɪən] *n* qorovul, soqchi; qoʻriqchi.

custody [ˈkʌstədɪ] *n* 1) vasiylik, vasiylik qilish; **to be in the ~** vasiylikda boʻlmoq; 2) saqlash, asrash, qoʻriqlash; **to place securities** ~ boyliklarni saqlashga qoʻymoq; 3) qamoqqa (*hibsga*) olish; **to commit to** ~ hibsga (*qamoqqa*) olmoq.

custom [ˈkʌstəm] **1.** *n* 1) urf-odat, udum; 2) odat, oʻrganish; **2.** *v* *amer.* buyurtma asosida tayyorlangan.

customary [ˈkʌstəməri] *a* 1) oddiy, odatdagi; 2) odat boʻlib qolgan, odatga aylangan.

custom-built [ˈkʌstəmˈbɪlt] *a* *amer.* maxsus buyurtma asosida qurilgan.

customer [ˈkʌstəmər] *n* xaridor (*odatda doimiy*), mijoz.

custom-house [ˈkʌstəmhaʊs] *n* bojxona.

custom-made [ˈkʌstəmˈmeɪd] *a* buyurtma asosida tayyorlangan (*qilingan, qurilgan*).

customs [ˈkʌstəmz] *n* *pl* bojxona boji; ~ **free** bojsiz; **to pass through the ~** bojxona nazoratidan oʻtmoq; **the C** bojxona boshqarmasi.

cut [kʌt] **1.** *v* (**cut**; **cut**) 1) kesmoq, qirqmoq, toʻgʻramoq; 2) sochini olmoq; 3) qisqartirmoq; ~ **at** zarba bermoq (*qilich va b.*); ~ **away** qirqib (*kesib*) olmoq; ~ **down** qisqartirmoq (*maqola va b.*); ~ **in** qoʻshilmoq, aralashmoq; ~ **off** kesib (*qirqib*) tashlamoq; ~ **out** kesib (*qirqib*) olmoq; ~ **over** oʻrmondagi daraxtlarni kesmoq; ~ **under** arzonroq narxda sotmoq; ~ **up** boʻlaklarga boʻlmoq; **2.** *n* 1) kesilgan (*tilingan*) joy; 2) qirqib olingan narsa; 3) qisqartirish; **3.** *a* kesilgan, qirqilgan.

cutaneous [kju ˈteɪnəs] *tib.* teriga oid.

cut-away [ˈkʌtəweɪ] *n* vizitka.

cutback [ˈkʌtbæk] *n* qisqartirish.

cute [kjuːt] *a* soʻzl. 1) aqlli; 2) jozibali, koʻrkam.

cut-glass [ˈkʌtɡlɑːs] qirrali (*qirralangan*) shisha (*oynak*).

cutler [ˈkʌtlə] *n* arrakash.
cutlery [ˈkʌtləri] *n* vilka-qoshiq.
cutlet [ˈkʌtlət] *n* toʻqmoqlangan goʻshtdan tayyorlangan kotlet.
cut-off date [ˈkʌtɒfˈdeɪt] *n* oxirgi (soʻnggi) muhlat
cut-out [ˈkʌtaʊt] *n* *el.* saqlagich.
cut sugar [ˈkʌtˌʃʊgə] *n* chaqmoq qand.
cutter [ˈkʌtə] *n* oʻymakor usta, oʻymakor naq-qosh.
cutthroat [ˈkʌtθrəʊt] *n* kallakesar, qotil.
cutting [ˈkʌtɪŋ] **1.** *n* kesish, qirqish; **2.** *a* oʻtkir, keskir.
cutting area [ˈkʌtɪŋˌeəriə] *n* oʻrmonning daraxt kesilayotgan joyi.
cutting room [ˈkʌtɪŋrʊm] *n* yigʻish usta xonas-i.
cuttle [ˈkʌtl] *n* *zool.* karakatitsa (*dengiz molluska-larining bir turi*).
cutty [ˈkʌti] *n* 1) kalta qoshiq; 2) soʻzl. axloqsiz ayol.
cutty-stool [ˈkʌtɪstʊ:l] *n* pastak stul.
cutwater [ˈkʌtˌwɔ:tə] *n* *deng.* suv keskich (*kema-ning tumshugʻi*).
cuvette [kjuːˈvet] *n* *rasm.* fotoplastinka, foto-qogʻoz yuviladigan vannacha.
cyanic [saɪˈænik] *a* *kim.* sianli, tarkibida sian boʻlgan, sian; ~ **acid** sian kislotasi.
cyanide [saɪənaɪd] *n* *kim.* sianid.
cyanogen [saɪˈænədʒən] *n* *kim.* sian (*tussiz zaharli gaz*).
cyanosis [ˌsaɪəˈnəʊsɪs] *n* *tib.* koʻkarib qolgan joy (*badanda*).
cybernated [ˌsaɪbəˈneɪtɪd] *a* kompyuterlar bilan jihatlangan.
cybernetics [ˌsaɪbəˈnetɪks] *n* kibernetika (*avtomatik boshqarish sistemalari va usullari haqidagi fan*).
cyclamen [ˈsɪkləmən] *n* *bot.* siklamen (*Alp binafshasi*).
cycle [ˈsaɪkl] **1.** *n* 1) sikl, davr, davra; **the ~ of the seasons** yil fasllarining davriy almashishi; 2) davriylik; 3) uzoq davr, asr; 4) soʻzl. velosiped; **2.** *v* 1) rivojlanish davrini oʻtmoq; davriy takrorlanmoq; 2) doira boʻylab harakat qilmoq; 3) velosipedda uchmoq.
cycle-car [ˈsaɪklɑː] *n* mototsiklning kolaskasi.
cyeler [ˈsaɪklə] = **cyclist**.
cyclic(al) [ˈsɪklɪk(əl)] *a* davriy, maʼlum davrda boʻladigan.
ycling [ˈsaɪklɪŋ] *n* velosipedda yurish; velosport.
cyclist [ˈsaɪklɪst] *n* velosipedchi.
cycloid [ˈsaɪklɔɪd] *n* *mat.* sikloida (*nuqtalar bilan koʻrsatilgan doirasimon chiziq*).
cyclometer [saɪˈklɔmɪtə] *n* siklometr (*asbob*).
cyclone [ˈsaɪkləʊn] *n* *meteor.* siklon (*atmosfera girdobi; boʻron; dovul*).
cyclonic [saɪˈklɔnɪk] *a* siklonga oid, siklonsimon.

cyelop(a)edia [ˌsaɪkləʊˈpiːdiə] *n* ensiklopediya, qomus.
cyelop(a)edic [ˌsaɪkləʊˈpiːdɪk] *a* ensiklopediya (qomus)ga oid.
Cyclopean [ˌsaɪkləʊˈpiːən] *a* juda katta, zoʻr, azim.
Cyclopes [saɪˈkləʊpiːz] *pl* **Cyclops** *dan.*
Cyclops [ˈsaɪklɒps] *a* (*pl -opes*) siklop (*qadimgi grek afsonalarida bir koʻzli pahlavon*).
cyclotron [ˈsaɪkləʊtrɒn] *n* *fiz.* tsiklotron (*yadro tadqiqotida zaryadlangan ogʻir mikrozarra-larni tezlatadigan qurilma*).
cyder [ˈsaɪdə] = **cider**
cygnet [ˈsɪgnət] *n* kichkina oqqushcha.
cylinder [ˈsɪlɪndə] *n* *mat.* silindr.
cylindrical [səˈlɪndrɪkl] *a* silindrsimon, silindr shaklidagi.
cymbal [ˈsɪmbl] *n* 1) *mus.* kimval, chang (*bir-biriga urib chalinadigan toʻgarak yogʻoch yoki mis asbobi*); 2) *mus.* *pl* zil (*tarelka*).
cyme [saɪm] *n* *bot.* toʻpgul.
cymograph [ˌsaɪməʊgrɑːf] *n* kimograf (*organizmdagi fiziologik jarayonlarni egri chiziq shaklida yozib oladigan apparat*).
cymometer [saɪˈmɔmɪtə] *n* *el.* toʻlqin oʻlchagich.
cymoscope [ˈsaɪməskəʊp] *n* *el.* tebranish indikator.
cynic [ˈsɪnɪk] *n* beadab (uyatsiz, hayosiz, surbet) odam.
cynical [ˈsɪnɪkl] *a* beadab, uyatsiz, hayosiz, surbet.
cynicism [ˈsɪnɪsɪzəm] *n* beadablik, uyatsizlik.
cyonure [ˈsɪnəʊjʊə] *n* 1) qutb yulduzi; 2) yoʻl koʻrsatadigan yulduz, yoʻlchi yulduz.
cypher [ˈsaɪfə] = **cipher**.
cypress [ˈsaɪprəs] *n* *bot.* sarv.
Cypriote [ˈsɪprɪəʊt] *n* Kipr fuqarosi, kiprlik.
Cyrillic [səˈrɪlɪk] *a* : ~ **alphabet** kirill alifbosi.
cyst [sɪst] *n* 1) *anat.* pufak, qovuq; 2) *tib.* kista (*sariq suv olgan shish, oʻsma*).
cystic [ˈsɪstɪk] *a* *anat.* siydik pufagiga oid, qovuqqa oid.
cystitis [sɪˈstɪtɪs] *n* *tib.* siydik pufagining yalligʻlanishi.
cytology [saɪˈtɒlədʒɪ] *n* *biol.* sitologiya (*hujayralarning tuzilishi, rivojlanishi va funksiyalarini oʻrganadigan fan*).
cytoplasm [ˈsaɪtəʊˌplæzəm] *n* *biol.* sitoplazma.
czar [zɑː] *n* *rus.* podsho.
czardas [ˈtʃɑːdæʃ] *n* chardash (*vengrcha raqs va shu raqs musiqasi*).
czarevitch [ˈzɑːrɪvɪtʃ] *n* *rus.* shahzoda.
czarina [zɑːˈrɪːnə] *n* *rus.* malika.
Czech [tʃek] **1.** *a* chexlarga oid; **2.** *n* chex, chex ayoli.
Czechoslovak [ˌtʃekəʊˈsləʊvæk] **1.** *n* Chexoslovakiyada yashovchi kishi; **2.** *a* Chexoslovakiyada ishlab chiqilgan, Chexoslovakiyaga oid.
Czech [tʃek] = **Czech**.

Dd

D, d [di:] *n* (*pl* **Ds, D's** [di:z]) ingliz tili alifbosining to'rtinchi harfi.

da [dɑ:] *so'zl.* dada, ota, ada.

dab I [dæb] **1.** *n* yengil zarba; **2.** *v* sekingina tegmoq; urmoq; tushirmoq.

dab II [dæb] *n* 1) *zool.* yorsh balig'i; 2) *so'zl.* yaxshi biladigan, bilag'on, bilimdon, bilarmon, usta, omilkor; o'z ishining ustasi.

dabble [dæbl] *v* 1) shapillatmoq, sachratmoq (*suvni*); 2) (*loy*) sachratib iflos qilmoq.

dabblor [dæblɔ] *n* 1) ishqiboz, o'ch; havaskor, shunchaki qiziquvchi; 2) yaxshi biladigan, bilag'on, bilimdon, bilarmon, usta, omilkor; o'z ishining ustasi, mutaxassis.

dabby [dæbi] *a* nam, zax, ho'l, zaxkash.

dace [deɪs] *n* qizilko'z (*chuchuk suvda yashaydigan mayda baliq turi*).

dachshund [ˈdæksnd] *n* *nem.* taksa (*oyoqlari katta, gavdasi uzun bir xil it*).

dactyl [dæktɪl] *n* daktil (*urg'u birinchi bo'g'inga tushadigan uch bo'g'inli turoq*).

dactylic [dæktɪˈtɪlɪk] *n* 1) daktilik; 2) daktilik she'r, bayt, misra.

dactylography [dæktɪlɔˈɡrəfi] *n* o'yamakorlik san'atining tarixi (*qimmatbaho toshlar va uzuklarda*).

dactylogram [dæktɪˈlɔɡræm] *n* barmoq izi.

dactylography [dæktɪˈlɔɡrəfi] *n* daktiloskopiya (*barmoq izlari va ularga qarab kishilarning shaxsini aniqlash*).

dactylogy [dæktɪˈlɔlədʒɪ] *n* daktilologiya, barmoq tili (*kar-soqovlarning imo-ishoralariga asoslangan o'zaro tili*).

dad, daddy [dæd, ˈdædi] *n* *so'zl.* dada, ota, ada.

daddyloglegs [ˌdædi ˈlɔŋlegz] *n* uzunoyoqlar, ikki qanotli hasharot (*karam zararkunandasi*).

dado [deɪdɔ] **1.** *n* sokol (*devorning pastki qalinqismini*); **2.** *v* panel (*devorning pastki qismini yog'och-taxta bilan qoplash yoki bo'yab qo'y-moq*).

daedal [ˈdi:dəl] *a* *shoir.* mohir, usta, mahoratli, ustasi farang.

Daedalian [diˈdeɪliən] *n* murakkab tarkibli, qo'shma; chigal; aqli o'tkir, ziyrak, topqir, tadbirkor, makkor, hiylagar.

daemon [di:mən] = **demon**.

daemonic [di:mənɪk] = **demonic**.

daffodil [ˈdæfədɪl] *n* *bot.* nargiz, narkas (*gul*).

daffodilly [ˈdæfədɪli] = **daffodil**.

daffy [ˈdɑ:fi] = **daft**.

daft [dɑ:ft] *a* *so'zl.* aqli kam, aqli past, aqldan ozgan, jinni, telba, devona; **to go** ~ aqldan ozmoq.

dag [dæg] *n* 1) *tar.* katta to'pponcha; 2) bir tutam jun.

dagger [ˈdægə] **1.** *n* xanjar; **2.** *v* xanjar sanchmoq (*suqmoq, tiqmoq*).

daggle [ˈdægl] *v* loy (*balchiq, botqoq*) bilan sudramoq (*tortmoq*).

dago [ˈdeɪgəʊ] *n* *amer.* dago (*italyan, ispan va portugallarning laqabi*).

dahlia [ˈdeɪliə] *n* *bot.* kartoshkagul.

Dail (Eireann) [ˌdɔɪl (eəɾən)] *n* Irlandiya Respublikasi parlamentining quyi palatasi.

daily [ˈdeɪli] **1.** *adv* kun sayin, har kuni; **2.** *a* har kungi, kundalik; **3.** *n* kundalik ro'znoma (*gazeta*).

daintiness [ˈdeɪntɪnəs] *n* nafislik, noziklik, nazokat.

dainty [ˈdeɪntɪ] **1.** *n* shirinlik, shiravor; **2.** *a* shirin, totli, mazali, lazzatli, xushxo'r.

dairy [ˈdeəri] *n* 1) moy ishlab chiqaradigan korxonona; 2) sut mahsulotlari do'koni; ~ **products** sut-qatiq mahsulotlari.

dairy-farm [ˈdeəri:fɑ:m] *n* sutchilik xo'jaligi.

dairying [ˈdeəriŋ] *n* sutchilik xo'jaligi.

dairymaid [ˈdeərimeid] *n* sutchilik fermasidagi ishchi ayol; sut sog'uvchi; sigir sog'uvchi ayol.

dairyman [ˈdeəri:mən] *n* sutchilik fermasining ishchisi yoki egasi.

dais [ˈdeɪs] *n* taxtasupa, minbar, ko'prik taxtasi; tepalik, balandlik, baland joy.

daisied [ˈdeɪzɪd] *a* dastorgul bilan qoplangan.

daisy [ˈdeɪzi] *n* dastorgul.

daisy-cutter [ˈdeɪzi,kʌtə] *n* yugurayotganda oyog'ini zo'rg'a ko'taradigan ot.

dak [dɑ:k] *n* *hind.* almashinuvchi hammollar (*yuk tashuvchilar*) yoki otlar.

dak bungalow [dɑ:kˈbʌŋgələʊ] *n* pochta bekatidagi mehmonxonona (*Hindiston va Pokistonda*).

Dalai Lama [ˌdælɑɪ ˈlɑ:mə] *n* Dalay-Lama (*Tibet hokimi va bosh ruhoniysi*).

dale [deɪl] *n* vodi.

dalesman [ˈdeɪlzmən] *n* vodiy aholisi, vodiyda yashovchi (*Shimoliy Angliyada*).

dalle [dæl] *n* kafel, koshin; plitka, kichkina plita (*pol qilish uchun*).

dalliance [ˈdælɪəns] *n* 1) bekor (behuda) vaqt o'tkazish; 2) o'yin-kulgi; 3) (*nimagadir*) jiddiy munosabatda bo'lmaslik.

dally [ˈdæli] *v* imillamoq, sustkashlik qilmoq.

daltonism [ˈdɔ:ltənɪzm] *n* *tib.* daltonizm (*ba'zi rang-tuslarni farq qila olmaslik kasalligi*).

dam [dæm] **1.** *n* damba, ko'tarma, to'g'on; **2.** *v* bo'g'moq, to'smoq, bog'lamoq.

damage [ˈdæmɪdʒ] **1.** *n* zarar, ziyon, shikast, buzilish; **2.** *v* ziyon (zarar) yetkazmoq; ziyon keltirmoq.

damaged [ˈdæmɪdʒd] *a* zararlangan; buzuq.

damaging [ˈdæmɪdʒɪŋ] *a* zarar yetkazadigan, shikastlaydigan.

damask [ˈdæməsk] **1.** *n* ipak kimxob; **2.** *a* kimxob gulli, guldor; **3.** *v* gul solib gazlama to'qimoq.

dame [deɪm] *n* ayol, xotin.

dame-school [ˈdeɪmsku:l] *n* yosh bolalar maktabi (*ayollar boshqaradigan*).

damn [dæm] **1.** *n* la'nat, nafrat, qarq'ish; **2.** *v* so'kmoq, urishmoq, koyimoq.
damnably [ˈdæmnəblɪ] *adv* yoqimsiz bir holda, juda xunuk, juda yomon.
damnation [dæmˈneɪʃn] **1.** *n* la'nat, nafrat, qarq'ish; **2.** *int.* la'nati!
damned [dæmd] *a* jazoga hukm etilgan.
damnific [dæmˈnɪfɪk] *a* zarar keltira oladigan, zararli, juda zararli.
damnification [ˌdæmnɪfɪˈkeɪʃn] *n* *yur.* zarar yetkazish.
damnify [ˈdæmnɪfaɪ] *v* zarar yetkazmoq.
Damocles [ˈdæməkliːz] *n* *grek.* *mif.* Damokl.
damp [dæmp] **1.** *a* namlik, zaxlik, ho'llik; **2** *n* nam, zax, ho'l, zaxkash; **3.** *v* ho'llamoq, namlamoq, ivitmoq.
damp course [ˈdæmpkɔːs] *n* nam o'tkazmaydigan qilish.
dampen [ˈdæmpən] *v* 1) namlamoq, ho'llamoq; 2) susaytirmoq.
damper [ˈdæmpə] *n* namlagich, ho'llagich.
damping [ˈdæmpɪŋ] *n* namlash, ho'llash, nam berish; namlanish, nam bo'lish.
dampish [ˈdæmpɪʃ] *a* nam, zax, ho'l, zaxkash.
damp-proof [ˈdæmppruːf] *a* suv (nam) o'tkazmaydigan, suv (nam) o'tmaydigan.
dampy [ˈdæmpɪ] *a* nam, zax, ho'l, zaxkash.
damsel [ˈdæmzl] *n* *hazil.* bo'yi yetgan qiz.
damson [ˈdæmzn] *n* tikan olxo'ri.
damson-coloured [ˈdæmzn,kələd] *a* qizil-ko'k (*olxori rangi*).
Dan [dæn] *n* *esk. shoir.* xo'jayin, taqsir, janob.
dan [dæn] *n* *deng.* bo'y (*suvda sayozlik, yo'l va h.k.larni ko'rsatadigan qalqovich belgi*).
dance [dɑːns] **1.** *n* raqs, o'yin va unga moslab yozilgan musiqqa; **2.** *v* raqsga tushmoq, o'yinga tushmoq, o'ynamoq.
dancer [ˈdɑːnsə] *n* raqqos, raqqosa, o'yinchi.
dancing [ˈdɑːnsɪŋ] **1.** *n* raqslar, o'yinlar; o'yin, raqs; **2.** *attr.* raqsga oid; ~ **master** raqs o'qituvchisi; ~ **party** raqs kechasi.
dancing-hall [ˈdɑːnsɪŋhɔːl] *n* qahvaxona-restoranlarda (*o'yinga tushadigan zal*).
dandelion [ˈdændɪləɪən] *n* momaqaymoq, qoqi o't.
dander [ˈdændə] *n* g'azablanish; jahli chiqish, qoni qaynash.
dandiacal [dænˈdæɪəkəl] *a* oliftalarcha (oliftalardak, satanglardak) kiyingan.
dandified [dændɪfɪəd] *a* juda chiroyli, kelishgan.
dandify [ˈdændɪfaɪ] *v* olifta kiyinmoq; yasantirmoq, bezattirmoq, yasatmoq.
dandle [ˈdændl] *v* 1) (*bolani*) tizzada yoki qo'lda tebratmoq; 2) erkalatmoq.
dandruff [ˈdændrʌf] *n* qazg'oq, bosh kepagi.
dandy I [ˈdændɪ] **1.** *n* olifta, yasanchoq (*kiyimga zeb beradigan*) odam; **2.** *a* juda chiroyli, kelishgan.

dandy II [ˈdændɪ] *n* 1) *deng.* bir machtali yelkanli kema; 2) *hind.* qayiqchi, qayiq haydovchi (*Gang daryosida*).
dandy-brush [ˈdændɪbrʌʃ] *n* ot-qashlagich; qattiq cho'tka (*otlarni tarash uchun kit mo'ylovidan qilingan*).
dandyish [ˈdændɪʃ] *a* olifta.
dandyism [ˈdændɪɪzəm] *n* oliftalik, bashanglik; olifta kiyinish.
Dane [deɪn] *n* daniyalik kishi.
Danelagh [ˈdeɪnlɔː] = **Danelaw**.
Danelaw [ˈdeɪnlɔː] *n* *tar.* Daniya qonunlari (*Britaniyaning shimoliy sharqida X asrda joriy etilgan*).
dang [dæŋ] *v* : ~ **it!** jin ursin!
danger [ˈdeɪndʒə] *n* xavf, tahdid, xavf-xatar, xatar, qo'rqinch; **out of** ~ xatardan xoli.
danger arrow [ˈdeɪndʒə,æɹəʊ] *n* zigzag (*siniq chiziq shaklidagi*) o'q; chaqmoq alomati.
dangerous [ˈdeɪndʒərəs] *a* xavfli, tahdid soluvchi, xatarli, tahlkali, qaltis, yomon.
danger-signal [ˈdeɪndʒə,saɪnəl] *n* xavf (xatar) signali (xabari).
dangle [ˈdæŋɡl] *v* osilib turmoq, osilib tushmoq.
dangle-dolly [ˈdæŋɡl,dɔːli] *n* avtomashinalarga osiladigan o'yinchoq.
dangler [ˈdæŋɡlə] *n* ishyoqmas (bekorchi, tanbal) kishi.
dangling [ˈdæŋɡlɪŋ] *a* osilib turgan, osib qo'yilgan, osilib tushgan.
Danish [ˈdeɪnɪʃ] **1.** *a* Daniyaga va daniyaliklarga oid; **2.** *n* daniyaliklar tili.
dank [dæŋk] *a* nam, ho'l.
dap [dæp] **1.** *n* irg'ib ketish, sakrab ketish, irg'ib tushish (*koptok haqida*); **2.** *v* qarimoq bilan baliq tutmoq (*baliq ovlamoq*).
daphne [ˈdæfni] *n* *bot.* mevasi zaharli buta.
dapper [ˈdæpə] *a* ozoda, toza, pokiza.
dapple [ˈdæpl] *v* yozib (*chizib*) tashlamoq, olabula qilib yubormoq.
dapple-bay [ˈdæplbeɪ] *n* oriq ot.
dappled [ˈdæpld] *a* xol-xol, olachipor, dog'li.
dapple-grey [ˌdæplˈɡreɪ] **1.** *a* kulrang, ko'kimtir, bo'z (*ot to'g'risida*); **2.** *n* kulrang chavkar ot.
darby [ˈdɑːbɪ] *n* suvoqchilik (gilkorlik) qoidasi; g'isht teruvchi ustaning belchasi.
dare [deə] **1.** *v* botinmoq, jur'at etmoq, yuragi betlamoq; jazm qilmoq; **2.** *n* chaqiriq, chaqiruv, taklif, da'vat.
dare-devil [ˈdeə,devl] **1.** *n* dovyurak odam; botir odam; **2.** *a* botir, jasur, mard, dovyurak, qo'rqmas, jur'atli, jasoratli, mardonavor, mardlarcha.
daring [ˈdeərɪŋ] **1.** *n* dadillik, botirlik, jasurlik, mardonavorlik; **2.** *a* jasur, botir, qo'rqmas, dovyurak; jasoratli, jur'atli.
dark [dɑːk] **1.** *a* qorong'i, qora, qoramtir, to'q; noma'lum, tushunarli bo'lmagan; ~ **eyed** qorako'z; **2.** *n* qorong'ilik, qorong'i; kechki payt; zulmat.

darken [ˈdɑ:kən] *v* qorong'ilashtirmoq, qorong'i qilmoq, to'smoq.

darkening [ˈdɑ:kənɪŋ] *n* qoraytirish (zoklash), bo'yash.

darkey [ˈdɑ:kɪ] *n* negr, qoracha, qorachadan kelgan.

dark lantern [ˈdɑ:k,læntən] *n* maxfiy fonus, shishali chiroq.

darkle [ˈdɑ:kl] *v* qoraymoq, qorayib qolmoq; qorong'ilashtirmoq, qorong'i tushmoq.

darkling [ˈdɑ:kliŋ] *a* qoraytiradigan, qorong'ilashtiradigan, qoraytiradigan.

darkly [ˈdɑ:kli] *adv* dushmanlik ko'zi bilan, g'azab bilan, yomon, yovuz, achchiqlanib.

darkness [ˈdɑ:kənəs] *n* qorong'ilik, qorong'i; tim-qorong'ilik, zimiston, zim-ziyo; kechki payt.

darksome [ˈdɑ:k səm] *a* qorong'i, qora, qoramtir, to'q.

darling [ˈdɑ:lɪŋ] *n* 1) sevimli, sevikli, sevilgan, sevgan, oshiq, muhabbat qo'yilgan, mehr qo'yilgan, ishqiy tushgan; mahbub; 2) dilrabo, dilbar, jonon, yoqimli, aziz, chiroyli, go'zal, iltifotli.

darn [dɑ:n] **1.** *n* to'rlab yamalgan joy; to'rlash, to'rlab yamash; **2.** *v* to'rlab yamamoq; to'rlamoq.

darnel [ˈdɑ:nəl] *n* bot. mastak (*begona o'r*).

darner [ˈdɑ:nə] *n* to'rovchi (*usta*); to'rovchi ayol.

darning [ˈdɑ:nɪŋ] *n* to'rlash, to'rlab yamash.

darning-needle [ˈdɑ:nɪŋ,ni:dl] *n* to'rlab yamaydigan igna.

dart [dɑ:t] **1.** *n* irg'itiladigan (otiladigan) o'q, nayza; **2.** *v* irg'itmoq, tashlamoq, otmoq; ~ **glances** nazar tashlamoq.

darting [ˈdɑ:tɪŋ] *a* 1) jadal (ildam, tez, juda tez, shiddatli, shitob) bilan olib boriladigan; 2) g'ayrati ichiga sig'maydigan.

dartre [ˈdɑ:tə] *n* tib. temiratki.

Darwinian [ˈdɑ:ˈwɪnɪən] **1.** *n* darvinist, darvinchi, darvinizm tarafdori; **2.** *a* darvinchilarga oid, darvinistlarga oid.

Darwinism [ˈdɑ:wɪn,ɪzm] *n* Darwin ta'limoti (nazariyasi).

Darwinist [ˈdɑ:wɪnɪst] = **Darwinism**.

dash [dæʃ] **1.** *n* 1) tez (ildam, jadal) harakat; **to make a ~ against the enemy** dushmanga shiddat bilan tashlanmoq; 2) tire; **2.** *v* 1) irg'itmoq; uloqtirmoq; 2) chopqillamoq.

dash-board [ˈdæʃbɔ:d] *n* asbob-uskuna taxtasi.

dasher [ˈdæʃə] *n* zo'r muvaffaqiyat bilan hayratda qoldiruvchi inson.

dashing [ˈdæʃɪŋ] *a* ephil, chaqqon, abjir, uchqur.

dash-pot [ˈdæʃpɒt] *n* tex. havoli *yoki* moyli bufer, amortizator.

dastard [ˈdæstəd] *n* 1) qo'rqqoq (yuraksiz) kishi; 2) yaramas (razil, ablah) kishi.

dastardly [ˈdæstədli] *a* qo'rqqoq, yuraksiz, qo'rqqoqlik, razil, qabih, yaramas, pastkash.

data [ˈdeɪtə] *n* pl ma'lumotlar, dalillar.

data-sheet [ˈdeɪtəʃi:t] *n* 1) tasniflash; 2) tafsilotli ro'yxat.

date [deɪt] **1.** *n* 1) sana (*oyning kuni*), kun, tarix; ~ **of birth** tug'ilgan kun; 2) muddat; **out of ~** eskirgan; 3) uchrashuv; **to make a ~** uchrashuv belgilamoq; **2.** *v* sanasini ko'rsatmoq.

dated [ˈdeɪtɪd] *a* sanasi yozilgan; sanasi bor.

dateless [ˈdeɪtləs] *a* sanasi yozilmagan, sanasi yo'q.

date-palm [ˈdeɪtpɑ:m] *n* xurmo daraxti.

dative [ˈdeɪtɪv] *n* gram. jo'nalish kelishigi.

datum [ˈdeɪtəm] *n* (pl **data**) mat. 1) berilgan kattalik, ma'lum kattalik; 2) ma'lumot.

datum line [ˈdeɪtəmlaɪn] *n* baza chizig'i.

datura [dɑ:ˈtʃuərə] *n* bot. bangidevona.

daub [dɑ:b] **1.** *n* 1) yomon chizilgan rasm; 2) suvoq; **2.** *v* surkamoq, surtmoq, bo'yamoq, suvamoq; suvamoq.

dauber [ˈdɑ:bə] *n* no'noq rassom, yomon rassom.

dauby [ˈdɑ:bɪ] *a* yomon chizilgan (*rasm to'g'risida*).

daughter [ˈdɑ:tə] *n* qiz (*farzand*).

daughter-in-law [ˈdɑ:tərɪnlɔ:] *n* o'g'lining xotini, kelini, kelinoyi, yanga.

daughterly [ˈdɑ:təli] *a* qiz (*farzand*)ga oid; qiz (*farzand*)larga xos bo'lgan.

daunt [dɑ:nt] *v* 1) qo'rqitmoq, qo'rqitib qo'yimoq, cho'chitmoq; 2) hayvonlarni bo'ysundirmoq.

dauntless [ˈdɑ:ntləs] *a* jasoratli, jasur, qo'rqmas.

dauphin [ˈdɑ:fn] *n* tar. shahzoda (*1830-yildan ilgarigi Fransiyada*).

davenport [ˈdævnpɔ:t] *n* 1) kichkina yozuv stoli; 2) amer. divan-karavot.

daw [dɔ:] *n* zog'cha.

dawdle [ˈdɔ:dl] *v* 1) sudralib yurmoq, imillamoq; 2) vaqtini behuda o'tkazmoq.

dawdler [ˈdɔ:dlə] *n* dangasa, yalqov.

dawn [dɔ:n] **1.** *n* sahar, azon, tong, tong payti; **2.** *v* tong otmoq; tong yorishmoq.

day [deɪ] **1.** *n* kun, muhim sana, g'alaba; ~ **and night** erta-yu kech; **2.** *a* kunduzgi.

day-and-night [ˈdeɪən(d)ˈnaɪt] *a* kecha-kunduz davom etadigan, kecha-kunduz to'xtamaydigan.

day-bed [ˈdeɪbed] *n* pastak, keng divan.

day-blindness [ˈdeɪ,blaɪndnəs] *n* tib. kunduz kuni hech narsani ko'ra olmaslik (ajrata olmaslik).

day-book [ˈdeɪbʊk] *n* 1) kundalik daftar; 2) *hisob*. jurnal.

day-boy [ˈdeɪbɔɪ] *n* qatnab o'qiydigan o'quvchi.

daybreak [ˈdeɪbreɪk] *n* tong, tong payti, tong yorishgan payt.

day-dream [ˈdeɪdri:m] *n* shirin xayol, orzu.

day-dreamer [ˈdeɪdri:mə] *n* xayol suruvchi, xayolparast kishi.

day-fly [ˈdeɪflaɪ] *n* zool. qisqa umrlilar, juda qisqa (*masalan, bir yoki bir necha kungina umr ko'radigan hasharotlar*).

day-girl [ˈdeɪgɜːl] *n* qatnab o'qiydigan o'quvchi qiz.

day-labour [ˈdeɪ,leɪbə] *n* kunbay ish.

day-labourer [ˈdeɪ,leɪbərə] *n* kunbay ishlaydigan ishchi, mardikor.

daylight [ˈdeɪlaɪt] *n* tong, tong payti, tong yorishgan payt.

daylight-saving [ˌdeɪlaɪtˈseɪvɪŋ] *n* (elektr energiyani tejash maqsadida) soat milini yozda bir soat oldinga surish.

day-lily [ˈdeɪ,lɪli] *n bot.* lolagul.

day-long [ˈdeɪlɒŋ] *adv* kun bo'yi, ertalabdan kech-gacha.

day nursery [ˈdeɪ,nɜːsəri] *n* bolalarning kunduzgi bog'chasi.

day-school [ˈdeɪskuːl] *n* qatnab o'qiydigan o'quvchilarning maktabi; kunduz kuni o'qiydigan maktab; oddiy maktab.

day-shift [ˈdeɪʃɪft] *n* kunduzgi smena.

daysman [ˈdeɪzmən] *n* kunbay ishchi, mardikor.

day-spring [ˈdeɪsprɪŋ] *n shoir.* shafaq, tong, subh.

day-star [ˈdeɪstɑː] *n* tong yulduzi.

daytaler [ˈdeɪtələ] *n* kunbay ishchi, kunbay ishlaydigan ishchi (*asosan, ko'mir konlarida*).

day-time [ˈdeɪtaɪm] *n* kun, kunduz kun.

day-to-day [ˌdeɪtəˈdeɪ] *a* kunda bo'ladigan, har kungi.

day-work [ˈdeɪwɜːk] *n* kundalik ish.

daze [deɪz] **1.** *v* hayron (qoyil) qoldirmoq, mahliyo qilmoq; **2.** *n* hayron bo'lish, qoyil qolish.

dazedly [deɪzɪdli] *adv* hayron qolib, mahliyo bo'lib.

dazzle [ˈdæzəl] **1.** *n* 1) ko'zni qamashtirish; 2) yorqin nur; **2.** *v* ko'zni qamashtirmoq.

d-d [diː ˈdiː] (**damned** so'zining qisqartirilgan shakli) *a* jazoga hukm etilgan kishi.

D-day [ˈdiːdeɪ] *n harb.* operatsiya (harbiy harakat)ning boshlanish kuni.

de- [diː-, dr-, dɔ-, dɒ-] *pref.* 1) quyidagilarni ko'rsatadi: a) dan ajratish, dan mahrum etish; 2) yomon sifat, yetishmovchilik; 3) so'zlarga teskari (aks) ma'no beradi.

deacon [ˈdiːkən] *n* dyakon (*pravoslav cherkovida*).

deaconess [ˈdiːkəˈnes] *n* dyakon xotini (*dyakon pravoslav cherkovida ruhoniylarning quyi unvoni*).

dead I [ded] **1.** *n* o'lik, murda, jasad; **2.** *a* o'lik, o'lgan, jonsiz.

dead II [ded] *adv* to'la, to'liq, mutlaqo, g'oyat.

dead-alive [ˌdedəˈlaɪv] *a* o'lik, jonsiz, ruhsiz.

dead-beat [ˌdedˈbiːt] *a* so'zl. o'lgudek charchagan, tinkasi qurigan.

dead centre [ˌdedˈsentə] *n fiz. tex.* 1) turish nuqtasi; 2) ko'ch. ish to'xtagan, jilmay qolgan payt.

dead colour [ˌdedˈkʌlə] *n* xomaki bo'yoq berib chiqmoq.

deaden [ˈdedn] *v* 1) pasaytirmoq, yumshatmoq (*ovozni*); 2) pasaytirmoq (*kasallikni*).

dead(-)end [ˌdedˈend] **1.** *n* tupik. boshi berk ko'cha; **2.** *a* hech qayoqqa jilmay o'tkaziladigan.

deadfall [ˈdedfɔːl] *n amer.* qopqon, tuzoq.

dead ground [ˌdedˈgraʊnd] *n harb.* o'q tushmaydigan (tegmaydigan) fazo.

dead-hand [ˈdedhænd] = **mortmain.**

deadhead [ˈdedhed] *n* teatrqa bepul kiruvchi kishi.

dead letter [ˌdedˈletə] *n* o'zgartirilmagan, ammo amalda joriy etilmaydigan qonun.

dead-level [ˌdedˈlevl] *n* tekislik, tekis yer.

dead lift [ˌdedˈlɪft] *n* behuda zo'r berish (*og'ir ko'tarishda*).

deadlight [ˈdedlaɪt] *n deng.* ochilmaydigan oyna.

deadline [ˈdedlaɪn] = **dead-line.**

dead-line [ˈdedlaɪn] *n* so'nggi muddat.

dead load [ˌdedˈləʊd] *n tex.* keraksiz yuk, ortiqcha yuk.

deadlock [ˈdedlɒk] boshi berk ko'cha.

deadly [ˈdedli] **1.** *a* o'limga (halokatga) olib boradigan, halokatli; **2.** *adv* o'lar (tuzalishdan umid yo'q) darajada.

dead man's handle [ˌdedmənzˈhændl] *n* elektr poyezdlarda avtomatik ravishdagi tormoz (*haydovchi to'satdan kasal bo'lib qolsa, yoki o'lib qolsa, poyezdni to'xtatadigan tormoz*).

dead march [ˈdedmɑːtʃ] *n* motam marshi.

dead-office [ˌdedˈɔfɪs] *n* janoza, janoza marosimi.

dead-pan [ˈdedpæn] *n* xotirjam ko'rinish.

dead-point [ˌdedˈpɔɪnt] = **dead centre.**

dead reckoning [ˌdedˈrekənɪŋ] *n av.* navigatsion hisoblash (*yo'lni*).

dead set [ˌdedˈset] **1.** *n ov.* ovchi itning ovni payqab qotib turishi; **2.** *a* to'la jur'at etilgan, bir qarorga kelib bo'lingan.

dead short [ˌdedʃɔːt] *n el.* to'liq qisqa tutashuv.

dead shot [ˌdedʃɒt] *n* 1) xato ketmaydigan o'q; 2) bexato otadigan mergan.

dead-spot [ˌdedˈspɒt] *n radio.* sukunat mintaqasi (doirasi).

dead wall [ˌdedˈwɔːl] *n* teshik-tuynugi (derazasi) yo'q devor.

dead-water [ˌdedˈwɔːtə] *n* ko'lmak suv.

dead weight [ˌdedˈweɪt] *n* to'la yuk ko'tarish qobiliyati (*kemaning*).

dead-wind [ˌdedˈwɪnd] *n* qarama-qarshi tomondan esayotgan shamol.

dead-wood [ˌdedˈwʊd] *n* qurib qolgan daraxt.

deaf [def] *a* qulog'i og'ir, kar, garang.

deaf-and-dumb [ˌdefnɪˈdʌm] *n* gung, kar-soqov.

deafen [ˈdefn] *v* kar (*garang*) qilmoq.

deafening [ˈdefnɪŋ] *a* juda qattiq, quloqni kar qiladigan, quloqni qomatga keltiradigan.

deaf-mute [ˌdefˈmjʊːt] *n* gung, kar-soqov.

deafness [ˈdefnəs] *n* garanglik, qulog'i og'irlik, karlik.

deal [diːl] **1.** *n* biron miqdordagi, bir necha; **a** great ~ of ko'p; **2.** *v* (**dealt, dealt**) 1) tarqatmoq; taqsimlamoq; 2) shug'ullanmoq.

dealer [ˈdiːlə] *n* olibsotar.

dealing [ˈdiːlɪŋ] *n* 1) taqsimlash (*nimanidir kimningdir orasida*); 2) harakat, muomala, ish.

dealt [delt] *past., p.p. deal 2. dan.*

dean [di:n] *n* 1) *cherk.* bosh ruhoniy; 2) dekan; ~ **of the faculty** fakultet dekani.

deanery [ˈdi:nəri] *n* 1) dekanlik; 2) dekanat.

dear [diə] **1.** *a* sevikli, dildan sevgan, yurakdan urgan, qadrdon; ~**est** jonajon, suyuqli; 2) qimmat; **2. n** oshiq, mashuqa.

dearborn [ˈdiəbɔ:n] *n amer.* toʻrt gʻildirakli yengil arava.

dear-bought [ˈdiəbɔ:t] *a* qimmatga topiladigan, topib boʻlmaydigan; qimmatga sotib olingan.

dearly [ˈdɪəli] *adv* muloyimlik bilan, mehribonlik bilan, xushmuomalalik bilan.

dearth [dɜ:θ] *n* oziq-ovqatning yetishmasligi, ochlik.

deary [ˈdiəri] *n soʻzl.* (*murojaatda*) azizim, jonim.

death [deθ] *n* ajal, oʻlim, qazo, vafot; ~ **sentence** oʻlim jazosi; ~**less** oʻlmas, abadiy yashaydigan.

death-agonny [ˈdeθ,æɡəni] *n* oʻlim oldidagi jon talvasasi.

deathbed [ˈdeθbed] *n* oʻlim oldidagi damlar (lahzalar); oʻlim toʻshagi.

death-bell [ˈdeθbel] *n* dafn marosimi qoʻngʻirogʻi.

death-blow [ˈdeθbləu] *n* halokatli (qattiq) zarba.

death-cup [ˈdeθkʌp] *n* rangsiz qurbaqasalla (*zaharli zamburugʻ*).

death-damp [ˈdeθdæmp] *n* sovuq ter (*jon bera-yotgan odamda*).

death-feud [ˈdeθfju:d] *n* ashaddiy dushmanlik.

death-hunter [ˈdeθ,hʌntə] *n* kafanduzd (*jang maydonida oʻlgan va yarador boʻlganlarni talovchi odam*).

deathless [ˈdeθləs] *a* abadiy yashaydigan, oʻlmaydigan, boqiy.

deathly [ˈdeθli] **1.** *a* oʻldiradigan, halokatli, halokatga (oʻlimga) olib boradigan; **2. adv** oʻlar (tuzalishidan umid yoʻq) darajada.

death-rate [ˈdeθreit] *n* oʻlim soni, miqdori.

death-rattle [ˈdeθ,rætl] *n* oʻlish oldidagi xirala-shish.

death-roll [ˈdeθrɔ:l] *n* oʻlganlar roʻyxati.

death's-head [ˈdeθshed] *n* bosh suyagi (*ajal tim-soli*).

death-struggle [ˈdeθ,strʌɡl] *n* oʻlim talvasasi, jon talashish.

death-trap [ˈdeθtræp] *n* 1) xavfli (xatarli) joy; 2) halokatli (borsa-kelmas) joy.

deb [deb] (**debutante** *soʻzining qisqartmasi*) *n* soʻzl. birinchi marta chiquvchi (boshlovchi), ilk bor ishtirok etuvchi.

debacle [der ˈbɑ:kl] *fr. n* tor-mor qilish, tor-mor boʻlish.

debar [di ˈbɑ:] *v* taqiqlamoq, man qilmoq.

debark [di ˈbɑ:k] *v* 1) tushmoq, tushib qolmoq, tushib ketmoq; 2) tushirmoq, tushirib qoʻymoq.

debarcation [ˈdɪbɑ:ˈkeɪʃn] *n* yukdan boʻshatish; yukni tushirish.

debase [di ˈbeɪs] *v* 1) tushirmoq, arzonlashtirmoq (*narxni*); 2) pasaytirmoq (*narxni, sifatini*).

debasement [di ˈbeɪsmənt] *n* 1) kamsitish, xoʻrlash; 2) narxlarning pasayishi; 3) sifatning yomonlashishi.

debatable [di ˈbeɪtəbl] *a* janjalli, munozarali.

debate [di ˈbeɪt] **1.** *n* munozara, muzokara, bahs, tortishuv; **2. v** muhokama qilmoq; munozara qilmoq; bahslashmoq.

debater [di ˈbeɪtə] *n* bahs qatnashuvchisi (ishtirokchisi).

debauch [di ˈbɔ:tʃ] **1.** *n* urish-janjal, mushtlashish, toʻpolon; **2. v** axloqini buzmoq, axloqsizlikni oʻrgatmoq; yoʻldan ozdirmoq; ~**ed** axloqi buzul; ~**ery** yomon yoʻlga kirganlik, axloqi buzilganlik.

debauched [di ˈbɔ:tʃt] *a* buzuq (yomon yoʻlga kirib ketgan).

debauchee [ˌdebo:ˈtʃi:] *n* buzuq kishi, xotinboz, yomon yoʻlga kirgan kishi.

debauchery [di ˈbɔ:tʃəri] *n* araqxoʻrlik, ichkilik-bozlik.

debenture [di ˈbentʃə] *n* qarz olish-berish bilan bogʻliq boʻlgan majburiyatlar.

debilitate [di ˈbɪlɪteɪt] *n tib.* kuch-quvvatdan qoldirmoq, zaiflashmoq, bequvvat qilib qoʻymoq.

debilitation [di ˈbɪlɪˈteɪʃn] *n tib.* zaiflashib ketish, kuch-quvvatdan qolish, kuchsizlik.

debility [di ˈbɪləti] *n* kuchsizlik, zaiflik, darmonsizlik, kasalmandlik.

debit [ˈdeɪtɪ] **1. n** his. debet, kirim; **2. v** debetga yozib qoʻymoq.

debonair [ˌdeboˈneə] *n* xushfeʼl, xushmuomala, muloyim, koʻngli ochiq, quvnoq.

debouch [di ˈbautʃ] *v* daradan ochiq joyga chiqmoq (*daryo toʻgʻrisida*).

debouchment [di ˈbautʃmənt] *n* daradan chiqish (*yoʻli*).

debris [ˈdeɪbrɪ:] *n* 1) xaroba, vayrona, xarobazor; 2) asorat, qoldiq.

debt [det] *n* qarz; nasiya; **get into** ~ qarzga botmoq.

debtor [ˈdetə] *n* qarzdor; ~**s prison** qarzdorlar qamoqxonasi.

debunk [ˌdi:ˈbʌŋk] *n soʻzl.* 1) obroʻyini ketkazmoq, fosh qilmoq, sharmandasini chiqarmoq; 2) taxtdan tushirmoq.

debus [di:ˈbas] *v* 1) mashinadan tushmoq, tushib qolmoq; 2) tushirmoq; 3) avtomashinadan yukni tushirmoq.

debusing-point [di:ˈbasɪŋ ˈpɔɪnt] *n* mashinadan tushish joyi.

debut [ˈdeɪbu:] *n* birinchi marta chiqish (boshlash); **to make one's** ~ birinchi marta chiqmoq (boshlamoq).

debutant [ˈdeɪbju:tə] *n fr.* boshlovchi, birinchi marta chiquvchi, ilk bor ishtirok etuvchi.

debutante [ˈdeɪbju:tənt] *n fr.* boshlovchi (*ayol*).

deca- [ˈdekə-] *pref.* oʻn, oʻnta, oʻnov.

decachord [ˈdekəkɔ:d] *n mus.* arfa (*qadimgi greklarda: chertib chaladigan katta musiqa asbabi*).

decadal [ˈdekədəl] *a o'n yilda bir marta bo'ladigan.*

decade [ˈdekeɪd] *n 1) o'nta, o'n dona, o'n nafar;*

2) o'n yillik muddat (vaqt); o'n yillik marosim.

decadence [ˈdekədəns] *n pasayish, tushish, zaiflashish, kuchsizlanish.*

decadency [ˈdekədənsɪ] = **decadence.**

decadent [ˈdekədənt] **1. n** dekadent (*dekadentlik oqimi namoyandasi*); **2. a** 1) tushkunlikka tushgan; 2) inqirozga uchragan.

decaffeinated [ˌdiːˈkæfneɪtɪd] *a* kofein qo'shilmagan, kofeinsiz (*kofein – kofe urug'i yoki choy bargidan olinadigan alkogol*).

decagon [ˈdekəgən] *n o'n burchakli (shakl).*

decagonal [deˈkægənəl] *a o'n burchakli.*

decagram(me) [ˈdekəgræm] *n* dekagramm (*o'n gramm*).

decahedral [ˌdekəˈhiːdrəl] *a o'n yoqlik (shakl).*

decalitre [ˈdekəliːtə] *n* dekalitr (*o'n litr*).

Decalogue [ˈdekələg] *n bibl.* dinda (*diniy kitoblarda*) buyurilgan o'nta din amri.

decametre [ˈdekəmiːtə] *n* dekametr (*o'n metr*).

decamp [dɪˈkæmp] *v 1) qochib ketmoq, qochib qolmoq, qutulib qolmoq; 2) yashirinmoq; 3) lagerdan chiqmoq.*

decampment [dɪˈkæmpmənt] *n 1) lagerdan chiqish; 2) qochish, qochib ketish.*

decanal [dɪˈkeɪnəl] *a* dekanga oid, dekan.

decangular [deˈkæŋgjuːlə] *a o'n burchakli.*

decant [dɪˈkænt] *v* suzgi'ichdan o'tkazmoq, suzmoq, g'alvirdan o'tkazmoq, saralamoq.

decanter [dɪˈkæntə] *n 1) grafin; 2) boshini urish, kallisini olish.*

decaphyllous [ˌdekəˈfɪləs] *a bot.* o'n bargli (*o'simlik*).

decapitate [dɪˈkæpɪteɪt] *v 1) boshini uzmoq, kallasini olmoq, boshini tanidan judo qilmoq; 2) boshliqsiz (rahbarsiz) qoldirmoq.*

decapod [ˈdekəpɒd] *n zool.* 1) o'n oyoqli qisqichbaqa; 2) o'n oyoqli.

decarbonate [diːˈkɑːbənɪt] *v* uglerodsizlantirmoq.

decarbonize [diːˈkɑːbənəɪz] = **decarbonate.**

decasualize [diːˈkæʒjuəlaɪz] *v* qo'nimsiz ishchi kuchlarni yo'qotish.

decathlon [dɪˈkæθlɒn] *n sport.* o'nkurash (*sportning o'n turini o'z ichiga olgan musobaqa*).

decay [dɪˈkeɪ] **1. n** 1) chirish, yemirilish; parchalanish; 2) inqiroz, tanazzul; **2. v** yiringlamoq, chirimoq; ~ed chirigan.

decease [dɪˈsiːs] **1. n** o'lim, vafot; qazo, ajal; **2. v** vafot etmoq, jon bermoq.

deceased [dɪˈsiːst] *n* rahmatli, marhum.

decident [dɪˈsiːdnt] *n yur.* tinch, osoyishta.

deceit [dɪˈsiːt] *n* makr, aldash, pand berish, muttahaamlik.

deceitful [dɪˈsiːtfl] *a* 1) yolg'on, noto'g'ri; 2) kishini aldaydigan.

deceitfully [dɪˈsiːtflɪ] *adv* makkorona, xiyonatkorona, xoinona.

deceive [dɪˈsiːv] *v* aldamoq, chalg'itmoq; avramoq, tovlamoq; laqillatmoq; ~d dashgan.

deceiver [dɪˈsiːvə] *n* yolg'onchi, ko'z bo'yamachi, qallob.

decelerate [ˌdiːˈseləreɪt] *v 1) sekinlashtirmoq, sekinlatmoq; 2) tezlikni pasaytirmoq.*

deceleration [ˌdiːˈseləˈreɪʃn] *n 1) sekinlashtirish, sekinlashish, susaytirish; 2) tormoz berish, to'xtatish.*

December [dɪˈsembə] **1. n** dekabr; **2. attr.** dekabrda bo'ladigan.

Decembrist [dɪˈsembɪst] *n tar.* dekabrist.

decenary [dɪˈsenəri] = **decennary.**

decency [ˈdiːsnɪ] *n* odob, tartib, xushxulqlik.

decennary [dɪˈsenəri] *n* o'n yillik vaqt, muddat, o'n yil.

decenniad [dɪˈsenɪæd] = **decennary.**

decennial [dɪˈsenɪəl] *a* o'n yil davom etadigan.

decent [ˈdiːsnt] *a* 1) odobli, tartibli, tarbiyali; 2) vijdonli, insofli, nomusli, to'g'ri, halol.

decently [ˈdiːsntli] *adv 1) insof bilan, odob bilan; 2) yoqimli qilib, iltifot bilan.*

decentralize [diːˈsentʁəlaɪz] *v* markazlashgan tizimdan markazlashmagan tizimga o'tmoq *yoki* o'tkazmoq.

deception [dɪˈsepʃn] *n* firibgarlik, tilyog'lamachilik; aldash, firib berish.

deceptive [dɪˈseptɪv] *a* 1) yolg'on, yolg'ondan iborat bo'lgan; 2) kishini aldaydigan, chalg'itadigan, ishonib bo'lmaydigan.

deceptively [dɪˈseptɪvli] *adv* yolg'ondakam, yolg'ondan.

deci- [desɪ-] *pref.* o'ndan bir.

decibel [ˈdesɪbel] *n fiz.* detsibel.

decide [dɪˈsaɪd] *v* hal qilmoq, qaror qilmoq, botinmoq.

decided [dɪˈsaɪdɪd] *a* 1) hal bo'lgan, hal etilgan; 2) qaror qilingan.

decidedly [dɪˈsaɪdɪdli] *adv* qat'iy, qat'iyat bilan, tortinmay, ikkilanmay.

deciduous [dɪˈsɪdʒuəs] *a bot.* bargi to'kiladigan (*daraxt to'g'risida*).

decigram(me) [ˈdesɪgræm] *n* o'ndan bir gramm; gramning o'ndan biri.

decilitre [ˈdesɪliːtə] *n* o'ndan bir litr; litrning o'ndan biri.

decimal [ˈdesɪməl] **1. n** o'nli kasr; **2. a** o'nli.

decimalism [ˈdesɪməlɪzəm] *n* o'nli sistemalarni qo'llash, ishlatish.

decimalize [ˈdesɪməlaɪz] *v* o'nga bo'lmoq.

decimally [ˈdesɪməli] *adv* o'nli usulga ko'ra.

decimate [ˈdesɪmeɪt] *v* har o'n kishidan bittasini o'ldirmoq (*qatl etmoq*).

decimation [ˌdesəˈmeɪʃən] *n* har oʻn kishidan bittasini qatl etish.

decimetre [ˈdesɪˌmiːtə] *n* detsimetr, oʻndan bir metr.

decimosexto [ˌdesɪməʊˈseksɪtəʊ] *n* *poligr.* 1/16 varaqdagi kitob hajmi.

decipher [dɪˈsaɪfə] *v* topib oʻqimoq (*shartli belgilar, raqamlar bilan yozilgan xat va shu kabilarni*).

decipherable [dɪˈsaɪfərəbl] *a* (*topib*) oʻqisa boʻladigan.

decision [dɪˈsɪʒn] *n* qaror, hukm, xulosa, fikr.

decisive [dɪˈsɪsɪv] *a* hal qiluvchi.

deck [dek] *n* *deng.* paluba, paroxod (*kema*) sahni.

deck alighting [ˈdekəlɑɪtɪŋ] *n* *deng.* kema sahniga chiqish.

deck-bridge [ˈdekbrɪdʒ] *n* ustida mashinalar yuradigan koʻpriq.

deck-cabin [ˌdekˈkæbɪn] *n* kema sahnidagi (kayuta) xona.

deck-cargo [ˈdek,kɑːgəʊ] *n* kema sahnidagi yuk.

deck-chair [ˈdektʃeə] *n* yengil kreslo (*kema sahnidagi yoʻlovchilar uchun*).

-decker [-dekə] murakkab soʻzlarda: shuncha paluba borligini bildiradi.

deck-hand [ˈdekhænd] *n* dengizchi.

deck-house [ˈdekhaus] *n* *deng.* kema sahni ustiga qurilgan va kemani boshqarish postlari turadigan joy.

decking [ˈdeknɪŋ] **1.** *n* 1) bezak, zeb-ziyat; 2) bezatish; **2.** *v* kema sahnini bezatmoq.

deck landing [ˈdek,lændɪŋ] = **deck alighting.**

deckle [ˈdekl] *v* qogʻozlarning chekkalarini qirqmoq.

deckle-edged [ˌdekʃedʒd] *a* chekkalari tekis boʻlmagan (*qogʻoz toʻgʻrisida*).

deck-light [ˈdeklɑɪt] *n* *deng.* paluba.

deck-passage [ˈdek,pæsɪdʒ] *n* palubaga oʻtish (*kayutadan foydalanmasdan*).

deck start [ˈdekstɑːt] *n* *deng.* kema sahnidan uchish.

declaim [dɪˈkleɪm] *v* joʻshqinlik bilan nutq soʻzlammoq.

declamation [ˌdekləˈmeɪʃn] *n* deklamatsiya, badiiy oʻqish.

declamatory [dɪˈklæmətəri] *a* 1) notiqlikka oid; notiqlik; 2) ifodali oʻqishga oid; 3) balandparvoz, dabdabali.

declarant [dɪˈkleərənt] *n* *yur.* ariza yozuvchi kishi.

declaration [ˌdekləˈreɪʃn] *n* bayonot, bayonoma.

declarative [dɪˈklærətɪv] *a* tantanali; ~ **sentence** *gram.* darak gap.

declaratory [dɪˈklærətəri] *a* tushuntirish uchun yozilgan; tushuntirib beradigan..

declare [dɪˈkleə] *v* eʻlon qilmoq, bildirmoq, aytmoq.

declared [dɪˈkleəd] *a* 1) eʻlon qilingan; 2) tan olingan.

declasse [deɪˈklæseɪ] = **declassified.**

declassified [ˌdiˈklaːstɪ] *a* *fr.* sinfsizlashgan, oʻz sinfidan (*ijtimoiy hayotdan*) tamoman uzilgan, tubanlikka tushgan.

declassify [diːˈklæsɪfaɪ] *v* sirni oshkor qilmoq, maʼlum qilmoq.

declension [dɪˈklenʃn] **1)** *gram.* turlash, turlanish; **2)** pasayish, kamayish, tushish; **3)** yomonlashish.

declensional [dɪˈklenʃnəl] *a* *gram.* turlash bilan bogʻliq boʻlgan; turlanishga oid.

declinable [dɪˈklaɪnəbl] *a* *gram.* turlanadigan, turlanuvchi.

declination [ˌdeklɪˈneɪʃn] **1)** ogʻish, chetga chiqish; **2)** magnit ogʻish burchagi; **3)** *gram.* turlash, turlanish.

declinator [ˈdeklɪnətə] *n* deklinator (*magnit ogʻish burchagini oʻlchaydigan asbob*).

declinatory [dɪˈklaɪnətəri] *a* 1) ogʻadigan; 2) rad qilingan, qabul qilmaydigan.

decline [dɪˈklaɪn] **1.** *n* 1) qisqarish; 2) arzonlashish (*narx*); **2.** *v* 1) rad qilmoq, qaytarmoq; 2) egilmoq; egmoq; yomonlashmoq (*sogʻliq haqida*); tushmoq (*xarorat*).

declining [dɪˈklaɪnɪŋ] **1.** *p. p.* **decline** **2** *dan*; **2.** *a* keksaygan, keksayib qolgan; ~ **years** keksaygan yillar.

declinometer [ˌdeklɪˈnɒmɪtə] *n* deklinometr (*magnit ogʻish burchagini oʻlchaydigan asbob*).

declivitous [dɪˈklɪvətəs] *a* ancha tik tushib boradigan (*qiyalik toʻgʻrisida*).

declivity [dɪˈklɪvətɪ] *n* qiyalik, nishablik.

declivous [dɪˈklaɪvəs] *a* qiya, nishab.

declutch [diːˈklʌtʃ] *v* *tex.* ajratib (uzib) qoʻymoq.

decoct [dɪˈkɒkt] *v* qaynatmoq, qaynatib pishirmoq.

decoction [dɪˈkɒkʃn] *n* 1) qaynatish, tayyorlash; 2) (*shifobaxsh*) qaynatma (*qaynatib pishirilgan narsaning mazasi chiqqan suvi*).

decode [ˈdiːkəʊd] *v* topib oʻqimoq (*shartli belgilar, raqamlar bilan yozilgan xat va shu kabilarni*).

decollate [dɪˈkɒleɪt] *v* *esk.* kallasini olmoq, boshini tanidan judo qilmoq.

decollation [ˌdiːkəˈleɪʃn] *n* kallasini olish, boshini tanasidan judo qilish.

decollete [deɪˈkɒlteɪ] *a* *fr.* dekolte yoqali (*dekolte* – ayollar koʻylagining chuqur oʻyilgan yoqasi va shunday yoqali koʻylak).

decolo(u)r [diːˈkələ] = **decolo(u)rize.**

decolo(u)rant [diːˈkələrənt] *n* rangini (yoʻqotadigan) oʻchiradigan modda.

decolo(u)ration [diːˈkələreɪʃn] *n* rangini (yoʻqotish) oʻchirish.

decolo(u)rize [diːˈkələraɪz] *v* rangini yoʻqotmoq, oʻchirmoq.

decompensation [diːˈkɒmpenˈseɪʃn] *n* *tib.* kompensatsiyaning buzilishi (*kompensatsiya – orga-*

nizmda buzilgan muvozanatning birmuncha tiklanishi, nuqson o'rning to'lishi).

decomplex [di:kəm'pleks] *a* 1) ikki baravar murakkab; 2) murakkab qismlardan iborat bo'lgan.

decompose [di:kəm'pəuz] *v* tarkibiy qismlarga ajralmoq, parchalanmoq.

decomposite [di:kəmpəzɪt] **1.** *a* murakkab qismlardan iborat bo'lgan; **2.** *n* tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan qandaydir narsa (*modda, so'z va b.*).

decomposition [di:kəmpə'zɪʃn] *n* 1) *fiz. kim.* ajralish, ajratish, parchalanish; 2) buzilish, chirish.

decompound [di:kəm'paund] *v* tarkibiy qismlardan iborat bo'lmoq.

decompress [di:kəm'pres] *v* bosimni pasaytirmoq.

deconsecrate [di:kənsəkret] *v* davlat mulkiga aylantirmoq (*cherkov yeri yoki mulkini*).

decontaminate [di:kən'tæmneɪt] *v* zararsizlantirmoq, zararli mikroblardan tozalamoq.

decontrol [di:kən'trəul] *n* davlat nazoratidan (chiqarish) ozod qilish.

decor [deɪkɔ:] *n fr.* 1) bezash, bezatish (*ko'rgazma va b.*); 2) *teatr.* dekoratsiya (*sahna manzarasini hosil qiluvchi anjom va bezaklar*).

decora [di'kɔ:rə] *pl decorum dan.*

decorate [dekə'reɪt] *v* 1) bezatmoq; 2) orden bilan taqdirlamoq.

decorated [dekə'reɪtɪd] **1.** *p. p. decorate dan;* **2.** *a* 1) bezalgan, bezatilgan; 2) taqdirlangan.

decoration [dekə'reɪʃn] *n* 1) bezak; 2) mukofot.

decorative [dekə'reɪtɪv] *a* 1) savlat bag'ishlaydigan, fayzli; 2) bezash (*zeb-ziyinat berish uchun xizmat qiladigan*).

decorator [dekə'reɪtə] *n* 1) bo'yoqchi; 2) mebel qoplovchi usta.

decorous [dekə'rəs] *a* odobli, axloqli, axloq qoidalari doirasidagi.

decorticate [di:kɔ:tikeɪt] *v* yulib olmoq, uzib olmoq, shilmoq, shilib olmoq (*po'st, po'stloq va b.*).

decorum [di'kɔ:rəm] *n* odob, tartib, xushxulqlik.

decoy **1.** *n* [di:kɔɪ] qarmoq, tuzoq, qopqon; **2.** *a* [di'kɔɪ] aldab chaqirmoq.

decoy-duck [di'kɔɪdæk] *n* yovvoyi o'rdaklarni tuzoqqa ilintirish uchun qo'yilgan yem (*xo'rak*).

decrease **1.** *n* [di:kri:s] ozaytirish, kichraytirish; kamayish; **2.** *v* [di:kri:s] kamaymoq, ozaymoq.

decree [di'kri:] **1.** *n* farmon, qaror, qonun, farmoyish; **2.** *v* qonun kuchiga kiritmoq.

decrement [dekrɪmənt] *n* ozaytirish, pasaytirish, kamaytirish.

decrepit [di'kreɪt] *a* 1) qartaygan, qartayib kuch-quvvatdan qolgan; 2) eskirib ishdan chiqqan.

decrepitate [di'kreɪteɪt] *v tex.* 1) qizdirib cho'g' qilmoq; 2) o'tga tutib qizdirmoq.

decrepitation [di'kreɪ'teɪʃn] *n tex.* 1) qizdirib cho'g' qilish; 2) o'tga tutib qizdirish.

decrepitude [di'kreɪtju:d] *n* 1) qartayganlik, munkillaganlik; 2) eskirganlik, eskilik.

decrement [di'kresnt] *a* o'ldiradigan.

decretal [di'kri:tɪl] *n cherk.* dekret (*qonun kuchiga ega bo'lgan qaror*).

decretive [di'kri:tɪv] *a* dekret bilan belgilangan, dekret bilan ishlab chiqarilgan.

decretory [di'kri:təri] = **decretive**.

decrial [di'kri:əl] *n* ochiqdan-ochiq tanbeh berish, yomonlash, ayblash.

decry [di'kri:] *v* tanbeh bermoq, haqorat qilmoq.

decuman [dekjʊmən] *a* kuchli, baquvvat, qudratli (*to'lqin haqida*).

deduce [dekjupl] *a* o'n hissa ko'paygan.

decussate [di'kəsɪt] *a* to'g'ri burchakning ostidan ko'ndalang kesib o'tadigan.

dedicate [dedikeɪt] *v* 1) bag'ishlamoq, atamoq; 2) mo'ljallamoq, atab (belgilab, mo'ljallab) qo'ymoq.

dedicated [dedikeɪtɪd] **1.** *p. p. dedicate dan.* **2.** *a* sodiq, sadoqatli; fidokorlik.

dedication [dedɪ'keɪʃn] *n* 1) sadoqat, sodiqlik; fidokorlik; 2) bag'ishlash, bag'ishlov.

dedicator [dedikeɪtə] *n* sadoqatli kishi.

dedicatory [dedɪkətəri] *a* bag'ishlovchi, bag'ishlaydigan.

deduce [di'dju:s] *v* xulosa chiqazmoq, iziga tushmoq.

deduct [di'dʌkt] *v* ayirmoq, olib tashlamoq, ayiruv amalini bajarmoq.

deduction [di'dʌkʃn] *n* 1) *mat.* ayirish, chiqarib tashlash; 2) faraz, xulosa.

deductive [di'dʌktɪv] *a* mantiq. deduksiyaga asoslangan (*deduksiya – umumiy holatda xususiy xulosalar chiqarish*).

dee [di:] *n* 1) D harfining nomi; 2) *tex.* D-shaklidagi halqa.

deed [di:d] *n* 1) jasorat, mardlik; 2) ish, harakat, ishlash, muomala; ~s xatti-harakat.

deed-poll [di:dpɔl] *n yur.* bir tomonlama majburiyat.

deem [di:m] *v* faraz qilmoq, hisoblamoq, ... deb hisoblamoq.

deep [di:p] **1.** *a* chuqur, teran; ~ **place** o'yiqlik, o'yilgan joy; **2.** *n* chuqur joy.

deepen [di:pən] *v* 1) chuqurlashmoq; 2) kuchayib ketmoq.

deep-felt [di:p'felt] *a* chuqur his etilgan.

deepfreeze [di:p'fri:z] **1.** *n* muzlatuvchi qurilma; muzxona; **2.** *v* muzlatmoq (*mahsulotlarni*).

deep-frozen [di:p'frəuzn] *a* yangi muzlatilgan, endigina muzlatilgan.

deep-laid [di:p'leɪd] *a* 1) mayda-chuydasigacha ishlab chiqilgan maxfiy (reja); 2) chuqur joylashgan.

deeply [di:pli] *adv* chuqur, teran, chuqur qilib.

- deep mining** [ˈdi:p,mamɪŋ] *n* yer ostidan koʻmir qazish.
- deep-mouthed** [ˌdi:pˈmaʊðd] *a* 1) qattiq, oʻtkir, jarangli, gulduros; 2) qattiq akillaydigan.
- deepness** [ˈdi:pˌnəs] *n* chuqurlik, teranlik.
- deep-piled** [ˌdi:pˈpaɪld] *a* uzun tukli, uzun patli.
- deep-rooted** [ˌdi:pˈru:tɪd] *a* chuqur ildizli, ildizi chuqur.
- deep-sea** [ˌdi:pˈsi:] *a* 1) dengiz qaʼrida yashaydigan; 2) chuqur (*suv havzalari haqida*).
- deep-seated** [ˌdi:pˈsi:tɪd] *a* chuqur oʻrnashgan, tomir (ildiz) otgan.
- deer** [dɪə] *n* bugʻu, kiyik; **red** ~ asl bugʻu.
- deer-forest** [ˈdɪəˌfɔːrɪst] *n* bugʻular qoʻriqxonasi.
- deer-hound** [ˈdɪəhaʊnd] *n* Shotlandiya tozi iti.
- deer-lick** [ˈdɪəˌlɪk] *n* bugʻular tuz yalaydigan tuz-tuproqlardan iborat boʻlgan yer maydoni.
- deer-neck** [ˈdɪənɛk] *n* ingichka boʻyin (*otlarda*).
- deer-park** [ˈdɪəpɑːk] = **deer-forest**.
- deerskin** [ˈdɪəskɪn] *n* bugʻu terisi.
- deerstalker** [ˈdɪəˌstɔːkə] *n* bugʻularni ovlaydigan ovchi.
- deerstalking** [ˈdɪəˌstɔːkɪŋ] *n* bugʻularni ovlash.
- deface** [dɪˈfeɪs] *v* 1) buzmoq, buzib qoʻymoq, ishdan chiqarmoq, notoʻgʻri talqin qilmoq; 2) obroʻ-eʼtiborini toʻkmoq.
- defacement** [dɪˈfeɪsmənt] *n* buzilish, aynish, ishdan chiqish.
- de facto** [deɪˈfæktəʊ] *lot. adv* aslida, haqiqatan.
- defalcate** [ˈdi:fælkeɪt] *v* 1) begonalarning pulini oʻziniki qilib olmoq; 2) ishonchni yoʻqotmoq.
- defamation** [ˌdefəˈmeɪʃn] *n* tuhmat, boʻhton; gʻiybat; yolgʻon-yashiq, uydirma.
- defamatory** [dɪˈfæmətəri] *a* tuhmat qilib aytilgan, tuhmatdan (boʻhtondan) iborat boʻlgan, boʻhton.
- defame** [dɪˈfeɪm] *v* tuhmat qilmoq, boʻhton qilmoq, gʻiybat qilmoq.
- defatted** [diːˈfætd] *a* yogʻsizlantirilgan, yogʻi olingan.
- default** [dɪˈfɔːlt] **1.** *n* 1) burchni bajarmaslik (*asosan, pullik*); 2) (*pala-partishlik natijasida qilingan*) yanglish ish; yaxshi qaramaslik; eʼtiborsizlik; **2.** *v* toʻlov toʻlashni toʻxtatmoq.
- defaulter** [dɪˈfɔːltə] *n* 1) oʻz majburiyatini bajarmaydigan kishi; 2) kamomad qilgan kishi; 3) obroʻ-eʼtiborini yoʻqotgan shaxs; 4) singan savdogar.
- defeasance** [dɪˈfiːzns] *n* 1) bekor qilish; kuchdan qoldirish; 2) *yur.* bekor qilish shartlari.
- defeasible** [dɪˈfiːzəbl] *a* bekor qilinish.
- euphony** [ˈju:fəʊni] *n* xushovozlik, xushohanglik, ohangdorlik, yoqimlilik.
- euphoria** [juːˈfɔːrɪə] *n* tib. eyforiya (*oʻzidan oʻzi xursand boʻlaverishlik*); koʻtarinki kayfiyat.
- eurodollar** [ˈjuərəʊˌdɒlə] *n* Yevropa dollari.
- European** [ˌjuərəˈpiːən] **1.** *a* 1) Yevropa, Yevropaga oid; 2) yevropacha; **2.** *n* yevropalik.
- euthanasia** [ˌju:θəˈneɪzɪə] *n* 1) ogʻriqsiz, ogʻritmaydigan, beozor; 2) tib. evtanaziya.
- evacuate** [ɪˈvækjuet] *v* koʻchirmoq (*aholini*); koʻchirib ketmoq.
- evacuation** [ɪˈvækjuˈeɪʃn] *n* 1) xavfli joydan koʻchish; 2) *tex.* havoni haydash (*vakuum hosil qilish*).
- evacuee** [ɪˈvækjuˈiː] *n* evakuatsiya qilingan, koʻchirilgan, koʻchib kelgan, koʻchirib keltirilgan.
- evade** [ɪˈved] *v* qochmoq, oʻzini chetga olmoq; chap bermoq.
- evaluate** [ɪˈvæljueɪt] *v* 1) baholamoq, narx qoʻymoq; 2) hisoblamoq.
- evaluation** [ɪˈvæljueɪʃn] *n* baholash, hisoblash, oʻrganib chiqish.
- evanescent** [evəˈnesnt] *a* 1) qoʻnmay uchib oʻtuvchi, oʻtkinchi; 2) bir lahzali, bir onli.
- evangelical** [iːvænˈdʒelɪkəl] *a* injilga oid; injil (*xristianlarning diniy kitobi*).
- evaporate** [ɪˈvæpəreɪt] *v* 1) bugʻlamoq, bugʻlab tozalamoq; 2) bugʻga aylanmoq.
- evaporation** [ɪˈvæpəˈreɪʃn] *n* bugʻlantirmoq, bugʻga aylantirmoq.
- evaporative** [ɪˈvæpəreɪtɪv] *a* bugʻ hosil qiladigan.
- evaporator** [ɪˈvæpəreɪtə] *n* *tex.* bugʻlatgich.
- evasion** [ɪˈveɪʒn] *n* ogʻish, chetga chiqish; bosh tortish.
- evasive** [ɪˈveɪsɪv] *a* gapni chalgʻitadigan, toʻgʻri javobdan qochadigan, noaniq, mujmal.
- Ev** [iːv] *n* 1) Moma Havo Odam atoning jufti; 2) ayol; **daughters of** ~ ayollar.
- eve** [iːv] *n* arafa; **on the ~ of ...** ...ning arafasida.
- even** [iːvən] **1.** *a* 1) toʻgʻri, tekis; ~ **development** tekis rivojlanish; 2) bir xil; 3) bir xil darajada; 4) toʻgʻri soʻz, sofdil; **2.** *v* tenglashtirmoq, toʻgʻrilamoq; **3.** *adv* hatto, hattoki.
- evening** [ˈiːvniŋ] *n* 1) kechqurun, oqshom; **on Monday** ~ dushanba oqshomida; 2) kunning ikkinchi yarmi; **good** ~ kechki salom.
- event** [ɪˈvent] *n* 1) voqea, hodisa; **international** ~ xalqaro voqea; 2) *sport.* musobaqa; **jumping** ~ sakrash musobaqasi; 3) natija.
- eventful** [ɪˈventfl] *a* voqealarga toʻla, voqealarga boy.
- eventide** [ɪˈvntaɪd] *n* tong yorishgan yoki qosh qoraygan payt.
- eventual** [ɪˈventʃuəl] *a* 1) boʻlishi mumkin boʻlgan, amalga oshirsa boʻladigan; roʻyobga chiqadigan; 2) eng soʻnggi, oxirgi, yakuniy.
- eventually** [ɪˈventʃuəlɪ] *adv* axir, vaqti kelib.
- ever** [ˈevə] *adv* 1) qachondir; **have you ~ been in the USA?** Siz biror marta AQSHda boʻlganmisiz? 2) har doim, abadiy; **Zulfiya will ~ be a great poet** Zulfiya har doim buyuk shoira boʻlib qoladi; 3) ~ so juda (*nisbatan*) **this road is ~ so much shorter** bu yoʻl anchagina qisqaroq; **for ~ and ~** abadul-abad; **for ~ and a day** har doim.
- evergreen** [ˈevəɡriːn] *a* hamisha yashil, doim koʻm-koʻk.
- everlasting** [ˌevəˈlɑːstɪŋ] **1.** *a* abadiy; **2.** *n* abadiylik.
- evermore** [ˌevəˈmɔː] *adv* umrbod, mangu.
- every** [ˈevri] *a* har bir, har qanday ~ **word** har bir soʻz; ~ **year** har yili; ~ **one** har kim; ~ **time** har vaqt.
- everybody** [ˈevrɪbɒdi] *pron.* 1) har bir kishi; 2) hamma.
- everyday** [ˈevrɪdeɪ] *a* har kungi, kundalik, odatiy.
- everyone** [ˈevrɪwʌn] = **everybody**.
- everyplace** [ˈevrɪpleɪs] *adv* har (hamma) yerda, hamma joyda.
- everything** [ˈevrɪθɪŋ] *prep. indef.* hamma narsa, har narsa.
- every way** [ˈevrɪweɪ] *adv* har sohada; turlicha.
- everywhere** [ˈevrɪweə] *adv* har joyda, hamma yoqda.
- evict** [ɪˈvɪkt] *v* majburan koʻchirmoq, koʻchishga majbur qilmoq.
- eviction** [ɪˈvɪkʃn] *n* 1) koʻchirish, surgun, yangi rayonlarga koʻchirish; 2) mahrum boʻlish; 3) isbot.
- evidence** [ˈeɪdɪəns] **1.** *n* 1) dalil, asos; **historical** ~ tarixiy asos; 2) dalil, ashyo **oral and written** ~ ogʻzaki va yozma dalillar; **2.** *v* 1) guvoh boʻlmoq; 2) tasdiqlamoq; 3) koʻrsatma bermoq.
- evident** [ˈeɪdɪənt] *a* aniq, oydin, ravshan, ochiq-oydin koʻrinib turgan, ayon, oshkora.
- evidential** [ˌeɪvɪˈdɒnʃl] *a* asosli, dalil boʻla oladigan, ishonchli.
- evidentiary** [ˌeɪvɪˈdenʃəri] = **evidential**.
- evidently** [ˈeɪdɪntli] *adv* aniq, ravshan, shubhasiz.
- evil** [ˈiːvl] *a* 1) yomon, yaramas, halokatli; 2) yomonlik, yovuzlik.

evil-doer [ˈi:vɪ,du:ə] *n* jinoyatchi, xiyonatchi; yomonlik qiluvchi; yovuz odam.

evil-minded [ˌi:vɪ məmɪd] *a* yovuz niyatli, niyati buzq, jahli yomon, battol, badjahl.

evince [rˈvɪns] *v* koʻrsatmoq, namoyon qilmoq.

evincible [rˈvɪnsɪbl] *a* isbotlanishi mumkin boʻlgan, isbot qilib boʻladigan.

eviscerate [rˈvɪsəreɪt] *v* ichak-chovogʻini olib tashlamoq, ichak-chovogʻdan tozalamoq.

evocation [ˌevəˈkeɪʃn] *n* tex. bugʻlatgich.

evocative [rˈvəkətɪv] *a* esga soladigan.

evoked [rˈvəʊk] *v* chaqirmoq, taklif qilmoq.

evolution [ˌi:vəˈlu:ʃn] *n* 1) rivojlanish, avj olish; taraqqiyot; 2) evolutsiya.

evolutional [ˌi:vəˈlu:ʃnəl] *a* evolutsiyaga (tarixiy rivojlanishga doir) oid.

evolutionary [ˌi:vəˈlu:ʃnəri] = **evolutional**.

evolutionism [ˌi:vəˈlu:ʃnɪzəm] *n* evolutsiya nazariyasi (evolutsiya – tabiat va jamiyatdagi uzluksiz oʻzgarish, rivojlanish jarayoni).

evolutionist [ˌi:vəˈlu:ʃnɪst] *n* evolutsionist (evolutsionizm tarafdori).

evolve [rˈvɒlv] *v* rivojlantirmoq, taraqqiy ettirmoq.

evolvent [rˈvɒlvənt] *n* mat. razvyortka, yoyilgan holat (geometrik shaklning tekislikda yoyilgan holati).

evulsion [rˈvʌlʃn] *n* ildizi bilan yulib olish.

ewe [ju:] *n* sovliq qoʻy, qoʻy.

ewer [ˈju:ə] *n* koʻza, kuvacha.

ex- [eks-] *pref.* eks, sobiq, oʻtgan; **exchampion** sobiq chempion.

exacerbate [ɪgˈzæsəːbeɪt] *v* 1) oʻtkirlashtirmoq, kuchaytirmoq; 2) *tib.* kasalning kuchayishi.

exacerbation [ɪgˈzæsəːbeɪʃn] *n* tortishuvning (janjalning) kuchayishi, tortishuvni (janjalni) kuchaytirish; (*kasalning*) kuchayishi.

exact [ɪgˈzækt] **1.** *a* 1) talabchan; 2) aniq, puxta; ~ **meaning** aniq maʼni (fikir); **2.** *v* talab qilmoq, undirmoq.

exacting [ɪgˈzæktɪŋ] *a* talabchan, qattiqqoʻl.

exaction [ɪgˈzækʃn] *n* 1) qoʻyarda-qoʻymay talab qilish, xiralik bilan soʻrash, undirish; 2) *yur.* sudga chaqiruv.

exactitude [ɪgˈzæktɪtju:d] *n* aniqlik, toʻgʻrilik.

exactly [ɪgˈzæktɪlɪ] *adv* aniq, toʻgʻri; **I dont know** ~ **what happened** aniq nima boʻlganini bilmayman.

exactness [ɪgˈzæktənəs] *n* aniqlik, toʻgʻrilik.

exactor [ɪgˈzæktə] *n* qoʻrqitib (*yoki doʻq-poʻpisa va boshqa yoʻllar bilan*) undiruvchi, oluvchi, tovlamachi, taʼmagir, yulgʻich.

exaggerate [ɪgˈzædʒəreɪt] *v* 1) orttirib yubormoq, boʻrttirib koʻrsatmoq; **to ~ difficulties** qiyinchiliklarni boʻrttirmoq; 2) kengaytirmoq **to ~ in scale** masshtabni kengaytirmoq.

exaggerated [ɪgˈzædʒəreɪtɪd] **1.** *p. p.* **exaggerate dan;** **2.** *a* qiyinchiliklarni boʻrttirib yuborish.

exaggeratedly [ɪgˈzædʒəreɪtlɪ] *adv* oshirib koʻrsatilgan; aytib oʻtilgan.

exaggeration [ɪgˈzædʒəˈreɪʃn] *n* 1) mubolagʻa, lof; 2) boʻrttirib koʻrsatish, boʻrttirish.

exaggerative [ɪgˈzædʒəreɪtɪv] *a* oshirib yuboriladigan; cheki yoʻq cheksiz, haddan tashqari.

exalt [ɪgˈzɔ:lɪt] *v* ulugʻlamoq, shuhratini oshirmoq, koʻklarga koʻtarmoq.

exaltation [ˌegzɔ:lˈteɪʃn] *n* 1) ulugʻlash; 2) katta shavq (zavq), xursandlik.

exalted [ɪgˈzɔ:lɪtɪd] **1.** *p. p.* **exalt dan;** **2.** *a* gʻoyat zavqli, zavqqa toʻlgan, quvonchli, oʻzida yoʻq xursand.

exam [ɪgˈzæm] *n* soʻzl. imtihon.

examination [ɪgˈzæmɪˈneɪʃn] *n* 1) tekshirish, koʻrik; ~ **of equipment** texnik koʻrik; 2) *yur.* qidiruv, soʻroq; 3) imtihon; **to take an ~** imtihon topshirmoq.

examinational [ɪgˈzæmɪˈneɪʃnəl] *a* imtihonga (sinovga) oid.

examination-paper [ɪgˈzæmɪˈneɪʃnˌpeɪpə] *n* imtihon varaqasi.

examine [ɪgˈzæmɪn] *v* 1) tadqiq qilmoq, tanishmoq; 2) tekshirmoq; **to ~ condition** holatni tekshirmoq; imtihon olmoq.

examiner [ɪgˈzæmɪnə] *n* imtihon oluvchi.

example [ɪgˈzɑ:mpl] *n* 1) misol; 2) namuna; **for ~** masalan; **to give an ~** misol keltirmoq.

exanimate [ɪgˈzænɪmət] *a* oʻlik, jonsiz, tiriklik nishonasi yoʻq; soʻlgan.

exarch [ˈeksɑ:k] *n* *cherk.* ekzarx (*pravoslav cherkovi tashkilotida: mustaqil cherkov boshligʻi*).

exasperate [ɪgˈzɑ:spəreɪt] *v* gʻazablantirmoq, jahlini chiqarmoq; gʻashiga tegmoq.

exasperating [ɪgˈzæspəreɪtɪŋ] *a* jahlini chiqaradigan; gʻashiga tegadigan.

exasperation [ɪgˈzɑ:spəreɪtʃn] *n* 1) gʻazablanish, achchiqlanish, jahli qichish; 2) *tib.* kasalning oʻqtin-oʻqtin tutib qolishi.

excavate [ˈekskeɪveɪt] *v* qazimoq, kovlamoq, oʻymoq.

excavation [ˌekskeɪˈveɪʃn] *n* kovlash, qazish, oʻyish.

excavator [ˈekskeɪvətə] *n* 1) ekskavator; 2) yer kovlovchi (qazuvchi).

exceed [ɪkˈsi:d] *v* ortiq boʻlmoq, oʻtib ketmoq, ustun chiqmoq; oshirmoq, oshib ketmoq.

exceeding [ɪkˈsi:dɪŋ] **1.** *pres. p.* **exceed dan;** **2.** *a* beoʻlchov, behad, cheksiz.

exceedingly [ɪkˈsi:dɪŋlɪ] *adv* juda, gʻoyatda, nihoyatda; favqulodda.

excel [ɪkˈsel] *v* 1) ortiq (afzal) boʻlmoq, oshib ketmoq, ustun chiqmoq; 2) biror xususiyati bilan boshqalardan farq qilmoq.

excellence [ˈeksələns] *n* ustunlik, afzallik, ortqlik.

Excellency [ˈeksələnsɪ] *n* zoti oliy, janobi oliy.

excellent [ˈeksələnt] *a* aʼlo, oliy.

except [ɪkˈsept] **1.** *v* inkor (rad) etmoq, chiqarib tashlamoq; **2.** *prep.* ...dan boshqa, tashqari.

- excepting** [ɪkˈseptɪŋ] **1.** *pres. p. except* **1.** *dan;* **2.** *prep. dan tashqari.*
- exception** [ɪkˈsepʃn] *n* istisno, mustasno.
- exceptionable** [ɪkˈsepʃnəbl] *a* benuqson (sof, pok) deb boʻlmaydigan, kamchiliklardan xoli emas.
- exceptional** [ɪkˈsepʃnəl] *a* 1) maxsus, alohida; 2) gʻayrioddiy; oʻzgacha.
- exceptionally** [ɪkˈsepʃnəli] *adv* favqulodda, juda, gʻoyat, nihoyatda, haddan tashqari.
- exceptive** [ɪkˈseptɪv] *a* tirnoq ostidan kir izlaydigan, injiq.
- excerpt** [ˈɛksə:pt] *n* koʻchirma, parcha, boʻlak.
- excerpt** [ɛkˈsɛ:pʃn] *n* sitata (*tekst parchasi*).
- excess** [ɪkˈses] *n* 1) moʻllik, ortiqchalik; 2) keragidan ortiq narsa, ortiq, ortiqcha.
- excessive** [ɪkˈsesɪv] *a* haddan tashqari, ortiq darajadagi, oʻta.
- exchange** [ɪksˈtʃeɪndʒ] **1.** *n* almashish, ayirboshlash; (*pulni*) maydalash; **2.** *v* almashmoq, (*pulni*) maydalamoq.
- exchangeable** [ɪksˈtʃeɪndʒəbl] *a* almashtirsa boʻladigan.
- exchequer** [ɪksˈtʃekə] *n* davlatga qarashli mulluk, pul, mablagʻ, xazina, gʻazna.
- excisable** [ɛkˈsaɪzəbl] *a* aksiz soligʻi soladigan.
- excise** [ɛkˈsaɪz] **1.** *v* kesib olmoq, kesib tashlamoq; **2.** *n* aksiz (*keng isteʼmol mollariga solinadigan qoʻshimcha soli*q).
- excise** [ɛkˈsaɪzmən] *n* aksiz amaldori.
- excision** [ɛkˈsɪʒən] *n* 1) tishni olish (*sugʻurib olib tashlash*); 2) qirqish.
- excitability** [ɪkˌsaɪtəˈbɪləti] *n* tez taʼsirlanish, hayajonga kelish, taʼsirchanlik.
- excitable** [ɪkˈsaɪtəbl] *a* tez (salga) hayajonlandigan; taʼsirlanadigan.
- excitant** [ˈɛksɪtənt] *a* hayajonga keltiruvchi, toʻlqinlantiruvchi.
- excitation** [ɛksɪˈteɪʃn] *n* qiziqish tugʻdirish; aktivlashtirish.
- excitative** [ɛkˈsaɪtətɪv] *a* hayajonga keltiruvchi, toʻlqinlantiruvchi; jonlantiruvchi, kishini hayratga soluvchi.
- excitatory** [ɛkˈsaɪtətəri] = **excitative**.
- excite** [ɪkˈsaɪt] *v* 1) qoʻzgʻatmoq, undamoq; 2) taʼsir qilmoq, hayajonlanmoq, hayajonlantirmoq.
- excited** [ɪkˈsaɪtɪd] *a* 1) xursand, xursand boʻlgan; 2) hayajonlangan, toʻlqinlangan.
- excitedly** [ɪkˈsaɪtɪdli] *adv* hayajonlanib, toʻlqinlanib, hayajon bilan.
- excitement** [ɪkˈsaɪtmənt] *n* qiziqish tugʻdirish; taʼsirlanish, hayajonlanish.
- exciter** [ɪkˈsaɪtə] *n el.* qoʻzgʻatuvchi omil; qiziqish uygʻotuvchi, hayajonlantiruvchi omil.
- exciting** [ɪkˈsaɪtɪŋ] **1.** *pres. p. excite* *dan;* **2.** *a* hayajonga keltiruvchi, toʻlqinlantiruvchi, jonlantiruvchi.
- exclaim** [ɪksˈkleɪm] *v* xitob qilmoq, undamoq, chaqirmoq, hayqirmoq, naʼra tortmoq.
- exclamation** [ˌɛkskləˈmeɪʃn] *n* xitob, nido, undov, haqiqiy.
- exclamatory** [ɛkˈsklæmətəri] *a* undovni bildiruvchi (ifodalovchi), xitobli, undalma; ~ **sentence** undov gap.
- exclude** [ɪkˈsklu:d] *v* 1) chiqarmoq; 2) haydamoq.
- excluding** [ɪkˈsklu:dɪŋ] *prep.* -dan tashqari, -dan boshqa.
- exclusion** [ɪkˈsklu:ʒən] *n* 1) istisno, mustasno, tashqari; 2) chiqarish, haydash.
- exclusive** [ɪkˈsklu:sɪv] *a* maxsus, alohida, ayrim, boshqalardan farqli, oʻziga xos.
- exclusively** [ɪkˈsklu:sɪvli] *adv* yolgʻiz, faqat, nuqul.
- excogitate** [ɛksˈkɔdʒɪteɪt] *v* oʻylab chiqarmoq, iltiro qilmoq.
- excogitation** [ɛksˌkɔdʒɪˈteɪʃn] *n* oʻylab topish, oʻylab chiqarish, oʻzidan toʻqib aytilish.
- excommunicate** [ˌɛkskəˈmjʊ:nɪkeɪt] **1.** *v* cherkovdan ajratmoq (chiqarmoq); **2.** *a* cherkovdan ajratilgan, chiqarilgan, haydalgan.
- excommunication** [ˌɛkskəmjʊ:nɪˈkeɪʃn] *n* cherkovdan chiqarish (ajratish, haydash).
- excoriate** [ɛkˈskɔ:ri:ɪt] *v* terisini shilmoq (shilib, ajratib olmoq).
- excoriation** [ɛkˌskɔ:riˈeɪʃn] *n* terisini shilish (shilib, ajratib olish).
- excoriate** [ɛkˈskɔ:ri:teɪt] *v* poʻstlogʻini shilib olmoq (ajratmoq).
- excrement** [ˈɛkskrɪmənt] *n* bavl, chiqarindi (*najas, siydik*).
- excrecence** [ɪksˈkresns] *n* 1) oʻsib (koʻpayib) ketish; 2) oʻsimta, qatqaloq.
- excrecent** [ɪkˈskresnt] *a* ortiq, oshiq, ortiqcha, oshiqcha.
- excrete** [ɪkˈskri:t] *v* ajratmoq, ajratib olmoq.
- excretion** [ɪkˈskri:ʃn] *n* fiziol. ajratish, ajratib olish.
- excretive** [ɪkˈskri:tɪv] *a* 1) organizmdan ajralib chiqadigan; 2) ajratib chiqishga yordam beradigan.
- excretory** [ɪkˈskri:təri] *a* tashqariga chiqadigan.
- excruciate** [ɪkˈskru:ʃɪt] *v* azob (ozor) bermoq.
- excruciating** [ɪkˈskru:ʃɪtɪŋ] **1.** *pres. p. excruciate* *dan;* **2.** *a* azob beradigan, qiynaydigan.
- excruciation** [ɪkˌskru:ʃɪˈeɪʃn] *n* 1) azoblanish, qiynalish; 2) azob berish, qiynash.
- exculpate** [ˈɛkskʌlpeɪt] *v* *yur.* oqlamoq, toʻgʻri deb topmoq.
- exculpation** [ˌɛkskʌlˈpeɪʃn] *n* oqlash haqidagi hukm, oqlash, toʻgʻri deb topish.
- exculpatory** [ɛkˈskʌlpətəri] *a* oqlaydigan, aybsizligini koʻrsatadigan, isbotlaydigan.
- excursion** [ɪkˈskɜ:ʃn] *n* sayr, (*qisqa muddatli*) safar *yoki* sayohat, ekskursiya.
- excursionist** [ɪkˈskɜ:ʃnɪst] *n* ekskursant, ekskursionchi.
- excursive** [ɛkˈskɜ:sɪv] *a* tartibsiz, betartib.

excursus [ek'skə:səs] *n* (*pl* -es [-iz]) mavzudan chetga chiqish.

excusable [ik'skju:zəbl] *a* kechirsa bo'ladigan, kechirimli.

excusatory [ik'skju:zitəri] *a* kechirsa bo'ladigan, kechirimli.

excuse 1. *n* [iks'kju:s] 1) oqlash, bahona, vaj; 2) uzr, kechirim; 2. *v* [ik'skju:z] 1) kechirmoq, avf etmoq; 2) ozod qilmoq (*ishdan, vazifadan*).

execrable [ˈeksikrəbl] *a* jirkanch, xunuk.

execrate [ˈeksikreit] *v* juda yomon ko'rmoq.

execration [ˌeksɪˈkreɪʃn] *n* la'nat, nafrat.

executant [ɪgˈzekjutənt] *n* bajaruvchi, ijro etuvchi, amalga oshiruvchi.

execute [ˈeksikju:t] *v* 1) bajarimoq, amalga oshirmoq; **to ~ plan** rejani amalga oshirmoq; 2) yaratmoq; 3) qatl etmoq.

execution [ˌeksɪˈkju:ʃn] *n* bajarish, bajarilish, amalga oshirish, ijro etish.

executioner [ˌeksɪˈkju:ʃnə] *n* 1) jallod; 2) *ko'ch. jabr-zulm qiluvchi, ezuvchi, zolim.*

executive [ɪgˈzekjutiv] *a* ijroiya, ma'muriy, ijro etuvchi, bajaruvchi, amalga oshiruvchi; ~ **committee** ijroiya komiteti.

executor [ɪgˈzekjutə] *n* 1) vasiy; 2) sud ijrochisi.

exemplar [ɪgˈzemplə:] *a* namuna, nusxa.

exemplary [ɪgˈzempləri] *a* namunali, namuna bo'ladigan.

exemplification [ɪgˈzemplɪfɪˈkeɪʃn] *n* 1) misol bilan tushuntirish; 2) tasdiqlangan nusxa.

exemplify [ɪgˈzemplɪfaɪ] *v* misol bo'lmoq.

exempt [ɪgˈzempt] 1. *a* (*soliqdan, harbiy xizmatdan*) ozod qilingan, bo'shatilgan (*vazifasidan, soliq to'lashdan*); 2. *v* ozod qilmoq (*harbiy xizmat va b.*).

exemption [ɪgˈzemptʃn] *n* bo'shatish, ozod qilish (*soliq to'lashdan va b.lar*).

exequies [ˈeksɪkwɪz] *n pl* dafn qilish, ko'mish marosimi.

exercise [ˈeksəsaɪz] 1. *v* mashq qilmoq, ijro etmoq; 2. *n* mashq.

exergue [ek'sə:g] *n* (*metall va qog'oz pullarning orqasida*) yozuvlarning joyi va yozuv.

exert [ɪgˈzɔ:t] *v* zo'r bermoq, chiranmoq; ~ **oneself** harakat qilmoq.

exertion [ɪgˈzɔ:ʃn] *n* zo'r g'ayrat, diqqat-e'tibor, qizg'inlik.

exes [ˈeksɪz] *n pl* so'zl. chiqimlar, xarajatlar, xarjlar, sarflar.

exfoliate [eksˈfəʊliet] *v* shilinmoq, archilmoq, po'st tashlamoq.

exhalation [ˌekshəˈleɪʃn] *n* 1) nafas chiqarish; 2) bug'lanish, bug'ga aylanish.

exhale [eksˈheɪl] *v* 1) nafas chiqarmoq; 2) bug'lanmoq, bug'ga aylanmoq.

exhaust [ɪgˈzɔ:st] 1. *n* chiqarish, chiqish (*ishlangan gazlar haqida*); 2. *v* holdan toydirmoq; qiy-namoq.

exhausted [ɪgˈzɔ:stɪd] 1. *p. p.* **exhaust** 2 *dan*; 2. *a* ozib ketgan, oriqlagan, darmoni qurigan.

exhauster [ɪgˈzɔ:stə] *n* 1) so'ruvchi ventilator, 2) changso'rar, changyutgich (*uy va jihazlarning changini so'rib tozalaydigan apparat*).

exhaustible [ɪgˈzɔ:stəbl] *a* oriqlatib yuboradigan.

exhausting [ɪgˈzɔ:stɪŋ] 1. *pres. p.* **exhaust** 2 *dan*; 2. *n* charchatish, oriqlatish.

exhaustion [ɪgˈzɔ:stɪʃn] *n* ozib (oriqlab) ketish, ozib-to'zish, ozg'inlik.

exhaustive [ɪgˈzɔ:stɪv] *a* 1) to'la-to'kis, tugal, mukammal; 2) ozadigan, oriqlab ketadigan.

exhibit [ɪgˈzɪbɪt] 1. *n* eksponat (*ko'rgazmga qo'yilgan narsa, material*); 2. *v* ko'rgazmga qo'ymoq.

exhibition [ˌeksɪˈbɪʃn] *n* ko'rgazma, namoyish.

exhibitioner [ˌeksɪˈbɪʃnə] *n* stipendiat, stipendiya oluvchi (*kishi*).

exhibitionism [ˌeksɪˈbɪʃnɪzəm] *n* o'zini ko'z-ko'z qilishga qiziqish.

exhibitor [ɪgˈzɪbɪtə] *n* eksponent (*ko'rgazmga o'z eksponatini qo'yadigan kishi, tashkilot yoki mamlakat*).

exhilarate [ɪgˈzɪləreɪt] *v* ko'nglini ochmoq, xursand qilmoq.

exhilarated [ɪgˈzɪləreɪtɪd] 1. *p. p.* **exhilarate** *dan*; 2. *a* shod, xursand.

exhilaration [ɪgˈzɪləˈreɪʃn] *n* vaqtichog'lik, xursandlik, quvnoqlik, xushchaqchaqlik.

exhort [ɪgˈzɔ:t] *v* ishontirmoq, inontirmoq, ko'ndirmoq.

exhortation [ˌegzɔ:ˈteɪʃn] *n* 1) nasihat (o'git) qilish; pand-nasihat, o'git; 2) targ'ib (targ'ibot) qilish, tarqatish.

exhortative [ɪgˈzɔ:tətɪv] *a* o'gitga (pand-nasihatga) oid; nasihatomuz.

exhumation [ˌekshju:ˈmeɪʃn] *n* ekskumatsiya (*murdani sud-meditsina ekspertizasi uchun go'rdan kovlab olish*).

exhume [eksˈhju:m] *v* 1) murdani sud-meditsina ekspertizasi uchun go'rdan kavlab olmoq; 2) yerdan qazib olmoq.

exigence [ˈeksɪdʒəns] *n* biror narsaning juda zarurligi; biror narsaga g'oyat muhtojlik.

exigency [ˈeksɪdʒənsɪ] = **exigence**.

exigent [ˈeksɪdʒənt] *a* 1) talabchan, qattiqqo'l; 2) shoshilinch, kechiktirib bo'lmaydigan.

exigible [ˈeksɪdʒəbl] *a* talabchan, talabi zo'r; didi baland.

exiguity [ˌeksɪˈgju:ətɪ] *n* 1) ozlik, yetarli (ko'p) emaslik; 2) sayozlik; 3) arzimazlik, arzimaganlik.

exiguous [egˈzɪgjuəs] *a* kitob. oz, kam, ozgina, yetarlicha bo'lmagan.

exile [ˈeksɪl] 1. *n* quvg'in, surgun; badarg'a; 2. *v* surgun qilmoq.

exility [egˈzɪlətɪ] *n* yupqalik, nafislik, ingichkalik, noziklik, nazokat.

exist [ɪgˈzɪst] *v* mavjud bo'ldi, tirikchilik o'tkazmoq; yashamoq.

existence [ɪgˈzɪstəns] *n* mavjudlik, butun mavjudot, turmush, tirikchilik, hayot.

existent [ɪgˈzɪstənt] *a* mavjud, bor bo'lgan, bor, naqd.

exit [ˈeksɪt] *n* chiqish, chiqish yo'li.

ex-libris [ˌeksˈliːbrɪs] *n* lot. ekslibris (*kitob egasining familiyasi yozilgan, badiiy uslubda tayyorlangan yorliqcha*).

exodus [ˈeksədəs] *n* ommaviy (*ko'pchilik bo'lib*) safarga chiqish (*asosan, ko'chmanchilar haqida*).

ex officio [ˌeksəˈfɪʃiəʊ] *lat. a* vazifasi bo'yicha.

exogamy [ɪgˈsɔɡəmi] *n* ekzogomiya (*o'z qabilasidagi, urug'idagi kishiga uylanish yoki erga tegishni man qiluvchi odat*).

exonerate [ɪgˈzɔnəreɪt] *v* 1) og'ir yukni olib tashlamoq; gunohini (oqlamoq) kechirmoq; vazifasidan olib tashlamoq; 2) yengillashtirmoq.

exoneration [ɪgˈzɔnəˈreɪʃn] *n* *jur.* 1) oqlash, oqlash haqida hukm; 2) vaj, sabab, bahona.

exonerative [ɪgˈzɔnəˈreɪtɪv] *a* *jur.* oqlaydigan, aybsizligini ko'rsatadigan.

exorbitance [ɪgˈzɔːbɪtəns] *n* haddan tashqarilik, benihoya darajadagi, (o'ta) ortiqlik; cheksizlik.

exorbitancy [ɪgˈzɔːbɪtənsɪ] = **exorbitance**.

exorbitant [ɪgˈzɔːbɪtənt] *a* haddan tashqari, o'ta.

exorcism [ˈeksɔːsɪzm] *n* afsun (jodu, sehr, duo) orqali jin va ajinalarni haydab yuborish.

exorcize [ˈeksɔːsaɪz] *v* 1) avramoq, afsunlamoq, sehrlamoq; 2) duo orqali jin va ajinalarni haydamoq.

exordia [ekˈsɔːdɪə] *pl* **exordium** *dan*.

exordial [ekˈsɔːdɪəl] *a* boshlang'ich, kirish.

exordium [ekˈsɔːdɪəm] *n* (*pl -dia*) kirish, muqaddima, daromad, so'z boshi.

exoteric [ˌeksəʊˈtɛrɪk] *a* hammaning kuchi (*qurbi, imkoni*) yetadigan; hammaning imkoni doirasidagi; hammabop.

exothermal [ˌeksəʊˈθɜːməl] = **exothermic**.

exothermic [ˌeksəʊˈθɜːmɪk] *a* *fiz.* ekzotermik (*kimyoviy reaksiya jarayonida o'zidan issiqlik chiqaradigan*).

exotic [ɪgˈzɔtɪk] *a* ajoyib, qiziq, g'alati, g'ayrioddiy.

expand [ɪkˈspænd] *v* 1) kengaytirmoq; 2) ko'paytirmoq.

expansive [ɪkˈspænsɪv] *n* masofa, ko'lam (*bo'y, en va balandlik*).

expansibility [ɪkˈspænsəˈbɪləti] *n* cho'ziluvchanlik, kengayuvchanlik.

expansion [ɪkˈspænʃn] *n* kengaytirish, eskpansiya.

expansionism [ɪkˈspænʃnɪzəm] *n* bosqinchilik siyosati.

expansive [ɪkˈspænsɪv] *a* 1) keng, bepoyon; 2) o'zini tiya olmaydigan, tez qizishib ketadigan.

expansivity [ˌekspeɪnsɪvɪti] *n* o'zini tiya olmaslik, tez qizishib ketishlik.

expatriate [ekˈspɛɪʃeɪt] *v* tarqalmoq, yoyilmoq, kengayib ketmoq.

expatriate **1.** *n* [eksˈpætrɪət] 1) emigrant, muhojir; 2) o'z yurtini tark etuvchi; **2.** *v* [eksˈpætrɪət] haydamoq, surgun qilmoq (*Vatandan*).

expatriation [eksˈpætrɪˈeɪʃn] *n* emigratsiya (*chet mamlakatga ko'chib ketish*), muhojirlik.

expect [ɪkˈspekt] *v* kutmoq, umid qilmoq; **~ed you yesterday** men sizni kecha kutdim.

expectance [ɪkˈspektəns] *n* 1) kutish; poylash; 2) umid, ishonch.

expectancy [ɪkˈspektənsɪ] = **expectance**.

expectant [ɪkˈspektənt] **1.** *n* 1) da'vogar, nomzod; **2.** *a* 1) homilador, ~ **mother** ona bo'ladigan ayol; 2) ko'z tutayotgan, umid qilayotgan.

expectation [ˌekspekˈteɪʃn] *n* kutish, ko'z tutish.

expectorant [ekˈspektəreɪnt] *n* *tib.* balg'am ko'chiradigan (tashlatadigan) dori.

expectorate [ekˈspektəreɪt] *v* yo'talib tupurib tashlamoq.

expectoration [ekˌspektəˈreɪʃn] *n* yo'talib tupurib tashlash.

expedience [ɪkˈspiːdɪəns] *n* maqsadga muvofiqlik, ma'qullik, maqbullik.

expediency [ɪkˈspiːdɪənsɪ] = **expedience**.

expedient [ɪkˈspiːdɪənt] *a* maqsadga muvofiq, ma'qul, maqbul.

expedite [ˈekspədət] *v* 1) ko'maklashmoq, yordamlashmoq; tezlashtirmoq; 2) tez tugatmoq (*ish va b.larni*).

expediter [ekspɪdɪtə] *n* dispatcher (*markazlashgan boshqaruv punkti yoki sistemasining xodimi*).

expedition [ˌekspəˈdɪːʃn] *n* ekspeditsiya (*biror maqsad bilan uyushtirilgan safar*).

expeditionary [ˌekspəˈdɪʃnəri] *a* 1) ekspeditsion (*mol, tovar tarqatish ishlari bilan shug'ullandigan*); 2) ekspeditsiyaga oid.

expeditious [ˌekspəˈdɪʃəs] *a* tezlik bilan bo'ladigan; tez bo'lib o'tadigan; tez, ildam, jadal.

expel [ɪkˈspel] *v* haydamoq, haydab chiqarmoq, haydab yubormoq.

expend [ɪkˈspend] *v* sarflamoq, sarf qilmoq.

expendable [ɪkˈspendəbl] *a* sarflanadigan, xarajat qilinadigan.

expendables [ɪkˈspendəblz] *n* *pl* *harb.* sarflanadigan ta'minotdagi narsalar.

expediture [ɪkˈspendɪtʃə] *n* sarf qilish, sarflash, xarajat.

expense [ɪkˈspens] *n* 1) xarajat; **to go to ~** xarajat qilmoq; 2) chiqim.

expensive [ɪkˈspensɪv] *a* qimmat, bahosi baland; ~ **clothes** qimmat kiyimlar.

experience [ɪkˈspɛəriəns] **1.** *n* (*hayotiy*) tajriba; **to know smth. by (from)** ~ nimanidir tajribasidan bilmoq; 2) ish tajribasi; 3) mahorat; **2.** *v* sina-moq, sinab ko'rmoq.

experienced [ɪk ˈspɪərɪənst] **1. p. p. experience** 2 *dan*; **2. a** tajribali, mahoratli, mohir.

experiential [ɪk,spɪərɪˈenʃl] *a filos.* tajribaga asoslangan.

experiment **1. n** [ɪk ˈspɛrɪmənt] tajriba; **an ~ in chemistry** kimyoviy tajriba; **2. v** [ɪk ˈspɛrɪmənt] tajriba oʻtkazmoq.

experimental [ek,spɛrɪˈmentl] *a* tajribaga oid, ilmiy tajribaga asoslangan.

experimentalize [ek,spɛrɪˈmɛntəlaɪz] *v* ilmiy tajriba oʻtkazmoq, sinab koʻrmoq.

experimentally [ek,spɛrɪˈmentli] *adv* tajriba asosida.

experimentation [ek,spɛrɪməntˈteɪʃn] *n* ilmiy tajriba (*eksperiment*) oʻtkazish.

experimenter [ɪksˈpɛrɪməntə] *n* ilmiy tajriba oʻtkazuvchi; tajribachi, tajriba yoʻli bilan biror narsa yetishtiruvchi (*dehqon*).

expert [ˈɛkspə:t] *n* ekspert (*tekshirish oʻtkazadigan mutaxassis*).

expertise [ˈɛkspə:ˈti:z] *fr. n* 1) tekshirish; 2) bilim va tajriba.

expiate [ˈɛkspɪət] *v kit.* gunohini yuvmoq.

expiation [ˈɛkspɪˈeɪʃn] *n* gunohini yuvish.

expiatory [ˈɛkspɪətəri] *a* gunohni yuvadigan, gunohdan xalos qiladigan.

expiration [ˈɛkspəˈreɪʃn] *n* 1) nafas chiqarish; 2) oʻtish, tugash, tamom boʻlish (*vaqt, muddat haqida*).

expiratory [ɪk ˈspɪrətəri] *a* nafas chiqarishga oid, nafas chiqarish.

expire [ɪk ˈspɑ(r)ɪ] *v* 1) tugamoq, bitmoq, oʻtmoq, toʻlmoq (*muddat haqida*); 2) nafas chiqarmoq; 3) oʻlmoq, favot etmoq.

expiry [ɪk ˈspɑ(r)ɪ] *n* 1) yetish, tugash; 2) muddatning tugashi.

explain [ɪk ˈspleɪn] *v* tushuntirmoq, izohlamoq; tushuntirib bermoq.

explanation [ˈɛkspləˈneɪʃn] *n* 1) tushuntirish, izohlash; 2) izoh, sharh, talqin.

explanatory [ɪk ˈsplænətəri] *a* tushuntirib beradigan, izohlaydigan, tushuntirish...

expletive [ɪk ˈsplɪ:tɪv] **1. a** 1) yasama; 2) haqoratli, uyatli; **2. n** 1) yasama soʻz; 2) haqoratli soʻz, soʻkish soʻzi.

explicable [ɪk ˈsplɪkəbl] *a* sababi bor, sababli, sababini tushunib boʻladigan.

explicate [ˈɛkspɪkɪt] *v* tushuntirmoq, anglatmoq, tushuntirib bermoq.

explication [ˈɛkspɪˈkeɪʃn] *n* 1) sabab (*bahona*) qilish; 2) tushuntirish.

explicative [ek ˈsplɪkətɪv] *a* izohlaydigan; tushuntirib beradigan.

explicative [ek ˈsplɪkətəri] = **explicative**.

explicit [ɪk ˈsplɪsɪt] *a* 1) aniq, ravshan; 2) samimiy, sofdil.

explode [ɪk ˈspləʊd] *v* portlatmoq, portlamoq; **to ~ a mine** minani portlatmoq; 2) buzmoq, qoʻpormoq.

exploded [ɪk ˈspləʊdɪd] *p. p. explode dan.*

exploder [ɪk ˈspləʊdə] *n* 1) portlatuvchi moslama, portlatgich; 2) portlatgich modda.

exploit **1. v** [ˈɛksplɔɪt] birovning kuchidan (mehnatidan) foydalanmoq; **2. n** [ˈɛksplɔɪt] qahramonlik, mardlik, jasorat.

exploitation [ˈɛksploɪˈteɪʃn] *n* foydalanish, ishlatish, ishga solish.

exploiter [ɪk ˈsplɔɪtə] *n* eskpluatatsiya qiluvchi, eskpluatator.

exploration [ˈɛkspləˈreɪʃn] *n* tadqiqot, tadqiq etish, oʻrganish.

explorative [ek ˈsplɔrətɪv] = **exploratory**.

exploratory [ek ˈsplɔ:rətəri] *a* tadqiqiy, tadqiqotga oid, tekshirishga oid.

explore [ɪk ˈsplɔ:ɪ] *v* oʻrganmoq, tadqiq etmoq; **to ~ the Antarctica** Antarktikani oʻrganmoq; 2) *tib.* yarani (jarohatni) tekshirmoq.

explorer [ɪk ˈsplɔ:rə] *n* tadqiqotchi, tekshiruvchi.

explosion [ɪk ˈspləʊzɪn] *n* 1) portlash, avj olish; 2) tez oʻsish; **cultural** ~ madaniyatning gullashi.

explosive [ɪk ˈspləʊsɪv] **1. a** portlovchi, portlaydigan; **2. n** portlovchi modda.

exponent [ek ˈspəʊnənt] *n* 1) tushuntiruvchi, izohlovchi; 2) ijro etuvchi (*musiq*); 3) namuna; 4) eksponent, koʻrgazma ishtirokchisi.

exponential [ˈɛkspəˈnɛnʃl] *a mat.* namuna boʻladigan, oʻziga xos.

export **1. n** [ˈɛkspɔ:t] chet elga chiqarish (*pul, mol va b.*); **2. v** [ɪk ˈspɔ:t] chetga chiqarmoq.

exportation [ˈɛkspɔ:ˈteɪʃn] *n* olib ketish, tashib ketish; tashqariga (*chetga*) mol chiqarish.

exporter [ɪk ˈspɔ:tə] *n* eksportchi, eksport, eksport qiluvchi (*chet elga mol chiqaruvchi davlat*).

expose [ɪk ˈspəʊz] *v* 1) (*xavfga*) uchramoq, duchor boʻlmoq; 2) fosh etmoq, (*sirni*) ochmoq; 3) nusxa koʻchirmoq.

exposition [ˈɛkspəˈzɪʃn] *n* 1) tavsif, taʼrif, tasvir, bayon; 2) taʼsirlanib (taʼriflab) berish.

expositive [ɪk ˈspɔzɪtɪv] *a* 1) tushuntirib beradigan, izohlaydigan; 2) tasviriy, tavsifiy.

expositor [ɪk ˈspɔzɪtə] *n* sharhlovchi, izohlovchi, tushuntirib beruvchi.

expository [ɪk ˈspɔzɪtəri] *a* tushuntirib beradigan, izohlaydigan, tushuntirish.

expostulate [ɪk ˈspɔstjuleɪt] *v* koʻndirishga harakat qilmoq, pand-nasihat qilmoq, koʻndirmoq, unatmoq.

expostulation [ɪk,spɔstjuˈleɪʃn] *n* nasihat (oʻgit) qilish, pand, nasihat, oʻgit.

exposure [ɪks ˈpəʊzə] *n* 1) (*tahlikaga*) uchrash, fosh etish; 2) ochib tashlash.

expound [ɪk ˈspəʊnd] *v* bayon (*hikoya*) qilmoq, ifoda etmoq, aytib bermoq.

express [ɪk ˈspres] **1. a** tez, shoshilinch, tez yuradigan; **2. v** bildirmoq, ifodalamoq; **to ~ one's opinion** oʻz fikrini bayon etmoq.

expressible [ɪk ˈspresəbl] *a* ifoda etib boʻladigan.

- expression** [ɪkˈspreʃn] *n* ifoda, ibora; **to give** ~ ifoda etmoq.
- expressionism** [ɪkˈspreʃnɪzəm] *n* ekspressionizm (*Yevropada san'at va adabiyotda 20-asrning birinchi yarmida paydo bo'lgan yo'nalish. Bu yo'nalishning namoyondalari san'atkorning asosiy vazifasi insonning ichki dunyosini yoritishdan iborat, deb hisoblaydilar*).
- expressive** [ɪkˈspresɪv] *a* ifodali, jonli, ma'noli, ta'sirli, ma'nodor; ~ **voice** jonli ovoz.
- expressly** [ɪkˈspresli] *adv* 1) atayin, ataylab, jo'rttaga, qasddan; 2) aniq, ravshan.
- expressman** [ɪkˈspresmæn] *n amer.* transport idorasing vakili.
- expropriate** [ekˈsprəʊprɪət] *v* 1) musodara qilmoq, mol-mulkdan mahrum qilmoq; 2) egasidan tortib olmoq.
- expropriation** [ekˈsprəʊprɪˈeɪʃn] *n* 1) majburiy tarzda tortib olish; 2) mulkdan majburan mahrum qilish, musodara qilish, majburiy tarzda tortib olish.
- expulsion** [ɪkˈspʌlʃn] *n* 1) (*maktab, klub va b.dan*) quvish, chiqarish; 2) surgun, badarg'a, quvg'in.
- expulsive** [ɪkˈspʌlsɪv] *a* haydovchi, quvib (*surib*) chiqaruvchi.
- expunge** [ekˈspʌndʒ] *v* 1) o'chirmoq (*ro'yxatdan, kitobdan*); 2) yo'q qilmoq, o'chirib tashlamoq.
- expurgate** [ˈekspɜːɡeɪt] *v* kitobdagi kerak bo'lmagan joylarni o'chirmoq.
- expurgation** [ˌekspɜːˈɡeɪʃn] *n* kitobdagi kerak bo'lmagan joylarni o'chirish.
- exquisite** [ɪkˈskwɪzɪt] 1. *n* olifta, satang, o'ziga bino qo'yuvchi odam; 2. *a* 1) nazokatli, latofatli, nozik, nafis, go'zal; 2) qattiq, kuchli, o'tkir, zo'r, og'ir; ~ **pain** qattiq og'riq; 3) juda yaxshi, g'oyat yoqimli, juda chiroyli, zebo, ko'rkam, dilbar, ajoyib.
- exsanguinate** [ekˈsæŋɡwɪˌneɪt] *v* qonsizlantirmoq, qonini ketkazmoq, qonini ko'chirmoq.
- exsanguine** [ekˈsæŋɡwɪn] *a* qonsiz, qoni kam, qoni qochgan.
- excise** [ekˈsɪnd] *v* kesib (qirqib) olmoq; kesib (qirqib) tashlamoq.
- ex-service** [ˌeksˈsɜːvɪs] *a* 1) harbiy xizmatdan bo'shatilgan; 2) iste'foga chiqqan, iste'fodagi.
- ex-serviceman** [ˌeksˈsɜːvɪsmən] *n* urush faxriysi, sobiq jangchi.
- exsiccate** [ˈɛksɪkət] *v* 1) quritmoq; 2) qurimoq.
- exsiccation** [ˌeksɪˈkeɪʃn] *n* 1) quritish; 2) qurish.
- extant** [ˌeksˈtænt] *a* bor, mavjud, yashayotgan, kun kechirayotgan.
- extemporaneous** [ekˌstempəˈreɪniəs] *a* tasodifiy, o'tilmagan, nogahoniy.
- extempore** [ekˈstempərəɪ] 1. *a* maxsus tayyorlanmagan, tayyorgarliksiz aytilgan (*ijro etilgan*); 2. *adv* tayyorlanmasdan, oldindan tayyorgarlik ko'rmasdan, to'g'ridan-to'g'ri, birdaniga, qo'q-qisdan.
- extemporization** [ekˌstempəraɪˈzeɪʃn] *n* tayyorgarliksiz (*birdan*) kuy yaratish.
- extemporize** [ɪkˈstempəraɪz] *v* tayyorgarliksiz (*ijro paytida*) aytmoq, to'qimoq, yaratmoq.
- extend** [ɪkˈstend] *v* cho'zmoq, uzatmoq; **to** ~ **one's hand for a handshake** so'rashish uchun qo'l cho'zmoq.
- extended** [ɪkˈstendɪd] 1. *p. p.* **extend dan**; 2. *a* uzoq muddatli, uzoq davomli, uzoqqa cho'zilgan (*cho'ziladigan*), uzoq davom etgan (*etadigan*); **in an** ~ **sense** keng ma'noda.
- extender** [ɪkˈstendə] *n tex.* to'ldirgich, plastmassa to'ldirgichlari.
- extensible** [ɪkˈstensəbl] *a* cho'ziladigan, uzayadigan, kengayadigan, kengayuvchan, cho'ziluvchan.
- extensile** [ɪkˈstensəl] *a* cho'ziladigan, uzayadigan.
- extension** [ɪkˈstenʃn] *n* 1) kengaytirish; 2) yoyish; cho'zish, uzaytirish; 3) qo'shilgan narsa, qo'shimcha, ilova.
- extensive** [ɪkˈstensɪv] *a* keng, bepoyon; ~ **front** keng front.
- extensively** [ɪkˈstensɪvli] *adv* 1) keng, katta; 2) keng ravishda, keng ko'lamda, har tarafлама; 3) mufassal, to'la, to'liq.
- extent** [ɪkˈstent] *n* 1) masofa, keng sath (*maydon, joy*); 2) o'lcham, miqdor; 3) ko'lam (*bo'y, en va balandlik*), miqyos, daraja.
- extenuate** [ekˈtenjuət] *v* 1) kuchsizlantirmoq, darmonsizlashtirmoq, kuch-quvvatdan qoldirmoq; 2) yumshatmoq, pasaytirmoq, kamaytirmoq, yengillashtirmoq.
- extenuation** [ekˌstenjuˈeɪʃn] *n* holdan toyish, ozib-to'zish, behollik, bemajollik.
- extenuatory** [ɪkˈstenjuətəri] *a* 1) gunohni yengillatuvchi; 2) og'riqni pasaytiruvchi.
- exterior** [ɪkˈstɪəriəl] *a* ustki, tashqi.
- exteriority** [ɪkˌstɪəriˈɔːrəti] *n* ustki (tashqi) tomoni.
- exteriorize** [ɪkˈstɪəriəraɪz] = **externalize**.
- exterminate** [ɪkˈstɜːmɪneɪt] *v* tag-tomiri bilan yo'q qilmoq; barham bermoq, ildizini quritmoq.
- extermination** [ɪkˌstɜːmɪˈneɪʃn] *n* qirish, yo'q qilish, tag-tomiri bilan yo'q qilish.
- exterminator** [ɪkˈstɜːmɪneɪtər] *n* qiruvchi, qiruvchi samolyot.
- exterminatory** [ɪkˈstɜːmɪnətəri] *a* qiruvchi, qiron soluvchi, qirg'ang keltiruvchi, qironli; ~ **war** qirg'inbarot jang.
- external** [ɪkˈstɜːnl] 1. *a* tashqi, xorijiy; sirtqi; 2. *n* tashqi ko'rinish, qiyofa, turq; ~ **angle** tashqi burchak.
- externality** [ˌɛkstɜːˈnæləti] *n* tashqi ko'rinish, qiyofa, aft-angor, turq.
- externalize** [ekˈstɜːnəlaɪz] *v* gavdalandirmoq, mujassamlantirmoq; gavdalandirib ko'rsatmoq.
- exterritorial** [ˌekstəriˈtɔːriəl] *a* eksterritorial (*eksterritoriallik huquqiga ega bo'lgan*).

exterritoriality [ˌɛkstɛrɪtɔːrɪˈælətɪ] *n* eksterritoriallik (*chet elda xizmat qiladigan diplomatik vakillarning faqat o'z davlati qonunlariga bo'yimish huquqi*).

extinct [ɪkˈstɪŋkt] *a* o'chgan, so'ngan, o'chib (so'nib) qolgan.

extinction [ɪkˈstɪŋkʃn] *n* o'chirish, so'ndirish.

extinguish [ɪkˈstɪŋgwɪʃ] *v* o'chirmoq, bartaraf qilmoq.

extinguisher [ɪkˈstɪŋgwɪʃə] *n* o'chirgich, o't o'chirgich, o'chiruvchi.

extirpate [ˈɛkstɔːpeɪt] *v* tag-tomiri bilan yo'q qilmoq, barham bermoq, ildizini quritmoq.

extirpation [ˌɛkstɔːˈpeɪʃn] *n* barham berish, tugatish, yo'qotish.

extirpator [ˈɛkstɔːpeɪtə] *n* tag-tomiri bilan yo'q qiluvchi, barham beruvchi (*kishi*).

extol [ɪkˈstəʊl] *v* juda ham maqtab yubormoq, rosa ta'rif-tavsif qilmoq, ko'klarga ko'tarmoq.

extort [ɪkˈstɔːt] *v* qo'rqitib (*yoki* tovlab) pulini olmoq.

extortion [ɪkˈstɔːʃn] *v* qo'rqitib (*yoki do'q-po-pisa va boshqa yo'llar bilan*) undirish.

extortionate [ɪkˈstɔːʃnət] *a* 1) haddan tashqari baland (*narxlar to'g'risida*); 2) tamagirlikka qaratilgan, tovlamachilikdan iborat bo'lgan.

extortioner [ɪkˈstɔːʃnə] *n* qo'rqitib (*yoki do'q-po-pisa bilan*) undiruvchi, bosmachi, o'g'ri; tovlamachi, tamagir, yulg'ich.

extra [ˈɛkstrə] **1.** *a* 1) qo'shimcha; ~ **charges** qo'shimcha xarajat; 2) maxsus; 3) oliy sifat; **2.** *n* qo'shimcha nimadir narsa.

extra- [ˈɛkstrə-] *pref.* -dan tashqari, -dan ortiq.

extracellular [ˌɛkstrəˈsɛljulə] *a* *biol.* hujayraga oid bo'lmagan, g'ayri-hujayravii.

extract **1.** *n* [ˈɛkstrækt] *n* parcha, ko'chirma; **2.** *v* [ɪkˈstrækt] *v* 1) sug'urib (*yoki* oldirib) tashlamoq; **to** ~ **a** **tooth** tishni sug'urmoq; 2) siqib chiqarmoq (*sok*); 3) chiqarmoq; 4) *mat.* ildizini topmoq.

extraction [ɪkˈstræktʃn] *n* 1) parcha, ko'chirma; 2) kelib chiqish; nasab, nasl-nasab; **an American of Germany** ~ Nemis millatiga mansub amerikalik.

extractive [ɪkˈstræktɪv] **1.** *a* 1) topib bo'ladigan; 2) ajratib olish yo'li bilan hosil qilingan; **2.** *n* ekstrakt (*kimyoviy yo'l bilan organik to'qimalardan olingan modda*).

extractor [ɪkˈstræktə] *n* *tib.* jarrohlik qisqichi.

extracurricular [ˌɛkstrəkəˈrɪkjulə] *a* 1) majburiy bo'lmagan, ixtiyoriy; 2) darsdan tashqari.

extradite [ˈɛkstrədaɪt] *v* jinoyatchini boshqa davlatga bermoq.

extradition [ˌɛkstrəˈdaɪʃn] *n* jinoyatchini boshqa davlatga topshirish.

extra-judicial [ˌɛkstrədʒuˈdɪʃl] *a* *yur.* norasmiy.

extramarital [ˌɛkstrəˈmæɪtl] *a* nikohsiz, nikohdan oldingi, nikohdan oldin bo'lgan.

extra-mundane [ˌɛkstrəˈmʌndɛɪn] *a* *din.* narigi dunyoda bo'ladigan, narigi dunyodagi.

extra-mural [ˌɛkstrəˈmjuərəl] *a* sirtqi *yoki* kechki; ~ **courses** sirtqi o'qish kurslari.

extraneous [ɪkˈstreɪniəs] *a* begona, yot, o'zga, tashqi, sirtqi.

extra-official [ˌɛkstrəˈfɪʃl] *a* rasmiy emas, norasmiy.

extraordinarily [ɪkˈstrɔːdnərli] *adv* g'ayrioddiy tarzda, juda ham ajoyib.

extraordinary [ɪkˈstrɔːdnəri] *a* 1) favqulodda, turfa, hayron qolarli, sira ko'rilmagan (*eshitilmagan*); haddan tashqari, ajoyib, g'alati; 2) tasodifiy.

extrapolation [ˌɛkˌstræpəˈleɪʃn] *n* *mat.* ekstrapolatsiya (*narsa va hodisaning bir qismini kuzatish asosida olingan xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tatbiq etish*).

extra-territorial [ˌɛkstrətəriˈtɔːrɪəl] *a* eksterritorial (*eksterritoriallik huquqiga ega bo'lgan*).

extravagance [ɪkˈstrævəɡəns] *n* isrofgarchilik, nobudgarchilik, behuda sarflashlik, sovurib yuborishlik.

extravagancy [ɪkˈstrævɪɡənsɪ] = **extravagance.**

extravagant [ɪkˈstrævəɡənt] *a* 1) isrofgar, nobudgar, behuda sarf qiluvchi, sovurib yuboruvchi; 2) beaql, esi yo'q, tentak, jinni, ko'ngliga kelgani qilaveradigan, bema'ni (*ahmoqona*) ish tutadigan; ahmoqona, telba-teskari; 3) bema'ni, kelishmagan, kurakda turmaydigan; tuturiqsiz; 4) adashib yuradigan, sanqi, darbadar; 5) haddan tashqari, cheksiz (*talab to'g'risida*).

extravaganza [ˌɛkˌstrævəˈɡænzə] *n* *teatr.* ertak sujetiga asoslangan, teatr *yoki* sirk tomoshasi.

extravasation [ˌɛkˌstrævəˈseɪʃn] *n* *tib.* qon quyilish.

extreme [ɪkˈstriːm] **1.** *a* 1) keskin, eng oxirgi, chetdagi; **the** ~ **edge of a field** maydonning eng uzoq tomoni; 2) *og'z.* eng oxirgi (*so'nggi*); **2.** *n* chegara, haddan ortiq holat.

extremely [ɪkˈstriːmlɪ] *adv* favqulodda, haddan tashqari, nihoyatda; juda ham, g'oyat.

extremism [ɪkˈstriːmɪzəm] *n* ekstremizm (*siyosatda: keskin tadbir-choralar ko'rishga tarafdorlik*).

extremist [ɪkˈstriːmɪst] *n* *siyos.* ekstrimist (*keskin choralar tarafdori*).

extremity [ɪkˈstremətɪ] *n* uch, bosh, etak; qirra, chekka, lab, oxiri.

extricate [ˈɛkstrikeit] *v* olib chiqmoq (*qiyin ahvoldan*) (**from, out of**).

extrication [ˌɛkstriˈkeɪʃn] *n* bo'shatib yuborish, ozod qilish, qutqarish.

extrinsic(al) [ˌɛksˈtrɪnsɪk(əl)] *a* tashqi, sirtqi, ustki; begona.

extroversion [ˌɛkstrəˈvɜːʃn] *n* muvaffaqqiyatlarga qiziqish, ruhiy qiziqishning yo'qligi, faqat o'z manfaatini o'ylash.

- extrovert** [ˈɛkstrəʊvɜːt] *n* 1) *psixol.* faqat o'zining manfaatini ko'zlaydigan kishi (*shaxs*); 2) faqat tashqi muhit bilan qiziqadigan kishi.
- extrude** [ɛk ˈstruːd] *v* itarib (turtib-turtib) chiqarmoq, turtib-surtib chiqarib yubormoq.
- extrusion** [ɪk ˈstruːzən] *n* itarib (turtib-turtib) chiqarish, turtib-surtib chiqarib yuborish.
- exuberance** [ɪg ˈzjuːbrəns] *n* mo'llik, mo'l-ko'llik, mo'lchilik, seroblik, serobgarchilik, to'kin-sochinlik.
- exuberancy** [ɪg ˈzjuːbrənsɪ] = **exuberance**.
- exuberant** [ɪg ˈzjuːbrənt] *a* mo'l, mo'l-ko'l, serob, juda ko'p, to'kin-sochin.
- exuberate** [ɪg ˈzjuːbreɪt] *n* juda ko'p bo'lmoq, to'lib-toshib yotmoq, boy (serob, mo'l-ko'l) bo'lmoq.
- exudation** [ˌɛksjuːˈdeɪʃn] *n* tib. nazla (*badandagi teshikchalardan terning ajralib chiqishi*).
- exude** [ɪg ˈzjuːd] *v* tib. ter chiqazmoq.
- exult** [ɪg ˈzʌlt] *v* 1) quvonmoq, zavqlanmoq, shodlanmoq, shod-xurram bo'lmoq; **to** ~ **in a victory** g'alabani nishonlamoq; 2) shodlikdan sakramoq.
- exultancy** [ɪg ˈzʌltənsɪ] = **exultation**.
- exultant** [ɪg ˈzʌltənt] *a* shod, shod-xurram; ~ **cry** shod-xurramlik qiyqiriqlari.
- exultant** [ɛgzʌl ˈteɪʃn] *n* shodlik, shod-xurramlik, shodiyona.
- exuviate** [ɪg ˈzjuːviɪt] *v* tullamoq, po'st tashlamoq.
- exuviation** [ɪg.zjuː.vɪ ˈeɪʃn] *n* tullash, po'st tashlash.
- eyes** [ˈaɪs] *n* lochin bolasi.
- eye** [aɪ] *1. n* 1) ko'z; **blue large** ~s katta ko'k ko'z; **to see with one's own** ~s o'z ko'zlari bilan ko'rmog; ~ **disease** ko'z og'rig'i; ~ **hospital** ko'z kasalxonasi; 2) teshik, ko'z (*ignada*); 3) *sheva*. izquvar, detektiv; 4) *sheva* televizor ekrani; 2. *v* 1) qaramoq, qarab chiqmoq; 2) nazorat qilmoq.
- eyeball** [ˈaɪbɔːl] *n* ko'z soqqasi.
- eye-bath** [ˈaɪbɑːθ] *n* tib. ko'z vannachasi (*vanna* – *davolanish uchun belgilangan kichkina toscha*).
- eye-beam** [ˈaɪbiːm] *n* o'ynoqi ko'z, tez nigoh.
- eyebrow** [ˈaɪbraʊ] *n* qosh; **to raise the** ~s qosh chimirmoq.
- eye-catcher** [ˈaɪ,kætʃə] *n* yorug' (yorqin) manzara.
- eye-cup** [ˈaɪkʌp] *n* tib. ko'z vannachasi (*rumka shaklidagi*).
- eye drop** [ˈaɪdrɒp] *n* pl ko'zga tomiziladigan dori.
- eyeful** [ˈaɪfʊl] *n* so'zl. 1) ajoyib manzara; 2) so'zl. g'oyat go'zal ayol.
- eye-glass** [ˈaɪglɑːs] *n* 1) linza, okular (*optik asbobning ko'zga tutib qaraladigan tomondagi shishasi*); 2) ko'z qorachig'i; 3) ko'zoynak oynasi; 4) pl ko'zoynak.
- eyehole** [ˈaɪhəʊl] *n* 1) kichkina (torgina) teshikcha, tirqish; kovak, yoriq; 2) ko'z kosasi.
- eyelash** [ˈaɪlæʃ] *n* kiprik, mujgon.
- eyeless** [ˈaɪləs] *a* ko'zi (*yoki bir ko'zi*) yo'q, ko'r.
- eyelet** [ˈaɪlət] *n* kichkina teshikcha.
- eyelid** [ˈaɪlɪd] *n* qovoq (*ko'z qovog'i*).
- eye-opener** [ˈaɪ,əʊpənə] *n* so'zl. kishini juda ham hayratda qoldiradigan narsa; odamning ko'zini ochib qo'yadigan nimadir (*qandaydir narsa*).
- eyepiece** [ˈaɪpiːs] *n* okular (*optik asbobning tutib qaraladigan tomondagi shishasi*).
- eye-service** [ˈaɪ,sɜːvɪs] *n* o'zini yaxshi ko'rsatish uchun qilinadigan ish.
- eyeshadow** [ˈaɪ,ʃædəʊ] *n* qoshqalam.
- eyeshot** [ˈaɪʃɒt] *n* ko'rish maydoni, doirasi.
- eyesight** [ˈaɪsaɪt] *n* ko'rish qobiliyati, ko'rish; **good** ~ yaxshi ko'rish, ko'zning o'tkirligi; **poor** ~ xira ko'rish; yomon ko'rish.
- eye-socket** [ˈaɪ,sɒkɪt] *n* ko'z chanog'i, ko'z kosasi.
- eyesore** [ˈaɪsɔː] *n* ko'z dog'i, ko'zga tushgan oq.
- eye-tooth** [ˈaɪtuːθ] *n* anat. so'yloq tishlar, yoriq tishlar.
- eyewash** [ˈaɪwɔːʃ] *n* ko'z malhami (*latta yoki paxtaga surtib og'riq joyga qo'yish uchun tayyorlangan suyuq dori*).
- eyewater** [ˈaɪ,wɔːtə] *n* ko'z yoshi.
- eye-wink** [ˈaɪwɪŋk] *n* ko'z ochib yumguncha o'tadigan vaqt (lahza, on, fursat, dam, nafas).
- eyewitness** [ˈaɪ,wɪtnəs] *n* guvoh, shohid.
- eyrie** [ˈɪəri] = **aerie**.

Ff

- F, f** [ef] *n* 1) ingliz tili alifbosining oltinchi harfi; 2) *mus.* fa notasi.
- fa** [faː] *n* *mus.* fa (*musiqaga gammasining to'rtinchi notasi*).
- fab** [fæb] *a* 1) afsonaviy; xayoliy; 2) ertakka oid.
- Fabian** [ˈfeɪbiən] *a* ehtiyotli, ehtiyotkor, payt poylaydigan; ~ **policy** payt poylash siyosati.
- fable** [ˈfeɪbl] *n* 1) masal, to'qima, zarbulmasal; 2) cho'pchak, ertak.
- fabler** [ˈfeɪblə] *n* 1) masalchi, masal yozuvchi, masalnavis; 2) ertakchi.
- fabric** [ˈfæbrɪk] *n* 1) gazlama, gazmol, mato; **silk and woolen** ~ ipak va jun gazlama; 2) tuzilish, tuzilma; **the** ~ **of society, the social** ~ ijtimoiy tizim; 3) bo'rtma, gul, bezak (*gazmolda*); **cloth of beautiful** ~ bezagi chiroyli gazlama; 4) buyum, fabrikat; 5) inshoot, bino.
- fabricate** [ˈfæbrɪkeɪt] *v* 1) o'ylab chiqarmoq; **the story was** ~ **d from beginning to end** hikoya boshidan oxirigacha to'qilgan edi; 2) qalbaki-lashtirmoq; **to** ~ **papers** qalbaki hujjatlar tayyorlamoq; 3) ishlab chiqarmoq, tayyorlamoq.

fabricated [ˈfæbrɪkeɪtɪd] *a* yigʻma, tayyor qismlardan yasalgan; ~ **house** tayyor qismlardan qurilgan uy (*panelli uy*).

fabrication [ˌfæbrɪˈkeɪʃn] *n* 1) uydirma, yolgʻon, toʻqima; **his story was an entire** ~ uning hikoyasi boshidan oxirigacha uydirma edi; 2) soxta, qalbaki narsa; **the document was undoubtedly a** ~ hujjat soʻzsiz soxta edi.

fabulist [ˈfæbjulɪst] *n* 1) masalchi, masal yozuvchi, masalnavis; 2) uydirmachi, yolgʻonchi.

fabulosity [ˌfæbjʊˈləsəti] *n* afsonaviy, misli koʻrilmagan, aqlga sigʻmas narsa.

fabulous [ˈfæbjʊləs] *a* afsonaviy, misli koʻrilmagan; ~ **hero** afsonaviy qahramon.

facade [fəˈsɑːd] *n* fasad, binoning old tomoni (*oldi*), tashqi koʻrinish.

face [feɪs] **1.** *n* 1) yuz, aft, qiyofa; 2) yuz ifodasi; chehrasida aks etgan belgi; **straight** ~ ehtirossiz (*hech narsani ifodalamaydigan*) yuz, «niqob»; **to make** ~s aftini burishtirmoq; 3) tashqi koʻrinish, tashqi qiyofa; **on the ~ of** tashqi koʻrinishiga koʻra; 4) *soʻzl.* surbetlik, bezbetlik, uyatsizlik; **to show a** ~ oʻzini surbetlaricha tutmoq; 5) sath, tashqi tomon; ~ **of a door** eshik tomonlari (*ichki va tashqi tomon*); 6) usti, sathi (*yerning, suvning*); 7) oʻng, old tomon (*mato, medal va b.larning*); **2.** *v* 1) yuzga qarab turmoq, oʻtirmoq; **they sat so as to ~ each** ular qarama-qarshi (*betma-bet*) oʻtirishardi; **the man now facing me** hozir oldimda turgan kishi; 2) mardona kutib olmoq (*biror narsani*); hech bir qoʻrquvsiz yuzga qaramoq; **to ~ danger** xavfni qoʻrquvsiz kutib olmoq; 3) duch kelmoq, toʻqnash kelmoq; **to be ~d with a difficulty** qiyinchilikka duch (toʻqnash) kelmoq.

face-ache [ˈfeɪsək] *n* tib. yuz asablari, nevralgiiyasi (*asab sistemasining biror yeri kasallanishi yoki yalligʻlanishi natijasida paydo boʻladigan ogʻriq*).

face-card [ˈfeɪskɑːd] *n* surat, suratli qarta (*korol, valet, dama*).

face-guard [ˈfeɪsgɑːd] *n* sport. himoya qiladigan (saqlaydigan) niqob.

faceless [ˈfeɪsləs] *a* xususiyatsiz, oʻziga xos xislati boʻlmagan.

facelift [ˈfeɪs,lɪft] *n* yuzni plastik operatsiya qilish.

face-lifting [ˈfeɪs,lɪftɪŋ] *n* kosmetik maqsadda yuzning plastik operatsiyasi.

face powder [ˈfeɪs,pauðə] *n* upa.

facer [ˈfeɪsə] *n* 1) betga urilgan zarba; 2) *amer. soʻzl.* kutilmagan toʻsiq.

face-saving [ˈfeɪs.ˌseɪvɪŋ] *a* obroʻ uchun qilingan, yuzxotir sifatida.

facet [ˈfæsɪt] **1.** *n* 1) qirra (*olmos va b.larda*); 2) jihat, tomon; **to study all the ~s of matter** masalaning barcha tomonlarini oʻrganib chiqmoq; **2.** *v* qirralamoq, silliqlab qirra chiqarmoq.

facetae [fəˈsiːʃiː] *n pl lot.* hazillar, qochirimlar, pichinglar.

facetious [fəˈsiːʃəs] *a* 1) hazillashadigan, hazil-kash; 2) quvnoq.

face-value [ˈfeɪs,væljuː] *n* nominal baho, oʻz bahosi (*tanga, banknot, aksiyaning*).

facial [ˈfeɪʃl] *a* 1) yuzga oid, yuzdagi; ~ **expression** chehrasida aks etgan belgi; chehra; 2) yuzdagi, sirtqi, ustki; ~ **layer** ustki qatlam; 3) kosmetik; ~ **massage** kosmetik uqalash.

facile [ˈfæsəl] *a* 1) yengil, oson, zoʻr berishni talab qilmaydigan; ~ **victory (success)** oson erishilgan gʻalaba (*muvaffaqiyat*); 2) moyil, taʼsirchan, zehnlil; 3) yuzaki, shoshmashosharlik bilan qilingan; ~ **decision** shoshma-shosharlik bilan qabul qilingan qaror; 4) koʻngilchan, koʻnikuvchan, yumshoq tabiat; ~ **parents** muruvvatli ota-onalar.

facilitate [fəˈsɪləteɪt] *v* yordam bermoq, koʻmaklashmoq, yengillatmoq, hamkorlik qilmoq.

facilitation [fəˈsɪləˈteɪʃn] *n* yordam berish, koʻmak berish, yengillatish.

facility [fəˈsɪləti] *n* 1) qulaylik, imtiyoz; **good transportation facilities** yaxshi uyushtirilgan transport; 2) yengillik, qiyin emaslik; **the ~ of the task** fazifaning yengilligi.

facing [ˈfeɪsɪŋ] *n* 1) qoplama; 2) pardoz sayqal berish; 3) ustki qatlam, silliqlash.

facsimile [ˈfæksɪməli] *n* faksimile (*qoʻlyozma, hujjat yoki imzoning ayni nusxasi*).

fact [fækt] *n* 1) dalil, chin, haqiqat, mohiyat; 2) haqiqat, reallik; 3) dalil, asos; **you must prove your** ~s siz keltirgan dalilni toʻgʻriligining isbotlashingiz kerak.

fact-finding [ˈfækt,faɪndɪŋ] *n* tekshirish, dalillarni aniqlash.

faction [ˈfæksjən] *n* siyos. fraksiya (*biror tashkilot yoki partiya ichidagi maqsadi va qarashlari bilan boshqalardan farq qiladigan alohida guruh*).

factional [ˈfæksjənəl] *a* fraksion, guruhlikka oid.

factionalism [ˈfæksjənəlɪzm] *n* fraksiyachilik, guruhbozlik.

factitious [ˈfæktɪʃəs] *a* sunʼiy, yasama.

factitive [ˈfæktətɪv] *a* gram. sabab...

factor [ˈfæktə] *n* 1) omil, harakatga keltiruvchi kuch; 2) vositachi; oʻrtada turuvchi, dallol; 3) *matem.* koʻpaytiruvchi.

factorial [ˈfæktəˈrɪəl] *a* oʻrtada turuvchi, vositachilikka oid; ~ **duties** oʻrtada turuvchining vazifasi.

factory [ˈfæktəri] *n* zavod, fabrika; ~ **law** fabrika qonunlari.

factory-buster [ˈfæktəri,bʌstə] *n* *harb.* ogʻir fugas bombasi.

factotum [ˈfæktəʊtəm] *n* ishonchli xizmatkor; 2) qoʻli gul usta.

factual [ˈfæktʃuəl] *a* dalilga asoslangan, haqqoniy.

facultative [ˈfækəltətɪv] *a* fakultativ, majburiy boʻlmagan; ixtiyoriy.

faculty [ˈfækəlti] *n* 1) qobiliyat, isteʼdod; ~ **of speech** soʻzlash qobiliyati, notqlik; **the mental faculties** aqliy qobiliyatlar; 2) hokimiyat, huquq (*cherkovga oid*); 3) fakultet, boʻlim, boʻlinma; **the ~ of law** yuridik fakulteti; 2) oʻqituvchi-professorlar tarkibi.

fad [fæd] *n* gʻalati qiliq, gʻalatilik; **this is a passing** ~ oʻtkinchi (qisqa muddatli) havas.

faddiness [ˈfædɪnəs] *n* gʻalatilik, qiziqlik, jinnilik.

faddist [ˈfædɪst] *n* gʻalati (*tentaksimon*) odam, qiziq tabiatli kishi

faddy [ˈfædi] *a* (*tabiati*) qiziqroq, gʻalatiroq, tentaksimona.

fade [feɪd] *v* soʻlmoq, qurimoq, sekin yoʻq boʻlmoq; **summer ~s into autumn** yoz sekin-asta kuzga aylanmoqda.

fadeaway [ˈfeɪdəˈweɪ] *n* asta-sekin (sekin-asta) yoʻqolish.

fade-in [ˈfeɪdɪn] *n* *kino. radio. tv.* tovush yoki tasvirning asta-sekin paydo boʻlishi.

fadeless [ˈfeɪdləs] *a* soʻlmaydigan, soʻlmas, oʻchmas.

fade-out [ˈfeɪdaʊt] *n* *kino. radio. tv.* tovush yoki tasvirning sekin-asta yoʻq boʻlib ketishi.

fading [ˈfeɪdɪŋ] **1. pres. p.** **fade dan**; **2. n** *radio.* soʻnish, oʻchish, pasayish, toʻxtash.

faeces [ˈfiːsiːz] *n pl* 1) choʻkindi, loyqa; quyqum; 2) najas, axlat, tezak.

faerie [ˈfɛəri] *n* 1) ertaklardagi podsholik; 2) pari.

faery [ˈfɛəri] = **faerie**.

fag [fæg] **1. n** 1) ogʻir, toliqtiradigan yoki zerikarli ish; 2) kattalarga xizmat qiluvchi kichik oʻquvchi; **2. v** 1) mehnat qilmoq, ishlamoq; 2) kichik doʻstlarning xizmatidan foydalanmoq.

fag-end [ˌfægˈend] *n* 1) keraksiz narsa; 2) oxiri; **the ~ of the day** kunning oxiri; **at the ~ of a book** kitobning oxirida.

faggot [ˈfægət] **1. n** bogʻ, bogʻlam; **2. v** shox-shabbalarni bir bogʻlam qilib bogʻlamoq.

fagot [ˈfægət] *amer.* = **faggot**.

Fahrenheit [ˈfærənhaɪt] *n* Farangeyt termometri, Farangeyt termometrinin shkalasi.

faience [ˈfaɪəns] *n fr.* fayans (*ganch aralash loy*).

Japanese [ˌdʒæpəˈniːz] *a* yaponcha, yaponlarga *yoki* Yaponiyaga oid; ~ **language** yapon tili.

Japanesque [ˌdʒæpəˈnesk] *a* yaponcha usulda.

jape [dʒeɪp] **1.** *n* hazil; **2.** *v* hazillashmoq.

japonic [dʒəˈpɒnɪk] = **Japanese**.

jar I [dʒɑ:] *n* banka, koʻza, xum.

jar II [dʒɑ:] **1.** *v* 1) yomon ovoz chiqarmoq, dirillamoq, zirillamoq; 2) asabga tegmoq; 3) urushib (*arazlashib*) qolmoq; **2.** *n* 1) yomon ovoz chiqarish; 2) asabga tegish; 3) urushib qolish.

jardiniere [ˌdʒɑːdɪnɪˈeə] *fr.* *n* xonaki gul uchun maxsus quti *yoki* savat.

jargon I [ˈdʒɑːɡəʊn] *n* 1) tushunib boʻlmaydigan til, jargon; 2) jargon, kasbga oid til.

jargon II [ˈdʒɑːɡəʊn] *v* tushunib boʻlmaydigan tilda (jargonda) gapirmoq.

jargonelle [ˌdʒɑːɡəˈnel] *n* ertapishar nok.

jargonize [ˈdʒɑːɡənaɪz] *v* soʻzlashishda jargon iboralaridan foydalanib gapirmoq.

jarring [ˈdʒɑːrɪŋ] *a* gʻazablantiradigan, gʻashiga tegadigan.

jasmin(e) [ˈdʒæsmɪn] *n* yasmin (*oʻtkir xushboʻyoq gulli koʻpincha bogʻlarda oʻstiriladigan butasimon oʻsimlik*).

jasper [ˈdʒæspə] *n min.* yashma (*rangdor tosh*).

jaundice [ˈdʒɔːndɪs] *n* sariq, sariq kasali.

jaundiced [ˈdʒɔːndɪst] *a* 1) sariq, sariq rang; 2) sariq kasali bilan ogʻrigan.

jaunt [dʒɔːnt] *n* koʻngil ochadigan sayr-tomosh.

jauntily [ˈdʒɔːntɪli] *adv* xurram, shod, chaqchaqlashib, quvnab, xursandchilik bilan.

jaunty [ˈdʒɔːntɪ] *a* shod, xursand, vaqti chogʻ, quvnoq, xushchaqchaq.

Javanese [ˌdʒɑːvəˈniːz] **1.** *a* Yava oroliga oid; **2.** *n* Indoneziya xalqi (*Yava va Sumatra orollarining tub aholisi*).

javelin [ˈdʒævəlɪn] *n* otadigan nayza.

jaw [dʒɔː] *n* 1) jagʻ; chakak; 2) iyak.

jaw-bone [ˈdʒɔːbəʊn] *n* 1) qarz, nasiya; 2) jagʻ suyaklari.

jaw-breaker [ˈdʒɔːbreɪkə] *n* soʻzl. qiyin talaffuz qilinadigan soʻz.

jaw vice [ˈdʒɔːvaɪs] *n tex.* gira, iskanja, taxtakach.

jay [dʒeɪ] *n* 1) zool. soyka (*qush*); 2) ezma, vaysaqi.

jay-walker [ˈdʒeɪ,wɔːkə] *n* soʻzl. ehtiyotsiz piyoda.

jazz [dʒæz] **1.** *n* 1) jaz (*orkestr turi va unga atab yozilgan musiqa asari*); **2.** *v* jazga oʻynamoq.

jazzy [ˈdʒæzɪ] *a* tirik, jonli.

jealous [ˈdʒeləs] *a* rashkli, rashkchi; ~ **husband** rashkchi er.

jealously [ˈdʒeləʊslɪ] *adv* rashk bilan, qizgʻanib, avaylab.

jealousy [ˈdʒeləʊsɪ] *n* qizgʻanish, rashk.

jeans [dʒiːnz] *n pl* jinsi (*shim turi*).

jeep [dʒiːp] *n* 1) avtomobil; 2) *harb.* soʻzl. yangi kelgan; 3) kichkina razvedkachi samolyot.

jeer [dʒiː] **1.** *n* nafrat bilan kulish, birovning ustidan masxara qilib kulish; **2.** *v* masxara qilmoq.

jehad [dʒɪˈhæd] = **jihad**.

Jehu [ˈdʒiːhjuː] *n* **hazil**. aravakash, izvoshchi.

jeune [dʒiˈdʒuːn] *a* 1) oriq, bo'sh, ma'nosiz; ~ **story** zerikarli hikoya; 2) oz, kamchil, tanqis.

jell [dʒel] *v* kristalga aylanmoq.

jelly [ˈdʒelɪ] *n* jele (*meva suvi, shakar va yelim-shakdan tayyorlanadigan shirin dirildoq ovgat*).

jelly-fish [ˈdʒelɪfɪʃ] *n* **zool.** meduza (*dengiz joni-vori*).

jemadar [ˈdʒemədəː] *n* **hind.** xizmatkorlar og'asi, bosh xizmatkor.

jemmy [ˈdʒemɪ] *n* ochqich (*qulfnı ochadigan moslama*).

jennet [ˈdʒenɪt] *n* urg'ochi eshak.

jenny [ˈdʒenɪ] *n* yuk ko'taradigan mashina (kran).

jenny-ass [ˈdʒenɪæs] = **jennet**.

jenny wren [ˈdʒenɪren] *n* **zool.** bigiztumshuq (*say-roqi qushcha*).

jeopard [ˈdʒepəd] = **jeopardize**.

jeopardize [ˈdʒepədəɪz] *v* tavakkal qilmoq, xavfli (qaltis) ish qilmoq; **to ~ one's life** hayotini xavf ostida qoldirmoq.

jeopardy [ˈdʒepədrɪ] *n* xavf, xavf-xatar; **to be ~** xavf-xatarda bo'lmoq.

jerboa [dʒəˈbəʊə] *n* **zool.** qo'shoyoq (*orqa oyoqlari va dumi uzun, sakrab yurishga moslashgan tungi kemiruvchi sutemizuvchi hayvon*).

jeremiad [ˌdʒerɪˈmaɪəd] *n* shikoyat, nola, hasrat.

jerk [dʒɜːk] *n* qo'zg'alish, tasodifiy zarba.

jerked [dʒɜːkt] *a* quritilgan, qoqlangan, qoq.

jerkin [ˈdʒɜːkɪn] *n* 1) kamzul; 2) erkaklarning kalta (charm) kurtkasi.

jerkwater [ˈdʒɜːkwɔːtə] *a* shtatdan tashqaridagi; ~ **town** shtatdan tashqaridagi kichkina shaharcha.

jerky [ˈdʒɜːkɪ] *a* silkinadigan, silkinib yuradigan ekipaj *yoki* vagon.

german [ˈdʒerɪkən] *n* **harb.** kanistra (*germetik qopqoqli idish*).

Jerry [ˈdʒerɪ] *n* **harb.** so'zl. nemis; nemis askari *yoki* samolyoti.

jerry [ˈdʒerɪ] *n* 1) tuvak; 2) *to'q.* mexanik qaychi (*matolarning notekis chekkalarini tekislash uchun*).

jerry-building [ˈdʒerɪbɪldɪŋ] *n* bo'sh (chidamsiz) imorat.

jerry-built [ˈdʒerɪbɪlt] *a* naridam-beri; chalachulpa, palapartish.

jerry-shop [ˈdʒerɪʃɒp] *n* 1) pivoxona; 2) gazaxona (*yo'l-yo'lakay kirib may ichib olinadigan kichik mayxona*).

jersey [ˈdʒɜːsɪ] *n* 1) issiq to'qima ko'ylak; 2) to'qilgan kofta.

jessamine [ˈdʒesəmiːn] = **jasmin(e)**.

jest [dʒest] **1.** *n* hazil; **idle** ~ bema'ni hazil; **2.** *v* hazillashmoq.

jester [ˈdʒestə] *n* hazilkash, qiziqchi; masxaraboz.

jesting [ˈdʒestɪŋ] **1.** *pres. p.* **jest 2. dan;** **2.** *n* kulgili; kuldiradigan, qiziqchilik uchun aytilgan.

Jesuit [ˈdʒeɪzjuɪt] *n* makkor, ikkiyuzlama odam.

Jesuitic(al) [ˌdʒeɪzjuˈtɪk(əl)] *a* makkorona, munofiqona.

Jesuitism [ˈdʒeɪzjuɪtɪzəm] *n* ikkiyuzlamalik, makkorlik.

jet I [dʒet] *n* gagat (*toshko'mirning zargarlik buyumlari yasash uchun ishlatiladigan qora yaltiroq turi*).

jet II [dʒet] **1.** *n* 1) ingichka suyuqlik *yoki* gaz oqimi; 2) *og'z.* reaktiv dvigatel; **2.** *v* sachramoq, purkamoq, sepmoq.

jet-black [ˌdʒetˈblæk] *a* saqichdek (zulukdek) qop-qora.

jetsam [ˈdʒetsəm] *n* halokatga uchraganda va qirg'oqqa yetganda kemadan tashlangan yuklar.

jet set [ˈdʒetset] *n* **amer.** so'zl. 1) eng yaxshi namoyanda (*kishilar haqida*); 2) jamiyatning guli.

jettison [ˈdʒetɪsən] *n* halokatga uchraganda yukni kemadan tashlab yuborish.

jetton [ˈdʒetən] *n* jeton, nishon, medal.

jetty [ˈdʒetɪ] *n* to'lqinqaytargich (*portlarda*).

Jew [dʒuː] *n* yahudiy.

jewel [ˈdʒuːəl] **1.** *n* 1) qimmatbaho tosh; 2) zargarlik buyumlari; **2.** *v* qimmatbaho toshlar bilan bezamoq.

jeweller [ˈdʒuːələ] *n* zargar (*usta*).

jewelry [ˈdʒuːəlɪ] *n* taqinchoq, zeb-ziynat; qimmatbaho zinat buyumlari, javohirlar, zargarlik buyumlari.

Jewess [ˈdʒuːes] *n* yahudiy ayol.

Jewish [ˈdʒuːɪʃ] *a* yahudiylarga oid.

Jewry [ˈdʒuːəri] *n* yahudiylar, yahudiy xalqi.

jib I [dʒɪb] *n* 1) *deng.* kliver (*kemaning oldingi qismidagi uchburchak yelkan*); 2) *tex.* yuk ko'taradigan kranning yuk ko'taradigan xartum-simon qismi.

jib II [dʒɪb] *v* 1) aylantirmoq, burmoq (*yelkanni*); 2) tebranmoq.

jibe [dʒaɪb] *v* rozi bo'lmoq, rozilik bermoq.

jiff(y) [ˈdʒɪf(tɪ)] *n* ko'z ochib yumguncha o'tadigan vaqt, lahz; **in a ~** ko'z ochib yumguncha.

jig [dʒɪg] *n* qarmoq (*tuzoq, qopqon va sh. ga qo'yiladigan yem*).

jigger I [ˈdʒɪgə] *n* saralovchi, xillarga ajratuvchi ishchi.

jigger II [ˈdʒɪgə] *n* ayollarning kalta paltosi.

jiggery-pokery [ˌdʒɪgəriˈpəʊkəri] *n* so'zl. makr, hiyla, nayrang.

jiggle [ˈdʒɪɡl] *n* tebranish, chayqalish.

jig-saw [ˈdʒɪɡsɔː] *n* metall qirqadigan dastak *yoki* mashina arra; yupqa (*nafis*) arra.

jihad [dʒɪˈhɑːd] *n* g'azot, g'azovot (*musulmonlarda*), diniy urush, muqaddas (adolatli) urush.

jilt [dʒɪlt] *n* aldoqchi, yolg'onchi, firibgar, qallob.

jim-dandy [ˌdʒɪmˈdændɪ] *a* **amer.** so'zl. juda yaxshi, juda soz, ajoyib.

jim-jams [ˈdʒɪm dʒæmz] *n* alkogolizm oqibatidagi og'ir ruhiy kasallik.

jimmy I [ˈdʒɪmi] *n amer.* ko‘mir tashiydigan arava.
jimmy II [ˈdʒɪmi] *v* lom bilan ochmoq, buzmoq, parcha-parcha qilmoq, yozmoq, sindirmoq.
jmp [dʒɪmp] *a* kelishgan, xushbichim.
Jimson weed [ˈdʒɪmsənwi:d] *n bot.* bangidevona.
jingle [ˈdʒɪŋɡl] **1.** *n* jarang, jiring, jaranglagan ovoz; **2.** *v* jaranglamoq, jiringlamoq.
jingo [ˈdʒɪŋɡəʊ] **1.** *n* shovinizist, shovinizm tarafdori (*shovinizm – ashaddiy burjuva millatchiligi*); **2.** *a* shovinistlarga oid.
jingoism [ˈdʒɪŋɡəʊɪzəm] *n* shovinizm (*ashaddiy burjuva millatchiligi*).
jink [dʒɪŋk] **1.** *n* 1) chetga chiqish; bosh tortish; 2) hiyla, nayrang, makr (*qilish, ishlatish*); **2.** *v* 1) chetga chiqmoq; bosh tortmoq; 2) hiyla ishlatmoq.
jinn [dʒɪn] *pl* **jinnee dan.**
jinnee [dʒɪˈni:] *n afs.* jin, ajina.
jinny [ˈdʒɪni] *n* foydali qazilmalarni kondan tashib chiqaradigan chig‘ir (*yuk ko‘taradigan mashina*).
jinrick(i)sha [dʒɪnˈrɪkʃə] *n* riksha (*Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida: ikki g‘ildirakli aravaga qo‘shilib, odam yoki yuk tashiydigan hammol*).
jinx [dʒɪŋks] *n so‘zl.* baxtsizlik, musibat, falokat, ofat, balo keltiruvchi inson yoki narsa.
jitney [ˈdʒɪtni] **1.** *n amer. so‘zl.* 1) besh sent; 2) arzon yo‘nalishdagi taksi yoki avtobus; **2.** *a* arzon, uchinchi navli; **3.** *v* arzon yo‘nalishdagi taksi yoki avtobusda yurmoq.
jitter I [ˈdʒɪtə] *n* hayajondan titramoq, hayajondan qaltiramoq, asabiylashmoq.
jitter II [ˈdʒɪtə] *n tv.* tasvirning pir-pirashi.
jitterbug [ˈdʒɪtəbʌɡ] *n* vahimachi; asabiy odam.
jittery [ˈdʒɪtəri] *a* asabiylashgan, asabi buzuq, tajang.
jiu-jitsu [ˌdʒjuːˈdʒɪtsuː] *n* jiu-jitsu (*yaponcha kurash turi*).
jive [dʒaɪv] **1.** *n* 1) jaz, jaz musiqasi; 2) bekorchi gap, safsata; **2.** *v* jaz musiqasiga o‘ynamoq.
Job [dʒəʊb] *n* ko‘p azob chekkan, chidamli odam (*bibliyaga oid*).
job I [dʒəʊb] **1.** *n* 1) ish, mehnat; 2) amal, mansab; **2.** *v* ishlamoq, mehnat qilmoq.
job II [dʒəʊb] **1.** *n* kutilmagan zarba, turtish, itarish; **2.** *v* itarmoq, zarba bermoq.
jobber [ˈdʒəʊbə] *n* 1) ishbay (*asosida*) haq oladigan odam; 2) birja dalloli; 3) ulgurji savdo qiluvchi savdogar.
jobbernowl [ˈdʒəʊbənəʊl] *n so‘zl.* ahmoq, tentak, no‘don.
jobbery [ˈdʒəʊbəri] *n* 1) olibsotarlik; chayqovchilik; 2) o‘z shaxsiy manfaati uchun lavozimidan foydalanish.
jobbing [ˈdʒəʊbɪŋ] *n* ahyon-ahyonda bir bo‘lib turadigan ish.
jobholder [ˈdʒəʊbhəʊldə] *n* doimiy ish bilan shug‘ullanuvchi kishi.

jobless [ˈdʒəʊbləs] *a* ishsiz, ishdan mahrum qilingan, ishsiz bo‘lib qolgan.
job-work [ˈdʒəʊwɜ:k] *n* baylashib qilinadigan ish, ishbay asosida qilingan ish.
Jock [dʒɔk] *n harb.* shotlandiyalik askar.
jockey [ˈdʒɔki] **1.** *n* 1) poygachi, chavandoz; 2) yolg‘onchi, aldoqchi, firibgar; **2.** *v* aldamoq, yolg‘on gapirmoq.
jock-strap [ˈdʒɔkstræp] *n sport.* bandaj, qullob (*tananing kasal joyini tang‘ib qo‘yadigan maxsus kamar*).
jocose [dʒəʊˈkəʊs] *a* hazillashadigan, hazilkash, hazil tariqasida aytilgan.
jocosity [dʒəʊˈkɔsəti] *n* hazilkashlik.
jocular [ˈdʒɔkjʊlə] *a* hazillashadigan, quvnoq, xushchaqchaq, vaqtchog‘, xursand.
jocularity [ˌdʒɔkjʊˈlærəti] *n* 1) hazil; 2) vaqtchog‘lik, xursandlik, quvnoqlik, xushchaqchaqlik.
jocund [ˈdʒɔkʌnd] *a* shod, xursand, xushchaqchaq, quvnoq.
jocundity [dʒəˈkʌndəti] *n* quvnoqlik, xushchaqchaqlik, shodmonlik.
jodhpurs [ˈdʒɔdpɜ:z] *n pl* ot minish uchun kiyiladigan shim.
Joe Blow [ˈdʒəʊˈbləʊ] *n amer. harb.* askar.
joey [dʒəʊi] *n* hayvonlarning yangi tug‘ilgan, onasidan ajralmagan bolasi, kenguruning bolasi.
jog [dʒɔɡ] *n* turtish, itarish, silkitish, siltash.
joggle [ˈdʒɔɡl] *v* itarmoq, turtmoq, silkitmoq.
joggly [ˈdʒɔɡli] *a* notekis, egri-bugri, qiyshiq (*hushnixat haqida*).
jogtrot [ˈdʒɔɡtrɒt] *n* mayda qadamlab chopish.
John [dʒɔn] *n so‘zl.* hojatxona.
John Collins [ˌdʒɔnˈkɒlɪnz] *n* limon va shakar qo‘shilgan araq.
johnny [ˈdʒɔni] *n* 1) o‘spirin, yigitcha; 2) olifta, kiyimga zeb beradigan odam.
johnny-cake [ˈdʒɔnɪkeɪk] *n* yopgan non, obinon, kulcha.
Johnny-jump-up [ˌdʒɔniˈdʒʌmpʌp] *n* Amerika o‘rmon binafshasi.
Johnny Raw [ˌdʒɔniˈrɔ:] *n* yangi odam, endigina kelgan odam.
join [dʒɔɪn] **1.** *v* qo‘shilish; **2.** *v* qo‘shilmoq.
joinder [ˈdʒɔɪndə] *n* ittifoq, birlashma, uyushma; birlashish.
joiner [ˈdʒɔɪnə] *n* duradgor.
joint [dʒɔɪnt] *a* qo‘shma, birlashgan; ~ **venture** qo‘shma korxon.
jointer [ˈdʒɔɪntə] *n tex.* katta randa, taxta randa.
jointly [ˈdʒɔɪntli] *adv* birga, birgalikda, birgalashib.
joint-stock [ˈdʒɔɪntstɔk] *n* aksiyali; aksiyadorlik, hissadorlik.
joint-stock company [ˌdʒɔɪntˈstɔk,kʌmpəni] *n* aksiyadorlar jamiyati.
joist [dʒɔɪst] *n* 1) brus (*chorqirra yoki boshqa shakldagi yog‘och, temir va h.k.*); 2) to‘sin.

- joke** [dʒəʊk] **1.** *n* hazil, latifa; **2.** *v* hazillashmoq.
- joker** [ˈdʒəʊkə] *n* hazilkash, qiziqchi, masxaraboz.
- joky** [ˈdʒəʊkɪ] *a* kuldiradigan, qiziqchilik uchun aytilgan.
- jollier** [ˈdʒɔɪlɪə] *n amer.* xushchaqchaq odam, hazilkash odam, qiziqchi, kuldiruvchi odam.
- jollification** [dʒɔɪlɪfɪˈkeɪʃn] *n* xursand qilish, vaqtini chogʻ qilish.
- jollify** [ˈdʒɔɪləfaɪ] *v* vaqtchogʻlik qilmoq, vaqtini chogʻ qilmoq.
- jolly** [ˈdʒɔɪli] *a* shod, xurram. quvnoq, xursand, xushchaqchaq.
- jolt** [dʒɔʊlt] **1.** *n* turtki; zarba; **2.** *v* turtmoq, zarba bermoq.
- jolthead** [ˈdʒɔʊltəhed] *n* ahmoq, tentak, nodon kishi.
- jolty** [ˈdʒɔʊltɪ] *a* silkitadigan, qoqadigan, notekis, oʻnqir-choʻnqir.
- Jonah** [ˈdʒəʊnə] **1)** baxti yoʻq odam, baxtsiz odam; **2)** baxtsizlik keltiradigan kishi.
- jonquil** [ˈdʒɔŋkwɪl] *n* 1) nargis gul; **2)** sargʻish rang, malla rang.
- jorum** [ˈdʒɔːrəm] *n* kosa, qadah, jom.
- josh** [dʒɔʃ] *n* 1) muloyim hazil; **2)** aldash, laqillatish, aldoqchilik.
- joskin** [ˈdʒɔskɪn] *n* 1) qishloqda oʻsgan odam, sodda odam; **2)** *sl* madaniyatsiz (tarbiya koʻrmagan) kishi.
- joss** [dʒɔs] *n* tumor.
- josses** [ˈdʒɔsə] *n* pop, ruhoni.
- joss-house** [ˈdʒɔshaus] *n* majusiylar ibodatxonasi, kichkina butxona.
- jostle** [ˈdʒɔsl] *n* turtish, itarish, urish, toʻqnashish.
- jot** [dʒɔt] **1.** *n* juda oz miqdor; **2.** *v* qisqa qilib yozmoq.
- jotter** [ˈdʒɔtə] *n* bloknot, yon daftarcha, yozuv daftari.
- jotting** [ˈdʒɔtɪŋ] **1.** *pres. p.* **jot** **2.** *dan;* **2.** *n* 1) esdalik; **2)** qisqacha yozuv.
- joule** [dʒuːl] *n el.* joule (*elektr toki ishining oʻlchov birligi*).
- jounce** [dʒaʊns] *v* urilmoq, qoqilmoq, urib olmoq, qoqilib ketmoq.
- jour** [dʒɔː] *n* malakali yollanma ishchi.
- journal** [ˈdʒɔːnl] *n* 1) kundalik; **2)** oynoma, jurnal; **3)** roʻznoma, gazeta.
- journal-box** [ˈdʒɔːnlbɒks] *n tem.* yoʻl. buksa (*vagon, lokomotiv gʻildiragining gapchagi*).
- journalese** [ˌdʒɔːnəˈliːz] *n* gazeta qolipi.
- journalism** [ˈdʒɔːnəˌlɪzəm] *n* jurnalistika, jurnalistika kasbi.
- journalist** [ˈdʒɔːnəlɪst] *n* jurnalist, muxbir.
- journalistic** [ˌdʒɔːnəˈlɪstɪk] *n* jurnalga oid, jurnal uchun belgilangan, jurnalda bosilgan.
- journalize** [ˈdʒɔːnəlaɪz] *n* jurnalga yozib qoʻymoq (kiritmoq).
- journey** [ˈdʒɔːnɪ] *n* sayohat, safar; **a five days** – besh kunlik sayohat.
- journeyman** [ˈdʒɔːnɪmən] *n* ixtisosli ishchi; malakali ishchi.
- joyial** [ˈdʒɔɪvɪəl] *a* 1) shod, xursand; **2)** odamga el boʻladigan, kirishimli, dilkash.
- joyiality** [ˌdʒɔɪvɪˈælətɪ] *n* 1) vaqtchogʻlik, xursandlik, quvnoqlik; **2)** odamga el boʻlish, kirishimlilik, dilkashlik.
- jowl** [dʒɔʊl] *n* jagʻ, jagʻ suyagi.
- jowly** [ˈdʒɔʊli] *a* tumshugʻi katta, qalin tumshuqli; tumshuqdor.
- joy** [dʒɔɪ] **1.** *n* shodlik, huzur, quvonch, sevinch, shod-xurramlik, xursandlik; **2.** *v* xursand (shod) boʻlmoq, sevinmoq, quvonmoq.
- joyful** [ˈdʒɔɪfl] *a* 1) xursand, quvnoq, shod; **2)** baxtli, omadli, baxtiyor, iqboli baland.
- joyless** [ˈdʒɔɪləs] *a* gʻamgin, qaygʻuli, gʻam-hasratli, huzur-halovatsiz.
- joyous** [ˈdʒɔɪəs] = **joyful.**
- joy-ride** [ˈdʒɔɪraɪd] *n soʻzl.* mashina *yoki* samolyot orqali qiladigan koʻngilochar sayr-tomosha.
- joystick** [ˈdʒɔɪstɪk] *n soʻzl.* (*samolyot, avtomobil, oʻyin avtomati va b. larning*) boshqarish tutqichi.
- jubilation** [ˈdʒuːbɪləʃn] *n* shodlik, shod-xurramlik.
- jubilate** [ˈdʒuːbɪlət] *a* shodiyona, tantanali, tantanavor, tantanani ifodalaydigan.
- jubilate** [ˌdʒuːbɪˈleɪtɪ] **1.** *n* shodlik, shod xurramlik; **2.** *v* tantana qilmoq, bayram qilmoq.
- jubilation** [ˌdʒuːbɪˈleɪʃn] *n* shodlik, shodiyona.
- jubilee** [ˈdʒuːbiːliː] *n* 1) tantanali bayram; **2)** yubiley.
- Judaic** [dʒuːdeɪk] *a* yahudiy diniga va yahudiy-larga oid.
- Judaism** [ˈdʒuːdeɪzəm] *n* iudaizm, yahudilar dini.
- Judas-coloured** [ˈdʒuːdəsˌkələd] *a* malla, qizgʻish.
- judge** [dʒʌdʒ] **1.** *n* 1) sudya; **2)** hakam; **2.** *v* 1) hakamlilik qilmoq; **2)** sud qilmoq, hukm chiqarmoq.
- judgematic(al)** [ˌdʒʌdʒˈmætɪk(əl)] *a soʻzl.* bamaʼni, andishali, mulohazali, oʻylab (aql bilan) ish qiladigan.
- judgement** [ˈdʒʌdʒmənt] *n* 1) *yur.* hukm, sud qarori; **2)** tanqid; **3)** fikr.
- Judgement-Day** [ˈdʒʌdʒməntdeɪ] *n din.* qiyomat, qiyomat qoyim, mahshar kuni.
- judgement-seat** [ˈdʒʌdʒməntsiːt] *n* 1) sud joyi, sud oʻmi; **2)** tribunal.
- judgment** [ˈdʒʌdʒmənt] = **judgement.**
- judicature** [ˈdʒuːdɪkətʃə] *n* 1) sud (organlari) tuzilishi; **2)** sud.
- judicial** [dʒuːˈdɪʃl] *a* sudga, sudyalarga (hakamlarga) oid.
- judicious** [dʒuːˈdɪʃəs] *a* bamaʼni, mulohazali, sogʻlom fikrli.
- judo** [ˈdʒuːdəʊ] *n sport.* dzyudo (*yapon kurashi*).
- Judy** [ˈdʒuːdɪ] *n* qoʻgʻirchoq teatridagi ayol qahramon.

jug I [dʒʌg] *n* ko'za, kuvacha; **milk** ~ sut uchun ko'za.
jug II [dʒʌg] *n* (*bulbul va b.*) sayrashi.
jugate [ˈdʒu:ɡɪt] *a bot.* juft, qo'sh, qo'shaloq, qirrali (*barglar va b.*).
jugful [ˈdʒʌɡfʊl] *n* bir ko'za, bir kuvacha (*nimadir*).
jugged [dʒʌɡd] *a* tishli, dandanali.
juggles [ˈdʒʌɡlɪz] *n so'zl.* jinni, ahmoq, tentak, esi past odam.
juggle [ˈdʒʌɡl] **1.** *v* 1) fokus ko'rsatmoq; 2) aldamoq, firibgarlik qilmoq; **2.** *n* fokus, yolg'on, nayrang.
juggler [ˈdʒʌɡlə] *n* 1) fokuschi, ko'zbo'yamachi; 2) muttaham, firibgar, aldoqchi.
jugglery [ˈdʒʌɡlɪəri] *n* 1) soxtalashtirish; 2) aldash, tovlash.
jug-handled [ˈdʒʌg,hændld] *a amer.* 1) bir tomonlama; 2) nohaq, adolatsiz.
Jugoslavian [ˌju:ɡəʊˈslɑ:vɪən] *n* Yugoslaviya fuqarosi, yugoslavlar, yugoslaviyaliklar.
jugular [ˈdʒʌɡjʊlə] *a anat.* bo'yinga oid; ~ **vein** bo'yinturuq venalar, ko'k tomirlar (*bosh va yuzdan yurakka boradigan qon tomirlar*).
jugulate [ˈdʒʌɡjʊleɪt] *v* bo'g'ib o'ldirmoq.
juice [dʒu:s] *n* sharbat, shira; **orange** ~ apelsin sharbati.
juicer [dʒu:sə] *n* sharbatsiqqich (*shirasini, suvini siqib oladigan asbob yoki mashina*).
juicy [ˈdʒu:si] *a* sersuv, shirali.
ju-jitsu [dʒuˈdʒitsu:] *n* jiu-jitsu (*yaponcha kurash turi*).
ju-ju [ˈdʒu:dʒu:] *n* afsun, sehr, jodu, tilsim, duo, kuf-suf.
juke [dʒu:k] *n amer.* bahosi (narxi) past, arzon restoran.
julep [ˈdʒu:li:p] *n* sirop, sharbat, qiyom.
Julian [ˈdʒu:li:ən] *a* juliy kalendari (*miloddan avvalgi 46-yilda Rim imperatori Yuliy Sezar tomonidan ta'sis qilingan kalendar*).
July [dʒuˈlaɪ] **1.** *n* iyul; **2.** *attr.* iyul oyida bo'ladigan.
jumble [ˈdʒʌmbl] **1.** *n* chalkashlik, chigallik, chatoqlik, fikrlashdagi chalkashlik; **2.** *v* aralashtirmoq, chalkashtirmoq.
jumble-sale [ˈdʒʌmblseɪl] *n* narsalar arzon narxda sotiladigan bozor.
jumble-shop [ˈdʒʌmblʃɒp] *n* turli xildagi arzon mollar sotiladigan do'kon.
jumbo [ˈdʒʌmbəʊ] *n* (*pl -os [-əuz]*) katta qo'pol odam; yirik hayvon.
jump [dʒʌmp] **1.** *n* 1) sakrash, irg'ish; ~ **high** tepaga sakrash; 2) to'satdan suvning ko'tarilishi; **from the (very) first** ~ boshidan boshlab; **on (upon) the** ~ juda band; **2.** *v* 1) sakramoq, hakka-lamoq; **to** ~ **high well** tepaga yaxshi sakramoq; **to** ~ **for** joy xursandchilikdan sakramoq; 2) ko'tarilmoq, sakramoq (*narx to'g'arisida*); 3) urishmoq, koyimoq, ayblamoq (*kimnidir*).

jumped-up [ˌdʒʌmpɪdʌp] *a* o'ziga ishongan, o'zini katta oladigan.
 jumper [ˈdʒʌmpə] *n* 1) sakrovchi (*sportchi haqida*); 2) jemper.
jumping-off ground [ˌdʒʌmpɪŋˈɔfɡraʊnd] *n* *harb.* plastdarm (*harbiy operatsiyaga tayyorgarlik ko'riladigan maydon*).
jumping-off place [ˌdʒʌmpɪŋˈɔfplɛɪs] *n* *harb.* hujum qilish uchun dastlabki holat.
jumping-rope [ˈdʒʌmpɪŋrəʊp] *n amer.* sakramachoq o'ynaydigan arg'amchi.
jumpy [ˈdʒʌmpɪ] *a* nervga (asabga) oid; asabiy, asabi buzuq.
junction [ˈdʒʌŋkʃən] *n* qo'shilish, birikish.
junction board [ˈdʒʌŋkʃənbɔ:d] *n* kommutator (*telefon apparatlarini uzib-ulab turadigan qurilma*).
junction [ˈdʒʌŋkʃən] *n* ulash, payvandlab ulash.
June [dʒu:n] **1.** *n* iyun; **2.** *attr.* iyun oyiga oid; iyunda bo'ladigan.
jugle [ˈdʒʌŋɡl] *n* 1) chakalakzor, changalzor; 2) qalin o'rmon.
junior [ˈdʒu:nɪə] *n* yoshi kichik, yoshroq; yosh, kenja, eng kichik; **to be smb.'s** ~ kimdandir yosh bo'lmoq.
juniper [ˈdʒu:nɪpə] *n* archa, qora archa.
junk I [dʒʌŋk] *n* 1) eski-tuski, lash-lush; 2) tashlandiq, chiqindi.
junk II [dʒʌŋk] *n* jonka (*xitoycha yelkanli kema*).
junk III [dʒʌŋk] *v* bo'lak-bo'laklarga kesmoq (bo'lmoq).
junker [ˈdʒʌŋkə] *n nem.* yunker (*inqilobdan oldingi Rossiyada: harbiy maktab o'quvchisi*).
junket [ˈdʒʌŋkɪt] *amer.* **1.** *n* katta (tantanali) ziyofat, bazm; **2.** *v* bazm qurmoq, ziyofat uyushtirmoq.
junkman [ˈdʒʌŋkmən] *n amer.* eskichi, eskifurush.
junky [ˈdʒʌŋkɪ] *n so'zl.* bangi (*giyohvand, nashavand odam*).
junta [ˈdʒʌntə] *n* xunta (*harbiy reaksiyon terroristik guruh*).
junto [ˈdʒʌntəʊ] *n* yomon niyatli to'da, niyati buzuq kishilar.
Jupiter [ˈdʒu:pɪtə] *n* Yupiter (*yorituvchi kuchli elektr asbob*).
jura [ˈdʒu:rə] *pl jus dan.*
Jurassic [dʒuˈræɪsɪk] *a geol.* yura davri (*mezozoy erasining ikkinchi davri*).
juratory [ˈdʒu:rətɔəri] *n* ont ichilgan, qasamyod qilingan.
judicial [dʒuˈrɪdɪkəl] *a* yuridik; huquqiy; ~ **person** yuridik shaxs.
jurisconsult [ˌdʒʊəɪs ˈkɒnsʌlt] *n* huquqshunos.
jurisdiction [ˌdʒʊəɪsɪˈdɪkʃən] *n* sud qilish huquqi; biror sud idorasiga oidlik.
jurisprudence [ˌdʒʊəɪs ˈpru:dns] *n* huquqshunoslik, qonunshunoslik; **medical** ~ sud tibbiyoti.
jurisprudent [ˌdʒʊəɪs ˈpru:dnt] **1.** *n* yurist, huquqshunos; **2.** *a* qonunni yaxshi biladigan.

jurist [ˈdʒuəriːst] *n* yurist, huquqshunos.
juristic(al) [dʒuəˈrɪstɪk(əl)] *a* qonunga muvofiq, qonunga asoslangan, qonun asosidagi.
juror [ˈdʒuərə] *n* 1) hakamlar hay'ati; 2) yoqlovchi, advokat.
jury [ˈdʒuəri] *a* hay'at a'zolari.
jus [dʒʌs] *n* qonun, qonunlar majmuasi.
jussive [ˈdʒʌsɪv] *a gram.* buyruq tarzidagi.
just [dʒʌst] **1.** *adv* 1) xuddi shunday; ~ **the man** xuddi shunday odam; 2) zo'rg'a; 3) hozirgina; **I've ~ come** hozirgina kelib turibman; **2.** *a* odilona, adolatli.
justice [ˈdʒʌstɪs] *n* 1) adolat, haqqoniyat, to'g'rilik; 2) adolatlilik, haqqoniylik, to'g'rilik.
justiceship [ˈdʒʌstɪsʃɪp] *n* sudyalik unvoni, mansabi.
justiciable [dʒʌˈstɪʃɪəbl] *n* sudda ko'rilishga tegishli bo'lgan.
justification [ˌdʒʌstɪfɪˈkeɪʃn] *n* kechirish, gunohidan o'tish, avf etish.

Kk

K, k [keɪ] *n* ingliz tili alifbosining o'n birinchi harfi.
kadi [ˈkɑːdɪ] *n arab.* qozi, shariat qozisi.
kaftan [ˈkæftæn] *fors. n* 1) kaftan, chakmon; 2) sharqona uzun to'n (chopon).
kail [keɪl] = **kale**.
kailyard [ˈkeɪljɑːd] = **kaleyard**.
kale [keɪl] *n* 1) karam sho'rva; 2) ovqatga solinadigan.
kaleidoscope [kəˈlaɪdəskəʊp] *n* 1) tez-tez o'zgarish; 2) kaleydoskop.
kaleidoscopic(al) [kəˈlaɪdəˈskɒpɪk(əl)] *a* tez-tez o'zgaradigan, kaleydoskopik.
kalends [ˈkælendz] *n* o'ying birinchi kuni, oy boshi (*qadimgi Rimda*).
kaleyard [ˈkeɪljɑːd] *n short.* poliz, poliz ekinlari (sabzavot) ekilgan yer.
kali [ˈkæli] *n kim.* kaliy oksidi.
Kalmuck [ˈkælmʌk] **1.** *n* qalmoqlar (*Qalmog'istonning mahalliy aholisi*); 2) qalmoq tili; **2.** *a* qalmoqlar va qalmoqliklarga oid.
Kalmyk [ˈkælmɪk] = **Kalmuck**.
kanaka [ˈkænəkə] *n* kanak (*Tinch okeani orollarida yashovchi xalq*).
kangaroo [ˌkæŋɡəˈruː] *n zool.* kenguru.
Kantian [ˈkæntɪən] *n filos.* 1) kantchilarga oid; 2) Kant falsafasi ruhidagi.
Kantianism [ˈkæntɪənɪzəm] *n filos.* kantchilik (*Kant va uning izdoshlarining idealistik falsa-fasi*).
kaoliang [ˌkɑːəʊlɪˈæŋ] *n* Xitoy yoki Manchjuriya qo'nog'i.
kaolin [ˈkeəʊlɪn] *n* chinnigil, oqgil (*chinni ishlab chiqarish va boshqa sanoat tarmoqlarida ishlatiladigan o'tga chidamli cho'ziluvchan oq loy*).

justificative [ˈdʒʌstɪfɪkeɪtɪv] *a* oqalaydigan, to'g'riligini tasdiqlaydigan, aybsizligini ko'rsatadigan.
justificatory [ˈdʒʌstɪfɪkeɪtəri] *a* to'g'riligini (haqqonligini) tasdiqlaydigan, aybsizligini ko'rsatadigan.
justify [ˈdʒʌstɪfaɪ] *v* o'zini oqlamoq, aybsizligini isbotlamoq.
justly [ˈdʒʌstli] *adv* haqqoniy ravishda, odilona; to'g'ri.
jut [dʒʌt] *n* turtib chiqqan joy, do'ng.
jute [dʒuːt] *n bot.* jut (*tola beradigan o'simlik*).
juvenescence [ˌdʒuːvɪˈnesns] *n* yoshlik.
juvenile [ˈdʒuːvənəl] **1.** *a* o'spirin, balog'atga yetmagan; **2.** 1) o'smir, o'spirin; 2) *pl so'zl.* bolalar kitobi; 3) yosh qahramonlar rolini o'ynaydigan aktyor; 4) yoshlik; ~ **years** yoshlik yillari.
juvenility [ˌdʒuːvəˈnɪləti] *n* yoshlik, o'spirinlik.
juvey [ˈdʒuːvi] = **juvenile**.
juxtapose [ˌdʒʌkstəˈpəʊz] *v* solishtirmoq, taqqoslamoq, qiyoslab ko'rmoq.
juxtaposition [ˌdʒʌkstəpəˈzɪʃn] *n* solishtirish, taqqoslab ko'rish.

kapellmeister [kəˈpeɪlˌmaɪstə] *n nem.* dirijor.
kappa [ˈkæpə] *n* kappa (*greek alifbosining o'ninchi harfi*).
kaput [kəˈput] *a nem.* yo'qotib tashlangan, yo'q qilingan; muvaffaqiyatsizlikka uchragan.
Karaite [ˈkeərəɪt] *n* karaimlar (*Ukraina, Litva va Polshada yashovchi, turkiy tilda so'zlashuvchi kichik bir elat*).
Kara-Kalpak [ˌkɑːrəˈkɑːlpɑːk] **1.** *n* 1) qoraqalpoq, qoraqalpoq ayoli; 2) qoraqalpoq tili; **2.** *a* qoraqalpoqlarga oid.
karate [kəˈrɑːti] *n yap.* karate.
kartell [kɑːˈtel] *n* kartel (*kapitalistik birlashma turi*).
kathode [ˈkæθəʊd] *n fiz.* katod (*manfiy elektrod*).
katydid [ˈkættɪdɪd] *n* yashil chigirtka.
kayak [ˈkaɪæk] *n* 1) qayiq (*eskimoslarning usti berk qayig'i*); 2) baydarka (*ensiz, yengil sport qayig'i*).
kayo [ˌkeɪˈəʊ] *n sport. jarg.* nokaut.
Kazakh [kəˈzæk] *n* 1) qozoqlar, qozoq xalqi; 2) qozoq tili.
kebab [kiːˈbæb] *n* kabob; ~ **house** kabobxonona.
keck [kek] *v* 1) kekirmoq; 2) yegan narsani qayt qilib tashlash uchun harakat qilmoq.
kedgeree [ˌkedʒəˈriː] *n* guruch, tuxum va piyozdan tayyorlangan hind taomi.
keek [kiːk] **1.** *n* ayg'oqchi, josus; **2.** *v* (*biror narsani bilish uchun*) yashirincha qaramoq, bildirmasdan kuzatmoq.
keeker [ˈkiːkə] *n* josus, ayg'oqchi.
keeking-glass [ˈkiːkɪŋɡlɑːs] *n* so'zl. oyna, ko'zgu.

- keel** [ki:l] *n deng.* kema ning tubini mahkam tutib turuvchi uzunasiga joylashgan asosiy balkasi, pushtagi.
- keen** [ki:n] **1. a** 1) o'tkir; ~ **knife** o'tkir pichoq; 2) qattiq; **a** ~ **wind** qattiq shamol; **2. n** yig'i, yig'i-sig'i; **3. v** aytib yig'lamoq.
- keen-witted** [ki:n'wɪtɪd] *a* tez tushunadigan, fahmli, idrokli, zehni o'tkir.
- keep** [ki:p] **1. v (kept)** 1) ushlamoq, saqlamoq; **to** ~ **money in the savings bank** omonat kassada pul saqlamoq; 2) asramoq, qoldirmoq; **to** ~ **old clothes** eski kiyimlarini asramoq; 3) qolmoq (*biror joyda*); **to** ~ **at home** uyida qolmoq; 4) esda saqlamoq; **2. n** oziq-ovqat.
- keeper** ['ki:pə] **n** 1) xo'jayin; 2) saqlovchi.
- keeping** ['ki:pɪŋ] *n* saqlash, asrash; qo'riqlab turish.
- keeping-room** ['ki:pɪŋrʊm] *n* mehmonxona; umumiy xona.
- keepsake** ['ki:pseɪk] *n* esdalik uchun sovg'a.
- kef** [kef] *arab.* *n* kayf, yallo, mastlik holati.
- kefir** ['kefə] *n* kefir (*maxsus ivitilgan qatiq*).
- keg** [keg] *n* kichkina bochka, bochkacha.
- keif** [keif] = kef.
- kelp** [kelp] *n* laminariya (*yod olinadigan suv o'simligi*).
- kelpie, kelpy** ['kelpɪ] *n shotl. afs.* yovuz suv alvas-tisi, suvdagi jin.
- Kelt** [kelt] *n* keltlar (*G'arbiy Yevropada yashay-digan qabilalar*).
- Keltic** ['keltɪk] *a* keltlarga oid.
- ken** [ken] *n* saviya, bilim darajasi.
- kennel** ['kenl] *n* 1) itning uyhasi; 2) tor uy, hujra; katalak.
- kentledge** ['kentlɪdʒ] *n* doimiy posangi yuk (*kema, aerostat va h.k.*).
- kepi** ['kepi] *n* kepi (*1. XIX asrda rus va fransuz armiyasida rasim bo'lgan formal bosh kiyim; 2. koziyokli yumshoq bosh kiyim*).
- kept** [kept] **1. past., p. p.** **keep** **1. dan;** **2. a** : ~ **woman** o'ynash.
- keratin** ['kerətɪn] *n biol.* keratin (*soch, pat va shoxda bo'ladigan oltingugurt moddasiga boy oqsil modda*).
- keratoid** ['kerətɔɪd] *a* shoxga oid; shoxdan qilingan.
- kerb** [kə:b] *n* yo'l cheti.
- kerchief** ['kə:tʃɪf] *n* ro'mol (*boshga kiyish uchun*).
- kerf** [kə:f] *n* kertma belgi (*daraxtda*).
- kernel** ['kə:nl] *n* don, urug', mag'iz.
- kerosene** ['kerəsi:n] *n* kerosin.
- kerseymere** ['kə:zi:mə] *n* kashmiri (*yung gazlama*).
- kestrel** ['kestrəl] *n* miqqiy (*qirg'iyalar oilasiga kiradigan yirtqich qush*).
- ketchup** ['ketʃəp] *n* ketchup (*achchiq pomidor qaylasi*).
- kettle** ['kettl] *n* metall choynak.
- kettle-drum** ['ketldrʌm] *n* nog'ora, qo'shnog'ora.
- key** [ki:] **1. n** 1) kalit; 2) jumboqning yechimi; **2. v** qulflamoq.
- keyboard** ['ki:bɔ:d] *n* klaviatura.
- keyhole** ['ki:həʊl] *n* qulf teshigi.
- keyman** ['ki:mæn] *n* tajribali mutaxassis.
- key money** ['ki:mʌni] *n* qo'shimcha haq.
- key-note** ['ki:nəʊt] *n mus.* 1) ohangdoshlik, tovushlarning uyg'unligi (sozlanishi); 2) asosiy g'oya.
- keynoter** ['ki:nəʊtə] *n amer.* asosiy ma'ruzachi.
- keystone** ['ki:stəʊn] *n* qasr (bino) toshi; poydevor tosh.
- khaki** ['kɑ:kɪ] **1. a** yashil, mosh rang; **2. n** mosh rang pishiq gazlama va shu gazlamadan tikilgan kiyim.
- khalifa** [kɑ:'li:fə] *n* xalifa.
- khalifate** ['kæli:feɪt] *n* xalifalik, xalifalik hokimiyati.
- khamzin** ['kæmsɪn] *n arab.* xamsin, garmisel (*Afrikaning kuchli issiq shamoli*).
- khan** [kɑ:n] *n turk.* xon.
- khanate** ['kɑ:nət] *n turk.* xonlik, xonlik saltanati.
- kibble** ['kɪbl] *n* pastak yog'och paqir, pastak yog'och idish.
- kibbler** ['kɪblə] *n* maydalash mashinasi.
- kibitzer** ['kɪbɪtsə] *n amer. so'zl.* so'ramagan maslahatlarni beraverib jonga tegadigan odam.
- kibosh** ['kaɪbɔʃ] *n sl* 1) bema'ni (*bo'lmag'ur, bekor*) gap, safsata; behuda gaplar; 2) ahamiyati yo'q, ahamiyatsiz (*arzim*) narsa.
- kick** [kɪk] **1. n** oyoq bilan tepish; **2. v** tepmoq.
- kicker** ['kɪkə] *n* tepag'on ot.
- kick-off** ['kɪkɔf] *n sport.* to'pni o'yinga kiritish (*markazdan*).
- kickshaw** ['kɪkʃɔ:] *n* 1) shirinlik; shiravor; 2) mayda-chuyda bezak.
- kick-up** ['kɪkʌp] *n* so'zl. shovqin, to'polon.
- kid** [kɪd] **1. n** 1) echki bolasi; 2) kichkintoy; **2. v** so'zl. aldamoq, chalg'itmoq.
- kiddle** ['kɪdl] *n* tizma qarmoq (*arqon, sim kabilariga tizib bog'langan qarmoqlardan iborat baliq ovlash asbobi, odatda suv oqimiga ko'ndalang qilib qoziqlarga bog'lab qo'yiladi*).
- kiddy** ['kɪdɪ] *n* so'zl. go'dak, bola.
- kid-glove** [kɪd'glʌv] *a* xushmuomala, yumshoq.
- kidnap** [kɪdnæp] *v* bola o'g'irlamoq.
- kidnapper** ['kɪdnæpə] *n* bola o'g'risi.
- kidney** ['kɪdni] *n anat.* buyrak.
- kidney bean** ['kɪdnɪbi:n] *n* loviya (*o'simligi va doni*).
- kid-skin** ['kɪdskɪn] *n* mayin teri.
- kief** [ki:f] = kef.
- kilderkin** ['kɪldəkɪn] *n* kichkina bochka, bochkacha.
- kill** [kɪl] **1. n** o'lja (*ovda*); **plentiful** ~ ko'p o'lja; **2. v** 1) o'ldirmoq; **to** ~ **a man** odam o'ldirmoq; 2) so'ymoq (*hayvonni*); 3) yo'q qilmoq, hujum

- qilmoq: ~ **off** yo'q qilmoq; ~ **out** umuman izini o'chirmoq.
- killer** [ˈkɪlə] *n* qotil.
- kill** [ˈkɪl] *v* pishirmoq, qizdirib ishlov berish (g'isht, ohak va b.).
- kill-time** [ˈkɪltaɪm] *n* bekorchi ish bilan shug'ullanish, vaqtni bekor o'tkazish.
- kilo** [ˈki:ləu] = **kilogram(me)**.
- kilogram(me)** [ˈkɪləgræm] *n* kilogramm.
- kilometer** [ˈkɪlə,mi:tə] = **kilometer**.
- kilometre** [ˈkɪlə,mi:tə] *n* kilometr.
- kilowatt** [ˈkɪləwɒt] *n* kilovatt.
- kilt** [kɪlt] *n* 1) kilt (*Shotland erkaklari yubkasi*); 2) qat-qat taxli yubka.
- kilter** [ˈkɪltə] *n* amer. tartib, saranjomlik, sarish-talik.
- kimono** [kɪˈmɒnəu] *n* yap. kimono (*yaponlar-ning ust kiyimi*).
- kin** [kɪn] *n* 1) qarindosh, avlod; 2) nasl, oila.
- kinchin** [ˈkɪntʃɪn] *n* sl go'dak, bola.
- kind** [kaɪnd] **1.** *n* nav, zot, tur, xil; **2.** *a* 1) mehribon, iltifotli; ~ **person** mehribon odam; 2) yuvosh (*hayvon*).
- kindergarten** [ˈkɪndə,ɡɑ:tɪn] *n* bolalar bog'chasi; ~ **teacher** tarbiyachi.
- kind-hearted** [ˌkaɪndˈhɑ:tɪd] *a* ko'ngli yumshoq, mehribon.
- kindle** [ˈkɪndl] *v* yoqmoq, yondirmoq.
- kindliness** [ˈkaɪndlɪnəs] *n* yaxshilik, mehribonlik.
- kindling** [ˈkɪndlɪŋ] **1.** *pres. p.* **kindle** *dan*; **2.** *n* yondirish, yoqish.
- kindling-wood** [ˈkɪndlɪŋwud] *n* tutantiriq.
- kindly** [ˈkaɪndli] **1)** yaxshi, marhamatli; ~ **heart** ochiq ko'ngil; **2)** yoqimli.
- kindness** [ˈkaɪndnis] *n* mehribonlik, yaxshilik, nazokat.
- kindred** [ˈkɪndrɪd] **1.** *n* 1) qon-qarindoshchilik, jigarchilik; qardoshlik; 2) qarindosh, urug', xesh-aqrabo; **2.** *a* 1) qarindoshlikka oid, qarindoshlik; 2) o'xshash, yaqin, bir-biriga bog'langan.
- kinematic** [ˌkɪnɪˈmætrɪk] *a* fiz. kinematik.
- kinematics** [ˌkɪnɪˈmætrɪks] *n* *pl* (**sing** *dek ishlatiladi*) kinematika (*nazariy mexanikaning jismlar harakatini yuzaga keltiruvchi kuchlardan qat'i nazar o'rganadigan bo'limi*).
- kinescope** [ˈkɪnəskəʊp] *n* kineskop (*televizioning tasvir qabul qilib oladigan va ko'rsatadigan elektron-nur trubkasi*).
- kinetic** [kaɪˈnetɪk] *a* kinetikaga oid.
- kinetics** [kaɪˈnetɪks] *n* kinetika (*nazariy mexanikaning dinamika va statikani o'z ichiga olgan bo'limi*).
- king** [kɪŋ] **1.** *n* qirol, podsho; **2.** *v* boshqarmoq.
- kingbolt** [ˈkɪŋbɔʊlt] *n* o'q.
- kingdom** [ˈkɪŋdəm] *n* 1) qirol, podsho; 2) podsholik.
- kingfisher** [ˈkɪŋfɪʃə] *n* ko'ktorg'ay.
- kingly** [ˈkɪŋli] *a* qirolga oid.
- kingmaker** [ˈkɪŋ,meɪkə] *n* amer. oliy mansabga tayinlovchi shaxs.
- king's evil** [ˌkɪŋzˈɪ:vl] *n* so'zl. shirincha (*bolalar kasalligi*).
- kingship** [ˈkɪŋʃɪp] *n* podsholik, qirollik.
- king-size(d)** [ˈkɪŋsaɪz(d)] *n* juda katta.
- Kingston valve** [ˈkɪŋstənˌvælv] *n* kinston (*kemanning ostki qismidagi suv kiritiladigan qopqog'i*).
- kink** [kɪŋk] **1.** *n* 1) bukilgan (qayrilgan) joy; 2) tugilgan (bog'langan) joy; **2.** *v* tugmoq, bog'lammoq.
- kinsfolk** [ˈkɪnzfəʊk] *n* qarindoshlar, urug'lar.
- kinship** [ˈkɪnʃɪp] *n* qarindoshchilik, qardoshlik.
- kinsman** [ˈkɪnzməŋ] *n* qarindosh, urug', qavm-qarindosh.
- kinswoman** [ˈkɪnz,wʊməŋ] *n* qarindosh (*ayol*).
- kiosk** [ˈki:ɒsk] *n* 1) do'koncha, kioska; 2) telefon budkasi.
- kip I** [kɪp] *n* kichkina hayvonning terisi.
- kip II** [kɪp] **1.** *n* yotadigan, uxlaydigan joy; **2.** *v* jarg. uxlammoq.
- kip III** [kɪp] *n* amer. 1000 funt (=453,59 kg).
- kipper** [ˈkɪpə] *n* dudlangan baliq.
- Kirghiz** [ˈkə:ɡɪz] *n* qirg'iz, qirg'iz ayoli.
- kirk** [kɑ:k] *n* *shotl.* butxona, cherkov.
- kirn** [kə:n] *n* hosil bayrami.
- kismet** [ˈkɪzmet] *n* arab. taqdir, qismat.
- kiss** [kɪs] **1.** *n* o'pich, bo'sa; **2.** *v* o'pmmoq, bo'sa olmoq.
- kiss-curl** [ˈkɪskə:ɪ] *n* jingalak soch.
- kisser** [ˈkɪsə] *n* o'puvchi kishi.
- kiss-in-the-ring** [ˌkɪsɪndəˈrɪŋ] *n* qadimdan qolgan o'yin (*quvib ushlagan kishi ushlagan kishisini o'padi*).
- kiss-me-quick** [ˌkɪsmɪˈkwɪk] *n* kapalakgul, farang binafsha.
- kit I** [kɪt] *n* 1) sarmo, kiyim-bosh; 2) safar xalta, yuk xalta; 3) bir sidra asbob, asboblar to'plami.
- kit II** [kɪt] *n* (**kitten** so'zining qisqartmasi) mushuk bolasi.
- kit-bag** [ˈkɪtbæg] *n* yuk xalta, safar xalta.
- kit-cat** [ˈkɪtkæt] *n* belgacha olingan portret dan ham bir qancha kichikroq bo'lgan rasm (*portret*).
- kitchen** [ˈkɪtʃɪn] **1.** *n* oshxona; **2.** *attr.* oshxonaga oid.
- kitchen-cabinet** [ˌkɪtʃɪnˈkæbɪnət] *n* oshxonadagi idish-tovoq javoni.
- kitchener** [ˈkɪtʃɪnə] *n* oshxona plitasi.
- kitchenette** [ˌkɪtʃɪˈnet] *n* o'choqboshi, kichkina oshxona.
- kitchen garden** [ˌkɪtʃɪnˈɡɑ:dn] *n* poliz, poliz ekinlari ekiladigan yer.
- kitchen herbs** [ˈkɪtʃɪnhɜ:bz] *n* xushbo'ylik, o'tkir hidlilik (*ko'kattarda*).

lability [leɪˈbɪləti] *n* boʻshlik, turgʻun emaslik, omonatlik, oʻzgaruvchanlik.

labor [ˈleɪbə] *n* 1) ish, mehnat; 2) ishchi kuchi, ishchi sinfi.

laboratory [ləˈbɔːrətɪ] *n* laboratoriya; ~ **test** laboratoriya tekshiruvi; ~ **assistant** laborant.

laborious [ləˈbɔːrɪəs] *a* 1) qiyin, ogʻir; 2) ishchan; 3) harakatchan.

labour [ˈleɪbə] *n* 1) mehnat, ish; 2) ishchi kuchi, ishchi sinfi.

Labour Day [ˈleɪbədəi] *n* amer. mehnat kuni (*sentabr oyining birinchi dushanbasi*).

laboured [ˈleɪbəd] *a* qiyin, ogʻir.

labourer [ˈleɪbərə] *n* tajribasiz ishchi.

Labour Exchange [ˈleɪbəks,tʃeɪndʒ] *n* mehnat birjasi.

labouring [ˈleɪbərɪŋ] *a* ishchi, mehnatkash.

Labourist [ˈleɪbərɪst] *n* leyborist (*leyboristlar partiyasining aʼzosi*).

Labourite [ˈleɪbərət] = **labourist**.

labour-market [ˈleɪbə,mɑːkɪt] *n* mehnat bozori.

Labour Party [ˈleɪbə,pɑːtɪ] *n* leyboristlar partiyasi (*Angliyada; oʻzini ishchilar partiyasi deb atovchi*).

labour-saving [ˈleɪbə,sɛvɪŋ] *a* ishlab chiqarish jarayonini (tejamlashtirish) ixchamlashtirish va takomillashtirishga oid.

labour union [ˈleɪbə,juːnən] *n* kasaba uyushmasi.

laburnum [ləˈbɜːnəm] *n* kutilmagan (osmondan tushgan) katta boʻylik.

labyrinth [ˈlæbərɪnθ] *n* chalkash yoʻl, yoʻlak, koʻcha va sh.k.

labyrinthine [ˌlæbərɪnθaɪn] *a* chigal, chuvalgan, chalkash-chulkash.

lac I [læk] *n* tabiiy lok.

lac II [læk] *hind. n* yuz ming (*rupiy*).

lace [leɪs] **1.** *n* bogʻich, uqa, jiyak; **2.** *v* bogʻlamoq; **to ~ up one's boots** botinka ipini bogʻlamoq.

lace-boots [ˈleɪsbuːts] *n pl* boʻgʻichli (bogʻichi bor) botinka.

Lacedaemonian [ˌlæsədəɪ məunɪən] *a* Sparta davlatiga oid.

lace paper [ˈleɪs,petpə] *n* burama toʻr naqshli (toʻr shaklida gul solingan) qogʻoz.

lace-pillow [ˈleɪs,pɪləu] *n* toʻr toʻqiladigan yostiq (taglik).

lacerate [ˈlæsəreɪt] *v* yirtmoq, uzmoq, yirtib (uzib) tashlamoq.

lacerated [ˈlæsəreɪtɪd] **1.** *p. p.* **lacerate** *dan*; **2.** *a* uzilgan, uzilib ketgan, yirtiq.

laceration [ˌlæsəˈreɪʃn] *n* uzish, buzish, uzilish, buzilish.

lace-ups [ˌleɪs ˈʌps] *n pl* bogʻichli botinka.

laches [ˈlætʃɪz] *n* behafsalalik, begʻamlilik, beparvolik.

lachrymal [ˈlækriməl] *a* koʻz yoshiga oid; ~ **gland** anat. koʻz yoshi bezlari.

lachrymatory [ˌlækriˈmətəri] *a* koʻzdan yosh oqizadigan (*gaz haqida*).

lachrymose [ˈlækriməʊs] *a* yigʻloqi, yigʻloq, ser-yigʻi.

lacing [ˈleɪsɪŋ] **1.** *pres. p.* **lace** **2.** *dan*; **2.** *n* 1) chiyratma ip, bogʻich; 2) bogʻichini bogʻlash.

lack [læk] **1.** *n* kamchilik, muhtojlik; ~ **of money** pulning kamligi, yetishmasligi; **2.** *v* muhtoj boʻlmoq, qiyinchilikka chidamoq; imkoniyatga ega boʻlmaslik; **to ~ courage** erkaklik gʻururi boʻlmaslik.

lackadaisical [ˌlækəˈdeɪzɪkəl] *a* toliqqan, ruhsiz, majolsiz.

lack-all [ˈlækɔːl] *n* bebaxt, badbaxt, nochor, hamma narsadan mahrum qilingan kishi.

lack-brain [ˈlækbreɪn] *n* esk. jinni, ahmoq, tentak, esi past.

lackey [ˈlækɪ] **1.** *n* 1) xizmatkor, malay; 2) *koʻch.* laganbardor; xushomadgoʻy; **2.** *v* xizmat qilmoq.

lacking [ˈlækɪŋ] **1.** *pres. p.* **lack** **2.** *dan*; **2.** *a* yetishmaydigan, kam, yoʻq.

lackland [ˈlæklənd] *a* yersiz, yeri yoʻq.

lacklustre [ˈlæk,lʌstə] *a* xira, nursiz, jozibasiz, rangsiz.

laconic [ləˈkɒnɪk] *a* 1) loʻnda qilib aytilgan; 2) kam soʻzli, qisqa va aniq, loʻnda.

laquer [ˈlækə] **1.** *n* lok; **2.** *v* loklamoq, lok surtmoq.

lacquey [ˈlækɪ] = **lackey**.

lactation [ˈlæk ˈteɪʃn] *n* 1) bolani emizish, koʻkrakdan sut berish; 2) sut kelishi.

lacteal [ˈlæktɪəl] *a* sutli, sersut, sut beradigan, sogʻiladigan, sogʻin.

lactescent [ˈlæk ˈtesənt] *a* sutga oʻxshagan, sutdek.

lactic [ˈlæktɪk] *a* kim. sutda boʻladigan, sutdan olinadigan, sut...

lactiferous [ˈlæk ˈtɪfərəs] *a* sut ajratuvchi oʻsimlik.

lactometer [ˈlæk ˈtɒmɪtə] *n* laktometr (*sutning soʻlishirma ogʻirligini oʻlchaydigan asbob*).

lactose [ˈlæktəʊs] *n* laktoza (*sut shakari*).

lacuna [ləˈkjuːnə] *n* boʻsh qolgan joy, ochiq joy, oraliq.

lacunae [ləˈkjuːniː] *pl* **lacuna** *dan*.

lacustrine [ləˈkʌstreɪn] *a* koʻlga oid; koʻlda boʻladigan, koʻl...

lacy [ˈleɪsi] *a* 1) toʻr toʻqishga oid, toʻr toʻqish; 2) toʻrdan qilingan, toʻrli.

lad [læd] *n* oʻspirin bola, oʻgʻil bola; **the ~s of the village** qishloq bolalari.

ladder [ˈlædə] *n* narvon, pogʻona.

laddie [ˈlædi] *n* shotl. bola, bolakay.

lade [leɪd] **1.** *n* ariq, kanal, daryoning quyilish joyi; **2.** *v* (**laded**; **laded**, **laden**) yuklamoq, ortmoq, joylamoq.

laden [ˈleɪdn] **1.** *p. p.* **lade** *dan*; **2.** *a* yukli, yuk ortilgan.

ladies [ˈleɪdɪz] *n* 1) *pl* **lady** *dan*; 2) *soʻzl.* ayollar hojatxonasi.

- ladies-in-waiting** [ˌleɪdɪzɪn ˈweɪtɪŋ] *pl* **lady-in-waiting** *dan*.
- ladies' man** [ˈleɪdɪz mæn] = **lady's man**.
- ladle** [ˈleɪdl] **1.** *n* cho'mich, yog'log'i; **2.** *v* botirib olmoq, suzib olmoq.
- lady** [ˈleɪdi] *n* xotin, ayol; xonim: ~ **secretary** ayol kotiba.
- lady-beetle** [ˈleɪdi, bi:tl] = **ladybird**.
- ladybird** [ˈleɪdɪbɜ:d] *n* xonqizi.
- lady-bug** [ˈleɪdɪbʌg] *amer.* **ladybird**.
- lady-chair** [ˈleɪdɪtʃeə] *n* o'tirg'ich, o'rindiq (*yaradorlarni tashiydigan*).
- lady-cow** [ˈleɪdɪkaʊ] = **ladybird**.
- Lady Day** [ˈleɪdɪdeɪ] *n* *cherk.* ibodatga chaqirib qo'ng'iroq chalish (25-mart).
- ladyhood** [ˈleɪdɪhʊd] *n* unvon, faxriy nom.
- lady-in-waiting** [ˌleɪdɪn ˈweɪtɪŋ] *n* (*pl* **ladies-in-waiting**) freylina (*malika yoki qirolicha huzurida xizmatda bo'lgan, dvoryan oiladan chiqqan ayol*).
- lady-killer** [ˈleɪdi, kɪlə] *n* 1) ofatijon (*yigit*); 2) xotinlarni shaydo qiluvchi yigit.
- ladylike** [ˈleɪdɪlaɪk] *a* 1) yaxshi tarbiya ko'rgan; 2) ayollarga xos, nozik, nazokatli, latofatli.
- lady-love** [ˈleɪdɪlʌv] *n* dildan sevilgan, ma'shuqa, mahbuba, jonona.
- lady's bedstraw** [ˌleɪdɪz ˈbedstrɔ:] *n* *bot.* qumrio't, chaqamiq.
- lady's finger** [ˈleɪdɪz, fɪŋgə] *n* me'dasida yarasi bor odam.
- ladyship** [ˈleɪdɪʃɪp] *n* *a* unvon, biron shaxsning xizmati uchun beriladigan nom.
- lady's-maid** [ˈleɪdɪzmeɪd] *n* oqsoch, uy xizmatchisi.
- lady's man** [ˈleɪdɪz mæn] *n* 1) xushtor, oshiq; 2) xotinlarning ko'nglini ovlovchi shaxs.
- lady's purse** [ˈleɪdɪz pɜ:s] *n* *bot.* ochambiti (*krestgullarga mansub, mayda, oq gulli va xaltacha shaklidagi o'r*).
- laevogyrate** [ˈli:vəʊ ˈdʒaɪreɪt] *a* *fiz.* chapga aylanadigan.
- lag I** [læɡ] **1.** *n* kechikish, ulgurmay qolish, orqada qolish, kech qolish; **a time ~ of one month** bir oyga kechikish; **2.** *v* kech qolmoq, ulgurmay qolmoq, orqada qolmoq.
- lag II** [læɡ] *n* yuborilgan *yoki* surgun bo'lgan kishi.
- lag III** [læɡ] *n* planka, uzun taxtacha.
- lagan** [ˈlæɡən] *n* *yur.* cho'kib ketgan yuk, g'arq bo'lib ketgan yuk.
- lager (beer)** [ˈlɑ:gə(bɪə)] *n* kuchsiz pivo.
- laggard** [ˈlæɡəd] *n* beso'naqay odam, qo'pol odam.
- lagging I** [ˈlæɡɪŋ] *n* *el.* fazaning (o'zgarishi) siljishi (*fazagenerator chulg'aminig alohida bir guruhi*).
- lagging II** [ˈlæɡɪŋ] *n* qoplama, jild.
- lagoon** [lə ˈɡu:n] *n* laguna, qo'ltiq.
- laic(al)** [ˈleɪk(əl)] *a* dunyoviy.
- laicize** [ˈleɪnsaɪz] *v* 1) cherkov *yoki* monastir mulkini davlat mulkiga aylantirmoq; 2) cherkov qaramog'idan chiqarish; din ta'siridan chiqarish.
- laid** [leɪd] *v* *past., p. p.* **lay I, 1.** *dan*.
- laid-back** [ˌleɪd ˈbæk] *a* beg'am, g'amsiz.
- lain** [leɪn] *p. p.* **lie I, 1.** *dan*.
- lair** [leə] *n* in, uya, makon.
- laird** [leəd] *n* *shotl.* zamindor, katta yer egasi, pomeshik.
- laissez-faire** [ˌleser ˈfeə] *n* *fr* aralashmaslik.
- laity** [ˈleɪəti] *n* dunyoviy kishi, qavm.
- lake** [leɪk] *n* 1) ko'l; 2) pardoz loki, bo'yaydigan lok.
- lake-country** [ˈleɪk, kʌntri] *n* serko'l o'lka.
- lake-land** [ˈleɪklænd] = **lake-country**.
- lake-lawyer** [ˈleɪk, lɔ:jə] *n* *amer.* nalim, yelim-baliq.
- lakh** [lɑ:k] = **lac II**.
- laky** [ˈleɪki] *a* ko'lga oid, ko'lda bo'ladigan.
- Lallan** [ˈlælən] *n* Shotlandiyaning janubiy qismidagi sheva.
- lam** [læm] *v* 1) qochib ketmoq, qochib qolmoq, qutulib qolmoq; 2) urmoq, tushirmoq.
- lama I** [ˈlɑ:mə] *n* *zool.* lama (*Janubiy Amerika tuyasi*).
- lama II** [ˈlɑ:mə] *n* buddizm diniga mansub ruhoni.
- lamasery** [ˈlɑ:məsəri] *n* lamaistlar monastiri (*buddizmning tarqalgan oqimi*).
- lamb** [læm] **1.** *n* qo'zi, qo'zichoq; **2.** *v* qo'zilamoq.
- lambaste** [ˈlæmbeɪst] *v* urmoq, maydalamoq, yanchmoq.
- lambency** [ˈlæmbənsɪ] *n* yarqirash, chaqnash.
- lambent** [ˈlæmbənt] *a* o'ynaydigan, o'ynayotgan, nur tarqatuvchi.
- lambkin** [ˈlæmkɪn] *n* qo'zichoq.
- lamblike** [ˈlæmlaɪk] *a* yuvosh, beozor, mo'min-qobil.
- lambrequin** [ˈlæmbəkɪn] *n* lambreken (*eshik yoki deraza tepasiga ishlangan o'yina naqsh*).
- lambskin** [ˈlæmskɪn] *n* qo'yteri, ishlangan qo'y terisi.
- lame** [leɪm] **1.** *a* oqsoq, cho'loq; ~ **man** cho'loq odam; **2.** *v* mayib qilmoq, urib olmoq; **to ~ a leg** oyog'ini mayib qilmoq.
- lamella** [lə ˈmelə] *n* 1) plastinka; 2) yupqa qatlam (*suyakda, gazmolda*).
- lamellae** [lə ˈmeli:] *pl* **lamella** *dan*.
- lameness** [ˈleɪmnəs] *n* oqsoqlik, cho'loqlik.
- lament** [lə ˈment] **1.** *n* achchiq oh-voh qilish; hasrat, ho'ngrab yig'lash, zorlanish, gina; **2.** *v* 1) ingramoq, oh-voh qilmoq, zorlanmoq, nola qilmoq; 2) aza tutib yig'lamoq, ko'z yoshi to'kmoq.
- lamentable** [ˈlæməntəbl] *a* o'ta achinarli, qay-g'uli; ~ **result** o'ta achinarli natija.
- lamentation** [ˌlæmənt ˈteɪʃn] *n* 1) aza; 2) faryod

- lamia** [ˈleɪmiə] *n* *grek. mif.* ayol qiyofasidagi jodugar; qonxoʻr.
- lamina** [ˈlæmiːnə] *n* (*pl -nae*) yupqa qatlam.
- laminae** [ˈlæmini:] *pl lamina dan.*
- laminar** [ˈlæmiːnə] *a* plastinkasimon, plastinka shaklidagi.
- lamine** [ˈlæmiːnɪt] *v* 1) yupqa qatlamlarga boʻlib tashlamoq; 2) qogʻozdan plastmassa tayyorlamoq.
- laminated** [ˈlæmiːnɪtɪd] **1.** *p. p.* **lamine** *dan;* **2.** *a* qat-qat shaklidagi.
- lamination** [ˌlæmiːˈneɪʃn] *n* qatlamlarga ajralish, qat-qat qilib joʻvalamoq.
- Lammas** [ˈlæməs] *n tar.* hosil bayrami (*1 avgust*).
- lamp** [læmp] **1.** *n* lampa, chiroq, fonus, fonar; **2.** *v* yoritmoq.
- lampblack** [ˈlæmpblæk] *n* lampa qorakuyasi, qurumi, tutuni, isi.
- lamp-burner** [ˈlæmp,bʊːnə] *n* lampa gorelkasi (*gorelka – suyuq yoqilgʻi yoki gazni maʼlum maq-sadda yoqish uchun ishlatiladigan asbob*).
- lamp-chimney** [ˈlæmp,tʃɪmni] *n* lampashisha.
- lamp-holder** [ˈlæmp,həʊldə] *n* patron (*gilzaga joylashgan lampa oʻrnatgich*).
- lampion** [ˈlæmpjən] *n* lampion (*bezash uchun har xil qogʻoz yoki shishadan yasalgan kichkina fonuscha*).
- lamplight** [ˈlæmplaɪt] *n* sunʼiy yoritish (*yorugʻlik berish*).
- lamplighter** [ˈlæmp,laɪtə] *n* fonarchi, fonuschi.
- lampoon** [læmˈpuːn] **1.** *n* pamflet, achchiq hajviy asar; **2.** *v* hajviy asar ijod qilmoq.
- lamponer** [læmˈpuːnə] *n* achchiq hajviy asar yozuvchi.
- lamponist** [læmˈpuːnɪst] = **lamponer**.
- lamppost** [ˈlæmp,pəʊst] *n* fonar osadigan sim-yogʻoch (*stolba*).
- lamprey** [ˈlæmpri] *n* minoga, ilonbaliq.
- lamp-shade** [ˈlæmpʃeɪd] *n* abajur, lampa qalpo-gʻi.
- lamp-socket** [ˈlæmp,sɒkɪt] = **lamp-holder**.
- Lancastrian** [læŋ kæstriən] **1.** *a* Lankashir va lankashirliklarga oid; **2.** *n* Lankashirda tugʻilgan kishi, lankashirlik.
- lance** [lɑːns] **1.** *n* nayza, nishtar; **2.** *v* nayza sanchmoq.
- lance-corporal** [ˈlɑːns,kɔːprəl] *n* kichik kapral (*chor armiyasida va baʼzi chet el armiyalarida: kichik boshliqlar yoki askarlar unvoni*).
- lance-knight** [lɑːnsnaɪt] *n* 1) nayzali askar; 2) yollanma askar.
- lanceolate** [ˈlɑːnsələɪt] *a bot.* nishtarga oʻxshagan.
- lancer** [ˈlɑːnsə] *n* 1) ulan (*yengil kavaleriya askari*); 2) *tib.* lanset (*dudama, jarrohlar nishtari*).
- lance-sergeant** [ˈlɑːns,sɑːdʒənt] *n* kichik serjant.
- lancet** [ˈlɑːnsɪt] *n* lanset (*dudama, jarrohlar nishtari*).
- lancet arch** [ˌlɑːnsɪtˈɑːtʃ] *n meʼmor.* 1) peshtoq shaklida ishlangan ark; 2) tepasi uchli (*choʻqqili*) darvoza.
- lancinating** [ˌlɑːnsɪneɪtɪŋ] *a* oʻtkir, keskir, sanchiq (*ogʻriq haqida*).
- land** [lænd] **1.** *n* 1) yer, quruqlik, tuproq; 2) mam-lakat, davlat; **2.** *v* quruqlikka chiqmoq; yerga qoʻnmoq.
- land-agent** [ˈlænd,eɪdʒənt] *n* 1) yer maydonlarini sotish boʻyicha agent; 2) yer xoʻjaligining bosh-qaruvchisi.
- landau** [ˈlændəʊ] *n* 1) lando (*toʻrt kishilik buklama soyabonli arava*); 2) tepa qismi ochiladigan avtomobil.
- land-breeze** [ˈlændbriːz] *n* yengil shamol, shabada (*dengiz sohillarida*).
- landed** [ˈlændɪd] **1.** *p. p.* **land** **2.** *dan;* **2.** *a* yerga oid, yerli.
- landfall** [ˈlændfɔːl] *n* 1) *deng.* qirgʻoqqa chiqish; 2) *av.* yerga qoʻnish.
- landfill** [ˈlændfɪl] *n* chiqindilarni yerga koʻmish.
- land-forces** [ˈlænd,fɔːsɪz] *n pl* quruqlikdagi qoʻshinlar.
- land-grabber** [ˈlænd,græbə] *n* birovning yerini noqonuniy ravishda yoki aldab olib qoʻygan kishi.
- landgrave** [ˈlændgreɪv] *n nem.* landgraf (*yer egasi*).
- landholder** [ˈlænd,həʊldə] *n* yer maydonining egasi yoki ijarachi.
- land-hunger** [ˈlænd,hʌŋgə] *n* yerni sotib olishga intilish.
- land-hungry** [ˈlænd,hʌŋgrɪ] *a* yersiz, yeri yoʻq.
- landing** [ˈlændɪŋ] **1.** *pres. p.* **land** **2.** *dan;* **2.** *n* 1) tushirish, tushirib qoʻyish; 2) qoʻnish, qoʻnish joyi.
- landing craft** [ˈlændɪŋkraːft] *n* 1) desantchilar kemasi; 2) desantchilarning suzish moslamalari.
- landing field** [ˈlændɪŋfiːld] *n* 1) aerodrom; 2) qoʻnish joyi.
- landing gear** [ˈlændɪŋgɪə] *n* shassi (*turli mashina mexanizmlarining asosiy gʻildirak ramasi*).
- landing ground** [ˈlændɪŋgraʊnd] = **landing-place**.
- landing mark** [ˈlændɪŋmɑːk] *n av.* (*yerga*) qoʻnish belgisi (*ishorasi*).
- landing-net** [ˈlændɪŋnet] *n* baliq tutadigan matrap (*matrap – baliq ushlab uchun uzun tayoq uchiga toʻrt xaltali chamberak oʻrnatilgan asbob*).
- landing-place** [ˈlændɪŋpleɪs] *n* 1) qoʻnish joyi; 2) kema toʻxtaydigan joy.
- landing troops** [ˈlændɪŋtruːps] *n pl* desantchi qoʻshinlar.
- land-jobber** [ˈlænd,dʒɔːbə] *n* yer maydoni bilan chayqovchilik qiladigan (*shaxs*).
- landlady** [ˈlænd,leɪdɪ] *n* 1) ijaraga uy yoki yer beradigan (*ayol*); 2) mehmonxona egasi (*ayol kishi*).
- landless** [ˈlændləs] *a* 1) yersiz, yeri yoʻq; 2) keng, qirgʻoqsiz, bepoyon.

land-locked [ˈlændlɒkt] *a* 1) dengizga chiqa olmaydigan (*mamlakat haqida*); 2) har tomonlamba yer bilan oʻralgan (*suv havzasi haqida*); 3) chuchuk suvda yashovchi (*baliiq haqida*).

landloper [ˈlænd,ləʊpə] = **landlouser**.

landlord [ˈlændlɔːd] *n* ijaraga beradigan uy egasi; katta yer (mulk) egasi; mehmonxona egasi.

landlordism [ˈlændlɔːdɪzəm] *n* 1) katta yer egalari-ning mafkuralari (ideologiyalari); 2) katta yer egaligi tuzilmasi.

landlouser [ˈlænd,ləʊpə] *n* daydi, darbadar yuradigan kishi.

landlubber [ˈlænd,lʌbə] *n* deng. quruqlikda yashovchi kishi; dengizda suzishga odatlanmagan kishi.

landmark [ˈlændmɑːk] *n* 1) yer maydoni chegarasi; 2) taraqqiyot pogʻonasi; 3) chegaralarni belgilovchi belgi (qoziq).

landmine [ˈlændmaɪn] *n* *harb.* fugas (*portlovchi moddaning zaryadi*).

landocracy [ˈlændˌdɒkrəsi] *n* 1) yer aristokratiyasi; 2) zamindorlar sinfi.

lyre [ˈlaɪə] *n* 1) lira (*pul birligi*); 2) lira (*musiqa asbobi*).
lyric [ˈlɪrɪk] *a* lirik; ~al lirikaga oid.
lyrics [ˈlɪrɪks] *n* pl 1) lirik sheʼrlar; 2) lirika.
lyrist [ˈlɪrɪst] *n* lirik shoir.
lysis [ˈlaɪsɪs] *n* tib. lizis (haroratning sekin-asta pasayib, bemorning sogʻayib borishi).
lysol [ˈlaɪsəl] *n* lizol (*dezinfeksiya uchun ishlatiladigan qizgʻish-koʻngʻir moysimon modda*).

mace I [meɪs] *n* tar. gurzi, toʻqmoq.
mace II [meɪs] *n* muskat rang (*muskat yongʻogʻining quritilgan poʻchogʻi*).
Macedonian [ˌmæsiˈdɔʊniən] *a* Makedoniyaga va makedonlarga oid, makedoncha.
macerate [ˌmæsəreɪt] *v* namlamoq, ivitmoq, hoʻllamoq.
maceration [ˌmæsəˈreɪʃn] *n* namlash, ivitish, hoʻllash.
machiavellian [ˌmækiəˈvelɪən] *a* noaniq, koʻrimsiz, juda xunuk.
machicolation [məˈtʃɪkəʊˈleɪʃn] *n* tar. ayvon (*bostirma, istehkom, qoʻrgʻon devorlari*) dagi shinak (*tuynuk*).
machinal [məˈʃi:nl] *a* mexanikaga oid, mexanik.
machinate [ˈmækiˌneɪt] *v* fitna uyushtirmoq.
machination [ˌmækiˌneɪʃn] *n* hiyla, nayrang.
machine [məˈʃi:n] **1.** *n* 1) mashina, mexanizm; ~ **for testing** sinov mashinasi; 2) dastgoh (*qurilma*); **to run a** ~ stanokda ishlamoq; 3) mexanizm, apparat; **state** ~ davlat apparati; ~ **tool** dastgoh; 4) velosiped; avtomobil, samolyot; **2.** *v* 1) mashinada tikmoq; 2) mashinada (*yoki kompyuterda*) yozmoq.
machine-gun [məˈʃi:ngʌn] *n* pulemyot (*oʻqotar*).
machine-gunner [məˈʃi:ngʌnə] *n* pulemyotchi.

machine-made [mə'ʃi:nmeɪd] *a* mashina yordamida bajarilgan.

machine-minder [mə'ʃi:n,maɪndə] *n* dastgohda ishlovchi ishchi.

machinery [mə'ʃi:nəri] *n* 1) dastgoh jihozi; 2) mexanizm; 3) apparat.

machine-shop [mə'ʃi:nʃɒp] *n* mexanika ustaxonasi (*metall ishlaydigan ustaxona, sex*).

machine-tool [mə'ʃi:ntu:l] *n* dastgoh: ~ **plant** dastgoh tayyorlovchi zavod.

machinist [mə'ʃi:nɪst] *n* 1) tikuvchi; 2) dastgohda ishlovchi ishchi; 3) mashinist; 4) mexanik.

Mach number [ˈmɑ:k,nʌmbə] *n* *av.* aylanish (*borib kelish, ko'tarilib tushish*) soni (*miqdori*).

macho [ˈmætʃəʊ] *a* kuchli, dovyurak.

macintosh [ˈmæktɪntɒʃ] *n* makintosh (*suv o'tkazmaydigan kiyim*).

mack [mæk] **makintosh** *so'zining qisqartmasi*.

mackerel [ˈmækrəl] *n* skumbriya (*dengiz balig'i*).

mackintosh [ˈmæktɪntɒʃ] *n* makintosh (*suv o'tkazmaydigan plash*).

macro- [ˈmækrəʊ-] *a* (*murakkab so'zlarda quyidagi ma'nolarni bildiradi*) katta, juda katta o'lcham: uzun.

macrobiosis [ˌmækrəʊbɪˈɔːsɪs] *n* ko'p yillik.

macrocephalous [ˌmækrəʊˈsefələs] *a* kallasi katta (*befahm*).

macrocosm [ˈmækrəkɒzəm] *n* 1) koinot; olam, jahon, yer yuzi, butun dunyo.

macrograph [ˈmækrəʊgrə:f] *n* makrosurat.

macron [ˈmækrɒn] *n* *ling.* unli harflardagi cho'zqlik belgisi.

macroscopic [ˌmækrəʊˈskɒpɪk] *a* makroskopik (*ko'z bilan ko'rib bo'ladigan*).

macula [ˈmækjulə] *n* (*pl -ae*) dog'.

maculae [ˈmækjuli:] *pl* makula *dan*.

maculate [ˈmækjuleɪt] *v* dog' bilan qoplamoq, dog' bosmoq.

maculated [ˈmækjuleɪtɪd] *a* dog' bilan qoplangan, dog' bosgan.

mad [mæd] **1.** *a* 1) jinni, aqldan ozgan, telba, devona; **you're** ~ ! Sen aqldan ozibsani! 2) quturgan; **2.** *v* jinni bo'lmoq, telba bo'lmoq, devona bo'lmoq; **to go** ~ aqldan ozmoq.

madam [ˈmædəm] *n* 1) xonim; 2) beka, oyim.

madcap [ˈmædkæp] *n* beaql (*esi yo'q*) kishi.

madden [ˈmædn] *v* jinni bo'lmoq, aqldan ozmoq.

madder [ˈmædə] *n* *bot.* ro'yan (*ildizidan qizil bo'yoq olinadigan o'simlik*).

made [meɪd] **1.** *past., p. p.* **make** *dan*; **2.** *a* ishlab chiqargan, tayyorlangan, yasalgan; ~ **in** *Uzbekistan* O'zbekistonda ishlab chiqarilgan.

madeify [ˈmædɪfaɪ] *v* ho'llamoq, namlamoq, ivitmoq.

Madeira [mə'dɪərə] *n* madera (*vino turi*).

mademoiselle [ˌmædəmwəˈzɛl] *n* erga tegmagan fransuz yoki boshqa chet ellik qiz (*xonim*).

made up [ˈmeɪdʌp] *a* 1) sun'iy; 2) tayyor (*kiyim haqida*).

madhouse [ˈmædhəʊs] *n* *so'zl.* jinnixonona.

madia [ˈmeɪdiə] *n* madiya; ~ **oil** madiya moyi.

madid [ˈmædɪd] *a* ho'l, nam, ivigan.

madman [ˈmædmən] *n* jinni, aqlsiz, aqli past, devona kishi.

madness [ˈmædnəs] *n* jinnilik, devonalik, aqli zaiflik.

madonna [mə'dɒnə] *n* madonna (*katoliklarda Bibi Maryam nomi*).

madonna lily [mə'dɒnə,lɪli] *n* oq liliya (*liliya - lolagullilarga mansub dekorativ o'simlik*).

madrasah [mə'dræsə] *n* *arab.* madrasa.

madrepore [ˌmædrɪ'pɔː] *n* tosh marjon.

madrono [mə'drəʊnə] *n* *bot.* yer tuti daraxti.

madwoman [ˈmæd,wʊmən] *n* aqlsiz, jinni ayol.

Maecenas [mi'si:næs] *n* metsenat, homiy (*fan va san'atga homiylik qiluvchi davlatmand odam*).

maelstrom [ˈmeɪlstrɒm] *n* 1) girdob, aylanma; 2) shiddatli oqim, to'lqin, bo'ron.

maestoso [ˌmaɪs'təʊsəʊ] *adv* *mus.* ulug'vor, ulug'vorlik bilan, savlat to'kib.

maestri [maɪstri] *pl* **maestro** *dan*.

maestro [ˈmaɪstrəʊ] *it. n* maestro, ustoz (*asosan, katta musiqachilar, san'atkorlar va iste'dodli shaxmatchilarga nisbatan ishlatiladi*).

Mae West [ˌmeɪ'west] *n* uchuvchilarning puflandigan qutqaruvchi (*qutqaradigan*) katta kamzuli (*kurtkasi*).

maffick [ˈmæfɪk] *v* 1) juda xursand bo'lmoq; 2) bayram qilmoq; juda yaxshi nishonlamoq.

mafic [ˈmæfɪk] *a* *geol.* qora (*tog' jinsi to'g'risida*).

mag I [mæg] *n* yarim pennilik tanga.

mag II [mæg] *v* valdiramoq, vaysamoq.

mag III [mæg] *n* (**magazine** *so'zining qisqartmasi*) jurnal (*vaqt-vaqti bilan chiqadigan*); oynoma.

magazine [ˌmægə'zi:n] *n* 1) vaqt-vaqti bilan chiqib turadigan oynoma; jurnal; 2) *harb.* o'q-dorilar saqlanadigan ombor.

magazine rifle [ˌmægə'zi:n,rɪfl] *a* magazinli mil-tiq.

mage [meɪdʒ] *n* 1) sehrgar, jodugar; 2) donishmand, dono.

magenta [ˈmædʒəntə] *n* qizil anilinlangan bo'yoq.

maggot [ˈmægət] *n* qurt (*kapalak, chivin, chuvalchang va shu kabilarning tuxumdan chiqqan qurti*).

maggoty [ˈmægətri] *a* qurtlagan, qurt tushgan (*bosgan*), qurtlab ketgan.

magi [ˈmeɪdʒəri] *pl* **magus** *dan*.

magic [ˈmædʒɪk] **1.** *n* 1) sehr; 2) sehrgarlik; 3) afsunkor; **2.** *a* sehrlyadigan, sehrli; maftunkor, jodu.

magical [ˈmædʒɪkl] = **magic 2.**

magician [ˈmædʒɪʃn] *n* 1) sehrgar, jodugar, afsunkor; 2) ko'zboylag'ich.

magisterial [ˌmædʒɪs'triəriəl] *a* sudga oid, sud-dagi.

magistracy [ˈmædʒɪstrəsi] *n* sudyalik vazifasi (*mansabi*).

magistral [ˈmædʒɪstrəl] *n* 1) magistral (*katta, asosiy qatnov yoʻli*); 2) serqatnov, katta koʻcha.

magistrate [ˈmædʒɪstreɪt] *n* sudya, sud; **examination** ~ tergovchi.

magma [ˈmægmə] *n geol.* magma (*Yer qaʻridagi choʻgʻsimon suyuq modda*).

magnanimity [ˌmæɡnəˈnɪmɪti] *n* oliyjanoblik, himmat.

magnanimous [mæɡˈnænɪməs] *a* muruvvatli, hurmatli.

magnate [ˈmæɡneɪt] *n* magnat (*yirik feodal yoki kapitalist*).

magnesia [mæɡˈniːʃə] *n tib.* magniy oksidi.

magnesium [mæɡˈniːzɪəm] *n kim.* magniy (*kimyoviy element, kumush rang yumshoq metall*).

magnet [ˈmæɡnɪt] magnit, tortiluvchan kuch.

magnetic [mæɡˈnetɪk] *a* 1) tortiluvchan; 2) jozibali, jozibador; 3) magnitga oid, magnitli.

magnetics [mæɡˈnetɪks] *n pl (sing dek ishlatiladi)* fiz. magnetizm (*magnit hodisalari va xossalari*).

magnetism [ˈmæɡnətɪzəm] *n* magnit hodisalari va xossalari.

magnetite [ˈmæɡnətəɪt] *n min.* 1) magnit temirtoʻsh; 2) magnitli temir rudasi.

magnetization [ˌmæɡnətəɪˈzeɪʃn] *n* magnitlanish, magnitlash.

magnetize [ˈmæɡnətəɪz] *v* magnitlanmoq, magnitlamoq.

magneto [mæɡˈniːtəu] *n el.* magneto (*dvigatellar-da elektr uchquni hosil qiladigan asbob*).

magnetometer [ˌmæɡnɪˈtɒmɪtə] *n* magnetometr.

magnification [ˌmæɡnɪfɪˈkeɪʃn] *n* koʻpaytirish, oshirish.

magnificence [mæɡˈnɪfɪsns] *n* dabdaba, hashamat, savlat, saltanat, koʻrkamlik.

magnificent [mæɡˈnɪfɪsnt] *a* muhtasham, dabdabali, hashamatli.

magnifier [ˈmæɡnɪfəɪə] *n* lupa, kattalashtiradigan oyna.

magnify [ˈmæɡnɪfəɪ] *v* koʻpaytirmoq, oshirmoq, kattalashtirmoq.

magnifying glass [ˈmæɡnɪfəɪɪŋɡlɑːs] *n* kattalashtiradigan oynakcha, lupa.

magniloquence [mæɡˈnɪləkwəns] *n* dabdabalilik, ortiq fasohat (*fasohat – chiroyli va yoqimli soʻzlash qobiliyati*).

magniloquent [mæɡˈnɪləkwənt] *a* dabdabali, balandparvoz.

magnitude [ˈmæɡnɪtjuːd] *n* 1) oʻlcham, kattakichlik; 2) ahamiyatlilik, muhimlik.

magnolia [mæɡˈnəʊliə] *n* magnoliya (*yirik, xushboʻy gulli doim yashil boʻlib turadigan daraxt yoki buta*).

magnum [ˈmæɡnəm] *n* katta vino shishasi.

magpie [ˈmæɡpaɪ] *n* 1) qargʻa; 2) ezma, sergap kishi.

magus [ˈmeɪɡəs] *n pl* sehrgar, jodugar, afsungar.

Magyar [ˈmæɡjɑː] **1.** *a* Vengriyaga oid; **2.** *n* 1) vengr xalqi; 2) vengr tili.

Maharaja(h) [ˌmahəˈrɑːdʒə] *n hind.* maharaj, buyuk roja (*Hindistonda knazlarning oliy unvonli va shunday unvonli kishi*).

Maharanees [ˌməˈhɑːrɑːniː] *n hind.* maharajaning xotini.

mahogany [məˈhəɡəni] *n bot.* qizil daraxt; ~ **furniture** qizil daraxtdan qilingan mebel.

Mahomet [məˈhɑːmɪt] *n* Muhammad, musulmon.

mahout [məˈhɑʊt] *hind. n* fillarni haydab boruvchi odam.

maid [meɪd] *n* xizmatkor ayol, oqsoch.

maiden [ˈmeɪdn] *n* 1) boʻyi yetgan qiz, voyaga yetgan qiz; 2) *hazil.* qariqiz, turmushga chiqmagan qiz; 3) birinchi; ~ **flight** birinchi parvoz.

maidenhead [ˈmeɪdnhed] *n* maʼsumalik, bokiralik.

maidenhood [ˈmeɪdnhʊd] *n* qizlik davri.

maidenish [ˈmeɪdnɪʃ] *a* qizlik davridagi (*qizlarga xos*).

maidenlike [ˈmeɪdnlaɪk] *a* qizlarga xos.

maidenly [ˈmeɪdnli] = **maidenlike**.

maid-of-all-work [ˌmeɪdɒvɔːlˈwɜːk] hamma ishni bajaradigan xizmatkor ayol.

maidservant [ˈmeɪd,sɜːvənt] *n* xizmatkor ayol.

mail [meɪl] **1.** *n* pochta; **2.** *v* pochta orqali yubormoq.

mail-boat [ˈmeɪlbəʊt] *n* xat tashiydigan kema.

mailbox [ˈmeɪlbɒks] *n* pochta qutisi.

mail-car [ˈmeɪlkɑː] *n* pochta vagoni.

mail-cart [ˈmeɪlkɑːt] **1)** xat tashuvchi arava; **2)** bolalar kolaskasi (*aravachasi*).

mail-clad [ˈmeɪklæd] *a* sovut kiygan.

mail-coach [ˈmeɪlkəʊtʃ] = **mail-cart 1**).

mailed [meɪld] *a* zirh bilan qoplangan, zirhlangan.

mailer [ˈmeɪlə] *n* xat yuboruvchi.

mailing-list [ˈmeɪlɪŋlɪst] *n* oluvchilar (*nomiga muntazam referatlar, reklama maʼlumotnomasi va b. yuborib turadigan shaxslar*) roʻyxati.

maillot [mæˈjəʊ] *n fr.* choʻmilish kiyimi.

mailman [ˈmeɪlmæn] *n amer.* pochtachi, xat tashuvchi.

mail order [ˌmeɪlˈɔːdə] *n* 1) pochta orqali narsa yuborish uchun berilgan buyurtma; 2) *amer.* pochta orqali yuborilgan pul.

mail-plane [ˈmeɪlpleɪn] *n* pochta samolyoti.

mail train [ˈmeɪltreɪn] *n* pochta poyezdi.

maim [meɪm] *v* mayib qilmoq, ishdan chiqarmoq.

maimed [ˈmeɪmd] *n* nogiron, choʻloq.

main I [meɪn] *n* 1) bosh, asosiy qism; ~ **point** asosiy sabab; ~ **street** asosiy katta koʻcha; 2) asosiy, bosh yoʻl; 3) *shoir.* dengiz, okean.

main II [meɪn] *n* xoʻroz urushi.

main deck [ˈmeɪndek] *n* kema sahnining yuqori qismi.

mainland [ˈmeɪnlænd] *n* materik, qitʼa.

mainly [ˈmeɪnli] *adv* asosan, ayniqsa, hammadan avval; **you are ~ to blame** asosan, sen aybdorsan.

mainmast [ˈmeɪnmɑːst] *n deng*. grotmächta (yelkanli kemada: oʻrtadagi eng baland machta).

mainspring [ˈmeɪnsprɪŋ] *n* yurgizadigan (harakatlantiradigan) prujina (soat mexanizmida).

mainstay [ˈmeɪnstet] *n* tirgovuch, tirgak.

mainstream [ˈmeɪnstri:m] *n* asosiy yoʻl, oqim, yoʻnalish (*sanʼat, adabiyot va b.*).

maintain [meɪnˈteɪn] *v* 1) qoʻllab-quvvatlamok; **to ~ contact** aloqani qoʻllab-quvvatlamok; 2) asramok (*oila*); 3) himoya qilmoq.

maintenance [meɪntənəns] *n* qoʻllab-quvvatlash.

maintop [ˈmeɪntɒp] *n deng*. (yelkanli kemada) oʻrtadagi eng baland machta.

maison(n)ette [ˌmeɪzəˈnet] *n fr.* ucha katta boʻlmagan uy yoki hovli.

maize [meɪz] *n* makkajoʻxori (*oʻsimligi va doni*).

majestic [məˈdʒestɪk] *a* 1) oliyjanob, oliyhimmat; 2) muhtasham, hashamatli.

majesty [ˈmædʒəstɪ] *n* 1) oliyjanoblik; 2) hashamat, muhtashamlik.

majolica [məˈdʒɒlɪkə] *n* mayolika, sirlangan sopol idish.

major I [ˈmeɪdʒə] *a* 1) asosiy, yirik; ~ **part** asosiy qism; ~ **forces** asosiy kuchlar; 2) muhimroq.

major II [ˈmeɪdʒə] *n* mayor.

major-domo [ˌmeɪdʒəˈdaʊmə] *n* (*pl -os [-əʊz]*) xizmatkorlar ogʻasi, bosh xizmatkor.

major-general [ˌmeɪdʒəˈdʒenərəl] *n* general-mayor.

majority [məˈdʒɔrətɪ] *n* koʻp, koʻpchilik.

majuscule [ˈmædʒəskju:l] *n* bosh harf, katta harf (*oʻrta asr qoʻlyozmalarida*).

make [meɪk] *v* (**made**; **made**) 1) yasamoq, qilmoq, tayyorlamok; **to ~ tables** stol yasamoq; 2) tuzmoq, tashkil qilmoq; **to ~ a list** roʻyxat tuzmoq; 3) yaratmoq, ijod qilmoq; **to ~ a poem** sheʼr yozmoq; 4) qilmoq, bajarmoq; **to ~ a mistake** xato qilmoq; 5) ishlab topmoq; **to ~ money** pul ishlab topmoq; 6) olmoq, egallamoq, orttirmok; **to ~ friends** doʻstlar orttirmok; 7) soʻzga chiqmoq; 8) uyushtirmok; **to ~ a row** janjal uyushtirmok; 9) koʻtarilmoq (*suvdan*); ~ **after** nazorat qilmoq, izidan bormok; ~ **against** foydasiz gapirmok; ~ **away** qochib ketmoq; ~ **back** qaytmok (*orqaga*); ~ **out** tuzmoq; ~ **up** toʻplamoq.

make-believe [ˈmeɪkbi:li:v] *n* mugʻambirlik, ayyorlik.

makepeace [ˈmeɪkpi:s] *n* yarashtiruvchi, kelishtiruvchi kishi.

maker [ˈmeɪkə] *n* biror narsani qiluvchi, tayyorlovchi, yaratuvchi shaxs.

makeshift [ˈmeɪkʃɪft] *n* palliativ (*kasalga vaqtinchalik yengillik beruvchi dori yoki vosita*).

make-up [ˈmeɪkʌp] *n* grim; pardoz-andoz.

makeweight [ˈmeɪkweɪt] *n* tarozini keltirish uchun qoʻyiladigan parcha, boʻlak, qism.

making [ˈmeɪkɪŋ] **I. pres. p.** **make** *dan*; **2. n** qilish, bajarish, yasash.

mal- [mæl-] *pref.* 1) yomon; 2) notoʻgʻri.

malachite [ˈmæləkəɪt] *n* malaxit (*yashil rangli tosh*).

malacology [ˌmæləˈkɒlədʒɪ] *n* malakalogiya (*mollusklar haqidagi fan*).

maladjustment [ˌmæləˈdʒʌstmənt] *n* 1) kelishmovchilik; 2) notoʻgʻri boshqarish.

maladministration [ˌmælədʌmɪnɪˈstreɪʃn] *n* yomon boshqarish.

maladroitness [ˈmæləˈdrɔɪt] *a* qoʻpol, qovushmagan.

malady [ˈmælədi] *n* kasallik; **in curable** ~ tuzalmas kasallik.

Malaga [ˈmæləgə] *n* malaga (*vinoning bir turi*).

Malagasy [ˌmæləˈgæsi] *n* 1) malagalik; 2) malaga tili.

malapert [ˈmæləpə:t] **I. a** dagʻal, qoʻpol, uyatsiz; **2. n** qoʻpol, uyatsiz kishi.

malapropos [ˌmæləprəˈpəʊ] *a* bemahal, bevaqt.

malaria [məˈleəriə] *n tib.* bezgak.

malaria-ridden [məˈleəriə,rɪdn] *a* bezgakning makoni boʻlgan, bezgak koʻp tarqalgan (*joy haqida*).

malarious [məˈleəriəs] *a* bezgak tarqatuvchi, yuqtiruvchi.

malax [ˈmæləks] *v* ezib qorishtirmok, pishitmoq.

malaxate [ˈmæləkseɪt] = **malax**.

Malay [məˈleɪ] **1. a** malayliklarga oid; **2. n** 1) malaylik kishi; 2) malay tili.

Malayan [məˈleɪən] = **Malay**.

malcontent [ˈmælkən,tent] **1. n** norozi odam; **2. a** norozi, koʻngli toʻlmagan.

male [meɪl] **1. n** erkak; **2. a** erkaklarga oid, erkaklar.

male- [ˈmæli-] *pref.* yomon, achchiq.

malediction [ˌmæliˈdɪkʃən] *n* laʼnat, nafrat.

maledictory [ˌmæliˈdɪktəri] *a* 1) tili achchiq, zahar; 2) gʻiybatchi, boʻhtonchi.

malefactor [ˌmæliˈfæktə] *n* jinoyatchi.

malefic [məˈlefi:k] *a* halokatli, zararli.

maleficence [məˈlefi:sns] *n* zararlilik.

maleficent [məˈlefi:snt] *a* halokatli, zararli.

malevolence [məˈlevələns] *n* yomonlik.

malevolent [məˈlevələnt] *a* birovning baxtsizligidan sevinadigan, ichi qora.

malfeasance [ˌmælˈfi:zəns] *n yur.* jinoiy harakat, jinoyat, yovuzlik.

malfeasant [ˌmælˈfi:zənt] **1. n yur.** jinoyatchi; **2. a** jinoiy, jinoyatkorona.

malformation [ˌmælfɔːˈmeɪʃn] *n* mayiblik, majruhlik.

malformed [ˌmælˈfɔːmd] *a* mayib, majruh.

malfunction [ˌmælˈfʌŋkʃn] *n tex.* notoʻgʻri ishlash; buzuqlik; ishlamaslik.

malic [ˈmælik] *a kim.* ~ **acid** olma kislotasi (*organik birikma*).

malice [ˈmælis] *n* yomonlik, yovuzlik; **I bear you no** ~ Men senga yomonlik qilmoqchi emasman.

- malicious** [mə'liʃəs] *a* yomon, yovuz, badjahl; ~ **person** yomon odam.
- malign** [mə'laɪn] *a* 1) yomon, zararli; 2) *tib.* halokalli, xatarli; 3) dushmanlarcha, adovatli.
- malignancy** [mə'liɡnənʃi] *n* zararlilik, foydasizlik.
- malignant** [mə'liɡnənt] *a* serjahl, badjahl.
- malignity** [mə'liɡnəti] = **malignancy**.
- malinger** [mə'liŋgə] *v* yolg'ondan kasal bo'lmoq.
- malingerer** [mə'liŋgərə] *n* o'zini yolg'ondan bir kuyga soladigan kishi: mug'ambir.
- malingering** [mə'liŋgəriŋ] *n* o'zini yolg'ondan biror kuyga solish; mug'ombirlik (qilish).
- malison** [mə'liʃn] *n* esk. la'nat, nafrat, qarg'ish.
- mall** [mɔ:l] *n* sayr qilish uchun joy (xiyobon).
- mallard** [mə'ləd] *n* yovvoyi o'rdak.
- malleable** [mə'læɪə:bl] *a* 1) oson bog'lanadigan, bog'lanuvchan; 2) muloyim, mayin, yumshoq.
- malleumuck** [mə'li:mʌk] *n* 1) albatros (*tumshug'i uzun katta okean qushi*); 2) bo'ronqush.
- mallet** [mə'lɪt] *n* yog'ochdan yasalgan bolg'a.
- mallow** [mə'ləʊ] *n* bot. 1) gulxayri; 2) tugmagul, tugmachagul.
- malm** [mɑ:m] *n* geol. mergel, ohak gil.
- malmsey** [mə:mzi] *n* malvaziya (*musallas*).
- malnutrition** [mə'li:nju:'triʃn] *n* ochin-to'qin yashash, qorni ovqatga to'ymaslik.
- malodorant** [mə'ləʊdərənt] *a* sassiq modda.
- malodorous** [mə'ləʊdərəs] *a* sassiq hidli, badbo'y.
- malposition** [mə'lepə'ziʃn] *n* tib. qorindagi bolaning (*homilaning*) noto'g'ri holati.
- malpractice** [mə'l'præktɪs] *n* yur. qonunga qarshi bo'lgan harakat, noqonuniy harakat.
- malt** [mɔ:lt] **1.** *n* solod (*undirib yanchilgan bug'doy arpa va sh. k.*); **2.** *v* undirmoq (*arpa bug'doy va b.*).
- Maltese** [mə:'li:ti:z] **1.** *a* Malta va maltaliklarga oid; **2.** *n* maltalik, Malta aholisi, fuqarosi.
- maltha** [mə'lθə] *n* min. smolali (*yelimli*) qora neft.
- maltose** [mə:'ltəʊs] *n* kim. solod shakari.
- maltreat** [mə'l'tri:t] *v* zolimona muomala qilmoq; **to ~ animals** hayvonlarga yomon munosabatda bo'lmoq.
- maltreatment** [mə'l'tri:tmənt] *n* zolimona murojaat qilish.
- malt-worm** [mə:'ltwə:m] *n* esk. ichkilikboz, araxo'r.
- malty** [mə:'lti] *a* 1) mast, araq ichgan; 2) solodga oid.
- Malvaceae** [mə'l'veisi:] *n* pl bot. gulxayrilar.
- malversation** [mə'l've:'seɪʃn] *n* (*amalidan*) o'z manfaatini uchun foydalanish.
- mama** [mə'mɑ:] *n* oyi, ona.
- Mameluke** [mə'mɪlu:k] *n* tar. mamluk (*Misr sultonlarining shaxsiy soqchi askari*).
- mamma I** [mə'mɑ:] *n* oyi, ona (*murojaatda*).
- mamma II** [mə'mə] *n* anat. ko'krak bezi.
- mammae** [mə'mi:] *n* anat. ko'krak bezlari.
- mammal** [mə'mæl] *n* sut emizuvchi.
- mammalia** [mə'meɪliə] *n* zool. sutemizuvchilar.
- mammalogy** [mə'mælədʒi] *n* sutemizuvchilar haqidagi fan.
- mammary** [mə'mɛəri] *a* ko'krak beziga oid.
- mammilla** [mə'mɪlə] *n* (pl -lae) emchak uchi.
- mammillae** [mə'mɪli:] pl **mammilla** dan.
- mammoth** [mə'mɒk] *v* sindirmoq, parchalamoq, buzmoq.
- Mammon** [mə'mən] *n* pul, aqcha, mol-dunyo, boylik.
- Mammonish** [mə'məniʃ] *a* pulparast, tamagir, manfaatparast.
- mammoth I** [mə'məθ] *n* mamont (*hozir nasli qurib ketgan filsimon katta hayvon*).
- mammoth II** [mə'məθ] *a* ulkan, juda katta, azim, haybatli.
- mammy** [mə'mɪ] *n* onajon, oyijon.
- man** [mæn] *n* (pl **men**) 1) erkak; odam; erkak kishi; **be a ~!** erkak bo'!; **a ~ of wisdom** aqlli odam; 2) inson; **the rights of ~** inson huquqlari.
- man** [-mən] murakkab so'zlarda kishining kasb-korini bildiradi, *masalan*: **fisherman** baliqchi; **postman** pochtachi.
- manacle** [mə'nækl] **1.** *n* bilakka solinadigan kishan; **2.** *v* qo'lga kishan solmoq.
- manage** [mə'nɪdʒ] *v* 1) rahbarlik qilmoq; **to ~ a factory** zavodni boshqarmoq; 2) boshqarmoq; **to ~ a boat** qayiqni boshqarmoq.
- manageable** [mə'nɪdʒəbl] *a* gapga kiradigan, quloq soladigan, itoat qiladigan; ~ **child** quloq soladigan bola.
- managed** [mə'nɪdʒd] **1.** *p. p.* **manage** dan; **2.** *a* tartibga solib bo'ladigan.
- management** [mə'nɪdʒmənt] *n* 1) boshqarma, ma'muriyat; **the ~ of state affairs** davlat ishlari bo'yicha boshqarma.
- manager** [mə'nɪdʒə] *n* boshqaruvchi, mudir, direktor.
- manageress** [mə'nɪdʒə'res] *n* mudira, boshqaruvchi ayol.
- managerial** [mə'nə'dʒɪəriəl] *a* ma'muriy.
- managing** [mə'nɪdʒɪŋ] **1.** *pres. p.* **manage** dan; **2.** *a* rahbarlik qiluvchi.
- man-at-arms** [mə'nət'ɑ:mz] *n* (pl **men-at-arms**) *harb.* (*og'ir qurol bilan*) qurollangan ot mingan kishi.
- man-carried** [mə'n,kæriɪd] *a* ko'chma, ko'chiriladigan.
- man-child** [məntʃaɪld] *n* (pl **men-children**) bola, o'g'il bola.
- manciple** [mə'nɪsɪpl] *n* xo'jalikka omilkor, tejamkor odam, iqtisodchi (*asosan, kollejda*).
- Mancunian** [mə'n'kju:nɪən] **1.** *a* Manchester va manchesterliklarga oid; **2.** *n* Manchester aholisi.
- mandamus** [mə'n'deɪməs] *n* eng yuqori bosqich sudining quyi bosqich sudiga buyrug'i.
- mandarin I** [mə'nðərɪn] *n* 1) mandarin (*meva*); 2) Xitoy salati.

- mandarin II** [ˈmændərɪn] *n* mandarin (*Xitoyda revolyutsiyadan oldin: katta amaldor*).
- mandarine** [ˈmændəri:n] = **mandarin I**.
- mandatary** [ˈmændətəri] *a* majburiy, kerak, lozim.
- mandate** [ˈmændert] *n* 1) mandat; 2) sud qonuni; 3) vakolat, boshqarish huquqi; 4) (*deputatlar-ning*) topshirigʻi.
- mandated** [ˈmændertɪd] *a* xalqaro tashkilot mandati bilan idora qilinadigan.
- mandatory** [ˈmændətəri] *n* mandatga oid.
- mandible** [ˈmændɪbl] *n* ostki jagʻ (*sutemizuvchilar va baliqlarda*).
- mandolin** [ˌmændəˈlɪn] *n* mandolina (*toʻrt juft sim tori boʻlgan cholgʻu asbobi*).
- mandoline** [ˌmændəˈli:n] = **mandolin**.
- mandrake** [ˈmændrɛɪk] *n bot.* mehriqiyoh.
- mandrel** [ˈmændrəl] *n tex.* qisqich (*kesuvchi asbobni yoki ishlanayotgan detalni qisib qoʻyiladigan moslama*).
- mandril** [ˈmændrɪl] = **mandrel**.
- mandrill** [ˈmændrɪl] *n* mandril (*maymun*).
- mane** [meɪn] *n* yol; qil.
- man-eater** [ˈmæn,i:tə] *n* 1) odamxoʻr; 2) *zool.* odam yeydigan akula.
- manège** [mæˈneɪʒ] *n fr.* manej (*chavandozlar mashq qiladigan joy*).
- manful** [ˈmænfəl] *a* jasur, botir, mard.
- manganese** [ˈmæŋgəni:z] *n* marganes (*kimyoviy element*).
- manganic** [mæŋˈgæɪnɪk] *a kim.* uch valentli marganes qoʻshilgan.
- mange** [meɪndʒ] *n* qichima, qoʻtir.
- mangel (-wurzel)** [ˌmæŋɡl(ˈwɜ:zəl)] *n nem.* xashaki (*molga beriladigan*) lavlagi.
- manger** [ˈmeɪndʒə] *n* oxur, tegana.
- mangle** [ˈmæŋɡl] *n* yuvilgan kirni tekislaydigan dastgoh.
- mango** [ˈmæŋɡəʊ] *n* mango, anbah (*issiq mamlatlarda oʻsadigan mevali daraxt va uning mevasi*).
- mangold** [ˈmæŋɡəld] = **mangel (-wurzel)**.
- mangrove** [ˈmæŋgrəʊv] *n* mangrov daraxti.
- mangy** [ˈmeɪndʒɪ] *a* qichimaga (*qoʻtirga*) oid.
- manhandle** [ˈmænhændl] *v* qoʻlda koʻtarib bormoq (*kelmoq*).
- manhole** [ˈmænhəʊl] *n* teshik, qaraydigan teshik.
- manhood** [ˈmænhud] *n* 1) balogʻatga yetganlik; 2) mardlik, botirlik, jasurlik.
- man-hour** [ˈmænaʊə] *n* kishi soati, ish soati (*bir kishining bir soatlik mehnat oʻlchovi*).
- manhunt** [ˈmænhʌnt] *n* politsiyachilar qurshovi.
- mania** [ˈmeɪniə] *n* 1) vasvasa, savdo; 2) vasvoslik, savdoyilik.
- maniac I** [ˈmeɪniæk] *n* savdoyi; vosvos.
- maniac II** [ˈmeɪniæk] *a* 1) qattiq berilib ketgan; 2) miyasi aynigan.
- maniacal** [məˈniækəl] *a* vasvasa oqibatidagi.
- manicure I** [ˈmæni:kjuə] *n* manikyur.
- manicure II** [ˈmæni:kjuə] *v* 1) manikur qilmoq; 2) manikur qildirmoq.
- manicurist** [ˈmæni:kjuərist] *n* manikur qiluvchi ayol.
- manifest** [ˈmæɪnfest] **1.** *v* aniq koʻrsatmoq; **2.** *a* ochiq-oydin koʻrinib turgan, ayon, aniq, tushunarli.
- manifestation** [ˌmæɪnɪfəsˈteɪʃn] *n* namoyish; bildirish.
- manifesto** [ˌmæɪnɪˈfestəʊ] *n* manifest (*dastur xarakteridagi hujjat*).
- manifold I** [ˈmæɪnɪfəʊld] *a* turli-tuman, xilma-xil, rang-barang.
- manifold II** [ˈmæɪnɪfəʊld] *v* koʻpaytirmoq (*hujjatlar nusxasini*).
- manikin** [ˈmæni:kɪn] *n* pakana (*kichkina odam*).
- Manila** [məˈnɪlə] *n* manila kanop tolasi, manila sigarasi.
- manioc** [ˈmæni:ɒk] *n* manioka.
- maniple** [ˈmæni:pəl] *n* manipula.
- manipulate** [məˈnɪpjuleɪt] *v* notoʻgʻri talqin qilmoq.
- manipulation** [məˈnɪpjʊˈleɪʃn] *n* 1) manipulyatsiya (*qoʻl ishida murakkab va nozik harakatlar*); 2) hiyla, nayrang; 3) murojaat, murojaatnoma.
- manipulator** [məˈnɪpjuleɪtə] *n* motorchi (*motorlarga qarovchi ishchi, mutaxassis*); mashinist, operator.
- mankind** [ˈmæɪnˈkaɪnd] *n* insoniyat, kishilik, odamzod, bashariyat.
- manlike** [ˈmæɪnlɪk] *a* erkaklarga oid, erkaklarcha.
- manliness** [ˈmæɪnlɪnəs] *n* mardlik, botirlik, jasurlik.
- manly** [ˈmæɪnlɪ] *a* mard, botir, jasur, qahramon.
- man-made** [ˌmæɪnˈmeɪd] *a* 1) sunʻiy, yasama, gʻayritabiiy; 2) insonning qoʻli bilan yaratilgan.
- manna** [ˈmænə] *n bot.* bugʻdoy.
- manna-croup** [ˌmænəˈkru:p] *n* bugʻdoy yormasi.
- manned** [ˈmænd] *a* 1) odamlar bilan toʻlgan; 2) (*inson tomonidan*) boshqariladigan (*uchish apparatlarini*).
- mannequin** [ˈmæni:kɪn] *n* 1) maneken (*kiyimlarni namoyish qilish yoki oʻlchab koʻrish uchun gavda qolipi*); 2) tayyor kiyimlarni kiyib koʻrsatuvchi ayol.
- manner** [ˈmænə] *n* 1) uslub, usul; ~ **of speaking** gapirish usuli; 2) odat: **strange** ~s qiziq odat.
- mannered** [ˈmænəd] *a* 1) serhasham, bejamador (*uslub haqida*); 2) gʻayritabiiy (*uslub haqida*).
- mannered** [-ˈmænəd] murakkab soʻzlarda *u* yoki *bu* qiliq, odatda ega ekanligini bildiradi: *masalan: well*~ yaxshi odatli; *ill*~ yomon odatli.
- mannerism** [ˈmænəri:zm] *n* sulukat, qiliq, odat, xulq-atvor.
- mannerist** [ˈmænərist] *n* taqlidchi.
- mannerless** [ˈmænələs] *a* qoʻpol muomalali; tarbiyasiz, yomon tarbiya koʻrgan.

- mannerliness** [ˈmænəlɪnəs] *n* 1) muloyimlik, xushmuomalalik; 2) yaxshi tarbiya koʻrganlik.
- mannerly** [ˈmænəli] *a* 1) muloyim, silliq, xushmuomala; 2) tarbiyali; yaxshi tarbiya koʻrgan.
- manning** [ˈmæniŋ] *attr.* toʻldirib qoʻyilgan; but qilib qoʻymoq.
- mannish** [ˈmæntʃ] *a* erkaklarga oʻxshagan (*ayol haqida*).
- manoeuvrability** [məˌnuːvrəˈbɪləti] *n* *harb.* harakatchanlik, chaqqonlik.
- manoeuvre** [məˈnuːvə] *n* 1) manevr (*harbiy harakatlari*); 2) hiyla, nayrang, makr.
- man-of-war** [ˌmænəvˈwɔː] *n* harbiy kema; ~s *man* harbiy dengizchi.
- manometer** [məˈnɒmɪtə] *n* manometr.
- manor** [ˈmænə] *n* feodalning yer mulki.
- manor-house** [ˈmænəhaus] *n* feodalning uyi.
- manorial** [məˈnɔːriəl] *a* feodalning mulkiga oid.
- manpower** [ˈmænpaʊə] *n* 1) ishchi kuchi; 2) shaxsiy tarkib.
- mansard** [ˈmænsɑːd] *n* *meʼmor.* qiya shipli boloxona.
- manse** [mæns] *n* (*shotlandiyalik*) protestant mazhabidagi ruhoniyning uyi.
- mansion** [ˈmænsjən] *n* katta uy, saroy, dargoh.
- mansion-house** [ˌmænsjənˈhaus] *n* katta yer egasi (pomeshik)ning uyi.
- man-size(d)** [ˈmænsaɪz(d)] *a* voyaga yetgan kishilar uchun katta boʻlgan.
- manslaughter** [ˈmæns,slɔːtə] *n* qotillik, odam oʻldirish.
- mantel** [ˈmæntl] *n* *tex.* turli mexanizmlarning ustini oʻrab turuvchi qoplamasi.
- mantel-board** [ˈmæntlboːd] *n* kamin ustidagi taxta tokcha.
- mantelet** [ˈmæntlɪt] *n* mantilya (*ispan ayollarining yelkaga tashlab yuriladigan toʻr roʻmoli*).
- mantelpiece** [ˈmæntlpiːs] *n* oʻchoqsimon uy pechkasining qoplami.
- mantelshelf** [ˈmæntlʃelf] *n* kamin taxta tokchasi.
- mantes** [ˈmæntɪz] *pl* *mantis* *dan.*
- mantis** [ˈmæntsɪs] *n* (*pl* -**tes**) *zool.* beshiktervatar (*hasharot*).
- mantle** [ˈmæntl] *n* 1) yelkaga tashlanadigan yengsiz kiyim; 2) qoplama jild.
- mantlet** [ˈmæntlɪt] = *mantelet*.
- mantrap** [ˈmæntɹæp] *n* tuzoq, qopqon (*asosan, odamlarda*).
- manual I** [ˈmænjuəl] *a* qoʻlda olib yuradigan; qoʻl bilan boshqariladigan; ~ **labour** jismoniy mehnat.
- manual II** [ˈmænjuəl] *n* 1) qoʻllanma, darslik; 2) boshqarish.
- manufactory** [ˌmænjuˈfæktəri] *n* 1) fabrika; 2) sex; 3) manufaktura; 4) ustaxona.
- manufacture** [ˌmænjuˈfæktʃə] **1.** *n* ishlab chiqarish, korxonalar; **2.** *v* ishlab chiqarmoq; **to** ~ **shoes** oyoq kiyim ishlab chiqarmoq.
- manufactured goods** [ˌmænjuˈfæktʃəd,ɡʊdz] *n* *pl* sanoat mahsulotlari, fabrika mahsulotlari.
- manufacturer** [ˌmænjuˈfæktʃərə] *n* fabrika egasi; tadbirkor; ishlab chiqaruvchi kishi.
- manufacturing I** [ˌmænjuˈfæktʃəriŋ] *n* ishlab chiqarish; ~ **cost** ishlab chiqarish narxi.
- manufacturing II** [ˌmænjuˈfæktʃəriŋ] *a* sanoatga oid.
- manuka** [mæˈnʊkə] *n* choy daraxti.
- manumission** [ˌmænjuˈmɪʃn] *n* ozod qilish, ozodlik hujjati, ozodlik xati (*qullikdan*).
- manumit** [ˌmænjuˈmɪt] *v* ozod qilmoq, qutqarmoq.
- manure** [məˈnjuə] **1.** *n* goʻng, oʻgʻit; **2.** *v* goʻng (oʻgʻit) solmoq.
- manuscript** [ˈmænjʊskɪpt] *n* qoʻlyozma (*qoʻlda yozilgan matn*); ~ **on paper** qogʻozdagi qoʻlyozma.
- Manx** [mæŋks] **1.** *a* Men oroliga oid; **2.** *n* Men orolida yashaydigan aholi tili.
- Manxman** [ˈmæŋksmən] *n* Men orolining fuqarosi, Men orolida yashaydigan kishi, menlik kishi
- many** [ˈmeni] **1.** *a* 1) koʻp, ancha, bir talay; ~ **people** koʻp odamlar; **2.** *n* koʻpdan koʻp, juda koʻp, koʻpgina kishilar.
- many-sided** [ˌmeniˈsaɪdɪd] *a* har tomonlama, har taraflama.
- many-stage** [ˌmeniˈstɛdʒ] *a* koʻp pogʻonali.
- Maori** [ˈmaʊri] *n* (*pl*-s [-z] *yoki* oʻzgarishsiz) maori, maori tili.
- map** [mæp] **1.** *n* xarita; **a** ~ **of the world** dunyo xaritasi; **2.** *v* xaritaga kiritmoq, xaritani chizmoq.
- maple** [ˈmeɪpl] *n* 1) zarang (*daraxt*); 2) *attr.* zarang daraxtiga oid, zarang yogʻochidan qilingan.
- maple-leaf** [ˈmeɪpliːf] *n* zarang daraxtining bargi.
- map-maker** [ˈmæpˌmeɪkə] *n* kartograf (*xaritalar tuzuvchi mutaxassisi, kartografiya mutaxassisi*).
- mapping** [ˈmæpɪŋ] **1.** *pres. p.* **map** **2.** *dan;* **2.** *n* xaritaga kiritish, xaritaga olish.
- map range** [ˌmæpˈreɪndʒ] *n* *harb.* gorizontal masofa (*xarita boʻyicha*).
- Maquis** [mæˈkiː] *n* *fr.* (*pl* oʻzgarishsiz) maki (*Ikkinchi Jahon urushidagi fransuz partizanining nomi*).
- mar** [mɑː] **1.** *n* urilgan joy, lat yegan joy; **2.** *v* urmoq, ziyon keltirmoq.
- marabou** [ˈmæɾəbuː] *n* *zool.* marabu, marbut (*laylaklarga mansub katta qush*).
- marabout** [ˈmæɾəbuːt] *n* tarki dunyo qilgan musulmon.
- marasmus** [məˈræzməs] *n* 1) maʼnaviy tushkunlik; 2) kuch-quvvatdan qolish.
- Marathon** [ˈmæɾəθən] *n* marafon yugurishi.
- maraud** [məˈrɔːd] *v* 1) shilmoq, talamoq, bosqinchilik qilmoq; qimmat sotib talamoq; 2) kafanduzdlik qilmoq.
- marauder** [məˈrɔːdə] *n* 1) qimmatfurus savdogar; 2) kafanduz.

marauding [məˈrɔːdɪŋ] **1.** *pres. p. maraud dan;* **2.** *n* kafanduzdlik, talovchilik, qimmatfurushlik.
marble [ˈmɑːbl] *n* marmar, marmartosh.
marbled [ˈmɑːbld] *a* ola-chipor, xol-xol dogʻli.
marble-topped [ˌmɑːbl ˈtɒpt] *a*: ~ **table** marmar taxtali stol.
marc [mɑːk] *n* siqish (mevalarni).
marcel [mɑːˈsel] **1.** *n* sochni qattiq qilib oʻrish; **2.** *v* sochlarni issiq qisqich (fen) bilan jingalak qilib oʻrmoq.
March [mɑːtʃ] *n* mart; ~ **days** mart kunlari.
march I [mɑːtʃ] *harb.* *n* yurish, namoyish, marsh.
march II [mɑːtʃ] *v* chegaradosh boʻlmoq.
march III [mɑːtʃ] *v* marsh qilmoq, olgʻa bormoq.
marching [ˈmɑːtʃɪŋ] *n* harbiyicha qadam tashlab yurish.
marchioness I [ˈmɑːʃənɪs] *n* eshik (deraza) soya-boni.
marchioness II [ˈmɑːʃənɪs] *n* markiza.
marchpane [ˈmɑːtʃpeɪn] *n* magʻiz xamir.
march past [ˈmɑːtʃpɑːst] *n* tantana bilan yurib oʻtish.
mare [mɛə] *n* baytal, biya.
mare's-nest [ˈmeəznɛst] *n* amalga oshmaydigan xom xayol.
margarine [ˌmɑːdʒəˈriːn] *n* margarin.
marge I [mɑːdʒ] = **margin I**.
marge II [mɑːdʒ] = **margarine**.
margin I [ˈmɑːdʒɪn] *n* hoshiya, qirgʻoq, chet.
margin II [ˈmɑːdʒɪn] *v* hoshiyaga (*chetiga*) qayd qilmoq.
marginal [ˈmɑːdʒɪnəl] *a* 1) kitob chetiga yozilgan; 2) chetda turadigan.
marginalia [ˌmɑːdʒɪˈneɪliə] *n pl* kitob chetidagi qaydlar.
margrave [ˈmɑːgreɪv] *n tar.* markgraf.
margravine [ˈmɑːgrəviːn] *n* markgraf xotini.
margarite [ˌmɑːgəˈriːt] *n bot.* dastorgul.
margold [ˈmæriɡəʊld] *n bot.* 1) gulidovud, gulijavhar; 2) gulhamishabahor.
marihuana [ˈmæriˈwɑːnə] *n isp.* marixuana, nasha.
marijuana [ˌmæriˈwɑːnə] = **marihuana**.
marimba [ˈmɑːrɪmbə] *n* marimba (*musiqqa asbobi*).
marina [ˈmɑːriːnə] *n* qayiqilar turadigan joy.
marinade [ˌmæriˈneɪd] **1.** *n* ziravorli sirkamoy; **2.** *v* 1) ziravorli sirkamoy bosmoq; 2) tuzlamoq, tuzlab qoʻymoq.
marine [ˈmɑːriːn] *n* 1) dengiz floti; 2) dengiz floti askari; 3) dengiz manzarasi tasvirlangan rasm.
mariner [ˈmæriːnə] *n* matros, dengizchi.
marionette [ˌmæriənəˈnet] *n* qoʻgʻirchoq (*oʻyinchi qoʻgʻirchoq*).
marital [ˈmæriːtl] *a* er-xotinga va er-xotinlikka oid.
maritime [ˈmæriːtɪm] *a* dengizga oid; ~ **climate** dengiz iqlimi.
marjoram [ˈmɑːdʒərəm] *n bot.* mayoran.
mark I [mɑːk] *n* 1) belgi, nishona, koʻrsatkich; ~ **of accent** urgʻu belgisi; 2) tamgʻa, shtamp; 3) iz;

~**s of illness** kasallik belgisi; 4) yamoq, chandiqlik; 5) marka; 6) baho, ball; **good ~ in English** ingliz tilidan yaxshi baho.
mark II [mɑːk] *v* 1) belgi qoʻymoq; **to ~ the accent** urgʻu qoʻymoq; 2) tamgʻalamoq, belgilamoq; marka qoʻymoq; 3) oʻlchamoq, belgilamoq; 4) iz qoldirmoq; 5) baholamoq, belgilamoq; 6) fikrini bildirmoq; ~ **down** pasaytirmoq, kamaytirmoq; ~ **off** ajratmoq; ~ **out** oʻlchamoq; ~ **up** koʻtarilmoq (*narx toʻgʻarisida*).
mark-down [ˈmɑːkdaʊn] *n* narxlarning pasayishi.
marked [mɑːkt] *a* belgilangan.
marker [ˈmɑːkə] *n* tamgʻa bosuvchi, tamgʻalovchi kishi.
market [ˈmɑːkɪt] **1.** *n* bozor; ; **home ~** ichki bozor; **2.** *v* bozorga olib kelmoq, bozorda sotib olmoq; **to go to the ~** bozorga bormoq.
marketability [ˌmɑːkɪtəˈbɪləti] *n* bozorda sotishga yaroqlilik.
marketable [ˈmɑːkɪtəbl] *a* bozori chaqqon, bozorgir, tez sotiladigan (*tovarga, molga nisbatan*).
market-day [ˈmɑːkɪtdeɪ] *n* bozor kuni.
marketeer [ˌmɑːkiˈtiə] *n* savdogar, doʻkondor, xaridor.
market garden [ˌmɑːkɪtˈgɑːdn] *n* poliz, poliz ekinlari (sabzavot) ekilgan yer.
marketing [ˈmɑːkɪtɪŋ] **1.** *pres. p. market 2. dan;* **2.** *n* savdo, savdo-sotiq.
market-place [ˌmɑːkɪtpleɪs] *n* bozor maydoni.
market-price [ˌmɑːkɪtˈpraɪs] *n* bozor bahosi.
marking [ˈmɑːkɪŋ] *n* 1) marka, belgi, tamgʻa; 2) rang-barang qilib boʻyash.
markka [mɑːkə] *n* marka (*Finlandiya pul birligi*).
marksman [ˈmɑːksmən] *n* mergan otuvchi, mergan.
marksmanship [ˈmɑːksmənʃɪp] *n* bexato otilgan oʻq.
mark-up [ˈmɑːkʌp] *n* (*mol, tovarning*) narxining koʻtarilishi.
marl [mɑːl] *n* mergel, ohakgil.
marline [ˈmɑːliːn] *n* deng. marlin.
marly [ˈmɑːli] *a* geol. ohakgilga oid.
marmalade [ˈmɑːməleɪd] *n* 1) quyuq shinni; 2) povidlo, meva qiyom; 3) marmelad.
marmoreal [mɑːˈmɔːriəl] *a* marmarga oid.
marmoset [ˈmɑːməzet] *n* maymun (*martishka zoti*).
marmot [ˈmɑːmət] *n* zool. sugʻur.
maroon [mɑːˈruːn] **1.** *n* toʻq qizil rang; **2.** *a* toʻq qizil.
marplot [ˈmɑːplɒt] *n* toʻsiq, toʻsiqlik, gʻov.
marquee [mɑːˈkiː] *n* katta chodir.
marquis [ˈmɑːkwɪs] *n* markiz (*baʻzi Gʻarbiy Yevropa mamlakatlarida: dvoryanlar unvoni va shu unvonga ega boʻlgan kishi*).
marquise [mɑːˈkiːz] *n* markiza (*markizning xotini yoki qizi*).
marquissette [ˌmɑːkwɪˈzet] *n* markizet.

- marriage** [ˈmæridʒ] *n* er-xotinlik, uylanish, nikoh, turmushga chiqish.
- marriageable** [ˈmæridʒəbl̩] *a* katta yoshli, voyaga yetgan; **a girl of ~ age** voyaga yetgan qiz.
- married** [ˈmærid] **1. p. p. marry** *dan*; **2. a** uylangan, turmushga chiqqan; ~ **man** uylangan erkak; **to get ~** turmushga chiqmoq.
- marrow** [ˈmæərəʊ] *n* 1) ilik; 2) mohiyat, asosiy ma'no.
- marrowbone** [ˈmæərəʊbəʊn] *n* 1) bosh miya suyagi; 2) ilikli suyak; asl ma'no, mazmun.
- marrow squash** [ˈmæərəʊˈskwɒʃ] *n bot.* qovoqcha (*qovoqning mayda uzunchoq bir turi*).
- marrowy** [ˈmæərəʊi] *a* miyasi butun, baquvvat.
- marry** [ˈmæri] *v* 1) uylantirmoq, xotin olib bermoq; 2) erga bermoq; 3) uylanmoq; 4) erga tegmoq.
- Mars** [mɑːz] *n astr.* Mars (*Quyosh sistemasidagi to'qqizta katta planetalardan biri*).
- Marsala** [mɑːˈsɑːlə] *n* marsala (*vino*).
- Marseillaise** [ˌmɑːsɔːˈleɪz] *n fr.* marselyeza (*1792-yili Fransiya burjua revolyutsiyasi davrida yaratilgan revolyutsion qo'shiq, keyinchalik Fransiyaning gimni*).
- marsh** [mɑːʃ] *n* botqoq, botqoqlik.
- marshal** [ˈmɑːʃəl] *n* marshal.
- marshalling yard** [ˈmɑːʃəlɪŋjɑːd] *n* (*vagonlarni*) saralaydigan stansiya.
- marsh gas** [ˈmɑːʃgæs] *n* metan, botqoq gazi.
- marsh harrier** [ˈmɑːʃˌhæriə] *n zool.* botqoqlikda (to'qayda) yashaydigan bo'ktargi (*yirtqich qushlarning bir turi*).
- marshland** [ˈmɑːʃlænd] *n* serbotqoq joy.
- marsh mallow** [ˌmɑːʃˈmæləʊ] *n bot.* dorivor gulxayri.
- marshy** [ˈmɑːʃi] *a* botqoqlik joylari ko'p bo'lgan, serbotqoq.
- marsupial I** [mɑːˈsjuːpiəl] *n zool.* qopchiqli hayvon, xaltali hayvon.
- marsupial II** [mɑːˈsjuːpiəl] *a* xaltali, qopchiqli.
- mart** [mɑːt] *n* 1) *shoir.* bozor; 2) savdo markazi.
- marten** [mɑːtɪn] *n* suvsar (*qimmatbaho mo'ynali yirtqich sutemizuvchilarning bir turi*).
- martial** [ˈmɑːʃəl] *a* jangovar, harbiyga oid; ~ **law** a) harbiy holat; b) harbiy payt qonuni.
- Martian** [ˈmɑːʃn] *n* marslik.
- martin** [ˈmɑːtɪn] *n* shahar qaldirg'ochi.
- martinet** [ˌmɑːtɪˈnet] *n* qattiq intizom tarafdori.
- martingale** [ˈmɑːtɪŋgeɪl] *n qarta.* dov (*qimorga tikilgan pulning yutqazganda ikki baravar ko'payishi*).
- Martini** [mɑːˈtiːni] *n* martini (*kokteyl*).
- Martinmas** [ˈmɑːtɪnməs] *n cherk.* Martin kuni (*11-noyabr*).
- martlet** [ˈmɑːtɪt] *n* 1) jonim, jonginam; 2) *zool.* qora jarqaldirg'och; qora uzunqanot.
- martyr** [ˈmɑːtə] **1. n** azob tortgan, aziyat chekkan; **2. v** azob bermoq, aziyat chekmoq.
- martyrdom** [ˈmɑːtədəm] *n* azob-uqubatdagi ahvol, azob-uqubat tortish.
- martyrize** [ˈmɑːtəraɪz] *v* azoblamoq, zulm qilmoq.
- marvel** [ˈmɑːvl̩] **1. n** mo'jiza, karomat; **2. v** ajablanmoq, hayron bo'lmoq.
- marvellous** [ˈmɑːvələs] *a* ajoyib, kishini hayron qiladigan (*hayratda qoldiradigan*).
- marzipan** [ˈmɑːzɪpæn] = **marchpane**.
- mascara** [ˈmæsˈkɑːrə] *n* qoshga qo'yadigan tush, bo'yoq, rang.
- mascot** [ˈmæskət] *n* tumor.
- masculine** [ˈmɑːskjʊlɪn] *a* 1) erkaklarga xos bo'lgan, erkaklarcha; 2) *gram.* ~ **gender** erkak jinsi.
- masculinity** [ˈmæskjuːˈlɪnəti] *n* mardlik, botirlik, jasurlik, qahramonlik, dovyuraklik.
- mash I** [mæʃ] *n* atala (*pivo qilish uchun tayyorlanadigan g'alla atalasi*).
- mash II** [mæʃ] **1. n** 1) zavq, ishtiyoq; 2) qiziqish, ishqivozlik; **2. v** o'ziga tortmoq, jalb qilmoq, qiziqitirib qo'yamoq.
- mashed potatoes** [ˌmæʃtpeɪˈteɪtəʊz] *n pl* kartoshka pyuresi.
- masher I** [ˈmæʃə] *n* mevalarni ezib suvini chiqaradigan qurilma.
- masher II** [ˈmæʃə] *n* olifta, satang.
- mask** [mɑːsk] *n* 1) maska, niqob; 2) protivogaz.
- masked** [ˈmɑːskt] *a* boshqacha kiyim kiygan, boshqacha kiyingan.
- masker** [ˈmɑːskə] = **masquer**.
- mason** [ˈmeɪsn] *n* g'isht teruvchi (*quruvchi*) usta.
- Masonic** [məˈsɒnɪk] *a* masonlik, masonga oid (*mason - VIII asrda paydo bo'lgan diniy, falsafiy oqim; uning tarafdorlari axloqni kamolotga yetkazish vazifasini qo'ygan, lekin siyosatda reaksiya yo'l tutgan*).
- masonry** [ˈmeɪsnri] *n* toshdan qurilgan devor.
- masque** [mɑːsk] *n* niqob teatri.
- masquer** [ˈmɑːskə] *n* balmaskarad yoki niqob teatrlig ishtirokchisi.
- masquerade I** [ˌmæskəˈreɪd] *n* 1) maskarad, niqoblanish, yasama tus olish; 2) o'zini boshqa qilib ko'rsatish.
- masquerade II** [ˌmæskəˈreɪd] *v* maskaradda qatnashmoq.
- mass** [mæs] *n* omma, ko'pchilik.
- massacre** [ˈmæsəkə] **1. n** qirg'in, xunrezlik; **2. v** xunrezlik qilmoq.
- massage** [ˈmæsɑːʒ] **1. n** massaj, silash, uqalash; **2. v** silamoq, uqalamoq.
- masseur** [mæˈsɔː] *n fr.* massajchi (uqalovchi) kishi.
- masseuse** [mæˈsɔːz] *n fr.* massajchi (uqalovchi) ayol.
- massicot** [ˈmæksɪkət] *n* qo'rg'oshin oksidi (*sariq bo'yoq*).
- massif** [ˈmæsiːf] *n* keng tog'li joy.
- massive** [ˈmæsɪv] *n* 1) salmoqdor, yirik; 2) ulkan, katta; ~ **storm** qattiq bo'ron.

mass-produce [ˌmæsprɔːdʒuːs] *v* ko'p ishlab chiqarmoq.

mass-spectrograph [ˌmæsˈspektrəʊgrɑːf] *n fiz.* mass-spektrograf (*spektr tasvirini yozib oladigan asbob*).

massy [ˈmæsi] *a* 1) mustahkam, puxta, ishonchli; 2) katta, yirik.

mast I [mɑːst] *n q.x.* yig'ishtirilgan xashak, pichan (*hosili*).

mast II [mɑːst] *n* machta (*kemaning yelkan osish, kuzatish, signal berish uchun xizmat qiladigan metall yoki yog'och ustuni, dori*).

mast III [mɑːst] *v* machta qo'yimoq (o'rnatmoq).

master I [ˈmɑːstə] *n* 1) xo'jayin, ega, sohib, usta; ~ **of a shop** magazin egasi; 2) o'qituvchi; **mathematics** ~ matematika o'qituvchisi; 3) kollej boshlig'i; 4) magistr; 5) o'z ishining ustasi; 6) buyuk, mashhur rassom; 7) kapitan (*dengiz korabli*).

master II [ˈmɑːstə] *v* 1) yengmoq (*qiyinchiliklarni*); **to ~ the enemy** dushmani yengmoq; **to ~ a difficulty** qiyinchilikni yengmoq; 2) egallamoq (*bilim, til*); **to ~ a language** tilni egallamoq; 3) boshqarmoq; **to ~ the house** xo'jalikni boshqarmoq.

masterly [ˈmɑːstəli] **1.** *a* mahorat bilan bajariladigan, mohirona; **2.** *adv* mahorat bilan, ustalik bilan.

mastermind [ˈmɑːstəmaɪnd] *n* 1) zo'r aql; 2) yo'l-boshchi, yetakchi, boshliq, ishboshi (*asosan, maxfiy, norasmiy*).

masterpiece [ˈmɑːstəpiːs] *n* shoh (durdona) asar.

mastery [ˈmɑːstəri] *n* ustalik, mahorat.

masticate [ˈmæstikeɪt] *v* 1) qormoq, pishitmoq; 2) chaynamoq, kavshamoq; yemoq.

mat I [mæt] **1.** *n* 1) bo'yra, to'shak kabi narsalarning umumiy nomi; 2) dag'al poyandoz, oyoqartkich; 3) gilamcha, kichkina gilam; 4) chigallashib ketgan narsa; **2.** *v* 1) gilam va b. to'shamoq; 2) chigallashtirmoq, chalkashtirmoq, adashtirmoq.

mat II [mæt] *a xira, yaltiramaydigan, nursiz, jilosiz.*

match [mætʃ] **1.** *n* 1) gugurt; **to shine a ~** gugurt yoqmoq; 2) *sport.* musobaqa.

match-box [ˈmætʃbɒks] *n* gugurt quti.

matchless [ˈmætʃləs] *a* 1) beqiyos, bemsil, misli yo'q, tengsiz, ajoyib, yakka-yagona; 2) eng birinchi, eng yaxshi, eng mukammal, hech kim (hech narsa) oldiga tusholmaydigan, teng kelolmaydigan.

mate [meɪt] *n* 1) o'rtoq; **class ~** sinfdosh; 2) er, xotin, rafiq.

material I [məˈtɪəriəl] *a* 1) moddiy, ashyoviy; 2) muhim.

material II [məˈtɪəriəl] *n* 1) ashyo, material; **building ~s** qurilish materiallari; 2) *to'qim.* gazlama, gazmol.

materialism [məˈtɪəriəlɪzəm] *n* materializm.

materialist [məˈtɪəriəlɪst] *n* 1) materializm tarafdori; 2) manfaatparast, o'z manfaatini ko'zlab ish tutuvchi odam.

materialistic [məˈtɪəriəlɪstɪk] *a* materialistik.

materialize [məˈtɪəriəlaɪz] *v* amalga oshirmoq (*reja va b. ni*); hayotga tatbiq qilmoq.

maternal [məˈtɜːnəl] *a* 1) onalarga xos bo'lgan, onalarcha; 2) ona tomondan.

maternity [məˈtɜːnəti] *n* onalik; ~ **hospital** tug'ruqxona.

mathematics [ˌmæθəˈmætrɪks] *n* matematika.

matinée [ˌmætiːni] *n fr.* spektakl yoki konsertning kunduzgi seansi.

matriculate [məˈtrɪkjuleɪt] **1.** *v* oliy o'quv yurtiga qabul qilinmoq yoki qabul qilmoq; **2.** *n* oliy o'quv yurtiga qabul qilingan kishi.

matrimony [ˈmætrɪməni] *n* er-xotinlik, nikoh.

matron [ˈmeɪtrən] *n* 1) turmush qurgan ayol; 2) bosh hamshira.

matt [mæt] *a* nursiz, xira, jilosiz.

matter [ˈmætə] *n* 1) modda; 2) *filos.* materiya; 3) masala, ish; **radioactive** ~ radioaktiv modda.

matting [ˈmætnɪŋ] *n* 1) bo'yra; bordon; 2) chipta (*dag'al buyumlar to'qish uchun tayyorlangan yuqqa tilim-tilim po'stloq va undan to'qilgan narsa*).

mattock [ˈmætək] *n* 1) ketmonsimon asbob; 2) das-taki so'qa (*so'qa – yer haydash uchun ishlatiladigan cho'yan tishli sodda asbob*); omoch; 2) qo'sh-bosh (*bir oyog'i kirkaga, bir oyog'i teshaga o'xshagan ikkiyoqlama asbob*).

matress [ˈmætrəs] *n* matras, to'shak.

mature [məˈtʃuə] **1.** *a* 1) pishgan, yetilgan; 2) o'sgan; katta bo'lgan; **2.** *v* katta bo'lmoq, yetilmoq.

maturity [məˈtʃuərəti] *n* 1) yetilganlik, pishganlik; 2) tugaganlik, oxiriga yetganlik.

maudlin [ˈmɑːdlɪn] **1.** *a* 1) yig'loqi; chakagi ochiq, seryig'i (*masligida*); 2) ko'ngli bo'sh, tez ta'sirlanuvchan; **2.** *n* erkalik, tantiqlik.

maul [mɔːl] **1.** *n* bosqon, katta bolg'a; **2.** *v* burdalamoq, tilka-pora qilmoq.

maunder [ˈmɑːndə] *v* ming'illamoq, g'ulduramoq, to'ng'illamoq, tushunib bo'lmaydigan tarzda so'zlam.

mausoleum [ˌmɔːsəˈliːəm] *n* maqbara, qabr, go'r.

mauve [məʊv] *a* qizg'ish binafsharang.

mawkish [ˈmɔːkɪʃ] *a* 1) ko'ngilni aynitadigan, ko'ngilga tegadigan, ko'ngilga uradigan; 2) ortiq darajada hissiyotga beriladigan, ko'ngli bo'sh, tez ta'sirlanuvchan.

maxim [ˈmæksɪm] *n* 1) hikmatli so'z; ibora; 2) shior; tamoyil.

maximize [ˈmæksɪmaɪz] *v* maksimallashtirmoq.

maximum [ˈmæksɪməm] *n* maksimum (*eng katta qiymat, eng ko'p miqdor, eng yuqori daraja*).

May [meɪ] *n* may.

may I [meɪ] **1.** *v* (**might**) 1) modal fe'l bo'lib imkon borligini bildiradi va quyidagicha tarjima bo'ladi: ehtimol, balki, shoyad; 2) iltimos va ruxsatni bildiradi: **May I come in?** Kirsam maylimi? **may II** [meɪ] *n* shoir. qiz.

maybe [ˈmeɪbi] *adv* ehtimol. balki, yoki.

mayonnaise [ˌmeɪˈneɪz] *n* mayonez.
mayor [meɪə] *n* mer (*ba'zi mamlakarlarda: shahar boshqarmasining boshlig'i*), shahar hokimi.
maze [meɪz] **1.** *n* 1) chalkash yo'l, yo'lak, ko'cha va sh.k.; 2) chigallik, chalkashlik; **2.** *v* 1) og'ir (qiyin) ahvolga solib qo'yimoq; 2) sarosimaga solib qo'yimoq.
me [mi:] *pron.* men, menga.
meadow [ˈmedəʊ] *n* o'tloq, yaylov.
meagre [ˈmi:ɡə] **1)** yomon, yaramas; **2)** foydasi kam, unumsiz.
meal I [mi:l] *n* ovqat; oziq.
meal II [mi:l] *v* ovqatlanmoq; ovqat yemoq.
mealtime [ˈmi:ltaɪm] *n* ovqat(lanish) vaqti (*masalan: nonushta, tushlik va b.*).
mealy [ˈmi:lɪ] **1)** kraxmalli; tarkibida un yoki kraxmal bo'lgan; serkraxmal; **2)** unli, un solingan, undan (xamirdan) tayyorlangan.
mean I [mi:n] *v* 1) nazarda tutmoq; 2) bildirmoq; 3) ma'no anglatmoq.
mean II [mi:n] *a* yomon.
meander [miˈændə] *v* 1) buralib (egri-bugri bo'lib) ketmoq (*daryo va ko'chaga nisbatan*); 2) daydib yurmoq.
meaning [ˈmi:nɪŋ] *n* ahamiyat, ma'no; mazmun; ~less ahamiyatsiz.
means [mi:nz] *n* 1) iloj, chora; 2) vosita.
meant [ment] *past., p. p.* **mean I dan.**
meantime [ˈmi:nˈtaɪm] *adv* shu (orada) paytda.
meanwhile [ˈmi:nˈwaɪl] = **meantime.**
measles [ˈmi:zls] *n* 1) qizamiq; 2) finnoz (*finnalar qo'zg'atadigan kasallik*).
measly [ˈmi:zli] *a* ozgina, arzimagan, juda kichkina.
measure I [ˈmeɪʒə] *n* 1) me'yor, 2) o'lchov, katta-kichiklik; **liner** ~ maydonning uzunlik o'lchovi; 3) tadbir, chora.
measure II [ˈmeɪʒə] *v* 1) o'lchamoq; **to ~ a piece of cloth** bir parcha materialni o'lchamoq; 2) tenglamoq; sinab ko'rmoq; **to ~ one's strength with smb.** kim bilandir kuchini sinab ko'rmoq; 3) chegarani belgilamoq; ~ **off** o'lchab bo'lmoq; ~ **up** yetmoq, erishmoq; ~ **out** o'lchab chiqmoq.
meat [mi:t] *n* 1) go'sht; ~ly go'shtli; 2) ovqat; **at** ~ ovqat ustida; **after** ~ ovqatdan keyin; **before** ~ ovqatdan oldin.
meat-ball [ˈmi:tɒ:l] *n* frikadelka (*sho'rvada pishirilgan yumaloq qiyma*).
meat-chopper [ˈmi:t.tʃɒpə] *n* myasorubka (*go'shtni qiymaga aylantiradigan moslama*); go'shtqiyimalagich.
meat-grinder [ˈmi:t.ɡraɪndə] = **meat-chopper.**
mechanic [miˈkænik] *n* mexanik, mashinist.
mechanical [miˈkænikl] *a* mashinada bajarladigan, mashinaviy, mexanik.
mechanism [mekəˈnɪzəm] *n* 1) mexanizm, qurilma; 2) tizim, sistema.
mechanize [mekəˈnaɪz] *v* mexanizatsiyalashtirmoq.

medal [ˈmedl] *n* 1) medal; 2) orden.
medallion [miˈdæljən] *n* medalyon.
meddle [ˈmedl] *v* birovning shaxsiy ishiga aralashmoq (**with, in**).
media I [ˈmi:diə] *n* ommaviy axborot.
media II [ˈmedɪə] *n fon.* jarangli undosh.
mediaeval [ˌmedɪˈi:vəl] = **medieval.**
medial [ˈmi:djəl] **1)** o'rta, o'rtacha; o'rta hisobdagi; **2)** o'rtalikdagi, oraliqdagi.
median [ˈmi:dɪən] **1.** **a** 1) o'rtalikdagi, oraliqdagi; **2)** o'rtadagi, o'rtasidagi; **2.** *n mat.* mediana (*uchburchakning uchidan qarshi tomonning o'rtasiga o'tkazilgan kesma*).
mediate [ˈmi:diət] **1.** *n* vositachi; **2.** *v* vositachilik qilmoq; **to ~ between two warring countries** ikki urushayotgan mamlakat orasida vositachilik qilmoq.
mediation [ˌmi:diˈeɪʃn] *n* vositachilik, aralashuv.
mediator [ˈmi:diətə] *n* vositachi (*murosaga keltiruvchi kishi*); dallo.
medical [ˈmedɪkl] *a* tibbiyotga oid, tibbiy; ~ **service** tibbiy xizmat; ~ **aid** tibbiy yordam.
medicine [ˈmedsən] *n* 1) tibbiyot; **to study ~** tibbiyotni o'rganmoq; 2) dori, dori-darmon.
medieval [ˌmedɪˈi:vəl] *a* o'rta asrlarga oid; o'rta asrlarga xos bo'lgan, o'rta asrlardagi.
mediocre [ˌmi:diˈəʊkə] *a* o'rtacha, o'rta-miyona, oddiy.
meditate [ˈmedɪteɪt] *v* chuqur o'ylamoq; fikr yuritmoq; mulohaza qilmoq.
Mediterranean [ˌmedɪtəˈreɪniən] *a* dengiz qirg'og'idan uzoqlashgan.
medium [ˈmi:dɪəm] *n* usul, yo'l.
medley [ˈmedli] *n* 1) aralashma, qorishma; 2) aralash-quralash narsa, qorishiq narsa, qorishma, aralashma; 2) har xil (aralash-quralash) odamlar, olomon, betartib yig'in.
meek [mi:k] *a* mo'min, mo'min-qobil; yuvosh, beozor, muloyim, yumshoq.
meekness [ˈmi:knəs] *n* yuvoshlik, beozorlik, mo'minlik, yumshoqlik.
meet [mi:t] *v* (**met; met**) **1)** uchratmoq, uchrashmoq; **to ~ smb. in the street** kimnidir ko'chada uchratmoq; **2)** tanishmoq; **We met in London.** Biz Londonda tanishganmiz (uchrashganmiz); **3)** kutib olmoq.
meeting [ˈmi:tɪŋ] **1.** *pres. p.* **meet dan;** **2.** *n* yig'in, majlis, yig'ilish.
megaphone [ˈmegəfəʊn] *n* megafon (*ovozni kuchaytiradigan karnay*).
melancholy [ˈmeləŋkəli] **1.** *n* ma'yuslik, g'amginlik; **2.** *a* ma'yus, g'amgin.
meliorate [ˈmi:lɪəreɪt] *v* 1) yaxshilanmoq, tuzalmoq; 2) yaroqli holga keltirmoq.
mellifluous [meˈlɪfluəs] *a* xushomadgo'y; xushomadli; tilyog'lama, shirinsuxan.
mellow [ˈmeləʊ] **1)** yetilgan, pishgan (*mevalar haqida*); **2)** shirali, yoqimli; **3)** dono, aqlli.

melodious [mɪˈləʊdiəs] *a* xushohang, ohangdor, yoqimli.

melodrama [ˈmelə,dɾɑ:mə] *n* melodrama (*voqealarni nihoyatda boʻrttirib taʼsirchan qilib tasvirlaydigan drama janri va shu janrdagi asar*).

melody [ˈmelədi] *n* kuy, ohang, navo.

melon [ˈmelən] *n* qovun; **water** ~ tarvuz.

melt [melt] *v* erimoq; eritmoq.

melting [ˈmeltɪŋ] *a* 1) eriydigan; 2) nozik; nafis; yumshoq.

melting-pot [ˈmeltɪŋpɒt] *n* tigel (*oʻtga chidamli gildan qilingan qozon*).

member [ˈmembə] *n* aʼzo; **M. of Parliament** parlament aʼzosi.

membership [ˈmembəʃɪp] *n* 1) aʼzolik; 2) aʼzolar miqdori, tarkibi.

membrane [ˈmembreɪn] *n* 1) *anat.* parda; **pulmonary** ~ oʻpka pardasi; 2) poʻst, poʻstloq, poʻchoq.

memento [məˈmentəʊ] *n* esdalik, xotira.

memoir [ˈmemwɑ:] *n* 1) qisqacha tarjimayi hol; 2) *pl* xotiranomalar, yodnomalar.

memo [ˈmeməʊ] *n* bayonnoma, bayonot.

memorable [ˈmemərəbl] *a* unutilmas, unutilmaydigan, unutilib boʻlmaydigan, esdan chiqmaydigan.

memorandum [ˌmeməˈrændəm] *n* 1) bayonnoma, bayonot; 2) qayd, yozma xotira; 3) xotira (esdalik) uchun yozilgan xat.

memorial [məˈmɔ:riəl] *n* 1) haykal; 2) qadimiy yodgorlik.

parameter [ˈpærəmi:tə] *n mat.* parametr, miqdor.

paramilitary [ˌpærəˈmɪlɪtəri] *a* harbiylashgan; harbiylashtirilgan.

paramount [ˈpærəmaʊnt] *a* birinchi darajali, oliy.

paramour [ˈpærəmuə] *n* 1) o'ynash, jazman; 2) oshiq, ma'shuq, mahbub.

paranoia [ˌpærəˈnoɪə] *n tib.* paranoya (*ruhiy kasallik*).

parapet [ˈpærəpɪt] *n* suyanchiq, to'siq, panjara.

paraphernalia [ˌpærəfəˈneɪriə] *n pl* shaxsiy mol-mulk (bisot, dunyo).

paraphrase [ˈpærəfreɪz] *v* 1) aytib (so'zlab) bermoq, gapirib bermoq, boshqa so'zlar bilan aytib bermoq; 2) qayta hikoya qilmoq.

paraplegia [ˌpærəˈpli:dʒə] *n tib.* paraplegiya.

parasite [ˈpærəsəɪt] *n* 1) tekinxo'r, ishyoqmas, haromtovoq; 2) *biol.* parazit (*boshqa organizm hisobiga yashovchi organizm*).

parasitic(al) [ˌpærəˈsɪtɪk(əl)] *a* 1) parazitga xos, parazit; 2) tekinxo'r, haromtovoq.

parasol [ˈpærəsəl] *n* kichkina soyabon (*quyoshdan saqlash uchun*).

paratroops [ˈpærətru:ps] *n pl* parashut qismi.

parboil [ˈpɑːbɔɪl] *v* 1) qaynatmoq, qaynatib pishirmoq; 2) qaynoq, suvga botirib olmoq; 3) terlamoq, isib ketmoq.

parcel [ˈpɑːsəl] *n* 1) posilka; 2) paket, qog'oz paket, qog'ozga o'ralgan narsa.

parch [pɑːtʃ] *v* 1) quritmoq, qotirmoq, qoq qilmoq, suvini chiqarmoq; 2) salgina qovurmoq.

parched [pɑːtʃt] **1. p. p.** **parch dan;** **2. a** 1) kuydirilgan, yondirilgan; 2) qurigan, qurib qolgan.

parchment [ˈpɑːtʃmənt] *n* pergament (*suv, yog'ni o'ziga shimmaydigan qilib ishlangan qog'oz*).

pardon [ˈpɑːdn] **1. n** 1) kechirim, afv, kechirish; 2) afv etish, gunohidan o'tish, kechirib yuborish; **2. v** kechirmoq, afv etmoq.

pardonable [ˈpɑːdnəbl] *a* kechirarli, uzrli, kechirsa bo'ladigan.

pare [pɛə] *v* kesmoq, bir qavatini kesib olib tashlamoq; 2) tozalamoq, (*kartoshka*) artmoq; 3) kelib chiqish.

parent [ˈpɛərənt] *n* 1) ota-ona; 2) ajdod.

parentage [ˈpɛərəntɪdʒ] *n* 1) kelib chiqish; nasab; nasl-nasab, shajara, asli; 2) onalik; otalik, ota bo'lish.

parental [pɛˈrentl] *a* ota-onaga oid; ota-ona...

parentheses [pəˈrenθəsiːz] *pl* **parenthesis dan.**

parenthesis [pəˈrenθəsis] *n* (*pl* -theses [-siːz])
1) *gram.* kirish so'z yoki gap; 2) (*pl*) kichik qavs; 3) intermediya (*drama yoki opera asarlarining ikki pardasi o'rtasida o'ynaladigan, odatda kulgili kichik sahna asari*).

parenthetic(al) [ˌpærənˈθetɪk(əl)] *a* 1) kirish, daromad; 2) qavs ichiga olingan.

parenthood [ˈpɛərənthud] *n* otalik; onalik.

par excellence [pɑːˈɛksələːns] *adv fr.* asosan, ko'pincha, ko'proq, ayniqsa.

pariah [pəˈraɪə] *n* xo'rlangan, tahqirlangan, jamiyattan haydalgan; huquqsiz, ezilgan, mazlum odam.

paring [ˈpɛərɪŋ] **1. pres. p. pare dan;** **2. n** qiyqim, qirindi, qirqindi, po'st, po'stloq.

parish [ˈpærɪʃ] *n* 1) qavm, prixd (*biror butxonaga qatnovchi dindorlar*); 2) *amer.* fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi, fuqarolar okrugi.

parishioner [pəˈrɪʃənə] *n* butxona qavmlaridan biri (*ibodatxonaga qatnovchi dindor kishi*).

parish register [ˌpærɪʃ ˈredʒɪstə] *n* tug'ilganlik haqidagi qayd daftari.

parity I [ˈpærəti] *n* 1) tenglik, baravarlik, bir xillik; 2) o'xshashlik.

parity II [ˈpærəti] *n biol.* bola tug'ishga qodirlik.

park [pɑːk] *n* 1) park, istirohat bog'i; 2) park (*ماشina, vagon va b. turadigan va ta'mirlanadigan joy*).

parka [pɑːkə] *n* parka (*Shimolda yashovchi ba'zi xalqlarning qishlik mo'ynali kiyimi*).

parking [ˈpɑːkɪŋ] *n* 1) to'xtab turish, to'xtash; 2) to'xtash joyi.

parlance [ˈpɑ:ləns] *n* til (nutq uslubi), gapirish yoki ifoda etish uslubi.

parlay [ˈpɑ:lɪ] *n amer.* garov, garov o'ynash.

parley [ˈpɑ:lɪ] **1.** *n* muzokara; **2.** *v* bitimga kelmoq.

parliament [ˈpɑ:ləmənt] *n* parlament.

parliamentarian [ˌpɑ:ləməntˈteəriən] *n* parlament a'zosi.

parliamentary [ˌpɑ:ləˈmentəri] **1** parlamentga oid; **2** parlamentda qabul qilingan.

parlor [ˈpɑ:lə] *n* 1) oddiy mehmonxona, umumiy xona (*uyda*); **2**) alohida xona (*restoranda*); **3**) qabulxona (*mehmonxona va b.*).

parlour [ˈpɑ:lə] *n* 1) mehmonxona, umumiy xona; oddiy mehmonxona; **2**) alohida xona (*restoranda*); **3**) qabulxona (*bank*).

parlous [ˈpɑ:ləs] *a* qiyin, mushkul, xavfli.

parochial [pəˈrəʊkiəl] **1**) paxodga (qavmga) oid; **2**) tor, cheklangan, chegaralangan.

parochialism [pəˈrəʊkiəlɪzəm] *n* 1) manfaatlarning cheklanganligi; **2**) tor mahalliychilik.

parody [ˈpærədi] *n* parodiya (*hazil yoki hajviy tarzda boshqa asarga taqlid qilib yozilgan asar*).

parole [pəˈrəʊl] *n* 1) chin so'z, va'da; **2**) *harb.* parol (*shartlashilgan maxfiy so'z*).

parquet [ˈpɑ:keɪ] *n* parket.

parquetry [ˈpɑ:kɪtri] *n* parket.

parricide [ˈpærɪsaɪd] *n* o'z otasi yoki onasini o'l-dirishlik; padarkushlik.

parrot [ˈpærət] **1.** *n* to'tiqush; **2.** *v* to'tiga o'xshab (*maqsadsiz*) qaytarmoq.

parry [ˈpæri] *v* 1) bo'yin tovlamoq, bosh tortmoq; gap bermoq; **2**) qaytarmoq (*zarba, hujumi*).

parse [pɑ:z] *v* grammatik tahlil qilmoq.

parsimonious [ˌpɑ:siˈmənɪəs] *a* tejamkor, ayab sarf qiladigan; rejalik; **2**) qizg'anchiq.

parsimony [ˌpɑ:sɪməni] *n* 1) tejab-tergash, ayash, tejamkorlik; **2**) xasis, ziqna, qurumsok.

parsley [ˈpɑ:slɪ] *n bot.* petrushka (*kashnichsimon o'simlik*).

parsnip [ˈpɑ:snɪp] *n bot.* pasternak (*shirin ildizli xushbo'y o't*).

parson [ˈpɑ:sn] *n* pop, monax, ruhoniy.

parsonage [ˈpɑ:snɪdʒ] *n* kashish (pop, ruhoniy)ning uyi.

part [pɑ:t] **1.** *n* 1) qism, bo'lim; **2**) hissa, ulush; **in** ~ qisman; **3**) qism (*kitob haqida*); **4**) tana qismi, a'zosi; **5**) rol; **to play** ~ rol o'ynamoq; **6**) burch, majburiyat, vazifa; **7**) tomon, taraf; **8**) detal; **2.** *v* ayrilmoq; ajralmoq; bo'lmoq.

partake [pɑ:'teɪk] *v* (**partook**; **partaken**) **1**) qatnashmoq, ishtirok etmoq; **2**) yemoq, tatib ko'rmoq (*biro narsani*).

partaken [pɑ:'teɪkən] *p.p.* **partake dan.**

parterre [pɑ:'teə] *n fr. teatr.* parter (*tomosha zalining pastki qismidagi o'rinar*).

partial [ˈpɑ:ʃl] *a* qisman, to'la bo'lmagan, biroz.

partiality [ˌpɑ:ʃlɪˈæltɪ] *n* 1) ishqibozlik, qiziqish, ishtiyiq; **2**) mayl, havas, yaxshi ko'rish.

participant [pɑ:'tɪsɪpənt] *n* ishtirokchi, qatnashuvchi.

participate [pɑ:'tɪsɪpeɪt] *v* qatnashmoq, ishtirok etmoq.

participation [pɑ:,tɪsɪˈpeɪʃən] *n* qatnashish, ishtirok etish.

participial [ˌpɑ:tɪˈsɪpiəl] *a gram.* 1) sifatdoshga oid, sifatdoshli; **2**) ravishdoshli.

participle [ˈpɑ:tɪsɪpl] *n gram.* sifatdosh.

particle [ˈpɑ:tɪkl] *n* 1) parcha, bo'lak; **2**) *gram.* yuklama.

particoloured [ˌpɑ:tɪˈkɒləd] *a* guldor, rang-barang, chilpor, olachipor, ola-bula.

particular [pəˈtɪkjulə] *a* maxsus, alohida, o'ziga xos.

particularly [pəˈtɪkjuləli] *adv* ayniqsa, xususan.

parting [ˈpɑ:tɪŋ] **1.** *n* xayrlashuv, xayrlashish; **2.** *a* xayrlashuvga oid.

partisan [ˌpɑ:tɪˈzæn] *n* 1) tarafdor, muxlis, fidoyi (sodiq) kishi; ixlosmand; **2**) partizan.

partisanship [ˌpɑ:tɪˈzænʃɪp] *n* tarafdorlik, muxlislik, sodiqlik.

partition [pɑ:'tɪʃən] *n* 1) bo'lish, parchalash; **2**) bo'lim; **3**) qism.

partly [ˈpɑ:tlɪ] *adv* qisman.

partner [ˈpɑ:tənə] *n* 1) qatnashuvchi; ishtirokchi; **2**) sherik; ~ **ship** hamkorlik, sheriklik.

partook [pɑ:'tʊk] *past.* **partake dan.**

partridge [ˈpɑ:trɪdʒ] *n zool.* kaklik.

partition [ˌpɑ:tjuˈrɪʃn] *n* tug'ish, ko'zi yorish.

party [ˈpɑ:tɪ] *n* 1) partiya; **2**) guruh, bo'lim, jamoa; **3**) yig'ilish, bazm.

parvenu [ˈpɑ:vənju:] *n fr.* 1) tirrancha, jo'jaxo'roz; **2**) mahmadona.

paschal [ˈpæskl] *a* pasxaga (pasxa bayramiga) oid, pasxa...

pass [pɑ:s] **1.** *n* 1) o'tish joyi; **2**) imtihan topshirish; **2.** *v* 1) o'tmoq; **2**) kesib o'tmoq.

passable [ˈpɑ:səbl] **1**) o'tib bo'ladigan, yurib bo'ladigan; **2**) chidasa bo'ladigan, durust, uncha yomon emas.

passage [ˈpæsɪdʒ] *n* 1) o'tish, ma'qullash; **2**) kirish, chiqish, yo'lak.

passbook [ˈpɑ:sbuk] *n* bank hisob-kitob daftari.

passé [pɑ:'seɪ] *a fr.* eski, eskirgan, eskirib qolgan, eskicha, ko'hna, iste'moldan chiqqan.

passenger [ˈpæsɪndʒə] *n* passajir, yo'lovchi.

passer-by [ˌpɑ:səˈbaɪ] *n* o'tkinchi, yo'lovchi.

passim [ˈpæsɪm] *adv lot.* har yerda, hamma yoqda, har yoqda, har joyda.

passing [ˈpɑ:sɪŋ] **1.** *pres. p.* **pass 2. dan;** **2.** *a* 1) bir onli, bir lahzali, bir onda sodir bo'ladigan, bo'lib o'tadigan, juda tez, oniy; **2**) o'tkinchi, vaqtincha, omonat; **3**) *she'r.* o'lim; o'lish, vafot (qazo) qilish.

passion [ˈpæʃn] *n* 1) g'ayrat, qizg'inlik, jo'shqinlik; **2**) kuchli his-tuyg'u, muhabbat, ehtiros; **3**) shavq, zavq, ishtiyiq.

passionate [pæʃnət] *a* joʻshqin. qizgʻin, otashin. ehtirosli.

passive [ˈpæsiv] *a* faoliyatsiz, harakatsiz, sust; ~ *voice gram.* majhul nisbat.

passivity [pæˈsɪvəti] *n* 1) sustlik, faoliyatsizlik; 2) itoatkorlik, itoat qilish, boʻysunish.

passport [ˈpɑːspɔːt] *n* pasport.

password [ˈpɑːswəːd] *n* parol (*shartlashilgan maxfiy soʻz*).

past [pɑːst] *n* 1) oʻtmish, moziy; **distant** ~ uzoq oʻtmish, moziy; 2) (**the** ~) *gram.* oʻtgan zamon.

paste [peɪst] *n* 1) xamir; 2) yelim.

paste-board [ˈpeɪstbɔːd] *n* karton, qalin qogʻoz.

pastel [ˈpæstl] *n* 1) pastel (*rassomlikda ishlatiladigan rangdor yumshoq qalamlar*); 2) och, nim, xira (*ranglarga nisbatan*).

pastil [ˈpæstl] *n* tugmacha (kulcha) dori yoki shirinlik.

pastime [ˈpɑːstɑɪm] *n* ermak, ovunchoq.

pastor [ˈpɑːstə] *n* protestant mazhabidagi ruhoni.

pastoral [ˈpɑːstrəl] *1. a* choʻponga (podachiga) oid; **2. n** pastoral (*choʻponlar hayoti tasvirlangan badiiy yoki musiqiy asar*).

pastry [ˈpeɪstri] *n* 1) pishiriq; 2) konditer mollari; 3) xamir.

pastry-cook [ˈpeɪstriˌkuk] *n* konditer, qandolatchi, shakarpaz.

pasturage [ˈpɑːstʃərɪdʒ] *n* yaylov.

pasture [ˈpɑːstʃə] *n* 1) yaylov, oʻtloq; 2) yaylovdagi oʻtlar, mollarning oʻzlari uzib yeydigan oʻtlar.

pasty I [ˈpæsti] *n* pirog (*ichiga goʻsht yoki boshqa narsalar solib pechkada pishirilgan non*).

pasty II [ˈpeɪstri] *a* 1) egiluvchan, qayishqoq; 2) xamirga oʻxshagan, xamirsimon.

pat [pæt] *v* tarsillatib urmoq, shapaloq solmoq.

patch [pætʃ] **1. n** yamoq; **2. v** yamamoq.

patch-up [ˈpætʃʌp] *v* naridan-beri yamamoq.

patchwork [ˈpætʃwɜːk] *n* turli rangdagi qiyqimlardan tikilgan koʻrpa; quroq koʻrpa.

patchy [ˈpætʃi] *a* 1) xol-xol, olachipor, dogʻli; 2) bir xil (bir turli) boʻlmagan, har xil turdagi, boshqa-boshqa, xilma-xil, turli-tuman; 2) taso-difiy; nogahoniy, kutilmagan.

pate [peɪt] *n* soʻzl. bosh, kalla.

pâté [ˈpæteɪ] *n* fr. pashtet (*asosan, hayvon, parranda va baliq goʻshtidan, jigaridan tayyorlangan taom*).

patent [ˈpeɪntnt] **1. a** aniq, yaqqol, ochiq-oydin, ravshan; **2. n** [ˈpætənt] patent (*1. ixtirochiga oʻz ixtirosi uchun olgan huquqni tasdiqlovchi hujjat*; **2. savdo-sotiq yoki hunar bilan shugʻullanish uchun beriladigan hujjat).**

pater [ˈpeɪtə] *n* jarg. ota.

paternal [pəˈtɜːnl] *a* 1) otaga oid, otaga tegishli; 2) ota tomon, ota tomonidan.

paternity [pəˈtɜːnəti] *n* ota boʻlish, otalik.

path [pɑːθ] *n* 1) soʻqmoq, soʻqmoq yoʻli; 2) yoʻlka.

pathetic [pəˈθetɪk] *a* taʼsirli, koʻngilni yumshatadigan, mehr-shafqatni qoʻzgʻatadigan; yurakni ezadigan, yurakni achitadigan.

pathetics [pəˈθetɪks] *n pl* (**sing dek ishlatiladi**) koʻtarinki ruh bilan soʻzlash.

pathfinder [ˈpɑːθˌfaɪndə] *n* tekshiruvchi, tadqiqotchi.

pathless [ˈpɑːθləs] *a* yoʻlsiz, qatnov yoʻllari yoʻq.

pathological [ˌpæθəˈlɒdʒɪkl] *a* patologiyaga oid, patologik.

pathology [pəˈθɒlədʒɪ] *n* patologiya (*organizmdagi kasallik jarayonlarini va organizmning normal holatdan chiqish sabablarini oʻrganuvchi fan*).

pathway [ˈpɑːθweɪ] *n* soʻqmoq, soʻqmoq yoʻli.

patience [ˈpeɪns] *n* 1) chidam, sabr, bardosh; toqat; 2) chidamlilik, bardoshlilik.

patient [ˈpeɪnt] **1. n** kasal, bemor; **2. a** chidamli; bardoshli, sabr-toqatli.

patio [ˈpætiəu] *n* isp. (*pl* -os [-əuz]) ayvon, peshayvon.

patriarch [ˈpeɪtriɑːk] *n* 1) qabila yoki urugʻ boshligʻi; 2) asos solgan shaxs, asoschi; 3) *cherk.* eng katta ruhoni.

patriarchal [ˌpeɪtriˈɑːkl] *a* 1) qadimiy, qadimdan qolgan; 2) patriarx (*qabila yoki urugʻ boshligʻi*); 3) hurmatli, izzatli, muhtaram.

patrician [pəˈtrɪʃn] **1. n** 1) patritsiy (*Qadimgi Rimda: oqsuyak, zodagon*); 2) aslzoda, zodagon.

patrimonial [ˌpætrɪˈmɒniəl] *a* 1) meros, meros (boʻlib) qolgan; 2) nasldan naslga oʻtgan.

patriot [ˈpeɪtriət] *n* 1) vatanparvar; 2) jonkuyar kishi.

patriotic [ˌpætriˈɒtɪk] *a* vatanparvarlarcha, vatanparvarlik ruhi bilan sugʻorilgan, vatanparvarlik...

patriotism [ˌpætriˈɒtɪzəm] *n* vatanparvarlik.

patrol [pəˈtrɒl] **1. n** *harb.* patrul (*maʼlum rayonning xavfsizligini taʼminlash va tartib saqlash uchun qoʻyilgan kishilar yoki samolyot, kema va sh. k. guruhi*); **2. v** patrullik qilmoq.

patron [ˈpeɪtrən] *n* 1) homiy, yonini oluvchi; 2) doimiy xaridor.

patronage [ˈpætrənɪdʒ] *n* 1) homiylik, vasiylik, otaliq, himoya qilish, homiy boʻlish; **to take** ~ otaliqqa olmoq; 2) mijozlar; 3) homiylarcha munosabat, homiylik qilish.

patronize [ˈpætrənaɪz] *v* homiylik qilmoq, himoyasiga olmoq, soyasi (qanoti) ostiga olmoq.

patronymic [ˌpætrəˈnɪmɪk] *n* otasining ismi.

patter [ˈpætə] *n* 1) shartli til, jargon; 2) tez gapirish; 3) yengil, qisqa-qisqa tovush; 4) soʻzl. bekorchi gap, safsata.

pattern [ˈpætn] **1. n** namuna, oʻrnak, ibrat; **2. v** namunaga qarab bajarmoq.

patty [ˈpæti] *n* kichkina pirog, pirogcha.

paunch [pɔːntʃ] **1. n** qorin; **2. v** qorini yormoq.

pauper [ˈpɔːpə] *n* 1) kambagʻal odam, faqir, qashshoq, bechora; 2) gadoy, tilanchi.

pauperism [ˈpɔ:pəʊrɪzəm] *n* qashshoqlik, kambag'allik.

pause [pɔ:z] *n* 1) to'xtash, to'xtab olish; 2) tanafus, dam olish; to'xtalish.

pave [peɪv] *v* tosh yotqizmoq, tosh termoq.

pavement [ˈpeɪvmənt] *n* yo'lka, yo'lak.

pavilion [pəˈvɪlɪən] *n* 1) pavilyon, shiyponcha; 2) chodir.

paw [pɔ:l] *n* oyoq, panja (*hayvonlarda va qushlarda*); ~ **off** qo'lingni tort.

pawl [pɔ:l] *n* 1) *tex.* tish, saqlagich; 2) yong'in, o'rmon *yoki* cho'l yong'ini; 3) *tex.* zanjir.

pawn I [pɔ:n] *n* 1) *shaxm.* piyoda; 2) malay, yugurdak.

pawn II [pɔ:n] **1.** *n* garov; **2.** *v* garovga bermoq, garovga qo'yomoq.

pawnbroker [ˈpɔ:nbrəʊkə] *n* sudxo'r, ijaraxo'r, foydaxo'r.

pawnshop [ˈpɔ:nʃɒp] *n* lombard, garovxona.

pax [pæks] *n* *lot.* tinchlik ramzi.

pay [peɪ] **1.** *n* to'lov, maosh, oylik; **2.** *v* to'lamoq, haq to'lamoq.

pay-day [ˈpeɪdeɪ] *n* maosh oladigan kun.

payee [ˈpeɪi:] *n* oluvchi, qabul qiluvchi (*pulni*).

paymaster [ˈpeɪmɑ:stə] *n* xazinachi, g'aznachi, kassachi.

payment [ˈpeɪmənt] *n* to'lash, to'lov, to'lanadigan summa.

pay-office [ˈpeɪɒfɪs] *n* *harb.* pul beradigan joy, kassa.

pay-roll [ˈpeɪrɔ:l] = **pay-sheet**.

pay-sheet [ˈpeɪʃi:t] *n* to'lov.

pea [pi:] *n* 1) no'xat (*o'simlik*); 2) no'xat donasi.

peace [pi:s] *n* 1) tinchlik, jamoat tartibi, osoyishtalik; 2) tinchlik, sulh.

peaceable [ˈpi:səbl] *a* tinchliksevar, tinchlikni yaxshi ko'radigan.

peaceful [ˈpi:sfʊl] *a* 1) tinchliksevar, sulhparvar; 2) sulh tuzish bilan bog'liq bo'lgan; 3) osoyishta, do'stona.

peacefully [ˈpi:sfʊli] *adv* tinch yo'l bilan, tinch, osoyishtalik bilan, do'stona.

peacekeeping [ˈpi:s,ki:pɪŋ] *n* tinchlikni qo'llab-quvvatlash, tinchlikni tiklash, tinchlikni saqlash, tinchlikning saqlanishi.

peace-loving [ˈpi:slʌvɪŋ] *a* tinchliksevar, tinchlik tarafdori bo'lgan, tinchlikni yaxshi ko'radigan, sulhparvar.

peacemaker [ˈpi:smeɪkə] *n* tinchlik o'rnatuvchi shaxs, yarashtiruvchi, murosaga keltiruvchi.

peach [pi:tʃ] *n* shaftoli (*daraxti va mevasi*).

peacock [ˈpi:kɒk] **1.** *n* *zool.* tovus; **2.** *attr.* tovusga oid; **3.** *v* o'zini katta tutmoq, kelishtirmoq (olmoq), gerdaymoq, kibrlanmoq, kattakonlik (kattalik) qilmoq.

pea jacket [ˈpi:dʒæktɪ] *n* *deng.* bushlat (*matroslar kurtkasi*).

peak [pi:k] *n* 1) cho'qqi, tog' cho'qqisi; uch; 2) eng yuqori nuqta.

peaked I [pi:kt] *a* uchi o'tkir, uchli, nayzador.

peaked II [pi:kt] *a* holdan ketgan, behol, bemador.

peal [pi:l] *v* qo'ng'iroqlar ovozi, jarang-jurung.

peanut [ˈpi:nʌt] *n* yeryong'oq.

pear [peə] *a* nok, nashvati, olmur (*daraxti va mevasi*).

pearl [pɜ:l] *n* marvarid, dur, inju.

pearl-barley [ˈpɜ:lba:lɪ] *n* arpa yormasi.

pearl-diver [ˈpɜ:ldaɪvə] *n* qidiruvchi, izlovchi.

pearl-oyster [ˈpɜ:lɔɪstə] *n* sadafdor (*chig'ano-g'ida inju paydo qiladigan mollusk*).

pearl-shell [ˈpɜ:lʃel] *n* marvarid chig'anog'i.

peasant [ˈpeznt] **1.** *n* dehqon; **2.** *attr.* dehqonlarga oid, qishloqqa oid, qishloqda bo'ladigan; ~ **woman** dehqon ayol.

peasantry [ˈpezntri] *n* dehqonlar.

peat [pi:t] *n* torf (*botqoq yerlardagi o'simliklarining chirishidan hosil bo'lgan yoqilg'i*).

pebble [ˈpebl] *n* 1) shag'al, mayda tosh; 2) tekis (silliq) tosh.

peccable [ˈpekəbl] *a* gunohkor, gunohli, osiy.

peck [pek] *v* **1.** *n* cho'qish, tumshug'i bilan urish; **2.** *v* cho'qilamoq, cho'qilab yemoq.

peckish [ˈpekiʃ] *a* so'zl. och, ochiqqan, och qolgan.

pectoral [ˈpektərəl] **1.** *n* *pl* ko'krak suzgichlari; **2.** *a* ko'krakka, siynaga oid.

peculate [ˈpekjuleɪt] *v* jamoatga qarashli pulni o'zlashtirib olmoq yoki sarflamoq.

peculation [ˌpekjuˈleɪʃn] *n* davlat boyligini talovchi, g'azna o'g'risi.

peculiar [prɪˈkju:liə] *a* o'ziga xos, alohida, o'z-gacha, boshqalarga o'xshamaydigan, boshqalardan farqli; ~**ity** o'ziga xoslik, o'ziga xos xususiyat, fazilat, xossa.

pedagogic(al) [ˌpedəˈɡɒdʒɪk(əl)] *a* pedagogik, pedagogikaga oid.

pedagogics [ˌpedəˈɡɒdʒɪks] *n* pedagogika.

pedagogue [ˈpedəɡɒɡ] *n* pedagog, o'qituvchi, muallim.

pedal [ˈpedl] **1.** *n* tepki, pedal; **2.** *v* tepkini bosmoq.

pedant [ˈpednt] *n* 1) sinchkov, o'taketgan rasmiyatchi; 2) aqidaparast, qiroatxon.

pedantic [prɪˈdæntɪk] *a* sinchkov, o'taketgan rasmiyatchi.

pedantry [ˈpedntri] *n* sinchkovlik, o'taketgan rasmiyatchilik.

peddle [ˈpedl] *v* 1) ko'chama-ko'cha tashib yurib sotmoq, uyma-uy eltib berib savdo qilmoq; 2) arzimagan ishga urinmoq, bo'lmag'ur ishlarga ovora bo'lmoq.

pedestal [ˈpedɪstl] *n* tagkursi, haykal o'rnatilgan supa.

pedestrian [prɪˈdestrɪən] **1.** *n* 1) yayov yuruvchi, piyoda; 2) sportcha yurish musobaqasida qatnashuvchi kishi; **2.** *a* piyodaga oid; piyoda (yayov) yurishga mo'ljallangan; ~ **crossing** piyodalar ko'chani kesib o'tiladigan maxsus joy.

pedigree [ˈpɛdɪɡri:] *n* 1) shajara, nasabnoma; 2) kelib chiqish, nasl, nasab.
pedlar [ˈpɛdlə] *n* 1) ko'tarmachi, ko'tarib yurib sotuvchi; 2) g'iybatchi odam, gap tashuvchi.
peek [pi:k] *v* ko'z tashlamoq, qaramoq, nazar solmoq.
peel [pi:l] **1.** *n* po'choq; po'st, po'stloq; **2.** *v* artmoq, archmoq, archimoq.
peeling [pi:liŋ] *n* po'choq, po'st, po'stloq, qobiq.
peep I [pi:p] *n* 1) mo'ralash, qarash, ko'z tashlash; 2) paydo bo'lish, ko'rinish; 3) teshik, yoriq, tirqish.
peep II [pi:p] *n* chiyillash, chirqillash, chiyillagan (chirqillagan) ovoq.
peep-hole [ˈpi:pɦəʊl] *n* tuynukcha, teshikcha, kuzatish tirqishi.
peer I [piə] *n* 1) tengdosh, teng odam; 2) per (*Angliya va Fransiya oliy dvorvanlik unvoni va shu unvonga ega bo'lgan kishi*).
peer II [piə] *v* tikilmoq, tikilib qaramoq, sinchiklab qaramoq.
peerage [ˈpiəriɪdʒ] *n* aslzodalar, oqsuyaklar, zodagonlar.
peerless [ˈpiələs] *a* beqiyos, bemisl, misli yo'q, tengsiz, ajoyib.
peevd [pi:vd] *a* so'zl. g'azablangan, achchiqlangan, asabiylashgan, darg'azab.
peevish [pi:viʃ] *a* 1) janjalkash, mijg'ov, vaysaqi, ming'ir-ming'ir; 2) injiq, serxarxasha, tantiq.
peg [peg] **1.** *n* 1) kichkina qoziq, qoziqcha; yog'och mix, mixcho'p; pona; 2) tiqin, bochka tiqimi; 3) ilgak (*kiyimdagi ilgak*), ilmoq, qistirg'ich; **2.** *v* 1) pona qoqmoq; 2) qistirg'ich bilan qistirib qo'ymoq (*kiyimlarni*).
pelican [ˈpɛlɪkən] *n* zool. saqoqush, borqozon (*tumshug'i ostida meshkopi-xaltasi bo'lgan yirik suv qushi*).
pellet [ˈpɛlɪt] *n* 1) shar, guvala, zuvala, yumaloqlangan narsa; 2) yumaloq dori.
pell-mell [ˌpɛlˈmɛl] **1.** *n* chigallik, chalkashlik; **2.** *a* tartibsiz, betartib; **3.** *adv* tartibsiz holda, palpartish.
pellucid [peˈlu:sɪd] *a* tiniq, shaffof.
pelt I [pɛlt] *n* teri, po'st.
pelt II [pɛlt] *n* 1) irg'itish, uloqtirish, otish, uloqtirib yuborish; 2) sel, yomg'ir, jala, do'1.
pelvis [ˈpɛlvɪs] *n* (*pl -ves*) *anat.* tos suyagi, dumg'aza suyagi.
pen [pen] *n* ruchka.
penal [ˈpi:nl] *a* *yur.* jinoiy, jazolanadigan, jazolashga oid.
penalize [ˈpi:nəlaɪz] *v* 1) jazolamoq, jazo bermoq; 2) jarima solmoq, jarima olmoq.
penalty [ˈpenltɪ] *n* jazo, tanbeh, jarima.
penance [ˈpenəns] *n* 1) kafolat (*gunohkorlarga cherkov tomonidan beriladigan jazo - uzoq toatibodat qildirish ro'za tuttirish va h.k.*); 2) jazo.
pence [pens] *n* pens, penni (*inglizlarda: mayda pul, chaqa*).

pencil [ˈpensl] *n* qalam: ~ case qalamdon; **hard (soft)** ~ qattiq (yumshoq) qalam.
pendant [ˈpendənt] *n* osilgan bezak, shokila, osilmachiq.
pending [ˈpendɪŋ] *a* oldinda turgan, navbatdagi, yechilishi lozim bo'lgan, hal etilishini kutib turgan.
pendulum [ˈpendjələm] *n* tebrangich.
penetrate [ˈpenətreɪt] *v* ichiga kirmoq, ichiga o'tmoq, kirib o'tib ketmoq.
penetrating [ˈpenətreɪtɪŋ] **1.** *pres. p.* **penetrate dan:** **2.** *a* 1) qattiq, kuchli, o'tkir; quloqni teshadigan; 2) ziyrak, farosatli.
penetration [ˌpenəˈtreɪʃn] *n* ichiga kirib olish, teshib o'tish, kirib o'tib ketish.
pen friend [ˈpenfrend] *n* xat yozishib turadigan o'rtoq.
penguin [ˈpɛŋɡwɪn] *n* zool. pingvin.
penholder [ˈpenhəʊldə] *n* ruchka (*pero uchun*).
penicillin [ˌpenəˈsɪlɪn] *n* penitsilin (*dori*).
peninsula [ˌpɛˈnɪnsjələ] *n* yarimorol; **the P.** Pireneya yarimoroli.
penis [ˈpi:nɪs] *n* (*pl penes*) *anat.* erkaklar jinsiy a'zosi.
penitence [ˈpenɪtəns] *n* achinish, afsuslanish, pushaymon bo'lish, o'kinish.
penitent [ˈpenɪtənt] **1.** *a* o'kingan, pushaymon bo'lgan, afsuslangan, achingan, nadomat chekkan; **2.** *n* afsuslangan (pushaymon bo'lgan) gunohkor.
penitentiary [ˌpenɪˈtɛntʃəri] **1.** *n* axloq tuzatish muassasasi; **2.** *a* axloq tuzatadigan, axloq tuzatishga oid.
penknife [ˈpennaɪf] *n* qalamtarosh.
penman [ˈpenmən] *n* (*chiroyli*) yozuvchi, xattot.
penmanship [ˈpenmənʃɪp] *n* 1) chiroyli yozuv, husnixat; 2) dastxat, yozuv xat.
pen-name [ˈpenneɪm] *n* taxallus.
pennies [ˈpenɪz] *pl* penny *dan*.
penniless [ˈpenɪləs] *a* 1) pulsiz, naqd pul to'lanmay qilinadigan; 2) kambag'al, qashshoq, nochor, bechorahol.
penny [ˈpenɪ] *n* (*pl pence*) penni (*finlarda: mayda pul, chaqa*).
pension [ˈpenʃn] *n* nafaqa.
pensioner [ˈpenʃnə] *n* nafaqaxo'r, nafaqa oluvchi.
pensive [ˈpensɪv] *a* o'ychan, xayolchan.
pent [pent] *a* mahbus, bandi.
pentagon [ˈpentəɡən] *n* 1) beshburchak; 2) (**the P.**) AQSH mudofaa vazirining binosi.
pentagonal [ˌpenˈtæɡənəl] *n* besh burchakli.
pentathlon [ˌpenˈtæθlən] *n* sport. beshkurash, beshlik musobaqa (*besh xil sport o'yinini o'z ichiga olgan musobaqa*).
penthouse [ˈpenthaʊs] *n* chodir, soyabon, bostirma, ayvon, shiypon.
pent-up [ˌpentˈʌp] *a* (*ruhiy kechinmaga nisbatan*) tiyilgan, ichga yutilgan, o'zini tutgan, chidam, bardosh berilgan; ~ **fury** ichga yutilgan g'azab.

penult(imate) [pɪˈnʌlt(ɪmət)] **1.** *a gram.* oxirgidan oldingi; **2.** *n* oxirgidan oldingi bo'g'in.

penurious [pɪˈnjuəriəs] *a* 1) xasis, ziqla, qurumsiq; 2) kambag'al, qashshoq, nochor.

penury ['penjəri] *n* 1) kambag'allik, faqirlik, qashshoqlik; 2) yetishmaslik, kamlik, tanqislik.

peony ['pi:ni] *n bot.* sallagul, piongul.

people ['pi:pl] *n* 1) odamlar; 2) xalq, millat; omma, el, xaloyiq; **common** ~ oddiy kishilar.

pep [pep] **1.** *n* ruh tetikligi, ruhi tetiklik (balandlik); **2.** *v* kuchaytirmoq, zo'raytirmoq, oshirmoq.

pepper ['pepə] **1.** *n* qalampir, murch, garmdori; **2.** *v* qalampir (garmdori, murch) sepmoq.

pepper-castor ['pepə,kɑ:stə] *n* murchdon, qalampirdon.

peppermint ['pepəmɪnt] *n bot.* qalampirmunchoq, yalpiz.

pepper-pot ['pepəpət] *n* murchdon, qalampirdon.

peppery ['pepəri] *a* 1) achchiq, o'tkir; 2) jahli tez, serjahl.

pepsin ['pepsɪn] *n fiziol.* pepsin (*ovqatdagi oqsillarni eritadigan va hazm qilishga yordam beradigan me'da suvining fermenti*).

pep talk ['peptə:k] *n* 1) kishini ruhlantiradigan (ruhini ko'taradigan) nutq; 2) otashin nutq.

per [pə:] *prep.* 1) orqali, bilan; 2) har qaysi, har bir.

perambulate [pəˈræmbjuleɪt] *v* tentiramoq, darbadar kezmoq, sargardon bo'lmoq.

perceive [pəˈsi:v] *v* 1) payqamoq, sezmoq, his etmoq; 2) tushunmoq, anglamoq.

per cent [pəˈsent] *n* foiz (*yuzdan bir bo'lak*).

percentage [pəˈsentɪdʒ] *n* 1) foiz, foiz hisobidagi (foizga nisbatan) miqdor; 2) so'zl. qism, ulush, miqdor.

perceptibility [pəˈseptəˈbɪləti] *n* sezish, bilish.

perceptible [pəˈseptəbl] *a* sezilarli, bilinarli, sezilib turgan.

perception [pəˈsepʃn] *n* 1) sezish, sezgi, idrok qilish; 2) fikr, tushuncha, anglash, tushunish, fahmlash.

perceptive [pəˈseptɪv] *a* ziyrak, zehni, zehni o'tkir (baland), idrokli.

perch I [pɜ:tʃ] **1.** *n* sinch, xodacha, tayoq; **2.** *v* 1) joylamoq, o'rnashmoq; 2) qo'nmoq (*qushlarga nisbatan*).

perch II [pɜ:tʃ] *n* olabug'a (*balig*).

perchance [pɜːtʃɑ:ns] *adv* tasodifan, tasodifiy ravishda; bexosdan, nogahon.

percolate [pəˈkəleɪt] *v* 1) sizib kirmoq, sizib o'tmoq; 2) ko'ch. taralmoq, tarqalmoq, yoyilmoq; 3) suzmoq, suzgidan o'tkazmoq.

percussion [pəˈkʌʃn] *n* 1) to'qnashuv, urushish, jang; 2) tib. perkussiya (*badanga barmoq bilan urib ko'rib eshitish, aniqlash*); 3) mus. urib chalinadigan musiqa asbobi.

percussive [pəˈkʌsɪv] *a* urib harakatga keltiradigan, urish...

perdition [pəˈdɪʃn] *n* halok (nobud) bo'lish, yo'q bo'lish, yemirilish, zavol.

peremptory [pəˈremptəri] *a* 1) shikoyatga, norozilik arizasiga yo'l qoldirmaydigan, qat'iy; 2) buyruq (*farmon*) tarzida.

perennial [pəˈreniəl] *a* 1) yil bo'yi davom etadigan; 2) yozda qurimaydigan; 3) abadiy, mangu, so'nmas, o'chmas, unutilmas; 4) bot. ko'p yillik.

perfect [pəˈfɪkt] *a* 1) mukammal: mutlaqo, butunlay, to'liq, takomillashgan, to'la-to'kis, bekamko'st, kamolotga yetgan, barkamol; 2) gram. tugallangan.

perfection [pəˈfekʃn] *n* barkamollik, mukammallik, benuqsonlik, bekamko'stlik.

perfectly [ˈpəːfɪktli] *adv* butunlay, tamoman, bemalol, yetarlicha; ajoyib.

perfidious [pəˈfɪdɪəs] *a* xiyonatkor, bevafo, o'z so'zida turmaydigan.

perfidy [ˈpəːfədi] *n* xiyonatkorlik, xoinlik, sotqinlik, vafosizlik.

perforate [ˈpəːfəreɪt] *v* teshmoq, teshik qilmoq.

perforation [ˌpəːfəˈreɪʃn] *n* 1) perforatsiya (*perforator yordamida teshish*); 2) teshik, yoriq, tynuk, tirqish; 3) tib. ichki organlarning teshilishi.

perforator [ˈpəːfəreɪtə] *n* perforator (*tog' jinslarini parmalovchi mashina*).

perforce [pəˈfɔ:s] *adv* 1) istar-istamas, chor-nochor, noiloj; 2) zarurat yuzasidan.

perform [pəˈfɔ:m] *v* 1) ijro etmoq, bajarmoq; 2) sahnada rolni ijro etmoq.

performance [pəˈfɔ:məns] *n* 1) ijro, bajarish; 2) teatr. tomosha.

perfume [ˈpəːfju:m] *n* 1) xushbo'y (yoqimli) hid, muattar hid, xushbo'y is; 2) atir.

perfumery [pəˈfju:məri] *n* parfumeriya, attorlik mollari.

perfunctory [pəˈfʌŋktəri] *a* 1) yuzaki, sirtqi, ustki; 2) beparvo, e'tiborsiz.

perhaps [pəˈhæps] *adv* mumkin, ehtimol, balki.

peril [ˈperəl] *n* 1) xatar, xavf, xavf-xatar, tahluka, qo'rqinch; 2) xavflilik, xatarlilik.

perilious [ˈperələs] *a* qaltis, xatarli, xavfli, tahlilali, halokatli.

perimeter [pəˈrɪmɪtə] *n* 1) geom. perimetr (*yassi ko'p burchakning hamma tomonlari o'lchami-ning yig'indisi*); 2) attr. aylanma, doiraviy.

period [ˈpɪəriəd] *n* payt, vaqt, muddat, davr, zamon.

periodic I [ˌpɪəriˈɒdɪk] *a* davriy, vaqt-vaqti bilan bo'ladigan, takrorlanib turadigan.

periodic II [ˌpɪəriˈɒdɪk] *a* : ~ **acid** yod kislotasi.

periodical [ˌpɪəriˈɒdɪkl] *a* vaqqli, davriy, ma'lum bir vaqt ichida paydo bo'ladigan, vaqt-vaqti bilan bo'lib turadigan.

periphery [pəˈrɪfəri] *n* tevarak-atrofdagi joy.

periscope [ˈpɛrɪskəʊp] *n* periskop (*pana joydan turib kuzatishga moslangan durbinsimon optik asbob*).

perish [ˈpɛrɪʃ] *v* halok boʻlmoq, oʻlmoq, vafot etmoq, olamdan oʻtmoq, nobud boʻlmoq.

perishable [ˈpɛrɪʃəbl̩] *a* yoʻq boʻlib ketadigan, oʻtkinchi, bebaho.

periwig [ˈpɛrɪwɪɡ] *n* (*upa sepilgan*) jingalak yasama soch, parik (*XVIII asrda*).

perjure [ˈpɛ:dʒə] *v* yolgʻon (soxta) guvohlik bermoq, notoʻgʻri koʻrsatma bermoq.

perjurer [ˈpɛ:dʒərə] *n* qasamxoʻr, qasamini buzgan odam, xoin.

perjury [ˈpɛ:dʒɜəri] *n* yolgʻon (soxta) guvohlik berish.

perk I [pɛ:k] *v* soʻzl. (~ **up**) jonlanmoq, tetiklashmoq, ochilib ketmoq.

perk II [pɛ:k] *n* 1) imtiyoz, yengillik; 2) qoʻshimcha ish haqi.

perks [pɛ:ks] *n* *pl* soʻzl. qoʻshimcha ish haqi, qoʻshimcha topilgan pul.

perky [ˈpɛ:ki] *a* 1) dadil, epchil, uddaburon; 2) dagʻal, qoʻpol.

perm [pɛ:m] *n* soʻzl. (**permanent wave** soʻzining qisqartmasi) permanent (*sochni uzoq vaqt yozilmaydigan qilib jingalaklash va shunday usulda pardoz berilgan soch*).

permanence [ˈpɛ:mənəns] *n* doimiylik, oʻzgarماسlik.

permanency [pɛ:mənənsi] *n* 1) doimiylik, oʻzgarماسlik; 2) doimiy ish.

permanent [ˈpɛ:mənənt] *a* doimiy, oʻzgarmaydigan, uzoq muddatli, oʻzgarماس, abadiy, mangu.

permeability [ˌpɛ:miəˈbɪləti] *n* oʻtkazuvchanlik, oʻzidan oʻtkazish qobiliyati.

permeate [ˈpɛ:miət] *v* 1) kirmoq, ichiga kirmoq, ichiga oʻtmoq; 2) tarqalmoq, yoyilmoq (**among, through, into**).

permeation [ˌpɛ:miˈeɪʃn] *n* kirish, ichiga kirish, suqilib kirish.

permissible [pɛˈmɪsəbl̩] *a* yoʻl qoʻyiladigan, mumkin, joiz, ravo, yoʻl qoʻyib boʻladigan.

permission [pɛˈmɪʃn] *n* izn, ruxsat, ijozat; **to ask** ~ ruxsat soʻramoq.

permissive [pɛˈmɪsɪv] *a* ruxsat beradigan, yoʻl qoʻyadigan.

permit 1. *n* [ˈpɛ:mɪt] ruxsatnoma, ruxsat qogʻozi (*hujjat*); **2.** *v* [pɛˈmɪt] ruxsat (ijozat) bermoq.

permitted [pɛˈmɪtɪd] *a* ijozat berilgan, ruxsat etilgan.

pernicious [pɛˈnɪʃs] *a* halokatli, zararli, yomon, ziyonli; ~ **habits** yomon odatlar.

peroration [ˌpɛrəˈreɪʃn] *n* 1) gap sotish, safsata sotish, vaysash, mahmadonalik qilish; 2) qamoq, hib.

peroxide [pɛˈrɒksaɪd] *n* *kim.* peroksid, vodorod peroksidi.

perpendicular [ˌpɛ:pənˈdɪkjulə] **1.** *n* perpendikular; tik chiziq; **2.** *a* perpindikular, tik.

perpetrate [ˈpɛ:pətreɪt] *v* bajarmoq, qilmoq, koʻrsatmoq, sodir etmoq (*jinoyat, xato va b.*).

perpetrator [ˈpɛ:pətreɪtə] *n* buzuvchi, buzgʻuvchi, jinoyatchi, jinoyatkor, xiyonatchi.

perpetual [pɛˈpetʃuəl] *a* 1) doimiy; oʻzgarماس; 2) cheksiz, bepoyon; 3) abadiy, mangu, umrbod, umrining oxirigacha davom etadigan.

perpetuate [pɛˈpetʃueɪt] *v* oʻzgarmaydigan qilib qoʻymoq, abadiylashtirmoq, abadiy qilib qoʻymoq.

perpetuity [ˌpɛ:pəˈtju:ətɪ] *n* azaliylik va abadiylik, abadiyat, manguilik, doimiylik.

perplex [pɛˈpleks] *v* 1) qiyin ahvolga solib qoʻymoq; 2) taajjubga solib qoʻymoq; 3) xijolat qilmoq, xijolatga solmoq, uyaltirib qoʻymoq, uyatga qoldirmoq; 4) ogʻirlashtirmoq, qiyinlashtirmoq.

perplexed [pɛˈplekst] *a* 1) sarosimaga tushgan, gangib qolgan, dovdirab qolgan, parishon; 2) chigal, chalkashlik, chalkash-chulkash.

perplexity [pɛˈpleksətɪ] *n* hayrat, taajjub, hayron boʻlish, hayajonlanish.

perquisite [ˈpɛ:kwɪzɪt] *n* qoʻshimcha ish haqi, qoʻshimcha topilgan pul.

persecute [ˈpɛ:sɪkju:t] *v* taʻqib etmoq; quvgʻin qilmoq.

persecution [ˌpɛ:sɪˈkju:ʃn] *n* taʻqib (quvgʻin) qilish.

perseverance [ˌpɛ:sɪˈvɪərəns] *n* sabot, qunt-matonat, tirishqoqlik, qatʻiyat.

persevere [ˌpɛ:sɪˈvɪə] *v* matonat bilan davom ettirmoq.

Persian [ˈpɛ:ʃɪn] **1.** *a* forsiy, fors...; **2.** *n* fors, eronlik.

persiflage [ˈpɛ:sɪflɑ:ʒ] *n* hazillashish, hazil qilish.

persimmon [pɛˈsɪmən] *n* *bot.* xurmo.

persist [pɛˈsɪst] *v* qattiq turib olmoq, qaysarlik qilmoq, oʻjarlik qilmoq.

persistence [pɛˈsɪstənsɪ] *n* qatʻiylik, qattiq turish.

persistent [pɛˈsɪstənt] *a* qatʻiy, sabotli, bir soʻzli, oʻjar, tirishqoq; **a** ~ **noise** (**headache**) qattiq shovqin (*bosh ogʻrigʻi*).

person [ˈpɛ:sn] *n* odam, shaxs.

persona [pɛˈsəʊnə] *n* *lot.* shaxs, inson, kishi, odam.

personable [ˈpɛ:snəbl̩] *a* kelishgan, salobatli, savlatli, basavlat.

personage [ˈpɛ:snɪdʒ] *n* 1) mashhur shaxs; 2) katta odam; hurmatli kishi, ulugʻ zot; 3) badiiy asar qahramoni (*personaj*).

personal [ˈpɛ:snl̩] *a* shaxsiy, maxsus, xos, alohida.

personality [ˌpɛ:səˈnælətɪ] *n* 1) shaxs, shaxsiyat; 2) oʻziga xoslik, oʻziga xos xususiyat.

personalize [ˈpɛ:snəlaɪz] *v* 1) shaxsini ifodalamoq, shaxsini koʻrsatmoq; 2) gavdalantirmoq, mujassamlantirmoq.

personally [ˈpɛ:snəli] *adv* shaxsan, bevosita, shaxsan oʻzi.

personification [ˌpɛ:sənɪfɪˈkeɪʃn] *n* gavdalantirish, jonlantirish (*jonsiz narsani jonli qilib koʻrsatish*).

- personify** [pəˈsɒnɪfaɪ] *v* gavdalan-tirmoq, jonlan-tirmoq, jonsiz narsani jonli qilib koʻrsatmoq.
- personnel** [ˌpɜːsəˈnel] *n* idora xodimlari, xodimlar.
- perspective** [pəˈspektɪv] **1.** *n* istiqbol, kelajak; **2.** *a* kelajagi bor, istiqboli porloq.
- perspicacious** [ˌpɜːspɪˈkeɪʃəs] *a* oʻtkir, ziyrak, sezgir.
- perspicacity** [ˌpɜːspɪˈkæʃətɪ] *n* oʻtkirlik, ziyraklik, sezgirlik.
- perspicuity** [ˌpɜːspɪˈkjuːətɪ] *n* soflik, tozalik, tiniqlik, oydinlik, ochiqlik.
- percipuous** [pɜˈspɪkjʊəs] *a* oydin, yorqin, yorugʻ.
- perspire** [pɜsˈpaɪə] *v* terlamoq, ter chiqarmoq.
- persuade** [pəˈsweɪd] *v* 1) ishontirmoq, inontirmoq; toʻla isbot qilmoq; 2) koʻndirmoq, unatmoq, rozi qilmoq.
- persuasion** [pəˈsweɪʒn] *n* 1) ishontirish, ishonch hosil qilish; 2) diqqat bilan oʻqib chiqmoq; 3) koʻndirish, eʼtiqod.
- persuasive** [pəˈsweɪsɪv] *a* ishonchli, ishonarli, asosli, puxta, aniq.
- pert** [pɜːt] *a* surbet, bezbet, beor, shilqim.
- pertain** [pəˈteɪn] *v* birovga qarashli boʻlmoq, tegishli boʻlmoq.
- pertinacious** [ˌpɜːtɪˈneɪʃəs] *a* oʻjar, qaysar.
- pertinacity** [ˌpɜːtɪˈnæsətɪ] *n* oʻjarlik, qaysarlik.
- pertinent** [pɜːtɪnənt] *a* munosib, bop, qulay, mos, muvofiq.
- perturb** [pɜˈtɜːb] *v* bezovta qilmoq, xavotirga solmoq.
- perturbation** [ˌpɜːtɜːˈbeɪʃn] *n* 1) tartibsizlik, parokandalik; 2) *astr.* toyilish (*samoviy jismlarning boshqa planetalar taʼsirida oʻz orbitasidan chetga chiqishi*).
- perusal** [pɜˈruːzəl] *n* oʻqish, oʻqib chiqish.
- peruse** [pɜˈruːz] *v* 1) diqqat bilan koʻzdan kechirmoq (*inning yuzi va b.*); 2) diqqat bilan oʻqib chiqmoq.
- pervade** [pɜˈveɪd] *v* tarqalmoq, yoyilmoq, qoplamoq.
- pervasive** [pɜˈveɪsɪv] *a* tarqalgan, yoyilgan.
- pervase** [pɜˈvɜːs] *a* oʻjar, qaysar; axloqsiz, odobsiz.
- perversion** [pɜˈvɜːʃn] *n* 1) buzqlik, buzilganlik, notoʻgʻrilik, yanglish, xato; 2) axloqiy buzqlik.
- perversity** [pɜˈvɜːsətɪ] *n* 1) axloqsizlik, odobsizlik; buzqlik; 2) oʻjarlik, qaysarlik.
- pervert** **1.** *n* [pɜːvɜːt] *n* axloqan buzuc (aynigan) odam; **2.** *v* [pɜˈvɜːt] 1) buzmoq, buzib koʻrsatmoq, notoʻgʻri talqin qilmoq; 2) buzmoq, aynitmoq, yomon taʼsir koʻrsatmoq.
- perverted** [pɜˈvɜːtɪd] **1.** *p. p.* **pervert** **2.** *dan:* **2.** *a* buzib koʻrsatilgan, notoʻgʻri talqin qilingan; notoʻgʻri.
- pervious** [ˌpɜːvjəs] *a* oʻtib boʻladigan, yurib boʻladigan.
- pessimism** [ˈpɛsɪmɪzəm] *n* umidsizlik, kelajakka ishonchsizlik, ruhi tushganlik.
- pessimistic** [ˌpɛsɪˈmɪstɪk] *a* umidsizlikka tushgan, umidsizlangan, qaygʻuli.
- pest** [pest] *n* 1) zararkunanda, kushanda; 2) oʻlat, qirgʻin; 3) jonga tekkan odam, xira (shilqim) odam.
- pester** [ˈpestə] *v* koʻngliga urmoq; joniga tegmoq, bezor qilmoq, zeriktirmoq, bezor boʻlmoq.
- pesticide** [ˈpestɪsaɪd] *n* *q.x.* pestitsid (*zararkunandalarga qarshi kurashish kimyoviy vositasi*).
- pestiferous** [ˈpesˈtɪfərəs] *a* 1) yuqumli, yuqadigan; 2) zarar (ziyon) qiladigan, zararli, ziyonli, yomon, xavfli; 3) hidi yomon, sassiq.
- pestilent** [ˈpestɪlənt] *a* oʻldiradigan, ajal keltiradigan, qirgʻin qiladigan.
- pestilential** [ˌpestɪˈlenʃl] *a* 1) oʻlat kasaliga oid, oʻlat...; 2) chiritadigan, zarar yetkazadigan, zararli.
- pestle** [ˈpesl] *n* oʻgʻir dastasi.
- pet I** [pet] *n* 1) erka, erkatoʻy, arzanda; 2) sevimli hayvon, sevimli narsa, uy hayvoni.
- pet II** [pet] *v* 1) suymoq, erkalatmoq; taltaytirmoq, erkalamoq; 2) *amer.* quchoqlashmoq, oʻpishmoq.
- petal** [ˈpetl] *n* *bot.* gulbarg, gultojbarg.
- peter** [ˈpiːtə] *v* : ~ **out** tugamoq, nihoyasiga yetmoq, ado boʻlmoq, qurimoq.
- petition** [pɪˈtɪʃn] *n* iltimosnoma, ariza, murojaatnoma.
- petitioner** [pɪˈtɪʃnə] *n* soʻrovchi; daʼvogar.
- petrel** [ˈpetrəl] *n* *zool.* boʻronqush.
- petrifaction** [ˌpetrɪˈfækʃn] *n* toshga aylanganlik, toshdek qotib qolganlik, harakatsizlik.
- petrify** [ˈpetrɪfaɪ] *v* toshga aylanmoq, toshday qotmoq; vahimadan dong qotmoq.
- petrol** [ˈpetrəl] *n* 1) benzin; 2) gazolin (*neftdan olinadigan yonilgʻi turi*).
- petroleum** [pɪˈtrɔʊlɪəm] *n* 1) neft; 2) *attr.* neftga oid, neftli.
- petticoat** [ˈpetɪkəʊt] *n* ichki yubka.
- pettifog** [ˈpetɪfɔːɡ] *v* sudlashmoq, sudbozlik qilmoq, haq-huquq talashmoq.
- pettifogger** [ˈpetɪfɔːɡə] *n* ishkalboz, loʻttiboz, ataylab ishga toʻgʻonoq soluvchi.
- pettifogging** [ˈpetɪfɔːɡɪŋ] **1.** *pres. p.* **pettifog** *dan;* **2.** *a* arzimagan; arzimmas, mayda-chuyda, ahamiyatsiz, hech narsaga arzimaydigan.
- pettish** [ˈpetʃ] *a* salga xafa boʻlaveradigan, gap koʻtarmaydigan, taʼbi nozik.
- petty** [ˈpetɪ] *n* 1) kichik, mayda, uncha katta boʻlmagan; ~ **bourgeoise** mayda burjuaziya; 2) arzimmas, arzimagan, arzimaydigan, ahamiyatsiz.
- petulant** [ˈpetjələnt] *a* 1) tez achchiqlanadigan, serjahl; 2) dagʻal, qoʻpol, qoʻrs.
- pew** [pjuː] *n* *soʻzl.* oʻtirgʻich, oʻrindiq, kursi.
- pewter** [ˈpjuːtə] *n* qalaydan qilingan idish.
- phantasy** [ˈfæntəsi] = **fantasy**.

phantom [ˈfæntəm] *n* arvoh, sharpa, ko'lanka; xayolot.

pharmaceutical [ˌfɑ:məˈsu:tɪkl] *a* farmatsevtik, farmatsevtikaga oid; ~ **scales** dorixona tarozisi.

pharmaceutist [ˌfɑ:məˈsu:tɪst] *n* farmatsevt, dori tayyorlovchi (*dorixonada*).

pharmacy [ˈfɑ:məsi] *n* 1) dorixona; 2) farmatsevtika (*dori tayyorlash, saqlash va bemorlarga berish haqidagi amaliy fanlar majmuyi*).

pharynx [ˈfæriŋks] *n* anat. bo'g'iz, halqum, tomoq.

phase [feɪz] *n* bosqich, palla, davr.

pheasant [ˈfeznt] *n* zool. qirg'ovul, tustovuq.

phenomenal [fiˈnɒmɪnl] *a* kamdan-kam uchraydigan, nodir, noyob, ajoyib.

phenomenon [fiˈnɒmɪnən] *n* (*pl -ena*) 1) g'aroyib hodisa, favqulodda hodisa, kamdan-kam uchraydigan hodisa; 2) favqulodda qobiliyat egasi.

phew [fju:] *int.* uh, voy-bo'y, bay-bay-bay; ana xolos.

philander [fɪˈlændə] *v* ishva (noz-karashma) qilmoq.

philanderer [fɪˈlændərə] *n* xotinboz, shilqim.

philanthropic [ˌfɪlənˈθrɒpɪk] *a* saxovatpesha (*muhojirlarga shafqatli, xayr-saxovat qiladigan kishi*).

Philistine [ˈfɪlɪstɪn] *n* tor fikrli kishi.

philologist [fɪˈlɒlədʒɪst] *n* filolog (*filologiya mutaxassisi*).

philology [fiˈlɒlədʒɪ] *n* filologiya.

philosopher [fəˈlɒsəfə] *n* faylasuf, filosof.

philosophical [ˌfɪləˈsɒfɪkl] *a* falsafiy, filosofik, falsafaga (filosofiyaga) oid.

philosophy [fəˈlɒsəfɪ] *n* falsafa, filosofiya.

phlegm [flem] *n* 1) balg'am; 2) shilliq, shilimshiq; 3) shilimshiq parda, shilliq o'tirindi; 4) sovuq-qonlik, loqaydlik, beg'amlik, pinagini buzmaslik.

phlegmatic [flegˈmætɪk] *a* imillab harakat qiladigan, sust, beparvo, beg'am, og'ir tabiatli.

phobia [ˈfəubiə] *n* qo'rqish, qo'rquv, vahimaga tushish.

phone [fəʊn] **1.** *n* telefon; qo'ng'iroq; **2.** *v* telefon qilmoq; qo'ng'iroq qilmoq.

phonic [fəʊˈnetɪk] *a* fonetik; ~s fonetika.

phonetician [ˌfəʊnɪˈtɪʃn] *n* fonetikashunos, fonetika mutaxassisi.

phoney [ˈfəʊni] *a* so'zl. soxta, yasama, qalbaki.

phosphate [ˈfɒsfet] *n* kim. fosfat (*mineral modda, fosfor kislotasining tuzi*).

phosphorus [ˈfɒsfərəs] *n* kim. fosfor (*kimyoviy element*).

photo [ˈfəʊtəʊ] *n* (*pl -os [-əʊz]*) so'zl. fotosurat; fotografiya, surat olish.

photocopy [ˈfəʊtəʊ,kɒpɪ] **1.** *n* fotonusxa, fotoko'chirma; **2.** *v* fotonusxa ko'chirmoq.

photograph [ˈfəʊtəgrɑ:f] **1.** *n* 1) rasmxona; 2) rasm, surat; **2.** *v* surat (*rasm*) olmoq.

photographer [fəˈtɒgrəfə] *n* fotosuratchi.

photography [fəˈtɒgrəfɪ] *n* surat olish (*fotoapparatda*).

phrase [freɪz] **1.** *n* 1) jumla, ibora, gap, so'z, ifoda; 2) so'z birikmasi; ~ **book** so'zlashgich; **2.** *v* ifodalamoq, ifoda qilmoq, aytmoq, bildirmoq, izhor qilmoq.

phrase-monger [ˈfreɪz,mʌŋgə] *n* safsataboz, lofchi, olibqochar, gapsotar, quruq odam.

phraseology [ˌfreɪzɪˈɒlədʒɪ] *n* frazeologiya (*1) barqaror so'z birikmalar majmuyi; 2) tilshunoslikning barqaror so'z birikmalarini o'rganadigan bo'limi*).

phrenetic [frəˈnetɪk] **1.** *a* 1) ortiq asabiylashib ketgan, hayajonlangan, g'azablangan, asabiy; 2) fanatik (mutaassib) bo'lgan; **2.** *n* savdoyi, vasvos.

physic [ˈfɪzɪk] **1.** *n* so'zl. (*asosan, ich suradigan*) dori; **2.** *v* dori bermoq.

physical [ˈfɪzɪkl] *a* jismoniy; ~ **culture** jismoniy tarbiya; ~ **labo(u)r** jismoniy mehnat.

physician [fɪˈzɪʃn] *n* davolovchi, shifokor.

physicist [ˈfɪzɪsɪst] *n* fizik (*fizika mutaxassisi*).

physics [ˈfɪzɪks] *n* *pl* (*sing dek ishlatiladi*) fizika.

physiognomy [ˌfɪzɪˈɒnəmi] *n* tashqi ko'rinish, qiyofa, siymo, aft, yuz, bet.

physiology [ˌfɪzɪˈɒlədʒɪ] *n* fiziologiya (*organizmning yashash faoliyati va uning funksiyalari haqidagi fan*).

physiotherapy [ˌfɪzɪəˈθerəpi] *n* fizioterapiya (*tabiiy va fizik vositalar, masalan: suv, yorug'lik, elektr toki kabilar bilan davolash*).

physique [fɪˈzi:k] *n* gavda bichimi, qaddi qomat, bo'y-bast, jussa, bichim.

pianist [ˈpi:ənɪst] *n* pianinochi, pianino chaluvchi kishi.

piano I [pɪˈæneʊ] *n* (*pl -os [-əʊz]*) fortepiano (*pianino, royal va shu kabilarning umumiy nomi*).

piano II [ˈpjɑ:nəʊ] *n* *it. mus.* piano (*musiqali asarning sekin, ohista ijro etiladigan joyi*).

piazza [pɪˈætsə] *n* 1) bozor maydoni; 2) amer. ayvon.

picaresque [ˌpɪkəˈresk] *a* shubhali, qaltis sarguzashtlarga bag'ishlangan.

pick [pɪk] *v* 1) tanlamoq, saralamoq, saylamoq, tanlab (saylab, saralab) olmoq, yaxshi-yomonni ajratmoq; 2) uzmoq, termoq.

pickaxe(e) [ˈpɪkæks] *n* qo'shbosh (*bir oyog'i kirka-ga, bir oyog'i teshaga o'xshagan ikkiyoqlama asbob*).

picket [ˈpɪkɪt] **1.** *n* kichikroq soqchilar o'tradi; **2.** *v* 1) soqchilar o'tradini qo'yimoq; 2) qoziqqa bog'lamoq; 3) qoziqdevor (zich qoqilgan yog'ochlardan yasalgan devor) bilan aylantirib o'rab olmoq.

pickle [ˈprɪkl] **1.** *n* 1) tuzli suv, namakob, sho'r suv; 2) tuzlangan narsalar (oziq-ovqatlar); **2.** *v* tuzlamoq, tuzlab qo'yimoq, tuz sepmoq.

pickpocket [ˈpɪk,pɒkɪt] *n* kissavur.
picky [ˈpɪki] *a* injiq, tajang, nozik taʼb.
picnic [ˈpɪknɪk] *n* bogʻ sayri, sayr qilib dalaga chiqish.
pictorial [pɪkˈtɔːriəl] *a* tasviriy, suratli; ~ **art** rassomlik sanʼati.
picture [ˈpɪktʃə] *n* 1) rasm, surat, portret; 2) *pl* (the ~s) soʻzl. kino.
picture-book [ˈpɪktʃəbʊk] *n* bolalar uchun moʻljallangan rasmlı kitob.
picturesque [ˌpɪktʃəˈresk] *a* 1) chiroyli, goʻzal (joyga nisbatan); 2) yorqin, jilvalı.
pie [paɪ] *n* 1) pirog; 2) *amer.* tort.
piebald [ˈpaɪbɔːld] **1.** *a* 1) chavkar, ola (otlarda); 2) olachipor, ola-bula; **2.** *n* chavkar ot.
piece [piːs] **1.** *n* boʻlak, qism, parcha, burda; **2.** *v* (bir butun qilib) birlashtirmoq.
piecemeal [ˈpiːsmiːl] *a* asta-sekin, bora-bora, to-bora.
piece-work [ˈpiːswɜːk] *n* baylashib qilinadigan ish, baylashib ishlash, ishbay asosidagi ish.
pie [paɪd] *a* rang-barang, har xil rangli, ola-bula.
pier [pɪə] *n* deng. 1) pirs (kemalar bogʻlab qoʻyiladigan maxsus joy); 2) toʻlqinqaytargich (portlarda); 3) koʻpriklar ustuni, koʻpriklar tiragichi.
pierce [pɪəs] *v* sanchmoq, tiqmoq, tiqib olmoq; teshmoq.
piercing [ˈpɪəriŋ] **1.** *pres. p.* pierce dan; **2.** *n* teshik, sanchib teshilgan joy.
pier-glass [ˈpɪəglɑːs] *n* toshoyna.
piety [ˈpɪəri] *n* diyonat, dindorlik, taqvodorlik, xudojoʻylik, moʻminlik; taqvo.
piffle [ˈpɪfl] *n* safsata, bekorchi gap.
pig [pɪɡ] **1.** *n* 1) choʻchqa; 2) soʻzl. yaramas odam, razil odam; choʻchqa kabi iflos (isqirt) odam; **2.** *v* tugʻmoq, bolalamoq (choʻchqa haqida).
pigeon [ˈpɪdʒɪn] *n* kaptar, kabutar.
piggish [ˈpɪɡɪʃ] **1.** *a* 1) choʻchqaga oid, choʻchqa...; 2) choʻchqa kabi iflos, isqirt.
piggy [ˈpɪɡɪ] *n* choʻchqa bolasi, choʻchqacha.
piglet [ˈpɪɡlət] *n* choʻchqa bolasi.
pigment [ˈpɪgmənt] *n* pigment (1. organizmda badan, soch va sh.k.ga rang kirituvchi tabiiy boʻyoq moddasi; 2. moyboʻyoq, lok tayyorlashda ishlatiladigan boʻyovchi sintetik modda).
pigmy [ˈpɪɡmi] = **pygmi**.
pigskin [ˈpɪɡskɪn] *n* 1) choʻchqa terisi; 2) soʻzl. egar.
pigsty [ˈpɪɡstɪ] *n* choʻchqaxona, ogʻilxona.
pigtail [ˈpɪɡteɪl] *n* soch oʻrimi, kokil.
pike I [paɪk] *n* choʻrtan, choʻrtanbaliq.
pike II [paɪk] *n* 1) nayza; 2) choʻqqi, togʻ choʻqqisi; 3) ayri, panshaxa.
pike III [paɪk] *n* lavha, bezak.
pilchard [ˈpɪltʃəd] *n* zool. sardina (seldlarga mansub mayda baliq).
pile [paɪl] **1.** *n* gʻaram, toʻda; toʻp; **2.** *v* tahlamoq; gʻamlamoq; uymoq, uyib tashlamoq.

pile-driver [ˈpaɪl,draɪvə] *n* *tex.* kopyor (shaxtalar ustidagi koʻtarish qurilmasi).
piles [paɪlz] *n* gemoroy, bavosil.
pilfer [ˈpɪlfə] *v* 1) oʻgʻirlamoq; 2) oʻgʻirlik qilmoq.
pilferage [ˈpɪlfərɪdʒ] *n* mayda oʻgʻirlik.
pilferer [ˈpɪlfərə] *n* 1) mayda oʻgʻiri; 2) firibgar, qallob, muttahaam.
pilgrim [ˈpɪlɡrɪm] *n* muqaddas joylarga borib ziyorat qiluvchi kishi, sayyoh ziyoratchi, hoji.
pilgrimage [ˈpɪlɡrɪmədʒ] **1.** *n* muqaddas joylarnı ziyorat qilish, ziyorat; **2.** *v* ziyorat qilmoq.
pill I [pɪl] *n* hapdori, yumaloq dori.
pill II [pɪl] *v* dori bermoq.
pillage [ˈpɪlɪdʒ] *v* talamoq, talon-taroj qilmoq; ~r talonchi.
pillar [ˈpɪlə] *n* 1) ustun, tirgak, poya, tirgovuch, tayanch, suyanchiq; 2) koʻchm. qoʻllab-quvvatlaydigan (suyandigan) kuch.
pillar-box [ˈpɪləbɔːks] *n* tik turadigan pochta qutisi.
pillbox [ˈpɪləbɔːks] *n* yumaloq dorining qutisi.
pillion [ˈpɪljən] *n* orqa oʻrindiq.
pillory [ˈpɪləri] *v* sharmanda-yu sharmisor qilmoq, sharmandasini chiqarmoq.
pillow [ˈpɪləʊ] *n* yostiq, bolish.
pillow-case [ˈpɪləʊkəs] *n* yostiq jildi.
pilot [ˈpaɪlət] **1.** *n* 1) uchuvchi; 2) tajribali yoʻl boshlovchi; **2.** *v* boshqarmoq.
pilotage [ˈpaɪlətɪdʒ] *n* *av.* uchuvchilik sanʼati (mahorati).
pimp [pɪmp] **1.** *n* qoʻshmachı, dallas; **2.** *v* qoʻshmachilik qilmoq.
pimple [ˈpɪmpəl] *n* husnbuzar, boʻjama.
pin I [pɪn] *n* toʻgʻnagʻich, nına toʻgʻnagʻich, sochtoʻgʻnagʻich.
pin II [pɪn] *v* qadamoq, toʻgʻnamoq, sanchib qoʻymoq.
pinafore [ˈpɪnəfɔː] *n* etak, fartuk.
pincers [ˈpɪnsəz] *n* *pl* ombur; qisqich.
pinch [pɪntʃ] **1.** *v* 1) chimchilamoq; 2) qismoq; **2.** *n* chimdish, chimdilash, chimdilab olish.
pinchbeck [ˈpɪntʃbɛk] *n* jez (misning rux bilan aralashması).
pine [paɪn] **1.** *n* qaragʻay; **2.** *v* 1) tinkasi qurimoq, sogʻligʻini yoʻqotmoq, zaiflashmoq; 2) sogʻinmoq, qoʻmsamoq, sogʻinib siqilmoq.
pineapple [ˈpaɪnæpl] *n* ananas (oʻtsimon tropik oʻsimlik va uning xushboʻy shirador hosılı).
ping [pɪŋ] *n* oʻqlarning gʻiz-gʻiz ovozi, gʻizillab oʻtishi.
ping-pong [ˈpɪŋpɒŋ] *n* stol tennisi.
pinion [ˈpɪnjən] *n* *tex.* tishli gʻildirak.
pink [pɪŋk] *a* pushti, och qizil, qizgʻish.
pinnacle [ˈpɪnəkl] *n* 1) shpil (gumbaz, minora, tom kabilarning nayzasimon ishlangan usti, uchi); 2) tepa, uch, choʻqqi; 3) eng yuksak.
pinnate [ˈpɪneɪt] *a* bot. patsimon, barra.
pinnated [ˈpɪneɪtɪd] = **pinnate**.

pinny [ˈpɪni] *n* fartuk, etak.

pin-point [ˈpɪnpɔɪnt] **1.** *n* 1) to'g'nag'ichning uchi; 2) juda kichik narsa; **2.** *a harb.* aniq, nishonga olingan.

pint [paɪnt] *n* pinta (*ingliz o'lchovlarini qo'llovchi mamlakatlarda: suyuqlik yoki sochiluvchi narsalarning o'lchov birligi*).

pioneer [ˌpaɪəˈniə] *n* kashfiyotchi, yangilik yaratuvchi.

pious [ˈpaɪəs] *a* xudojo'y, dindor, taqvodor.

pip I [pɪp] *n* chipqon (*qushlarning tili uchiga chiqadigan yara*).

pip II [pɪp] *n* mayda don, donacha, zarracha.

pip III [pɪp] *n* ochko, xol (*qarta, domino va sh.k.da*).

pip IV [pɪp] *v* 1) otib yarador qilmoq, o'q tegizmoq; 2) yiqitmoq, imtihondan o'tkazmaslik.

pipe [paɪp] *n* 1) quvur; truba; 2) trubka.

pipeclay [ˈpaɪpkleɪ] *n* oq gil, chinni gili, kaolin.

pipeline [ˈpaɪplaɪn] *n* 1) truboprovod (*uzoq masofaga quvur orqali gaz va suyuqlik o'tkazadigan inshoot*); 2) neft quvuri.

piper [ˈpaɪpə] *n* nay chaluvchi, naychi.

piping [ˈpaɪpɪŋ] *n* 1) quvurlar; 2) truboprovod (*uzoq masofalarga quvur orqali gaz, suv va suyuqlik o'tkazadigan inshoot*).

piquancy [ˈpi:kənsɪ] *n* ta'mi o'tkirlik, nordonlik.

piquant [ˈpi:kənt] *a* ta'mi o'tkir, nordon.

pique [ˈpi:k] *n* 1) nafsoniyatga tegish; 2) biroz aytishib qolish, araz, gina.

piracy [ˈpaɪrəsi] *n* 1) qaroqchilik, dengiz qaroqchiligi; 2) muallifning huquqini buzish.

pirate [ˈpaɪrət] **1.** *n* 1) dengiz qaroqchisi; 2) qaroqchilar kemasi; 3) muallifning huquqini buzuvchi (buzgan) kishi; **2.** *v* 1) qaroqchilik bilan shug'ullanmoq; 2) mualliflik huquqini buzmoq.

piscatorial [ˌpɪskəˈtɔːrɪəl] *a* baliq ovlashga oid, baliq ovlaydigan.

pistachio [ˈpɪːstɑːtʃəʊ] *n* (*pl -os* [-əuz]) **1)** *bot.* pista daraxti va mevasi; **2)** pista rang.

pistol [ˈpɪstl] *n* *bot.* urug'chi, onalik.

pistol [ˈpɪstl] **1.** *n* to'pponcha; **2.** *v* to'pponchadan o'q uzmoq.

piston [ˈpɪstən] *n* *tex.* porshen.

piston-rod [ˈpɪstənˌrɒd] *n* *tex.* porshen shtoki (*porshen va dvigatelni birlashtiruvchi detal*).

pit I [pɪt] **1.** *n* 1) chuqur, chuqurlik, o'ra; 2) shaxta, kon; **2.** *v* 1) o'raga joylashtirmoq (*asosan sabzavotlarni saqlash uchun*); 2) chuqur qazimoq.

pit II [pɪt] **1.** *n* meva danagi; **2.** *v* mevadan danagini ajratib olmoq.

pit-a-pat [ˌpɪtəˈpæt] *n* 1) tepish, urish; **his heart went** ~ uning yuragi ura boshladi; uning yuragi duk-duk urib ketdi; 2) titroq, titrash, dirillash; **her feet went** ~ uning oyoqlari chalishdi (*darmonsizlikdan*).

pitch I [pɪtʃ] **1.** *n* qora mum, qatron; **2.** *v* smola (qatron) surtmoq.

pitch II [pɪtʃ] *n* 1) balandlik, ingichka-yo'g'onlik (*tovush va h.k.*); 2) daraja, me'yor.

pitch-black [ˈpɪtʃˈblæk] *a* smoladek yoki qatrondek qop-qora, saqichdek (zulukdek) qop-qora.

pitcher [ˈpɪtʃə] *n* 1) ko'za, kuvacha; 2) *sport.* to'pni oshirib beradigan.

pitchfork [ˈpɪtʃfɔːk] *n* panshaxa, ayri.

piteous [ˈpɪtɪəs] *a* ayanchli, achinarli, kishini achintiradigan,

pitfall [ˈpɪtfɔːl] *n* ko'chm. tuzoq, qopqon, pistirma.

pith [pɪθ] *n* 1) *bot.* o'zak (*o'simlikdagi*); 2) orqa miya.

pithy [ˈpɪθɪ] *a* to'g'ridan-to'g'ri, bevosita, ochiqdan-ochiq.

pitiable [ˈpɪtɪəbl] *a* ayanchli, achinarli, nochor, ojiz.

pitiful [ˈpɪtɪfl] *n* achinarli, ayanchli.

pitiless [ˈpɪtlɪs] *a* ayamaydigan, rahmsiz, shafqatsiz, berahm, qahrli, beshafqat.

pittance [ˈpɪtns] *n* 1) arzimagan pul, sadaqa, xayr-ehson; 2) unchalik katta (yoki ko'p) bo'l-magan miqdor, kichkina (oz, kam) qism.

queenhood [ˈkwɪːnhud] *n* podsholik davri.

queening [ˈkwɪːniŋ] *n* hukmronlik qilish.

queenly [ˈkwɪːnli] *a* shohona, podshohlik.

queer [kwɪə] **1.** *a* 1) g'alatiroq, tentaksimon; 2) shubhali, shubha tug'dirmoq; **2.** *v* buzmoq, ishdan chiqarmoq.

quell [kwel] *v* 1) bosmoq, bartaraf qilmoq, yengmoq, yo'qotmoq, yo'q qilmoq (*qo'rquv va b.*); 2) yengillashtirmoq, tinchitmoq; **to** ~ plain og'riqni yengillashtirmoq.

quench [kwentʃ] *v* 1) o'chirmoq, so'ndirmoq; 2) (*chanqoqni*) bosmoq, qondirmoq; 3) tilagini qondirmoq; 4) poymol qilmoq (*his, tuyg'u*).

quencher [ˈkwentʃə] *n* 1) o'chirgich, so'ndirgich; 2) so'zl. ichimlik.

quenching [ˈkwentʃɪŋ] *n* chiniqtirish, toblanish.

quenchless [ˈkwentʃləs] *a* o'chmas, doimiy.

quercitron [ˈkwɔːsɪtrɒn] *n amer.* kversitron (*sariq bo'yoq*).

querist [ˈkwɪərɪst] *n* savol beruvchi kishi.

quern [kwɔːn] *n* qo'l tegirmon.

querulous [ˈkwɛrələs] *a* sergap, ezma, ko'p shikoyat qiluvchi.

query [ˈkwɪəri] **1.** *n* 1) savol, so'roq; 2) shubha, gumon; 3) so'roq belgisi; **2.** *v* 1) so'ramoq, savol bermoq; 2) shubhalanmoq; 3) so'roq belgisini qo'ymoq.

quest [kwɛst] **1.** *n* qidiruv, qidirish, izlash; **2.** *v* qidirmoq, izlamoq.

question [ˈkwɛstʃən] **1.** *n* 1) savol, so'roq; 2) muammo, masala; **the** ~ of the day dolzarb masala; **2.** *v* savol bermoq.

questionable [ˈkwɛstʃənəbl] *a* shubhali, shubha tug'diradigan.

questioner [ˈkwɛstʃənə] *n* savol beruvchi, intervyu oluvchi, muxbir.

questioning [ˈkwɛstʃənɪŋ] *n* so'roq qilish, so'roq.

questionless [ˈkwɛstʃənləs] **1.** *a* shubha tug'dirmaydigan, shubhasiz, begumon, aniq; **2.** *adv* tortishmay, shak-shubha qilmay.

question-mark [ˈkwɛstʃənmə:k] *n* so'roq belgisi.

questionnaire [ˈkwɛstʃənəri] *n fr.* savolnoma, savol varaqasi.

quetzal [ˈkɛtsl] *n* ketsal (*Gvatemalaning pul birligi*).

queue [kju:] **1.** *v* 1) sochni mayda qilib o'rmoq; 2) navbatda turmoq; 3) soch o'rini, kokil; **2.** *n* navbat, navbatda turish.

quibble [ˈkwɪbl] **1.** *v* og'z. so'z o'ynamoq; **2.** *n* so'z o'yini.

quiche [kiːʃ] *n* go'sht, pishloq va b. qo'shib pishirilgan pirog.

quick [kwɪk] *a* 1) tez, chaqqon; 2) jonli.

quick bread [ˈkwɪkˈbrɛd] *n amer.* oshirilmagan xamirdan (*qilingan*) pishiriqlar.

quick-change [ˈkwɪkʃeɪndʒ] *a teatr.* artist, ko'p rolli aktyor.

quicken I [ˈkwɪkən] *v* jonlanmoq, ruhlanmoq.

quicken II [ˈkwɪkən] *n* chetan (*daraxti va mevasi*).

quick-fence [ˈkwɪkfɛns] *n* buta, g'ov o'simlikdan hosil bo'lgan ihota.

quick-firing [ˈkwɪkˌfaɪərɪŋ] *a* tez otadigan.

quick-freeze [ˈkwɪkˈfriːz] *v* tez muzlatmoq (*oziq-ovqatlarni*).

quickie [ˈkwɪki] *n* 1) pala-partish qilingan ish; 2) sifati past bo'lgan mahsulot.

quicklime [ˈkwɪklaɪm] *n* so'ndirilmagan ohak.

quickly [ˈkwɪkli] *adv* tez, tezda, darrov, tezlik (zudlik) bilan.

quickness [ˈkwɪknəs] *n* tezlik, chaqqonlik, ildamlik, jadallik.

quicksand [ˈkwɪksænd] *n* oqma loy, suyuq loy, suyuq qum, bilqillama qumloq.

quickset [ˈkwɪkset] *n q.x.* 1) qalamcha (*asosan, do'lananiki*); 2) buta (chakalak) g'ov, o'simlikdan hosil bo'lgan ihot.

quicksilver [ˈkwɪksɪlvə] *n* simob; **to have ~ in one's veins** tinib-tinchimas odam bo'lmoq.

quicktempered [ˈkwɪktempəd] *a* jahli (achchig'iy) tez, qiziqqon, jizzaki, jirtaki, tez achchiqlanadigan, serjahli.

quickwitted [ˈkwɪkwɪtɪd] *a* 1) tadbirli, tadbirkor, aqli, fahm-farosatli, topqir, hozirjavob; 2) tez tushunadigan, aqli (kallasi) yaxshi ishlaydigan, fahmi (zehni) o'tkir, fahmli, idrokli.

quid I [kwɪd] *n* chaynash uchun presslangan tamaki bo'lagi.

quid II [kwɪd] *n* (*pl o'zgarishsiz*) *jarg.* funt sterling.
quiddity [ˈkwɪdɪti] *n kit.* mohiyat, tub ma'no, mazmun, mag'iz.

quidnunc [ˈkwɪdnʌŋk] *n lot.* g'iybatchi odam, gap tashuvchi.

quid pro quo [ˈkwɪdprəuˈkwəu] *n lot.* 1) badal, muzd, haq, tovon; 2) o'rni to'ldirish, haq (badal, tovon) to'lash.

quiescence, -cy [kwɪˈesns, -sɪ] *n* 1) sukunat, harakatsiz muvozanat, harakatsizlik, tinchlik, tinch holat; 2) osoyishtalik, orom, huzur-halovat.

quiescent [kwɪˈesnt] *a* qo'zg'almaydigan, qimirlamaydigan, harakat qilmaydigan, harakatsiz, qotgan, qo'zg'almas, jim, sokin, turg'un.

quiet [ˈkwiət] *a* 1) tinch, jimjit, osoyishta, xomush; yuvosh, muloyim; 2) shovqinsiz, tovushsiz, tovush chiqmaydigan, tovush chiqarmaydigan; 3) eshitib bo'lmaydigan, eshitilmas; **keep ~!** jim bo'ling!

quieten [ˈkwiətən] *v* ovutmoq, tinchlantirmoq, tinchitmoq, yupatmoq, taskin (orom) bermoq.

quietism [ˈkwiətɪzəm] *n filos.* kvietizm (*hamma narsani xudodan deb bilishga da'vat etuvchi ta'limot*).

quietly [ˈkwiətli] *adv* 1) tinch, osoyishta, asta, sekin, sekingina, xotirjamlik bilan, xotirjam, bamaylixotir, bemalol; 2) sekin, past ovoz bilan.

quietness [ˈkwiətənəs] *n* 1) tinchlik, jimjitlik, sokinlik, sukunat; 2) osoyishtalik, halovat, orom.

quietude [ˈkwiətju:d] *n* tinchlik, sukunat, osoyishtalik.

quietus [kwɑːi:təs] *n* ajal, o'lim, vafot, o'lish, vafot (qazo) qilish, jon berish, jon uzilishi.

quill [kwɪl] *n* 1) qush pati; 2) tish kovlagich.

quill-driver [kwɪl,drɑːvə] *n* no'noq (iste'dodsiz, qobiliyatsiz) yozuvchi.

quillet [ˈkwɪlɪt] = **quibble 1.**

quilling [ˈkwɪlɪŋ] *n* burma hoshiya (*biror narsaning ustiga burib tikiladigan yengil mato*).

quilt [kwɪlt] **1.** *v* savalamoq, qamchilamoq, qavimmoq (*ko'rpachani*); **2.** *n* qavima ko'rpa.

quinary [ˈkwɪnəri] *a* 1) besh o'lchamli, besh soni bilan o'lchanadigan, besh marta katta yoki ko'p; 2) beshtadan iborat bo'lgan.

quince [kwɪns] *n* behi (*daraxti va mevasi*).

quincenary [ˈkwɪnsənˈti:nəri] *n* 1) besh yuz yillik vaqt yoki muddat; 2) besh yuz yillik yubiley.

quinine [ˈkwɪˈni:n] *n kim. farm.* xinin (*bezgak dori*).

quininize [ˈkwɪniːnaɪz] *v* bezgak dori bermoq.

quinism [ˈkwɪnɪzəm] *n tib.* xininni juda ko'p ichish natijasida markaziy asab faoliyatining buzilishi.

quinize [ˈkwɪnaɪz] = **quininize.**

quinquagenarian [ˈkwɪŋkwədʒf neərtən] **1.** *a* ellik yillik, ellik yil davom etadigan, ellik yil mobaynidagi; **2.** ellik yoshga kirgan, ellik yoshli, ellik yoshlar; **2.** *n* ellik yoshli kishi.

quinquennia [kwɪŋˈkwentə] *pl* **quinquennium dan.**

quinquennial [kwɪŋˈkwentjəl] **1.** *a* 1) besh yillik, besh yil davom etadigan, besh yil mobaynida; besh yilga mo'ljallangan; 2) besh yoshga kirgan, besh yoshli, besh yashar; **2.** *n* 1) besh yil, besh yillik vaqt yoki muddat; 2) besh yillik (boshlanganiga yoki tug'ilganiga besh yil to'lgan vaqt va shunga bag'ishlangan marosim).

quinquennium [kwɪŋˈkwentəm] *n* (*pl -nia*) besh yil, besh yillik vaqt yoki muddat.

quinquivalent [ˈkwɪŋkwɪˈvələnt] *a kim.* besh valentli.

quinsy [ˈkwɪnzɪ] *n tib.* angina; yiringli tonzilit (*tonzilit - tomoq bodomsimon bezlarining yalilg'lanishi*).

quint [kwɪnt] *n mus.* kvinta (*1. diatonik gammaning beshinchi parda orasi; 2. skripkaning eng ingichka tori*).

quintain [ˈkwɪntən] *n* otadigan nayzaning nishoni o'rnatilgan ustun.

quintal [ˈkwɪntl] *n* sentner; kvantal (*ingl. = 50,8 kg; amer. = 45,36 kg*).

quintan [kwɪntən] *n tib.* (*har to'rt kunda takrorlanib turadigan*) uzoq muddat davom etadigan (*cho'ziladigan*) isitma (*bezgak, isitmali qaltiroq*).

quintessence [kwɪntɪˈesns] *n* eng muhim joy, asosiy mohiyat, mag'iz; **the ~ of virtue** (**politness**) yaxshi fazilat (xushmuomalalik) timsoli.

quintessential [ˈkwɪntɪˈsenʃl] *a* eng muhim joy bo'lgan, eng mag'iz bo'lgan.

quintet(te) [kwɪntɪˈtɛt] *n mus.* kvintet (*1. besh ovoz yoki besh soz uchun yozilgan musiqa asari; 2. besh ijrochidan iborat ansambli*).

quintuple [ˈkwɪntjuːpl] *a* besh karra, besh marta takrorlangan.

quintuplet [ˈkwɪntjuːplət] *n* 1) besh predmetning to'plami; 2) *pl* besh egizaklar.

quip [kwɪp] *n* 1) istehzoli (achchiq) tanbeh; 2) piching, achchiq (qattiq) gap, zaharxanda.

quirk [kwɜːk] *n* 1) so'z o'yini, tajnis; 2) g'ayratabiiy harakat, g'alati qiliq.

quirt [kwɜːt] **1.** *n* ovchi qamchisi (*ov iltarini haydab borish uchun*); **2.** *v* ovchi qamchisi bilan savalamoq (kaltaklamoq, do'pposlammoq).

quisle [ˈkwɪzl] *v* sotqin bo'imoq, vatanni sotmoq.
quisling [ˈkwɪzliŋ] *n* sotqin, xoin, xiyonatchi, xiyonatkor.

quit [kwɪt] **1.** *n amer.* ishdan bo'shsh, ishdan bo'shatilish, ishdan bo'shalish; **2.** *v* 1) to'xtatmoq (*ishni, xizmatni*), voz kechmoq; ~ **work** ishdan ketmoq; 2) (*qarzni*) to'lamoq.

quitch [kwɪtʃ] *n bot.* yer bag'irlab o'sadigan bug'doyiq (*g'allasimon o'simlik*).

quitch-grass [ˈkwɪtʃgrɑːs] = **quitch**.

quitclaim [ˈkwɪtkleɪm] **1.** *n yur.* huquqdan bosh tortish; **2.** *v* huquqdan bosh tortmoq.

quite [kwaɪt] *adv* 1) butunlay, tamoman; 2) judayam, juda; ~ **right** juda to'g'ri.

quits [kwɪts] *a predic.* : **to be** ~ qarzni uzmoq, qarzdandan qutulmoq; orani ochiq qilmoq (*kim bilan-dir*).

quittance [kwɪtns] *n esk.* 1) kvitansiya; 2) tovon, badal; 3) ozod qilish (*majburiyat, to'lov va b.*).

quitter [ˈkwɪtə] *n so'zl.* 1) boshlagan ishni osonlik bilan tashlaydigan sabr-bardoshsiz kishi; 2) qo'r-qoq, yuraksiz; 3) progulchi, dangasa, yalqov, ishyoqmas, tanbal.

quiver I [ˈkwɪvə] **1.** *n* titroq, qaltiroq, larza, titrash; **2.** *v* titramoq, qaltiramoq.

quiver II [ˈkwɪvə] *n o'qdon, tiridon, sadoq.*

quiverful [ˈkwɪvəfʊl] *n* 1) o'qdonga sig'adigan o'qlar miqdori; 2) *hazil.* katta oila.

qui vive [ˌkiːˈviːv] *n fr.* **on the** ~ hushyor bo'lib, sergak, oqoh.

Quixote [ˈkwɪksət] *n* soddadil, xayolparast odam, xomxayol.

quixotic [kwɪk ˈsɒtɪk] *a* soddadilona, xayolparastona, xomxayol bilan.

quixotics [kwɪk ˈsɒtɪks] = **quixotism**.

quixotism [kwɪksətɪzm] *n* donkixotlik, xomxayollik.

quiz I [kwɪz] **1.** *n* masxara qilish, istehzo; ustidan kulish; masxaraboz, qiziqchi; **2.** *v* ustidan kulmoq, hazillashmoq.

quiz II [kwɪz] **1.** *n* 1) *amer.* imtihon; 2) sinash uchun beriladigan savollar; 3) so'rash, so'roqlash, surishtirish; 4) viktorina (savol-javob o'yini); 5) *attr.* : ~ **program** televiktorina; **2.** *v* 1) imtihon qilmoq; 2) sinash uchun savol bermoq.

Rr

R, r [ɑː] *n* ingliz tili alifbosining o'n sakkizinchi harfi.

rabbet [ˈræbɪt] **1.** *n* 1) tarnov, nov; 2) o'yi, kovak, tirqish; chuqurcha; 3) taxtaning yon qirasi bo'y-lab chiqarilgan tirnoq (shpunt); **2.** *v* shpuntlamoq, tirnoq (*yoki o'yi*) chiqarmoq.

rabbi [ˈræbaɪ] = **rabbin**.

rabbin [ˈræbɪn] *n* ravvin (*yahudiylar ruhoniysi*).

rabbinate [ˈræbɪnət] *n* ravvin unvoni, ravvinlar.

rabbinic(al) [ˈræˈbɪnɪk(əl)] *a* ravvinga (*yahudiylar ruhoniysiga*) oid.

quizzee [kwɪˈziː] *n amer.* so'zl. so'roq qilishda ishtirok etadigan shaxs.

quizzical [ˈkwɪzɪkl] *a* kulgili, istehzoli, masxara (*mazax, mayna*) qilib aytilgan.

quizzing-glass [ˈkwɪzɪŋɡlɑːs] *n* monokl (*bir ko'zga tutiladigan ko'zoynak yoki durbin*).

quod [kwɒd] **1.** *n* qamoqxona; **2.** *v* qamamoq, hibsga olmoq, qamoqqa olmoq.

quoin [kɔɪn] *n* 1) binoning tashqi burchagi; 2) g'isht-dan qurilgan devorning burchakdagi g'ishti.

quoit [kɔɪt] *n* 1) halqani nishonga otish (*o'yin*); 2) o'tkir uchli otadigan halqa.

quondam [ˈkwɒndæm] *a* lot. sobiq, ilgari.

Quonset hut [ˈkwɒnsɪθʌt] *n amer.* bir yo'nalishda bukilgan tunukadan yasalgan yig'ma uy.

quorum [ˈkwɔːrəm] *n* lot. majlis, kengash va sh.k. ning qarorlari qonuniy bo'lishi uchun ishtirokchilarning ustav bo'yicha yetarli hisoblanadigan miqdori.

quota [ˈkwɒtə] *n* qism, bo'lak, hissa, ulush.

quotable [ˈkwɒtəbəl] *a* sitata olinadigan, sitata olsa bo'ladigan, sitata (tekst parchasi) keltirsa bo'ladigan.

quotation [kwəʊ ˈteɪʃn] *n* sitata (*matn pardasi*), baholash.

quotation-marks [kwəʊ ˈteɪʃn ˈmɑːks] *n* pl qo'shtirnoq.

quote [kwəʊt] *v* 1) sitata olmoq, sitata keltirmoq; 2) dalil qilib ko'rsatmoq; 3) qo'shtirnoq ochmoq, qo'shtirnoqqa olmoq; 4) narx belgilamoq.

quoth [kwəʊθ] *v* aytmoq, gapirib yubormoq.

quotha [ˈkwəʊθə] *int. og'z.* haqiqatan, rostdan, haqiqatan ham.

quotidian [kwəʊ ˈtɪdɪən] *a* 1) har kungi, kundalik, har kuni bo'ladigan; 2) ko'p chaynalgan, siyqasi chiqqan; oddiy; ~ **thought** oddiy fikr.

quotient [ˈkwəʊʃnt] *n* mat. bo'linma (*bir sonni boshqa bir songa bo'lishdan hosil bo'lgan son*); 2) koeffitsiyent (*1. bir matematik ifodaning o'z-garmas yoki ma'lum ko'paytiruvchisi*; 2. *biror fizik hodisani miqdor jihatidan ko'rsatilgan son*).

quotum [ˈkwəʊtəm] *n* hissa, ulush, bo'lak.

Quran [ku ˈrɑːn] *n* Qur'on.

rabbit [ˈræbɪt] *n* 1) quyon; 2) qo'rroq, kuchsiz kishi; 3) *so'zl.* yomon o'yinchi; **2.** *v* quyonlarni ovlamoq.

rabbit-fever [ˈræbɪt,fiːvə] *n tib.* tulyaremiya (*kasal kemiruvchilar orqali odam va hayvonlarga yuqadigan og'ir kasallik*).

rabbit-fish [ˈræbɪtɪʃ] *n* ximera (*yumon mifologiyasida; uch boshli o'tsochar bahaybat hayvon*).

rabbit-hutch [ˈræbɪθʌtʃ] *n* uy quyoni qafasi.

rabbit-warren [ˈræbɪt,wɔːrən] *n* quyonxona, quyon boqiladigan katalak.

rabbity [ˈræbɪtɪ] *a* 1) uy quyoniga oid, uy quyoni bilan to'lib-toshgan; 2) quyon terisidan qilingan.

rabble [ˈræbl] *n* 1) olomon, to'da; 2) (**the** ~) qalang'i-qasang'ilar, qora xalq.

rabid [ˈræbɪd] *a* darg'azab, shiddatli, ashaddiy, quturgan (*it to'g'risida*).

rabidity [ræˈbɪdətɪ] *n* 1) achchiq, jahl, g'azab, qahr, jazava; 2) quturish, g'azabga minish.

rabies [ˈreɪbiːz] *n* quturish (*kasallik*).

raccoon [rəˈkuːn] = **racoon**.

race [reɪs] **1.** *n* 1) poyga, musobaqa; ~ **horse** chopqir (poygachi, chopag'on) ot; 2) irq, zot; 3) qabila, xalq; **the human** ~ insoniyat; **2.** *v* poygada qatnashmoq (*ot haqida*).

race-card [ˈreɪskɑːd] *n* o'tchopar (poyga) dasturi.

racecourse [ˈreɪskɔːs] *n* sport. trek (*poyga yoki kimo'zar uchun mo'ljallangan maxsus doirasimon maydoncha*); (*ippodrom*) o'tchopar.

race-hatred [ˈreɪs,heɪtrɪd] *n* irqiy, milliy adovat.

racehorse [ˈreɪshɔːs] *n* poygachi ot, chopqir ot.

raceme [ˈreɪsiːm] *n* bot. bosh, popuk, shingil.

race-meeting [ˈreɪs,mɪːtɪŋ] *n* poyga kuni.

racemose [ˈreɪsɪməʊs] *a* bot. popuksimon, popukli.

racer [reɪsə] *n* 1) poygachi; 2) poyga oti, poygachi ot, chopqir ot.

race-suicide [ˈreɪs,sjuːɪsɪd] *n* aholining qirilib ketishi.

racetrack [reɪstræk] *n* 1) yugurish yo'lkasi; 2) sport. trek (*poyga yoki kimo'zar uchun mo'ljallangan maxsus doirasimon maydoncha*); 3) o'tchopar.

race-way [ˈreɪsweɪ] *n* amer. el. yer ostidan kabel o'tkazish.

rachitis [ræˈkæɪtɪs] *n* tib. raxit, shirzada, mechkay (*yosh bolalar kasali*).

racial [ˈreɪʃl] *a* irqiy, irqqa oid.

racialism [ˈreɪʃəɪlɪzəm] *n* irqchilik.

racialist [ˈreɪʃəɪlɪst] *n* irqchi, irqchilik tarafdori.

racing [ˈreɪsɪŋ] *n* yugurish musobaqasi.

racism [ˈreɪsɪzəm] *n* irqchilik.

racist [ˈreɪsɪst] *n* irqchi, irqchilik tarafdori.

rack I [ræk] **1.** *n* 1) oxur, tegana; 2) ilgak; 3) tokcha; **2.** *v* nimanidir tokchaga qo'yimoq.

rack II [ræk] **1.** *v* qiynamoq, azob bermoq; **2.** *n* 1) tar. diba (*aybdorning tanasini cho'zadigan qadimgi qiynoq qurilmasi*); 2) ko'chm. qiynoq, azob, iskanja; 3) boshqarmoq.

rack III [ræk] *v* suzg'ichdan o'tkazmoq (*vinoni*).

racket I [ˈrækɪt] *n* tennis o'ynaydigan raketka.

racket II [ˈrækɪt] **1.** *n* 1) shovqin, shovqin-suron; **to kick up** (*yoki to make*) **a** ~ to'polon ko'tarmoq; 2) aysh-ishratli hayot tarzi; **2.** *v* aysh-ishratli hayot kechirmoq.

racketeer [ˈrækɪf tɪə] *n* amer. qo'rqitib undiruvchi, tovlamachi.

racketeering [ˈrækɪt tɪərɪŋ] *n* amer. 1) zo'rlik bilan pora olish, tamagirlik, zo'rlik, do'q-po'pisa bilan

tama qiluvchi; 2) bosqinchilik; 3) qo'rqitib (*yoki do'q-po'pisa va b. yo'llar bilan*) undirish, olish; 4) tovlamachilik, tamagirlik, yulg'ichlik.

rackety [ˈrækəti] *a* sershovqin, shovqin-suronli, betartib, pala-partish.

racking I [ˈrækɪŋ] *a* azob beradigan, qiynaydigan; **a** ~ **headache** qattiq bosh og'riq.

racking II [ˈrækɪŋ] *a* og'ir, mashaqqatli.

racking III [ˈrækɪŋ] *n* suzg'ichdan o'tkazish (*vinoni*).

racking IV [ˈrækɪŋ] *n* yo'rg'alash, yo'rg'alab yurish.

rack-rail [ˈrækreɪl] *n* tishli rels.

rack-railway [ˈræk,reɪlweɪ] *n* tishli temir yo'l.

rack-rent [ˈrækrent] **1.** *n* haddan tashqari yuqori bo'lgan ijara haqi; **2.** *v* haddan tashqari yuqori ijara haqi olmoq.

rack-wheel [ˈrækwiːl] *n* tishli g'ildirak.

raccoon [rəˈkuːn] *n* yenot (*sarg'ish-kulrang mo'y-nali kichkina hayvon*; *shu hayvon terisi, mo'y-nasi va undan qilingan buyum*).

racquet [ˈrækɪt] *n* raketka (*tennis o'ynash uchun*).

racy [reɪsi] *a* 1) tirik, jonli; 2) ta'mi o'tkir; nordon; 3) o'ziga xos.

radar [ˈreɪdɑː] *n* radiolokator (*radioto'lqinlar yordamida obyektning turgan joyini aniqlovchi qurilma*).

radial [ˈreɪdiəl] *a* 1) nurli, nur...; 2) nur sohib turadigan, nurafshon, yorqin, yorug'; 3) radial, radius bo'ylab tarqalgan.

radian [ˈreɪdɪən] *n* mat. radian.

radiance, cy [ˈreɪdiəns, -sɪ] *n* nur, yog'du, shu'la, nur sochish, jilva, nurlanish.

radiant [ˈreɪdiənt] *a* nurli, shu'lali, yog'duli, nur sochayotgan, yarqirayotgan, chaqnayotgan, yorqin, yorug', yonib (porlab) turadigan, chaqmoq, porloq (*ko'z haqida*); **a** ~ **face** yorug' yuz; ~ **eyes** porlab turadigan (chaqnoq) ko'zlar.

radiate I. *v* [ˈreɪdiət] 1) nur sochmoq, nurlanmoq, tarqatmoq (*nur, issiqlik va sh. k. haqida*); 2) markazdan tarqalmoq, tarqalib turmoq; **2.** *a* [ˈreɪdiət] nurlar bilan tarqaladigan.

radiation [ˌreɪdiˈeɪʃn] *n* 1) nurlanish, nur sochish, radiatsiya; **atomic** ~ atom radiatsiyasi; 2) nurlantirish, nur berish, biror narsa nuri bilan ta'sir etish (*masalan: davolash uchun*); 3) nur sochish, yarqirash, chaqnash; 4) attr. nurga oid, nurli, nur...; ~ **sickness** nur kasalligi (*radioaktiv nur ta'sirida yuzaga keladigan kasallik*).

radiative [ˈreɪdiətɪv] *a* nur sohadigan.

radiator [ˈreɪdiətə] *n* 1) tex. radiator (*1. motorning suvini sovitadigan moslama, asbob*; 2. binoni bug' yoki qaynoq suv bilan isitadigan asbob).

radical [ˈrædɪkl] **1.** *n* 1) qisman demokratik reformalar o'tkazishni talab qiladigan so'l burjua partiyalarining tarafdori; 2) mat. ildiz chiqarish amalining ishorasi; 3) kim. bir kimyoviy birikmadan ikkinchi kimyoviy birikmaga o'zgarmas-

- dan o'tadigan atomlar guruhi; ~ **changes** keskin o'zgarishlar; **2.** a) tubdan, qat'iy, keskin, asosiy, to'liq.
- radicalism** [ˈrædɪkəlɪzəm] *n* radikalizm (*radikal-larning siyosiy maslagi va xarakteri*).
- radices** [ˈreɪdɪsɪːz] *pl* **radix** *dan*.
- radicle** [ˈrædɪkl] *n* 1) koreshok (*kitob, daftar va sh k.ning tikilgan joyi*); 2) *anat.* ildiz, tomir, tomircha; asab; 3) *bot.* ildizcha.
- radii** [ˈreɪdɪi] *pl* **radius** *dan*.
- radio** [ˈreɪdɪəu] *n* 1) radio; ~ **operator** radio operatori, radio tuzatuvchi; **to turn on** ~ radioni qo'yimoq; **to turn off** ~ radioni o'chirmoq; 2) radioeshittirish.
- radioactive** [ˈreɪdɪəʊ ˈæktɪv] *a* 1) radioaktivlikka oid, radioaktivlik tufayli yuz beradigan; radioaktiv...; 2) radioaktiv xususiyatiga ega bo'lgan.
- radio-activity** [ˈreɪdɪəʊæk ˈɪtvətɪ] *n* radioaktivlik (*kimyoviy elementlar atomlari yadrolarining tarkibiy qismlarga bo'linishi, parchalanishi va nurlanishi*).
- radio aerial** [ˈreɪdɪəʊ ˈeəriəl] *n* radio antennasi.
- radio-beacon** [ˈreɪdɪəʊ ˈbiːkən] *n* radiomayak (*signallar vositasida kema va samolyotlarning turgan joylarini va ularning yo'nalishini aniqlashga yordam beruvchi radiostansiya*).
- radio biology** [ˈreɪdɪəʊbaɪ ˈɒlədʒɪ] *n* radiobiologiya (*radioaktiv nurlanishlarning organizmga ta'sirini o'rganadigan fan*).
- radiobroadcast** [ˈreɪdɪəʊ ˈbrɔːdkɑːst] *v* radio orqali dastur olib bormoq, radioeshittirish.
- radio-controlled** [ˈreɪdɪəʊkən ˈtrəʊld] *a* radio bilan boshqariladigan, boshqarsa bo'ladigan.
- radio engineering** [ˈreɪdɪəʊ, en(d)ʒɪnɪərɪŋ] *n* radiotexnika (*1. elektromagnit tebranishlari va radioto'lqinlar haqidagi fan; 2. amaliy ishlarda radioto'lqinlarning qo'llanish texnikasi*).
- radiogenic** [ˈreɪdɪəʊ ˈdʒenɪk] *a* fiz. radiogenic; radioaktiv tufayli yuz bergan (kelib chiqqan).
- radiogram** [ˈreɪdɪəʊgræm] *n* 1) radiogramma (*radio orqali berilgan xabar*); 2) rentgen surati (*rentgen apparatida olingan surat*).
- radio-gramophone** [ˈreɪdɪəʊ ˈgræməfəʊn] *n* radiola (*radiopriyomnik va elektr patefon birikmasidan iborat apparat*).
- radiograph** [ˈreɪdɪəʊgrɑːf] *v* rentgenga tushmoq.
- radio-location** [ˈreɪdɪəʊləʊ ˈkeɪʃn] *n* radiolokatsiya (*radio to'lqinlar yordamida obyektlarning turgan joyini aniqlash*).
- radio-locator** [ˈreɪdɪəʊləʊ ˈkeɪtə] *n* radiolokator (*radioto'lqinlar yordamida obyektlarning turgan joyini aniqlovchi qurilma*).
- radiology** [ˈreɪdɪ ˈɒlədʒɪ] *n* 1) radiologiya (*radiy va boshqa radioaktiv moddalarning ta'siri va ulardan foydalanish haqidagi fan*); 2) rentgenologiya (*rentgen nurlari va ulardan foydalanish haqidagi ta'limot*).
- radioman** [ˈreɪdɪəʊmæn] *n* radiost (*radio ishi mutaxassisi*).
- radiometer** [ˈreɪdɪ ˈɒmɪtə] *n* radiometr.
- radio net(work)** [ˈreɪdɪəʊ net(wəːk)] *n* 1) radiotarmoq, radio tarmoqlari (*radiostansiyalar tarmog'i*); 2) ovozni kuchaytirib beruvchi apparat majmuasi.
- radionics** [ˈreɪdɪ ˈɒnɪks] *n* radioelektronika (*radio-texnika va elektronikadan rivojlanib chiqqan bilim tarmog'i*).
- radiophare** [ˈreɪdɪəʊfə] *n* radiomayak (*signallar vositasida kema va samolyotlarning turgan joylarini va ularning yo'nalishini aniqlashda yordam beruvchi radiostansiya*).
- radiophone** [ˈreɪdɪəʊfəʊn] *n* radiotelefon, simsiz telefon.
- radioscopy** [ˈreɪdɪ ˈɒskəpɪ] *n* rentgenoskopiya (*rentgen nurlari yordami bilan ko'rish*).
- radiosensitive** [ˈreɪdɪəʊ ˈsensətɪv] *a* tib. nurlanishni sezadigan.
- radio show** [ˈreɪdɪəʊʃəʊ] *n* radiopostanovka.
- radiosonde** [ˈreɪdɪəʊsɒnd] *n* radiozond (*havo shariga bog'lab uchiriladigan, havo sharoiti haqida radiosignal berib turadigan meteorologik asbob*).
- radiospectroscopy** [ˈreɪdɪəʊspek ˈtrɒskəpɪ] *n* radiospektroskopiya.
- radio-telegraph** [ˈreɪdɪəʊ ˈtelɪgrɑːf] *n* radiotelegraf, simsiz telegraf (*radio orqali xabarlar beriladigan aloqa tizimi*).
- radio-therapeutics** [ˈreɪdɪəʊθerə ˈpjuːtɪks] = **radio-therapy**.
- radio-therapy** [ˈreɪdɪəʊ ˈθerəpɪ] *n* 1) radioterapiya (*radioaktiv moddalar bilan davolash*); 2) rentgenoterapiya (*rentgen nurlari bilan davolash*).
- radiotrician** [ˈreɪdɪəʊ ˈtrɪʃn] *n* radiotexnik (*radio-texnika mutaxassisi*).
- radish** [ˈrædɪʃ] *n* bot. rediska (*o'simligi*).
- radium** [ˈreɪdɪəm] *n* kim. radiy (*radioaktivlik xossasiga ega bo'lgan kimyoviy element*).
- radius** [ˈreɪdɪəs] *n* 1) *mat.* radius; 2) *ko'chm.* biror narsaning harakat qilish (ta'sir ko'rsatish) doirasi; 3) g'ildirakning kegayi; 4) *anat.* bilak suyagi; 5) *tex.* yuk ko'taruvchi kran strelkasining (xartumsimon qismining) qulochi.
- radix** [ˈreɪdɪks] *n* (*pl* **radices**) ildiz, tub, tag, manba, sabab; 2) baloning ildizi (sababi).
- radon** [ˈreɪdɒn] *n* kim. radon (*kimyoviy element*).
- rafale** [rɔːfɑːl] *n* kuchli o'q yomg'iri.
- raff** [ræf] *v* sayoq yurmoq, buzuqlik qilmoq.
- raffia** [ˈræfɪə] *n* bot. rafiya.
- raffish** [ˈræfɪʃ] *a* 1) axloqi buzuq, axloqsiz, buzuq, suyuqoyoq, sayoq; 2) odobdan tashqari, beadab, dag'al.
- raffle** [ˈræfl] **1.** *n* lotereya; **2.** *v* lotereya o'ynamoq.
- raft** [rɑːft] **1.** *n* sol, parom; **2.** *v* paromda (solda) o'tkazmoq.

rafter I [ˈrɑːftə] *n* solchi, paromchi, sol oqizuvchi, solni kuzatib boruvchi.
rafter II [ˈrɑːftə] **1.** *n* *qur.* stropil (*tom to 'sinlari*); **2.** *v* *qur.* to'sin qo'yimoq.
rafting [ˈrɑːftɪŋ] *n* 1) yog'och oqizish; 2) yog'ochlarni bir-biriga biriktirish, yog'ochlarni sol qilib bog'lash.
raftsman [ˈrɑːftsmən] *n* sol oqizuvchi, solni kuzatib boruvchi.
rag I [ræg] *n* 1) latta, qiyqim, qiyqindi, rezgi, parcha; laxtak; 2) *pl* latta-lutta, latta-putta, eski-tuski, uvada, juldur.
rag II [ræg] **1.** *n* janjal, mojaro, mashmasha, to'polon, baqiriq-chaqiriq; **2.** *v* janjallashmoq, janjal qilmoq, mashmasha qilmoq.
rag III [ræg] **1.** *n* 1) qattiq ohaktosh; 2) yirik qumtosh; **2.** *v* toshlarni maydaloq.
ragamuffin [ˈrægə,mʌfɪn] *n* juldur (yirtiq-yamoq) kiyimli kishi.
rag-and-bone-man [ˈrægənˈbəʊnmæn] *n* eskifurush, latta-furush.
rag-baby [ˈræg,bɛɪbɪ] *n* lattadan qilingan qo'g'irchoq.
rag-bolt [ˈrægbəʊlt] *n* *tex.* anker bolt (*soatning mo'tadil yurib turishini ta'minlash uchun ishlatiladigan bolt*).
rage [reɪdʒ] **1.** *n* 1) qattiq g'azab, jahl; 2) shiddatlik, juda qattqlik; **2.** *v* 1) g'azablanmoq, jahli chiqmoq; 2) avjga chiqmoq (*shamol*).
rag fair [ˈrægfeɪ] *n* eskibozor, chayqov bozori.
ragged [ˈræɡɪd] *a* 1) notekis, g'adir-budur; 2) yirtilgan, eski.
ragged robin [ˈræɡɪdˈrəʊbɪn] *n* *bot.* kakkuqush rangi.
raggery [ˈrægəri] *n* *so'zl.* latta-putta, kiyim-kechak (*asosan, ayollarniki*).
ragging [ˈræɡɪŋ] *n* *tog'.* rudani maydalash.
raging [ˈreɪdʒɪŋ] *a* qattiq g'azablangan, juda achchiqlangan; ~ **pain** qattiq og'riq.
Raglan [ˈræɡlən] *n* yeng bilan yelkasi yaxlit bichilgan palto.
ragman [ˈræɡmən] = **rag-and-bone-man**.
ragout [ˈræˈɡuː] *n* ragu, jarkop.
rag paper [ˈræg,pɛɪpə] *n* latta qog'oz.
rag-picker [ˈræg,pɪkə] *n* latta-furush, eskifurush (eski-tuski, latta, uvada yig'ib yuruvchi odam).
rags-to-riches [ˈrægztəˈrɪtʃɪz] *a* *fr.* kambag'al oiladan chiqqan qahramoni boy bo'lib ketadigan hikoya.
ragtag [ˈrægtæg] *n* *so'zl.* jamiyatdagi razil kishilar.
ragtime [ˈrægtɑɪm] *n* 1) *mus.* sinkopik ritm (*ohangning kuchli qismdan kuchsiz qismga o'tishi*); 2) *attr.* bema'ni, tuturiqsiz, kulgili; **a** ~ **army** intizomsiz qo'shin.
rag-wheel [ˈræɡwiːl] *n* *tex.* zanjirli g'ildirak.
rah [rɑː] *int.* (*hurrah so'zining qisqartmasi*), ura! (*qichqiriq*).

rah-rah [ˈrɑːrɑː] *a* *amer.* talabalarga oid, talabalarcha quvnoq; ~ **boys** vaqtini quvnoq o'tkazishni yaxshi ko'radigan talabalar.
raid [reɪd] **1.** *n* hujum, o'rab (qurshab) olib tutish, bostirib kirish; **2.** *v* bostirib kirmoq.
raider [ˈreɪdə] *n* 1) hujum ishtirokchisi; 2) *deng.* reyder (*dengiz yo'llarida dushmanning transport va savdo kemalariga qarshi mustaqil kurash olib boradigan harbiy kema*); 3) *av.* havo hujumida qatnashadigan samolyot.
rail I [reɪl] *n* 1) suyanchiq, to'siq, panjara; 2) *tem.* yo'l. rels, iz; 3) temir yo'l orqali jo'natmoq.
rail II [reɪl] **1.** *v* 1) so'kishmoq, urishmoq; 2) shikoyat qilmoq; **2.** *v* panjara bilan o'rab olmoq.
railhead [ˈreɪlhɛd] *n* *harb.* ta'minot stansiyasi.
railing I [ˈreɪlɪŋ] *n* devor, to'siq.
railing II [ˈreɪlɪŋ] *pres.* *p.* **rail II** *dan*.
raillery [ˈreɪləri] *n* 1) muloyim hazillashish (hazil qilish); 2) hazil.
rail mill [ˈreɪlmɪl] *n* rels yoyadigan mashina.
railroad [ˈreɪlrəʊd] **1.** *n* *amer.* 1) temir yo'l; 2) *attr.* temirga oid; temirdan qilingan; **2.** *v* temir yo'l orqali sayohat qilmoq.
railroader [ˈreɪlrəʊdə] *n* *amer.* temiryo'lchi, temir yo'l ishchisi.
railrolling mill [ˈreɪlrəʊlɪŋ mɪl] = **rail mill**.
railway [ˈreɪlweɪ] **1.** *n* temir yo'l; **2.** *v* temir yo'l qurmoq.
railway-yard [ˈreɪlweɪjɑːd] *n* saralash stansiyasi (joyi).
raiment [ˈreɪmənt] *n* kiyim, kiyim-bosh, ust-bosh, libos, sarpo.
rain [reɪn] **1.** *n* yomg'ir; **2.** *v* yo'mg'ir yog'moq.
rainbow [ˈreɪnbəʊ] *n* 1) kamalak; 2) *attr.* kamalakdek rang-barang.
rainbow trout [ˈreɪnbəʊˈtraʊt] *n* *zool.* rangdor gulmohi.
raincoat [ˈreɪnkəʊt] *n* suv o'tmaydigan palto, plash.
raindrop [ˈreɪndrɒp] *n* yomg'ir tomchisi.
rainfall [ˈreɪnfɔːl] *n* 1) jala, sharros yomg'ir; 2) yog'in miqdori.
rain-gauge [ˈreɪngeɪdʒ] *n* yomg'ir o'lchagich.
rain-glass [ˈreɪŋɡlɑːs] *n* barometr (*atmosfera bostimini o'lchaydigan asbob*).
rainless [ˈreɪnləs] *a* yog'ingarchilik kam bo'lgan, quruq, yomg'irsiz.
rainproof [ˈreɪmpruːf] *a* suv o'tmaydigan (o'tkazmaydigan), nam tortmaydigan.
rain-storm [ˈreɪnstɔːm] *n* dovulli jala.
raintight [ˈreɪntaɪt] = **rainproof**.
rain-water [ˈreɪn,wɔːtə] *n* yomg'ir suvi.
rainwear [ˈreɪnweə] *n* suv o'tkazmaydigan (nam tortmaydigan) kiyim.
rain-worm [ˈreɪnwɔːm] *n* chugalchang.
rainy [ˈreɪnɪ] *a* 1) yomg'irli, seryomg'ir, yomg'ir (yog'ingarchilik) ko'p bo'lgan; ~ **weather** yomg'irli ob-havo; 2) yomg'irli (*bulut va shamol ha-*

qida); for a ~ day qora kunga (har ehtimolga qarshi).

raise [reɪz] *v* 1) ko'tarmoq; to ~ one's glass to smb's health kimningdir sog'lig'i uchun qadah ko'tarmoq; ~ oneself ko'tarilmoq, oshirmoq; to ~ wages oylikni oshirmoq; 2) (*masalani*) ko'tarmoq, qo'yarmoq; to ~ a question masalani qo'yarmoq; 3) parvarish qilmoq, boqib ko'paytirmoq.

raised [reɪzd] *a* plastik materiallardan yasalgan.

raisin [reɪzn] *n* 1) mayiz; 2) bir dona mayiz, mayiz donasi.

rait [reɪt] = **ret**.

raj [rɑ:dʒ] *n hind*. hokimlik, hukmronlik, ustunlik, saltanat, hokimiyat.

raja(h) [ˈrɑ:dʒə] *n hind*. roja (*Hindistondagi feodal hukmdor unvoni va shu unvonga ega shaxs*).

rake I [reɪk] **1.** *n* 1) xaskash; 2) kurak, kurakcha, belcha, qirg'ich; 3) temir kosov; 4) juda ori q odam; **2.** *v* 1) kurab tashlamoq, kurab qo'yarmoq; 2) sidirib (shipirib) tashlamoq.

rake II [reɪk] *n deng*. qiyalik, qiya nishab (*machta va b.*).

rake III [reɪk] **1.** *n* yengil (sho'x) yigit; havoyi odam; suyuqoyoq (sayoq) odam; **2.** *v* sho'xlik (yengiltaklik, beboshlik) qilmoq, bebosh yurmoq.

rake-off [ˈreɪkɔf] *n amer*. vositachilik haqi; pora.

raker [ˈreɪkə] *n* xaskash.

rakish I [ˈreɪkɪʃ] *a* buzuq, axloqsiz; badaxloq, sayoq, suyuqoyoq, fohishaboz, fohisha.

rakish II [ˈreɪkɪʃ] *a deng*. tez yuradigan.

rale [rɑ:l] *n fr. tib*. xirillash, xir-xir.

ralliar(t) [ˈrælɪɑ:(t)] *n to'rt* kishilik ikki g'ildirakli arava.

rally I [ˈræli] **1.** *n* 1) tiklash, to'plash, jamlash (*kuchni*); 2) birlashish, birlashuv, birlashtirish; 3) syezd, qurultoy, yig'ilish, yig'in; 4) *sport*. avtoralli; **2.** *v* 1) qaytadan to'planmoq (*umumiy kuch to'plash uchun*); 2) yig'ilmoq, birikmoq.

rally II [ˈræli] *v* kim bilandir hazillashmoq, kimnidir masxara qilib kulmoq.

ram [ræm] *n* 1) qo'chqor; 2) qo'y.

ramble [ˈræmbəl] *n* sayr, tomosha.

rambler [ˈræmblə] *n* bekor yuradigan, yallo qilib yuradigan odam.

rambling [ˈræmbliŋ] *a* sayoq, daydi.

rambunctious [ræmˈbʌŋkjəs] *a amer.so'zl*. badjahl, jahli yomon, serjahl, jizzaki.

ramie [ˈræmi:] *n* Xitoyda o'sadigan tikanli (qichitqi) o't.

ramification [ˌræmɪfɪˈkeɪʃn] *n* shoxlash, shox (butoq) chiqarish, sershox bo'lib ketish; yangi novda, shox, butoq.

ramify [ˈræmɪfaɪ] *v* shoxlamoq, shox (butoq) chiqarmoq, sershox bo'lib ketmoq.

ramjet [ˈræmdʒet] *n harb*. havo-reaktiv dvigateli.

rammer [ˈræmə] *n* 1) shibbalagich, shibbalash; 2) shibba; 3) shompol (*miltiq stvolini tozalash, moylash yoki og'zidan o'qlanadigan miltiqqa*

zaryad joylash uchun ishlatiladigan ingichka va uzun metall tayoq).

rammish [ˈræmɪʃ] *a* 1) yomon (bug'doy) hid tarqatadigan; 2) shahvoniy, shahvatparastlarcha; 3) suq.

ramose [ˈreɪməʊs] *a* shoxli, butoqli, sershox.

ramp I [ræmp] *n* qiyalik, nishab, nishablik.

ramp II [ræmp] *n* qo'rqitib undirish, olish; tovlamachilik.

rampage [ræmˈpeɪdʒ] *n* qattiq g'azab, qahr.

rampageous [ræmˈpeɪdʒəs] *a* jazava (*hayajon va sh. k. dan o'zini bilmaydigan*); g'azabi oshgan.

rampant [ˈræmpənt] *a* jazavadan (g'azabdan, hayajondan) o'zini bilmaydigan, darg'azab; tez tarqalayotgan kasallik.

rampart [ˈræmpɑ:t] *n* tayanch, suyanchiq, homiy, muhofazachi.

ramrod [ˈræmrɒd] *n* shompol, sumba (*sumba – teshik teshish yoki belgi solish uchun xizmat qiladigan uchi nayza po'lat asbob*).

ramshackle [ˈræm,ʃækl] *a* puturdan ketgan, eskirgan, chirigan, ko'hna, to'zgan.

ran [ræn] *past*. **run dan**.

ranch [rɑ:ntʃ] **1.** *n amer*. katta fermer xo'jaligi; **2.** *v* chorvadorlik (chorvachilik) bilan shug'ullanmoq.

rancher [ˈrɑ:ntʃə] *n* 1) chorvador; katta fermer xo'jaligi xo'jayini (egasi); 2) fermer xo'jaligi ishchisi.

ranchman [ˈrɑ:ntʃmən] = **rancher**.

rancid [ˈrænsɪd] *a* 1) taxir, kakra, hidlangan; 2) hidlangan, buzilgan (*yog' haqida*).

rancidity [rænˈsɪdɪti] *n* taxirlik, kakralik, achiqanlik, buzilib qolganlik.

rancidness [ˈrænsɪdnəs] = **rancidity**.

rancorous [ˈræŋkərəs] *a* 1) yomon, yovuz, serjahl, badjahl, g'azablangan; 2) dushmanlik ruhidagi, adovatli.

rancour [ˈræŋkə] *n* 1) kek, adovat, xusumat, gina; 2) yashirin (pinhoni) dushmanlik.

rand [rænd] *n* rant, baxya.

randan I [rænˈdæn] *n* uchta eshkakchi (eshkak eshuvchi) kishidan iborat bo'lgan to'rt eshkakli qayiq.

randan II [rænˈdæn] *n* ichkilikbozlik, ichimlik bazmi, aysh-ishrat, mayxo'rlik; **to go on** ~ aysh-ishrat qilmoq, ichkilikbozlik qilmoq.

random [ˈrændəm] *a* 1) taxminan (chamalab) bajarilgan yoki aytilgan; 2) o'ylamasdan (andisha qilib o'tirmay) tanlab olingan; 3) tasodifiy, kutilmagan, nogahoniy; **at** ~ o'ylamay, tavakkaliga, taxminan; **to speak at** ~ o'ylamay gapirmoq; ~ **bullet** daydi o'q.

randy [ˈrændɪ] **1.** *a shotl*. dag'al, qo'pol, baqiroq; **2.** *n* janjalkash ayol.

rang [ræŋ] *past*. **ring II, 2. dan**.

range [reɪndʒ] **1.** *n* 1) soha, doira; **the ~ of science** fan sohasi; 2) qator (*uyalar*); 3) tizma (*tog' va b.*);

2. *v* 1) qatorga solmoq; 2) tartibga keltirmoq; 3) o'zgarib, chiqib-tushib turmoq.
range-finder [ˈreɪndʒ,faɪndə] *n* (*dalnomer*) masofa o'lchagich.
range-pole [ˈreɪndʒpəʊl] *n* masofa o'lchash reykasini, masofa o'lchaydigan reyka (*reyka – yupqa va ensiz uzun taxtach*).
ranger [ˈreɪndʒə] *n* daydi, eshikma-eshik yuradigan kishi.
rangy [ˈreɪndʒɪ] *a* sayoq, daydi, beqaror, ko'chmanchi.
rank [ræŋk] 1. *n* 1) unvon, martaba, lavozim, mansab; 2) qator, saf; 2. *v* 1) joy egallamoq; 2) baho bermoq; 3) saf tortmoq.
ranker [ˈræŋkə] *n* oddiy askardan chiqqan zobit.
rankle [ˈræŋkl] *v* yiringlamoq, yiring (gazak) olmoq; fasod bog'lamoq.
ransack [ˈrænsæk] *v* 1) qidirmoq, izlamoq, axtarmoq; 2) uyni ship-shiydam qilib urib ketmoq.
ransom [ˈrænsəm] *n* qaytarib (*yoki ajratib olish uchun to'lanadigan pul*).
rant [rænt] 1. *n* dabdabali nutq, balandparvoz gaplar; ifodali o'qish; 2. *v* 1) dabdabali nutq so'zlammoq; 2) ifodali qilib o'qib bermoq.
ranter [ˈræntə] *n* mahmadona (*quruq gap sotuvchi*) odam.
ranunculi [rəˈnʌŋkjʊlə] *pl* **ranunculus** *dan*.
ranunculus [rəˈnʌŋkjʊləs] *n* (*pl* -ses [-sɪz], -li) *bot.* ayiqtovon (*zaharli o't*).
rap I [ræp] 1. *n* 1) yengil zarba; 2) taqillatish, qoqish; **a ~ on the window** derazani sekin taqillatish; 2. *v* 1) yengil zarba bermoq; 2) qoqmoq, taqillatmoq.
rap II [ræp] *n* qadrsizlangan mayda pul (*XVIII asrda Irlandiyada*).
rap III [ræp] *n* 120 yardli yigirilgan kalava (kop-tok) ip.
rapacious [rəˈpeɪʃəs] *a* 1) ochko'z, suq; 2) yebto'yimas, badnafis, mechkay; 3) yirtqich (*hayvonlar haqida*).
rapacity [rəˈpæʃətɪ] *n* 1) ochko'zlik, suqlik; qurumsolik, xasislik, baxillik, ziqnalik, qizg'anchilik; 2) badnafislik.
rape I [reɪp] 1. *n* zo'rlash, nomusiga tegish; 2. *v* zo'r'lamoq, nomusiga tegmoq.
rape II [reɪp] *n* *bot.* surepitsa (*urug'idan moy olinadigan o'simlik*).
rape-oil [ˈreɪpɔɪl] *n* surepitsa moyi.
rapid [ˈræpɪd] *a* tez, jadal, ildam, chaqqon; **a ~ pulse** tez-tez urish (*puls haqida*); pulsning (tomir urishining) tezlashuvi.
rapid-fire [ˈræpɪdˈfaɪə] *a* tez otadigan, tezotar.
rapidity [rəˈpɪdətɪ] *n* tezlik, chaqqonlik; **~ of fire** *harb.* tez otish, tez otish darajasi (*multiq, to'p va shu k. haqida*).
rapidly [ˈræpɪdli] *adv* tez; **to read ~ tez** o'qimoq.
rapier [ˈreɪpɪə] *a* rapira (*qilichbozlikda qo'llaniladigan, chor qirrali qilichsimon qurol*).

rapier-thrust [ˈreɪpɪəθrʌst] *a* rapira bilan urish, sanchish, sanchib olish.
rapine [ˈræpaɪn] *a* bosqinchilik, o'g'rilik, talash, shilish, yulish, tovlash.
rappee [ræˈpi:] *a* kuchli hidi bo'lgan tamakining bir navi (*sorti, turi*).
rapport [ræˈpɔ:] *fr. n* 1) hamfikrlik, fikrdoshlik, hamjihatlik; 2) o'zaro bog'lanish, o'zaro munosabat, aloqa.
rapprochement [ræˈprɔʃmɑ:ɪŋ] *n* do'stona munosabatlarni tiklash *yoki* o'rnatish (*asosan, davlatlar o'rtasida*).
rapt [ræpt] *a* biror narsaga berilib ketgan; **She was ~ in listening to the music** U musiqaga berilib quloq solardi.
rapture [ˈræptʃə] *n* zavq, shavq; xursandchilik.
rare [rɛə] *a* 1) nodir, noyob, tengi yo'q, ajoyib; 2) siyrak, uncha zich (qalin) emas.
rarely [ˈrɛəli] *adv* 1) ajoyib, g'alati; 2) nodir, kam-yob, kamdan-kam uchraydigan, tengi yo'q.
raring [ˈrɛərɪŋ] *a* istayotgan, xohlayotgan.
rarity [ˈrɛərətɪ] *n* 1) kamnamo; 2) noyoblik, nodirlik.
rascal [ˈrɑ:skl] *n* 1) yaramas, razil; 2) muttaham, qallob, firibgar, aldanchi, tovlamachi.
rase [reɪz] = **raze**.
rash [ræʃ] *n* 1) *tib.* toshma, issiqlik, sachratqi; 2) o'y-lamasdan, shoshqaloqlik.
rasher [ˈræʃə] *n* dudlangan cho'chqa go'shti.
rashness [ˈræʃnəs] *n* tezlik, shiddat.
rasp [rɑ:sp] *n* zirillagan (dirillagan) tovush, jarang, jarangdort.
raspberry [ˈrɑ:zbɛrɪ] *n* malina, xo'jag'at (*o'simligi va mevasi*).
rat [ræt] 1. *n* 1) kalamush; 2) sotqin, xoin, xiyonatchi, xiyonatkor; 2. *v* 1) kalamushlarni qirib tashlamoq (*asosan, iltar bilan*); 2) xiyonat (xoinlik) qilmoq.
rate [reɪt] *n* 1) sur'at, tezlik; **~ growth** o'sish sur'ati; **at any** har holda; 2) baholash; 3) miqdor, marom; 4) daraja, nav, xil, tur.
rather [ˈrɑ:ðə] *adv* 1) tezroq; 2) yaxshiroq; afzalroq; 3) ko'pincha, asosan, ancha, juda.
ratification [ˌrætɪfɪˈkeɪʃn] *n* *yur.* tasdiqlash, tasdiq.
ratify [ˈrætɪfaɪ] *n* *yur.* tasdiqlamoq, imzo va muhr bosib tasdiqlamoq.
rating [ˈreɪtɪŋ] *n* reyting, baho, baholash.
ratio [ˈreɪʃɪo] *n* (*pl* -os [-əʊz]) *mat.* nisbat, proporsiya, o'zaro nisbat.
ration [ˈreɪʃn] *n* ulush (*oziq-ovqat*); **~al** ma'qul; **~ality** ma'qullik, tog'rilik.
rationalization [ˌræʃnəlaɪˈzeɪʃn] *n* ratsionallash-tirish, oqilona tashkil etish.
rationalize [ˈræʃnəlaɪz] *v* oqilona (eng yaxshi) tashkil etmoq.
rattle [ˈrætl] 1. *n* 1) qarsillash, jiringlash, jaranglash; 2. *v* qarsillamoq, jiringlamoq, jaranglamoq.

- rattlebrained** [ˈrætlbreɪnd] *a* qovoqboş va baqiroq.
- rattlesnake** [ˈrætlɪsneɪk] *n* shaqildoq ilon (*tropikada boʻladigan zaharli ilon*).
- raucous** [ˈrɔ:kəs] *a* xirillagan, xirildoq, xir-xir.
- ravage** [ˈrævɪdʒ] **1.** *n* 1) vayron (xonavayron) qilish, yoʻq qilish; ~ **of weeds** begona oʻtlarni yoʻq qilish; **2.** *v* buzmoq, qulatmoq, vayron qilmoq.
- rave** [reɪv] *v* 1) orzu qilmoq, shirin xayolga botmoq; **2)** gʻazablanmoq, qizishib ketmoq.
- raven** [ˈreɪvn] *n* quzgʻun.
- ravine** [ˈrævi:n] *n* darra, jar, jarlik, chuqurlik.
- ravish** [ˈræviʃ] *v* oʻgʻirlamoq, oʻgʻirlab ketmoq.
- raw** [rɔ:] *a* ishlov berilmagan, chala pishgan, xom; ~ **materials** xomashyo.
- ray** [reɪ] *n* 1) nur, shuʻla, yogʻdu; **2)** yalt etib koʻringan yorugʻlik, chaqnash; **a** ~ **of hope** umid uchquni.
- rayon** [ˈreɪɔn] *n* sunʻiy shoyi.
- raze** [reɪz] *v* 1) yer bilan yakson qilmoq, tep-tekis qilib yubormoq; **2)** oʻchirmoq.
- razor** [ˈreɪzə] *n* ustara.
- razzle** [ˈræzl] : **be (yoki go) on the** ~ aysh-ishrat qilmoq, ichkilikbozlik qilmoq.
- re** [ri:] *pref.* takrorlash maʼnosini bildiruvchi old qoʻshimcha; ~ **write** qayta yozmoq.
- reach** [ri:tʃ] *v* erishmoq; yetishmoq; choʻzmoq, uzatmoq, aloqa bogʻlamoq.
- react** [ri ˈækt] *v* 1) taʼsirlanmoq; taʼsir qilmoq; **2)** *kim.* reaksiyaga kirishmoq.
- reaction I** [ri ˈækʃn] *n* taʼsirlanish, sezish (*organizmning tashqi taʼsirga javobi*).
- reaction II** [ri ˈækʃn] *n* siyos. reaksiya (*ijtimoiy taraqqiyotga qattiq qarshilik koʻrsatish va revolyutsion harakatni bostirish siyosati*).
- reactionary I** [ri ˈækʃnəri] *a* teskari (qarshi) harakat qiluvchi.
- reactionary II** [ri ˈækʃnəri] *n* taraqqiyotning ashaddiy dushmani, teskarichi, jaholatparast; inqilobchi.
- reactive** [ri ˈæktiv] *a* taʼsirlanadigan, taʼsirga javob beradigan, tashqi taʼsirga javob bera oladigan.
- reactor** [ri ˈæktə] *n* reaktor (*turli xil fizikaviy-kimyoviy reaksiyalar asosida harakat qiluvchi apparat yoki qurilma*).
- read** [ri:d] *v* (**read, read**) oʻqimoq, muhokama qilmoq, koʻrib chiqmoq; ~ **er** kitobxon.
- reader** [ri:də] *n* 1) oʻquvchi, kitobxon, gazetxon, mushtariy; **2)** oʻqish kitobi.
- readily** [ˈredɪli] *adv* 1) jon deb, bajon-u dil, mamnuniyat bilan; **2)** tez, darrov, darhol, tezlik (zudlik) bilan.
- readiness** [ˈrednəs] *n* tayyorlik, hozirjavoblik, rozilik, tayyorlik, shaylik.
- reading** [ri:dɪŋ] *n* 1) oʻqish; **2)** bilish, xabardorlik.
- reading-room** [ri:dɪŋrʊm] *a* qiroatxona, oʻquv zali.
- readjust** [ˈri:əˈdʒʌst] *v* 1) qaytadan qilmoq, yangidan yasamoq; **2)** oʻzgartirmoq, tuzatmoq.
- ready** [ˈredɪ] *a* tayyor, hozir, shay, tayyorlangan, tayyorgarlik (hozirlik) koʻrgan.
- ready-made** [ˈredɪ ˈmeɪd] *a* tayyorlangan, tayyorgarlik koʻrgan, tayyor; ~ **clothes** tayyor (tikilgan) koʻylak.
- reaffirm** [ˈri:əˈfə:m] *v* (*qayta*) tasdiqlamoq, taʼkid-lamoq.
- reagent** [ri ˈeɪdʒənt] *n* *kim.* reaktiv (*kimyoviy reaksiyani amalga oshirish uchun ishlatiladigan modda*).
- real** [riəl] *a* 1) haqiqiy, amaldagi, chinakam; asl, chin; **2)** koʻchmas (*mulk haqida*).
- realism** [ˈriəlɪzəm] *n* realizm (*biror narsani amalga oshirishda mavjud shart-sharoitlarni aniq hisobga olish*).
- realistic** [ri ˈəlɪstɪk] *a* amaliy, amaldagi, haqiqiy, chinakam.
- reality** [ri ˈæləti] *a* voqelik, haqiqat, borlik, haqqoniyat, bor narsa, mavjud dalil; **in** ~ haqiqatda.
- realization** [ˈri:ələz ˈzeɪʃn] *n* 1) amalga oshirish; **2)** anglash, tushunish.
- realize** [ˈri:ələɪz] *v* 1) tushunmoq, tasavvur etmoq, anglamoq; **2)** amalga oshirmoq, anglab yetmoq.
- really** [ˈri:əli] *adv* haqiqatan, chinakam, haqiqatan ham, chindan ham, darhaqiqat.
- realm** [relm] *n* qirolik, qiroq qoʻl ostidagi mamlakat, podsholik.
- realtor** [ˈri:əltə] *n* *amer.* koʻchmas mulk (*yer-suv, imorat va sh.k.*) savdosi bilan shugʻullanuvchi agent.
- reanimate** [ri: ˈænəmeɪt] *v* tiriltirmoq, jonini saqlab qolmoq, jon kiritmoq.
- reap** [ri:p] *v* 1) oʻrmoq; ~ **ing hook** oʻroq; ~ **er** oʻroqchi; ~ **as you have sown** nima eksang shuni oʻrsan; **2)** olmoq.
- reaping-hook** [ˈri:pɪŋhʊk] *n* oʻroq, qoʻl oʻroq.
- reappear** [ˈri:əˈpɪə] *v* yana (tagʻin, qaytadan, boshqatdan) paydo boʻlmoq.
- reappraisal** [ˈri:əˈpreɪz(ə)l] *n* qaytadan (boshqatdan) koʻrish, yangidan qarab chiqish.
- reappraise** [ˈri:əˈpreɪz] *v* qaytadan baholamoq.
- rear** [riə] **1.** *n* *harb.* front orti, orqa tomon; **2.** *a* orqa, orqadagi; mamlakat ichkarisi.
- rear-admiral** [ˈri:əˈædmərəl] *n* kontr-admiral (*admirallik unvonining vitse-admiraldan quyi birinchi darajasi va shu unvondagi kishi*).
- rearguard** [ˈri:əgɑ:d] *n* asosiy kuchlardan orqadagi harbiy qismlar.
- rearm** [ri ˈɑ:m] *v* qayta qurollanmoq, qurollantirmoq.
- rearmament** [ri ˈɑ:məmənt] *v* qayta qurollanish, qayta qurollantirish (*mamlakat qurolli kuchlari haqida*).
- rearmost** [ˈri:məʊst] *a* eng oxirgi, soʻngi, keyingi.
- rearrange** [ˈri:əˈreɪndʒ] *v* boshqatdan (qaytadan) barpo etish.
- reason** [ˈri:zn] *n* 1) sabab, vaj, bahona; **2)** aql, fahm; **3)** dalil, isbot.

reasonable [ˈri:znəbl] *n* oqilona, oʻrtacha, xolis, maʼqul, yaroqli; aqlli, zehqli.
reasoning [ˈri:znɪŋ] *n* fikr, mulohaza.
reassessment [ˌri:əˈsɛsmənt] *n* oʻz harbiy mavqeyiga ortiqcha baho berish.
reassurance [ˌri:əˈʃʊə] *v* ishontirmoq, inontirmoq; tinchlantirmoq.
rebate [ˈri:beɪt] *n* kamaytirilgan narx.
rebel **1.** *a* [ˈrebl] *a* isyonchi, qoʻzgʻolonchi; **2.** *v* [riˈbel] isyon (qoʻzgʻolon) koʻtarmoq.
rebellion [riˈbeljən] *n* 1) isyon, qoʻzgʻolon; 2) boʻysunmaslik, itoat qilmaslik.
rebellious [riˈbeljəs] *a* isyonchi, qoʻzgʻolonchi.
rebound [riˈbaʊnd] *v* urilib qaytmoq, sapchimoq.
rebuff [rɪˈbʌf] **1.** *n* zarba, qatʼiy voz kechish; **2.** *v* zarba bermoq, qatʼiyan rad etmoq.
rebuild [ri:ˈbɪld] *v* (**rebuilt**; **rebuilt**) qayta qurmoq.
rebuilt [ri:ˈbɪlt] *past., p. p.* **rebuilt** *dan.*
rebuke [riˈbju:k] *n* taʼna qilish, yuziga solish; taʼna, gina.
rebus [ˈri:bəs] *n* rebus (*soʻzlar, shakllar, yoki harflar bilan ifodalanadigan jumboq, muammo*).
recalcitrant [riˈkælsɪtrənt] *a* oʻz soʻzida qattiq turadigan, bir soʻzli, qatʼiy.
recall [riˈkɔ:l] *v* 1) chaqirib olmoq; 2) eslatmoq; 3) bekor qilmoq (*buyruq va b.*); 4) eslamoq, esga olmoq.
recant [riˈkænt] *v* inkor qilmoq, tonmoq, qaytmoq.
recapitulate [ˌri:kəˈpɪtʃuleɪt] *v* takrorlamoq, qaytarmoq.
recapitulation [ˌri:kəpɪtʃuˈleɪʃn] *n* qisqacha takrorlash.
recapture [ri:ˈkæptʃə] *v* qaytadan tutib olmoq.
recast [ˌri:kɑ:st] *n* qaytadan ishlash, yangidan ishlash.
recede [riˈsi:d] *a* yoʻqolmoq, ketmoq, uzoqlashmoq.
receipt [riˈsi:t] *n* 1) olganlik haqida tilxat; 2) olish; 3) *pl* kirim, daromad; ~s **and expenses** kirim va chiqim; 4) kvitansiya.
receive [riˈsi:v] *v* 1) olmoq; 2) qabul qilmoq; **to ~ stolen goods** oʻgʻirlangan narsalarni yashirib (bekitib) qoʻymoq.
received [riˈsi:vd] **1.** *p. p.* **receive** *dan*; **2.** *a* hamma qabul qilgan, hammaga maʼqul boʻlgan, rasm boʻlib qolgan.
receiver [riˈsi:və] *n* 1) qabul qiluvchi; 2) telefon trubkasi; **to pick up the ~** goʻshakni olmoq.
recent [ˈri:snt] *a* yaqindagi, oxirgi, soʻnggi, yangi, yaqin kunlardagi, haligi.
recently [ˈri:sntli] *adv* yaqinda, yaqin kunlarda, yaqindan beri.
receptacle [riˈseptəkl] *n* narsalar saqlanadigan (asraladigan) joy.
reception [riˈsepʃn] *n* qabul, qabul qilish, qabul marosimi, kutib olish; ~-**room** qabulxonasi; **to give smb. a warm ~** birovni samimiy kutib olmoq.

receptive [riˈseptɪv] *a* zehni oʻtkir (baland), zehqli, idrokli.
recess [riˈses] *n* 1) (*parlament va boshqa yigʻilishlarda*) tanaffus; 2) *amer.* taʼtil (*maktabda, universitetda*); 3) *amer.* maktabdagi katta tanaffus.
recessed [riˈsɛst] *n* yerosti boshpanasi.
recession [riˈseʃn] *n* 1) iqtisodiy inqiroz; 2) uzoqlashish, uzoqlashtirish; 3) pasayish, kamayish, qaytish, tushish (*mollarga boʻlgan talab, narx*).
recessive [riˈsesɪv] *a* 1) uzoqlashadigan, yiroqlashadigan; 2) voz kechadigan, chekinadigan.
recharge [ˌri:tʃɑ:dʒ] *v* qayta zaryadlamoq.
recipe [ˈresəpi] *n* 1) shifokor yozib beradigan dori qogʻoz; 2) tayyorlash usuli.
recipient [riˈsɪpɪənt] *n* oluvchi, qabul qilib oluvchi.
reciprocal [riˈsɪpɪrəkəl] *a* oʻzaro; ikki yoqlama, ikki tomonlama.
reciprocate [riˈsɪpɪrəkeɪt] *v* 1) sevgiga-sevgi (hurmatga-hurmat bilan va h.k.) javob bermoq; 2) qilmishiga yarasha javob bermoq; 3) alishmoq; alishtirmoq, ayirboshlamoq.
reciprocity [ˌresɪˈprɒsəti] *n* 1) oʻzaro doʻstlik; 2) oʻzaro taʼsir.
recital [riˈsɑ:tl] *n* 1) oʻqish; 2) bayon (hikoya) qilish, ifoda etish, aytib berish.
recitation [ˌresɪˈteɪʃn] *n* 1) sanab (hisoblab) chiqish (*dalil va b.*); 2) ifodali oʻqish.
recite [riˈsaɪt] *v* 1) taʼsirli oʻqimoq, ifodali qilib oʻqib bermoq; 2) bayon (hikoya) qilmoq, ifoda etmoq, aytib bermoq; 3) javob bermoq (*maktabda*).
reckless [ˈrekləs] *a* oʻylamay qilingan, bemulohaza, telba, tentak.
reckon [ˈrekən] *v* hisoblamoq, sanamoq.
reckoning [ˈrekənɪŋ] *n* hisoblash, sanash, hisob, sanoq.
reclaim [riˈkleɪm] *v* 1) qaytadan tarbiyalamoq; 2) qayta ishlamoq; 3) haydamoq, shudgor qilmoq, oʻzlashtirmoq; 4) (*chiqindilardan*) foydalanmoq.
reclamation [ˌrekləˈmeɪʃn] *n* oʻzlashtirish.
recline [riˈklaɪn] *v* yonboshlamoq, tirsakka tayanmoq.
recluse [riˈklu:s] *n* tarki dunyo qilgan kishi, monax, zohid.
recognition [ˌrekəɡˈnɪʃn] *n* tan olish; maʼqullash; rasmiy tan olish, bilib olish.
recognize [ˌrekəɡnaɪz] *v* tan olmoq, tanimoq, bilib olmoq, etirof etmoq.
recoil [riˈkɔɪl] *v* qoʻrqib ketmoq, dahshatga (vahimaga) tushmoq.
recollect [ˌrekəˈlekt] *n* eslamoq, esga solmoq.
recollection [ˌrekəˈlekʃn] *n* eslash qobiliyati; xotira; **within my ~** xotiramda, esimda.
recommend [ˌrekəˈmend] *v* tavsiya etmoq, maslahat bermoq.
recommendation [ˌrekəmenˈdeɪʃn] *n* tavsiya, maslahat, tavsiyanoma.

recompense [ˈrekəmpens] *v* haq (tovon) to'lamoq.
reconcile [ˈrekənsaɪl] *v* yarashtirmoq, kelishtirmoq, murosaga keltirmoq.

reconciliation [ˌrekənsɪlˈeɪʃn] *n* 1) yarash. sulh, murosaga, bitim; 2) yarashtirish, murosaga keltirish.

recondition [ˌri:kənˈdɪʃn] *n* tuzatmoq, yamamoq.

reconnaissance [rɪˈkɒnɪsəns] *n* razvedka (*dushmanning kirdikorlarini o'rganuvchi, unga qarshi kurash olib boruvchi harbiy bo'linma*).

reconnoitre [ˌrekɔˈnɔɪtə] *v* razvedka qilmoq, tekshirib bilmoq.

reconsider [ˌri:kənˈsɪdə] *v* qaytadan ko'rib chiqmoq, yana bir bor qarab chiqmoq.

reconstruct [ˌri:kɒnsˈtrʌkt] *v* qayta qurmoq.

reconstruction [ˌri:kɒnsˈtrʌkʃn] *n* qaytadan (yangidan) qurish, boshqacha qilib qurish.

reconversion [ˌri:kənˈvə:ʃn] *n* rekonversiyalash (*harbiy sanoatni avvalgi, tinchlik davridagi holiga keltirish*).

record 1. *v* [rɪˈkɔ:d] *v* yozib qo'yimoq, ro'yxatga olmoq, qarorlashtirmoq; bayonnomaga kiritmoq; **2.** *n* [ˈrekɔ:d] 1) yozuv, bayonnoma; 2) rekord.

recorder [rɪˈkɔ:də] *n* 1) tovush yozish apparati; 2) ro'yxatchi, ro'yxatga oluvchi.

recording [rɪˈkɔ:dɪŋ] **1.** *a* tovush (ovoz) yoza-digan; **2.** *n* yozuv, qayd; xotira.

re-count [ˈri:kaunt] *v* qayta hisoblab sanab chiqmoq (*asosan, saylovdagi ovozlarni*).

recount [rɪˈkaunt] *v* hikoya qilmoq, gapirib (aytib) bermoq, so'zlab bermoq.

recoup [rɪˈku:p] *v* badal (tovon, haq) to'lamoq, o'rnini to'ldirmoq.

recourse [rɪˈkɔ:s] *n* yordam so'rab murojaat qilmoq; **to have ~ to** yordamga yugurib kelmoq.

recover [rɪˈkʌvə] *v* 1) tuzalmoq; o'ziga kelmoq; 2) qaytarib olmoq.

recovery [rɪˈkʌvəri] *n* 1) asl holiga qaytish, sog'ayish; 2) qaytarib berish.

re-create [ˌri:kriˈeɪt] *v* qayta qurmoq, qayta barpo (tashkil, bunyod) etmoq.

recreate [ˈrekriɪt] *v* 1) kuch to'plamoq; 2) hordiq chiqarmoq.

recreation [ˌrekrɪˈeɪʃn] *n* 1) kuchlarni qayta tiklash; 2) dam, hordiq, dam olish.

recrimination [rɪˌkrɪmɪˈneɪʃn] *n* o'zaro yoki qarshi ayblash (qoralash).

recruit [rɪˈkru:t] *v* 1) yollamoq, ko'ngillilar to'plamoq; 2) mustahkamlamoq (*sog'liqni*).

recruitment [rɪˈkru:tmənt] *n* saylov; yig'ish, yollash, to'plash, xizmatga chaqirish (*yangi olingan askarlarni*).

rectangle [ˈrektæŋɡl] *n* to'g'ri burchak.

rectangular [ˌrekˈtæŋɡjʊlə] *a* to'g'ri burchakli.

rectification [ˌrektɪfɪˈkeɪʃn] *n* 1) to'g'rilash, tuzatish; 2) *kim.* tozalash (*suyuqlikni turli aralashmalardan ajratib olish*).

rectify [ˈrektɪfaɪ] *v* tekshirib (solishtirib) to'g'rilamoq, to'g'riligini tekshirmoq.

rectitude [ˈrektɪtju:d] *n* to'g'rilik, rostlik, rostgo'ylik, dangallik.

rector [ˈrektə] *n* 1) rektor (*oliy o'quv yurtining rahbari*); 2) pastor (*protestant mazhabidagi ruhoni*).

rectory [ˈrektəri] *n* 1) ruhoniyning daromadi; 2) qavm ruhoniysining uyi; 3) qavm ruhoniysining mansabi.

rectum [ˈrektəm] *n* (*pl -ta*) *anat.* to'g'ri ichak.

recumbent [rɪˈkʌmbənt] *a* yotiq, yotgan.

recuperate [rɪˈkju:pəreɪt] *v* sog'aymoq, tuzalmoq, sog'ayib ketmoq.

recuperation [rɪˌkju:pəˈreɪʃən] *n* 1) kuch to'plash; 2) sog'ayib ketish.

recur [rɪˈkɜ:ə] *v* qaytmoq, qaytib kelmoq, takrorlanmoq.

recurrence [rɪˈkʌrəns] *n* takror, qaytish.

rimmer [ˈraɪmə] *n* *tex.* teshikni kengaytirish uchun ishlatiladigan asbob.
rimy [ˈraɪmi] *a* qirov bosgan, qirov tushgan.
rind [raɪnd] **1.** *n* poʻchoq, poʻstloq; **2.** *v* poʻstloqni shilmoq.
ring I [rɪŋ] **1.** *n* 1) toʻda, guruh; 2) uzuk; **2.** *v* 1) halqa qilib oʻrab olmoq; 2) uzuk taqmoq.
ring II [rɪŋ] **1.** *n* jarang, jaranglagan ovoz; **2.** *v* jaranglamoq.
ring-dove [ˈrɪŋdʌv] *n* *zool.* govkaptar.
ringed [rɪŋd] **1.** *p. p.* **ring I**, **2. dan**; **2.** *a* 1) aylana bilan belgilamoq; 2) halqali; 3) *koʻchm.* (kimgadir) unashtirilgan.
ringer [ˈrɪŋə] *n* qoʻngʻiroqchi, qoʻngʻiroq chaluvtchi (*cherkovda*).
ring-fence [ˈrɪŋfens] *n* devor, panjara (*nimanidir hamma tomonidan qurshab olgan*).
ring-finger [ˈrɪŋfɪŋgə] *n* yon barmoq, soʻfi barmoq (*jimjiloq yonidagi toʻrtinchi barmoq*).
ringing I [ˈrɪŋɪŋ] *pres. p.* **ring I**, **2. dan**.
ringing II [ˈrɪŋɪŋ] **1.** *pres. p.* **ring II**, **2. dan**; **2.** *n* jarang, jiring, jaranglash, jaranglagan (jiringlagan) ovoz.
ringleader [ˈrɪŋliːdə] *n* 1) boshchi, boshliq, sarkor; 2) yetaklab (boshlab) boruvchi, yoʻl koʻrsatuvchi, yoʻlboshchi, rahbar; 3) sababchi, boshlagan (boshlab bergan) kishi.
ringlet [ˈrɪŋlət] *n* jingalak soch, zulf, gajak.
ringleted [ˈrɪŋlətɪd] *a* jingalak, sochi jingalak.
ring-mail [ˈrɪŋmeɪl] *n* sovt.
ring-master [ˈrɪŋmɑːstə] *n* manej (sirk maydoni) nazoratchisi (inspektori).
ring-net [ˈrɪŋnet] *n* kapalak tutadigan matrap.
ring ouzel [ˈrɪŋ,ʊːzəl] *n* *zool.* qorayaloq (*oq boʻl-qoqli*).
ringtail [ˈrɪŋteɪl] *n* *zool.* boʻktargi (yirtqich qushlarning bir turi) urgʻochisi.
ringworm [ˈrɪŋwɔːm] *n* *tib.* moyxoʻrak, qirma temirakti.
rink [rɪŋk] **1.** *n* 1) yaxmalak (*konki uchish uchun yaxlatilgan maydon*); 2) *sport.* sketingring (*rolikli konkida uchish uchun belgilangan maydoncha*); **2.** *v* gʻildirakchali konkida uchmoq.
rinse [rɪns] **1.** *n* 1) ogʻiz (tomoq) chayqaydigan dori; 2) davolash maqsadida suyuqlik bilan chayish, chayqash; **2.** *v* chayqamoq, chaymoq.

rinsing [ˈrɪnsɪŋ] **1.** *pres.* **rinse 2. dan**; **2. n** 1) ogʻiz chayqash; 2) ogʻiz chayqashdan qolgan suv.
riot [ˈraɪət] **1.** *n* isyon, qoʻzgʻolon, gʻalayon; **2.** *v* isyon (qoʻzgʻolon, gʻalayon) koʻtarmoq.
rioter [ˈraɪətə] *n* isyonchi, gʻalayonchi; isyon (gʻalayon) qatnashchisi.
riotous [ˈraɪətəs] *a* feʻli tez, battol, toʻpolonchi.
rip I [rɪp] **1.** *n* 1) yorilish, yorilib ketish; 2) kesik (kesilgan, yorilgan) joy; **2.** *v* qirqmoq, kesmoq, tilmoq, tilimlamoq, qirqib (kesib, tilib) qoʻymoq.
rip II [rɪp] *n* 1) dirdov ot, qirchangʻi; 2) *soʻzl.* axloqsiz (yomon yoʻlga kirgan) odam.
riparian [raɪˈpæərɪən] *a* qirgʻoq boʻyidagi (*oldidagi*).
ripe [raɪp] *a* 1) yetilgan, pishgan (*meva*); 2) balo-gʻatga (voyaga) yetgan, yetilgan, yetuk.
ripen [ˈraɪpən] *v* 1) pishmoq, yetilmoq; 2) balo-gʻatga yetmoq.
ripeness [ˈraɪpənəs] *n* 1) pishganlik, yetilganlik; 2) voyaga yetganlik.
ripping [ˈrɪpɪŋ] **1.** *pres. p.* **rip I**, **2. dan**; **2.** *a* hayratda qoldiradigan, larzaga soladigan.
ripple I [ˈrɪpl] *n* jimirlash, mavj urish.
ripple II [ˈrɪpl] *n* zigʻirpoya tozalaydigan taroq.
rippy [ˈrɪplɪ] *a* toʻlqinli, mavj urib turgan.
rip-saw [ˈrɪpsɔː] *n* *tex.* boʻylama arra (*yogʻochni uzunasiga tiladigan arra*).
rise [raɪz] **1.** *n* 1) koʻtarish, oshirish, balandroq (yuzqoriroq) qilish; **to be on the** ~ oshirmoq, koʻtarmoq (*narx-navoni*); 2) koʻtarilgan joy; **2.** *v* (**rose, risen**) koʻtarilmoq, turmoq.
risen [ˈrɪzn] *p. p.* **rise 2. dan**.
risibility [ˈrɪzəˈbɪləti] *n* kulongʻichlik, kulagʻonlik.
risible [ˈrɪzɪbl] *a* 1) bekorga kulaveradigan, kulongʻich, kulagʻon; 2) kulgili, kulgini qistatadigan.
rising [ˈraɪzɪŋ] **1.** *pres. p.* **rise 2. dan**; **2.** *a* 1) qoʻzgʻolon, gʻalayon, isyon; 2) turish, oʻrmidan turish; 3) chiqish; **the ~ of the sun** quyosh (kun) chiqishi.
risk [rɪsk] **1.** *n* tavakkal, qaltis, xavf-xatar; **2.** *v* jurʻat etmoq, tavakkal qilmoq.
risky [ˈrɪskɪ] *a* qaltis, xatarli, xavfli.
risqué [ˈrɪskɪ] *a fr.* 1) xavfli, xatarli; 2) shubhali, shubha tugʻdiradigan, ishonib boʻlmaydigan; 3) har xil tushunsa boʻladigan, ilmoqli (*hazil haqida*).
rissole [ˈrɪsəʊl] *n* 1) kotlet; 2) tefteli (*yumaloq qilib qovurilgan qiyma goʻsht*).
rite [raɪt] *a* marosim, udum.
ritual [ˈrɪtʃuəl] *n* udum, tamil, odat.
ritualism [ˈrɪtʃuəlɪzəm] *n* marosimlar, udumlar, rasm-rusumlar.
ritually [ˈrɪtʃuəli] *adv* marosimga (rasm-rusumga, udumga) koʻra.
rival [ˈraɪvəl] **1.** *n* raqib, raqobatchi; **a ~ team** raqib jamoa; **2.** *v* raqobat qilmoq.

- rivalry** [ˈraɪvlrɪ] *n* raqobat, raqiblik, kurash, bahs, bellashuv; **friendly** ~ do'stona bellashuv.
- rive** [raɪv] **1.** *n* yoriq, darz, kovak, tirqish; **2.** *v* (**rived**; **rived**, **riven**) **1)** yormoq, maydalamoq, parchalamoq; **2)** yorilmoq, maydalanmoq, parchalanmoq.
- riven** [ˈrɪvən] **1.** *p. p.* **rive** **2.** *dan*; **2.** *a* maydalanagan, parchalangan, yorilgan.
- river** [ˈrɪvə] *n* **1)** daryo, soy, anhor; **by (near) the** ~ daryo yoqasida; **2)** oqim; **to cross the** ~ daryoning narigi qirg'og'iga o'tmoq.
- river-bed** [ˈrɪvəbed] *n* daryo o'zani.
- river-horse** [ˈrɪvə,hɔ:s] *n* begemot, suv oti.
- riverine** [ˈrɪvərɪn] *a* **1)** qirg'og bo'yidagi, qirg'og oldidagi, qirg'og oldi; qirg'og bo'yi...; **2)** daryoga oid, daryo...; daryoda bo'ladigan; **3)** daryoda suzishga mo'ljallangan; daryoda ishlash bilan bog'liq bo'lgan.
- roverside** [ˈrɪvəsaɪd] *n* **1)** qirg'og bo'yidagi yerlar; **2)** daryo qirg'og'i.
- rivet** [ˈrɪvɪt] **1.** *n* mixparchin, chega; **2.** *v* parchinlamoq, parchinlab qo'yimoq.
- riveting** [ˈrɪvɪtɪŋ] *a* kishini o'ziga tortadigan, qiziqtiradigan, maroqli, qiziqarli, jozibali, maf-tunkor.
- rivière** [ˌrɪvɪˈeə] *n fr.* marjon, shoda (*bir necha ipli*).
- rivulet** [ˈrɪvjulət] *n* soy, anhor, ariq, jilg'a, kichkina daryocha.
- roach** [rəʊtʃ] *n zool.* qizilko'z (*chuchuk suvda yashaydigan mayda baliq turi*).
- road** [rəʊd] *n* yo'l; **country** ~ qishloq yo'li, tuproq yo'l.
- road-bed** [ˈrəʊdbed] *n* ko'tarma yo'l (*shag'al to'kib ko'tarilgan yo'l*).
- Road-Board** [ˈrəʊdbɔ:d] *n* shosse yo'llar boshqarmasi.
- road-book** [ˈrəʊdbʊk] *n* **1)** yo'l ma'lumotnomasi; **2)** avtomobil yo'llarining atlas.
- road clearance** [ˌrəʊdˈklɪərəns] *n* yoriqdan tushgan shu'la, yorug'lik.
- roadless** [ˈrəʊdləs] *a* yo'lsiz, qatnov yo'llari yo'q.
- road-metal** [ˈrəʊd,mɛtl] *n* shag'al (*maydalanagan tosh yoki g'isht*).
- road scraper** [ˈrəʊdˈskreɪpə] *n* tog' ishlari va qurilishlarda ishlatiladigan, tuproq tashiydigan mashina.
- road-show** [ˈrəʊdʃəʊ] *n amer.* teatr yoki sirk ijodiy guruhining safardagi tomoshasi.
- roadside** [ˈrəʊdsaɪd] **1.** *n* yo'l qirg'og'i (cheti, yoqasi); **2.** *a* yo'l bo'yidagi.
- roadstead** [ˈrəʊdsted] *n deng.* reyid (*portga kirish oldida kemalar to'xtab turadigan qulay joy*).
- roadster** [ˈrəʊdstə] *n* yo'l (safar) velosipedi.
- road-test** [ˈrəʊdtest] *v amer.* mashinani tabiiy sharoytda sinab ko'rmoq.
- roadway** [ˈrəʊdweɪ] *n* **1)** shosse (*asfalt, beton kabilar yotqizilgan katta yo'l*); **2)** to'shama yo'l (*tosh yoki boshqa narsa yotqizilgan yo'l*); **3)** transport yuradigan yo'l.
- roam** [rəʊm] **1.** *n* darbadarlik, joydan joyga ko'chib yurish, darbadar kezish, ovorayi jahon bo'lib yurish, sargardonlik; **2.** *v* **1)** tentiramoq; **2)** olamni (elma-el, yurtma-yurt) kezmoq; **3)** darbadar kezmoq, sargardon bo'lmoq, ayflanmoq; ~ **about the world** dunyoni kezmoq.
- roan I** [rəʊn] **1.** *a* burul (*ko'kish, xoldor*); **2.** *n* burul ot.
- roan II** [rəʊn] *n* yumshoq qo'y terisi (*muqovalar uchun*).
- roar** [rɔ:] **1.** *n* bo'kirish, o'kirish, na'ra; uvillash (*hayvonlar*); **2.** *v* bo'kirmoq, na'ra tortmoq.
- roarer** [ˈrɔ:rə] *n* **1)** baqiroq odam, shang'i; baqirib gapiradigan odam; **2)** issiqlatilgan ot.
- roaring** [ˈrɔ:rɪŋ] **1.** *pres. p.* **roar** **2.** *dan*; **2.** *n* bo'kirish, o'kirish.
- roast** [rəʊst] **1.** *n* jarkop, qovurma; **2.** *a* qovurilgan; **3.** *v* qovurmoq, pishirmoq.
- roaster** [ˈrəʊstə] *n* **1)** manqal, manqaldon, tova; **2)** kabob ko'ra.
- roasting-jack** [ˈrəʊstɪŋdʒæk] *n* kabob sixi.
- rob** [rɒb] *v* o'g'irlamoq, bosqinchilik qilmoq, talamoq, shilmoq.
- robber** [ˈrɒbə] *n* **1)** bosqinchi, bosmachi; o'g'ri; **2)** qaroqchi, yo'to'sar.
- robbery** [ˈrɒbərɪ] *n* **1)** o'g'irlik, o'g'irlash; **2)** bosqinchilik, talash, talonchilik.
- robe** [rəʊb] *n* keng kiyim; chopon.
- robin** [ˈrɒbɪn] *n* **1)** *sl.* penni (*finlarda: mayda pul, chaqa*); **2)** *zool.* malinovka (*chumchuqsimonlarga mansub sayroqi qush*).
- robot** [ˈrəʊbɒt] *n* robot (*odamsimon harakat qiladigan avtomat*).
- robust** [rəʊˈbʌst] *a* **1)** mahkam, qattiq, mustahkam; **2)** sog'lom, baquvvat, tetik, chidamli.
- robustious** [rəʊˈbʌstɪʃəs] *a* **1)** kuchli, shiddatli, qattiq; **2)** sershovqin, shovqinli.
- rock I** [rɒk] *n* **1)** qoya, jarlik; **2)** osilib turgan qoyatosh, tik qoya.
- rock II** [rɒk] *v* silkinmoq, tebranmoq; **to** ~ **cradle** beshikni tebratmoq, allalamoq.
- rock III** [rɒk] *n esk.* charx, ip yigiradigan charx.
- rock-crystal** [ˌrɒkˈkrɪstl] *n* tog' (billuri) kristali.
- rock-drill** [ˈrɒkdɪrl] *n tex.* **1)** perforator (*tog' jinslarini parmalovchi mashina*); **2)** burg'ilash iskanasi.
- rockier** [ˈrɒkə] *n* tebranma kursi.
- rocket** [ˈrɒkɪt] **1.** *n* **1)** raketa; **2)** raketa dvigateli; **3)** reaktiv snaryad; **2.** *v* **1)** ko'tarilmoq, parvoz qilmoq; **2)** raketa uchirmoq.
- rocking-chair** [ˈrɒkɪŋtʃeə] *n* tebranma kursi.
- rocky** [ˈrɒki] *a* qoyalardan iborat, qoyali, serqoya, toshli.
- rod** [rɒd] *n* xipchin, novda, xivich, chiviq, savag'ich.
- rode** [rəʊd] *past.* **ride II dan.**

rodent [ˈrəʊdnt] *n* *zool.* kemiruvchi.

roe [rəʊ] *n* ikra, uvuldiriq (*balıq, baqa va h.k. tuxumi, urugʻi*).

rogue [rəʊg] *n* tovlamachi; aldamchi, firibgar, qallob, muttaham; ~**ry** muttahamlilik, qalloblik, firibgarlik, aldamchilik, tovlamachilik.

roguish [ˈrəʊgɪʃ] *a* muttahamroq, qallobroq, aldam-qaldam ishlarga moyil.

roister [ˈrɔɪstə] *v* jamoat tartibini buzmoq, oʻzbo-shimchalik (beboshlik) qilmoq.

role [rəʊl] *n* 1) rol, ahamiyat, xizmat, tutgan oʻrin; 2) rol (*sahnada, ekranda ijro etiladigan badiiy obraz*).

roll [rəʊl] 1. *n* 1) hushtak; 2) oʻralgan narsa; 3) bogʻlam, dasta; 4) gumbur-gumbur, gumburlash; 2. *v* 1) oʻramoq; 2) dumalamoq; 3) gʻildiramoq.

roll-call [ˈrəʊlkɔ:l] *n* bir-biriga ovoz (tovush) berib turish, bir-birini chaqirib turish.

roller [ˈrəʊlə] *n* 1) *tex.* val, silindr; rolik; 2) toʻlqin, poʻrtana, mavj.

roller-mill [ˈrəʊləmɪl] *n* joʻvali tegirmon.

roller towel [ˈrəʊləˌtaʊəl] *n* bir rulon (gʻoʻla shaklida oʻralgan) sochiq.

rollick [ˈrɒlɪk] 1. *n* sershovqin (gʻovur-gʻuvur) oʻyin-kulgi; 2. *v* vaqtini chogʻ qilmoq, quvonmoq.

rolling-pin [ˈrəʊlɪŋpɪn] *n* oʻqloq, joʻva.

rolling-stock [ˈrəʊlɪŋstɒk] *n* harakatdagi sostav (*parovoz va vagonlar*).

roly-poly [ˌrəʊlɪˈpɔːli] *n* muraboli pudding.

Roman [ˈrəʊmən] *n* rimliklar (*qadimgi Rim davlatining aholisi*).

romance [rəʊˈmæns] *n* Gʻarbiy Yevropada oʻrta asrlarda: ritsarlarning ajoyib-gʻaroyib sarguzashtlarini tasvirlaydigan adabiy asar.

romantic [rəʊˈmæntɪk] *a* xayolparast.

romp [rɒmp] 1. *n* toʻpolon, shovqin-suron; 2. *v* tipirchilamoq, oʻynashmoq.

roof [ru:f] *n* 1) tom, boshpana; **iron** ~ tunuka tom; **to live under the same** ~ bir uyda yashamoq; 2) kulba.

rook I [ru:k] *n* *shaxm.* rux.

rook II [ru:k] *n* 1) goʻngqargʻa; 2) muttaham, qallob, firibgar; aldamchi.

room [ru:m] *n* uy; joy; xona; **to make ~ for joy** boʻshatmoq.

room-mate [ˈru:mmeɪt] *n* xonadosh.

roomy [ˈru:mɪ] *a* keng, uzun.

roost [ru:st] *n* 1) qoʻnoq, qoʻndoq (*masalan: tovuqlarniki*); 2) yotoq (uy); yotoqxona, uxlash xonasi.

rooster [ˈru:stə] *n* 1) xoʻroz; 2) urishqoq, janjal-kash; jangari.

root [ru:t] 1. *n* 1) ildiz; 2) oʻzak; negiz; 2. *v* ildiz otmq.

rootlet [ˈru:tlet] *n* 1) yangi novda, shox, butoq; 2) tomircha, ildizcha.

rope [rəʊp] 1. *n* arqon; argʻamchi; 2. *v* arqon bilan bogʻlamoq.

rosary [ˈrəʊzəri] *n* 1) gulzor, atirgulzor, gulbogʻ; 2) tasbeh.

rose I [rəʊz] *n* atirgul; **no ~ without a thorn** atirgul tikansiz boʻlmas.

rose II [rəʊz] *past.* rise 2 *dan.*

rosebud [ˈrəʊzbʌd] *n* atirgul gʻunchasi.

rose-bush [ˈrəʊzbʊʃ] *n* atirgul tupi, bir tup atirgul.

rosette [rəʊˈzɛt] *n* 1) rozetka (*xotin-qizlar koʻylagiga, shlapasiga taqiladigan lentadan qilingan gul-bezak*); 2) *meʻmor.* toʻpbarggul shaklidagi bezak, naqsh.

rosin [ˈrɒzɪn] *n* smola, yelim (*baʻzi oʻsimliklarning oqib chiqib qotib qoladigan shirasi*).

roster [ˈrəʊstə] *n* 1) *harb.* navbatchilik jadvali; 2) roʻyxat.

rostrum [ˈrɒstrəm] *n* (*pl -ra, -s [-z]*) 1) minbar, tribuna; 2) tumshuq (*qushlarda va baʻzi hayvonlarda*).

rosy [ˈrəʊzi] *a* qizil, qizgʻish, pushti rang, och qizil.

rot [rɒt] 1. *n* chirish, irish, buzilish, sasish, aynish;

2. *v* chirimoq, buzilmoq; ~**ten** chirigan; buzilgan.

rota [ˈrəʊtə] *n* navbatchilik jadvali.

rotary [ˈrəʊtəri] *a* aylanadigan, aylanma; ~ **current** koʻp fazali tok.

rotate [rəʊˈteɪt] *v* aylantirmoq, buramoq, aylanmoq.

rotation [rəʊˈteɪʃn] *n* 1) aylanish; 2) galma-gal qilish, almashtirib turish; 3) vaqt-vaqti bilan takrorlanib turish.

rote I [rəʊt] *n* *amer.* qirgʻoqqa uriladigan toʻlqinlarning shovullashi (shovqini).

rote II [rəʊt] *n* tushunmasdan yodlab olish.

rotten [ˈrɒtn] *a* chirigan, irigan; chirib qolgan; buzilgan; sasigan, aynigan; palagʻda, sasigan, hidlangan.

rotter [ˈrɒtə] *n* *sl* hech narsaga arzimaydigan odam.

rottweiler [ˈrɒtwaɪlə] *n* rotveyler (*itning zoti*).

rotund [rəʊˈtʌnd] *a* toʻliq, toʻla, liq toʻla, semiz, toʻladan kelgan; dum-dumaloq.

rouble [ˈru:bl] *n* rubl (*pul birligi*).

rouge [ru:ʒ] *n* 1) pushti-qizil yogʻupa (boʻyoq); 2) lab boʻyogʻi (pomadasi).

rough [rʌf] *a* 1) dagʻal, badhazm; ~ **food** dagʻal (badhazm) ovqat; 2) notekis, past-baland oʻydimchuqur (*yoʻl haqida*); ~ **country** oʻnqir-choʻnqir joy; 3) qoʻpol, toʻng, qoʻrs; **a ~ customer** qoʻpol muomala odam; 4) ishlov berilmagan, qora; ~ **copy** oqqa koʻchirilmagan qoʻlyozma yoki daftar; 5) boʻronli, toʻlqinli.

roughage [ˈrʌfɪdʒ] *n* 1) dagʻal xashak; 2) dagʻal (badhazm) ovqat; 3) dagʻal, qoʻpol, toʻng, qoʻrs.

roughcast [ˈrʌfkɑ:st] *n* dastlabki loyiha.

roughen [ˈrʌfn] *v* qoʻpollashmoq, dagʻallashmoq, qoʻrslashmoq.

rough-neck [ˈrʌfnek] *n* *amer.* soʻzl. toʻpolonchi, urishqoq, battol.

roulette [ruˈlet] *n* *fr.* ruletka (*aylanib turuvchi gardishga raqamlar qoʻyilgan bir xil qimor oʻyini*).

Roumanian [ruˈmɛɪnən] *a* ruminlar *yoki* Rumi-niyaga oid; rumin... .

round [raʊnd] **1.** *n* aylana, doira, aylanma yoʻl; **2.** *a* 1) yumaloq, dumaloq; 2) sharsimon. sharga oʻxshagan; ~ **back** bukchayganlik, yelkasi chiqqanlik; **3.** *v* tugallamoq, silliq-lamoq; **to** ~ **a** sentence jumlani silliq-lamoq; **4.** *adv* 1) atrof-ga, tevarak-atrofga; atrofda; ~ **about** gapni aylan-tirib, masalaga yaqindan yondashmay (yonve-rida aylanib); **5.** *prep.* atrofida, tevaragida; ~ **the world** yer yuzi (dunyo) boʻylab.

roundabout [raʊndəbaʊt] **1.** *a* chetlab oʻtadigan, chet, aylanish, aylanma; **2.** *n* aylanma yoʻl.

rounders [ˈraʊndəz] *n pl* inglizlarning chillak oʻyini.

roundhead [ˈraʊndhed] *n* boshi yumaloq, yuma-loq bosh.

roundly [ˈraʊndli] *adv* 1) yumaloq (dumaloq) qi-lib; 2) roʻyirost, ochiqdan-ochiq, dangal.

round-up [ˈraʊndʌp] *n* 1) burilish, qayrilish; 2) qurshab olish, oʻrash; 3) qurshov.

rouse [raʊz] *v* qoʻzgʻatmoq, uygʻotmoq.

rout [raʊt] **1.** *n* tor-mor qilish; tor-mor boʻlish; **2.** *v* yer bilan yakson qilmoq; tor-mor keltirmoq.

route [ru:t] *n* yoʻl, yoʻnalish, marshrut.

routine [ˌruːˈtiːn] *n* aniq belgilangan tartib, oʻrnatilgan tartib.

routinely [ˌruːˈtiːnli] *adv* joriy etilgan tartibda.

rove I [rəʊv] **1.** *n* olamni kezish, sayohat, safar; **2.** *v* olamni kezmoq, sayohat qilmoq.

rove II [rəʊv] *n* 1) *tex.* shayba; 2) xom ip, xom (biroz) pishitilgan ip.

row I [rəʊ] *n* qator, saf.

row II [rəʊ] **1.** *n* eshkak; **2.** *v* eshkak eshmoq; **to** ~ **a** race eshkak eshish musobaqasida qatnashmoq.

rowan [ˈraʊən] *n* chetan (*daraxti va mevasi*).

rowdy [ˈraʊdi] **1.** *n* urishqoq, toʻpilonchi; **2.** *a* shovqin-suronli, sershovqin.

rowlock [ˈrɒlək] *n* eshkak qulogʻi (*qayiq yonida eshkak oʻrnatiladigan ayri va shu ayri qozigʻi uchun qilingan teshik*).

royal [ˈrɔɪəl] *a* 1) qirolga oid, podshoga (shohga) oid; **a** ~ **palace** qirol saroyi; 2) shohona.

royalty [ˈrɔɪəlti] *n* 1) qirol (podsho) hokimiyati; 2) mualliflik qalam haqi.

rub [rʌb] *v* 1) surtmoq, surkamoq, uqalamoq, ish-qalamoq, ishqamoq; 2) artmoq; 3) oʻchirmoq (*soʻzni*).

rubble [ˈrʌbl] *n* tosh yoki gʻisht boʻlaklari.

rubber [ˈrʌbə] *n* oʻchirgʻich, rezina.

rubbish [ˈrʌbɪʃ] *n* 1) eski-tuski, lash-lush, latta-putta; 2) bemaʼni (behuda) gap.

rubella [ruˈbelə] *n tib.* qizilcha (*bolalar kasal-ligi*).

rubicund [ˈruːbɪkənd] *a* qizil, qip-qizil, qirmizi (*yuz haqida*).

ruby [ruːbi] **1.** *n* laʼl, yoqut; **2.** *a* qip-qizil, toʻq qizil.

rucksack [ˈrʌksæk] *n* yuk xalta.

rudder [ˈrʌdə] *n av.* rul.

ruddy [ˈrʌdi] *a* qizil, qip-qizil, qizargan.

rude [ruːd] *a* qoʻpol; qoʻrs, toʻng, toʻrs.

rudely [ˈruːdli] *adv* qoʻpollik bilan, qoʻpollik qi-lib.

rudeness [ˈruːdnəs] *n* qoʻpollik, dagʻallik.

rudimentary [ˌruːdɪˈmentəri] *a* boshlangʻich...; ibtidoiy.

rudiments [ˈruːdɪmənts] *n* boshlangʻich (*maʼlumotlar*).

rue I [ruː] *n* rahmi kelish, achinish, rahm qilish, shafqat.

rue II [ruː] *n bot.* toshbaqa toli (*zaharli sariq gulli buta oʻsimlik*).

rueful [ˈruːfl] *a* 1) maʼyus, gʻamgin, umidsiz; 2) ayanchli, achinarli.

ruff I [rʌf] *n* burma hoshiya (*biror narsaning ustiga burib tikiladigan yengil mato*).

ruff II [rʌf] *n zool.* bir turli serqiltanoq baliq.

ruff III [rʌf] **1.** *n* kuzir (*kartada*); **2.** *v* kuzir bilan bosmoq.

ruffian [ˈrʌfɪən] *n* 1) kallakesar; bezori; 2) bosma-chi, bosqinchi; 3) yaramas, ablah, qabih odam.

ruffle I [ˈrʌfl] *n* jimirlash, mavj urish.

ruffle II [ˈrʌfl] *n* nogʻoraning doʻpir-doʻpiri (takirtukiri).

rug [rʌg] *n* gilam, gilamcha, kichkina gilam.

rugby [ˈrʌgbɪ] *n sport.* regbi (*futbolning bir turi*).

rugged [ˈrʌɡɪd] *a* notekis, gʻadir-budur, past-baland; oʻnqir-choʻnqir.

ruin [ˈruːɪn] **1.** *n* 1) xaroba, vayrona; **to fall into** ~ xarobaga aylanmoq; 2) barbod boʻlish, halok boʻlish, qulash; **2.** *v* 1) xarob qilmoq; 2) inqiroz-ga uchratmoq.

ruinous [ˈruːɪnəs] *a* xarob qiladigan, xonavayron (kafangado) qiladigan.

rule [ru:l] **1.** *n* 1) hukmronlik, boshqarish; 2) qo-ida; **the** ~ **of the game** oʻyin qoidasi; **2.** *v* idora qilmoq, boshqarmoq.

ruler I [ˈruːlə] *n* hokim, hukmdor, idora qiluvchi, boshqaruvchi.

ruler II [ˈruːlə] *n* chizgʻich.

ruling [ˈruːlɪŋ] **1.** *a* hukmron, hukumat tepasida turuvchi, idora qiluvchi; **2.** *n* boshqarish.

rum I [rʌm] *n* 1) rom (*kuchli spirtli ichimliklar-ni bir xili*); 2) spirtli ichimlik.

rum II [rʌm] *a* ajoyib, taajjub, qiziq, gʻalati; ~ **fellow** gʻalati (tentaksimon) odam.

Rumanian [ruˈmeɪnɪən] = **Roumanian**.

rumble [ˈrʌmbəl] *n* 1) guldurash, gumburlash, gum-bur-gumbur; 2) norozilik, hasrat, shikoyat, nolish.

ruminate [ˈruːmɪneɪt] *v* saqich chaynamoq.

rummage [ˈrʌmɪdʒ] *n* qidiruv, qidirish, izlash, axtarish; tintuv, taftish.

rummy [ˈrʌmi] *a* ajoyib, taajjub, qiziq, gʻalati.

rumour [ˈruːmə] **1.** *n* mish-mish gap, ovoza; **2.** *v* ovoza tarqatmoq, mish-mish tarqatmoq.

rumoured [ru:məd] *a* odamlarning aytishiga ko'ra ma'lum bo'lgan; **it is ~ that** ... degan mish-mishlar tarqalib yuribdi.

rump [rʌmp] *n* dumg'aza; son go'shti.

ruple [ˈrʌpl] *v* to's-to'polon qilmoq, tartibsizlik qilmoq.

run [rʌn] *v* (**ran**; **run**) 1) chopmoq, yugurmoq; 2) tez tarqalmoq (*olov, yangilik haqida*); 3) yurmoq; 4) oqmoq; 5) olib bormoq; 6) rahbarlik qilmoq.

runaway [ˈrʌnəweɪ] *n* qochoq, qochqin.

rung [rʌŋ] 1. *n* (*tirab qo'yiladigan*) narvonning pog'onasi; 2. *v p. p.* **ring II**, 2. *dan*.

runner [ˈrʌnə] *n* yuguruvchi; chopuvchi, chopish bilan shug'ullanuvchi sportchi.

running [ˈrʌnɪŋ] 1. *pres. p.* **run dan**; 2. *a* chopadigan, yuguradigan; ~ **track** yugurish yo'lkasi.

running-board [ˈrʌnɪŋbɔ:d] *n* zina, zinapoya (*avtomobilda*).

runny [ˈrʌni] *a* oquvchan, (suyulib) oqib ketadigan, suyuq.

runway [ˈrʌnweɪ] *n* uchish va qo'nish yo'lagi.

rupture [ˈrʌptʃə] *n* yorib o'tilgan joy, teshik, yoriq.

rural [ˈruərəl] *a* qishloqqa xos bo'lgan.

ruse [ru:z] *n* hiyla, nayrang, makr ishlatish, makkorlik, ayyorlik.

rush [rʌʃ] 1. *v* 1) yeldek yugurmoq; 2) tashlanmoq; 3) shoshiltirmoq; 2. *n* 1) tez (ildam, jadal)

harakat; 2) bosish, bosim; 3) intilish, kuchli orzu, niyat, ishtiyoq (*nimagadir*).

rush-hours [ˈrʌʃaʊəz] *n pl* tig'iz payt.

rusk [rʌsk] *n* to'g'rab qotirilgan non, qoq non.

russet [ˈrʌsɪt] *n* yomon qilib qo'lda to'qilgan jun gazlama.

Russian [ˈrʌʃn] 1. *n* 1) rus, rus kishi; 2) rus tili; 2. *a* ruslarga oid.

rust [rʌst] 1. *n* zang; 2. *v* zanglamoq, zang bosmoq.

rustic [ˈrʌstɪk] *a* dag'al, xomaki ishlov berilgan.

rusticate [ˈrʌstɪkeɪt] *v* qishloqcha hayot kechirmoq.

rustle [ˈrʌsl] *v* shitirlamoq, shildiramoq.

rustler [ˈrʌslə] *n* shitirlaydigan narsa.

rusty I [ˈrʌstɪ] *a* zanglagan, zang bosgan, zanglab qolgan.

rusty II [ˈrʌstɪ] *a* taxir, achigan.

rusty III [ˈrʌstɪ] *a* 1) asov, qaysar, ters, bo'y bermaydigan (*ot haqida*); 2) so'zl. tez achchiqlandigan, serzarda, serjahl.

rut [rʌt] *n* 1) egat, jo'yak; 2) g'ildirak izi; arava izi.

ruthless [ˈru:θləs] *a* berahm, shafqatsiz; ayamaydigan, achinmaydigan; ~**ness** shafqatsizlik, rahmsizlik.

rye [raɪ] *n* javdar, javdari bug'doy; qora bug'doy (*o'simligi*).

rye-bread [ˈraɪbred] *n* qora bug'doy unidan qilingan non.

ryot [ˈraɪət] *n* hind dehqoni, ziroatchisi.

Ss

S, s [es] *n* ingliz tili alifbosining o'n to'qqizinchi harfi.

sabbath [ˈsæbəθ] *n* 1) (*yevreylarda*) shanba; 2) (*xristianlarda*) yakshanba (*dam olish kunlari to'g'risida*).

sabbath-school [ˈsæbəθsku:l] *n* yakshanba maktabi (*revolutsiyadan ilgari Rossiya: katta yoshdagi kishilar uchun yakshanba kunlari ishlagan maktab*).

sabbatic(al) [səˈbætɪk(əl)] *a* 1) yakshanba kuniga oid, yakshanba kunidagi, yakshanba kungi, (*xristianlarda dam olish kunlari bo'ladigan ishlar nazarda tutilgan*); 2) shanba kuniga oid, shanba kunidagi, shanba kungi (*yevreylarda*).

saber [ˈseɪbə] *amer.* = **sabre**.

sable I [ˈseɪbl] *n* 1) sobol, Kamchatka suvsari; 2) sobol mo'ynasi; 3) *attr.* sobolga oid, suvsar mo'ynasi.

sable II [ˈseɪbl] 1. *n* 1) qora rang; 2) *pl* motam, aza; 2. *a* motam (azaga) oid.

sabot [ˈsæbəʊ] *n* yog'och kavush.

sabotage [ˈsæbətɑ:ʒ] *n* 1) ishdan bo'yin tovlash; 2) zimdan qarshilik ko'rsatish, to'sqinlik qilish.

saboteur [ˌsæ:bəˈtɔ:ʒ] *n fr.* qo'poruvchi.

sabre [ˈseɪbə] *n* qilich, shamshir.

sabre-rattler [ˈseɪbərətələ] *n* urush olovini yoquvchi.

sabre-rattling [ˈseɪbərətɪŋ] *n* qilich yalang'ochlash, qurolni pesh qilish, urish bilan do'q urish (po'pisa qilish, tahdid solish).

sabre-toothed [ˌseɪbəˈtu:θt] *a zool.* o'tkir tishli, tishi o'tkir.

sabulous [ˈsæbjʊləs] *a* qumli, qum bilan qoplangan.

sac [sæk] *n* 1) *biol.* qopchiq, xalta, xaltacha; 2) sak (*ayollarning keng paltosi*).

saccate [ˈsækət] *a biol.* 1) qopchiq (xalta, xaltacha) shaklidagi; 2) qopchiqqa (xaltachaga) joylashtirilgan.

saccharic [səˈkærɪk] *a* qand (*shakar*)...; ~ **acid** qand (*shakar*) kislotasi.

saccharify [səˈkærɪfaɪ] *v kim.* kraxmalga (qandga) aylantirmoq.

saccharin [ˈsækərɪn] *n* saxarin (*qand o'rnida ishlatiladigan juda shirin kimyoviy modda*).

saccharine I [ˈsækəri:n] = **saccharin**.

saccharine II [ˈsækəri:n] *a* 1) qandga, shakarga va uni ishlab chiqarishga oid; 2) qanddan (shakardan) iborat bo'lgan.

saccharose [ˈsækərəʊs] *n kim.* saxaroza, o'simlik (lavlagi, shakarqamish) shakari.

sacciform [ˈsæksɪfɔ:m] *a biol.* qopchiq (xalta, xaltacha) shaklidagi.

sacerdotal [ˌsæsəˈdɔ:tl] *a* kashish (pop yoki ruhoniy) larga oid.

- sacerdotalism** [ˌsæəsəˈdɔʊtəlɪzəm] *n* ruhoniylar hokimiyatini tan oladigan davlat boshqarmasidagi tuzum.
- sachem** [ˈsɛtʃəm] *n amer.* dohiy, sardor, qabila boshlig'i (*bir necha hind qabilalarida*).
- sachet** [ˈsæʃeɪ] *n* 1) kichkina paketcha (quticha); 2) dastro'mol solib qo'yiladigan xaltacha.
- sack I** [sæk] **1.** *n* talash, talon-tarof qilish, o'g'irlash, o'g'irlab ketish; **2.** *v* talamoq, o'g'irlamoq, shilmoq, bosqinchilik qilmoq.
- sack II** [sæk] **1.** *n* qop, to'rva; **2.** *v* qopga solmoq.
- sackcloth** [ˈsækkləθ] *n* 1) kanopdan to'qilgan mato; 2) qop-qanor tikiladigan mato; 3) dag'al kanop mato.
- sack-coat** [ˈsækkəʊt] *n* ochiq (keng) palto.
- sackful** [ˈsækkfʊl] *n* (*biror narsa bilan*) to'ldirilgan qop; ~ **of grain** bir qop g'alla bilan to'la.
- sacking** [ˈsækkɪŋ] *n* 1) qop-qanor tikiladigan mato; 2) qopga solish.
- sack-race** [ˈsækrɛɪs] *n* qop ichida yugurish.
- sacra** [ˈsekrə] *pl sacrum dan.*
- sacral** [ˈsekrəl] *a* 1) marosimlarga oid, marosimlarda bo'ladigan; 2) diniy marosim munosabati bilan o'tkaziladigan.
- sacrament** [ˈsækrəmənt] *n cherk.* 1) sirli ibodat (*dindorlarning e'tiqodiga ko'ra, mo'jizakor ilohiy kuchga ega bo'lgan diniy marosim*); 2) ramz, belgi; 3) ont ichish, qasamyod qilish, ont, qasam.
- sacramental** [ˌsækrəˈmentl] *a* 1) diniy marosimlarda bo'ladigan (aytiladigan, qilinadigan); 2) muqaddas, aziz, mo'tabar, tabarruk.
- sacred** [ˈsekrɪd] *a* muqaddas, tabarruk, aziz; **it's my ~ duty to do this** buni bajarish mening muqaddas burchim.
- sacrifice** [ˈsækrɪfɪs] **1.** *n* 1) qurbonlik, qurbon; 2) qurbon berish, voz kechish, fido qilish, tikish, bahridan o'tish; **to make a ~** qurbon (fido) qilmoq; **2.** *v* 1) ...ni qurbon qilmoq; 2) qurbonlik qilmoq.
- sacrificial** [ˌsækrɪˈfɪʃl] *a* 1) qurbonlik qilishga (qurbonlikka) oid; 2) qurbonlikka atalgan.
- sacrilege** [ˈsækrələdʒ] *n* 1) shakkoklik, xudobezorilik, munkirlik, kofirlik; 2) muqaddas narsalarni oyoqosti qilish.
- sacrilegious** [ˌsækrəˈlɪdʒəs] *a* 1) shakkoklikdan iborat bo'lgan; 2) dinni, muqaddas narsalarni, joylarni tahqirlovchi, shakkok, kofir.
- sacristy** [ˈsækrɪstɪ] *n* rizaxona (*rizalar va cherkov anjomlari saqlanadigan bino, ombor*).
- sacrosanct** [ˌsækrəsəŋkt] *a* 1) ilohiy deb hisoblanadigan, ilohiy; 2) daxlsiz (*qonun himoyasidagi*).
- sacrum** [ˈsekrəm] *n* (*pl -ra*) anat. dumg'aza.
- sad** [sæd] *a* g'amgin, ma'yus; qayg'uli, xafa; **a ~ mistake** achinarli xato.
- sadden** [ˈsædn] *v* 1) xafa qilmoq, qayg'uga solmoq; 2) xafa bo'lmoq, qayg'urmoq, achinmoq.
- saddle** [ˈsædl] **1.** *n* 1) egar; 2) tog' beli (*tog'ning ikki cho'qqi o'rtasidagi qismi*); **2.** *v* egarlamoq.
- saddleback** [ˈsædlbæk] *n* tog' beli, ikki cho'qqi orasi.
- saddle-bag** [ˈsædlbæg] *n* egar ustidagi yukqop, xurjun, xalta.
- saddle-blanket** [ˈsædl,blæŋkɪt] *n* terlik (*to'qim tagiga solinadigan namat*).
- saddle-bow** [ˈsædlbəʊ] *n* egar qoshi (*yoki orqasi*).
- saddle-cloth** [ˈsædlkləθ] *n* yopqich, yopiq, jabduq (*egar ostidan otga yopiladigan mato*).
- saddlefast** [ˈsædlfɑːst] *a* egarga mahkamlab qo'yilgan, egarni mahkam tutib turadigan.
- saddle-girth** [ˈsædlgɜːθ] *n* qorinbog', ayil.
- saddle-horse** [ˈsædlhɔːs] *n* salt ot, miniladigan ot.
- saddle-pin** [ˈsædlpɪn] *n* egarni tutib turish uchun xizmat qiladigan tirgak (*velosiped va b.*).
- saddler** [ˈsædlə] *n* 1) egar yasaydigan usta, egarchi; 2) sarroj (*egar-jabduq ustasi*).
- saddlery** [ˈsædləri] *n* 1) sarrojlik ustaxonasi; 2) egar-jabduq va boshqa qayishdan buyumlar tayyorlash ishlari.
- saddle shoes** [ˈsædlʃuːz] *n pl* rangli boshliqli tufli (*etik boshlig'i*).
- saddle-spring** [ˈsædlspɪŋ] *n* egardagi amortizator (*velosipedda*).
- saddle-tree** [ˈsædltriː] *n* 1) velosiped o'rindig'ining karkasi (qobirg'asi); 2) lola daraxti (*guli lolaga o'xshab ochiladigan daraxt*).
- sad-iron** [ˈsæd,aɪən] *n* katta (*og'ir*) dazmol.
- sadism** [ˈseɪdɪzəm] *n* sadizm, o'ta shafqatsizlik, birovni qiynab lazzatlanish.
- sadist** [ˈseɪdɪst] *n* sadist, o'ta shafqatsiz (birovni qiynab lazzatlanuvchi) odam, zolim.
- sadly** [ˈsædlɪ] *a* 1) xafa bo'lib, qayg'u bilan; 2) baxtga qarshi, afsuski.
- sadness** [ˈsædnɪs] *n* 1) qayg'u, hasrat, g'am-g'ussa, anduh; 2) ma'yuslik, umidsizlik.
- safari** [səˈfɑːrɪ] *n arab.* (*asosan, Sharqiy Afrikada*) ov ekspeditsiyasi (*ekspeditsiya – biror maqsad bilan uyushirilgan safar*).
- safe** [seɪf] **1.** *n* po'lat sandiq, temir sandiq; **2.** *a* 1) zarar (shikast) topmagan, ziyon-zahmatsiz; 2) ishonchli, xavf-xatardan xoli, xavfsizlikda; 3) xavfsiz, xavf-xatardan, xavf-xatardan xoli.
- safe conduct** [ˌseɪfˈkɒndʌkt] *n* soqchilar, qo'riqchilar, mudofaachilar.
- safe deposit** [ˌseɪfdɪˈpɔːzɪt] *n* narsalar saqlanadigan joy.
- safeguard** [ˈseɪfgɑːd] **1.** *v* himoya qilmoq, qo'riqlamoq; **2.** *n* himoya qilish, saqlash, qo'riqlash.
- safely** [ˈseɪflɪ] *adv* 1) bexatar (*xavfsiz, xavf-xatarsiz*) holda; 2) xotirjamlik bilan.
- safety** [ˈseɪftɪ] *n* xavfsizlik, xavf-xatarsizlik, bexatarlik.
- safety-belt** [ˈseɪftɪbɛlt] *n* 1) qutqarish kamari; 2) av. bog'lanadigan (bog'lanma) kamar.
- safety-bolt** [ˈseɪftɪbɔːlt] *n tex.* saqlash bolti.
- safety curtain** [ˈseɪftɪˌkɜːtɪn] *n teatr.* asbestdan qilingan yong'inga qarshi parda.

safety film [ˈseɪftɪfɪlm] *n* yonmaydigan kinoplyonka.

safety fuse [ˈseɪftɪfjuːz] *n* 1) *togʻ*. bikford piltasi (shnuri); 2) *el.* eriydigan saqlagich (predoxranitel).

safety glass [ˈseɪftɪglɑːs] *n* sinmaydigan oyna (*shisha*).

safety island [ˈseɪftɪ, aɪlənd] *n* xavfsizlik yoʻlak-chasi (*piyodalar uchun*).

safety lamp [ˈseɪftɪlæmp] *n* kon lampasi, konda ishlatiladigan lamp.

safety match [ˈseɪftɪmætʃ] *n* xavfsiz gugurt.

safety-nut [ˈseɪftɪnʌt] *n* *tex.* kontrgayka (*asosiy gayka boʻshab ketmasligi uchun uning ustidan burab qoʻyiladigan ikkinchi gayka*).

safety-pin [ˈseɪftɪpɪn] *n* xavfsiz nina toʻgʻnagʻich.

safety razor [ˈseɪftɪ, reɪzə] *n* xavfsiz ustara.

safety strip [ˈseɪftɪstri:p] *n* xavfsizlik chizigʻi (mintaqasi) (*oʻrmonda yongʻin yoyilib ketmasligi uchun ogohlantiruvchi daraxtlarni kesish*).

safety-valve [ˈseɪftɪvælv] *n* saqlovchi klapan.

saffian [ˈsæfjən] *n* *rus.* saxtiyon (*echki yoki qoʻy terisidan pishirilgan charm*).

saffron [ˈsæfrən] 1. *n* *bot.* 1) zaʻfaron, zaʻfar (*ziravor oʻsimlik*); 2) shafran (*olmaning bir navi*); 2. *v* zaʻfaron rangiga boʻyamoq.

sag [sæg] 1. *n* egish, bukish; egilish, bukilish; 2. *v* egilmoq, bukilmoq.

saga [ˈsɑːgə] *n* rivoyat, doston, qissa.

sagacious [səˈgeɪʃəs] *a* 1) oʻtkir, ziyrak, sezgir; 2) oʻylab (aql bilan) ish qiladigan, mulohazali, ehtiyotkor.

sagacity [səˈgæsəti] *n* oʻtkirlik, ziyraklik, sezgirlik.

sagamore [ˈsæɡəməː] = **sachem**.

sage I [seɪdʒ] *n* *bot.* mavrak, marmarak (*yirik xushboʻy gulli oʻt yoki butasimon bir xil oʻsimlik*).

sage II [seɪdʒ] *n* dono (*oqil*) odam, donishmand.

sage-brush [ˈseɪdʒbrʌʃ] *n* *bot.* shuvoq, yovshan (*murakkabgullilarga mansub yem-xashak boʻladigan koʻp yillik oʻsimlik*).

sage-green [ˌseɪdʒˈɡriːn] *a* koʻkimgir-yashil. koʻkimgir-kulrang.

sage tea [ˈseɪdʒtiː] *n* 1) mavrak dimlamasi; 2) quyuc damlangan choy.

saggar [ˈsæɡə] *n* kulolchilik buyumlarini pishirish uchun ishlatiladigan kapsula (*kapsula – maxsus berkitilgan kamera yoki joy*).

sagittal [ˈsædʒɪtl] *a* nayzasimon, oʻqsimon.

Sagittarius [ˌsædʒɪˈteəriəs] *n* *astr.* Qavs yulduzlar turkumi, 12 burjdan biri.

sago [ˈseɪɡə] *n* (*pl -os [-əuz]*) sago (*sago palma-sining, shuningdek, kartoshka yoki makka-joʻxorining kraxmalidan tayyorlanadigan yorma*).

sahib [ˈsɑːhɪb] *n* *hind.* janob, xoʻjayin, sohib.

said I [sed] 1. *past., p. p.* say dan; 2. *a* degan, deyilgan, aytilgan; **the** ~ yuqorida aytilgan (koʻrsatilgan); **the** ~ **theme** yuqorida koʻrsatilgan mavzu.

said II [sed] *v* *past., p. p.* say dan.

sail [seɪl] 1. *n* 1) yelkan; 2) yelkanli kema; 3) kemada suzish; 2. *v* kemada suzmoq.

sailboat [ˈseɪlbəʊt] *n* yelkanli qayiq; yelkanli kema.

sailcloth [ˈseɪlklɒθ] *n* parusina (*kanopdan toʻqilgan qalin, puxta mato*).

sailer [ˈseɪlə] *n* yelkanli kema.

sailing [ˈseɪlɪŋ] 1. *pres. p.* sail 2. *dan.* 2. *n* 1) qayiqda suzish; 2) dengizda kemalarning yurishi, yuritilishi; 3) kema yuritish sanʼati.

sailing-craft [ˈseɪlɪŋkrɑːft] *n* yelkanli kema.

sailing-master [ˈseɪlɪŋ, mɑːstə] *n* shurman (*paroxod, samolyot kabilarni boshqaruvchi*).

sailing-ship [ˈseɪlɪŋʃɪp] *n* yelkanli kema.

sailing-vessel [ˈseɪlɪŋ, vesl] = **sailing-ship**.

sailor [ˈseɪlə] *n* matros, dengizchi; **freshwater** ~ tajribasiz dengizchi.

sailorly [ˈseɪləli] *a* 1) epchil, chaqqon; 2) dengizchiga xos boʻlgan.

sail-plane [ˈseɪlpleɪn] *n* planyor (*motorsiz uchadigan apparat*).

sainfoin [ˈsænfɔɪn] *n* *bot.* esparset (*ozuqabop dukakli oʻsimlik*).

saint [seɪnt] *n* (muqaddas, aziz, tabarruk) avliyo odam.

sainted [ˈseɪntɪd] *a* muqaddas, aziz, tabarruk.

sainthood [ˈseɪnthud] *n* muqaddaslik, azizlik, tabarruklik, avliyolik.

saintlike [ˈseɪntlɪk] = **saintly**.

saintly [ˈseɪntli] *a* 1) gunohsiz, begunoh; 2) koʻch. sof, pok, halol.

sake [seɪk] *n*: **for the** ~ **of** ... deb, haqi uchun; **for our** ~s biz uchun.

salaam [səˈlɑːm] 1. *n* salom (*sharq odamlarining salomlashishi*); 2. *v* salomlashmoq.

salable [ˈseɪləbl] *a* 1) talab (ehtiyoj) katta boʻlgan; 2) bozori chaqqon, tez oʻtadigan, tez sotiladigan, bozorgir (*tovar, mol haqida*).

salacious [səˈleɪʃəs] *a* shahvoniy, shahvatparastlarcha, shahvoniy hisga berilgan.

salacity [səˈlæsəti] *n* shahvoniylik, suqlik, shahvatparastlik.

salad [ˈsæləd] *n* salat, shakarob.

salad-bowl [ˈsælədbəʊl] *n* salat idish.

salad-days [ˈsæləddɛɪz] *n* 1) tajribasiz yoshlik davri; 2) gʻoʻr yoshlik.

salad-dressing [ˈsæləd, dresɪŋ] *n* salatga qoʻshadigan ziravorlar.

salad-oil [ˈsælədɔɪl] *n* zaytun moyi, salat uchun ishlatiladigan moy.

salamander [ˈsælə, mændə] *n* *zool.* salamandra, samandar (*ham suvda, ham quruqlikda yashovchi baʼzi kaltakesaksimon dumli jonivorlarning umumiy nomi*).

salame [səˈlɑːmi] *n* salami (*dudlangan kolbasaning bir turi*).

salami [səˈlɑːmiː] *pl* salame dan.

- sal-ammoniac** [ˌsæləˈmɔːnɪæk] *n* novshadil, nashatir (*ammoniy xlorid, rangsiz kristall modda*).
- salary** [ˈsæləri] *n* maosh, ish haqi, oylik.
- sale** [seɪl] *n* savdo, sotish, savdo-sotiq.
- saleable** [ˈseɪləbl̩] = **salable**.
- sale-price** [ˈseɪlpraɪs] *n* 1) *iq.* sotiladigan narx; 2) tushirilgan narx **to sell at** ~ mavsumiy narxda sotmoq.
- sale-room** [ˈseɪlrum] *n* auksion zali, ochiq savdo zali.
- salesclerk** [ˈseɪlzkla:k] *n* 1) sotuvchi (*savdo korxonasida*); 2) sotuvchi, savdogar.
- saleslady** [ˈseɪlz,leɪdi] *n* amer. *soʻzl* **saleswoman** ga qarang.
- salesman** [ˈseɪlzmən] *n* 1) sotuvchi; 2) vositachi, dallol (*savdo ishida*).
- salesmanship** [ˈseɪlzmənʃɪp] *n* savdo-sotiq qila olish.
- salespeople** [ˈseɪlz,pi:pəl] *n* amer. sotuvchilar.
- salesroom** [ˈseɪlzrum] = **sale-room**.
- saleswoman** [ˈseɪlz,wʊmən] *n* sotuvchi ayol.
- salicylic** [ˌsælɪˈsɪlɪk] *a* kim. salitsil; ~ **acid** salitsil kislota (*texnikada va tibbiyotda qoʻllaniladigan organik kislota*).
- salience** [ˈseɪljəns] *n* doʻnglik, doʻmboqlik, qavariqlik.
- salient** [ˈseɪljənt] **1.** *a* atoqli, mashhur, taniqli; **2.** *n* *harb.* pona (*dushman saflarini yorib kirishga qaratilgan operatsiya*).
- saline** [səˈlaɪn] **1.** *n* 1) shoʻr tuproq yer; 2) shoʻr koʻl; 3) suvi shoʻr buloq; **2.** *a* [ˈseɪlɪn] tuzli, tarkibida tuz boʻlgan.
- salinity** [səˈlɪnɪti] *n* tuzlanganlik, tuzlilik, shoʻrlik.
- saliva** [səˈlɪvə] *n* soʻlak, soʻlakay, tupuk.
- salivary** [ˈsælɪvəri] *a* tupukka (soʻlakka) oid, tupuk (soʻlak) chiqaradigan; ~ **glands** soʻlak bezlari.
- salivate** [ˈsælɪveɪt] *v* soʻlagi oqmoq.
- salivation** [ˌsælɪˈveɪʃən] *n* soʻlak oqish.
- sallow I** [ˈsæləu] *n* bot. tol.
- sallow II** [ˈsæləu] **1.** *a* sargʻish, nosogʻ, rangi ketgan (*yuz rangi haqida*); **2.** *v* sargʻaymoq, rangi ketmoq.
- sally** [ˈsælɪ] *n* *harb.* panadan chiqib qoʻqqisdan qilingan hujum.
- Sally Lunn** [ˈsælɪ ˈlʌn] *n* *soʻzl.* shirin bulochka.
- sally-port** [ˈsælɪpɔ:t] *n* *harb.* panadan qoʻqqisdan hujum qilinganda chiqiladigan darvoza.
- salmagundi** [ˌsælməˈɡʌndɪ] *n* fr. salmagundi (*tuxum, piyoz va goʻsht bilan qilinadigan salat*).
- salmi** [ˈsælmɪ] *n* fr. parranda goʻshtidan oʻtkir sous bilan vinoda (*musallasda*) tayyorlangan taom.
- salmon** [ˈsæmən] **1.** *a* qizil-sariq; **2.** *n* *zool.* 1) sulaymonbaliq; 2) losos (*goʻshti qizil baliq*).
- salmon-coloured** [ˈsæmən,kʌləd] *a* qizil-sariq.
- salmon trout** [ˈsæmən,traʊt] *n* *zool.* losos-taymen (*Sibir daryolaridagi yirtqich baliqlarning bir turi*).
- salon** [ˈsælən] *n* fr. mehmonxona, qabulxona.
- saloon** [səˈlu:n] *n* 1) avtomobil saloni; 2) zal; 3) amer. pivoxona.
- saloon-car, saloon-carriage** [səˈlu:nkɑ:, səˈlu:n,kærɪdʒ] *n* uski yopilgan mashina.
- saloon deck** [səˈlu:ndek] *n* birinchi darajadagi yoʻlovchilar tashiydigan kema sahni.
- saloon-keeper** [səˈlu:n,ki:pə] *n* amer. bar xoʻjayini, restoran egasi.
- Salopian** [səˈləʊpiən] *n* Shrusberi shahrining fuqarosi.
- salsify** [ˈsælsəfi] *n* bot. echkisoqol.
- salt** [sɔ:lt] **1.** *n* tuz, osh tuzi; **2.** *a* tuzli, shoʻr; ~ **celler** tuzdon; ~ **water** namakob; **3.** *v* tuz solmoq, tuz sepmoq.
- saltation** [sælˈteɪʃn] *n* sakrash, irgʻish.
- saltatory** [ˈsæltətəri] *a* sakraydigan, irgʻiydigan.
- salt-away** [ˈsɔ:ltə,weɪ] *v* tuzlamoq, tuzlab qoʻymoq.
- salt-cellar** [ˈsɔ:lt,selə] *n* tuzdon, tuzluq.
- salt-marsh** [ˈsɔ:ltmɑ:ʃ] *n* shoʻrxok yer, shoʻr tuproq yer.
- saltpetre** [ˌsɔ:ltˈpi:tə] *n* kim. selitra.
- salty** [ˈsɔ:ltɪ] *a* tuzli, tarkibida tuz boʻlgan, shoʻr.
- salubrious** [səˈlu:brɪəs] *a* shifobaxsh, foydali.
- salutary** [ˈsæljutəri] *a* foydali, shifobaxsh, davo boʻladigan.
- salutation** [ˌsæljuˈteɪʃn] *n* tabrik, tabriklash; salomlashish.
- salute** [səˈlu:t] *v* 1) tabriklamoq, qutlamoq; 2) koʻrishmoq, soʻrashmoq, salomlashmoq.
- salvage** [ˈsælvɪdʒ] *n* (*dengiz yoki olovdan*) biror narsani qutqarish.
- salvation** [ˈsælˈveɪʃn] *n* qutqarish, qutqaruvchi, saqlovchi, himoya qiluvchi.
- Salvation Army** [sælˈveɪʃnˈɑ:mɪ] *n* qutqarish armiyasi.
- Salvationist** [sælˈveɪʃnɪst] *n* qutqarish armiyasining aʼzosi.
- salve I** [sælv] *n* tinchlantiruvchi malhamdori.
- salve II** [sælv] *v* ogʻz. 1) malhamdori surtmoq; 2) ogʻriqni yengillashtirmoq; 3) miyani tinchlantirmoq.
- salver** [ˈsælvə] *n* (*oddiy kumush*) patnis.
- salvo I** [ˈsælvəu] *n* 1) sharh, izoh, eslatma; 2) bahona, vaj; 3) uzr; eʼtiroz; 4) yupatish, taskin berish.
- salvo II** [ˈsælvəu] *n* 1) baravariga oʻq otish; 2) gulduros qarsaklar.
- sal volatile** [ˌsælvəˈlætəɪl] *n* burunga tortiladigan tuz.
- salvor** [ˈsælvə] *n* 1) qutqaruvchi kema; 2) qutqarishda qatnashadigan kishi.
- samara** [səˈmɑ:rə] *n* bot. qanotli urugʻ.

samarium [səˈmeɪrɪəm] *n* kim. samariy (*nodir kimyoviy element, kumushsimon oq metall*).

sambo [ˈsæmbəu] *n* (*pl -os, -oes [-əuz]*) 1) sambo (*Lotin Amerikasida hindlar va habashlarning aralashgan avlodi*); 2) (*Sambo*) habash, zangi.

Sam Browne [ˌsæmˈbraun] *n* amer. soʻzl. ofitser, zobit.

same [seɪm] *pron. demon.* 1) *sifat boʻlib kelgan*: bir xil, oʻsha; **they belong to the ~ family** ular bir xil oilaga mansub; 2) *ot boʻlib kelganda*: xuddi oʻsha, bir xil; **they must all do the ~** ular hammalari bir xil bajarishlari kerak.

sameel [ˈsæməl] *a* yomon pishirilgan, yumshoq (*sopol, gʻisht haqida*).

sameness [ˈseɪmənəs] *n* bir xillik, farq qilmaslik, oʻxshashlik.

samite [ˈsæmɪt] *n* 1) qalin shoyi; 2) kimxob, zarbof.

samlet [ˈsæmlɪt] *n* yosh losos (*losos – goʻshni qizil baliq*).

Sammy [ˈsæmɪ] *n* Semmi (*amerikalik askarning birinchi Jahon urushi davridagi nomi, laqabi*).

samp [sæmp] *n* amer. makkajoʻxori yormasi.

sampan [ˈsæmpən] *n* sampar, Xitoy qayigʻi.

sample [ˈsɑːmpl] *n* 1) namuna, nusxa: **book of ~s** namunalar albomi; 2) andaza, qolip.

sampling [ˈsɑːmplɪŋ] *n* namuna olish, nusxa olish.

Samson [ˈsæmsn] *n* kuchli odam, bahodir, polvon.

samurai [ˈsæmurɑɪ] *n* yap. (*pl oʻzgarishsiz*) samuray (*Yaponiyada: imtiyozli feodal harbiylar tabaqasiga mansub kishi*).

sanative [ˈsænətɪv] *a* 1) shifobaxsh, shifoli, davo boʻladigan; 2) dorivor.

sanatoria [ˌsænəˈtɔːrɪə] *pl sanatorium dan.*

sanatorium [ˌsænəˈtɔːrɪəm] *n* sanatoriya, dam olish va davolanish maskani.

sanatory [ˈsænətɔːrɪ] = **sanative**.

sanctified [ˈsæŋktɪfaɪd] *p. p. sanctify dan.*

sanctify [ˈsæŋktɪfaɪ] *v* 1) bagʻishlamoq, atamoq; 2) kamchiliklardan tozalamoq.

sanctimonious [ˌsæŋktɪˈmɒniəs] *a* riyokor (munofiq)larga xos, riyokorona, munofiqona, ikkiyuzlamalik bilan qilingan.

sanctimony [ˈsæŋktɪmɒnɪ] *n* riyokorlik, munofiqlik, ikkiyuzlamachilik.

sanction [ˈsæŋkʃn] *n* 1) ruxsat, tasdiq, rozilik; 2) maʼqullash, maʼqul topish, quvvatlash, manzur koʻrish.

sanctity [ˈsæŋktɪtɪ] *n* muqaddaslik, tabarruklik.

sanctuary [ˈsæŋktɪʃuəri] *n* 1) ibodatxona; 2) boshpana; 3) qoʻriqxona; **bird ~** qushlar qoʻriqxonasi.

sand [sænd] *n* 1) qum; 2) shagʻal; 3) sayoz joy, sayozlik.

sandal [ˈsændl] **1.** *n* sandal, shippak; **2.** *v* shippak kiymoq.

sandal (wood) [ˈsændl(wud)] *n* sandal daraxti.

sand-bag [ˈsæn(d)bæg] *n* qum toʻldirilgan qop.

sandbag [ˈsæn(d)bæg] *v* qum toʻldirilgan qop bilan urmoq.

sandbank [ˈsæn(d)bæŋk] *n* shamol uchirib kelgan qumloq sayozlik, ayrim sayoz joy (*dengizda*).

sand-bar [ˈsæn(d)baː] *n* qumloq sayozlik (*daryo etagida, dengiz chetida*).

sand-bath [ˈsæn(d)baːθ] *n* tex. qum hammom.

sand-bed [ˈsæn(d)bed] *n* daryoning qumli oʻzani (*yoʻli, tagi, osti*).

sand-blast [ˈsæn(d)blaːst] **1.** *n* (*kuchli havo oqimi bilan*) qum purkaydigan apparat, qumpurkagich; **2.** *v* qum purkamoq.

sand-blind [ˈsæn(d)blaɪnd] *a* esk. koʻzi yomon koʻradigan, koʻzi xira, ojizroq.

sand-box [ˈsæn(d)bɒks] *n* 1) qumdon, qum saqlaydigan idish; 2) qumdon (*bolalar oʻynashi uchun qum toʻldirib qoʻyilgan katta pastak quti*).

sandboy [ˈsæn(d)bɔɪ] *n* baxtli, quvnoq, xushchaqchaq, shodmon bola.

sand-crack [ˈsæn(d)kræk] *n* gʻishtdagi pishishdan oldin paydo boʻladigan yoriq (*darz*).

sand-dune [ˈsæn(d)djuːn] *n* qumtepalar (*shamol uchirib yuradigan uyumlari*).

sanded [ˈsændɪd] *a* qum bilan qoplangan, qum toʻkilgan, qum sepilgan.

sand-eel [ˌsændˈiːl] *n* qumbaliq (*qumloq qirgʻoqlarda yashovchi mayda baliq*).

sand-glass [ˈsændglɑːs] *n* qum soat.

sand-hill [ˈsæn(d)hɪl] *n* qumtepalar (*shamol uchirib yuradigan qum uyumlari*).

sand hog [ˈsændhɒg] *n* amer. yer ostida ishlaydigan ishchi.

sand-martin [ˈsænd,mɑːtɪn] *n* qirgʻoq qaldirgʻochi.

sandpaper [ˈsænd,petpə] *n* jilvir(li) qogʻoz.

sand-pit [ˈsæn(d)pɪt] *n* ochiq qum koni.

sand-shoes [ˈsæn(d)ʃuːz] *n* tagi rezinali plajda kiyiladigan oyoq kiyim.

sand-spout [ˈsæn(d)spaut] *n* qum uyurmasi.

sandstone [ˈsæn(d)stəʊn] *n* geol. qumtosh (*qumning jipslanishidan hosil boʻlgan togʻ jinsi*).

sand-storm [ˈsæn(d)stɔːm] *n* 1) samum (*Osiyo va Afrika choʻllarida: issiq va quruq shamol*); 2) qumli boʻron, qum boʻroni.

sandwich [ˈsænwɪdʒ] *n* sandvich, buterbrod (*ustiga saryogʻ surtilgan yoki pishloq, kolbasa yaprogʻi qoʻyilgan bir kesik non*).

sandwich-board [ˈsænwɪdʒbɔːd] *n* reklamalar osib qoʻyish uchun qilingan taxta.

sandy [ˈsændɪ] *a* qumli, qum bilan qoplangan.

sane [seɪn] *a* 1) ruhiy jihatdan sogʻlom, aqli raso, es-hushi joyida; 2) toʻgʻri, oqilona, bamaʼni.

sang [sæŋ] *past sing dan.*

sanguinary [ˈsæŋgwɪnəri] *a* qonga oid, qonli.

sanguine [ˈsæŋgwɪn] *a* serharakat; tez taʼsirlanadigan; xushchaqchaq.

- sanitarium** [ˌsæniˈteəriəm] *n* sanatoriyaga oid, gigiyenaga oid, gigiyena qoidalariga asoslangan, sogʻliqni saqlashga xizmat qiladigan, gigiyenik; ~ **belt** gigiyena kamari (belbogʻi); ~ **engineering** sanitariya texnikasi.
- sanitariya** [sænɪtəri] *n* sanitariya.
- sanitation** [ˌsæniˈteɪʃən] *n* sogʻligʻini yaxshilash, tuzatish, sogʻaytirish.
- sanity** [ˈsænɪti] *n* aqli rasolik, ruhiy jihatdan sogʻlomlik.
- sank** [sæŋk] *past. sink dan.*
- Santa Claus** [ˈsæntəkloːz] *n* qorbobo.
- sap** [sæp] *n* 1) (oʻsimlik) shirasi, suvi; 2) ignabargli daraxtlarning smolali yelimi; 3) yashash qobiliyati, yashovchanlik; 4) *bot.* poʻstloq osti qatlami (*daraxtning poʻstloq ostidagi yangi yogʻoch qismi*).
- sapid** [ˈsæpɪd] *a* 1) shirin, mazali; 2) mazmunder (*suhbat haqida*).
- sapience** [ˈseɪprəns] *n* donishmandlik, donolik, oqillik.
- sapient** [ˈseɪprənt] *a* donishmand, dono, oqil.
- sapling** [ˈsæplɪŋ] *n* koʻchat, kichkina daraxt, daraxtcha.
- sapper** [ˈsæpə] *n* minachi (*minalar qoʻyuvchi, ularni zararsizlantiruvchi yosh mina otuvchi*).
- sapphire** [ˈsæfərə] **1.** *n* safir (*zangori yoki koʻkish yoqut*); **2.** *a* toʻq koʻk, toʻq zangori.
- sappy I** [ˈsæpi] *a* 1) sersuv, shirali, shirador; 2) kuchli, quvvatli.
- sappy II** [ˈsæpi] *a* soʻzl. aqli noqis, miyasi yoʻq, esi past, kaltafahm.
- sarcasm** [ˈsɑːkæzm] *n* achchiq kinoya, piching, istehzo.
- sarcastic** [sɑːˈkæstɪk] *a* 1) istehzoli, achchiq, zahar; 2) qattiq botadigan.
- sarcastically** [sɑːˈkæstɪkəlɪ] *adv* masxara (mazax, mayna) qilib.
- sardine** [ˌsɑːˈdiːn] *n* sardina (*seldlarga mansub mayda baliq*).
- sardonic** [sɑːˈdɒnɪk] *a* istehzoli, achchiq, zaharli.
- sari** [ˈsɑːri] *n* sari (*hind ayollarining kiyimi*).
- sash I** [sæʃ] *n* 1) belbogʻ, kamar, qayish; 2) orden lentasi.
- sash II** [sæʃ] *n* deraza panjarasi.
- sat** [sæt] *past., p. p. sit dan.*
- Satan** [ˈseɪtən] *n* iblis, shayton, jin.
- Satanic** [səˈtænɪk] *a* iblisga (shaytonga) oid, iblisga (shaytonga) xos boʻlgan.
- satchel** [ˈsætʃəl] *n* jild, sumka (*kitob uchun*).
- sate** [seɪt] *v* toʻydirmoq, toʻygʻizmoq.
- sateen** [sæˈtiːn] *n* satin (*ipakka oʻxshash yaltiroq ip gazlama*).
- satellite** [ˈsætələɪt] *n* 1) *astr.* sunʻiy yoʻldosh; 2) malay, yugurdak; 3) sherik, yordamchi.
- satiare** [ˈseɪtʃeɪt] **1.** *v* juda toʻydirmoq, toʻydirib yubormoq; **2.** *a* juda toʻygan.
- satiation** [ˌseɪʃɪˈeɪʃn] *n* toʻyish, toʻyib ketgan, miriqish, juda toʻydirish.
- satiety** [səˈtɪeɪti] *n* toʻqlik, toʻyganlik, qorni toʻqlik.
- satın** [ˈsætɪn] *n* atlas (*geografik karta*).
- satire** [ˈsætɪə] *n* 1) hajviy asar; 2) istehzo, kinoya, piching.
- satirically** [səˈtɪrɪk(ə)lɪ] *adv* hajv qilib, ustidan kulib, mazax qilib.
- satirist** [ˈsætərɪst] *n* hajviyachi, hajv qiluvchi.
- satirize** [ˈsætəraɪz] *v* hajv qilmoq, masxara qilmoq, mazax (mayna) qilmoq, kulmoq.
- satisfaction** [ˌsætɪsˈfækʃn] *n* qondirish, qanoatlantirish.
- satisfactory** [ˌsætɪsˈfæktəri] *a* qanoatlanarli, qoniqarli.
- satisfy** [ˈsætɪsfaɪ] *v* qanoatlantirmoq, toʻgʻri kelmoq, qondirmoq.
- saturate** [ˈsætʃəreɪt] *v* toʻyinmoq, singmoq.
- saturation** [ˌsætʃəˈreɪʃn] *n* toʻyintirish, toʻygʻizish, toʻydirish, qondirish.
- Saturday** [ˈsætədeɪ] *n* shanba.
- Saturn** [ˈsætəːn] *n* *astr.* Saturn (*Quyosh sistemasining oltinchi katta planetasi; Zuhayl, Kayvon*).
- satyr** [ˈsæteɪ] *n* fohishaboz, buzuq odam, suyuq-oyoq.
- sauce** [sɔːs] *n* qayla, ziravor.
- saucepan** [ˈsɔːspən] *n* ovqat pishiriladigan metall idish.
- saucer** [ˈsɔːsə] *n* likopcha, tarelkacha, kichkina tarelka.
- saucy** [ˈsɔːsi] *a* 1) surbet, bezbet, shilqim, beor; 2) yaxshi kiyingan, bezangan.
- sauerkraut** [ˈsauəkraut] *n* tuzlangan karam.
- sauna** [ˈsɔːnə] *n* sauna (*fin hammomi*).
- saunter** [ˈsɔːntə] *n* 1) sayr, tomosha, aylanib kelish; 2) asta-sekin qadam tashlash.
- sausage** [ˈsɔːsɪdʒ] *n* kolbasa, sosiska, hasip, qazi.
- savage** [ˈsævɪdʒ] **1.** *a* 1) yovvoyi, vahshiy; 2) shafqatsiz, zolim; **2.** *n* 1) yovvoyi odam; 2) soʻzl. kishilarga qoʻshilmaydigan odam; tortinchoq odam.
- savagely** [ˈsævɪdʒli] *adv* 1) yovvoyilarcha, yovvoyi holda, vahshiylarcha; 2) shafqatsizlik bilan, zolimlarcha.
- savagery** [ˈsævɪdʒəri] *n* 1) yovvoyilik, vahshiylik; madaniyatsizlik; 2) qattqlik, qoʻpollik, dagʻalilik.
- savant** [ˈsævənt] *n* *fr.* olim, biror sohadagi yirik mutaxassis.
- save** [seɪv] *v* 1) qutqarmoq, xalos qilmoq, qutqarib (saqlab) qolmoq; 2) tejamoq, ehtiyot qilmoq.
- saving** [ˈseɪvɪŋ] **1.** *pres. p. save dan*; **2.** *n* 1) tejash, ehtiyot qilish; 2) qutqarish, xalos qilish; **3.** *a* 1) qutqaradigan, najot beradigan, najotbaxsh; 2) tejamkor, ayab (tejab-tergab) sarf qiladigan.
- savings-bank** [ˈseɪvɪŋzbæŋk] *n* omonat kassa; jamgʻarma bank.

savior [ˈseɪvjə] *n* najotkor, xaloskor, qutqaruvchi.
saviour [ˈseɪvjə] = **savior**.
savory I [ˈsɛvəri] *n bot.* jambil.
savory II [ˈsɛvəri] = **savoury**.
savoury [ˈsɛvəri] *a* 1) mazali, lazizli, totli, shirin; 2) mazasi (ta'mi) o'tkir.
saw I [sɔː] **1.** *n* arra; **2.** *v* arralamoq; ~**dust** qipiq, qirindi.
saw II [sɔː] *past.* see **dan**.
sawmill [ˈsɔːmɪl] *n* taxta tiladigan zavod, taxta tilish zavodi.
sawn [sɔːn] *v* arralamoq, arra bilan kesmoq (qir-qir-moq), tilmoq.
sawyer [ˈsɔːjə] *n* arrakash.
sax I [sæks] *n* shifer bolg'asi.
sax II [sæks] *n* saksofon (*puflab chalinadigan musiqa asboblarining bir turi*).
saxony [ˈsæksənɪ] *n* yupqa jun gazlama.
saxophone [ˈsæksəfəʊn] *n* saksofon (*puflab chalinadigan musiqa asboblarining bir turi*).
say [seɪ] *v* (**said**) gapirmoq, ma'lum qilmoq, aytmoq.
saying [ˈseɪɪŋ] **1.** *n* matal, maqol; **2.** *v* gapirmoq, so'zlamoq.
scab [skæb] *n tib.* 1) yaradagi qo'tir; 2) qoraqo'tir, qotgan yara.
scabbard [ˈskæbəd] *n* qin, g'ilof.
scaffold [ˈskæfəʊld] *n* 1) havoza (*qurilishlarda ko'tarib ishlangan ish joyi*); 2) jallod to'nkasi, bosh chopiladigan kunda.
scald I [skɔːld] *v* ustidan qaynoq suv quymoq, qaynoq suvga botirmoq.
scald II [skɔːld] *n* skald (*qadimgi Skandinaviyada: qo'shiqchi-shoir*).
scald III [skɔːld] *n* qoraqo'tir, qotgan yara.
scalding [ˈskɔːldɪŋ] *v* ustidan qaynoq suv quymoq, qaynoq suvga botirmoq.
scale [skeɪl] *n* 1) tangacha (*balig, ilon, kaltakesak kabilar terisida*); 2) qatma-qat po'stloq.
scaled I [skeɪld] *a* tangachasimon, tangachaga o'xshagan.
scaled II [skeɪld] *v* 1) tortmoq (*tarozida*); 2) ko'tarilmoq, yuqoriga chiqmoq.
scalene [ˈskeɪliːn] *a geom.* tomonlari teng bo'lgan.
scales [skeɪlz] **1.** *n* tarozi, tarozi pallasi; **2.** *v* tarozida tortmoq.
scalp [skælp] **1.** *n* 1) bosh terisi; 2) sochlari bilan shilini bosh terisi; **2.** *v* bosh terisini shilib olmoq.
scalpel [ˈslæpl] *n* jarroh pichog'i (maxsus pichoqcha).
scamp [skæmp] *n* bekorchi, tanbal, ishyoqmas.
- split** [splɪt] **1.** *n* yorilish, tilinish, tilim-tilim bo'lish; **2.** *v* yorilmoq, tilinmoq.
- splitting** [ˈsplɪtɪŋ] **1.** *v* yormoq, maydalamoq, parchalamoq; **2.** *a* 1) qattiq, o'tkir, kuchli, quloqni teshadigan, chinqiroq; 2) boshni aylantiradigan, gangitadigan.
- splodge** [splɔdʒ] = **splootch**.
- splutter** [ˈsplʌtə] *n* noaniq gapirish.
- spoil** [spɔɪl] *v* buzmoq, aynitmoq, yomonlashtirmoq.
- spoiled** [ˈspɔɪld] *a* buzilgan, ishdan chiqqan.
- spoils** [ˈspɔɪlz] *n* qo'lga kiritilgan narsa.
- spoke I** [spəʊk] *v* (*g'ildirakda*) kegay.
- spoke II** [spəʊk] *past.* **speak dan.**
- spoken** [ˈspəʊkən] *a* og'zaki; ~ **language** og'zaki nutq.
- spokesman** [ˈspəʊksmən] *n* 1) vakil; 2) nutq so'zlovchi, ma'ruzachi.
- sponge** [spʌndʒ] *n* gubka (*mochalka yoki qozon sochiq vazifasida ishlatiladigan buyum*).
- sponger** [ˈspʌndʒə] *n* tekinox'r, haromtovoq.
- sponsor** [ˈspɒnsə] *n* 1) homiy; 2) kafil, kafil bo'lgan kishi; ~**ship** homiylik, kafillik.
- spontaneity** [ˌspɒntəˈni:əti] *n* o'z-o'zidan sodir bo'lish, beixtiyor yuz berish; g'ayriixtiyoriylik.
- spontaneous** [spɒnˈteɪniəs] *a* o'z-o'zidan sodir bo'ladigan, beixtiyor yuz beradigan, g'ayriixtiyoriy, beixtiyor.
- spook** [spu:k] *n* xayoliy sharpa, ko'lanka, arvoh; xayolda ko'rinish.
- spooky** [spu:ki] *a* dahshatli, vahimali, qo'rqinchli, mudhish, dahshatga (vahimaga) soladigan.
- spool** [spu:l] **1.** *n* g'altak, kalava; **2.** *v* kalava qilmoq, (g'altakka) o'rab qo'yimoq.
- spoon** [spu:n] **1.** *n* qoshiq; **2.** *v* qoshiqni botirib olmoq.
- spoonful** [ˈspu:nfʊl] *n* bir qoshiq to'la narsa.
- spoony** [spu:ni] *a* so'zl. 1) aqli noqis, miyasi yo'q, esi past, kaltafahm; 2) sevib (oshiq bo'lib) qolgan.
- spoor** [spuə] **1.** *n* iz; **2.** *v* izma-iz bormoq.
- sporadic** [spəˈrædɪk] *a* onda-sonda (ahyon-ahyon) bo'ladigan, tasodifiy.
- spore** [spɔ:] *n* *biol.* spora (*gulsiz o'simliklarning va ba'zi bir xujayrali jonivorlarning urchish organi*).
- sport** [spɔ:t] *n* sport; sport o'yinlari.
- sporting** [ˈspɔ:tɪŋ] *a* sportga oid; ovga oid.
- sportsman** [ˈspɔ:tsmən] *n* sportchi.
- sportsmanlike** [ˈspɔ:tsmənlaɪk] *a* sportchilarga xos bo'lgan.
- sportswoman** [ˈspɔ:ts,wʊmən] *n* sportchi ayol.
- spot** [spɒt] **1.** *n* 1) dog'; 2) qashqa; 3) isnod; 4) joy, nuqta; **2.** *v* 1) dog' qilmoq; 2) isnod keltirmoq, nomini bulg'amoq, obro'sini to'kmoq.
- spotless** [ˈspɒtləs] *a* toza, beg'ubor.
- spotlight** [ˈspɒtlaɪt] **1.** *n* 1) *teatr.* yoritish projektori; 2) siljiydigan fara; **2.** *v* yoritmoq.
- spotty** [ˈspɒti] *a* 1) xol-xol, olachipor; 2) biroz husnbuzar chiqqan, biroz bo'jama toshgan; 3) bir xil bo'lmagan, turli-tuman.
- spouse** [spaus] *n* 1) er, rafiq, kuyov; 2) *pl* er-xotin, kelin-kuyov.
- spout** [spaut] *n* jo'mrak, tumshuq, burun; bo'g'iz, og'iz.
- sprain** [spreɪn] **1.** *n* paylarning shikastlanishi; **2.** *v* payni cho'zib yubormoq.

sprang [spræŋ] *v* sakramoq, irg'imoq, sapchimoq; **to take a ~ sakramoq.**
sprat [spræt] *n* kilka (*seldlar oilasiga mansub mayda baliq*).
sprawl [sprɔ:l] *n* beso'naqay (qo'pol) harakat.
sprawling [sprɔ:liŋ] *v* cho'zmoq, cho'zib kengaytirmoq, katta qilmoq; uzaymoq, cho'zilmog.
spray I [sprei] *n* novda, shox, butoq.
spray II [sprei] *n* (*sachragan, changday to'zib yurgan*) suv zarralari.
spread I [spred] *v* (**spread**) avj oldirmoq, tarqatmoq, yoymoq, cho'zmoq.
spread II [spred] *n* tarqatish, yoyish.
spreadsheet [ˈspredʃi:t] *n* katta formatli jadval.
spread [sprɪ:] *n* quvnoq kayfiyat, quvnoqlik, xushchaqchaliq.
sprig [sprɪg] *n* shox, novda.
sprightly [spratli] *a* ruhi ko'tarilgan, kayfi chog', hayajonli, bezovta.
spring I [sprɪŋ] *n* bahor.
spring II [sprɪŋ] **1.** *n* 1) sakrash, irg'ish; 2) boshlanish; **2.** *v* (**sprang, sprung**) 1) sakramoq, irg'imoq; 2) boshlanmoq.
spring-board [sprɪŋbɔ:d] *n* 1) trampolin (sakrashda balandroq ko'tarilishga yordam beradigan moslama); 2) *harb.* harbiy operatsiyaga tayyorgarlik ko'riladigan maydon.
sprinkle [sprɪŋkl] *v* sochmoq, sachratmoq, purkamoq, sepmoq.
sprinkler [sprɪŋklə] *n* sochqich, sochuvchi apparat.
sprint [sprɪnt] **1.** *n* *sport.* yaqin masofalarga yugurish, suzish sporti; **2.** *v* yaqin masofaga yugurmoq, suzmoq.
sprite [sprɪt] *n* sehrlab qo'yadigan (maftun qiladigan) go'zal ayol; pari (*G'arbiy Yevropa mifologiyasida*).
sprout [spraut] *n* novda, nihol, kurtak; ~s maysa.
spruce I [spru:s] *a* olifta, bashang, fason; oliftanamo.
spruce II [spru:s] *n* qoraqarag'ay.
sprung I [sprɪŋ] *a* yorilgan, darz ketgan (*raketa haqida*).
sprung II [sprɪŋ] *p. p.* **spring II, 2. dan.**
spry [sprɪ] *n* tirik, jonli.
spud [spʌd] *n* 1) ketmonga o'xshagan asbob; 2) *so'zl.* kartoshka donasi; bir dona kartoshka.
spume [spju:m] **1.** *n* ko'pik; **2.** *v* ko'pirtirmoq, ko'piklantirmoq.
spun [spʌn] *v* yigirmoq, eshmoq, pishitmoq, ko'piklantirmoq.
spunk [spʌŋk] *n* 1) *so'zl.* olov, alanga; 2) mardlik, jasurlik; 3) pilik, qovuq (*chaqmoq uchqunidan tutab, o't oladigan paxta kabi narsalar*).
spur [spɜ:] *n* shpora (*oilqlar etigining poshnasiga taqiladigan temir tepki*).

spurious [ˈspjuərəs] *a* soxta, qalbaki, yasama, yolg'ondakam.
spurn [spɜ:n] *v* oyoq bilan itarib yubormoq, turtib yubormoq.
spurt [spɜ:t] *n* ingichka suyuqlik *yoki* gaz oqimi; jildiragan (tizillagan) oqim.
sputter [ˈspʌtə] *n* 1) shovqin-suron, shov-shuv, qiy-chuv; 2) vishillash, pishillash, vijillash, vijvij.
spy [spai] **1.** *n* josus; maxfiy ayg'oqchi; **2.** *v* ayg'oqchilik qilmoq, josuslik qilmoq.
spyglass [ˈspɑ:glɑ:s] *n* kuzatish trubasi (uzun durbin).
squabble [ˈskwɒbl] *n* o'zaro aytishib qolish, dahanaki jang qilish, bir-birini so'kish, so'kishish.
squad [skwɒd] **1.** *n* 1) *harb.* guruh, to'da; 2) ishchilar brigadasi.
squadron [ˈskwɒdrən] *n* *harb.* eskadron (*otliqaskarlar bo'linmasi*).
squalid [ˈskwɒlɪd] *a* iflos, bulg'anch; qarovsiz (qolgan), tashlandiq.
squall I [skwɒ:l] *n* baqiriq, qichqiriq, chinqiriq, faryod, dod-voy.
squall II [skwɒ:l] *n* 1) qattiq (shiddatli) shamol, bo'ron; 2) *so'zl.* to'lqinlanish, mavj urish, to'lqin.
squalor [skwɒlə] *n* 1) kir, chang-chung, xas-cho'p; 2) qashshoqlik, kambag'allik.
squander [ˈskwɒndə] *v* sovrurmoq, isrof qilmoq, o'rinsiz sarf qilmoq, behuda ketkizmoq.
square I [skwɛə] *n* 1) kvadrat; 2) to'g'riburchak.
square II [skwɛə] *a* 1) kvadrat shaklidagi; 2) to'g'riburchakli.
square-built [ˈskwɛəˈbɪlt] *a* keng yelkali, yelkasi keng.
squash I [skwɒʃ] *v* ezmoq, ezib yubormoq, pachiq qilmoq.
squash II [skwɒʃ] *n* *bot.* qovoq, oshqovoq (*o'simlik va mevasi*).
squat [skwɒt] **1.** *n* 1) cho'kka tushib o'tirish; 2) in, uya.
squaw [skwɒ:] *n* indeyeslar (*Amerikaning qadimiy tub aholisi*).
squawk [skwɒ:k] *v* qattiq qichqirmoq, chinqirib baqirmoq, chinqirmoq (*parrandalar haqida*).
squeak [skwi:k] *n* 1) chiyillash, chirqillash; chiyilagan (chirqiragan) ovoz; 2) g'ijirlagan tovush, g'ichir-g'ichir.
squeal [skwi:l] *n* 1) chiyillash, chinqillash; chiyilagan ovoz, chinqiriq; 2) chaqimchi, zimdan xabar (gap) tashuvchi.
squeamish [ˈskwi:mɪʃ] *a* ko'ngil aynishga duchor bo'lgan.
squeeze [skwi:z] **1.** *n* siqish, qisish; **2.** *v* siqmoq, qismoq; **to ~ smb's hand** kimningdir qo'lini siqmoq.
squelch [skwɛltʃ] *v* shalop-shulup qilmoq, pilchillamoq; **to ~ through the mud** loyda pilchillatib yurmoq.

- squib** [skwɪb] *n* 1) mushakbozlikning hazilnoma bir turi; 2) epigramma (*qisqacha hajviy she'r*).
- squiggle** ['skwɪgəl] *n* aji-buji narsa, kirdi-chiqdi belgi; shikast xat; chizma-chiziq.
- squint** [skwɪnt] *n* g'ilyalik.
- squint-eyed** [skwɪnt 'aɪd] *a* g'ilyay; ko'zi qisiq.
- squire** ['skwɪə] *n* zamindor, katta yer egasi.
- squirm** [skwə:m] *v* buralib-buralib ketmoq; to'lg'anmoq.
- squirrel** ['skwɪrəl] *n* olmaxon.
- squirt** [skwə:t] *n* 1) ingichka suyuqlik yoki gaz oqimi; 2) shpris (*badanga dori yuboradigan asbob*).
- stab** [stæb] **1.** *n* 1) zarba berish (*uchi o'tkir qurul bilan*); 2) to'satdan paydo bo'lgan qattiq og'riq; **2.** *v* 1) sanchmoq, tiqmoq.
- stability** [stə'biləti] *n* turg'unlik, chidamlilik, bardoshlilik, barqarorlik.
- stabilization** [stə'bɪləɪz 'zeɪʃn] *n* mustahkamlash, barqaror (mustahkam) qilish.
- stabilize** [stə'bɪləɪz] *v* mustahkam (barqaror) qilmoq, mustahkamlamoq; barqaror vaziyat barpo etmoq.
- stabilizer** ['stə'bɪləɪzə] *n* av. stabilizator (*stabilashtiruvchi – bir xil ishlashni ta'minlovchi qurilmalar, moslamalar, vositalar nomi*).
- stable I** ['steɪbl] *a* mustahkam, chidamli, bardoshli, pishiq.
- stable II** ['steɪbl] *n* otxona, og'il, molxona.
- stabling** ['steɪblɪŋ] *n* iflos joy, otxona; og'ilxona.
- stack** [stæk] **1.** *n* g'aram, to'p; **2.** *v* g'aramlamoq, to'plamoq.
- stacked** [stækt] *a* to'plangan, g'aramlangan, bir joyga to'plab qo'yilgan.
- stadium** ['steɪdɪəm] *n* stadion, sport maydoni, o'yingoh.
- staff** [stɑ:f] *n* xodim, ishchi xodim; ~ **room** xodimlar (ishchilar) xonasi.
- stag** [stæg] *n* 1) erkak bug'u; 2) ho'kiz.
- stage** [steɪdʒ] **1.** *n* sahna; **2.** *v* sahnalashtirmoq; ~ **manager** rejissor.
- stager** ['steɪdʒə] *n* : **an old** ~ tajribali, ko'pni ko'rgan odam.
- stagger** ['stægə] *n* qimirlash, liqillash, silkinish.
- stagnant** ['stægnənt] *a* 1) oqmaydigan; ko'lmak suv; 2) qotib qolgan; nodon; orqada qolgan; 3) faoliyatsiz, sust, harakatsiz.
- stagnate** [stæg 'neɪt] *v* 1) turib qolmoq, turib qolib buzilmoq, aynimoq (*suv haqida*); 2) qotib qolmoq, faoliyatini to'xtatmoq.
- stagnation** [stæg 'neɪʃn] *n* 1) turg'unlik, yurishmay qolish, zavol; 2) chirish, chiryoblash.
- stag night** ['stæg,naɪt] = **stag-party**.
- stag-party** ['stæg,pɑ:ti] *n* bo'ydoqlar kechasi (oqshomi, o'tirishi).
- staid** [steɪd] *a* og'ir, vazmin, fe'li yaxshi; ijobiy.
- stain** [steɪn] **1.** *n* 1) dog'; 2) isnod, bo'yoq; **2.** *v* 1) bulg'amoq; 2) isnod keltirmoq; 3) bo'yamoq.
- stair** [steə] *n* 1) zinapoya, pog'ona; 2) narvon, shoti; zina, pillapoya.
- staircase** ['steəkeɪs] *n* 1) zina, pillapoya; 2) zina xonasi (*katta binolarda*).
- stake** [steɪk] *n* 1) qoziq; 2) stolba, ustun.
- stale** [steɪl] *a* 1) eskirgan, buzilgan, aynigan; ~ **bread** qotgan non; 2) dim, dam, bo'g'iq, nafas qaytaradigan, og'ir; ~ **air** nafasni qaytaradigan og'ir havo.
- stalemate** ['steɪlmeɪt] *n* ilojtsiz, mushkul ahvol.
- stalk I** [stɔ:k] *n* 1) dasta, band, sop; **cabbage** ~ karam o'zagi; 2) *bot.* tana, oyoq, poya.
- stalk II** [stɔ:k] *n* siydik, peshob (*hayvonlarda*).
- stalking-horse** ['stɔ:kɪŋhɔ:s] *n* bahona, vaj.
- stall** [stɔ:l] *n* 1) otxonadagi (og'il yoki molxonadagi) har bir alohida bo'lma, katak; 2) do'kon, do'koncha.
- stallion** ['stæljən] *n* ayg'ir, ayg'ir ot.
- stalwart** ['stɔ:lwɔ:t] *n* 1) sodiq izdosh; 2) sog'lig'i mustahkam bo'lgan kishi.
- stamen** ['steɪmən] *n* *bot.* changchi, otalik (*o'simlik gulida*).
- stamina** ['stæmɪnə] *n* chidamlilik, bardoshlilik, toqatlilik; sabr, bardosh.
- stammer** ['stæmə] **1.** *n* duduqlanish, soqovlanish; **2.** *v* duduqlanmoq, soqovlanmoq.
- stamp** [stæmp] **1.** *n* 1) tamg'a; muhr; 2) shtamp; 3) marka; **2.** *v* 1) bosmoq (*shtamp, muhr*); 2) marka yopishtirmoq.
- stamp-duty** ['stæmp,dju:tɪ] *n* davlat yig'imi, marka solig'i.
- stamped** [stæmpt] *a* 1) marka yopishtirilgan; 2) muhrlangan.
- stampede** [stæm'pi:d] *n* sarosimaga tushib qochish (chekinish).
- stance** [stæns] *n* ijtimoiy sharoit, ahvol.
- stanch I** [stɑ:nt] *v* qonni (qon ketishini) to'xtatmoq.
- stanch II** [stɑ:nt] *a* sodiq, ishonchli, chin, vafodor, vafoli.
- stanchion** ['stɑ:nʃən] *n* tirgak, poya, ustun, ustuncha.
- stand** [stænd] **1.** *n* asos; mavqe, o'rin; nuqtayi nazar; **2.** *v* (**stood**) turmoq, tik (tikka) turmoq.
- standard** ['stændəd] *n* 1) qolip, andaza; 2) qat'iy belgilangan o'lcham, me'yor.
- standard-bearer** ['stændəd,bɛərə] *n* 1) bayroqdor, tug'dor; 2) boshliq, sardor, rahnamo.
- standardization** [stændədaɪ 'zeɪʃn] *n* standartlash, bir standartga solish (keltirish), bir standartda tayyorlash.
- standardize** ['stændədəɪz] *v* standartlamoq, bir standartga solmoq (keltirmoq), bir standartda tayyorlamoq.
- stand-by** ['stændbaɪ] *n* ishonchli (mustahkam) tayanch.
- standing** ['stændɪŋ] **1.** *pres. p.* **stand** **2.** *dan*; **2.** *n* davom etish (cho'zilish) muddati, uzunlik, uzoqlik.

standpoint [ˈstændpɔɪnt] *n* fikr, qarash, nuqtayi nazar.

standstill [ˈstændstɪl] *n* toʻxtalish, harakatsizlik, faoliyatsizlik, bekor turish.

stand-up [ˈstændʌp] *a* tik turadigan, oʻzi turadigan, tik; ~ **collar** tik (turadigan) yoqa.

stank [stæŋk] *v* sasimoq, sassiq hid chiqarmoq; sasitmoq.

staple I [ˈsteɪpl] *n* band, halqa, tutqich, dasta (*cheklak, sandiq va h.k. da*).

staple II [ˈsteɪpl] *n* xom mol, xom ashyo.

star [stɑː] *n* 1) yulduz; 2) *koʻchm.* yulduz (*dongʻi ketgan eng mashhur artist, oʻyinchi va b.*).

starboard [ˈstɑːbɔːd] *n* deng. oʻng bort (*kemada*).

starch [stɑːtʃ] *n* 1) kraxmal, ohor, nishasta; 2) oʻtaketgan rasmiyatparastlik, rasm-rusumlarga qattiq rioya qilishlik; 3) *amer. soʻzl.* tezlik, ildamlik, chaqqonlik.

stare [steə] **I.** *n* tikilib qarash, diqqat bilan qarash; **2.** *v* tikilib qaramoq, diqqat bilan qaramoq.

stark [stɑːk] *a* 1) muzlab qotib qolgan; 2) toʻliq, toʻla, butunlay, mutlaqo; ~ **nonsense** gʻirt bemaʼnilik.

starling I [ˈstɑːlɪŋ] *n* chugʻurchiq.

starling II [ˈstɑːlɪŋ] *n* 1) suv keskich (*kemaning tumshugʻi*); 2) muzkesar kema.

starry [ˈstɑːrɪ] *a* 1) yulduzga oid: yulduzli; 2) yorugʻ, yorqin, charaqlagan.

start [stɑːt] *n* 1) joʻnatish, yuborish; 2) boshi, avvali; **2.** *v* 1) joʻnatmoq, yubormoq; 2) boshlamoq.

starter [ˈstɑːtə] *n* *sport.* start beruvchi kishi.

startle [ˈstɑːtl] *n* qoʻrqish, choʻchish, hurkish; qoʻrquv, vahima.

starvation [stɑːˈveɪʃn] *n* 1) ochlik, och qolish; 2) ochlikdan oʻlish.

starve [stɑːv] *v* ochlikdan oʻlmoq, och qolmoq.

starveling [stɑːˈvɪŋ] *n* holdan toygan, ozib ketgan, behol, bemajol.

state I [stet] **I.** *n* holat, ahvol; vaziyat; **2.** *v* tasdiqlamoq, bildirmoq, bayon etmoq.

state II [stet] *n* davlat, shtat.

statement [ˈstetmənt] *n* 1) tasdiqlash, bayonot; 2) rasmiy hisobot.

state-room [ˈstetru:m] *n* 1) asosiy zal; 2) bezatilgan zal; 3) alohida boʻlma.

statesman [ˈsteɪtsmən] *n* davlat arbobi.

static(al) [ˈstætɪk(əl)] *a* statistikaga oid; statik; muvozanat (turgʻun) holatidagi, koʻchmaydigan.

station [ˈsteɪʃn] *n* 1) stansiya; 2) vokzal.

stationary [ˈsteɪʃnəri] *a* 1) koʻchmas; 2) doimiy, oʻzgarmas; ~ **temperature** oʻzgarmas ob-havo.

stationer [ˈsteɪʃnə] *n* kanselariya buyumlarini sotuvchi kishi.

stationery [ˈsteɪʃnəri] *n* 1) kanselariya buyumlari; 2) pochta qogʻozi.

station-master [ˈsteɪʃn,mɑːstə] *n* *tem.y.* stansiya boshligʻi.

station-wagon [ˈsteɪʃn,wæɡən] *n* (*orqadagi borti va oʻrindiqlari qaytarib, koʻtarib qoʻyiladigan*) bir nechta oʻrindiqdan iborat boʻlgan yengil avtomobil.

statist [ˈstetɪst] = **statistician**.

statistic(al) [stəˈtɪstɪk(əl)] *a* statistikaga oid.

statistician [ˌstætɪˈstɪʃn] *n* statistik (*statistika boʻyicha mutaxassis*).

statistics [stəˈtɪstɪks] *n* 1) statistika, hisobot; 2) *pl* statistik maʼlumotlar.

statuary [ˈstætʃuəri] *n* haykaltaroshlik.

statue [ˈstætʃuː] *n* haykal.

statuesque [ˌstætʃuˈesk] *a* sovib qotgan, qotib qolgan.

statuette [ˌstætʃuˈet] *n* haykalcha.

stature [ˈstætʃə] *n* qad-qomat, gavda.

status [ˈsteɪtəs] *n* *yur.* status, huquqiy holat (*belgili haq-huquq*).

statute [ˈstætʃuːt] *n* nizom, tartibot; qonun.

statutory [ˈstætʃutəri] *a* rasmiy, rasmiylashgan, qaror topgan, belgilangan (*qonun asosida*).

staunch I [stɔːntʃ] *a* sodiq, ishonchli, chin, vafodor, vafoli.

staunch II [stɔːntʃ] *v* qon ketishini toʻxtatmoq.

stave [steɪv] *n* 1) bochka taxta; 2) tirab qoʻyiladigan narvonning xarisi.

stay [steɪ] **I.** *n* qolish, turish, boʻlish; **2.** *v* qolmoq, ushlanib qolmoq, turmoq; **to** ~ **at the lyceum** litseyda qolmoq.

stead [sted] *n* 1) joy, oʻrin; **in** ~ **of smb.** kimningdir oʻrniga 2) foyda, naf; 3) yer-mulk.

steadfast [ˈstedfɑːst] *a* mahkam, mustahkam, puxta, qattiq, chidamli, pishiq.

steady [ˈstedi] *a* ogʻishmaydigan, qatʼiy, qattiq, mustahkam, baquvvat.

steak [steɪk] *n* 1) baliq *yoki* goʻshtning boʻlagi (*qovurish uchun*); 2) bifshteks.

steal [sti:l] *v* (**stole**; **stolen**) oʻgʻirlamoq, oʻgʻirlilik qilmoq.

stealth [stelθ] *n*: **by** ~ yashirincha, bekinib, sezdirmasdan, bildirmasdan.

stealthily [ˈstelθɪli] *adv* bekinib, yashirincha, zimdan, sekin.

stealthy [ˈstelθɪ] *a* yashirin, maxfiy.

steam [sti:m] *n* bugʻ, bugʻlanish.

steamboat [ˈsti:m,bəʊt] *n* paroxod.

steam-engine [ˈsti:m,ɛndʒɪn] *n* bugʻ dvigateli.

steamer [ˈsti:mə] *n* (*bugʻ dvigateli bilan harakatga keladigan*) kema, paroxod.

steamship [ˈsti:mʃɪp] *n* paroxod (*bugʻ dvigateli oʻrnatilgan kema*).

steed [sti:d] *n* *sheʼr.* ot.

steel [sti:l] *n* poʻlat.

steel-clad [ˈsti:klæd] *a* bronli, zirhli, zirh bilan qoplangan.

steelwork [ˈsti:lwɜːk] *n* *pl* poʻlat quyish zavodi.

steely [ˈsti:lɪ] *a* poʻlatdan qilingan.

steelyard [ˈsti:ljɑːd] *n* qoʻl tarozi.

- steep I** [sti:p] *a* 1) tik, tikka tushgan, tikka ko'tarilgan; 2) *so'zl.* haddan tashqari, ortiq darajadagi, o'ta; 3) mumkin bo'lmagan, ehtimoldan uzoq.
- steep II** [sti:p] *v* botirmoq, cho'ktirmoq.
- steep** [sti:pl] *n* gumbaz, minora, tom kabilarning nayzasimon ishlangan usti, uchi.
- steepchase** [sti:plʃeis] *n* to'siqlar osha yugurish.
- steepjack** [sti:pldʒæk] *n* yuqorida (baland joylarga chiqib) ishlovchi kishi, mutaxassis.
- steer I** [stɪə] **1.** *v* rulni boshqarmoq; **2.** *n amer. so'zl.* shama, ishora, luqma.
- steer II** [stɪə] *n* axtalangan buqacha (novvos).
- steerage** [stɪərɪdʒ] *n* rulni boshqarish.
- steering** [ˈstɪərɪŋ] *n* 1) boshqarish, idora qilish; 2) boshqaruvchi mexanizm.
- steering committee** [ˈstɪərɪŋkə,mɪtɪ] *n* reglamentni (ish tartibini) ishlab chiqaruvchi komissiya, boshqaruv organi.
- steersman** [stɪəzmən] *n* 1) rulga oid; 2) rulda turuvchi, rulni boshqaruvchi.
- stellar** [ˈstɛlə] *a* yulduzga oid; yulduz...
- stem** [stem] *n* 1) tana; poya; 2) qabila; urug'; 3) *gram.* o'zak, negiz; 3) sop, dasta, tutqich.
- stench** [stentʃ] *n* sassiq (qo'lansa, badbo'y) hid, badbo'ylik.
- stenographer** [steˈnɒgrəfə] *n* stenografist, stenografist ayol.
- stenography** [steˈnɒgrəfi] *n* stenografiya (*tekstni shartli belgilar bilan tez yozib olish*).
- stentorian** [stenˈtɔ:riən] *a* momaqaldiroq singari, juda qattiq, juda qattiq ovoz.
- step** [step] **1.** *n* 1) qadam; 2) harakat; **2. v** 1) odimlamoq; 2) qadam qo'yimoq, qadam tashlamoq, yurmoq.
- stepbrother** [ˈstep,bɾədə] *n* o'gay aka, o'gay uka.
- stepdaughter** [ˈstep,dɔ:tə] *n* o'gay qiz.
- stepfather** [ˈstep,fɑ:də] *n* o'gay ota.
- stepmother** [ˈstep,mʌðə] *n* o'gay ona.
- steppe** [step] *n* cho'l, dasht.
- stepping-stone** [ˈstepɪŋstəʊn] *n* ariqdan o'tib ketish uchun uning o'rtasiga tashlangan tosh.
- stepsister** [ˈstep,sɪstə] *n* o'gay opa, o'gay singil.
- stepson** [ˈstep,sʌn] *n* o'gay o'g'il.
- stereo** [stɪərɪəʊ] *n so'zl.* 1) stereoskop (*ikkita yassi tasvirni bir-biriga qo'shib bo'rttirib ko'rsatadigan optik asbob*); 2) bosma qolip.
- stereotype** [ˈsterɪətaɪp] *n* 1) bosma qolip; 2) bir qolipdalik, bir xildalik, bir taxlitdalik.
- sterile** [ˈstɛraɪl] *a* samarasiz, foydasiz, bekor, hududa, natijasiz.
- sterility** [steˈrɪlɪtɪ] *n* 1) naslsiz, tug'maslik; 2) unumsizlik, hosilsizlik.
- sterilization** [ˌsterələɪˈzeɪʃn] *n* sterilizatsiya qilish, mikroblardan tozalash.
- sterling** [ˈstɜ:lɪŋ] *n* funt sterling (*Angliya pul birligi*).
- stern I** [stɜ:n] *a* talabchan, qattiq talab qiladigan, qattiqqo'l.
- stern II** [stɜ:n] *n deng.* quyruq qism, quyruq, dum, orqa.
- stethoscope** [ˈstetəskəʊp] *n tib.* stetoskop (*yurak urishini va o'pkani eshitib ko'radigan asbob*).
- stevedore** [ˈsti:vədə:] *n* portda yuk ortuvchi va tushiruvchi ishchi.
- stew I** [stju:] *n* dimlab pishirilgan go'sht.
- stew II** [stju:] *n (pl)* fohishaxona.
- steward** [ˈstju:əd] *n* 1) stuard (*samolyot va kemalarda: ofitsiant*); 2) boshqaruvchi (*katta xo'jalikni*).
- stewardess** [ˌstju:ədˈdes] *n* stuardessa.
- stew-pan** [ˈstju:pæn] *n* yonlari tik tova.
- stick** [stɪk] **1.** *v (stuck)* 1) sanchmoq, suqmoq, tiqmoq; 2) yopishtirmoq, yelimlamoq; **2. n** ta-yoq, hassa, kaltak.
- sticker** [ˈstɪkə] *n* tikan, tikanak.
- stickler** [ˈstɪklə] *n* ashaddiy ishqivoz (muxlis, ixlosmand).
- sticky** [ˈstɪki] *a* yopishqoq, yopishadigan, yelimshak.
- stiff** [stɪf] *n* bukilmaydigan, egilmaydigan, qotib qolgan, qattiq; **-en** qotmoq.
- stiffen** [ˈstɪfn] *v* egilmaydigan qilmoq, qotirmoq.
- stiffly** [ˈstɪflɪ] *adv* mahkam siqib, zichlab.
- stiff-necked** [ˌstɪfˈnekt] *a* o'jar, qaysar.
- stiffness** [ˈstɪfnəs] *n* 1) qattqlik; 2) quruqlik, quriganlik.
- stifle** [ˈstaɪfl] *v* bo'g'moq, bo'g'ib o'ldirmoq.
- stifling** [ˈstaɪflɪŋ] *a* kishining ruhiy holati (ichki kayfiyat) bilan bog'langan, ruhiy, ma'naviy; samimiy.
- stigma** [ˈstɪgmə] *n (pl -s [-z], -ta)* 1) *tar.* kuydirib bosilgan tamg'a (*jinoyatchida*); 2) dog', isnod; 3) *bot.* tumshuqcha, og'izcha.
- stigmatize** [ˈstɪgmətaɪz] *v* tamg'alamoq, tamg'a bosmoq.
- stile** [staɪl] *n* panjara *yoki* devor orqali otish uchun qilingan zinapoya (pog'ona).
- still** [stɪl] **1.** *adv* haligacha, hali ham, hanuzgacha; **is your teacher ~ at the lyceum?** o'qituvchingiz hali ham litseydami? **2.** *a* harakatsiz, shovqinsiz, tinch, sokin; **3.** *v* tinchitmoq, tinchlantirmoq, yupatmoq.
- still-born** [ˈstɪlbɔ:n] *a* o'lik tug'ilgan.
- stillness** [ˈstɪlnəs] *n* 1) jimlik, jimjitlik, sukunat; 2) tinchlik, osoyishtalik.
- stilt** [stɪlt] *n* yog'och oyoq.
- stilted** [ˈstɪltɪd] *a* soxta, yasama, sun'iy, g'ayri-tabiiy.
- stimulant** [ˈstɪmjələnt] *n* 1) badanni uyg'otuvchi dori-darmon; 2) spirtli ichimlik; 3) stimul (*rag'batlantiruvchi omil, qiziqtiradigan narsa, qo'zg'atuvchi sabab*).
- stimulate** [ˈstɪmjuleɪt] *v* rag'batlantirmoq; taqdir-lamoq.
- stimulating** [ˈstɪmjuleɪtɪŋ] *n* rag'batlantirish, qiziqtirish.

- stimulation** [ˌstɪmjʊˈleɪʃn] *n* 1) qo'zg'atish, kuchaytirish; 2) rag'batlantirish.
- stimulus** [ˌstɪmjʊləs] *n* (*pl -li*) 1) rag'batlantiruvchi omil. qiziqiradigan narsa; 2) ta'sir qiluvchi. qo'z-g'ovchi, keltirib chiqaruvchi.
- sting** [stɪŋ] **1.** *n* tishlash, chaqish (*hasharotlar haqida*); **2.** *v* chaqmoq, tishlamoq (*hasharotlar haqida*).
- stingy** [ˈstɪndʒɪ] *a* xasis, baxil, ziqna.
- stink** [stɪŋk] **1.** *n* hid; ~ly hidli; **2.** *a* sassiq, badbo'y; **3.** *v* sasimoq.
- stint** [stɪnt] *n* 1) cheklash, chek qo'yish; chek, chegara; 2) belgilangan (tayinlangan) ish.
- stipend** [ˈstɪpend] *n* stipendiya.
- stipulate** [ˈstɪpjuleɪt] *v* shart qo'ymoq.
- stipulation** [ˌstɪpjʊˈleɪʃn] *n* 1) shart qo'yish; 2) shart, talab, istak.
- stir I** [stəː] *n* 1) harakat qilish, qimirlash, qo'z-g'ash, qo'zg'atish; 2) aralashtirish.
- stir II** [stəː] *v* 1) aralashtirmoq; 2) harakat qilmoq, qimirlamoq, qo'zg'amoq.
- stirrup** [ˈstɪrəp] *n* 1) uzangi; 2) *tex.* ilgak, ilmoq.
- stitch** [stɪtʃ] *n* 1) chokning (qoviqning) bir yo'li; 2) *tib.* chok, tikilgan joy; **to put ~es into a wound** yarani tikmoq, choklamoq.
- stoat** [stəʊt] *n* oqsichqon (oqsuvsar) va uning terisi, mo'ynasi.
- stock I** [stɒk] *n* 1) poya; 2) nav, nasl.
- stock II** [stɒk] *v* ta'minlamoq, yetkazib bermoq; ~-breeder chorvador.
- stockbroker** [ˈstɒk,broʊkə] *n* birja dalloli.
- stockholder** [ˈstɒk,həʊldə] *n* aksiya egasi, aksiyali jamiyat egasi, aksiyador, aksiyachi.
- stockinet** [ˌstɒkɪˈnet] *n* 1) trikotaj (*mashinada to'qilgan yumshoq mato*); 2) paypoq to'qish.
- stocking** [ˈstɒkɪŋ] *n* paypoq.
- stockist** [ˈstɒkɪst] *n* (*ma'lum narsalarni*) donalab sotadigan sotuvchi.
- stock-market** [ˈstɒk,mɑːkɪt] *n* fond birjasi.
- stockpile** [ˈstɒkpaɪl] **1.** *n* 1) ehtiyot qism; 2) zaxira, qo'r-qut; **2.** *v* to'plamoq, g'amlab qo'ymoq.
- stock-still** [ˌstɒkˈstɪl] *adv* qo'zg'almay, qimirlamay, harakat qilmasdan, qotib.
- stock-taking** [ˈstɒk,tetkɪŋ] *n* tovarlarni qayta hisoblash.
- stocky** [ˈstɒkɪ] *a* pakana, past bo'yli.
- stodgy** [ˈstɒdʒɪ] *a* kishini zeriktiradigan, suhbatidan kishi zerikadigan.
- stoic** [ˈstəʊɪk] **1.** *n* matonatli (bardoshli) odam; **2.** *a* matonatli, bardoshli.
- stoically** [ˈstəʊɪkəlɪ] *adv* matonat (mardlik, mardonalik, sabot) bilan.
- stoke** [stəʊk] *v* (*o'txonaga, o'choqqa*) kanda qilmay o'tin solib turmoq.
- stokehold** [ˈstəʊkhəʊld] *n* *deng.* kohegarka, go'lax.
- stokehole** [ˈstəʊkhəʊl] = **stokehold**.
- stoker** [ˈstəʊkə] *n* kohegar, o'qotar.
- stole I** [stəʊl] *n* palantin (*xotin-qizlar yelkaga tashlab yuradigan mo'yna yoki duxoba sharf*).
- stole II** [stəʊl] *past. steal dan.*
- stolen** [ˈstəʊlən] *v* o'g'irlamoq, o'g'irlab olmoq.
- stolid** [ˈstəʊlɪd] *a* pinagini buzmaydigan, tepsan-tebranmaydigan, sovuqqon, loqayd, beg'am.
- stolidity** [stəˈlɪdətɪ] *n* sovuqqonlik, loqaydlik, beg'amlik.
- stomach** [ˈstʌmək] *n* 1) qorin; 2) oshqozon.
- stomach-ache** [ˈstʌməkətʃk] *n* qorin (oshqozon) og'rig'i.
- stomp** [stɒmp] *v* top-top (*yoki gurs-gurs*) qadam tashlab yurmoq.
- stone** [stəʊn] *n* 1) tosh; 2) tarozi toshi.
- stone-blind** [ˌstəʊnˈblaɪnd] *a* butunlay (tamoman) ko'r.
- stoned** [stəʊnd] *a* danagi olib tashlangan.
- stone-mason** [ˈstəʊn,metsn] *n* g'isht teruvchi (quruvchi) usta.
- stoneware** [ˈstəʊnweə] *n* 1) kulolchilik buyumlari; 2) sopol idish.
- stony** [ˈstəʊni] *a* toshloq, sertosh, toshli.
- stony-broke** [ˌstəʊniˈbrəʊk] *a* butunlay xarob bo'lgan.
- stood** [stud] *past. stand dan.*
- stool** [stʊ:l] *n* 1) kursi; 2) sandal.
- stool-pigeon** [ˈstʊːlɪpɪdʒən] *n* 1) kaptar, kabutar; 2) xabarchi, xabar beruvchi, darakchi.
- stoop** [stʊ:p] *n* 1) bukchayganlik, egilganlik; yelkasi chiqqanlik; 2) shafqat, ko'ngilchanlik.
- stop** [stɒp] **1.** *n* to'xtash, to'xtatish; to'xtatish joyi; bekat; **full** ~ nuqta; **2.** *v* to'xtamoq, to'xtatmoq.
- stoppage** [ˈstɒpɪdʒ] *n* ishni to'xtatish, ish tashlash.
- stopper** [ˈstɒpə] *n* 1) tiqin probka, po'kak; 2) *deng.* stopor (*ma'lum vaziyatda to'xtatish, siljimaydigan qilib o'rnatish uchun xizmat qiladigan moslama*).
- stopping** [ˈstɒpɪŋ] **1.** *pres. p. stop 2. dan.* **2.** *n* 1) to'xtash, to'xtalish; dam (tin) olish; to'xtash joyi, bekat; 2) tish plombasi.
- stop-watch** [ˈstɒpwɒtʃ] *n* sekundomer.
- storage** [ˈstɔːrɪdʒ] *n* 1) saqlash; 2) ombor, omborxonona, narsalar saqlanadigan joy.
- store** [stɔː] **1.** *v* omborda saqlamoq, g'amlamoq; **2.** *n* 1) g'amlab qo'yilgan narsalar, zaxira; 2) do'kon.
- storehouse** [ˈstɔːhaus] *n* ombor, omborxonona.
- storekeeper** [ˈstɔːkiːpə] *n* do'kondor, attor; 2) omborchi.
- store-room** [ˈstɔːrʊm] *n* ombor, omborxonona.
- storey** [ˈstɔːrɪ] *n* qavat; **to add a ~ to a house** ustiga qurib binoni yana ko'tarmoq.
- stork** [stɔːk] *n* laylak.
- storm I** [stɔːm] *n* bo'ron, dovul.
- storm II** [stɔːm] *v* mavj urmoq; ~y bo'ronli, dovulli, kuchli.
- stormbound** [ˈstɔːmbaʊnd] *a* po'rtana (kuchli dengiz to'lqini) bilan ushlanib (sekinlanib, to'xtab, kechikib) qolgan.

- stormy** [ˈstɔːmi] *a* boʻronli, dovulli; boʻron aralash.
- story** [ˈstɔːri] *n* 1) hikoya, qissa, ertak, rivoyat; 2) hodisa, voqea.
- story-teller** [ˈstɔːri,telə] *n* hikoyachi, hikoya qiluvchi; ertak aytib beruvchi.
- stout** [staut] *a* 1) mustahkam; 2) semiz, toʻla.
- stove** [stəʊv] *n* pechkā, plita.
- stow** [stəʊ] *v* taxlamoq, joylamoq, taxlab (terib, joylab) qoʻymoq.
- stowage** [ˈstəʊdʒ] *n* joylash, oʻrash, saranjomlash.
- stowaway** [ˈstəʊəweɪ] *n* biletsiz passajir (*paroxod, samolyotda*).
- straddle** [ˈstrædl] *n* 1) katta qoʻyilgan qadam; 2) katta (yirik) qadam.
- straggle** [ˈstrægl] *a* 1) tartibsiz, hurpaygan, paxmaygan, toʻzigan; 2) yirtilgan, titilgan, juldur.
- straight** [streɪt] **1.** *a* 1) toʻgʻri; 2) toʻppa-toʻgʻri; **2.** *adv* darrov; tezlik bilan; **3.** *v* toʻgʻrilamoq.
- straighten** [ˈstreɪtn] *v* tuzatmoq, toʻgʻrilamoq, yaxshilamoq, toʻgʻri yoʻlga solmoq, tartibga keltirmoq.
- straightforward** [ɪstreɪtˈfɔːwəd] *a* 1) toʻppa-toʻgʻri (toʻxtamay), bevosita; 2) halol, pok, vijdonli, toʻgʻri, sofdil.
- straightway** [ˈstreɪtweɪ] *adv* darhol, darrov, bir onda, tez, tezda.
- strain I** [streɪn] *v* tortmoq, choʻzmoq, tarang qilmoq; choʻzib (tortib) kiydirmoq.
- strain II** [streɪn] *n* zot, nasl, tur (*hayvonlar va oʻsimliklar haqida*).
- strained** [streɪnd] **1.** *v* tortmoq, choʻzmoq, tarang qilmoq; **2.** *a* 1) sunʻiy, yasama, samimiy emas; 2) buzilgan, buzuq, notoʻgʻri.
- strait** [streɪt] *n* (*pl*) 1) boʻgʻoz; 2) *geogr.* boʻyin.
- strait jacket** [ˈstreɪt,dʒækt] *n* tiydirish koʻylagi (*jinnilarga jazavasi tutganda kiydiriladigan, qimirlashga yoʻl qoʻymadigan maxsus koʻylak*).
- strand I** [strænd] *n* qirgʻoq, sohil.
- strand II** [strænd] *n* mushkul (tang) ahvolga tushib qolmoq.
- stranded** [ˈstrændɪd] *a* qirgʻoqqa chiqarib (irgʻitib) tashlangan.
- strange** [streɪndʒ] *a* 1) ajib; gʻalati, qiziq; 2) begona, notanish.
- stranger** [ˈstreɪndʒə] *n* yot, begona kishi.
- strangle** [ˈstræŋgl] *v* boʻgʻib oʻldirmoq.
- strangulation** [ˌstræŋɡjuˈleɪʃn] *n* 1) *tib.* birdan nafasi (dami) ichiga tushib ketish, boʻgʻilish.
- strap** [stræp] **1.** *n* kamar, tasma, qayish; **2.** *v* 1) qayish bilan bogʻlamoq; 2) tasma bilan urmoq.
- strata** [ˈstrɑːtə] *pl* **stratum** *dan*.
- strategic(al)** [strəˈtiːdʒɪk(əl)] *a* strategiyaga oid; strategiya nuqtayi nazaridan ahamiyatli.
- strategies** [strəˈtiːdʒɪks] *n pl* strategiya (*urush olib borish toʻgʻrisidagi fan; urush olib borish sanʻati*).
- strategist** [ˈstrætədʒɪst] *n* strateg (*strategiyani yaxshi bilgan mohir lashkarboshi*).
- strategy** [ˈstrætədʒɪ] *n* strategiya (*urush olib borish toʻgʻrisidagi fan; urush olib borish sanʻati*).
- stratosphere** [ˈstrætəsfɪə] *n* stratosfera (*atmosfera-ning troposferadan 8–16 kilometr yuqori joylashgan qatlami*).
- stratum** [ˈstrɑːtəm] *n* (*pl -ta*) qatlam, qavat.
- straw** [strɔː] *n* poxol, somon, xashak.
- strawberry** [ˈstrɔːbəri] *n* 1) qulupnay; 2) yertut, yer tuti; **wild** ~ oʻrmon yer tuti.
- stray** [streɪ] **1.** *a* adashib qolgan, adashgan; **2.** *v* yoʻldan adashmoq, yoʻlni yoʻqotmoq.
- streak** [stri:k] *n* 1) yoʻl-yoʻl chiziq, taram-taram yoʻl; 2) xususiyat, fazilat, xosiyat, xislat; sifat (*feʻl-atvor*).
- streaked** [stri:kt] *a* yoʻl-yoʻl chizikli, taram-taram yoʻlli; **marble** ~ **with red** taram-taram qizil yoʻlli marmar.
- streaky** [ˈstri:kɪ] *a* yoʻl-yoʻl, ola-bula, olabayroq.
- stream** [stri:m] **1.** *n* 1) oqim; oqar suv; 2) ariq, soy; **2.** *v* 1) oqib bormoq; 2) tomchilamoq; 3) tommoq.
- streamer** [ˈstri:mə:] *n* 1) vimpel (*harbiy kemalarda: uzun, kamar bayroqcha, taniqlik belgisi*); 2) shior, lavha.
- streamlet** [ˈstri:mlɪt] *n* kichkina soy, jilgʻa, ariq.
- streamline** [ˈstri:mlaɪn] *n* (*havo oqimlarining*) yoʻnalishi, tomoni, borayotgan (ketayotgan) tomoni.
- streamlined** [ˈstri:mlaɪnd] *a* 1) yaxshi yoʻlga qoʻyilgan; 2) zamonaviylashtirilgan.
- street** [stri:t] **1.** *n* koʻcha; **2.** *attr.* koʻchaga oid; koʻchada boʻladigan; ~ **fighting** koʻcha janglari.
- strength** [streŋθ] *n* kuch, quvvat.
- strengthen** [ˈstreŋθn] *v* kuchaytirmoq, mustahkamlamoq.
- strenuous** [ˈstrenjuəs] *a* kuchli, quvvatli, baquvvat; zabardast.
- stress** [stres] **1.** *n* 1) urgʻu; 2) taʻkidlash; **2.** *v* 1) urgʻu qoʻymoq; 2) taʻkidlamoq.
- stressful** [ˈstresfl] *a* qattiq hayajon (ruhiy zarba) oqibatidagi.
- stretch** [stretʃ] **1.** *n* choʻzish, uzaytirish, kengaytirish; **2.** *v* tortmoq, uzaytirmoq, kengaytirmoq.
- stretcher** [ˈstretʃə] *n* 1) zambil; 2) qolip (*po-yabzaldoʻzlikda*).
- strew** [stru:] *v* sochmoq, yoymoq, yoyib qoʻymoq, sochib tashlamoq.
- strewn** [stru:n] *p. p.* **strew** *dan*.
- stricken** [ˈstri:kən] *a* (*nimadandir*) hayratda (lol, qoyil) qolgan.
- strict** [strikt] *a* 1) qatʻiy, qattiq, jiddiy; 2) qattiq-qoʻl, talabchan.
- stricture** [ˈstriktʃə] *v* (*pl*) qattiq tanqid; ayblash.
- strictly** [ˈstriktli] *adv* qatʻiyat (qattiqqoʻllik, talabchanlik) bilan.

stridden [ˈstrɪdn] *p. p. stride 2. dan.*
stride [straɪd] **1. n** 1) katta qadam; 2) qo'yilgan oyoqlar orasidagi masofa; **2. v** (**strode; stridden**) (katta) qadam tashlamoq.
strident [ˈstraɪdnt] *a* qattiq, kuchli, shiddatli, zo'r.
strife [straɪf] *n* kurash, bahs, g'avg'o, nizo, tortishuv, munozara.
strike I [straɪk] **1. n** ish tashlash; **2. v** ish tashlamoq.
strike II [straɪk] *v* (**struck; struck; stricken**) 1) urmoq; 2) hayron qoldirmoq.
strike-breaker [ˈstraɪk,breɪkə] *n* ish tashlash vaqtida ish tashlamay ish tashlovchilarga xiyonat qiluvchi shaxs.
striker [ˈskraɪkə] *n* ish tashlovchi.
striking [ˈstraɪkɪŋ] *a* hayratda qoldiradigan, ajoyib, juda yaxshi.
string [strɪŋ] **1. n** 1) tor; 2) arqon; ip; **2. v** bog'lamoq.
stringed [ˈstrɪŋd] *a mus.* torga oid, torli, tor; torli musiqa asboblari.
stringency [ˈstrɪndʒənsɪ] *n 1) talabchanlik, qattiqqo'llik; 2) ishonchlilik, ishonarlilik, ishontiradigan.
stringent [ˈstrɪndʒənt] *a* talabchan, qattiq talab qiladigan, qattiqqo'l.
stringy [ˈstrɪŋɪ] *a* 1) tolali, sertola; 2) cho'ziluvchan, cho'ziladigan, cho'zilish qobiliyatiga ega.
strip [strɪp] *n* 1) uzun va tor bo'lak; 2) tasma, lenta.
stripe [straɪp] *n* yo'l-yo'l chiziq; hoshiya, jiyak.
striped [ˈstraɪpt] *a* yo'l-yo'l, ola-bula.
stripling [ˈstrɪplɪŋ] *n* yosh yigit, o'spirin, yigitcha.
strive [straɪv] *v* (**strove; striven**) 1) intilmoq, harakat qilmoq; 2) da'vo qilmoq.
striven [ˈstrɪvɪn] *p. p. strive dan.*
striving [ˈstraɪvɪŋ] *n* intilish, harakat qilish.
strode [strəʊd] *past. stride 2. dan.*
stroke [strəʊk] *n* 1) urish, turtish; zarb, zarba; 2) *nib.* shol, falaj.
stroll [strəʊl] **1. n** sayr, tomosha; **2. v** 1) aylanib yurmoq; 2) sayr qilmoq; 3) eshikma eshik sanqib yurmoq.
strong [strɒŋ] *a* kuchli, qudratli, baquvvat, mustahkam; ~-**man** polvon.
stronghold [ˈstrɒŋhəʊld] *n* tayanch, suyanchiq, homiy, muhofazachi.
strongly [ˈstrɒŋli] *adv* 1) kuch (zarb, shiddat) bilan; 2) qat'iyat (dadillik, jasurlik) bilan.
strop [ˈstrɒp] *a* o'jar, qaysar, injiq.
strove [strəʊv] *past. strive dan.*
struck [strʌk] *v* urmoq, tushirmoq, mushtlamoq.
structure [ˈstrʌktʃə] *n* 1) tuzilish; 2) bino, imorat, qurilish.
struggle [ˈstrʌɡl] **1. v** kurashmoq; **2. n** kurash; jang.
strum [strʌm] **1. n** jaranglash, ding'illash, ting'illash, tiringlash, diringlash; **2. v** jaranglamoq, ding'illamoq, tingillamoq, tiringlamoq, diringlamoq.
strung [strʌŋ] **1. past., p.p. string 2. dan;** **2. a** asabiylashgan, hayajonga tushgan; diqqati osh-*

gan, asabi taranglashgan; **a highly ~ person** asabiylashgan kishi.
strut I [strʌt] **1. n** savlat to'kib qadam tashlash (yurish); **2. v** savlat to'kib qadam tashlamoq (yurmoq).
strut II [strʌt] **1. n** *qur.* kashak, tirgovuch, tirgak; **2. v** tiramoq, tirab qo'ymoq, tirgak qo'ymoq.
stub [stʌb] *n* to'nka, kunda.
stubble [ˈstʌbl] *n* ang'iz (*ekin o'rib olingan yer*).
stubborn [ˈstʌbən] *a* o'jar, qaysar, gapga kirmaydigan, ko'nmaydigan, unamaydigan.
stucco [ˈstʌkəʊ] **1. n** suvash, suvab qo'yish, suvab chiqish; **2. v** suvamoq, suvoq qilmoq.
stuck [stʌk] *v* tiqmoq, sanchmoq, qadamoq, suqmoq.
stuck-up [ˈstʌkʌp] *a* takabbur, manman, kibrhavosi baland, kalondimog', dimog'dor, kekaygan.
stud I [stʌd] **1. n** 1) katta qalpoqli mix; 2) *tex.* shtift (*metall o'zakcha*); 3) knopka (*bosma mix, tugmacha mix*); **2. v** qoqmoq, qoqib tushirmoq.
stud II [stʌd] **1. n** ot zavodi (*ot zotini yaxshilash va zotli otlar yetishtirish bilan shug'ullanadigan korxon*); 2) otxona.
stud-book [ˈstʌdbʊk] *n* otlarning zoti yozilgan kitob.
student [ˈstju:dnt] *n* talaba.
studied [ˈstʌɪdɪd] *a* puxta o'ylangan, yaxshilab o'ylab ko'rilgan, o'qigan.
studio [ˈstju:diəʊ] *n* (*pl -os [-əuz]*) 1) studiya (*rasom yoki haykaltaroshning ishxonasi*); 2) radiostudiya (*radio eshittirish uchun maxsus jihozlangan bino*).
studious [ˈstju:diəs] *a* 1) ilm bilan band bo'lgan; 2) tirishqoq, g'ayratchan, serharakat, serhafsula, quntli.
studiously [ˈstju:diəsli] *adv* tirishib, qunt bilan, hafsula (ishtiyoq) bilan.
study [ˈstʌdi] **1. n** 1) o'rganish, o'qish; 2) kabinet, darsxona; **2. v** 1) o'rganmoq; 2) o'qimoq.
stuff [stʌf] *n* material, gazlama, gazmol, mato, to'qima.
stuffing [ˈstʌfɪŋ] *n* tiqma, to'ldirilgan (tiqilgan) narsa (*vostiq va b.*).
stuffy [ˈstʌfi] *a* dim, bo'g'i.
stultify [ˈstʌltɪfaɪ] *v* birovni kulgili qilib ko'rsatmoq.
stumble [ˈstʌmbl] *v* qoqilmoq, chalinmoq.
stumbling-block [ˈstʌmblɪŋblɔk] *n* qiyin (qiynaydigan, xalaqit beradigan) masala; qiyinchilik, to'sqinlik, xalaqit.
stump [stʌmp] *n* 1) to'nka, kunda; 2) g'o'la, g'o'lacha, kesik; 3) chekib tashlangan papiros; 4) qalam qoldig'i, kalta-kulta qalam.
stun [stʌn] *v* kar (garang) qilmoq, quloqni bitirmoq.
stung [stʌŋ] *v* nayzasini sanchmoq; sanchilib kirmoq (*o'i, tikan haqida*).

- stunk** [stʌŋk] *v* sasimoq, sassiq (qo'lansa, bad-bo'y) hid chiqarmoq.
- stunner** [stʌnə] *n so'zl.* 1) kishini hayron qoldiradigan nusxa (namuna); 2) yoqimli kishi; 3) ajoyib (kishini mahliyo qiladigan) manzara.
- stunning** [stʌnɪŋ] **1.** *v* kar (garang) qilmoq, quloqni bitirmoq; **2.** *a* hayratda qoldiradigan, dovdiratib qo'yadigan: hayratomuz.
- stunt I** [stʌnt] **1.** *n* o'sishdan to'xtash; **2.** *v* o'sishdan to'xtamoq.
- stunt II** [stʌnt] **1.** *n* muvaffaqiyatli (chiqish) ishtirok etish (*sport musobaqalarida*); **2.** *v* jasorat ko'rsatmoq.
- stunted** [stʌntɪd] *a* past bo'yli, pastak, bo'yi past, pakana.
- stupefaction** [stju:pɪ'fækʃn] *n* dong qotib qolish; murdadek (haykaldek) qotish, murda bo'lib qolish.
- stupefy** ['stju:pɪfaɪ] *v* hayron (qoyil) qoldirmoq, mahliyo qilib qo'ymoq.
- stupendous** [stju'pendəs] *a* ulkan ahamiyatli.
- stupid** ['stju:pɪd] *a* anqov, esi past; aqlsiz, ahmoq, tentak.
- stupidity** [stju'pɪdɪtɪ] *n* ahmoqlik, tentaklik, aqlsizlik.
- stupor** ['stju:pə] *n* dong qotib qolish; haykaldek qotish.
- sturdiness** [stə:dnəs] *n* qattqlik, mahkamlik, mustahkamlik, pishiqlik, puxtalik, chidamlilik.
- sturdy** ['stə:di] *a* mahkam, mustahkam, qattiq, pishiq, puxta; chidamli; **a ~ child** baquvvat odam.
- surgeon** ['stə:dʒən] *n* osyotr, bikri, bakra, bakrabaliq.
- stutter** [stʌtə] **1.** *n* duduqlik, soqovlik; **2.** *v* duduqlanmoq, duduqlanib gapirmoq.
- sty I** [stai] *n* cho'chqaxona.
- sty II** [stai] *n tib.* govnichcha.
- style** [stail] *n* 1) uslub; 2) moda, rasm, fason.
- stylish** ['stailɪʃ] *a* biror uslubda ishlangan, biror uslubdagi.
- stylistic** [stai'lɪstɪk] *a* stilistik, uslubiy.
- stylish** ['stailəs] *n* grammafon (ignasi) ninasi.
- stymie, stymy** [staimɪ] *v* qiyin (mushkul) ahvolda solib qo'ymoq.
- suave** [swɑ:v] *a* boadab, odobli, odobli; nazokatli.
- suavity** ['swɑ:vəti] *n* xushmuomalalik, muloyimlik, sertakallumlik.
- sub-** [sʌb-] *pref.* biror narsaning ikkinchi narsa ostida ekanligini bildiradi: **subway** 1) yerosti yoki tog' ostidan o'tkazilgan yo'l; 2) *amer.* metro.
- subaltern** ['sʌbltən] *n* 1) *harb.* kichik zobit; 2) bo'ysunadigan, tobe, qaram, qarashli.
- subcommittee** [sʌbkə,mɪtri] *n* kichik (yordamchi) komissiya.
- subconscious** [sʌb'kɒnʃəs] *a* anglab yetmay turib sodir bo'ladigan, ongsiz, beixtiyor, g'ayriixtiyoriy.
- subdivide** [sʌbdɪ'vaɪd] *v* bo'lmoq, ajratmoq; (*qism-larga*) bo'linmoq, ajratilmoq.
- subdivision** ['sʌbdɪ,vɪʒn] *n* bo'lish, qismlarga ajratish; bo'linish.
- subdue** [səb'dju:] *v* zabt etmoq, ishg'ol qilmoq.
- subheading** [sʌb'hedɪŋ] *n* ikkinchi sarlavha, qo'shimcha (kichik) sarlavha.
- subject I** ['sʌbdʒəkt] *a* qaram, qo'l ostidagi, qarashli.
- subject II** [sʌbdʒəkt] *n* 1) predmet, fan; 2) masala, mavzu; 3) *gram.* ega.
- subject III** [səb'dʒekt] *v* duchor qilmoq, bo'ysundirmoq.
- subjective** [səb'dʒektɪv] *a* subyektiv; kimsaning (shaxsning) o'zigagina xos (bog'liq) bo'lgan, shaxsiy.
- subject-matter** ['sʌbdʒɪkt,mætə] *n* 1) mazmun, ma'no, mohiyat (*kitob, maqola, suhbat va b.*); 2) (*muhokama qilinadigan*) mavzu, hodisa, voqea, narsa; o'rganish ob'yekti.
- subjoin** [sʌb'dʒɔɪn] *v* qo'shmoq, qo'shib qo'ymoq, qo'shimcha qilmoq, yana qo'shmoq.
- subjugate** ['sʌbdʒugət] *v* zabt qilmoq, bosib olmoq, o'ziga bo'ysundirmoq.
- subjugation** [sʌbdʒu'geɪʃn] *n* zabt etish, bo'ysundirish; bo'ysunish.
- subjugator** ['sʌbdʒugətə] *n* zabt etuvchi, bosib oluvchi; istilochi.
- subjunctive** [səb'dʒʌŋktɪv] *n gram.* istak mayli, istak fe'l.
- sublimate** ['sʌblɪmət] *n kim.* haydash (*qattiq jismini bevosita bug'ga aylantirish*); **crossive** ~ sulema (*zaharli oq kukun, simob xlorid*).
- sublime** [sə'blaɪm] *a* ulug'vor, hashamatli, dabdabali, mustahkam.
- submarine** ['sʌbməri:n] **1.** *n* 1) suv osti kemasi; 2) suvosti o'simligi; **2.** *a* suv ostida bo'ladigan, suv ostidagi.
- submerge** [səb'mə:dʒ] *v* cho'ktirmoq, botirmoq, g'arq qilmoq.
- submerged** [səb'mə:dʒd] **1.** *p. p.* **submerge dan;** **2.** *a* cho'ktirilgan, botirilgan, g'arq qilingan.
- submission** [səb'mɪʃn] *n* 1) taqdim etish, (*hujjatlar va h.k.ni*) berish; 2) bo'ysundirish; bo'ysunish.
- submissive** [səb'mɪsɪv] *a* gapga kiradigan, rozi bo'ladigan, yon beradigan, ko'nadigan, ko'ngilchan.
- submit** [səb'mɪt] *v* 1) ko'rish uchun taqdim qilmoq (*ariza va boshqa*); 2) bo'ysundirmoq; bo'ysunmoq.
- subnormal** [sʌb'nɔ:ml] **1.** *a* me'yordan past; **2.** *n mat.* podnormal.
- subordinate** **1.** *v* [sə'bɔ:dnert] bo'ysundirmoq, qaratmoq; **2.** *n* [sə'bɔ:dnɪt] tobe, qaram.
- subordination** [sə,bɔ:di'neɪʃn] *n* bo'ysundirish; bo'ysunish.
- suborn** [sə'bɔ:n] *v* pora berib sotib olmoq, o'z tomoniga og'dirmoq.

sun-bath [ˈsʌnbɑ:θ] *n* quyosh vannasi.
sun-beam [ˈsʌnbi:m] *n* quyosh nuri.
sun-blind [ˈsʌnblaɪnd] *n* chodir, soyabon.
sunburn [ˈsʌnbʊ:n] *n* oftobda qorayish; badanning oftobda qoraygan rangi.
sundae [ˈsʌndei] *n* (*qaymoqli, mevali*) yongʻoqli muzqaymoq.
Sunday [ˈsʌndɪ] *n* yakshanba.
sundew [ˈsʌndju:] *n bot.* rosanka (*botqoqlikda oʻsadigan hasharotxoʻr oʻsimlik*).
sun-dial [ˈsʌndaɪəl] *n* quyosh soati.
sundown [ˈsʌndaʊn] *n* botish, quyoshning botishi.
sundries [ˈsʌndrɪz] *n pl* har xil narsalar, istalgan narsalar, olamdagi bor narsalar.
sundry [ˈsʌndrɪ] *a* har xil, turli, bir-biridan farq qiladigan. boshqa-boshqa.
sunflower [ˈsʌnflaʊə] *n* kungaboqar.
sung [sʌŋ] *v* ashula (qoʻshiq) aytmq, kuylamoq.
sunk [sʌŋk] *v* pasaymoq, pasayib (tushib) bormoq; pasaytirmoq.
sunken [ˈsʌŋkən] *a* 1) choʻkib ketgan, gʻarq boʻlgan; 2) choʻkik, ichiga kirib ketgan; botiq, choʻkkan; ~ **cheeks** ichiga kirib ketgan yuz.
sunlight [ˈsʌnlɑɪt] *n* quyosh yorugʻligi.
sunlit [ˈsʌnlɪt] *a* quyosh bilan yoritilgan.
sunny [ˈsʌnɪ] *a* quyoshga (quyosh nuriga) oid; quyosh nuridan (energiyasidan) foydalanishga asoslangan.
sun-pot [ˈsʌnpɒt] *n* 1) *astr.* quyoshdagi dogʻ; 2) sepki.
sunrise [ˈsʌnraɪz] *n* quyosh (kun, oftob) chiqishi.
sunset [ˈsʌnsɛt] *n* quyosh (kun, oftob) botishi.
sunshade [ˈsʌnʃeɪd] *n* soyabon (*quyoshdan saqlanish uchun*), chodir.
sunshine [ˈsʌnʃaɪn] *n* quyosh yorugʻligi.
sunstroke [ˈsʌnstrəʊk] *n* issiqlik taʼsirida odamning isib ketib, kasal holatda boʻlishi, oftob urish.
sup [sʌp] *n* yutum, qultum; hoʻplash: yutinish.
super [ˈsju:pə] *a* juda yaxshi, aʼlo darajadagi.
super- [ˈsu:pə-] *pref.* biror narsaning ustiga qoʻyilib (qoʻshilib) orttirilishini bildiradi.
superannuate [ˈsju:pər ˈænjuət] *v* 1) qariganligi *yoki* ishga yaroqsiz boʻlganligi tufayli nafaqaga chiqmoq; 2) eskirmoq, isteʼmoldan chiqmoq.
superannuated [ˈsju:pər ˈænjuətid] *a* juda yuqori, kekkaygan, munkillab qolgan.
superannuation [ˈsju:pərænju ˈeɪʃn] *n* 1) qarilik tufayli isteʼfoga chiqarish; 2) qariyalarga beriladigan nafaqa.
superb [su ˈpə:b] *a* dabdabali, serhasham, ajoyib.
supercilious [ˈsu:pə ˈsɪltəs] *a* takabbur, manman, kalondimogʻ, kekkaygan.
superficial [ˈsu:pə ˈfɪʃl] *a* yuza, yuzasi, sirtqi, ustki.
superficiality [ˈsu:pə ˈfɪʃ ˈælətɪ] *n* yuzakilik, sayozlik; yengil-yelpilik.
superfine [ˈsu:pə ˈfaɪn] *a* 1) juda yupqa (ingichka); 2) yuqori navli.

superfluity [ˈsu:pə ˈfluətɪ] *n* moʻllik, koʻplik, seroblik.
superfluous [sju ˈpə:fluəs] *a* ortiqcha, ehtiyojidan ortiq, haddan tashqari.
superhuman [ˈsu:pə ˈhju:mən] *a* odamning qoʻlidan kelmaydigan, aql bovar qilmaydigan, ajoyib, mislsiz.
superimpose [ˈsu:pərɪm ˈpəʊz] *v* (bir-birining) ustiga qoʻymoq.
superintend [ˈsu:pərɪn ˈtend] *v* boshqarmoq, yur-gizmoq; idora qilmoq.
superintendent [ˈsu:pərɪn ˈtendənt] *n* (*biror xoʻjalik, muassasa va sh.k.larni*) boshqaruvchi.
superior I [su ˈprɪəri] *a* oliy, yuqori, eng yaxshi.
superior II [su ˈprɪəri] *n* katta, boshliq.
superiority [su ˈprɪəri ˈɔrətɪ] *a* afzallik, ustunlik.
superlative [su ˈpə:lətɪv] **1.** *a* eng yuqori, eng yuksak; **2.** *gram.* orttirma daraja.
superman [ˈsu:pəmən] *n* oʻta qudratli odam.
supermarket [ˈsu:pə ˈmɑ:kɪt] *n* supermarket, universam (*turli xil oziq-ovqat va sanoat mollari boʻlgan, xaridorlar oʻziga xizmat qiladigan yirik magazin*).
supernatural [ˈsu:pə ˈnætʃrəl] *a* gʻayritabiiy, moʻjizaviy; ilohiy, favqulodda; mislsiz.
supernumerary [ˈsu:pə ˈnju:mərɪ] *n* 1) shtatda yoʻq ishchi; 2) vaqtinchalik oʻrinbosar.
supersede [ˈsu:pə ˈsi:d] *v* almashtirmoq, oʻzgartirmoq, boshqalamoq, yangilamoq, oʻrniga qoʻymoq.
supersonic [ˈsu:pə ˈsɒnɪk] *a* tovush tezligidan ham ortiq, tovushdan ham tez (uchadigan).
superstar [ˈsu:pəstɑ:] *n* eng taniqli yulduz.
superstition [ˈsu:pə ˈstɪʃn] *n* xurofot, bidʼat, irim-chirim.
superstitious [ˈsu:pə ˈstɪʃəs] *a* xurofotga berilgan, irim-chirimlarga ishonadigan.
superstructure [ˈsu:pəstrʌktʃə] *n* tayyor bino ustiga solingan ustki qavat.
supertax [ˈsu:pətæks] *n* qoʻshimcha foyda uchun toʻlanadigan soliq.
supervene [ˈsu:pə ˈvi:n] *v* yaqinlashmoq, boshlanmoq, boʻlmoq, kelmoq, kirmoq.
supervise [ˈsu:pəvaɪz] *v* kuzatmoq, nazorat qilmoq.
supervision [ˈsu:pə ˈvɪʒn] *n* kuzatish; nazorat, nazorat qilish, qarab turish.
supervisor [ˈsju:pəvaɪzə] *n* nazoratchi, nazorat qilib (qarab) turuvchi.
supine [ˈsu:pəɪn] *a* 1) chalqanchasiga yotgan; 2) faoliyatsiz, harakatsiz, gʻayratsiz, sust.
supper [ˈsʌpə] *n* kechki ovqat.
supplant [sə ˈplɑ:nt] *n* siqib chiqarmoq, surib chiqarmoq; chiqarib yubormoq.
supple [ˈsʌpl] *a* egiluvchan, bukiluvchan, qayishqoq; ~ **leather** yumshoq teri.
supplement [ˈsʌplɪmənt] **1.** *n* qoʻshimcha (ilova) qilib berilgan narsa; **2.** *v* toʻldirmoq, qoʻshmoq, ilova qilmoq.

- supplementary** [ˌsʌplɪ ˈmentəri] *a* qoʻshimcha.
- suppleness** [ˈsʌplnəs] *n* 1) egiluvchanlik, bukiluvchanlik, qayishqoqlik; 2) yumshoqlik, mayinlik.
- suppliant** [ˈsʌplɪənt] *a* yalinadigan, oʻtinuvchi, yalinib-yolvorib soʻraydigan, yalinuvchi.
- supplicate** [ˈsʌplɪkeɪt] *v* yolvormoq, oʻtinmoq, yalinmoq; iltijo qilmoq.
- supplication** [ˌsʌplɪ ˈkeɪʃn] *n* iltijo, oʻtinch, yolvorish; oʻtinib (yolvorib) soʻrash.
- supply** [sə ˈplai] **1.** *n* taʼminlash, yetkazib berish; **2.** *v* taʼminlamoq, yetkazib bermoq.
- support** [sə ˈpɔ:t] **1.** *n* qoʻllab-quvvatlash, madad, yordam; **2.** *v* qoʻllab-quvvatlamoq.
- supporter** [sə ˈpɔ:tə] *n* tarafdor, yoqlovchi, ergashuvchi; muxlis.
- supportive** [sə ˈpɔ:tv] *a* 1) madad (dalda) beruvchi, qoʻllab-quvvatlovchi, koʻmaklashuvchi, yordam beruvchi; 2) qonun-qoida chegarasidagi.
- suppose** [sə ˈpəuz] *v* 1) faraz qilmoq; 2) koʻzlammoq, chamalamoq.
- supposedly** [sə ˈpəuzɪdli] *adv* 1) koʻpchilikning fikriga koʻra; 2) taxminan, moʻljallab, chamalab.
- supposing** [sə ˈpəuzɪŋ] *conj.* agar, agarda, bordi-yu; modomiki; basharti, mabodo.
- supposition** [ˌsʌpə ˈzɪʃn] *n* faraz, taxmin, ehtimol.
- suppress** [sə ˈpres] *v* toʻxtatmoq, oldini olmoq, barham bermoq, yoʻq qilmoq.
- suppression** [sə ˈpreʃn] *n* kuch bilan bosish, bosib qoʻyish, bostirish.
- suppurate** [ˈsʌpjʊreɪt] *v* yiringlamoq, yiring (gazak) olmoq, fasod bogʻlamoq.
- suppuration** [ˌsʌpjʊ ˈreɪʃn] *n* yiringlash, yiring (fasod) bogʻlash, moddalash.
- supremacy** [su ˈpreməsi] *n* ustunlik; rahbarlik, boshchilik, tepada turish.
- supreme** [su ˈpri:m] **1.** *n* *harb.* bosh qoʻmondon; **2.** *a* eng yuqori, oliy.
- supremely** [su ˈpri:mli] *adv* favqulodda, haddan tashqari, juda ham, oʻta.
- surcharge** [ˈsɜ:tʃɑ:dʒ] *n* ortiqcha ortilgan yuk; ortiqcha yuklash.
- sure** [ʃɜ:, ʃuə] *a* 1) ishongan, ishonchli; 2) shubhasiz; albatta.
- surely** [ʃɜ:lɪ, ʃuəlɪ] *adv* albatta, turgan gap, shakshubhasiz, tabiiy.
- surf** [sɜ:f] *n* qirgʻoqqa uriladigan toʻlqin, qirgʻoq toʻlqini.
- surface** [ˈsɜ:fɪs] *n* yuza, ust.
- surfeit** [ˈsɜ:fɪt] *n* ortiqchalik, keragidan ortiq ishlatish, isteʼmol qilish.
- surge** [sɜ:dʒ] *n* toʻlqin, gʻalayon.
- surgeon** [ˈsɜ:dʒən] *n* jarroh.
- surgery** [ˈsɜ:dʒəri] *n* jarrohlik.
- surgical** [ˈsɜ:dʒɪkl] *a* xirurgiyaga (jarrohlikka) oid; jarrohlik.
- surly** [ˈsɜ:lɪ] *a* badqovoq, badjahl, jahli yomon, serjahl.
- surmise** [sə ˈmarɪz] *n* taxmin, faraz, gumon; shubha.
- surmount** [sə ˈmaunt] *v* bardosh bermoq; bardosh bilan yengmoq, yengib chiqmoq, ustun (gʻolib) kelmoq.
- surname** [ˈsɜ:nem] **1.** *n* 1) familiya; 2) laqab; **2.** *v* laqab qoʻymoq.
- surpass** [sə ˈpa:s] *v* ortiq (afzal) boʻlmoq, oshib (ortib) ketmoq, ustun (boʻlib) chiqmoq.
- surplus** [ˈsɜ:plʌs] *n* keragidan ortiq narsa, ortiqcha narsa.
- surprise** [sə ˈpraɪz] **1.** *n* 1) ajablanish; 2) hayratda qolish; **2.** *v* 1) hayratda qoldirmoq; 2) ajablantirmoq.
- surprised** [sə ˈpraɪzd] *a* ajablangan, hayron boʻlgan, hayratda qolgan.
- surprising** [sə ˈpraɪzɪŋ] **1.** *pres. p.* surprise **2. dan;** **2.** *a* kutilmagan, nogahoniy, tasodifiy.
- surrealism** [sə ˈriəlɪzəm] *n* tar. surrealizm (XX asr burjua adabiyoti va sanʼatidagi ijodda aql-idrok va tajriba rolini inkor qiladigan oʻta formalistik oqimlardan biri).
- surrender** [sə ˈrendə] **1.** *n* taslim boʻlish, tan berish; **2.** *v* taslim boʻlmoq, tan bermoq.
- surreptitious** [ˌsʌrəp ˈtɪʃəs] *a* yashirin, maxfiy; zimdan, bildirmasdan, sezdirmasdan.
- surrogate** [ˈsʌrəgət] *n* oʻrinni oluvchi (bosuvchi), oʻrinbosar.
- surround** [sə ˈraund] *v* atrofni oʻrab olmoq, oʻrab turmoq; **-ing** yaqin, qoʻshni, atrofdagi; **-ings** atrof, tevarak.
- surtax** [ˈsɜ:tæks] *n* qoʻshimcha daromad soligʻi.
- surveillance** [sə ˈveɪləns] *n* nazorat, nazorat qilish, qarab turish.
- survey** [ˈsɜ:veɪ] *n* 1) soʻrash, soʻroq qilish; 2) tekshirish; koʻrib chiqish, koʻzdan kechirish.
- survival** [sə ˈvaɪvl] *n* 1) tirik qolish; 2) qoldiq, sarqit.
- survive** [sə ˈvaɪv] *v* umr kechirmoq, boshdan kechirmoq, tirik qolmoq, qutulib qolmoq.
- susceptibility** [sə ˈseptə ˈbɪləti] *n* taʼsirlanuvchanlik, taʼsirchanlik.
- susceptible** [sə ˈseptəbl] *a* taʼsirlanuvchan, tez taʼsirlanuvchi.
- suspect** **1.** *n* [ˈsʌspekt] shubhali odam; **2.** *v* [sə ˈspekt] shubha qilmoq, shubhalanmoq.
- suspend** [sə ˈspend] *v* toʻxtatmoq, (vaqtincha) bas qilmoq.
- suspender** [sə ˈspendə] *v* ilmoq, osmoq; ilib (osib) qoʻymoq.
- suspenders** [sə ˈspendəz] *n pl amer.* (biror narsani yoki kimsani tortib, tutib turish uchun xizmat qiladigan) qayish, tasma.
- suspense** [sə ˈspens] *n* nomaʼlum, maʼlum (daragi) yoʻqlik; majhullik.
- suspension** [sə ˈspenʃn] *n* birmuncha vaqt toʻxtatish, toʻxtatib qoʻyish, toʻxtatib turish; biroq toʻxtash, toʻxtalish, toʻxtab turish.

tabes [ˈtæbi:z] *n* *tib.* sifilis (zaxm) tufayli orqa miyaning (*nerv sistemasining*) kasallanishi.

tabescence [təˈbesns] *n* *tib.* oriqlash, ozib ketish.

tabetic [təˈbetik] *a* *tib.* sifilis kasalligidan azob chekayotgan, sifilis kasaliga chalingan.

table [teɪbl] **1.** *n* 1) stol; 2) ovqat, ovqat tayyorlash joyi; 3) jadval; 4) roʻyxat; **upon the** ~ jamoat oldida hal qilinadigan; **2.** *v* 1) stolning ustiga qoʻymoq; 2) jadval tuzmoq.

tableau [ˈtæbləu] *n* *fr.* chiroyli manzara, chiroyli chizilgan rasm.

tableaux [ˈtæbləʊz] *pl* **tableau** *dan.*

table-beer [ˈteɪbl,bɪə] *n* oshxona pivosi (*spirtsiz pivo*).

table-book [ˈteɪblbʊk] *n* 1) rasmlar bilan bezatilgan yaxshi kitob; 2) jadvallar toʻplami.

table-cloth [ˈteɪblklɒθ] *n* dasturxon.

table-cover [ˈteɪbl,kʌvə] *n* chiroyli dasturxon.

table d'hôte [ˌtɑːbˈdɔːt] *n* tabl-dot (*Gʻarbiy Yevropada: umumiy ovqat stoli*).

table-flap [ˈteɪblflæp] *n* stolning qaytarma taxtasi.

tableful [ˈteɪblfʊl] *n* 1) narsalar bilan toʻldirilgan stol; 2) ziyofat ahli.

table-knife [ˈteɪblnaɪf] *n* roʻzgʻor pichogʻi, osh pichogʻi.

tableland [ˈteɪblænd] *n* *geogr.* yassi togʻlik, tepalik

table-leaf [ˈteɪbli:f] = **table-flap**.

table-lifting [ˈteɪbl,lɪftɪŋ] *n* spiritizm (*oʻlganlar ruhi narigi dunyoda yashaydigan va ular soʻzlashish mumkin deb ishonuvchi mistik oqim*).

table-linen [ˈteɪbl,lɪnm] *n* sochiq-dasturxon.

tableman [ˈteɪblmən] *n* tabelchi.

table-money [ˈteɪbl,məni] *n* *harb.* tirikchilik (roʻzgʻor) xarajatlari uchun sarflanadigan pul.

table-napkin [ˈteɪbl,næpkɪn] *n* qoʻl sochiq, salfetka.

table-spoon [ˈteɪblspuːn] *n* osh qoshiq.

table-stone [ˈteɪblstəʊn] *n* *arxeol.* tosh maqbaralar.

tablet [ˈtæblət] *n* 1) (*yozuvli*) kichkina, mayda taxta; 2) bloknot, daftarcha; 3) tabletk, tabletk dori.

table-talk [ˈteɪbltɔːk] *n* stol (*dasturxon*) atrofidagi suhbat.

table-tennis [ˈteɪbl,tɛnɪs] *n* stol tennisi.

table-ware [ˈteɪblwɛə] *n* turli idishlar, vilka, qoshiq va b.

table-water [ˈteɪbl,wɔːtə] *n* mineral suv (*stol uchun*).

table-work [ˈteɪblwɜːk] *n* jadvallar toʻplami.

tabloid [ˈtæblɔɪd] *n* 1) tuturiqsiz gazeta; 2) qisqartirilgan matnli kichkina hajmdagi gazeta.

taboo [təˈbuː] **1.** *a* man etilgan; **2.** *v* man etmoq, taqiqqlamoq.

tabor [ˈteɪbə] *n* *tar.* kichkina nogʻora.

tabouret [ˈtæbɔːrɪt] *n* kichkina, pastak kursi, kursesha.

tabu [təˈbuː] = **taboo**.

tabular [ˈtæbjulə] *a* jadval shaklidagi, jadvalga oid.

tabulate [ˈtæbjulət] **1.** *a* yassi, yapaloq, tekis; **2.** *v* jadvalga kiritmoq.

tabulation [ˌtæbjʊˈleɪʃn] *n* 1) jadval tuzish; 2) jadvaldagi maʼlumot.

tabulator [ˈtæbjulətɔː] *n* 1) jadval tuzuvchi; 2) tabulator (*hisoblash mashinasining bir turi*).

tachometer [tæˈkɒmɪtə] *n* *tex.* taxometr (*aylanish tezligini oʻlchaydigan asbob*).

tacit [ˈtæsɪt] *a* 1) soʻz bilan bayon etilmagan; 2) nazarda (koʻzda) tutilgan; 3) soʻzsiz, eʼtirozsiz; lom-mim demay qilingan.

taciturn [ˈtæsɪtə:n] *a* kamgap, indamas.

taciturnity [ˌtæsɪˈtə:nɪtɪ] *n* kamgaplik, indamaslik.

tack I [tæk] *n* 1) keng qalpoqli mix, knopka; 2) chokning (qaviqning) bir yoʻli (bitta baxyasi).

tack II [tæk] *n* *deng.* ovqat, oziq, taom; **soft** ~ non.

tackle I [ˈtækl] *n* asbob, buyum, jihoz.

tackle II [ˈtækl] *v* *amer.* 1) bogʻlamoq, bogʻlab qoʻymoq; 2) ushlab olmoq, tutib olmoq; 3) hal qilmoq; 4) ushlamoq, tutmoq (*futbolda koptokni*).

tacky [ˈtæki] *a* yopishqoq, yopishadigan.

tact [tækt] *n* odob, odoblilik, xushmuomalalik, nazokat.

tactful [ˈtæktfʊl] *a* odobli, xushmuomala, andishali, nazokatli.

tactical [ˈtæktɪkl] *a* 1) *harb.* taktikaga oid; 2) harbiy, jangovar; ~ **efficiency** jangga shaylik; 3) ephchil, chaqqon, abjir.

tactician [ˈtæktɪʃn] *n* taktik (*taktikani yaxshi biladigan odam*).

tactics [ˈtæktɪks] *n* *pl* (**sing** va **pl** bir *xilda ishlatiladi*) taktika (*1. harb. tayyorgarlik koʻrish va jang olib borish sanʼati; 2. koʻch. koʻzlangan maqsadga erishish uchun ishlatiladigan kurash usullari*).

tactile [ˈtæktəl] *a* 1) sezadigan, sezuvchi, sezish uchun xizmat qiladigan; 2) sezilarli darajadagi.

tactless [ˈtæktləs] *a* odobsiz, beandisha.

tad [tæd] *n* *amer.* goʻdak, farzand, bola.

Tadjik [ˈtɑːdʒɪk] **1.** *a* tojiklarga, Tojikistonga oid; **2.** *n* 1) tojik, tojik ayoli, tojik qiz; 2) tojik tili.

tadpole [ˈtædpəʊl] *n* itbaliq, qurbaqa bolasi.

taʼen [teɪn] *shoir.* **taken** *ga qarang.*

taffeta [ˈtæfɪtə] *n* tafta (*gazlama turi*).

tafia [ˈtæfɪə] *n* arzon romning bir turi (*kuchli spirtli ichimliklarning bir turi*).

tag I [tæg] **1.** *n* 1) yozuv, yorliq; 2) quloqcha, tutqich; 3) ilmoq, sirtmoq, halqa; **2.** *v* 1) biriktirmoq, mahkamlamoq; 2) qoʻshmoq, ilova qilmoq (*kitob, xat va b.*).

tag II [tæg] **1.** *n* quvlashmachoq (*bolalar oʻyini*); **2.** *v* orqasidan quvib borib urmoq yoki koptok otib tekkizmoq (*bolalar oʻyinlarida*).

tag day [ˈtægdeɪ] *n* *amer.* xayr-ehson (sadaqa, qurbonlik) qilish kuni.

tagged [tægd] *a* belgilangan, belgi solingan (*qoʻyilgan, tamgʻa bosilgan*).

tagger [ˈtægə] *n* *pl* bir taxta juda yupqa tunukalar.

taiga [ˈtaɪgə] *n* tayga (*Yevropa va Osiyo qitʼalari-ning shimolidagi gʻoyat zich toʻqayzor*).

tail I [teɪl] **1.** *n* 1) dum, orqa qism. quyruq; 2) navbat; 3) kuchsiz, zaif qism; 4) tanganing teskari tomoni; **2.** *v* 1) dum hosil qilmoq; 2) oxirini ulamoq; ~ **away** choʻzilib ketmoq, uzoqdan yoʻq boʻlmoq.

tail II [teɪl] *n* *yur.* merosga qoldirilgan buyumlarning cheklangan shartlari.

tail-board [ˈteɪlbɔ:d] *n* aravaning qaytarma (*koʻtarma*) orqasi.

tail-coat [ˈteɪlkəʊt] *n* frak (*oldingi etagi qisqa, orqa etagi uzun erkaklar kiyimi*).

tail-end [ˈteɪfend] *n* (*biror narsaning*) yakunlovchi qism (*oxiri*).

tailings [ˈteɪlɪŋz] *n pl* qoldiq, tashlandiq, chiqit, supurindi.

tail-lamp [ˈteɪllæmp] = **tail-light**.

tailless [ˈteɪlləs] *a* quyruqsiz, dum yuluq, dumsiz.

tail-light [ˈteɪllaɪt] *n* mashina orqasidagi fonus (*fonar*).

tailor [ˈteɪlə] **1.** *n* mashinachi, tikuvchi; **2.** *v* tikmoq.

tailed [ˈteɪləd] **1.** *p. p.* **tailor 2. dan;** **2.** *a* buyurtma asosida qilingan.

tailoring [ˈteɪləɪŋ] **1. pres. p. tailor 2. dan;** **2. n** 1) tikuvchilik ishi; 2) kiyim (*ustbosh*) tikish.

tailor-made [ˈteɪləˈmeɪd] *a* maxsus buyurtma asosida qilingan.

tailpiece [ˈteɪlpɪ:s] *n* oxirgi qism.

tail-slide [ˈteɪlslaɪd] *n av.* samolyotning orqa tomonga ogʻishi.

tail-spin [ˈteɪlspɪn] *n* 1) boshqarib boʻlmaydigan shtopor (*oliy pilotajda: samolyotning pastga qarab burilib shoʻngʻishi*); 2) iqtisodda inqirozga yuz tutish.

tail-wind [ˈteɪlwɪnd] *n* hamroh shamol.

tain [teɪn] *n* qalaydan qilingan amalgama (*amalgama – simobning biror metall bilan qotishmasi*).

taint I [teɪnt] *n* 1) dogʻ, isnod; 2) axloqi buzqlik, axloqsizlik, badaxloqlik.

taint II [teɪnt] *v* 1) yuqtirmoq; 2) buzilmoq; **meat ~s readily in hot weather** issiqda goʻsht tez buziladi.

tainted [ˈteɪntɪd] **1. p. p. taint II dan;** **2. a** buzluq, buzilgan.

taintless [ˈteɪntləs] *a* beayb, benuqson, bekamkoʻst.

Tajik [ˈtɑ:dʒɪk] = **Tadjik**.

take [teɪk] *v* (**took; taken**) 1) olmoq; 2) foydalanmoq; ~ **a bus** avtobusga chiqmoq; 3) ijaraga olmoq; 4) *kino.* kadrga olmoq; ~ **part in** qatnashmoq; ~ **a holiday** taʼtilga chiqmoq; ~ **place** sodir boʻlmoq; ~ **in** mehmon kutmoq; ~ **on** xizmatga qabul qilmoq; ~ **out** chiqarmoq; ~ **up** muhokama qilmoq; ~ **a meal** ovqatlanmoq.

take-down [ˈteɪkdaʊn] *n* xoʻrlash, yerga urish.

take-home pay [ˈteɪkhəʊmpeɪ] *n* sof ish haqi.

take-in [ˈteɪkɪn] *n* aldash, firib berish.

taken [ˈteɪkən] *p. p.* **take dan.**

take-off [ˈteɪkɔ:f] **n** 1) soʻzl. taqlid qilish, oʻxshatish; 2) *av.* parvoz qilish, uchish.

take-over [ˈteɪkəʊvə] *n* bosib olish, qoʻlga olish.

taker [ˈteɪkə] *n* oluvchi shaxs.

taking [ˈteɪkɪŋ] **1. pres. p. take dan;** 1) bosib olish; zabt qilish, qoʻlga olish; 2) qamoqqa (*hibsga*) olish.

talari [ˈtɑ:ləri] *n* talari Efiopiyaning pul birligi.

talc [ˈtælk] **1. n min.** talk (*texnika va tibbiyotda ishlatiladigan oq yoki koʻkish rangli mineral*); **2. v** talk sepmoq.

talcum [ˈtælkəm] = **talc 1.**

talcum powder [ˈtælkəmˌpaʊdə] *n* gigiyenik upa.

tale [teɪl] *n* hikoya; uydirma; ertak, choʻpchak; rivoyat, qissa; toʻqima (*asarlar*).

talent [ˈtælənt] *n* isteʼdod, layoqat, qobiliyat.

talented [ˈtæləntɪd] *a* isteʼdodli, qobiliyatli.

talentless [ˈtæləntləs] *a* lapashang, qobiliyatsiz, isteʼdodsiz.

tales [ˈteɪli:z] *n lot. pl* sud maslahatchilari roʻyxati.

talesman [ˈteɪli:zmən] *n* sud maslahatchisi.

talateller [ˈteɪlˌtələ] *n* hikoyachi, hikoya qiluvchi.

tali [ˈteɪlɑ] *pl* **talus dan.**

taliped [ˈtælipɛd] *a tib.* maymoqlikdan azoblana-yotgan.

talipes [ˈtælipi:z] *n* maymoqlik.

talipot [ˈtælipɒt] *n bot.* hind palmasi (*yelpichsimon palma*).

talisman [ˈtælrɪzmən] *n* tumor.

talk [tɔ:k] **1. n** 1) muzokara, maʼruza; suhbat; 2) nutq soʻzlash, gaplashish, suhbatlashish; **2. v** gaplashmoq; suhbatlashmoq.

talkathon [ˈtɔ:kəθɒn] *n amer.* juda uzun nutq yoki munozara (*bahs, tortishuv*).

talkative [ˈtɔ:kətɪv] *a* sergap, ezma, mahmadona.

talker [ˈtɔ:kə] *n* 1) sergap (*ezma*) odam; 2) yaxshi notiq.

talkie [ˈtɔ:kɪ] *n* soʻzl. ovozli kino.

talking [ˈtɔ:kɪŋ] **1. pres. p. talk dan;** **2. a** 1) ifodali, maʼnoli; 2) sergap, soʻzlashni yaxshi koʻruvchi; 3) gapiradigan; ~ **film** ovozli film.

talking machine [ˈtɔ:kɪŋməˌʃi:n] *n* 1) grammofon; 2) fonograf (*ovozni yozib oladigan asbob*).

talking-to [ˈtɔ:kɪŋtu:] *n* 1) talaffuz; 2) tanbeh, hayfsan

tall [tɔ:l] *a* baland, novcha, uzun boʻyli, baland boʻyli.

tallboy [ˈtɔ:lboɪ] *n* baland komod (*kiyim-kechak turadigan qutuli javon*).

tallow [ˈtæləʊ] *n* 1) moy; yogʻ; 2) arava (*gʻildirak*) moyi.

tally-ho [ˈtæliˈhəʊ] **1. int. ov.** yugur, ol, bos (*oʻrgatilgan yoki ovchi itga xitob soʻzi*); **2. v** itlarni olkishlamoq, gij-gijlamoq.

tally-shop [ˈtæliʃɒp] *n* mollarni boʻlib-boʻlib toʻlash sharti bilan sotib oladigan yoki sotadigan magazin (*doʻkon*).

tally trade [ˈtæltreɪd] *n* boʻlib-boʻlib toʻlash sharti bilan sotib olish yoki sotish.

talma [ˈtælmə] *n fr.* talma (*ayollarning yelkaga tashlab yuradigan yengsiz uzun kiyimi*).

talon [ˈtælən] *n 1*) tirnoq, changal; 2) uzun tirnoq; 3) talon.

taluk [taːˈlu:k] *n hind.* 1) soliq okrugi; 2) merosiy mulk.

talus I [ˈterləs] *n anat.* toʻpiq suyagi.

talus II [ˈterləs] *n 1*) qiyalik, yonbagʻirlik; 2) *geol.* toʻkilma (*togʻ yonbagʻridagi koʻchib tushgan tosh, xarsang uyumi*).

tamable [ˈteɪməbl̩] *a boʻysunadigan, rom qilingan, rom boʻlgan.*

tamarack [ˈtæməɾæk] *n bot.* Amerika tilogʻochi (*ignabarglilarga mansub daraxt*).

tamarind [ˈtæməɾɪnd] *n bot.* tamar hindiy, hind xurmosi.

tamarisk [ˈtæməɾɪsk] *n bot.* yulgʻun.

tambour I [ˈtæmbuə] *n* doʻmbira, nogʻora.

tambour II [ˈtæmbuə] *v (matoga gul)* toʻqimoq.

tambourine [ˌtæmbəˈri:n] *n* childirma, doira.

tame [teɪm] **1.** *a 1*) qoʻlga oid, qoʻlga oʻrgatilgan; ~ bear qoʻlga oʻrgatilgan ayiq; 2) xonaki (*mu-shuk*); **2.** *v* qoʻlga oʻrgatmoq.

tameable [ˈteɪməbl̩] = **tamable.**

tameless [ˈteɪmləs] *a 1*) yovvoyi, vahshiy; 2) qoʻlga oʻrgatib (rom qilib) boʻlmaydigan.

tamer [ˈteɪmə] *n 1*) (*hayvonlarni*) boʻysundiruvchi, boʻysundirib oʻrgatuvchi, rom qiluvchi.

Tamil [ˈtæmɪl] **1.** *n 1*) tamil; 2) tamil tili; **2.** *a* tamilga oid.

Tamilian [təˈmɪliən] *a* Tamil va tamilliklarga oid.

Tammany [ˈtæməni] *n amer.* Nyu-Yorkdagi mustaqil demokratik partiya tashkiloti.

Tammany Hall [ˈtæməniːhɔ:l] *n amer.* Nyu-Yorkdagi demokratik partiya shtabi.

tammy I [ˈtæmi] = **tam-oʻshanter.**

tammy II [ˈtæmi] *n* suzgʻich, elak, gʻalvir.

tam-oʻshanter [ˌtæməˈʃæntə] *n* shotlandiya be-reti (*movutdan qilingan yoki baxmaldan tikilgan bosh kiyim*).

tamp [tæmp] *v* toʻldirmoq, toʻlatmoq, tiqishtirmoq, zichlab tiqmoq.

tampān [ˈtæmpæn] *n* Janubiy Afrikaning zaharli kanasi.

tamper I [ˈtæmpə] *v 1*) aralashmoq, tumshugʻini suqmoq; 2) soxtalashirmoq; 3) birovni pulga sotib olmoq.

tamper II [ˈtæmpə] *n* shibbalagich (*shibbalaydigan, shibbalab zichlaydigan asbob yoki mashina*).

tampion [ˈtæmpjən] *n* tiqin.

tampon [ˈtæmpən] *n tib.* tampon (*yara ichiga tiqiladigan, qon va yiringni shimib oladigan paxta yoki doka*).

tamtam [ˈtæmtæm] = **tomtom.**

tan [tæn] **1.** *n 1*) oshlaydigan teri; 2) oftobda qorayish; **2.** *a* sargʻish-jigarrang; **3.** *v 1*) teri oshlamoq; 2) oftobda toblanib yotmoq.

tana [ˈtɑ:nə] *n hind.* politsiya uchashtasi.

tanadar [ˈtɑ:nədə:] *n hind.* politsiya mahkamasi-ning boshligʻi.

tandem [ˈtændəm] *a* oʻrindigʻi oldinma-keyin joylashgan ikki oʻrinli velosiped.

tang I [tæŋ] *n 1*) achchiq, oʻtkir hid; 2) oʻziga xos xususiyat (fazilat).

tang II [tæŋ] **1.** *n* jarang, jiring, jaranglagan (jiringlagan) ovoz, jaranglash; **2.** *v* baland jaranglamoq, jiringlamoq, jingillamoq, jarang-jurung qilmoq.

tangent [ˈtændʒənt] *n 1*) urinma (*egri chiziqning biror nuqtasiga tegib oʻtgan toʻgʻri chiziq*); 2) *mat.* tangens.

tangential [tænˈdʒenʃl̩] *a* tangensial (*egri chiziqqa urinma chiziq boʻyicha yoʻnalgan*).

Tangerine [ˌtændʒəˈri:n] *n* Tanjer fuqarosi.

tangerine [ˌtændʒəˈri:n] *n 1*) mandarin (*daraxt va mevasi*); 2) toʻq sariq rang.

tangibility [ˌtændʒəˈbɪləti] *n 1*) sezilish, sezilishi mumkinlik, seziluvchanlik; 2) haqiqiylik, chinlik.

tangible [ˈtændʒəbl̩] *v* sezib boʻladigan, sezish mumkin boʻlgan.

tangle [ˈtæŋɡl̩] **1.** *n 1*) chigallashgan koptok ip; 2) chigal, ishkal; 3) urush; 4) nizo; **2.** *v 1*) chigallashmoq; 2) ovlamoq; 3) aralashib ketmoq.

tangled [ˈtæŋɡld̩] *a* chigal, chalkash, chalkashib (chigallashib) ketgan.

tanglefoot [ˈtæŋɡlfʊt] *n 1*) *amer.* viski (*ingliz aragʻi*); 2) pashshaga qarshi yopishqoq qogʻoz.

tangleleg [ˈtæŋɡlɛɡ] = **tanglefoot.**

tangly [ˈtæŋɡli] *a* chigal, chuvalgan, chalkashgan, chigallashib ketgan.

tango [ˈtæŋɡəʊ] *n* tango (*raqsning bir turi va shu raqs musiqasi*).

tank [tæŋk] **1.** *n 1*) sisterna (*1. suyuqliklar saqlanadigan katta metall idish*; 2. *suyuqlik yoki gaz tashiydigan maxsus vagon*); 2) *harb.* tank; **2.** *v* bochkaga quymoq.

tankage [ˈtæŋkɪdʒ] *n 1*) sisternaning (bakning) sigʻimi (hajmi); 2) sistemada saqlash.

tankard [ˈtæŋkɑ:d̩] *n* uzun pivo krujkasi (*koʻpincha qopqoqli*).

tank-borne [ˈtæŋkbo:n] *a* sisternada tashiydigan.

tank-car [ˈtæŋkka:] *n 1*) sisterna; 2) avtosisterna.

tanked [tæŋkt̩] *a amer. slang.* mast, mast-alast.

tank engine [ˈtæŋk,ɛndʒɪn] *n* tank-parovoz.

tanker I [ˈtæŋkə] *n* tanker (*suyuq va yarim suyuq mahsulotlar tashiladigan kema*).

tanker II [ˈtæŋkə] *n amer. harb.* tankchi.

tanner I [ˈtænə] *n* teri ovllovchi, ishchi.

tanner II [ˈtænə] *n* 6 pensli tanga pul.

tannery [ˈtænəri] *n* koʻn (ishlangan, pishirilgan teri: charm) zavodi.

tannin [ˈtæni:n] *n* tanin (*tibbiyot va texnikada ishlatiladigan, tishni qamashiradigan modda*).

tantalize [ˈtæntəlaɪz] *v* yolgʻon umid bilan havasini keltirmoq.

- tantalizing** [ˈtæntələɪzɪŋ] *a* yoqimli, jozibali, jozibador, dilbar, koʻrkam, istarasi issiq.
- tantalum** [ˈtæntələm] *n* kim. tantal (*qiyin eriydigan qattiq kulrang nodir metall*).
- Tantalus** [ˈtæntələs] *n* grek.mif. Tantal (*Yunon afsonasi qahramoni*).
- tantamount** [ˈtæntəmaʊnt] *a* 1) teng kuchli, kuchi baravar; 2) bahosi (qiymati) bir xil boʻlgan.
- tantivy** [ˈtæntɪvi] **1.** *a* tezlik bilan boʻladigan, tez, ildam, tez boʻlib oʻtadigan; **2.** *adv* chopib, yugurib, yelib; yelday uchirib.
- tantrum** [ˈtæntɹəm] *n* soʻzl. birdaniga achchigʻi chiqish, bir onli gʻazab, lov etib bosilgan jahl.
- tap I** [tæp] **1.** *n* 1) poʻkak, tiqin; 2) joʻmrak; 3) pivo, vino markasi; **2.** *v* tiqinni tortib (chiqarib) olmoq.
- tap II** [tæp] *v* urmoq, tepmoq.
- tap-dance** [ˈtæpdɑːns] *n* chechotka (*raqs turi*).
- tape** [teɪp] *n* 1) toʻqilgan tasma, uqa, jiyak; 2) tasma, kasseta; 3) marra (pakka, finish)dagi lentacha.
- tape-line** [ˈteɪplɑːn] *n* 1) tasmali metr; 2) oʻlchov (oʻlchash uchun xizmat qiladigan) lenta.
- tape-machine** [ˈteɪpməːʃiːn] *n* harf yozadigan telegraf apparati (*asbobi*).
- tape-measure** [ˈteɪpˌmeʒə] = **tape-line**.
- taper** [ˈteɪpə] **1.** *n* 1) xira chiroq; 2) asta-sekin pasayish (susayish, zaiflashish); **2.** *v* uchini chiqarmoq; oʻtkirlamoq.
- tape-record** [ˈteɪprɪˌkɔːd] *v* magnitofon tasmasiga yozib olmoq.
- tape-recorder** [ˈteɪprɪˌkɔːdə] *n* magnitofon.
- tapering** [ˈteɪpərɪŋ] *a* 1) ingichka va uzun (*qoʻl barmoqlari va b. toʻgʻrisida*); 2) konus shaklidagi.
- tapestry** [ˈtæpɪstri] *n* 1) devorga osib qoʻyiladigan suratli gilam; 2) gul toʻqib bezatilgan gazlama (mato).
- tapeworm** [ˈteɪpwɔːm] *n* tib. lentasimon gijja.
- tap-hole** [ˈtæphəʊl] *n* koʻz (*metallurgiya pechlarida: erigan metall yoki toshqol oqib chiqadigan teshik*).
- taphouse** [ˈtæphaʊs] = **taproom**.
- tapir** [ˈteɪpə] *n* zool. tapir (*qisqa xartumli sutemizuvchi hayvon*).
- tapis** [ˈtæpi] *n* fr. **1.** **to be** (*yoki to come*) **on the** ~ muhokamada boʻlmoq, muhokama qilinmoq.
- tapper** [ˈtæpə] *n* telegraf kaliti.
- tappet** [ˈtæpɪt] *n* tex. klapaning turtkichi.
- taproom** [ˈtæpruːm] *n* pivoxona, bar.
- tap-root** [ˈtæpruːt] *n* bot. asosiy ildiz, oʻqildiz.
- tapster** [ˈtæpstə] *n* bufetchi, bar (mayxona) egasi, bar (mayxona) sotuvchisi.
- tar** [tɑː] **1.** *n* qatron; chirkay (*yogʻoch, torf, toshkoʻmir kabilardan qizdirib olinadigan qora, quyuyq modda*); **2.** *v* qatron surtmoq.
- taradiddle** [ˈtærədɪdl] *n* soʻzl. yolgʻon, yolgʻon (*notoʻgʻri*) gap, yolgʻon, yolgʻon-yashiq, uydirma.
- tarantella** [ˌtærənˈtelə] *n* tarantella (*shoʻx italyan xalq raqsi hamda shunday raqs musiqasi*).
- tarantula** [təˈræntjələ] *n* zool. biy, oʻrgimchak biyi.
- taraxacum** [təˈræksəkəm] *n* 1) bot. qoqi oʻt; 2) tib. qoqi oʻtdan tayyorlangan dori.
- tarboosh** [ˈtɑːbuːʃ] *n* hojidoʻppi.
- tar-brush** [ˈtɑːbrʌʃ] *n* qatron surtish uchun ishlatiladigan kichkina choʻtkacha.
- tarigrade** [ˈtɑːdɪɡreɪd] *a* zool. imillab yuradigan, sekin harakat qiladigan.
- tardy** [ˈtɑːdi] *a* 1) sustkash, sust, lanj, kechikish; 2) kech qolgan; 3) orqada qolgan; ~ **arrival** sust kelish, kech kelish; **to be ~ for the lyceum** litseyga kechikmoq.
- tare I** [tɛə] *n* tara (*tovar-buyum joylanadigan yoki oʻraladigan qogʻoz, qop, quti va sh.k.*)ning ogʻirligi.
- tare II** [tɛə] *n* bot. ekiladigan xashaki noʻxat.
- targe** [tɑːdʒ] *n* kichkina yumaloq qalqon.
- target** [ˈtɑːɡɪt] *n* moʻljal, nishon.
- Tarheel(er)** [ˈtɑːhiːl(ə)] *n* amer. soʻzl. Shimoliy Karolinada yashovchi kishilarning laqabi.
- tariff** [ˈtærɪf] **1.** *n* 1) tarif (*biror narsaga toʻlanadigan qatʻiy baholar majmuyi*); 2) narx qoʻyish; **2.** *v* 1) tarifga kiritmoq; 2) narx qoʻymoq.
- tarlatan** [ˈtɑːlətən] *n* tarlatan (*dokaga oʻxshagan mato, gazlama*).
- tarmac** [ˈtɑːmæk] = **tar macadam** *soʻzining qisqartmasi*.
- tar macadam** [ˌtɑːməˈkædəm] *n* shosseneni gudronlamoq, shossega gudron yotqizmoq.
- tarnation** [tɑːˈneɪʃn] = **damnation**.
- tarnish** [ˈtɑːnɪʃ] **1.** *n* xiralik, shaffof emaslik, nur-sizlik; **2.** *v* xira boʻlmoq; xiralanmoq, rangi oʻchmoq.
- tar paper** [ˈtɑːpeɪpə] *n* toʻl, qora qogʻoz (*smolali qalin qogʻoz*).
- tarpaulin** [tɑːˈpɔːlɪn] *n* 1) brezent; 2) matros shap-kasi yoki kurtkasi; 3) ogʻz, matros, dengizchi.
- tarpon** [ˈtɑːpɒn] *n* zool. tarpon (*yovvoyi ot*).
- tarragon** [ˈtærəɡən] *n* bot. 1) estragon, tarxun (*koʻp yillik oʻt, ermanning bir turi*); 2) shuvoq, yoshvan.
- tarrock** [ˈtærək] *n* bir nechta shimoliy dengiz qushlarining nomlari.
- tarry I** [ˈtæri] **1.** *v* 1) sustkashlik qilmoq; 2) amer. kutmoq (**for**); 3) yashamoq (**in, at**).
- tarry II** [ˈtɑːri] *a* qatron surtilgan, qatronli.
- tarsi** [ˈtɑːsaɪ] *pl* **tarsus dan**.
- tarsia** [ˈtɑːsɪə] *n* it. yogʻoch mozaika (*mozaika – qadama (terma) naqsh va shunday naqsh ish-lash sanʻati*).
- tarsus** [ˈtɑːsəs] *n* (*pl -si*) 1) anat. oyoqning beti, oyoq kaftining orqasi (*oyoq kafti bilan boldir orasi*); 2) zool. oyoqning kafti (*qushlarda*).
- tart I** [tɑːt] *a* nordon, achchiq, taxir, turush.
- tart II** [tɑːt] *n* 1) pirog; 2) uy torti; 3) mevali pirog.

tartan [ˈtɑ:tɪn] *n* katak-katak gazlama.
Tartar [ˈtɑ:tə] **1.** *n* 1) tatar (*kishi*); 2) tatar ayol, tatar qiz; **2.** *a* tatarcha; **young** ~ injiq bola.
tartar [ˈtɑ:tə] *n* *kim.* tishda paydo boʻladigan tosh.
Tartarean [tɑ:ˈtɛəriən] *a* doʻzaxga (jahannamga) oid, doʻzaxda boʻladigan.
Tartarian [tɑ:ˈtɛəriən] *a* tatarlarga oid.
Tartarus [ˈtɑ:tərəs] *n* *mif.* jahannam, doʻzax (*yunon mifologiyasida*).
tartlet [ˈtɑ:tlət] *n* kichkina pirog.
task [tɑ:sk] **1.** *n* topshiriq, ish, dars, majburiyat, vazifa; **2.** *v* 1) ish bermoq; 2) haddan ortiq yuklamoq; 3) topshirmoq.
taskmaster [tɑ:skmɑ:stə] *n* 1) brigadir; 2) nazoratchi.
taskwork [ˈtɑ:skwɔ:k] *n* 1) belgilangan (*kelishilgan*) ish; 2) baylashib qilinadigan ish, baylashib ishlash.
tassel [ˈtæsəl] *n* popuk, gajim.
taste I [teɪst] **1.** *n* 1) maza, taʼm; 2) did, taʼb; **2.** *v* 1) mazasini tatib koʻrmoq; 2) yemoq, ichmoq.
taste II [teɪst] *v* 1) mazasini tatib koʻrmoq; 2) yemoq, ichmoq.
tasteful [ˈteɪstfl] *a* mazali pishirilgan, did bilan bajarilgan, taʼmi shirin.
tasteless [ˈteɪstləs] *a* mazasiz, taʼmi yoʻq, taʼmsiz, didsiz, mazasiz, bemaza.
taster [ˈteɪstə] *n* 1) chashnachi (*mazasiga qarab sinovchi*); sinovchi, degustator; 2) nashriyot taqrizchisi.
tasty [ˈteɪstɪ] *a* mazali, lazzatli, shirin.
tat [tæt] *v* toʻr toʻqimoq.
ta-ta [tæˈtɑ:] *int.* hozircha (vaqtincha) xayr!
Tatar [ˈtɑ:tə] = **Tartar**.
tatter [ˈtætə] **1.** *n* 1) eski-tuski sotib oluvchi, eskifurush, eskichi; 2) eski-tuski; uvada; **2.** *v* yirtilmoq, eskirmoq.
tatterdemalion [ˌtætədɪˈmeɪlɪən] *n* yalangoyoq, juldur (*yirtiq-sirtiq*) kiyimli kishi.
tattered [ˈtætəd] **1.** *p. p.* **tatter** **2.** *dan*; **2.** *a* yirtiq, yirtiq-sirtiq, uvadasi chiqqan.
tatting [ˈtætɪŋ] *n* toʻqilgan toʻr.
tattle [ˈtætl] **1.** *n* bekorchi gap, safсата; **2.** *v* valdiramoq, vaysamoq.
tattler [ˈtætlə] *n* sergap odam, ezma, vaysaqi, saf-sataboz.
tattoo I [ˈtæˈtu:] **1.** *n* kechki payt yotishga chalinadigan signal; **2.** *v* turishga (*yoki* yotishga) signal chalmoq.
tattoo II [ˈtæˈtu:] **1.** *n* 1) tatuirovka (*badandagi yozuvlar, naqshlar*); 2) tatuirovka qilish (*teri ostiga rang oʻtkazib badanga naqsh tushirish*); **2.** *v* tatuirovka qilmoq.
tatty [ˈtæti] *n* *hind.* xushboʻy oʻtdan qilingan hoʻl boʻyra (*xonaning havosini sovittish uchun eshik yoki derazaga osib qoʻyiladi*).
taught [tɔ:t] *past., .p. p.* **teach dan.**
taunt I [tɔ:nt] *v* masxara qilish, birovning ustidan kulish, birovni masxara (mazax, mayna) qilish.

taunt II [tɔ:nt] *a* juda baland (*machta haqida*).
taumomachy [tɔ:ˈrɒməki] *n* *grek.* hoʻkizlar urishi (*jangi*).
taut [tɔ:t] **1.** *a* 1) tarang, tarang qilib tortilgan; 2) tarang tortilgan, kuchlangan; ~ **nerves** tarang tortilgan asablar.
tauten [ˈtɔ:tn] *v* tarang qilib tortmoq.
tautologize [tɔ:ˈtɒlədʒaɪz] *v* takrorlamoq, qaytar-moq, qayta-qayta gapirmoq.
tautology [tɔ:ˈtɒlədʒɪ] *n* tautologiya (*bir fikrni boshqa soʻzlar bilan takrorlash*).
tavern [ˈtævən] *n* kichik mayxona (*Italiya va baʼzi boshqa mamlakatlarda*).
taw I [tɔ:] *n* sharchalar (*bolalar oʻyini*).
taw II [tɔ:] *v* terini oshlamasdan shilib olmoq.
tawdry [ˈtɔ:drɪ] **1.** *a* 1) usti yaltiroq; 2) savlatli, koʻzga tashlanadigan; 3) didsizlik bilan ishlangan; **2.** *n* arzon bezak (zeb-ziynat).
tawny [ˈtɔ:ni] *a* toʻq-sariq.
tax [tæks] **1.** *n* soliq, oʻlpon; **2.** *v* soliq solmoq.
taxable [ˈtæksəbl] *a* soliq solingan; soliq solinadigan.
taxation [tæksˈseɪʃn] *n* soliq solish, soliq summasi.
tax-collector [ˈtækskəˌlektə] *n* soliq yigʻuvchi kishi.
tax evasion [tæksɪˌveɪʒn] *n* soliq toʻlashdan bosh tortish.
tax-exempt [ˈtæksɪqˌzempt] *a* soliq solinmaydigan, soliqdan ozod etilgan.
tax-farmer [tæksˌfɑ:mə] *n* sotib olgan kishi, ijarakor.
tax-free [ˌtæksˈfri:] *a* soliq toʻlashdan ozod qilingan.
tax-gatherer [ˈtæksˌgæðərə] = **tax-collector**.
taxi [ˈtæksɪ] **1.** *n* taksi; **2.** *v* taksida yurmoq.
taxidermy [ˈtæksɪdəˌmi] *n* tulumning ichini toʻldirish.
taxi-driver [ˈtæksɪˌdraɪvə] = **taximan**.
taxi-man [ˈtæksɪmən] *n* taksi haydovchisi.
taximeter [ˈtæksɪˌmi:tə] *n* taksometr (*qancha pul toʻlashni koʻrsatuvchi moslama*).
taxing [ˈtæksɪŋ] **1.** *n* soliq solish; **2.** *a* 1) soliq yigʻadigan (oladigan, oluvchi); 2) soliq yigʻish bilan shugʻullanadigan.
taxing-master [ˈtæksɪŋˌmɑ:stə] *n* sud xarajatlarini aniqlaydigan mansabdor kishi.
taxis [ˈtæksɪs] *n* *biol.* organizmning javobiy reaksiyasi.
taxpayer [ˈtæksˌpeɪə] *n* soliq toʻlovchi kishi.
tea [ti:] *n* choy; ~ **house** choyxona.
tea-biscuit [ˈti:bɪskɪt] *n* choy bilan yeyiladigan pishiriqlar (*pecheniy*).
tea-board [ˈti:bɔ:d] = **tea-tray**.
tea-bread [ˈti:bred] *n* choy bilan yeyiladigan bu-lochka *yoki* non.
tea-caddy [ti:kædi] *n* choy quti, choy idish, choy-don.

- tea-cake** [ˈti:kɛk] *n* choy bilan yeyiladigan keks (bulochka).
- teach** [ti:tʃ] *v* (**taught**) o'qitmoq, o'rgatmoq; **to ~ children** bolalarni o'qitmoq.
- teachable** [ˈti:tʃəbl] *a* 1) o'zlashtirish mumkin bo'lgan (*fan haqida*); 2) o'qishga qobiliyatli bo'lgan; 3) zehni o'tkir, farosatli.
- teacher** [ˈti:tʃə] *n* o'qituvchi.
- teachers college** [ˈti:tʃəz,kɒlɪdʒ] *n* pedagogika instituti.
- teaching** [ˈti:tʃɪŋ] **1. pres. p. teach dan; 2. n** ta'lim berish, o'qitish, o'rgatish; **to take up ~** o'qituvchi bo'lmoq.
- tea-cloth** [ˈti:klɒθ] *n* choy dasturxon; choy idishni artadigan sochiq.
- tea-cosy** [ˈti:kəʊzi] *n* qavilgan g'ilof, jild (*choy-nakka*).
- teacup** [ˈti:kʌp] *n* choy ichadigan piyola.
- tea-dealer** [ˈti:di:lə] *n* choyfurush, choy sotuvchi.
- tea-fight** [ˈti:faɪt] = **tea-party**.
- tea-garden** [ˈti:gɑ:dn] *n* ochiq havodagi qahvaxona *yoki* restoran.
- tea-house** [ˈti:haus] *n* choyxona.
- teak** [ti:k] *n bot.* tik (*issiq mamlakatlarda o'sadigan kemabop qattiq daraxt*).
- tea-kettle** [ˈti:kɛtl] *n* choy qaynatish uchun ishlatiladigan choynak.
- teal** [ti:l] *n* churrok (*mayda yovvoyi hayvon*).
- tea-leaf** [ˈti:li:f] *n* choy bargi.
- team I** [ti:m] *n* jamoa; **football ~** futbol jamoasi.
- team II** [ti:m] *v* birlashmoq.
- team-mate** [ˈti:mmeɪt] *n* bitta jamoa o'yinchisi (*jamoadosh*).
- teamster** [ˈti:mstə] *n* haydovchi, podachi.
- teamwise** [ˈti:mwaɪz] *n* birga, birgalikda.
- team-work** [ˈti:mwɜ:k] *n* o'zaro ta'sir; kelishilgan ish, birgalikdagi harakat.
- tea-party** [ˈti:pɑ:tɪ] *n* choyga taklif qilingan uyushma.
- teapot** [ˈti:pɒt] *n* choy damlaydigan choynak.
- teapoy** [ˈti:pɔɪ] *n hind.* uch oyoqli kichkina stol (*asosan, choy uchun*).
- tear I** [tɛə] *n* ko'z yoshi; **bitter ~s** achchiq ko'z yoshlar.
- tear II** [tɛə] *v* (**tore, torn**) yirtmoq, yirtib tashlamoq; **to ~ paper** qog'ozni yirtmoq.
- tear-drop** [ˈtɛədɒp] *n* bir qatra yosh (*ko'z yoshi*).
- tear-duct** [ˈtɛədʌkt] *n anat.* yosh (*ko'z yoshi*) yo'li.
- tearful** [ˈtɛəfʊl] *a* 1) g'amli, qayg'uli; 2) ko'z yoshga to'la.
- tear-gas** [ˈtɛəgæs] *n* ko'zdan yosh oqizadigan gaz.
- tearing** [ˈtɛəriŋ] *a so'zl.* quturgan.
- tearless** [ˈtɛələs] *a* 1) ko'z yoshsiz; ~ **grief** ko'z yoshsiz g'am; 2) sezmaydigan.
- tea-room** [ˈti:rʊm] *n* shakarparazlik mahsulotlari sotiladigan qahvaxona.
- tea-rose** [ˈti:rəʊz] *n* choygul (*atirgulning oq-sarg'ish turi*).
- tear-shell** [ˈtɛəʃel] *n* ko'zdan yosh oqizadigan gazlar saqlanadigan asbob.
- tear-stained** [ˈtɛəsteɪnd] *a* yig'idan qizargan, yig'layverib shishib ketgan.
- tease** [ti:z] *v* tegajaklik qilmoq, jig'iga tegmoq, jahlini chiqarmoq.
- teasel** [ˈti:zl] **1. n bot.** 1) to'ng'iztaroq; 2) to'ng'iztaroq tikanagi; **2. v** paxmoqlamoq, tuk chiqarmoq.
- teaseler** [ˈti:zələ] *n* tuk chiqaruvchi.
- teaser** [ˈti:zə] *n* 1) qiyin masala; 2) hammaning jig'iga tegaveradigan (*jangari, urishqoq*).
- tea-service** [ˈti:sə:vɪs] *n* choy servizi, choy idishlari.
- tea-set** [ˈti:set] = **tea-service**.
- tea-shop** [ˈti:ʃɒp] *n* qahvaxona, gazaxona, yemakxona.
- tea-spoon** [ˈti:spu:n] *n* choy qoshiq.
- tea-strainer** [ˈti:streɪnə] *n* choy suzadigan to'r.
- teat** [ti:t] *n* 1) emchak uchi; 2) *tex.* biror predmet (*detal*)ning bo'rtib chiqqan joyi.
- tea-table** [ˈti:,teɪbl] *n* choy ichadigan stol, choy stoli.
- tea-things** [ˈti:θɪŋz] *n pl* choy idishlari (*choynak, piyola*).
- tea-tray** [ˈti:treɪ] *n* choy patnisi.
- tea-urn** [ˈti:ə:n] *n* samovar (*suv qaynatadigan asbob*).
- tea wagon** [ˈti:wæɡən] *n* choy *yoki* yengil ovqat olib kelish uchun tayyorlangan g'ildirakli stol.
- teazel, teazle** [ˈti:zl] = **teasel**.
- tec** [tek] *n so'zl.* **defective so'zning qisqartirilgan shakli.**
- technical** [ˈteknɪkl] *a* 1) texnikaviy; 2) texnikaga oid.
- technicality** [ˈteknɪˈkæləti] *n* 1) ishning texnik tomoni (*tarafi*); 2) texnik detal.
- technician** [tekˈnɪʃn] *n* 1) o'z ishini biladigan kishi; 2) mutaxassis.
- technics** [ˈteknɪks] *n pl* (*ko'plik hamda birlik shakli bir xil yoziladi*) texnika (*mehnat qurollari va vositalari, majmuyi*); 2) texnika fanlari.
- technique** [tekˈni:k] *n* 1) texnikaviy usullar; 2) metod, uslub.
- technologist** [tekˈnɒlədʒɪst] *n* texnolog (*texnologiya bo'yicha mutaxassis*).
- technology** [tekˈnɒlədʒɪ] *n* texnologiya (*materialga ishlov berish usullari va shu usullar tavsifi*) texnika.
- techy** [ˈtɛtʃɪ] = **tetchy**.
- tectonic** [tekˈtɒnɪk] *a* 1) me'morchilikka oid; 2) *geol.* tektonika (*geologiyaning yer po'sti tuzilishini va tektonik harakatlar natijasida unda bo'lib turadigan o'zgarishlarni o'rganadigan bo'limi*)ga oid.
- ted** [ted] *v* pichanni ag'darmoq.
- tedder** [ˈtedə] *n* pichan (*xashak*) ag'daradigan mashina.

teddy-bear [ˈtɛdɪbɛə] *n* ayiqcha (*bolalar o'yinchog'i*).

teddy boy [ˈtɛdɪbɔɪ] *n* so'zl. o'ta olifto yigit.

tedious [ˈtiːdiəs] *a* zerikarli, charchatadigan, toliqtiradigan, zeriktiradigan, diqqatni oshiradigan.

tedium [ˈtiːdrəm] *n* 1 zerikish, toliqish; 2) charchaganlik, toliqqanlik, horg'inlik.

tee I [tiː] *n* 1) T harfining nomi; 2) uchta; 3) T shaklidagi narsa.

tee II [tiː] *n* nishon, mo'ljal (*o'yinda*); ~ **off** birinchi zarba bermoq (*golfa*).

teem I [tiːm] *v* to'lib toshmoq, juda ko'p bo'lmoq.

teem II [tiːm] *v* quymoq, quyib chiqmoq, quyib qo'yimoq (*metall quyimasini*).

teeming [ˈtiːmɪŋ] *pres. p.* **teem II** *dan*.

teen-age [ˈtiːneɪdʒ] *a* 1) 13 dan 19 yoshgacha bo'lgan; 2) voyaga (balog'atga) yetmagan.

teen-ager [ˈtiːneɪdʒə] *n* o'spirin, o'smir, 13 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan yoshlar.

teens [tiːnz] *n pl* 13 dan 19 gacha bo'lgan yosh.

teeth [tiːθ] *n pl* tish, dandon.

teetotal [ˌtiːtəʊtəl] *a* mast emas, hushyor, ichmagan.

teetotaler [ˌtiːtəʊtəlɪ] *n* (*spirтли ichimliklar*) ichmaydigan odam.

teg [tɛg] *n* bir yashardan o'tgan sovliq qo'y.

tegular [ˈtɛgjuːlə] *a* cherepitsa (tomga yopiladigan sopol)ga oid.

tegument [ˈtɛgjuːmənt] *n* po'st, po'stloq, po'choq, to'pon.

tehee [tiːˈhiː] **1.** *n* qiqir-qiqir, qiqirlab kulish; **2.** *v* qiqir-qiqir kulmoq.

telautogram [ˈtɛlɔːtəgræm] *n* fototelegramma (*fototelegraf orqali yuborilgan telegramma, xat, hujjat va sh.k.*).

telautograph [ˈtɛlɔːtəgrɑːf] *n* fototelegraf (*xat, hujjat, rasm va sh.k.ni telegraf yoki radio vositasida uzoq masofaga yuboradigan qurilma*).

tele [ˈtɛlɪ] *so'zl.* **television** *so'zining qisqartmasi*.

telecast [ˈtɛlɪkɑːst] *n* 1) teleko'rsatuv; 2) televizion ko'rsatish va eshittirish.

telecasting [ˈtɛlɪkɑːstɪŋ] *attr.* televideniyaga oid; ~ **studio** televizion studiya.

telecommunications [ˌtɛlɪkəmjʊːnɪˈkeɪʃn] *n* uzoqdagi aloqa, telefon, telegraf yoki radio.

telecontrol [ˈtɛlɪkəntrəl] *n* masofadan boshqarish, uzoqdan (turib) boshqarish.

telecruiser [ˈtɛlɪkruːzə] *n* ko'chma televizion stansiyasi.

television [ˈtɛlɪvɪʒn] *n* televizion film.

telegenic [ˌtɛlɪˈdʒɛnɪk] *a* televizor ekranida yaxshi ko'rinadigan.

telegram [ˈtɛlɪgræm] *n* telegramma: **to receive a** ~ telegramma olmoq; **to send a** ~ telegramma jo'natmoq.

telegraph [ˈtɛlɪgrɑːf] *n* telegraf (*1. aloqa turi va apparati*; *2. telegraf idorasi va binosi*).

telegrapher [ˈtɛlɪgrɑːfə] = **telegraphist**.

telegraphese [ˌtɛlɪgrɑːˈfiːz] *n* «telegrafcha» uslub, qisqa yozish uslubi.

telegraphic [ˌtɛlɪˈgræfɪk] *a* 1) telegrafga oid; 2) telegraf orqali amalga oshiriladigan.

telegraphist [ˈtɛlɪgrəˈfɪst] *n* telegraf xodimi.

telegraph-line [ˈtɛlɪgrɑːflaɪn] *n* telegraf liniyasi.

telegraph-pole [ˈtɛlɪgrɑːfpəʊl] *n* telegraf ustuni.

telegraph-post [ˈtɛlɪgrɑːfpəʊst] = **telegraph-pole**.

telegraph-wire [ˈtɛlɪgrɑːfwaɪə] *n* telegraf simi.

telegraphy [ˈtɛlɪgrəˈfi] *n* telegramma berish (*telegraf orqali xabar qilish*).

telekinesis [ˌtɛlɪkɑːˈniːsɪs] *n* telekinez.

telemeter [ˈtɛlɪmɪtə] *n* telemetr (*masofa o'lchagich*).

teleology [ˌtiːlɪˈɔlədʒɪ] *n* teleologiya (*tabiatda hamma narsa oldindan belgilangan, maqsadga muvofiq qilib yaratiladigan deb talqin qiluvchi diniy ta'limot*).

telepathy [ˈtɛləpəθɪ] *n* telepatiya (*go'yo uzoqdan turib fikr va tuyg'ularini boshqa kishiga bildira olish*).

telephone [ˈtɛlɪfəʊn] **1.** *n* telefon (*aloqa turi*); ~ **booth** telefon budkasi; ~ **call** telefon qo'ng'irog'i; **2.** *v* 1) qo'ng'iroq qilmoq; 2) telefon apparatini o'rnatmoq.

telephone set [ˈtɛlɪfəʊnsɛt] **1.** *n* telefon apparati; **2.** *v* telefonlashtirmoq.

telephonic [ˌtɛlɪˈfɒnɪk] *n* telefonga oid.

telephonist [ˈtɛləfəˈnɪst] *n* telefon simlari o'rnatuvchi mutaxassis.

telephony [ˈtɛləfəˈni] *n* telefoniya (*elektr va radio orqali uzoqqa tovush yuborish texnikasi*).

telephotography [ˌtɛlɪfəˈtɔgrəfi] *n* telefotografiya (*fototelegraf orqali berilgan tasvir*).

teleprinter [ˈtɛlɪprɪntə] *n* teletayp (*tekstni avtomatik ravishda harflar bilan yozib oladigan apparat*).

telescope I [ˈtɛlɪskəʊp] *n* teleskop.

telescope II [ˈtɛlɪskəʊp] *v* 1) siljitmoq; 2) qisqartmoq (*matn, hikoya va b.*).

telescreen [ˈtɛlɪskriːn] *n* televizor ekrani.

telethon [ˈtɛləθɒn] *n* saylovdan oldin biror nomzodni qo'llash maqsadida o'tqaziladigan bir necha soatli televizion dastur.

teletype [ˈtɛlɪtaɪp] *n* teletayp (*matmni avtomatik ravishda harflar bilan yozib oladigan apparat*).

televisioner [ˈtɛlɪvjuːə] *n* teletomoshabin.

televise [ˈtɛlɪvaɪz] *n* televizion dasturini ko'rsatmoq.

television I [ˈtɛlɪvɪʒn] *n* 1) televideniya; 2) *attr.* televideniyaga oid; ~ **set** televizor.

televisional [ˈtɛlɪvɪʒnəl] *a* televideniyega oid.

televisor [ˈtɛlɪvaɪzə] *n* televizor.

television [ˌtɛlɪˈvɪʒjuəl] = **televisional**.

telex [ˈtɛleks] *n* teleks.

tell [tɛl] *v* (**told**) 1) gapirmoq, aytib bermoq; 2) hikoya qilmoq; **to** ~ **a story** hikoya aytmoq; 3) ko'r-

- satmoq, guvoh bo'lmoq; **to ~ the time** vaqtni ko'rsatmoq.
- tell** [ˈtɛlə] *n* hikoyachi, hikoya qiluvchi.
- telling** [ˈtɛlɪŋ] **1.** *pres. p.* **tell** *dan*; **2.** *a* 1) amaliy natija (foйда) beradigan; ta'sir ko'rsatadigan, kor qiladigan; 2) zo'r taassurot qoldiradigan; 3) ifodali, jonli, ma'noli, ma'nodor.
- telling-off** [ˈtɛlɪŋ ɔf] *n* tanbeh, ogohlantirish, ta'zir.
- telltale** [ˈtɛltɛɪl] *n* 1) g'iybatchi odam; 2) chaqimchi.
- tellurian** [teˈluəriən] **1.** *n* yerda yashovchi kishi; **2.** *a* yerga oid, yerda bo'ladigan.
- telluric** [teˈljuəriɪk] *a* yerga (zaminga) oid, yer..., zamin...
- tellurium** [teˈluəriəm] *n* *kim.* tellur (*kimyoviy element*).
- telly** [ˈtɛli] *n* so'zl. televizor.
- telpher** [ˈtɛlfə] **1.** *n* *tex.* telfer; **2.** *v* osma yo'l orqali bir joydan ikkinchi joyga tashimoq.
- temblor** [ˈtɛmˈblɔː] *n* *amer.* zilzila, yer qimirlash.
- temerarious** [ˈtɛmərəriəs] *a* 1) o'ylamay qilingan, muhokama (mulohaza) qilib ko'rilmagan; 2) noiljlikdan qilingan.
- temerity** [tuˈmerəti] *n* o'ylamay ish qilish, shosh-qaloqlik.
- temp** [tɛmp] **1.** *n* vaqtincha yashaydigan kishi; **2.** *v* vaqtincha ishlamoq.
- temper** [ˈtɛmpə] *n* 1) fe'l-atvor, xulq; 2) kayfiyat.
- tempera** [ˈtɛmpərə] *n* tempera (*tuxum sarig'ida ezib tayyorlangan bo'yoq*).
- temperament** [ˈtɛmpərəmənt] *n* serg'ayratlik, jo'shqinlik.
- temperamental** [ˈtɛmpərəˈmentl] *a* jo'shqin, serg'ayrat, otashin, qiziqqan.
- temperance** [ˈtɛmprəns] *n* o'zini tuta bilish, vazminlik.
- temperate** [ˈtɛmpərət] *a* 1) o'rtacha, o'rtamiyona; 2) o'zini tutib (bosib) olgan.
- temperature** [ˈtɛmprətʃə] *n* harorat, isitma; **to take one's ~** haroratni o'lchamoq.
- tempest** [ˈtɛmpɪst] **1.** *n* his-tuyg'u g'alayoni, tug'yon; **~ in a teapot** arzimagan sabab bilan bo'lgan g'avg'o (mojaro, iztirob); **2.** *v* hamma yoqni boshiga ko'tarmoq, to's-to'polon qilmoq.
- tempestuous** [tɛmˈpɛstʃuəs] *a* kuchli, shiddatli, qattiq; qizg'in.
- tempi** [ˈtɛmpiː] *pl* **tempo** *dan*.
- template** [ˈtɛmpleɪt] *n* *tex.* andaza, qolip.
- temple I** [ˈtɛmpl] *n* ibodatxona, butxona, cherkov.
- temple II** [ˈtɛmpl] *n* chakka.
- temple III** [ˈtɛmpl] *n* *tex.* bosib (*tutib*) turadigan planka (*uzun taxtacha*).
- templet** [ˈtɛmplət] = **template**.
- tempo** [ˈtɛmpəu] *n* (*pl* **-os** [-əuz], **-pi**) **1)** *mus.* temp, sur'at, tezlik, marom; **2)** (*yashash*) sur'ati.
- temporal I** [ˈtɛmprəl] *a* vaqtincha, o'tib ketadigan, muvaqqat.
- temporal II** [ˈtɛmprəl] *anat.* **1.** *a* chakkaga oid; **2.** *n* chakka suyagi.
- temporarily** [ˌtɛmpəˈrɪrɪ] *adv* vaqtincha, muvaqqat.
- temporality** [ˌtɛmpəˈrɪæləti] *n* 1) tez o'zgaradigan (*vaqtinchalik*) fe'l-atvor; 2) ibodatxona kirimlari (daromadlari).
- temporary** [ˈtɛmprəri] *a* vaqtinchalik, doimiy bo'lmagan, muvaqqat.
- temporize** [ˈtɛmpəraɪz] *v* 1) vaqtni cho'zmoq; 2) sustkashlik qilmoq, cho'zmoq, orqaga sudramoq, kechiktirmoq.
- tempt** [tɛmpt] *v* 1) jalb etmoq; undamoq; qiziqtirmoq; ishontirmoq; 2) aldab qo'ymoq, yo'ldan ozdirmoq; 3) sinab (tajriba qilib) ko'rmoq; **to ~ fate** taqdimi sinamoq, tavakkaliga harakat qilmoq.
- temptation** [tɛmpˈteɪʃn] *n* vasvasa, nafs (balosi), qiziqtirish, aldov.
- tempter** [ˈtɛmptə] *n* vasvasa qiluvchi, yo'ldan ozdiruvchi kishi.
- tempting** [ˈtɛmptɪŋ] **1.** *pres. p.* **tempt** *dan*; **2.** *a* qiziqtiradigan, jozibador, havasni keltiradigan.
- temptress** [ˈtɛmptɹəs] *n* vasvasa qiluvchi, yo'ldan ozdiruvchi (*ayol*).
- ten** [tɛn] *num. card.* o'n; **~th** *num. ord* o'ninchi.
- tenable** [ˈtɛnəbl] *a* mantiqan to'g'ri, izchil, durust, tuzuk.
- tenacious** [trˈneɪʃəs] *a* tirishqoq, ishga astoydil kirishadigan; **~ memory** yaxshi xotira.
- tenacity** [trˈnæsəti] *n* tirishqoqlik, o'tkirlik, kuchlilik.
- tenancy** [ˈtɛnənsɪ] *n* 1) bino (imorat, uy, joy)ni ijaraga olish; 2) ijaraning muddati; 3) ijaraga olingan yer; ijaraga olingan uy.
- tenant** [ˈtɛnənt] **1.** *n* ijarador, ijarachi; **2.** *v* ijaraga olmoq.
- tenantry** [ˈtɛnəntri] *n* ijaraga oluvchilar, ijarachilar.
- tench** [tɛnʃ] *n* lin (*zog'ora baliqning bir turi*).
- tend I** [tɛnd] *v* egilmoq, qarab bormoq, yaqinlashmoq.
- tend II** [tɛnd] *v* g'amini yemoq, g'amxo'rlik qilmoq.
- tendency** [ˈtɛndənsɪ] *n* intilish, niyat, moyillik, mayl, havas, qiziqish; **a ~ to corpulence** semirishga moyillik.
- tendious** [tɛnˈdɛnfəs] *n* muayyan bir g'oyani ilgari suradigan.
- tender I** [ˈtɛndə] *a* nozik, muloyim; xushmuomala, nafis.
- tender II** [ˈtɛndə] *n* 1) (rasmiiy) taklif; 2) (qarzga to'lanadigan) pul.
- tender III** [ˈtɛndə] *v* 1) taklif qilmoq; 2) talabnoma bermoq (*savdo-sotiq tashkilotlarida*); 3) (*qarzni*) to'lamoq.
- tenderfoot** [ˈtɛndəfut] *n* so'zl. yangi odam, yangi (endigina) kelgan odam.
- tender-hearted** [ˌtɛndəˈhɑːtɪd] *a* yaxshilikni ayamaydigan, ko'ngli yumshoq (bo'sh), ko'ngilchan, rahmdil.

tenderling [ˈtendəlɪŋ] *n* 1) nozik-nihol odam, nozik; 2) kichkina bola, chaqaloq.
tenderloin [ˈtendələɪn] *n amer.* 1) biqin go'sht; 2) qirqib olingan narsa, parcha.
tendinous [ˈtendɪnəs] *a* 1) chandir; 2) sertomir, serpoya; 3) muskullari rivojlangan, baquvvat.
tendon [ˈtendən] *n anat.* pay, chandir.
tendrill [ˈtendrəl] *n bot.* mo'ylovchalar, shox gajagi.
tenebrous [ˈtenɪbrəs] *a* qorong'i, qorong'ilik (zulmat) bosgan, zulmatdagi.
tenement [ˈtenəmənt] *n* ko'p kvartirali bino.
tenement-house [ˈtenəməntˈhaʊs] *n* ijaraga beriladigan ko'p kvartirali uy.
tenet [ˈtenɪt] *n lot.* 1) dogmat, din aqidalari; 2) ta'limot, nazariya.
tenfold [ˈtenfəʊld] **1.** *a* o'n marta oshirilgan, o'n karra qaytarilgan; **2.** *adv* o'n marta, o'n karra, o'n baravar.
tenner [ˈtənə] *n* o'nlik, o'ntalik (*pul*).
tennis [ˈtɛnɪs] *n* tennis (*sport o'yini*).
tennis-ball [ˈtɛnɪsbɔ:l] *n* tennis koptogi.
tenon [ˈtɛnən] *n* 1) tikan, tikanak; 2) shpilka; 3) tilcha.
tenor I [ˈtənə] *n* 1) oqish, oqib ketish, oqim; 2) umumiy ma'no; 3) nusxa.
tenor II [ˈtənə] *n mus.* tenor (*erkaklarning eng baland ovozi*).
tense I [tɛns] *n gram.* zamon; **past** ~ o'tgan zamon.
tense II [tɛns] *a* 1) hayajonli; 2) tarang tortilgan, keskin, murakkab, tang; **the situation is** ~ ahvol murakkab; 3) hayajonlangan.
tensely [ˈtɛnsli] *adv* qattiq g'ayrat qilib, zo'r berib, bor kuch (zo'r, g'ayrat) bilan.
tensile [ˈtɛnsəl] *a* cho'ziladigan, uzayadigan, cho'ziluvchan.
tensility [tɛnˈsɪləti] *n* cho'ziluvchanlik, kengayuvchanlik.
tension [ˈtɛnʃn] *n* 1) kuchlanish; kuchanish; 2) keskinlik.
tensity [ˈtɛnsəti] *n* 1) qizg'inlik, zo'rlik; 2) jiddiylik, tanglik, keskinlik.
tent I [tɛnt] **1.** *n* palatka, chodir; **2.** *v* chodir qurmoq, palatkada yashamoq.
tent II [tɛnt] **1.** *n* tampon (*yara ichiga tiqiladigan, qon va yiringni shimib oladigan dorilangan paxta yoki doka*); **2.** *v* tampon qo'ymoq.
tent III [tɛnt] *n* kuchsiz qizil ispan vinosi.
tentacle [ˈtɛntəkl] *n* paypaslagich (*ba'zi hayvon va hasharotlarning mo'ylovsimon qo'llari*).
tentative [ˈtɛntətɪv] *a* sinashga oid, sinash uchun belgilangan, tajribaga mo'ljallangan.
tent-bed [ˈtɛntbed] *n* ko'chma karavot.
tenterhooks [ˈtɛntəhuks] *n pl to'qim.* tarang qilib tortadigan ilgak.
tenth [tɛnθ] *num. ord.* o'ninchi.
tenuity [tɛˈnju:əti] *n* 1) havoning siyrakligi; 2) yupqalik, nafis; ingichkalik, xipchalik.

tenuous [ˈtenjuəs] *a* 1) uncha ko'p bo'lmagan, ozgina (*farq haqida*); 2) siyrak, siyraklashgan (*havo haqida*).
tenure [ˈtɛnjə] *n* 1) egalik, egalik qilish; xo'jayinlik; 2) biror mansabda bo'lish (turish).
tepid [ˈtɛpɪd] *a* iliq, sal issiq.
teratology [ˌtɛrəˈtɒlədʒi] *n biol.* teratologiya (*odam, hayvon va o'simliklarning rivojlanish nuqsонlari hamda mayib-majruhlikni o'rganadigan fan*).
terbium [ˈtɛ:biəm] *n kim.* terbiy (*lattonoidlar guruhiga mansub metall*).
tercel [ˈtɛ:sl] *n* lochin (*erkagi*).
tercet [ˈtɛ:st] *n* 1) *mus.* uch kishilik ansambli; 2) uch misrali she'r yoki she'rning uch misrali bir bandi.
teredo [ˈtɛ:ri:dəʊ] *n zool.* yog'och qurti.
terete [ˈtɛ:ri:tə] *a* silindrsimon, silindr shaklidagi.
tergal [ˈtɛ:gəl] *a zool. anat.* orqadagi, orqa...
tergiversate [ˈtɛ:dʒɪvə:seɪt] *v* 1) chalg'itmoq, gapni boshqa yoqqa burib (aylantirib) qutulmoq; 2) sotqinlik (xo'inlik) qilmoq, xiyonat qilmoq.
tergiversation [ˌtɛ:dʒɪvə:ˈseɪʃn] *n* hiyla, nayrang; vaj, gapni aylantirish.
term [tɜ:m] **1.** *n* 1) muddat, fursat, vaqt; ~ **of office** vakolat muddati; ~ **of service** xizmat muddati; 2) semestr, chorak; **university** ~ universitet semestri; 3) shart; ~ **s of payment** to'lov sharti; 4) termin; **2.** *v* ifoda etmoq, atamoq.
termagant [ˈtɛ:məgənt] **1.** *n* janjalkash ayol; **2.** *a* janjalkash, mijg'ov.
termer [ˈtɛ:mə] *n* jazo muddatini o'tayotgan jinoyatchi.
terminable [ˈtɛ:mɪnəbl] *a* muddati belgilangan (cheklangan).
terminal [ˈtɛ:mɪnəl] *n* 1) bekat; 2) oxirgi bo'g'in yoki so'z; **2.** *a* oxirgi; ~ **station** oxirgi bekat.
terminate [ˈtɛ:mɪneɪt] *v* tugatmoq, oxiriga yetkazmoq, bitirmoq, chek qo'ymoq.
termination [ˌtɛ:mɪˈneɪʃn] *n* oxir, poyon, tamom, natija; 2) muddatning tugashi.
termini [ˈtɛ:mɪnɪ] *n* vokzal, so'nggi bekat.
terminology [ˌtɛ:mɪˈnɒlədʒi] *n* terminologiya (*muayyan bir sohaga oid terminlar majmuyi va tilshunoslikning terminlarni tartibga solish haqidagi bo'limi*).
terminus [ˈtɛ:mɪnəs] *n* (*pl* -es [-ɪz], -ni) oxirgi stansiya, oxirgi bekat.
termitary [ˈtɛ:mɪtəri] *n* termit (qirchumoli) ini.
tern [tɜ:n] *n* uchlik, uchta son.
ternary [ˈtɛ:nəri] *n* uch raqami, uchlik.
terra [ˈtɛrə] *n lot.* yer, zamin, tuproq; yer yuzi, olam.
terrace [ˈtɛrəs] *n* ayvon, peshayvon.
terracotta [ˌtɛrəˈkɒtə] *n* terrakota (kuydirilgan qizg'ish-jigarrang gil)dan ishlangan buyumlar.
terrain [tɛˈreɪn] *n* joy, yer, maydon, sahn.
terraneous [tɛˈreɪnəs] *a bot.* yerdagi, yer ustidagi (betidagi, yuzidagi).

- terrapin** [ˈtɛrəpɪn] *n* 1) suv toshbaqasi; 2) ham suvda, ham quruqlikda yura oladigan avtomobil.
- teraqueous** [teˈrɛkwɪəs] *a* 1) suv va yerdan iborat boʻlgan; 2) quruqlik va dengiz boʻylab qilinadigan (*sayohat*); 3) ham suvda ham quruqlikda yashovchi.
- terrene** [teˈri:n] **1.** *a* 1) yer...; 2) *koʻchm.* dunyoviy; **2.** *n* yerning yuzi (usti, sirti).
- terrestrial** [təˈrɛstriəl] *a* dunyoviy; quruqlikdagi, yer yuzidagi.
- terrible** [ˈtɛrəbl] *a* qoʻrqinchli, dahshatli; ~ *news* qoʻrqinchli xabar.
- terribly** [ˈtɛrəblɪ] *adv* odam qoʻrqadigan (odamni vahimaga soladigan, qoʻrqitadigan) darajada.
- terrier** [ˈtɛriə] *a* terer (*kichik hayvonlarni ovlaydigan it*).
- terrific** [təˈrɪfɪk] *a* dahshatli, dahshat soladigan, vahimali, mudhish.
- terrifically** [təˈrɪfɪkəlɪ] *adv* 1) juda, gʻoyat, nihoyat darajada, juda qattiq; 2) doʻndirib, juda yaxshi (soz), ajoyib.
- terrified** [ˈtɛrɪfaɪd] *a* 1) qoʻrqib (choʻchib) qolgan; 2) yurak oldirgan.
- terrify** [ˈtɛrəfaɪ] *v* qoʻrqitib yubormoq, dahshatga solmoq, vahimaga solmoq.
- territorial** [ˌtɛrɪˈtɔ:riəl] *a* territorial, hududiy, mahalliy; ~ *waters* territorial suvlar.
- territory** [ˈtɛrətəri] *n* terrioriya, maydon.
- terror** [ˈtɛrə] *n* 1) qoʻrqinch, qoʻrquv, vahima, dahshat; 2) terror.
- terrorism** [ˈtɛrəɪzɪm] *n* terrorizm (*terrorlik siyosati va taktikasi*).
- terrorist** [ˈtɛrəɪst] *n* terrorist, terrorchi.
- terrorize** [ˈtɛrəɪz] *v* qoʻrqitmoq, dahshat solmoq, qoʻrqitib oʻz hukmini oʻtkazmoq.
- terry-cloth robe** [ˌtɛrɪklɔθ rəʊb] *n* choʻmilganda kiyiladigan xalat.
- terse** [tə:s] *a* qisqa, ifodali.
- tertian** [ˈtɛ:ʃn] *n* tib. malariya, bezgak.
- tertiary** [ˈtɛ:ʃəri] *a* 1) *geol.* uchlamchi (*kaynozoy erasining birinchi davriga oid*); 2) *tib.* uchinchi bosqichga yoki davrga oid (*kasallik haqida*).
- terzetto** [tə:tˈsetəʊ] *n* *mus.* uch kishilik ansambl.
- tessellated** [ˈtesələtɪd] *a* 1) mozaikaga oid, qadama, koshinkor; 2) turli rangdagi toshtaxta yotqizilgan.
- tessellation** [ˌtesəˈleɪʃn] *n* shaxmat katagiga oʻxshatilgan mozaik (koshinkor) ish.
- tessera** [ˈtesərə] *n* (*pl -rae*) kubik (*bolalar oʻyin-chogʻi*).
- tesserae** [ˈtesəri:] *pl* tessera *dan*.
- tessitura** [ˌtesɪˈtuərə] *n* *mus.* tessitura.
- test** [test] **1.** *n* 1) sinov, tekshirish, sinash; 2) nazorat ishi; 3) imtihon; **2.** *v* tekshirmoq, sinab koʻrmoq, sinovdan oʻtkazmoq.
- testa** [ˈtestə] *n* (*pl -ae*) zirh, kosa (*umurtqasiz hayvonlarda*).
- testaceous** [teˈsteɪʃəs] *a* 1) *zool.* zirhli, sovutli; 2) gʻisht rangidagi; qizgʻish (*hayvonlar va oʻsimliklar haqida*).
- testae** [ˈtesti:] *pl* testa *dan*.
- testament** [ˈtestəmənt] *n* *yur.* vasiyat, vasiyatnoma.
- testamentary** [ˌtestəˈmentəri] *a* vasiyat bilan bogʻliq boʻlgan.
- testator** [teˈstetə] *n* vasiyat qiluvchi, vasiyat qilib qoldirgan shaxs (*erkak*).
- testatrices** [teˈstetɪrɪsɪ:z] *n* vasiyat qiluvchi (*ayol*).
- tester I** [ˈtestə] *n* sinov (tahlil) oʻtkazadigan shaxs; laborant.
- tester II** [ˈtestə] *n* guldor qimmatbaho chodir, choyshab (*karavot ustiga solish uchun*).
- tester III** [ˈtestə] *n* teston (*qadimiy kumush tanga*).
- testicle** [ˈtestɪkl] *n* *anat.* moyak, tuxum.
- testification** [ˌtestɪfɪˈkeɪʃn] *n* guvohlik berish.
- testify** [ˈtestɪfaɪ] *v* 1) guvohlik bermoq, guvoh boʻlmoq; 2) tasdiqlamoq.
- testily** [ˈtestɪli] *adv* qizishib, jahl bilan, achchigʻi chiqib.
- testimonial** [ˌtestɪˈmɔ:niəl] **1.** *n* 1) tavsifnoma; 2) tavsiyanoma; **2.** *a* 1) minnatdorchilikni ifodalovchi; 2) tabrikka oid.
- testimony** [ˈtestɪməni] *n* 1) ogʻzaki maʼlumot, koʻrsatma, guvohlik; 2) isbotlash; 2) tasdiqlash.
- test-mixer** [ˈtest,mɪksə] *n* menzurka (*oʻlchovchi shisha idish*).
- test-paper** [ˈtest,pɛɪpə] *n* 1) *kim.* reaktiv qogʻoz; 2) yozma ish qogʻozi.
- test pit** [ˈtestpɪt] *n* *geol.* tekshirish uchun qazilgan quduq (*yoriq, teshik*).
- test-tube** [ˈtesttju:b] *n* probirka (*laboratoriya ishchilarida qoʻllanadigan bir tomoni berk yupqa shisha naycha*).
- testy** [ˈtestɪ] *a* jahli (achchigʻi, zardasi) tez, qiziqqan, jizzaki.
- tetanic** [teˈtænik] *a* *tib.* qoqshol kasaliga oid.
- tetanus** [ˈtɛtənəs] *n* qoqshol (*odamni tirishtirib, qotirib qoʻyadigan yuqumli kasallik*).
- tetchy** [ˈtɛtʃɪ] *a* 1) salga xafa boʻlaveradigan, taʼbi nozik; 2) asov, qaysar, ters; ~ *horse* asov ot.
- tether** [ˈtɛðə] **1.** *n* (*oʻtlab yurgan hayvonlarni bogʻlab qoʻyiladigan*) arqon, zanjir, qayish; **2.** *v* bogʻlab qoʻymoq (*oʻtlab yurgan hayvonlarni*).
- tetra-** [ˈtɛtrə] *pref.* toʻrt-.
- tetragon** [ˈtɛtrəɡɔn] *n* *geom.* toʻrtburchak; **regulalar** ~ kvadrat.
- tetragonal** [teˈtrægənɪ] *a* *geom.* toʻrtburchakli, toʻrtburchak.
- tetrahedron** [ˌtɛtrəˈhedrən] *n* *geom.* 1) toʻrt yoqli (*geometrik shakl*); 2) tetraedr (*hamma yoqlari uchburchakdan iborat toʻrtyoqlik*).
- tetralogy** [təˈtrælədʒɪ] *n* tetralogiya (*gʻoyasi va mazmuni bir boʻlgan toʻrtta adabiy yoki musiqiy asar*).

tetrameter [te 'træmɪtə] *n* *adab.* tetrametr (*to'rt bandli antik she'r*).

tetrastich ['tetrəstɪk] *n* to'rt qatorli she'r.

tetrasyllable ['tetrə,sɪləbl] *n* to'rt bo'g'inli so'z.

tetter ['tɛtə] *n* *tib.* temiratki, chilla yara, qo'tir.

- victory** [ˈvɪktəri] *n* g‘alaba, zafar, yutuq; **to win a convincing** ~ ishonchli g‘alaba qozonmoq.
- victress** [ˈvɪktrəs] *n* yengib chiqqan (yutgan, g‘alaba qozongan) ayol.
- victual** [ˈvɪtʃl] **1.** *n* ovqat, oziq, taom; **2.** *v* oziq-ovqat bilan ta‘minlamoq.
- victualler** [ˈvɪtʃlə] *n* oziq-ovqat bilan ta‘minlovchi, oziq-ovqat yetkazuvchi kishi.
- victualling** [ˈvɪtʃlɪŋ] **1.** *pres. p.* **victual** **2.** *dan*; **2.** *n* oziq-ovqat bilan ta‘minlash, oziq-ovqat yetkazib berish.
- victualling-yard** [ˈvɪtʃlɪŋjɑːd] *n* oziq-ovqat ombori.
- vicugna**, **vicuña** [viˈkjuːnə] *n* zool. vigon (*Janubiy Amerikada yashovchi tuyasimon hayvon*).
- vide** [ˈvaɪdɪ] *lot. v imp.* qara(moq); ~ **supra** yuqoriga qaramoq; ~ **infra** pastga qaramoq.
- videlicet** [vɪˈdiːlɪset] *adv lot.* 1) xuddi, naqd, ayni, aniq; 2) chunonchi, masalan, ya‘ni.
- video** [ˈvɪdɪəʊ] **1.** *n* 1) video; 2) *amer.* televideniya; **2.** *a* televideniya o‘id, televideniya taalluqli bo‘lgan; video.
- vidimus** [ˈvɪdɪməs] *n* 1) hujjatlarni rasmiy tekshirish; 2) tasdiqlangan nusxa.
- vie** [vaɪ] *v* raqib bo‘lmoq, raqobat qilmoq, bahslashmoq; **to ~ with smb. for smth.** kim bilandir nimadir haqida bahslashmoq; **to ~ in doing smth.** nimadir haqida bahslashmoq.
- Viennese** [ˌviːəˈniːz] **1.** *a* Venaga o‘id, Vena; **2.** *n* Vena fuqarosi, venalik kishi.
- Viet-Nameese**, **Vietnamese** [ˌviːtnəˈmiːz] **1.** *a* Vyetnam va vyetnamliklarga o‘id, Vyetnam...; **2.** *n* Vyetnam, vyetnamlik, vyetnamlik ayol.
- view** [vjuː] **1.** *n* 1) fikr, qarash; 2) ko‘rinish, qiyofa, tus, chehra, aft, bashara, **point of~** nuqtayi nazar; **progressive social** ~ ilg‘or ijtimoiy qarashlar; **2.** *v* muhokama qilmoq, ko‘rib chiqmoq.
- viewer** [ˈvjuːə] *n* tomoshabin, tomoshachi, kuzatuvchi.
- view-finder** [ˈvjuːˌfaɪndə] *n* foto. vidoiskatel (*foto va kinoapparatlarning suratga oladigan obyekt holatini kuzatish uchun xizmat qiladigan moslamasi*).
- viewless** [ˈvjuːləs] *a* ko‘rinmaydigan, bilinmaydigan, ko‘rinmas.
- view-point** [ˈvjuːpɔɪnt] *n* nuqtayi nazar, qarash.
- viewy** [ˈvjuːɪ] *a so‘zl.* 1) (*tabiati*) qiziqroq, g‘alatiroq, tentaksimon; 2) hashamatli, muhtasham.
- vigil** [ˈvɪdʒɪl] *n* 1) bedorlik, bedor bo‘lish, uxlamaslik, uyg‘oq turish (*bo‘lish*), hushyorlik, sergaklik; 2) navbatchilik.
- vigilance** [ˈvɪdʒələns] *n* 1) hushyorlik, ogohlik, ziyraklik, sezgirlik; **to preserve one’s** ~ hushyorlikni saqlamoq, sergak bo‘lmoq; 2) *tib.* uyqusizlik, bedorlik; uyqusizlik kasali.
- vigilant** [ˈvɪdʒələnt] *a* hushyor, ziyrak, sergak, sezgir, ogoh.
- vigilante** [ˌvɪdʒɪˈləntɪ] *n* drujinachi, drujina a‘zosi.
- vignette** [vɪnˈjet] **1.** *n* vinyetka (*kitobning bosh va oxirgi sahifasiga solingan gul*); **2.** *v* vinyetka chizmoq.
- vigogne** [vɪˈgəʊn] *n* to‘qim. vigon (*dag‘al yung bilan paxta aralashmasidan eshilgan ip*).
- vigor** [ˈvɪgə] *amer.* = **vigour**.
- vigorous** [ˈvɪgərəs] *a* g‘ayratli, dadil, kuchli, zabardast.
- vigorously** [ˈvɪgərəsli] *adv* kuch (zarb, shiddat) bilan.
- vigour** [ˈvɪgə] *n* kuch, quvvat, tinka, mador, majol, darmon.
- Viking** [ˈvaɪkɪŋ] *n* tar. viking (*qadimgi Skandinaviyada harbiy dengiz askari*).
- vile** [vaɪl] *a* razil, qabih, yaramas, pastkash.
- vilification** [ˌvɪlɪfɪˈkeɪʃn] *n* qattiq so‘kish, haqorat qilish.
- vilify** [ˈvɪlɪfaɪ] *v* qattiq so‘kmoq, haqoratlamoq, haqorat qilmoq.
- villa** [ˈvɪlə] *n* villa (*bog‘li koshona*).
- village** [ˈvɪlɪdʒ] *n* qishloq.
- villager** [ˈvɪlɪdʒə] *n* qishloqlik, qishloqda yashovchi kishi.
- villain** [ˈvɪləɪn] *n* jinoyatchi, badkor, badkirdor, yaramas, razil (*qabih, past*) odam, ablah, nobakor.
- villainous** [ˈvɪləniəs] *a* ablahona, xunuk, iflos, jirkanch, qabih.
- villainy** [ˈvɪləni] *n* yaramaslik, razillik, ifloslik, xunuklik.
- vim** [vɪm] *n* so‘zl. energiya, quvvat, kuch, tinka, mador, majol, darmon.
- vincible** [ˈvɪnsɪbl] *a* yengib (*yoki yengsa*) bo‘ladigan, yengish mumkin bo‘lgan.

vindicate [ˈvɪndɪkeɪt] *v* isbotlamoq, isbot qilmoq; **to ~ one's courage** o'zining jasoratini ko'rsatmoq.

vindication [ˌvɪndɪˈkeɪʃn] *n* dalil, isbot.

vindicator [ˈvɪndɪkeɪtə] *n* himoyachi, himoya (mudofaa) qiluvchi, mudofaa...

vindicatory [ˈvɪndɪkətəri] *a* himoya qiladigan, yoqlaydigan, yoqlovchi, himoya, yoqlash...

vindictive [vɪnˈdɪktɪv] *a* kek saqlovchi, qasos olmay qo'ymaydigan, kekni unutmaydigan.

vine [vaɪn] *n* 1) tok novdasi; 2) tok, uzum; ~ **culture** uzumchilik; **ground** ~ palak.

vinedresser [ˈvaɪn,dresə] *n* tokchi (*uzumchi*) bog'bon, sohibkor.

vinegar [ˈvɪnɪgə] *n* 1) sirka; 2) yoqimsiz (yomon) fe'l-atvor (xarakter); 3) qo'rs javob.

vinegary [ˈvɪnɪgəri] *a* 1) sirkaga oid, sirka...; 2) yoqimsiz, xunuk; ~ **smile** yoqimsiz tabassum.

vine-prop [ˈvaɪnprɒp] *n* 1) shpalera (*devorga osilgan tuksiz gilam yoki suratlar tushirilgan gilam-simon mato*); 2) o'gz. gulqog'oz.

vinery [ˈvaɪnəri] *n* uzum issiqxonasi, tok o'stirish uchun qilingan issiqxona.

vineyard [ˈvɪnjəd] *n* tokzor, uzumzor.

viticulture [ˈvɪmkʌltʃə] = **viticulture**.

vino [ˈvɪnəʊ] *n* (*pl -oes [-əʊz]*) so'zl. arzon vino (musallas, may, sharob, boda).

vin-ordinaire [ˌvænoːdriˈneə] *n* fr. arzon qizil musallas.

vinous [ˈvaɪnəs] *a* vinoga oid, vinobop; vinoli, sharobli.

vintage [ˈvɪntɪdʒ] **1.** *n* uzumning hosili; ~ **wine** oliy navli musallas; **2.** *v* 1) uzum termoq; 2) uzum vinosi (musallas) tayyorlamoq.

vintager [ˈvɪntɪdʒə] *n* uzum teruvchi (yig'uvchi, yig'ib terib oluvchi) kishi.

viol [ˈvaɪəl] *n* mus. viola (*skripkasimon musiqa asbobi*).

viola I [vɪˈəʊlə] *n* alt (*past ovozli qilli yoki puflab chalindigan musiqa asbobi*).

viola II [ˌvaɪələ] *n* bot. binafsha, gunafsha.

violaceous [ˌvaɪəˈleɪʃəs] *a* 1) binafshaga oid, binafsha...; 2) binafsha rang, gunafsha rang.

violate [ˈvaɪələt] *v* buzmoq, chetga chiqmoq; **to ~ the law** qonunni buzmoq.

violation [ˌvaɪəˈleɪʃn] *n* 1) buzish, rioya qilmaslik, bajarmaslik; 2) kuch ishlatish; kuchini ko'rsatish.

violator [ˈvaɪələtə] *n* buzuvchi, buzg'unchi.

violence [ˈvaɪələns] *n* 1) kuch-quvvat: tinka, jaza-va, hayajon; 2) kuch ishlatish, zo'rlash.

violent [ˈvaɪələnt] *a* 1) jazava (*g'azab, hayajon va shu kabidan o'zini bilmaydigan*), g'azabi oshgan, darg'azab, quturgan; 2) kuchli, quvvatli.

violently [ˈvaɪələntli] *adv* 1) juda, g'oyat, qattiq, nihoyat darajada; 2) kuch (zarb, shiddat) bilan.

violet [ˈvaɪələt] *n* 1) binafsha, gunafsha; 2) binafsha rang.

violin [ˌvaɪəˈlɪn] *n* skripka; g'ijjak; ~ist skripkachi, g'ijjakchi.

violinist [ˌvaɪəˈlɪnɪst] *n* skripkachi.

violoncellist [ˌvaɪələnˈtʃelɪst] = **'cellist**.

violoncello [ˌvaɪələnˈtʃeləʊ] = **'cello**.

viper [ˈvaɪpə] *n* 1) *zool.* qora ilon (*yapaloq boshli zaharli ilon*); 2) *ko'ch.* makkor, yovuz odam.

viperous [ˈvaɪpərəs] *a* 1) zaharli; 2) yomon, yovuz, serjahl, g'azablangan.

virago [vɪˈrɑːɡəʊ] *n* (*pl -os, -oes [-əʊz]*) janjalkash ayol, badjahl ayol.

virgin [ˈvɜːdʒɪn] **1.** *n* 1) qiz; iffatli qiz, ma'suma, bokira; 2) qo'riq, bo'z yer; **2.** *a* qizlik davridagi, qizlarga xos bo'lgan.

virginal [ˈvɜːdʒɪnl] *a* iffatli, ma'sum, bokira, pok; beayb, aybsiz, gunohsiz.

virginity [ˈvɜːdʒɪnəti] *n* iffatlilik, ma'sumlik, bokiralik; iffat.

Virgo [ˈvɜːɡəʊ] *n* *astr.* sunbula (*burj*).

viridity [vɪˈrɪdəti] *n* 1) maysa, o't; o'simliklar, barglar; ko'kalamzor; 2) yangilik, tozalik, soflik.

virile [ˈvɪraɪl] *a* 1) balog'atga (voyaga) yetgan; 2) yetilgan, yetilib pishgan, pishiq.

virility [vɪˈrɪləti] *n* mardlik, botirlik, jasurlik, jasorat.

virology [ˌvaɪˈrɒlədʒɪ] *n* virusologiya (*mikrobiologiyaning viruslar haqidagi bo'limi*).

virtu [vɜːˈtuː] *n* : **articles of ~** noyob san'at, *pl* nodir narsalar.

virtual [ˈvɜːtʃuəl] *a* haqiqiy, chin; ~ **rulers of a country** mamlakatning haqiqiy rahbarlari.

virtually [ˈvɜːtʃuəli] *adv* 1) aslida, haqiqatan; 2) aslini (haqiqatni) olganda, to'g'risini aytganda, gapning to'g'risi.

virtue [ˈvɜːtʃuː] *n* 1) yaxshi fazilat, yaxshi xislat; 2) saxovat, himmat, ezgu ish; **a man of ~** saxovatli kishi.

virtuosi [ˌvɜːtʃuˈəʊziː] *pl* **virtuoso dan.**

virtuosity [ˌvɜːtʃuˈɔːsəti] *n* yuksak mahorat, mohirlik, ustalik.

virtuoso [ˌvɜːtʃuˈəʊzəʊ] *it. n* (*pl -os [-əʊz]*, *si*) 1) yuksak mahoratli san'atkor; 2) o'z ishiga mohir odam, usta.

virtuous [ˈvɜːtʃuəs] *a* yaxshi fazilatlariga ega bo'lgan saxovatli; himmatli; xayrli, ezgu.

virulence [ˈvɪrələns] *n* 1) zaharlilik, zaharli bo'lish; 2) kek, adovat, xusumat, gina; 3) yomonlik, yovuzlik.

virulent [ˈvɪrələnt] *a* 1) zaharli, og'uli; 2) xavfli, og'ir (*kasallik haqida*); 3) dushmanlik ruhidagi.

virus [ˈvaɪrəs] *n* lot. virus (*yuqumli kasallikni qo'zg'atuvchi, yuqtiruvchi mikroorganizm*).

visa [ˈviːzə] **1.** *n* viza, ruxsatnoma; **to grant a ~** ruxsatnoma (viza) bermoq; **entrance (yoki entry)** ~ kirish ruxsatnomasi; **exit** ~ chiqish ruxsatnomasi; **2.** *v* ijozat bermoq, viza qo'ymoq.

visage [ˈvɪzɪdʒ] *n* yuz, bet, aft, bashara, chehra.

visard [ˈvɪzəd] = **visor**.

vis-à-vis [vi:zɑ:ˈvi:] *n fr.* ro'para, yuzma-yuz, betma-bet, qarama-qarshi.

viscera [ˈvɪsərə] *lot. n pl* ich, qorin, ichak-chovoq.

visceral [ˈvɪsərəl] *a* ich, qorin, ichak-chovoqqa oid, ich...; qorin...; ichak-chovoq...

viscid [ˈvɪsɪd] = **viscous**.

viscose [ˈvɪskəs] *n to'qim.* viskoza (*sun'iy tola va sellofan tayyorlash uchun ishlatiladigan modda*).

viscosity [vɪˈskɒsəti] *n 1* egiluvchanlik, qayishqoqlik; 2) yopishqoqlik, yelimshaklik, qovushqoqlik.

viscount [ˈvaɪkaunt] *n* vikont (*Angliya, Fransiya va ba'zi boshqa mamlakatlarda: baron bilan graf o'rtasidagi dvoryanlik unvoni*).

viscountess [ˈvaɪkauntɪs] *n* vikont xotini *yoki* qizi.

viscous [ˈvɪskəs] *a 1* egiluvchan, qayishqoq; 2) yopishqoq, qovushqoq, yelimshak.

vise [vaɪz] *amer.* = **vice IV**.

visibility [vɪzəˈbɪləti] *n 1* ko'rinish, ko'z ilg'ash, sirtidan ko'rinish, zohiriy tomon; 2) ko'rish, ko'ra olish.

visible [ˈvɪzəbl] *a 1* ko'zga ko'rinadigan, ko'rib bo'ladigan, ko'z ilg'aydigan, ko'rinarli, zohir; 2) oshkor, aniq.

visibly [ˈvɪzəblɪ] *adv 1* aftidan, chamasi, shekilli; 2) sezilarli darajada, ancha.

vision [ˈvɪʒn] *n* ko'rish qobiliyati, ko'rish, ko'z; **to lose one's** ~ ko'rish qobiliyatini yo'qotmoq, ko'r bo'lmoq.

visional [ˈvɪʒnəl] *a 1* ko'rishga oid; ko'rish...; 2) tasavvurdagi, faraz qilingan, tasavvur qilindigan.

visionary [vɪʒnəri] **1.** *a* xayolda (tasavvurda) ko'rinadigan, xayoldagi, xayoliy; **2.** *n* orzu-xayollarga beriluvchan odam, xayolparast.

visit [ˈvɪzɪt] **1.** *n* tashrif, safar, kelib (borib) ko'rish, borish; **to make (yoki to pay)** **a** ~ tashrif buyurmoq; **return** ~ javob safari; **mutual reciprocal** ~s o'zaro tashrif(lar); **goodwill** ~ yaxshi niyatli tashrif; **2.** *v* kelib (borib) ko'rmoq, tashrif buyurmoq, safar qilmoq.

visitable [ˈvɪzɪtəbl] *a* keluvchilar uchun ochiq.

visitant [ˈvɪzɪtənt] *n 1* *shoir.* mehmon, mo'tabar (aziz) mehmon; 2) ko'chmanchi qush (*ko'klamda shimol tomonga, kuzda janubga uchib o'tadigan qushlar*).

visitation [ˈvɪzɪˈteɪʃən] *n 1* rasmiy tashrif; 2) aylanib o'tish, chetlab o'tish.

visitatorial [ˈvɪzɪtəˈtɔ:riəl] *a* inspektorga (nazoratchiga) oid; inspektor...; inspektorlik.

visiting [ˈvɪzɪtɪŋ] **1.** *pres. p.* **visit 2. dan;** **2.** *a* qatnovchi, tashrif buyuruvchi.

visiting-card [ˈvɪzɪtɪŋkɑ:d] *n* vizit kartochkasi.

visiting-day [ˈvɪzɪtɪŋdeɪ] *a* qabul kuni; mehmonlarni qabul qilish kuni.

visiting professor [ˈvɪzɪtɪŋprəˈfesə] *n* dorilfununda leksiya o'qish uchun ma'lum fanlardan chaqirilgan mutaxassis.

visiting-round [ˈvɪzɪtɪŋˈraʊnd] *n* (*qorovullarni, kasallarni*) aylanib chiqish, ko'rib chiqish.

visiting teacher [ˈvɪzɪtɪŋˈti:tʃə] *n amer.* kasal *yoki* nogiron o'quvchilarning o'qitilishini nazorat qilish zimmasiga yuklatilgan maktab o'qituvchisi.

visitor [ˈvɪzɪtə] *n* tashrif etuvchi, mehmon, tashrif buyurgan kishi.

visor [ˈvaɪzə] *n* soyabon (*bosh kiyimida*).

vista [ˈvɪstə] *n 1* manzara, uzoqdan ko'rinish; 2) xiyobon; 3) o'rmon so'qmog'i; 4) xotiralar silsilasi, bitmas-tuganmas (*xotiralar*).

visual [ˈvɪzuəl] *a* ko'rgazmali; ko'rishga oid, ko'rish...; ~ **nerve** ko'rish nervi (*asabi*); ~ **memory** ko'z xotirasi (*ko'rganni eslab qolish qobiliyati*); ~ **aids** ko'rgazmali qurollar.

visualization [ˈvɪzuəlaɪˈzeɪʃn] *n* aniq (*yaqqol*) ko'rish obrazi.

visualize [ˈvɪzuəlaɪz] *v* xayolida ko'rmoq, xayolan tasavvur qilmoq.

vita [ˈvi:tə] *n* qisqacha tarjimayi hol.

vita glass [ˈvi:təˈglɑ:s] *n* ultrabinafsha nurlanish o'tqazadigan oyna.

vital [ˈvɑ:tl] *a 1* hayotiy, zaruriy, muhim; 2) hayotda (turmushda) bo'ladigan; hayotdan olingan.

vitalism [ˈvaɪtəlɪzəm] *n* *biol.* vitalizm (*hayotiy jaryonlar moddiy sabablarga emas, balki ilohiy kuchlarga bog'liq deb da'vo qiluvchi idealistik oqim*).

vitality [vaɪˈtæləti] *n* yashash qobiliyati, yashovchanlik, yashay olish.

vitals [ˈvaɪtlz] *n pl 1* hayot uchun kerak bo'lgan a'zolar (*organlar*); 2) eng muhim (*kerakli*) qismlar, markazlar va b.

vitamin [ˈvɪtəmɪn] **1.** *n* vitamin; **2.** *attr.* vitamininga oid, vitaminli; ~ **tablets** vitamin tabletkalari; ~ **deficiency** *tib.* avitaminoz (*vitaminlar yetishmasligi natijasida ro'y beradigan kasallik*).

vitiate [ˈvɪtɪeɪt] *v* buzmoq, buzib qo'yimoq, ishdan chiqarmoq.

vitiating [ˈvɪtɪeɪtɪŋ] *n* buzilish, aynish, ishdan chiqish.

viticulture [ˈvɪtɪkʌltʃə] *n* tokchilik, uzumchilik, sohibkorlik.

vitreous [ˈvɪtrɪəs] *a* shisha ko'rinishidagi, shishaga o'xshash; ~ **body** (*yoki humour*) *anat.* shishasi-mon modda (*ko'zda*).

vitrification [ˈvɪtrɪfɪˈkeɪʃn] *n* oyna *yoki* oynasi-mon moddaga aylanish.

vitrify [ˈvɪtrɪfaɪ] *v* oynaga *yoki* oynasi-mon moddaga aylantirish.

vitriol [ˈvɪtriəl] *n* kuporos (*sulfat kislotada tuzlaning texnik nomi*).

vitriolic [ˈvɪtriˈɔ:llɪk] *a* kuporosga oid, kuporosli.

vituperate [vaɪˈtju:pəreɪt] *v* so'kmoq, urishmoq, koyimoq.

vituperation [vaɪˈtju:pəˈreɪʃn] *n 1* uyatli so'z, so'kish so'zlari; 2) urush, jang; 3) qattiq so'kish, haqorat qilish.

- vituperative** [vaɪˈtʃu:pəreɪtv] *a* haqoratli, uyatli, haqorat..., uyat..., so'kish..., koyish...
- viva I** [vi:və] **1.** *int.* yashasin!; **2.** *n* tabrik, tabriklash.
- viva II** [ˈvaɪvə] *so'zl.* **viva voce** *dan.*
- vivacious** [vɪˈveɪʃəs] *a* g'ayratli, jonli, quvnoq, ruhi ko'tarilgan, kayfi chog'.
- vivacity** [vɪˈvæsəti] *n* jonlilik, tezlik, ildamlilik, chaqqonlik, qizg'inlik, jo'shqinlik.
- vivaria** [vaɪˈvɛəriə] *pl* **vivarium** *dan.*
- vivarium** [vaɪˈvɛəriəm] *n* (*pl -ia*) **1**) vivariy (*hayvonlar ustida tajriba o'tkaziladigan maxsus joy*); **2**) xona, katalak; **3**) *ov.* qopqon, dom.
- viva voce** [ˌvaɪvəˈvəʊtʃɪ] **1.** *n* *lot.* og'zaki imtihon; **2.** *a* og'zaki; ~ **examination** og'zaki imtihon.
- vivid** [ˈvɪvɪd] *a* **1**) yorug', yorqin, charaqlagan, qizg'in, jo'shqin, g'ayratli, yuragida o'ti bor; ~ **imagination** jo'shqin xayol.
- vivify** [ˈvɪvɪfaɪ] *v* **1**) tiriltirmoq, jon kiritmoq; **2**) tekislashtirmoq, jonlantirmoq, g'ayrat bag'ishlamoq.
- viviparous** [vɪˈvɪpərəs] *a* *zool.* bola tug'adigan (*tuxum ochmay bolalaydigan*).
- vivisect** [ˈvɪvɪsekt] *v* tirik hayvonni *yoki* tirik hayvon organizmini yorib tekshirmoq.
- vivisection** [ˌvɪvɪˈseksjən] *n* viveksiya (*tirik hayvonni yoki tirik hayvon organizmini yorib tekshirish*).
- vixen** [ˈvɪksən] *n* **1**) zahar (badjahl) ayol, janjalkash ayol; **2**) urg'ochi tulki.
- vixenish** [ˈvɪksənɪʃ] *a* jahli yomon, battol, badjahl, janjalkash.
- viz** [vɪz] *adv* **1**) xuddi, naq, ayni, aniq; **2**) chunonchi, masalan.
- vizard** [ˈvɪzɑ:d] *n* *esk.* niqob.
- vizor** [ˈvɪzə] = **visor**.
- V-J Day** [ˌviːˈdʒeɪdeɪ] *n* (*ikkinchi jahon urushida*) Yaponiya ustidan qilingan g'alaba kuni.
- V-mail** [ˈviːmeɪl] *n* ovoz yozib olinadigan lentalar orqali bir-biriga xat-xabar yozib turish (*harbiy xizmatdagilarga yuborish*).
- V-neck** [ˈviːnek] *n* (*kiyimda*) burmadan kesib olinadigan qirqim.
- vocable** [ˈvəʊkəbl] **1.** *n* *ling.* chet so'z, chet so'zlar lug'ati; **2.** *a* talaffuz qilinadigan.
- vocabulary** [ˌvəʊˈkæbjʊləri] **1.** *n* **1**) lug'at; **2**) so'z boyligi; **3**) (*tilning*) lug'at tartibi; **2.** *attr.* lug'atga oid, lug'at...; ~ **entry** lug'at maqolasi.
- vocal** [ˈvəʊkl] *a* tovushga (tovush chiqarishga) oid, tovush chiqarish uchun xizmat qiladigan, tovush chiqaradigan.
- vocalic** [ˈvəʊˈkæli] **1.** *a* unli; **2.** *n* unli tovush.
- vocalist** [ˈvəʊkəlɪst] *a* ashulachi, qo'shiqchi, ho-fiz, xonanda.
- vocality** [ˈvəʊˈkælɪti] *n* so'zlash qobiliyati.
- vocalization** [ˌvəʊkəlaɪˈzeɪʃən] *n* ifodalash, aytish, ifoda etish, izhor qilish.
- vocalize** [ˈvəʊkəlaɪz] *v* ashula (qo'shiq) aytmog', kuylamog'.
- vocally** [ˈvəʊkəlɪ] *adv* **1**) og'zaki; **2**) qattiq (baland) ovoz bilan, hammaga eshittirib, baralla, oshkora.
- vocation** [ˈvəʊˈkeɪʃən] *n* moyillik, mayl, rag'bat, qiziqish, havas, iste'dod.
- vocational** [ˈvəʊˈkeɪʃənəl] *a* kasbga oid, kasb bilan bog'liq, kasbiy; ~ **school** hunar maktabi.
- vocative** [ˈvəʊkətɪv] *gram.* *n* undash (atov) kelishigi (*murojaatni ifodalovchi ot shakli*).
- voces** [ˈvəʊsiːz] *pl* **vox** *dan.*
- vociferate** [ˈvəʊˈsɪfəreɪt] *v* baqirmoq, baqirib gapirmoq, qichqirmoq, qiyqirmoq, bo'kirmoq.
- vociferation** [ˈvəʊˈsɪfəˈreɪʃən] *n* **1**) baqirish, qichqirish, bo'kirish; **2**) baqiriq, qichqiriq, qiyqiriq, hayqiriq, shovqin, shovqin-suron, dod, dod-faryod.
- vociferous** [ˈvəʊˈsɪfərəs] *a* ovozi baland; shallaqi, shang'i.
- vocular** [ˈvəʊkjʊlə] *a* **1**) *ling.* unli (*tovush haqida*); **2**) qattiq, baland (*ovoz, tovush haqida*).
- voder** [ˈvəʊdə] *n* elektro apparat.
- vodka** [ˈvɒdkə] *n* araq.
- vogue** [ˈvəʊg] *n* moda, rasm, odat; **all the** ~ eng so'nggi antiqa moda.
- voice** [vɔɪs] **1.** *n* **1**) ovoz, tovush; ~ **of conscience** vijdon amri; **2**) *gram.* nisbat; **active** ~ aniqlik nisbati; **passive** ~ majhul nisbat; **2.** *v* (*so'z bilan*) ifodalamoq, izhor etmoq.
- voicecast** [ˈvɔɪskɑːst] *n* ovoz yozib olingan magnit lentasi.
- voiced** [ˈvɔɪst] **1.** *p. p.* **voice** **2.** *dan.* **2.** *a* **1**) jaranglagan, jaranglaydigan, jaranglovchi; **2**) *fon.* jarangli.
- voiceless** [ˈvɔɪsləs] *a* **1**) tili yo'q, tilsiz, ovozin yo'qotgan, ovozga ega bo'lmagan, soqov, gung; **2**) *fon.* jarangsiz.
- voice vote** [ˈvɔɪsvəʊt] *n* saylovda qatnashganlardan ma'lumot to'plab qaror qabul qilish.
- void** [vɔɪd] **1.** *n* vakuum, bo'shlik, xolilik; **2.** *a* ichi bo'sh, hech narsasi yo'q, bo'sh, xoli; **3.** *v* bo'shamoq, xoli bo'lmoq.
- voidable** [ˈvɔɪdəbl] *a* bahslasha (rad, inkor) qilsa bo'ladigan, munozarali, tortishuvli.
- voidance** [ˈvɔɪdəns] *n* bekor qilish, yo'q qilish, kuchdan qoldirish.
- voidness** [ˈvɔɪdnəs] *n* **1**) bo'shlik, xolilik; **2**) vayronlik, xaroblik.
- volant** [ˈvəʊlənt] *a* uchadigan, uchar.
- volatile** [ˈvɒlətaɪl] *a* **1**) *kim.* uchuvchan, tez bug'lanadigan; **2**) joyini o'zgartirib turadigan.
- volatility** [ˌvɒləˈtɪləti] *n* **1**) *kim.* uchuvchanlik (*tez bug'lanish*); **2**) joyini o'zgartirib turish.
- volatilization** [ˌvɒləˈtɪləɪzəˈzeɪʃən] *n* uchib ketish, bug'lanib ketish.
- volatilize** [ˌvɒləˈtɪləɪz] *v* uchib ketmoq, bug'lanib ketmoq.
- volcanic** [ˈvɒlˈkæni] *a* **1**) vulqonga va vulknizmga oid, vulkanizm hodisalari bilan bog'langan;

~ rock vulkanik tog' jinsi; 2) to'liqinli, jo'shqin, kuch-g'ayratga to'lib-toshgan.

volcano [vɒl'keɪnəʊ] *n* vulkan, vulqon (yonar tog'); **active** ~ harakatdagi vulkan.

volition [vəʊ'liʃn] *n* istak, xohish, ixtiyor, niyat, tilak, orzu, xohlash, intilish.

volitional [vəʊ'liʃnəl] *a* 1) irodaga oid; iroda...; 2) irodali, irodasi kuchli.

volley [vɒli] **1.** *n* zalp, baravariga o'q otish (uzish); **2.** *v* baravariga o'q uzmoq.

volley-ball [vɒlɪbɔ:l] *n* voleybol.

volplane [vɒlpleɪn] **1.** *n* (qo'nish maqsadida) sekin-asta pastlab uchish; **2.** *v* (qo'nish maqsadida) sekin-sekin pastlab uchmoq.

volt [vɒlt] *n el.* volt (elektir kuchlanishi o'lchov birligi).

voltage [vɒl'teɪdʒ] *n* voltaj (elektir tarmog'ida voltlar bilan ifodalangan kuchlanish).

voltaic [vɒl'teɪk] *a el.* galvanik; ~ arc fiz. volta yoyi, elektir yoyi.

Voltairean [vɒl'teəriən] *n* volterchi, Volter maslakdoshi (XVIII-XIX asrlarda hurfikrli odamlarga berilgan nom).

Voltaireism [vɒl'teəriəm] *n* volterizm, Volter ta'limoti.

voltmeter [vɒl'tæmɪtə] *n el.* voltmetr (elektir toki kuchini uning kimyoviy ta'siriga qarab o'lchaydigan asbob).

volte [vɒlt] *n sport.* 1) volt (otning maneji mashqida bir aylanib chiqishi); 2) raqibning hujumidan o'zini chetga tortish (qilichbozlikda).

volte-face [vɒl't'fɑ:s] *n fr.* 1) *harb.* orqaga burilish; 2) keskin o'zgarish (qarash, siyosat va b.).

voltmeter [vɒlt'mi:tə] *n* voltmetr (elektir toki kuchlanishini o'lchaydigan asbob).

volubility [vɒlju'bɪləti] *n* sergaplik, ezmalik, ko'p gapirishlik, hech kimga gap bermaslik.

voluble [vɒljubl] *a* sergap, ko'p gapiradigan, ezma, hech kimga gap bermaydigan.

volume [vɒljum] *n* hajm, ko'lam, miqdor, tom, jild; ~ of knowledge bilimlar ko'lami; the ~ of trade savdo ko'lami.

volumenometer [vɒljumɪ'nɒmɪtə] *n* voluminometr (qattiq jismlarning hajmini o'lchaydigan asbob).

volumeter [vɒ'lju:mɪtə] *n* volumetr (suyuqlik va gazsimon narsalarning hajmini o'lchaydigan asbob).

volumetric [vɒlju'metrik] *a* hajmga oid, hajmiy, hajm...; ~ capacity sig'im, hajm, kattalik, eltish; ~ flask fiz. o'lchov kolbasi.

voluminous [vɒ'lu:mɪnəs] *a* 1) ko'p tomli (nashr to'g'risida); 2) ishi serunum; sermahsul; mahsuldor (yozuvchi haqida).

voluntarism [vɒləntərɪzəm] *n* filoz. voluntarizm (voqelikning negizi irodadir deb biluvchi va obyektiv taraqqiyot qonunlarini rad etuvchi yo'nalish).

voluntary [vɒləntərɪ] *a* ixtiyoriy, ko'ngilli.

voluntaryism [vɒləntərɪzəm] *n* ixtiyoriylik (ko'n-gillilik) prinsipi.

volunteer I [vɒlən'tɪə] *n* ko'ngilli; talabgor.

volunteer II [vɒlən'tɪə] *v* (o'z yordamini) taklif qilmoq.

voluptuary [vɒ'lɒptʊəri] *n* shahvoniy hisga berilgan odam, shahvatparast.

voluptuous [vɒ'lɒptʊəs] *a* 1) sezgiga oid; 2) sezi-ladigan, bilinadigan, sezib (bilib) bo'ladigan; 3) shahvoniy hisga berilgan.

volute [vɒ'lu:t] *n* voluta (kolonna, ustun va sh. k.da spiral shaklidagi bezak).

volution [vɒ'lu:ʃn] *n* 1) jingalak, gajak; 2) gajak shaklida o'ralgan narsa, o'ram, gajak.

volvulus [vɒlvjʊləs] *n* ichaklarning buralishi (buralib qolishi).

vomit I [vɒmɪt] *n* 1) qusish, qayt qilish, qusuq; 2) qayt qildiradigan dori.

vomit II [vɒmɪt] *v* qusish (qayt qilishdan) azob chekmoq; **he was ~ ing blood** u qon qusdi.

vomitive [vɒmɪtɪv] = vomitory.

vomitory [vɒmɪtəri] **1.** *n* qayt qildiradigan dori; **2.** *a* 1) qusishga (qayt qilishga) oid, qayt qilish...; 2) qustiradigan, qayt qildiradigan.

voodoo [v'u:du:] **1.** *n* tabib, emchi, duxon; **2.** *v* sehrlab qo'yimoq, jodu qilmoq.

voracious [vɒ'reɪʃəs] *a* 1) yebto'ymas, badnafs, mechkay; 2) ochko'z, suq; xasis, qizg'an-chiq.

voracity [vɒ'ræsəti] *n* yebto'ymaslik, badnafslik, mechkaylik, sertomoqlik.

vortex [vɒ:tɛks] *n* (pl -tices, -es [-ɪz]) uyurma, quyun, girdob, girmat, aylanma, uyurmali qattiq shamol, bo'ron.

vortical [vɒ:tɪkl] *a* 1) dovulli, girdobli; 2) uyur-malangan, uyurma; 3) aylanadigan, aylanma, aylantiruvchi.

vortices [vɒ:tɪsɪz] *pl* vortex dan.

vorticose [vɒ:tɪkəʊs] = vortical.

votaress [vɒtə'res] *n* 1) monax ayol, rohiba; 2) hurmatini o'mniga qo'yuvchi (ayol).

votary [vɒtəri] *n* 1) monax, rohib; 2) tarafdor, yoqlovchi.

votation [vɒu'teɪʃn] *n* ovoz berish; ovozga qo'yish; ovoz.

vote [vəʊt] **1.** *n* ovoz berish, ovoz; **secret (open)** ~ yashirin (ochiq) ovoz berish; **to put to the** ~ ovozga qo'yimoq; **to take a ~ on question** masalani ovozga qo'yimoq; **2.** *v* ovoz bermoq; **to ~ for (against)** yo'qlab (qarshi) ovoz bermoq.

voter [vɒtə] *n* 1) saylovchi, ovoz beruvchi; 2) saylov qatnashchisi.

voting [vɒtɪŋ] *n* ovoz berish, saylash.

voting machine [vɒtɪŋməʃɪn] *n* saylovda beriladigan ovozlarni hisoblaydigan mashina.

voting paper [vɒtɪŋpeɪpə] *n* saylov varaqasi (bulleteni).

votive [ˈvɔʊtrɪv] *a* ont ichib qilingan.
vouch [vaʊtʃ] *v* kafil bo'ymoq, kafolat bermoq, kafilligini olmoq, ishontirmoq.
voucher [ˈvaʊtʃə] *n* 1) tilxat, kafil, kafil bo'lgan kishi; 2) tasdiqlovchi hujjat.
vouchsafe [vaʊtʃˈseɪf] *v* sazovor qilmoq, loyiq topmoq, munosib ko'rmoq.
vow [vaʊ] *n* qasam, ont, va'da, so'z.
vowel [ˈvaʊəl] *n* unli, unli tovush.
vox [vɒks] *lot. n (pl voces)* ovoz, fikr, mulohaza; ~ **populi** jamoat fikri.
voyage [ˈvɔɪdʒ] **1.** *n* sayohat, safar; dengiz sayohati; **2.** *v* (*dengizda*) sayohat qilmoq.
voyager [ˈvɔɪdʒə] *n* dengizda sayohat (qilgan) qiluvchi kishi, sayohatchi.
voyeur [ˈvɔɪjə:] *n* erotik kinolarni ko'rish orqali lazzatlanadigan kishi.
vug [vʌg] *n geol.* cho'nqir yer, ichiga botgan (*kirgan*) joy.
vulcanic [vʌlˈkæɪnɪk] *a* vulqonga va vulkanizmga oid, vulkanizm hodisalari bilan bog'langan.
vulcanite [ˈvʌlkənɑɪt] *n* ebonit (*izolatsion material*).
vulcanization [ˌvʌlkənɑɪzəˈzeɪʃn] *n* vulkanizatsiya (*1. kauchukni rezinkaga aylantirish jarayoni; 2. rezinka buyumlarini xom rezinkadan yamoq solib ta'mirlash*).
vulcanize [ˈvʌlkənɑɪz] *v* vulkanizatsiya qilmoq (*rezinani*).
vulgar [ˈvʌlgə] **1.** *a* dag'al, qo'pol, to'ng, to'rs, xunuk; **2.** *n* (*the ~*) og'z. avom, oddiy xalq.
vulgarian [vʌlˈgɛəriən] *n* beadab (tarbiya ko'rmagan) kishi.

Ww

W, w [ˈdʌblju:] *n* ingliz tili alifbosining yigirma uchinchi harfi.
wabble [ˈwɒbl] *n* tebranish, chayqalish, silkinish, qimirlash, likillash.
wabbly [ˈwɒblɪ] *a* liqillab (qimirlab, chayqalib) turadigan.
wack [wæk] *n* so'zl. jinni, telba, savdoyi (ruhiy kasal) odam.
wacko [ˈwækəʊ] = **wack**.
wacky [ˈwæki] *a* so'zl. 1) ahmoqona, ahmoqlarcha, bema'ni (*g'oya*); 2) miyasi biroz aynigan; tantakiroq, jinniroq.
wad [wɒd] **1.** *n* 1) bo'lak, parcha, o'ram, kalava (*momiq paxta, jun, yung*); 2) yumaloqlangan narsa; 3) qog'oz pullar bog'lami (*dastasi*); **2.** *v* 1) ichiga paxta tiqmoq; 2) yumaloq-yassi qilmoq.
wadding [ˈwɒdɪŋ] **1.** *pres. p.* **wad** **2.** *dan;* **2.** *n* 1) momiq, paxta, jun; 2) qadash, tikish; 3) astar.
waddle [ˈwɒdl] **1.** *n* lapanglab yurish; **2.** *v* lapanglab yurmoq.
wade [weɪd] *v* sayoz joydan kechib o'tmoq.

vulgarism [ˈvʌlgərɪzəm] *n* 1) *ling.* vulgarizm (*adabiy tilda uchraydigan beadab so'z yoki ibora*); 2) beadablik.
vulgarity [vʌlˈgærəti] *n* 1) mohiyatini buzib ko'rsatishlik, ma'nosini buzib talaffuz qilish, soxtalashtirish, qo'pollashtirish; 2) beadablik, qo'pollilik, tarbiyasi buzuqlik.
vulgarization [ˌvʌlgərəɪzəˈzeɪʃn] *n* buzish, rasvolashtirish, rasvo qilish, qo'pollashtirish, soxtalashtirish, ma'nosini buzib talaffuz qilish, mohiyatini buzib ko'rsatish.
vulgarize [ˈvʌlgəraɪz] *v* 1) buzmoq, rasvolashtirmoq, rasvo qilmoq, rasvosini chiqarmoq; 2) qo'pollashtirmoq, ma'nosini buzib talqin qilmoq.
vulnerability [ˌvʌlnərəˈbɪləti] *n* darrov shikastlanadiganlik, himoyasi bo'shlik, zaiflik, mo'rtlik.
vulnerable [ˌvʌlnərəbl] *a* gap ko'tara olmaydigan, ko'ngli nozik.
vulnerary [ˌvʌlnərəri] *a* shifobaxsh, shifoli da'vo bo'ladigan dorivor; ~ **plants** dorivor o'simliklar.
vulpicide [ˈvʌlpsɑɪd] *n* 1) tulkilarni tozi itsiz ov qilish; 2) tulkilarni tozi itsiz o'ldiradigan ovchi.
vulpine [ˈvʌlpɑɪn] *a* 1) makkor, hiylakor; ayyor; 2) tulkiga oid, tulki...
vulture [ˈvʌltʃə] *n* 1) kalxat; qoraqush; 2) talovchi, qonxo'r, vahshiy, yirtqich, isrofgar (*kishilar haqida*).
vulturous [ˈvʌltʃurəs] *a* 1) shafqatsiz, yovuz; 2) ochko'z, suq.
vulva [ˈvʌlvə] *n* ayollarning tashqi jinsiy a'zolari (*organlari*).
vying [ˈvaɪŋ] *pres. p.* *vie dan.*

wader [ˈweɪdə] *n* 1) botqoqlik (to'qay) qushi; 2) *pl* botqoq etigi, botqoqlikda (to'qayzorlarda) kiyiladigan etik.
wading bird [ˈweɪdɪŋ,bɜ:d] *n* botqoqlik (to'qay) qushi.
waffer [ˈweɪfə] *n* 1) vafl (*katak-katak yupqa pecheniy*); 2) *farm.* kapsula, g'ilof; 3) surg'uchli muhr.
wafery [ˈweɪfəri] **1.** *n* vafl ishlab chiqaradigan korxonasi; **2.** *a* yupqa, ingichka; vaflidek tez sinadigan (*mo'rt*).
waff [wɒf] *n* (*qo'lni*) silkitish, siltash, qoqish.
waffle I [ˈwɒfl] **1.** *n* og'z. (quruq) safsata, bekor (*behuda*) gap; **2.** *v* behuda gaplar gapirmoq.
waffle II [ˈwɒfl] *n* vafl.
waffle-iron [ˈwɒfl,aɪən] *n* vafl tayyorlaydigan qolip.
waft [wɑ:ft] **1.** *n* 1) (*qanot*) qoqish; 2) (*shamol*) esish; **2.** *v* 1) tarqalmoq, taralmoq; 2) olib bormoq, eltmoq, tashimoq; 3) haydab bormoq, surmoq.
wag I [wæg] **1.** *n* silkitish, bosh qimirlatish; **2.** *v* qanot qoqmoq, silkitmoq.

wag II [wæɹ] **1.** *n* 1) qiziqchi, masxaraboz; 2) bekorchi, yalqov, tanbal; **2.** *v* ishga bormay (*yoki kelmay*) qolmoq.

wage I [weɹdʒ] *n* ish haqi, maosh, oylik; **living** ~ kun kechirish uchun zarur bo'lgan narsalarning eng oz miqdori.

wage II [weɹdʒ] *v* 1) urush qilmoq; 2) boshlamoq, olib bormoq (*urush*).

wage-cut [weɹdʒkʌt] *n* ish haqini kamaytirish.

wage-earner [ˈweɹdʒ,ə:nə] *n* 1) yollanma ishchi; 2) boquvchi, qarovchi, tarbiyachi.

wage-freeze [ˈweɹdʒfri:z] *n* ish haqini to'lamaslik, maoshni o'z vaqtida bermaslik.

wager [ˈweɹdʒə] **1.** *n* 1) garov, bahs, garov o'ynash; 2) oylik maosh; **2.** *v* 1) garov o'ynamoq; 2) tavrakkal qilmoq.

wage-rate [ˈweɹdʒreɪt] *n* 1) maosh, ish haqi; 2) tarif (*biror narsaga to'lanadigan qat'iy baholar majmuyi*).

wages-fund [ˈweɹdʒɪzʌnd] *n* ish haqi fondi.

wage-work [ˈweɹdʒwə:k] *n* yollanma mehnat.

wage-worker [ˈweɹdʒwə:kə] *n* yollanma ishchi.

waggery [ˈwæɡəri] *n* 1) sho'xlik, hazilkashlik, hazil-huzul; 2) (*qo'pol, qaltis*) hazil; 3) hazilkashlik.

waggish [ˈwæɡɪʃ] *a* 1) sho'x, o'yingqaroq; shumtaka; 2) qiziq, ajib, g'alati, kulgili.

waggle [ˈwæɡl] **1.** *n* 1) silkish; 2) tebratish, chayqatish; **2.** *v* 1) silkitmoq, qimirlatmoq; 2) tebratmoq, chayqatmoq.

waggly [ˈwæɡli] *a* liqillab (qimirlab, chayqalib) turadigan, bo'sh, liqildoq.

wag(g)on [ˈwæɡən] *n* 1) to'rt g'ildirakli arava; 2) vagon, yuk vagoni.

wag(g)oner [ˈwæɡənə] *n* aravakash, yuk tashuvchi, kirakash.

wag(g)onette [ˌwæɡəˈnet] *n* ikki o'rindiqli, bo'yiga uzaytirilgan yengil arava.

wagon-lit [ˌwæɡənˈli:t] *n fr.* uxlab (yotib) ketiladigan vagon.

wagon-train [ˈwæɡəntreɪn] *n* karvon.

wagtail [ˈwæɡteɪl] *n zool.* jibljibon (*chumchusimonlar turkumiga mansub, ingichka va uzun dumli kichkina qush*).

waif [weɪf] *n* 1) hech kimga tegishli bo'lmagan, tashlandi narsa; 2) boshpanasiz odam; 3) boqimsiz bola.

wail [weɪl] **1.** *n* dod, fig'on, nola, faryod, baqiriq, qichqiriq, chinqiriq; dod-voy, fig'on, o'kirib yig'lash; **2.** *v* baqirmoq, qichqirmoq, dodlamoq, dod-voy qilmoq.

wailful [ˈweɪlfəl] *a* g'amga botgan, xafa, g'amgin, qayg'uli.

wain [weɪn] *n* 1) *shoir.* to'rt g'ildirakli arava; 2) (**the W**) *astr.* Katta Ayiq, Katta Yetti Og'ayni.

wainscot [ˈweɪnskət] *n* devorlarning pastki qismini qoplab qo'yilgan yog'och-taxta.

waist [weɪst] *n* bel.

waistband [ˈweɪstbænd] *n* kamar, belbog'.

waist-belt [ˈweɪstbɛlt] *n* belga taqiladigan kamar.

waistcoat [ˈweɪskəʊt] *n* nimcha, jiletka.

waist-deep [ˌweɪstˈdi:p] **1.** *a* belgacha boradigan; **2.** *adv* belgacha; ~ **in the water** belgacha suv ichiga kirish.

waistline [ˈweɪstlaɪn] *n* belning chizig'i, ko'yлакning beli.

wait [weɪt] **1.** *n* kutish, ko'z tutish, intizor bo'lish; **a long** ~ uzoq kutish; **2.** *v* kutmoq, muntazir bo'lmoq, ko'z tutmoq (**for**).

wait-a-bit [ˈweɪtəbɪt] *n so'zl.* tikandek sanchiladigan buta o'simlik.

wait-and-see [ˈweɪtnˈsi:] *a* fursat kutadigan, payt poylaydigan.

waiter [ˈweɪtə] *n* 1) ofitsiant; 2) qabulni kutayotgan kishi.

waiting [ˈweɪtɪŋ] **1.** *pres. p.* **wait** **2.** *dan;* **2.** *n* kutish; **3.** *a* poylovchi, ogoh; intizor.

waiting-list [ˈweɪtɪŋlɪst] *n* nomzodlar ro'yxati (*mansabga, turar joy olish va b. uchun*).

waiting-room [ˈweɪtɪŋru:m] *n* 1) qabulga (qabul qilishga) oid, qabul qilish...; 2) *tem. yo'l.* kutish xonasi (zali).

waitress [ˈweɪtrəs] *n* ofitsiantka, (*oshxonada*) ovqat uzatib turuvchi ayol.

waive [weɪv] **1.** *v* rad etmoq, tonmoq, bosh tortmoq (*huquq, talabdan*); **2)** vaqtinchalik chetga surib qo'ymoq.

waiver [ˈweɪvə] *n yur.* talab, huquqdan bosh tortish.

wake [weɪk] **1.** *v* (**woke, waked** [-t]; **waked, woken, woke**) 1) uyg'onmoq; 2) uyg'otmoq; 3) bedor bo'lmoq, uyg'oq turmoq; **2.** *n shoir.* bedorlik, bedor bo'lish, uxlamaslik, uyg'oq turish (bo'lish), hushyorlik, sergaklik.

wakeful [ˈweɪkfəl] *a* 1) uyg'otadigan; 2) uxlamaydigan, uyqusiz; 3) hushyor, sezgir.

wakeless [ˈweɪkləs] *a* uyg'otib bo'lmaydigan, dong qotgan, juda qattiq (*uyqu haqida*).

waken [ˈweɪkən] *v* 1) uyg'otmoq, uyqudan turg'izmoq; 2) uyg'onmoq, uyqudan turmoq.

wakening [ˈweɪkənɪŋ] **1.** *pres. p.* **waken** *dan;* **2.** *n* 1) uyg'onish, uyqudan turish; 2) uyg'otish, uyqudan turg'izish.

wakey [ˈweɪki] *int. so'zl.* o'rningdan tur!

waking [ˈweɪkɪŋ] **1.** *pres. p.* **wake** *dan;* **2.** *a* uxlamayotgan, bedor, uyg'oq.

wale [weɪl] **1.** *n* 1) chandi, yamoq (*bitgan yaraning o'rmi*); 2) kertik, chuqur chiziq, o'yi; 3) yo'g'onlashgan chok *yoki* baxya; **2.** *v* tilib yubormoq, urib badanda uzun iz qoldirmoq (*pichoq, qamchi va sh. k. bilan*).

walk [wɔ:k] **1.** *n* 1) (*piyoda*) yurish; 2) masofa, ora, uzoqlik, yo'l; **a mile's ~ from the lyceum** litseydan bir mil uzoqlikda; **2.** *v* 1) yurmoq, bormoq; 2) piyoda yurmoq.

walkaway [ˈwɔ:kəweɪ] *n* osonlik bilan g'alabaga erishish (*musobaqada*).

- Walker** [ˈwɔ:kə] *int.* yolg'on!, bo'lishi mumkin emas, aldayapsan!
- walk** [ˈwɔ:kə] *n* piyoda yuradigan odam, piyoda yuruvchi, piyoda.
- walkie-lookie** [ˌwɔ:kɪˈlʊki] *n* ko'tarib yuriladigan televizor apparati.
- walkie-talkie** [ˌwɔ:kɪˈtɔ:kɪ] *n* ko'chiriladigan, ko'chma radiostansiya.
- walking** [ˈwɔ:kɪŋ] **1.** *pres. p.* **walk** **2.** *dan;* **2.** *n* 1) piyoda yurish, qadam tashlash; 2) yuradigan, yura oladigan; ~ **case** *tib.* yura oladigan bemor.
- walking-papers** [ˈwɔ:kɪŋˌpeɪpəz] *n* ishdan haydalmoq, ishdan bo'shatmoq.
- walking-race** [ˈwɔ:kɪŋreɪs] *n* sportcha yurish bo'yicha saralash, musobaqa.
- walking-stick** [ˈwɔ:kɪŋstɪk] *n* hassa, tayoq.
- walking-ticket** [ˈwɔ:kɪŋtɪkɪt] = **walking-papers**.
- walking-tour** [ˈwɔ:kɪŋtuə] *n* piyoda sayr qilish, ekskursiya.
- walk-on** [ˈwɔ:kɒn] *n* *teatr.* chiqishda so'zsiz rollarni ijro etuvchi artist.
- walk-over** [ˈwɔ:kəʊvə] *n* yengil g'alaba, osonlik bilan qo'lga kiritilgan g'alaba.
- walk-up** [ˈwɔ:kʌp] *n* *amer.* liftsiz uydagi kvartira.
- walkway** [ˈwɔ:kweɪ] *n* 1) so'qmoq, so'qmoq yo'l, yo'lka; 2) xiyobon.
- wall** [wɔ:l] **1.** *n* devor; **2.** *v* devor bilan o'rab olmoq.
- wallaby** [ˈwɔləbi] *n* 1) *zool.* kenguru (*kichkinasi*); 2) *pl* so'zl. avstraliyaliklar.
- wallah** [ˈwɔlə] *n* 1) yigit; 2) xizmat qiluvchi, xizmatkor.
- wallaroo** [ˌwɔləˈru:] *n* *avstr.* kenguru (*kattasi*).
- wallet** [ˈwɔlət] *n* 1) hamyon; 2) qin, g'ilof, jild, quti; to'rva, xalta (*asbob uchun*).
- wall-eye** [ˈwɔ:laɪ] *n* 1) ko'z dog'i, ko'zga tushgan oq; 2) dog' (oq) tushgan ko'z.
- wall-eyed** [ˈwɔ:laid] *a* 1) ko'zga oq tushgan; 2) g'ilay, qiyshiq.
- wallflower** [ˈwɔ:lˌflaʊə] *n* *hazil.* yigitsiz qolgan ayol (*kecha, bazmda*).
- Walloon** [wɔˈlu:n] *n* 1) vallon, vallonka; 2) vallon tili.
- wallop** [ˈwɔləp] *n* kuchli zarba: **to land** (*yoki to strike*) *a* ~ qattiq zarba bermoq.
- walloper** [ˈwɔləpə] *n* g'oyat katta narsa, ulkan (buyuk, bahaybat) narsa.
- walloping** [ˈwɔləpɪŋ] **1.** *a* katta, ulkan, azim, yirik; **2.** *n* 1) urish, kaltaklash; 2) titish, savash.
- wallow** [ˈwɔləʊ] *n* 1) hayvonlar dumalaydigan ser-tuproq o'rmondagi yalang joy; 2) dumalash (*tuproq va b.*).
- wall-painting** [ˈwɔ:lˌpeɪntɪŋ] *n* devoriy rasm, freska (*devorga solingan rasm*).
- wallpaper** [ˈwɔ:lˌpeɪpə] *n* oboy, gulqog'oz.
- wall pier** [ˈwɔ:lˌpɪə] *n* *me'mor.* pilastra (*bir tomoni devordan chiqib turgan ustun*).
- Wall Street** [ˈwɔ:lˌstri:t] *n* Uollstrit (*Nyu-Yorkdagi birja joylashgan ko'cha*).
- walnut** [ˈwɔ:lnʌt] *n* grek yong'og'i; ~ **tree** yong'og daraxti.
- walnut-tree** [ˈwɔ:lnʌttri:] *n* yong'og daraxti.
- walrus** [ˈwɔ:lɹəs] *n* morj (*kurakoyoqlilar turkumiga mansub dengiz sutemizuvchi hayvoni*).
- waltz** [wɔ:ls] **1.** *n* vals (*mayin raqs turi va uning musiqasi*); **2.** *v* valsqa tushmoq.
- wamble** [ˈwɔmbəl] *v* 1) gindiraklab yurmoq; 2) gulduramoq, g'ulduramoq (*qorin haqida*).
- wampum** [ˈwɔmpəm] *n* chig'anoqdan bo'lgan marjon (*hindlarda*).
- wampus** [ˈwɔmpəs] *n* yoqimsiz, yomon; gapga ko'nmaydigan odam.
- wan** [wɒn] *a* 1) rangi oqarib ketgan, holdan toygan; 2) kasalmand, dardchil; 3) xira, nursiz, rangi ketgan.
- wand** [wɒnd] *n* 1) hassa, aso; 2) chiviq, xivich, tayoqcha.
- wander** [ˈwɒndə] *v* 1) aylanib (sandiraqlab) yurmoq, kezmoq, tentiramoq; 2) darbadar kezmoq, ovorayi jahon bo'lib yurmoq, sargardon bo'lmoq.
- wanderer** [ˈwɒndərə] *n* darbadar, musofir, darvesh, daydi, musofirchilikda yashovchi odam.
- wandering** [ˈwɒndərɪŋ] *a* 1) sayoq, daydi, ko'chmanchi; 2) ko'chib yuradigan, ko'chmanchi; ~ **tribes** ko'chmanchi qabilalar.
- wanderlust** [ˈwɒndərlʌst] *n* sayohatga g'oyat darajada berilganlik, sayohatni juda yaxshi ko'rish.
- wane** [weɪn] **1.** *n* 1) kamayish; 2) pasayish; **his power was on the** ~ uning qo'lidan hokimiyat asta-sekin chiqib boshladi; 3) kamayish, torayish, kichrayish (*oy haqida*); **2.** *v* oxiriga yetmoq, kamaymoq (*oy haqida*).
- wangle** [ˈwæŋɡl] **1.** *n* makkorlik, ayyorlik, nayrang, hiyla; **2.** *v* makkorlik (hiyla, nayrang) bilan qo'lga kiritmoq.
- want** [wɒnt] **1.** *n* xohish, istak, orzu; **2.** *v* xohlamoq, istamoq, orzu qilmoq.
- want-ad** [ˈwɒntæd] *n* gazetaning talab va taklif sahifasidagi qisqacha e'lon.
- wantage** [ˈwɒntɪdʒ] *n* yetishmaslik, kamlik, yo'qchilik, yetishmovchilik, yo'qlik, tanglik.
- wanted** [ˈwɒntɪd] *a* qidirilayotgan.
- wanting** [ˈwɒntɪŋ] *a* 1) muhtojlik; 2) yo'q bo'lgan, yetishmayotgan, yetarli darajada mavjud bo'lmagan.
- wanton** [ˈwɒntən] *a* o'ynoqi, sho'x, tinchimaydigan, tinib-tinchimas.
- war** [wɔ:] *n* urush: **civil** ~ fuqarolar urushi.
- warble** [ˈwɔ:bl] **1.** *n* ovozning jaranglab chiqishi, qushning sayrashi; **2.** *v* sayramoq (*qushlar haqida*).
- warbler** [ˈwɔ:blə] *n* sayroqi qush.
- war-cloud** [ˈwɔ:klaʊd] *n* urushdan oldingi vaziyat.
- war-cry** [ˈwɔ:kraɪ] *n* jangovar xitob, jangovar chaqiriq, jangovar shior.
- ward** [wɔ:d] *n* 1) vasiylik; 2) vasiylikdagi, vasiylik ostidagi; 3) palata (*kasalxonada*).

- warden** [ˈwɔːdn] *n* 1) nazoratchi; 2) qamoqxona boshligʻi.
- warder** [ˈwɔːdə] *n* 1) qamoqxona nazoratchisi; 2) qorovul, soqchi.
- war-devastated** [ˈwɔːˌdevəstetɪd] *a* urush natijasida xarobaga aylangan.
- war-dog** [ˈwɔːdɔg] *n* 1) *harb.* xizmat uchun belgilangan it; 2) sobiq askar.
- Wardour Street English** [ˌwɔːdəstriːt ˈɪŋɡlɪʃ] *n* eskirgan soʻzlar bilan bezab tashlangan inglizcha nutq.
- wardress** [ˈwɔːdrəs] *n* qamoqxonaning ayol nazoratchisi.
- wardrobe** [ˈwɔːdrəʊb] *n* kiyim shkafi, garderober.
- wardroom** [ˈwɔːdrʊm] *n* ofitserlar uchun umumiy xona (*kemada*).
- wardship** [ˈwɔːdʃɪp] *n* 1) vasiylik; 2) panoh.
- ware** [wɛə] *n* 1) ishlab chiqarilgan mahsulotlar; 2) sopol buyumlar.
- ware II** [wɛə] *a* hushyor, ogoh, sezgir.
- ware** [-wɛə] *n* (*murakkab soʻzlarda*) buyum, mahsulot, mol degan maʼnoni beradi; **earthenware** sopol buyumlar.
- warehouse** [ˈwɛəhaʊs] *n* tovar (mol) ombori.
- warehouseman** [ˈwɛəhaʊsmən] *n* 1) ombor xoʻjayini; 2) ombor xizmatchisi.
- wareroom** [ˈwɛərʊːm] *n* omborxonona.
- warfare** [ˈwɔːfɛə] *n* 1) urush, jangovar harakatlar; 2) toʻqnashuv, jang.
- war-game** [ˈwɔːɡeɪm] *n* harbiy oʻyin.
- war-head** [ˈwɔːhed] *n* oʻqlangan moslamaning bosh qismi.
- war-horse** [ˈwɔːhɔːs] *n* 1) jangovar ot; 2) urush faxriysi; 3) tajribali sobiq askar; 4) tajribali siyosiy arbob.
- warily** [ˈwɛərɪli] *adv* ehtiyotkorlik bilan, ehtiyot boʻlib, ehtiyot qilib.
- wariness** [ˈwɛərɪnɪs] *n* ehtiyotlik, ehtiyotkorlik bilan ish tutish.
- warlike** [ˈwɔːlɪk] *a* jangovar; urushga (urush olovini yoqishga) qaratilgan, harbiy; ~ **attitude** jangovar holat.
- warlock** [ˈwɔːlək] *n* *esk.* sehrgar, jodugar, afsungar.
- war-lord** [ˈwɔːləːd] *n* 1) harbiyning oliy qoʻmondoni; 2) qoʻshin (lashkar) boshligʻi.
- warm** [wɔːm] **1.** *a* issiq, iliq, isigan; ~**ly** otashin; **2.** *n* issiq, issiqlik, harorat; **3.** *v* (~ **up**) isimoq, isinmoq.
- warm-blooded** [ˌwɔːmˈblʌdɪd] *a* 1) *zool.* issiq qonli (*hayvonlar haqida*); 2) issiq (*harorat haqida*).
- warm-hearted** [ˌwɔːmˈhɑːtɪd] *a* chin koʻngildan qilinadigan, samimiy.
- warm-house** [ˈwɔːmhaʊs] *n* issiqxonona.
- warming** [ˈwɔːmɪŋ] *n* isish, ilish, isinish, ilitish, isitish.
- warming-pan** [ˈwɔːmɪŋpæn] *n* grelka.
- warmish** [ˈwɔːmɪʃ] *a* issiq, iliq.
- warmonger** [ˈwɔːˌmʌŋɡə] **1.** *n* urush olovini yoquvchi; **2.** *v* igʻvo qilib urush chiqarishga sabab boʻlmoq.
- warmth** [wɔːmθ] *n* 1) issiqlik, issiq; 2) samimiylik, samimiyat.
- warm-up** [ˈwɔːmʌp] *n* *amer.* mashq qilish, qoʻl-oyoqning chigalini yechish.
- warn** [wɔːn] *v* ogohlantirmoq; ogohlantirib (bildirib, xabardor qilib) qoʻymoq, xabar bermoq.
- warning** [ˈwɔːnɪŋ] *v* ogohlantirish, xabar berish.
- warp** [wɔːp] *v* qayishmoq, qiyshaymoq.
- war-path** [ˈwɔːpɑːθ] *n* *tar.* urush soʻqmoqlari.
- warped** [wɔːpt] **1.** *p. p.* **warp** **2.** *dan;* **2.** *a* qayishgan, qiyshaygan.
- warper** [ˈwɔːpə] *n* toʻqim. tanda qoʻyadigan kishi.
- war-plane** [ˈwɔːpleɪn] *n* harbiy samolyot.
- warrant** [ˈwɔːrənt] **1.** *n* (*yoʻzma buyruq, farmon, ruxsat qogʻozi*) order (*qamoqqa olish uchun*); **2.** *v* himoya qilmoq, oqlamoq.
- warrantable** [ˈwɔːrəntəbl̩] *a* qonuniy, qonunga muvofiq, qonunga asoslangan, qonun asosidagi.
- warrantor** [ˈwɔːrəntɔː] *n* kafil, kafil boʻlgan kishi, kafolat bera oladigan kishi.
- warranty** [ˈwɔːrəntɪ] *a* kafolat, kafillik, garov, ishonitirish, ishonch.
- warren** [ˈwɔːrən] *n* quyonxonona, quyon boqiladigan katalak.
- warring** [ˈwɔːrɪŋ] *a* 1) qarama-qarshi, teskari, zid, biri boshqasini inkor qiladigan; 2) murosaga kelmaydigan, murosasiz.
- warrior** [ˈwɔːrɪə] *n* *shoir.* jangchi, askar, sipoh.
- warship** [ˈwɔːʃɪp] *n* harbiy kema.
- wart** [wɔːt] *n* 1) soʻgal, chiqiq; 2) daraxt yelimi; 3) buqoq (*daraxt buqogʻi*).
- war-time** [ˈwɔːtaɪm] *n* 1) urush davri (vaqti); **in** ~ urush davrida; 2) *attr.* urushga oid, urush bilan bogʻlangan, urush uchun belgilangan, harbiy, urush...
- warty** [ˈwɔːtɪ] *a* soʻgalli, serbuqoq.
- war-whoop** [ˈwɔːhuːp] *n* jangovar chaqiriq.
- war-worn** [ˈwɔːwɔːn] *a* urush natijasida xarobaga aylangan.
- wary** [ˈwɛəri] *a* ehtiyotli, ehtiyotkor.
- was** [wɔːz] *v* to **be** *feʻlining oʻtgan zamon birlik shakli.*
- was-bird** [ˈwɔːzbɜːd] *n* bor-budini yoʻqotgan odam.
- wash** [wɔːʃ] **1.** *v* 1) yuvmoq; 2) yuvinmoq; 3) kir yuvmoq; **2.** *n* 1) yuvish; yuvinish; 2) kir yuvish.
- washable** [ˈwɔːʃəbl̩] *a* yuvsa boʻladigan.
- wash-and-wear** [ˌwɔːʃənˈwɛə] *n* yuvilgandan soʻng dazmol talab qilinmaydigan matodan tikilgan kiyim.
- wash-basin** [ˈwɔːʃˌbeɪsɪn] *n* yuvinish tosi (togʻorasi).
- wash-board** [ˈwɔːʃbɔːd] *n* 1) *qur.* chaspak; 2) kir yuvishga moʻljallangan moslama (taxta).

wash-boiler [ˈwɒʃ,bɔɪlə] *n* ichki kiyimlarni solib qaynatish uchun ishlatiladigan bak (katta idish).
wash-bowl [ˈwɒʃbɔʊl] *n* tog'ora, jom, tos.
washcloth [ˈwɒʃklɒθ] *n* 1) idishlarni yuvish uchun ishlatiladigan latta; 2) paxmoq gazlamadan qilingan mochalka.
wash-day [ˈwɒʃdeɪ] *n* 1) tozalik kuni; 2) kir yuvadigan kun.
wash-drawing [ˈwɒʃ,drɔːɪŋ] *n* akvarel (*suvda qoriladigan bo'yoq*).
washed-out [ˌwɒʃt'ɔʊt] *a* 1) so'zl. charchagan, toliqqan, horg'in; 2) rangi ketgan, aynigan.
washed-up [ˌwɒʃt'ʌp] *a* ishdan chiqqan, tamom bo'lgan.
washer [ˈwɒʃə] *n* 1) yuvish mashinasida ishlovchi; 2) yuvish mashinasi (qurilmasi); 3) kir yuvish mashinasi; 4) *tex.* shayba.
washerwoman [ˈwɒːʃə,wʊmən] *n* kir yuvuvchi ayol.
wash-hand [ˈwɒʃhænd] *a* yuvinishga oid, bet-qo'l yuvadigan, yuvinadigan; ~ **basin** yuvinish tosi.
wash-house [ˈwɒʃhaʊs] *n* kirxona, kir yuvish xonasi.
washiness [ˈwɒʃɪnəs] *n* 1) rangi o'chganlik; 2) kuchsizlik, zaiflik, nimjonlik.
washing [ˈwɒʃɪŋ] *l. pres. p.* **wash** 1. *dan*; 2. *n* 1) yuvish, yuvib tozalash; 2) *she'r.* yuvinish, ta-horat qilish; 3) yuvilib ketish; 4) yuviladigan kiyimlar.
washing-day [ˈwɒʃɪŋdeɪ] = **wash-day**.
washing-house [ˈwɒʃɪŋhaʊs] = **wash-house**.
washing-machine [ˈwɒʃɪŋməʃiːn] *n* kir yuvish mashinasi.
washing-soda [ˈwɒʃɪŋ,səʊdə] *n* kir yuvadigan soda.
washing-stand [ˈwɒʃɪŋstænd] *n* umivalnik, bet-qo'l yuvgich.
washing-up [ˈwɒʃɪŋ'ʌp] *n* 1) idishlarni yuvish; 2) yuvish uchun taxlab qo'yilgan idishlar.
wash-leather [ˈwɒʃ,leðə] *v* zamsh (*bug'u, qo'y va boshqa mollarning terisidan tayyorlangan yumshoq baxmalsimon charm*).
wash-out [ˈwɒʃaʊt] *n* 1) suv yuvib ketgan joy; 2) so'zl. omadsizlik; 3) toleyi past odam.
wash-room [ˈwɒʃruːm] *n* 1) yuvinadigan, bet-qo'l yuvadigan joy; 2) *amer.* hojatxona.
wash-stand [ˈwɒʃstænd] *n* umivalnik.
wash-tub [ˈwɒʃtʌb] *n* kir tog'ora, jomashov.
wash-up [ˌwɒʃ'ʌp] *n* to'lqin qirg'oqqa chiqarib tashlagan qandaydir narsa.
washerwoman [ˈwɒʃ,wʊmən] = **washerwoman**.
washy [ˈwɒʃɪ] *a* 1) suyuq, sersuv; 2) rangi o'chgan, rangsiz; 3) bo'shashgan, shalpaygan.
wasp [wɒsp] *n* ari.
waspish [ˈwɒspɪʃ] *a* 1) alam qildiradigan, zaharli; 2) tez achchiqlanadigan, serjahl, serzarda, jizzaki.
wassail [ˈwɒseɪl] 1. *n* og'z. kichik ziyofat, xonaki bazm; 2. *v* bazm qurmoq.

wassailing [ˈwɒseɪlɪŋ] *n* ramazon, rojdestvo ashularini aytib uyma-uy yurmoq.
wastage [ˈweɪstɪdʒ] *n* 1) charchash, ishdan chiqish; 2) talafot, nobudgarchilik.
waste [weɪst] 1. *n* 1) cho'l, dasht, sahro, biyobon; 2) talafot, zarar, ziyon; 3) ortiqcha chiqim (xarajat); 2. *a* odam yashamaydigan, cho'lga o'xshagan; 3. *v* 1) o'rinsiz sarf qilmoq, sovurmoq; 2) behuda sarf qilmoq, behuda ketkazmoq, boy bermoq.
waste II [weɪst] *a* ishga yaroqsiz.
waste-basket [ˈweɪst,bɑːskɪt] = **waste-paper-basket**.
wasted [ˈweɪstɪd] *a* ozib (oriqlab) ketgan, ozib-to'zgan.
wasteful [ˈweɪstfəl] *a* isrofgar, nobudgar, behuda sarf qiluvchi, sovurib yuboruvchi.
wastepaper basket [weɪstˈpeɪpə,bɑːskɪt] *n* kerak bo'lmagan qog'ozlarni tashlaydigan savat; **fit for the** ~ hech narsaga arzimaydigan (yaramaydigan).
waste-pipe [ˈweɪstpaɪp] *n* suv oqadigan quvur, suv oqib tushadigan (ketadigan) quvur.
waster [ˈweɪstə] *n* isrofgar, isrof qiluvchi, behuda sarflovchi, pulni sovuruvchi.
wastewater [ˈweɪst,wɔːtə] oqindi suvlar, oqova suvlar.
wasting [ˈweɪstɪŋ] *a* vayron qiluvchi, xarob qiladigan, halokatli; ~ **war** halokatli urush.
wastrel [ˈweɪstrəl] = **waster**.
watch I [wɒtʃ] *n* qo'l soat.
watch II [wɒtʃ] *v* (diqqat, e'tibor) tomosha qilmoq, ko'rmoq.
watch-box [ˈwɒtʃbɒks] *n* qorovulxona.
watch-case [ˈwɒtʃkeɪs] *n* soat qobig'i.
watch-chain [ˈwɒtʃtʃeɪn] *n* soat zanjiri.
watch-crystal [ˈwɒtʃ,kɪrstl] *n* soat oynasi.
watchdog [ˈwɒtʃdɒg] *n* soqchi it.
watcher [ˈwɒtʃə] *n* 1) qorovul, soqchi, qo'riqchi; 2) kuzatuvchi, nazoratchi.
watch-fire [ˈwɒtʃ,faɪə] *n* 1) lashkargoh gulxani; 2) signal (xabar) beradigan gulxan.
watchful [ˈwɒtʃfəl] *a* 1) e'tiborli, kuzatuvchan, hushyor, sergak, sezgir; 2) ehtiyotli, ehtiyotkor.
watch-guard [ˈwɒtʃgɑːd] *n* soat zanjiri (bog'ichi).
watchhouse [ˈwɒtʃhaʊs] *n* qorovul budkasi, qorovulxona.
watch-maker [ˈwɒtʃ,mekə] *n* soatsoz; ~'s soatsozlik uxtaxonasi.
watchman [ˈwɒtʃmən] *n* tungi qorovul.
watchword [ˈwɒtʃwɔːd] *n* 1) shior, da'vat, shartli kelishuv; 2) parol (*shartlashgan maxfiy so'z*).
water [ˈwɔːtə] 1. *n* suv; 2. *v* 1) sug'ormoq; 2) nam-lamoq, ho'llamoq, ivitmoq.
water aerodrome [ˈwɔːtə,ɛəədɹəʊm] *n* gidro-aerodrom.
waterage [ˈwɔːtəɪdʒ] *n* yuklarni suv orqali bir yerdan ikkinchi yerga olib borish.

- water-anchor** [ˈwɑ:tə,æŋkə] *n* suzib yuruvchi langar.
- water-bailiff** [ˈwɑ:tə,beɪlɪf] *n* baliqlarni muhofaza qiluvchi, nazoratchi.
- water-bearer** [ˈwɑ:tə,bɛərɚ] *n* meshkob, suv tashuvchi.
- water-bearing** [ˈwɑ:tə,bɛərɪŋ] *a* namli, suvli, nam saqlaydigan.
- water boat** [ˈwɑ:tə,bɔ:t] *deng.* suv tashuvchi kichkina kema.
- water-boots** [ˈwɑ:təbu:ts] *n pl* botqoq etigi, botqoqlikda (toʻqayzorlarda) kiyiladigan etik.
- water-borne** [ˈwɑ:təbɔ:n] *a deng.* 1) suv (dengiz) orqali tashiladigan (*yuk haqida*); 2) suzadigan, suvda yuradigan.
- water-bottle** [ˈwɑ:tə,bɒtl] *n* 1) suvdon, suv saqlaydigan grafin; 2) flaga (*suyuqlik tashiladigan katta idish*).
- water-can** [ˈwɑ:təkæn] *n* bidon, biton.
- water cannon** [ˈwɑ:təkænən] *n* suv sepadigan qurol.
- water-carriage** [ˈwɑ:tə,kæriɪdʒ] *n* 1) kanalizatsiya; 2) suv transporti.
- water-carrier** [ˈwɑ:tə,kæriɪ] *n* suv tashuvchi (*arava yoki mashinada*).
- water-closet** [ˈwɑ:tə,klɔ:zɪt] *n* 1) kiyinish, yasanish va pardoz-andoz xonasi, kiyimxona, pardoz-xona; grimxona; 2) xojatxona.
- water-colour** [ˈwɑ:tə,kʌlə] *n* akvarel boʻyoq.
- watercourse** [ˈwɑ:təkɔ:s] *n* 1) oqim; ariq, daryo, soy, anhor, daryocha, kanal; 2) oʻzan, daryo yoʻli.
- water-craft** [ˈwɑ:təkra:ft] *n* kema.
- water-cure** [ˈwɑ:təkjuə] *n* suv bilan davolash.
- water-drinker** [ˈwɑ:tə,drɪŋkə] *n* (*spirtli ichimliklar*) ichmaydigan odam.
- water-drop** [ˈwɑ:tədrɒp] *n* 1) yosh, koʻz yoshi; 2) suv tomchisi.
- watered** [ˈwɑ:təd] *a* 1) muardan qilingan, tovlanadigan; 2) (*suv*) aralashtirilgan.
- waterfall** [ˈwɑ:təfɔ:l] *n* sharshara, shalola.
- water-flood** [ˈwɑ:təflɒd] *n* 1) toshqin, suv bosimi; 2) toʻlqinli, toʻlqinlashib turgan dengiz.
- water-front** [ˈwɑ:təfrʌnt] *n* 1) port; 2) (*dengiz, daryo va b. ning*) boʻyida, qirgʻogʻida joylashgan rayon.
- water-furrow** [ˈwɑ:tə,fləʊ] *n* zovur (*zaxni qochirish uchun qazilgan ariq*).
- water-gauge** [ˈwɑ:təgeɪdʒ] *n* suv oʻlchagich (*suvning sarfini oʻlchaydigan asbob*).
- water-glass** [ˈwɑ:təglɑ:s] *n* 1) suv stakani; 2) shishali vaza (*gullar uchun*); 3) suv soat.
- water-ice** [ˈwɑ:təraɪs] *n* mevali muzqaymoq.
- watering** [ˈwɑ:tərɪŋ] **1.** *pres. p. water 2. dan;* **2.** *n* 1) sugʻorish, suv berish, suv qoʻyish (*ekinga*); 2) suv qoʻshish (aralashtirish); 3) koʻz yosh toʻkish.
- watering-can** [ˈwɑ:tərɪŋkæn] *n* gulchelak (*suv sohadigan joʻmrakli chelak*).
- watering-cart** [ˈwɑ:tərɪŋka:t] *n* 1) koʻchalarga suv sepadigan sistema; 2) suv tashuvchining aravasi.
- watering-place** [ˈwɑ:tərɪŋpleɪs] *n* suvloq (*mollar-ni sugʻoradigan, hayvonlar, qushlar suv ichadigan joy*).
- watering-pot** [ˈwɑ:tərɪŋpɒt] *n* bidon (*suyuqlik solinadigan qopqoqli idish*).
- waterless** [ˈwɑ:tələs] *a* suvsiz, suvga tashna, qaqragan, qurgʻoq.
- water-lily** [ˈwɑ:tə,lɪli] *n* suvda oʻsadigan liliya (*lolagullilarga mansub dekorativ oʻsimlik*).
- waterline** [ˈwɑ:təlaɪn] *n* 1) *deng.* vaterliniya (*kemaning suvga botish chizigʻi*); 2) suv sathi; 3) qirgʻoq chizigʻi.
- waterlog** [ˈwɑ:tələɔŋ] *v* 1) suv bermoq, suv bostirmoq; 2) choʻktirmoq, botirmoq; 3) botqoqlikka aylantirmoq.
- waterman** [ˈwɑ:təmən] *n* 1) qayiqchi, qayiq haydovchi; 2) daryodan oʻtkazib qoʻyuvchi, kema-chi; 3) eshkak eshuvchi.
- water-melon** [ˈwɑ:tə,melən] *n* tarvuz.
- water-meter** [ˈwɑ:tə,mɪ:tə] *n* suv oʻlchagich (*suvning sarfini oʻlchaydigan asbob*).
- water-mill** [ˈwɑ:təmlɪl] *n* suv tegirmoni.
- water-nymph** [ˈwɑ:tə,nɪmf] *n* suv parisi (*afsonalarda*).
- water-parting** [ˈwɑ:tə,pɑ:tɪŋ] *n* suv ayirgʻich.
- water-pipe** [ˈwɑ:təpaɪp] *n* suv quvuri.
- water-plant** [ˈwɑ:təplɑ:nt] *n* suv oʻtlari (*oʻsimliklari*).
- water-point** [ˈwɑ:təpɔɪnt] *n* suv bilan taʼminlash joyi (*punkti*), suv taʼminoti punkti.
- water polo** [ˈwɑ:tə,pəʊləʊ] *n sport.* suv polosi (*suvda oʻynaladigan toʻp oʻyini*).
- water-power** [ˈwɑ:tə,pauə] **1.** *n* gidravlik energiya (*quvvat*); **2.** *attr.* suv kuchi bilan amalga oshiriladigan; **~ plant** suv elektr stansiyasi, gidroelektrostansiya.
- waterproof** [ˈwɑ:təpru:f] **1.** *a* suv oʻtmaydigan (oʻtkazmaydigan), nam tortmaydigan; **2.** *n* suv oʻtmaydigan (oʻtkazmaydigan) plash; **3.** *v* suv oʻtmaydigan (oʻtkazmaydigan) qilmoq.
- water pump** [ˈwɑ:təpʌmp] *n* suv nasosi.
- water-ram** [ˈwɑ:təræm] *n tex.* gidravlik taran (*suvni yuqoriga koʻtarib beradigan qurilma*).
- water-rat** [ˈwɑ:təræt] *n* suv kalamushi.
- water-rate** [ˈwɑ:təreɪt] *n* suv uchun toʻlanadigan toʻlov.
- water-repellent** [ˈwɑ:təri,pelənt] = **waterproof.**
- waterscape** [ˈwɑ:təskeɪp] *n* dengiz manzarasi.
- water-seal** [ˈwɑ:təsi:l] *n tex.* gidravlik zatvor (*ochib-yopuvchi mexanizm, qurilma, eshik*).
- water-service** [ˈwɑ:tə,sɜ:vɪs] *n* suv bilan taʼminlash, suv taʼminoti.
- watershed** [ˈwɑ:təʃed] *n* 1) suv ayirgʻich, chegara; 2) havza.
- waterside** [ˈwɑ:təsɑɪd] **1.** *n* qirgʻoq, sohil; **2.** *attr.* qirgʻoqda joylashgan; qirgʻoq boʻylab oʻtib ketadigan.

water-tap [ˈwɔ:tətæp] *n* kran, jo'mrak.
watertight [ˈwɔ:tətart] *a* suv (nam) o'tkazmaydigan, suv (nam) o'tmaydigan.
water-tower [ˈwɔ:tə,tauə] *n* suv bosimi hosil qiladigan minorra, suv minorasi.
water-wave [ˈwɔ:təweɪv] *n* katta to'lqin, baland to'lqin, po'rtana.
water-wheel [ˈwɔ:təwi:l] *n* charxpalak.
waterworks [ˈwɔ:təwɔ:ks] *n pl* (*birlik va ko'plikka bir xil ishlatiladi*) 1) suv stansiyasi; 2) suv inshootlari; 3) fontan, favvora.
watery [ˈwɔ:təri] *a* 1) suvga oid, suvli, suv...; 2) nam, ho'l, ivigan; 3) sernam, sersuv.
watt [wɒt] *n el.* vatt (*elektr quvvati o'lchov birligi*).
wattle I [ˈwɒtl] *n* qushlarning soqolchasi.
wattle II [ˈwɒtl] 1. *n* novda, xivich; ~ **and daub** loysuvoq uy, paxsa uy; 2. *v* to'qimoq, o'rmoq (*novdadan*).
wattled [ˈwɒtld] 1. *p. p.* **wattle II**, 2. *dan*; 2. *a* to'qilgan (*novdadan*).
wattless [ˈwɒtləs] *a* reaktiv (*kimyoviy reaksiyani amalga oshiradigan, reaktiv sifatida ishlatiladigan*).
wattmeter [ˈwɒt,mi:tə] *n el.* vattmetr (*elektr tokining quvvatini o'lchaydigan asbob*).
waul [wɔ:l] *v* 1) baqirmoq, qichqirmoq, qiyqirmoq; 2) miyovlamoq.
wave [weɪv] 1. *n* to'lqin mavji; 2. *v* 1) hilpiramoq, hilpillamoq; 2) likillamoq; 3) chayqalmoq, to'lqinlanmoq.
waveband [ˈweɪvbænd] *n* to'lqin diapazoni (*chegarasi*).
wave-length [ˈweɪvleŋθ] *n fiz.* uzun to'lqinlar.
waver [ˈweɪvə] *v* 1) tebranmoq; 2) pirpiramoq, hilpiramoq (*bayroq haqida*).
wavering [ˈweɪvəriŋ] 1. *pres. p.* **waver dan**; 2. *n* 1) tebranish; 2) o'zgarish, o'zgarib turish, o'zgaruvchanlik; 3) ikkilanish; 2. *a* 1) tebranuvchi, tebranib, hilpirab turadigan; 2) o'zgaruvchan; 3) ikkilanadigan.
wavy [ˈweɪvi] *a* 1) to'lqinli; 2) jingalak (*soch haqida*).
wax [wæks] 1. *n* mum; **mineral** ~ tog' mumi; 2. *v* mumlamoq.
waxcloth [ˈwæksklɒθ] *n* linoleum (*nam o'tkazmaydigan polga qoplanadigan qalin material*).
waxen [ˈwæksən] *a* 1) mumga oid, mumdan qilingan, mum...; 2) rangsiz; 3) mumdek yumshoq.
wax-end [ˈwæksend] *n* mumlangan pishiq ip.
waxwork [ˈwækswɔ:k] *n* mumqolip, mum nusxa.
waxy [ˈwæksi] *a* 1) mumga oid, mumdan qilingan, mumli, mum...; 2) mumga o'xshagan.
way [weɪ] 1. *n* 1) yo'l; **to lose one's** ~ yo'ldan adashmoq; 2) taraf, tomon; **look this** ~ bu tomonga qarang; 3) masofa; **a little** ~ yaqin masofa; **a long** ~ uzoq masofa; 4) oldinga harakat; **to make one's** ~ oldinga harakat qilmoq; 2. *adv* uzoq, yiroq.

wayfarer [ˈweɪ,feərə] *n* yo'lovchi, sayohatchi, sayyoh.
wayfaring [ˈweɪ,feəriŋ] 1. *n* sayohat, safar, olamni kezish; 2. *a* kezib yuradigan, sayyor.
waygoing [ˈweɪ,gəʊŋ] 1. *n* xayrlashuv, xayrlashish, vidolashish; 2. *a* jo'nayotgan, ketayotgan, yo'lga chiqayotgan, yo'l olayotgan.
waylay [weɪˈleɪ] *v* 1) xufiyona ko'rib qolmoq, ko'zi tushmoq; 2) tuzoq qo'ymoq, pistirma qo'ymoq.
wayside [ˈweɪsaɪd] 1. *n* 1) chet, qirg'oq, chekka, yoqa, chet, chekka, atrof; 2) yo'l ustidagi yo'l-yo'l chiziq; 2. *a* yo'l bo'yidagi, yo'l ustidagi.
wayward [ˈweɪwəd] *a* injiq, serxarxasha, tantiq, o'jar, qaysar.
way-worn [ˈweɪwɔ:n] *a* charchagan, toliqqan, horg'in.
we [wi:] *pron. pers.* biz.
weak [wi:k] 1. *a* 1) kuchsiz, oriq, nimjon, zaif; 2) rangsiz, suyuq; ~ **tea** suyuq choy; 2. *v* susaymoq, darmonsizlanmoq.
weaken [ˈwi:kən] *v* kuch-quvvatdan qoldirmoq, zaiflaltirmoq, darmonsizlantirmoq, bo'shastirmoq.
weak-headed [ˌwi:kˈhedɪd] *a* esi past, aqli kam, aqli zaif (past).
weak-kneed [ˌwi:kˈni:d] *a* irodasi bo'sh (*sust*), irodasiz.
weaking [ˈwi:kliŋ] *n* irodasi sust odam.
weakly [ˈwi:kli] 1. *a* kuchsiz, darmonsiz, bemajol, holsiz, zaif, nimjon, kasalmand; 2. *adv* zaif, kuchi yetmaydigan, bemador.
weak-minded [ˌwi:kˈmaɪndɪd] = **weak-headed**.
weakness [ˈwi:knəs] *n* kuchsizlik, zaiflik, nimjonlik, quvvatsizlik, darmonsizlik.
weak-spirited [ˌwi:kˈspɪrɪtɪd] *a* qo'rqqoq, yuragi yo'q, yuraksiz, irodasiz; irodasi sust.
weal I [wi:l] *n* 1) yaxshilik, ezgulik, eson-omonlik; baxt-saodat, manfaat; 2) farovonlik, mo'l-ko'l-chilik, boylik, farovon hayot.
weal II [wi:l] = **wale**.
weald [wi:ld] *n* bo'sh yer, bekor yotgan yer, obod qilinmagan yer.
wealth [welθ] *n* davlat, boylik, mol-mulk.
wealthy [ˈwelθɪ] *a* boy, badavlat, davlatmand; farovon.
wean I [wi:n] *n* *shotl.* go'dak, bola, farzand.
wean II [wi:n] *v* (*yosh bolani*) sutdan ajratmoq.
weanling [ˈwi:nliŋ] *n* yaqinda sutdan chiqqan bola.
weapon [ˈwepən] *n* qurol, yarog', aslaha.
weaponry [ˈwepənri] *n* *harb.* qurollantirish; qurollanish; jangovar texnika.
wear [weə] 1. *n* kiyish, kiyib yurish; 2. *v* 1) kiyimoq, kiyib olmoq, kiyib yurmoq, taqmoq, taqib yurmoq; 2) kiyib eskirtmoq.
weariful [ˈweərifl] *a* 1) zerikkan, diqqat, ziq; 2) charchagan, toliqqan, horg'in.

weariless [ˈwɪərɪləs] *a* charchamas, hormas, tolmash, tinmaydigan, toliqmaydigan, sergʻayrat.
wearily [ˈwɪərɪli] *adv* 1) charchab, charchatib; 2) zerikarli qilib, diqqatni oshirib yuboradigan.
weariness [ˈwɪərɪnəs] *n* charchaganlik, horganlik, toliqqanlik; charchoq, hordiq.
wearisome [ˈwɪərɪsəm] *a* juda ogʻir, mashaqqatli, charchatadigan, tinka-madorni quritadigan, kuch-quvvatni oladigan, holdan toydirgan.
weary [ˈwɪəri] *a* charchagan, horigan, horgʻin, toliqqan.
weasel [ˈwi:zl] *n zool.* ariq sichqoni (*suv-sarlariga mansub kichkina yirtqich hayvon*).
weather [ˈwede] *n* havo, ob-havo.
weather-beaten [ˈwede,bi:tn] *a* dovul (toʻfon, boʻron)dan zarar (ziyon) koʻrgan.
weather-bureau [ˈwede,bju:əru] *n* ob-havo byurosi.
weather-chart [ˈwede,tʃɑ:t] *n* sinoptik xarita.
weather-cloth [ˈwede,kloθ] *n deng.* 1) parda, toʻsiq, toʻsqich; 2) himoya (mudofaa) qiladigan brezent.
weathercock [ˈwede,kɔ:k] *n* 1) fluger (*shamolning yoʻnalishi va tezligini koʻrsatadigan, aniqlaydigan asbob*); 2) subutsiz (betayin) odam.
weather-forecast [ˈwede,fɔ:kɑ:st] *n* ob-havoni oldindan aytib berish, ob-havo maʼlumoti.
weather-glass [ˈwede,glɑ:s] *n* barometr (*atmosfera bosimini oʻlchaydigan asbob*).
weatherman [ˈwede,mæn] *n* meteorolog, meteorologiya olimi, mutaxassisi.
weather-map [ˈwede,mæp] = **weather-chart**.
weave [wi:v] **1.** *n* naqsh, bezak, gul (*gazlamada*); **2.** *v* (**wove**); **woven** toʻqimoq, oʻrmoq.
weaver [wi:və] *n* 1) toʻquvchi, toʻqimachi, bofanda; 2) yigiruvchi.
weazen(ed) [wi:zn(d)] **1** *a* 1) soʻligan, soʻlib qolgan, qurigan (*oʻsimlik toʻgʻarisida*); 2) ozib ketgan va ajin bosgan (*kishi haqida*).
web [web] *n* oʻrgimchak ini (uyasi) va uning har bir tolasini.
webbed [webd] *a* pardasi bor, pardali.
webbing [ˈwebɪŋ] *n* toʻqilgan tasma, uqa, jiyak.
wed [wed] *v* turmushga uzatmoq, uylantirmoq.
wedʹd [wi:d] = **we had**; **we would**; **we should**.
wedded [ˈwedɪd] *a* er-xotining va er-xotinlikka oid; **a ~ pair** er-xotin.
wedding [ˈwedɪŋ] *n* 1) toʻy; 2) nikoh, nikoh toʻyi; 3) uylanish *yoki* turmushga chiqish.
wedding-breakfast [ˈwedɪŋ,brekfæst] *n* toʻydan keyin mehmonlarni chaqirish (*chaqiriq*).
wedding-cake [ˈwedɪŋkeɪk] *n* toʻy pirogi, shirinligi.
wedding-day [ˈwedɪŋdeɪ] *n* toʻy kuni.
wedding-dress [ˈwedɪŋdres] *n* nikoh (toʻy) libosi.
wedding-ring [ˈwedɪŋrɪŋ] *n* nikoh uzugi.
wedge [wedʒ] **1.** *n* pona; **2.** *v* pona qoqmoq.
wedlock [ˈwedlək] *n* er-xotinlik.

Wednesday [ˈwenzdeɪ] *n* chorshanba.
wee I [wi:] **1.** *n* siydik, peshob; **2.** *v* siymoq, yozilmoq.
wee II [wi:] *a* *shotl.* juda kichkina, kichkinagina, uvoqqina, mushtday, jajji, **a ~ bit** oz miqdorda.
weed [wi:d] **1.** *n* 1) begona oʻt; 2) (**the ~**) tamaki; **2.** *v* oʻtamoq, oʻtoq qilmoq.
weeds [wi:dz] *n pl* 1) motam, aza; 2) qora kiyim, motam kiyimi.
weedy [ˈwi:di] *a* 1) begona (yovvoyi) oʻtdek oʻsadigan; 2) darmonsiz, qonsiz, ozgʻin; 3) oʻsmay qolgan, nimjon, pachoq.
week [wi:k] *n* hafta; ~ **end** hafta oxiri; ~**ly** haftalik; ~**ly newspaper** haftanoma.
week-day [ˈwi:kdeɪ] *n* oddiy kun, ish kuni, begim kuni.
week-end [ˌwi:kˈend] *n* hafta oxiri, shanbadan dushanbagacha boʻlgan dam olish vaqti.
weekly [ˈwi:kli] **1.** *n* haftalik, haftada bir chiqadigan jurnal; **2.** *a* haftada bir boʻladigan; **3.** *adv* har hafta, haftada bir marta.
ween [wi:n] *v* 1) oʻylamoq, fikr qilmoq, mulohaza qilmoq, fikr yuritmoq; 2) umid qilmoq, umid bogʻlamoq.
weep [wi:p] *v* (**wept**) yigʻlamoq, koʻz yoshi qilmogʻ; ~**ing** yigʻi.
weevil [ˈwi:vl] *n zool.* uzun tumshuq (*zararkunanda goʻngʻiz*).
weft [weft] *v* 1) toʻqim. arqoq (*matoning oʻrishi bilan koʻndalangiga kesishuvchi iplari*); 2) soʻzl. gazlama, gazmol, mato, toʻqima.
weigh [wei] *v* 1) mulohaza qilmoq; 2) tortmoq (*tarozida*); ~**er** tarozibon; ~**ing** tortish.
weight [weɪt] *n* 1) ogʻirlik, vazminlik; 2) oʻlchov; 3) obroʻ, hurmat.
weighty [ˈweɪtɪ] *a* ogʻir, vazmin.
weir [wɪə] *n* toʻgʻon, gʻov.
weird [wɪəd] *n* taqdir, qismat, yozmish, peshana, tole.
welcome [ˈwelkəm] **1.** *n* tabrik, qutlov, qabul, kutib olish (*mehmonni*); **2.** *int.* xush kelibsiz; **3.** *v* 1) qarshi olmoq; qabul qilmoq; 2) samimiy kutib olmoq.
weld [weld] *v* *tex.* ulamoq, payvandlamoq.
welding [ˈweldɪŋ] **1.** *pres. p.* **weld dan**; **2.** *n* *tex.* payvandlash, payvandlab ulash (biriktirish), svarka (payvand) qilish; payvand.
weldless [ˈweldlɪs] *a* *tex.* choksiz, choki yoʻq, bechok; ~ **tube** choksiz trubalar.
welfare [ˈwelfeə] *n* farovonlik, tinchlik, boylik.
welkin [ˈwelkɪn] *n* *shoir.* osmon, koʻk, samo, falak; osmon gumbazi.
well I [wel] *n* buloq; quduq.
well II [wel] *adv* yaxshi; ~ **known** atqli, mashhur; ~ **bred** tarbiyasi, odobli.
well-balanced [ˌwelˈbælənst] *a* vazmin, ogʻir (*tabiat haqida*).
well-being [ˌwelˈbi:ɪŋ] *n* tinchlik, farovonlik, esonomonlik.

well-bred [wel'bred] *a* tarbiyali, odobli.
well-built [wel'bilt] *a* baquvvat; qomati kelishgan.
well-disposed [weldi'spəuzd] *a* iltifotli, xayrixoh (to, towards).
well-earned [wel'ə:nd] *a* loyiq, munosib.
well-educated [wel'edju:keɪtɪd] *a* ma'lumotli, bilimli.
well-founded [wel'faundɪd] = **well-grounded**.
well-grounded [wel'graundɪd] *a* asosli, asoslangan, isbotli, puxta tayyorlangan.
well-heeled [wel'hi:lɪd] *a* so'zl. boy, badavlat, davlatmand.
well-informed [welɪnfɔ:md] *a* biladigan, yaxshi xabardor bo'lgan, yaxshi biladigan.
wellingtons ['welɪŋtənz] *n* 1) baland etik; 2) *pl* rezina etik.
well-knit [wel'nɪt] *a* 1) sanchib naqsh solingan; 2) mustahkam qilib to'qilgan; 3) mustahkam qilib birlashtirilgan.
well-known [wel'nəʊn] *a* mashhur, atoqli, dongdor, nomdor, dong'i chiqqan (ketgan), nom chiqqan, dong taratgan.
well-marked [wel'mɑ:kt] *a* aniq, ravshan.
well-off [wel'ɔf] *a* davlatmand, boy, badavlat.
well-paid [wel'peɪd] *a* yaxshi to'lanadigan.
well-read [wel'red] *a* 1) o'qigan, o'qimishli; alloma; 2) yaxshi o'qib chiqilgan (*kitob haqida*).
well-reputed [welrɪ'pju:tɪd] *a* yaxshi nom chiqargan.
well-tailored [wel'teɪləd] *a* 1) yaxshi kiyingan; 2) yaxshi tikilgan, yaxshi bichilgan.
well-to-do [wel'tə:du:] *a* boy, badavlat, o'ziga to'q.
well-tried [wel'traɪd] *a* sinalgan, sinovdan o'tgan, sinab ko'rilgan.
welt [welt] **1.** *n* 1) rant (*botinkada*); 2) (*qamchi zarbidan qolgan*) iz, chandiq; 3) zarba; 4) *tex.* chok (*ikki tunuka chetini bukib ulashda hosil bo'lgan chok*); **2.** *v* 1) so'zl. urmoq; 2) atrofiga biror narsa tikmoq.
welter [welta] *n* qiy-chuv, to's-to'polon.
wend [wend] *v* ketmoq, bormoq, harakat qilmoq, yurmoq.
went [went] *past go dan*.
wept [wept] *past. va p.p. weep dan*.
were [wə:] (*to be*) fe'lining o'tgan zamon ko'plik shakli.
west [west] **1.** *n* g'arb; **2.** *a* g'arbiy; **3.** *adv* 1) g'arbiga; 2) g'arbdan (*shamol haqida*).
westbound ['westbaʊnd] *a* g'arb tomonga harakat qiluvchi.
West End [west'end] *n* Uest-End.
western ['westən] *a* g'arbiy.
westerner ['westənə] *n* g'arbdan yashovchi kishi.
westernize ['westənəɪz] *v* yevropalashtirmoq (*majburan*).
Westminster ['westmɪnstə] *n* 1) Angliya parlamenti; 2) *attr.* : ~ **Abbey** Westminster abbatligi;

~ **Palace** Vestminster qasri (*ingliz parlamentining binosi*).
westward ['westwəd] *a* g'arbiga yo'naltirilgan.
wet [wet] **1.** *a* 1) ho'l, nam, ivigan, shilta; 2) yomg'irli, seryomg'ir; **2.** *v* ivitmoq, ho'l qilmoq.
wet-nurse [wetnə:s] *n* enaga, bolaga qarovchi ayol.
whack [wæk] *n* kuchli zarba, qattiq zarba.
whale [weɪl] *n* kit; **bull** ~ erkak kit; **cow** ~ urg'ochi kit.
whale-boat ['weɪlbəʊt] *n* kit ovlaydigan kema, kit ovlash kemasi.
whalebone ['weɪlbəʊn] *n* kit mo'yi (*kitlarning og'zidagi muguz plastinka*).
whaler [weɪlə] *n* kit ovlash kemasi, kit ovlaydigan kema.
whaling [weɪlɪŋ] *n* 1) kitlarni ovlash; 2) kit ovlash sanoati.
wharf [wɔ:f] (*pl -ves, -fs [-fs]*) kemalar to'xtaydigan joy.
what [wɒt] *pron.* nima; ~ **a pity!** attang! afsus! ~ **time is it?** soat necha bo'ldi? ~ **is the weather like today?** bugun ob-havo qanday?
whatever [wɒt'evə] *a* nima bo'lsa ham, qanaqa bo'lsa ham, qaysi biri bo'lmasin, baribir.
Whatman ['wɒtmən] (*~ paper*) vatman qog'oz.
what-not ['wɒtnɒt] *n* har xil narsalar, istalgan narsalar, odamdagi bor narsalar.
whatsoever [ˌwɒtsəʊ'evə] = **whatever**.
wheat [wi:t] *n* bug'doy; ~ **field** bug'doyzor.
wheel [wi:dl] *v* xushomadgo'ylik bilan pinjiga kirmoq, o'ziga og'dirib olmoq.
wheel [wi:l] *n* g'ildirak; ~ **barrow** zambilg'altak.
wheel chair ['wi:lʃeə] *n* g'ildirakli kreslo (*nogironlar uchun*).
heeze [wi:z] **1.** *n* 1) xirillash, xir-xir; 2) pishilash, pish-pish qilish, pishillagan (pish-pish) ovov; **2.** *v* 1) xirillagan, xir-xir qilmoq; 2) pishillamoq.
whelp [welp] *n* 1) it bolasi; 2) hayvonlarning yangi tug'ilgan, onasidan ajralmagan bolasi.
when [wen] *adv* qachon; ~ **were you born?** qachon tug'ilgansiz?
whence [wens] *adv* qayoqdan, qayerdan, qaydan.
whenever [wen'evə] *adv* qachon bo'lmasin; qachonlardir.
where [weə] *adv* qayerga, qayerda; ~ **is your lyceum?** litseyingiz qayerda joylashgan.
whereabouts ['weəɹəbaʊts] *n* turgan joyi, o'rni.
whereas [weə'æz] *conj.* 1) holbuki, vaholanki; 2) ga qaramasdan; 3) modomiki.
wherein ['weəɪn] *adv* 1) *rel.* ... yerda, ... joyda; 2) *int. esk.* ... nimada?
wherever [weə'evə] *conj.* qayerda bo'lmasin, qayerga bo'lmasin, qayerga bo'lsa ham.
whet [wet] *v* qayramoq, charxlamoq, qayrab o'tkir qilmoq.
whether ['weðə] **1.** *conj.* -mi; 2) *pron.* qaysi (biri); qaysinisi (*ikkita narsadan*).

- whew** [hju:] *int.* ana xolos!
whew [weɪ] *n* zardob.
which [wɪtʃ] *int. pron.* qaysi.
whichever [wɪtʃ 'evə] *pron. int.* qanday, qanaqa, qaysi, nima.
whiff [wɪf] **1.** *n* esish; jildiragan (tizillagan) oqim; **2.** *v* esmoq, ufurmoq, tarqalmoq.
Whig [wɪɡ] *n tar.* vig (XVIII – XIX asrlarda Angliyada, 1834 – 1854 yillarda AQSHda: siyosiy partiya).
while [waɪl] **1.** *cj* jarayonida, mobaynida; u vaqtlarda, vaqtida, paytida; **2.** *n* ikki hodisa orasidagi muddat, vaqt, davr.
whilst [waɪlst] *cj.* vaqtida, paytida.
whim [wɪm] *n* injiqlik, xarxasha, g'alati qiliq, tantliqlik.
whimper ['wɪmpə] *v* hiqillamoq, hiqillab yig'alamoq.
whimsical ['wɪmzɪkl] *a* g'alati, ajoyib, g'aroyib.
whine [waɪn] *v* akillamoq, angillamoq, vangillamoq.
whinny ['wɪnɪ] **1.** *n* xursandchilikdan qah-qah urib (sekin) kulish; **2.** *v* qah-qah urib (sekin) kulmoq.
whip [wɪp] **1.** *n* xipchin; novda; **2.** *v* urmoq; savalamoq, qamchilamoq.
whip-round ['wɪpraʊnd] *v* (xayr-saxovat, ehson uchun) pul yig'plamoq, to'plamoq.
whipper-snapper ['wɪpə,snæpə] *n* juda kichkinalik (kamlik, ozlik).
whip-round ['wɪpraʊnd] *v* tez burilmoq (o'girilmoq, aylanmoq).
whir [wə:] = **whirr**.
whirl [wɜ:l] *v* aylantirmoq, aylanma harakatga keltirmoq.
whirligig ['wɜ:lɪɡɪɡ] *n* pildiroq, bizbizak (*bolalar o'vinchog'i*).
whirlpool ['wɜ:lpu:l] *n* girdob, aylanma.
whirlwind ['wɜ:lwɪnd] *n* quyun, girdob, dovul, bo'ron.
whirr [wɜ:] *n* shovqin-suron, g'ovur-g'uvur, shovshuv, g'uvillash.
whisk [wɪsk] **1.** *n* supurgicha, kichkina supurgi; **2.** *v* qoqib tashlamoq, yelpib tashlamoq, qoqib (sidirib, yelpib) yubormoq.
whisker ['wɪskə] *n* 1) bakenbarda, chekka soqol; 2) mo'ylov, murt, miyiq (*mushuk va yo'lbarsda*).
whiskers ['wɪskəz] *n pl* 1) chekka soqol, bakenbarda; 2) mo'ylov (*mushuk, kalamush va b.*).
whisky ['wɪskɪ] *n* viski (*ingliz arag'i*).
whisper ['wɪspə] **1.** *n* pichirlash, shivirlash; **2.** *v* pichirlamoq; shivirlamoq.
whistle ['wɪsl] **1.** *n* hushtak, hushtak ovozi; **2.** *v* hushtak chalmoq.
whit [wɪt] *n* juda oz, ozgina, bir tomchi, qatra, jindak.
white [waɪt] **1.** *a* oq; **2.** *n* oq rang; ko'zning oqi;
The ~ House Oq uy (AQSH prezidentining rezidensiyasi).
white-headed ['waɪtheadɪd] *a* oq sochli.
white-hot ['waɪt'hɒt] *a* oppoq, oqarguncha qizdirilgan.
whiten ['waɪtn] *v* oqartirmoq, oqlamoq, oqqa bo'yamoq.
whitewash ['waɪtwɔʃ] **1.** *n* ohak; ~ing oqlash; **2.** *v* oqartirmoq, oqlamoq.
whiting ['waɪtɪŋ] *n* bo'r, oq bo'r (*oqlash uchun*).
whittle ['wɪtl] *n* qassob pichog'i.
whiz(z) [wɪz] *v* hushtak chalmoq, hushtak chalib qo'ymoq.
who [hu:] *pron. int.* kim.
whodun(n)it [,hu:'dʌnɪt] *n so'zl.* detektiv roman, detektiv film.
whoever [hu'evə] *pron. int.* kim bo'lmasin, kimda-kim, kim bo'lsa ham.
whole [həʊl] *a* barcha, butun, hamma; **on the ~** umuman; **the ~ day** kuni bilan; ~ **number** *mat.* butun son.
whole-hearted [,həʊl'hɑ:tɪd] *a* samimiy, sofdil, ochiqko'ngil, chin qalbdan aytilgan.
wholemeal ['həʊlmi:l] *n* elanmagan un.
wholesale [həʊlseɪl] *n* ulgurji savdo, ko'tara savdo.
wholesome ['həʊlsəm] *a* foydali, foyda qiladigan, foyda keltiradigan.
wholly ['həʊli] *adv* to'la, to'liq, batamom, to'lato'kis, tamomila.
whom [hu:m] *pron.* kimni, kimga.
whoo [hu:f] *v* akillamoq, vovullamoq, hurmoq.
whoop [hu:p] *v* baqirmoq, qichqirmoq, chinqirmoq.
whooping-cough ['hu:pɪŋkɔ:f] *n tib.* ko'kyo'tal.
whore [hɔ:] *n* shaloq (suyuqoyoq, buzuq) xotin, fohisha.
whortleberry ['wɔ:tl,beri] *n bot.* chernika (*buta va mevasi*).
whose [hu:z] *pron. poss.* kimning, kimniki, kimga qarashli.
whosoever [,hu:səʊ'evə] *pron. poss.* kim bo'lsa ham, kim bo'lmasin.
why [waɪ] *adv* nega, nima uchun, nima sababdan.
wick [wɪk] *n* pilik, pilta (*biror narsaga surtish uchun yog', dori kabilar shimdirilgan kanop, kanop tolalari, kanopdan qilingan latta va sh.k.*)
wicked ['wɪkɪd] *a* 1) yovuz, qopag'on; 2) shum; badjahl.
wickedness [wɪkɪdnəs] *n* yomonlik, yovuzlik; serjahllik, badjahllik, darg'azablik.
wicker ['wɪkə] *n* 1) to'qiladigan (to'qish uchun ishlatiladigan) novda; 2) to'qilgan (o'rilgan) savat.
wicket ['wɪkɪt] *n* ko'cha eshik; devorga (*yoki dera-zaga*) o'rnatilgan eshikcha.
wide [waɪd] *a* keng, enli, serbar, bepoyon.
widely ['waɪdli] *adv* keng, ko'lamda, har tomonlama.
widen ['waɪdn] *v* kengaytirmoq, keng yoymoq;
to ~ one's outlook bilim doirasini kengaytirmoq, saviyasini oshirmoq.

widespread [ˈwɑːdspred] *a* keng tarqalgan (yoyilgan).

widow [ˈwɪdəʊ] *n* beva, tul xotin.

widowed [ˈwɪdəʊd] *a* beva qolgan, eri (*yoki* xotini) oʻlib beva boʻlib qolgan.

widower [ˈwɪdəʊə] *n* beva kishi.

width [wɪðθ] *n* 1) en, kenglik; 2) bepoyonlik, cheksizlik.

wield [wi:lɪd] *v* ega boʻlmoq, molik boʻlmoq.

wife [waɪf] *n* rafiq, xotin; **to take to** ~ xotinlikka olmoq, uylanmoq.

wig [wɪɡ] *n* parik, yasama soch.

wigging [ˈwɪɡɪŋ] *n* soʻzl. qattiq koyish, soʻkish, qattiq tanbeh.

wiggle [ˈwɪɡl] *n* tebranish, chayqalish; tebratish, chayqatish.

wigwam [ˈwɪɡwæm] *n* vigvam (*Shimoliy Amerika hindularining oʻtovsimon kulbasi, chaylasi*).

wild [waɪld] *a* 1) yovvoyi; 2) asov; 3) quturgan; ~ **animal** yovvoyi hayvon.

wilderness [ˈwɪldənəs] *n* sahro, choʻl, biyobon, dasht.

wile [waɪl] *v* aldab (avrab) qoʻlga tushirmoq, ilintirmoq, qiziqtirib oʻziga tortmoq.

wilful [ˈwɪfl] *a* oʻjar, qaysar, oʻzboshimcha, xohlaganini (koʻngliga kelganini) qiladigan, boshqaning gapiga kirmaydigan; 2) oldindan oʻylab qoʻyilgan.

will [wɪl] **1.** *n* 1) xohish; istak; 2) iroda; 3) vasiyat; **2.** *v* 1) xohlamoq, istamoq; 2) vasiyat qilmoq.

willing [ˈwɪlɪŋ] *a* hozir, tayyor; ~**ly** jon deb.

will-o'-the-wisp [ˌwɪləðəˈwɪsp] *n* goh u yerda, goh bu yerda koʻrinadigan shuʻlalar (*botqoqliklardagi metan gazining lip-lip yonib koʻrinadigan shuʻlalari*).

willow [ˈwɪləʊ] *n* majnuntol.

will-power [ˈwɪlˌpaʊə] *n* iroda kuchi.

willy-nilly [ˌwɪlɪˈnɪli] *adv* istar-istamas, chor-nochor, noiloj.

wilt [wɪlt] *v* 1) soʻlmoq, soʻlib qolmoq; 2) boʻshashmoq, lanj boʻlmoq.

wily [ˈwaɪli] *a* ayyor, hiylagar, makkor.

wimp [wɪmp] *n* irodasiz odam, landavur, xom (tajribasiz) yigitcha.

win [wɪn] *v* yutmoq, gʻalaba qozonmoq, gʻolib chiqmoq, gʻalabani qoʻlga kiritmoq.

wince [wɪns] *n* zirillash, titrash, larzaga kelish.

winch [wɪntʃ] *n* *tex.* chigʻir (*yuk koʻtaradigan mashina*).

wind I [wɪnd] *n* shamol; **fair** ~ hamroh shamol; **strong** ~ kuchli (shiddatli, qattiq) shamol.

wind II [waɪnd] *v* (*soatni*) buramoq.

windfall [ˈwɪndfɔːl] *n* meva, hoʻl meva.

winding [ˈwaɪndɪŋ] **1.** *n* 1) burash, oʻrash; 2) *el.* chulgʻam; **2.** *a* 1) egri-bugri; 2) eshilgan, oʻrilgan, buralgan, buralma.

windmill [ˈwɪndmɪl] *n* shamol tegirmoni.

window [ˈwɪndəʊ] **1.** *n* deraza; **2.** *attr.* derazaga oid, deraza...

window-sill [ˈwɪndəʊsɪl] *n* deraza tokchasi.

windpipe [ˈwɪndpaɪp] *n* *anat.* nafas olish uchun xizmat qiladigan tomoq (halqum, hiqildoq).

wind-screen [ˈwɪndskriːn] *n* old oyna (*mashinada*).

windshield [ˈwɪndʃiːld] = **wind-screen**.

windward [ˈwɪndwəd] *a* shamol tomonga qaragan, shamolga roʻpara.

windy [ˈwɪndɪ] *a* shamolli, izgʻirinli.

wine [waɪn] *n* sharob, vino, may; **green** (*yoki new*) ~ yangi (yaqinda solingan) vino; **thin** ~ yomon (sifati past, buzuq) vino.

wineglass [ˈwaɪnɡlɑːs] *n* qadah, jom.

wing [wɪŋ] *n* qanot; **to add** ~s tezlatmoq, tezlashtirmoq, jadallashtirmoq.

wing-commander [ˈwɪŋkəˌmɑːndə] *n* aviatsiya podpolkovnigi.

wink [wɪŋk] *v* 1) koʻz qismoq, uchirmoq, pırpıratmoq; 2) koʻz qisib imo-ishora qilmoq.

winner [ˈwɪnə] *n* gʻolib, muzaffar, yengib chiqqan (yutgan) kishi.

winning [ˈwɪnɪŋ] *n* yutuq, yutilgan narsa (*yokı pul*).

winnow [ˈwɪnəʊ] *v* sovurmoq, shopirmoq, yelpimoq, yelpib (shopirib) tozalamoq (*yanchilgan donni*).

winter [ˈwɪntə] *n* qish; **in** ~ qishda.

wintry [ˈwɪntrɪ] *a* sovuq, qishki..., qishlik...

wipe [waɪp] *v* artmoq, tozalamoq, ishqalamoq.

wire [waɪə] **1.** *n* sim; **2.** *v* 1) telegramma bermoq; 2) sim qoqmoq.

wireless [ˈwaɪələs] *a* simsiz, simi yoʻq, radio.

wiring [ˈwaɪərɪŋ] **1.** *pres. p.* **wire** **2.** *dan;* **2.** *n* 1) elektr tarmoq; 2) elektr simlar tarmogʻi.

wiry [ˈwaɪəri] *a* chidamli, toʻzimli, bardoshli, toqatli.

wisdom [ˈwɪzdəm] *n* donolik, aqllilik, zakovat, hikmat, pand-nasihat.

wise [waɪz] *a* aqli, dono, donishmand, idrokli; ~ **words** pand-nasihat.

wisecrack [ˈwaɪzkræk] *v* charxlamoq, qayramoq, oʻtkirlamoq.

wish [wɪʃ] **1.** *n* istak, xohish; niyat, tilak; **2.** *v* niyat qilmoq, tilakdosh boʻlmoq.

wishy-washy [ˈwɪʃɪˌwɔːʃɪ] *a* 1) suyuq; 2) rangsiz, rangi oʻchgan (ketgan).

wisp [wɪsp] *n* bogʻ, bogʻlam, tutam.

wistful [ˈwɪstfl] *a* gʻamgin, qaygʻuli, maʼyus; parishon.

wit [wɪt] *n* (*pl*) aql, fahm, idrok, zehn.

witch [wɪtʃ] *n* jodugar ayol.

witchery [ˈwɪtʃəri] *n* 1) sehrgarlik, jodugarlik; 2) sehr, afsus, jodu, tilsim.

with [wɪð] *prep.* bilan; ~ **pleasure** jonim bilan; bosh ustiga.

withdraw [wɪðˈdrɔː] *v* (**withdrew**; **withdrawn**) 1) *harb.* chekinmoq, qaytmoq, qoʻshinlarni chiqarmoq; 2) olib chiqmoq, chiqarib olmoq, qaytarib olmoq.

withdrawal [wɪðˈdrɔːəl] *n* qaytarib olish, qaytish, olib chiqish, olib chiqib ketish.

withdrawn [wɪðˈdrɔːn] **1.** *p. p.* **withdraw** *dan*; **2.** *a* 1) tutashgan, tutash, yopiq, berk; 2) olib chiqib ketilgan.

withdrew [wɪðˈdruː] *past.* **withdraw** *dan*.

wither [ˈwɪðə] *v* soʻlmoq, qurimoq, bujmaymoq.

withheld [wɪðˈheld] *past., p. p.* **withhold** *dan*.

withhold [wɪðˈhəuld] *v* (**withheld**) ushlab qolmoq, toʻxtatib qolmoq.

within [wɪðˈɪn] *prep.* 1) (*joyini ifodalaganda*) ichida, ichkarisida; 2) (*davr, vaqtini ifodalaganda*) mobaynida, davomida; ichida; ~ **a year**: yil davomida.

without [wɪðˈaʊt] *prep.* ... siz; **read ~ translating** tarjimasiz oʻqing; ~ **permission** ruxsatsiz.

withstand [wɪðˈstænd] *v* (**withstood**) qarshi turmoq, bardosh bermoq, qarshilik qilmoq.

withstood [wɪðˈstud] *past., p. p.* **withstand** *dan*.

witless [ˈwɪtləs] *a* miyasi (kallasi) yoʻq, miyasiz, ahmoq, esi past, kaltafahm.

witness [ˈwɪtnəs] **1.** *n* 1) guvoh; shohid; 2) guvohnoma; 3) kafil; **2.** *v* guvoh boʻlmoq, guvohlik bermoq.

-witted [ˈwɪtɪd] murakkab soʻzlarda qandaydir aqliy qobiliyatga ega ekanligini bildiradi; **half-witted** aqli zaif; **quickwitted** topqir, hozirjavob.

witticism [ˈwɪtɪsɪzəm] *n* piching, hazil-mutoyiba, askiya.

wittingly [ˈwɪtɪŋli] *adv* atayin, ataylab, bila turib, joʻrttaga, qasddan.

witty [ˈwɪti] *a* dono, fahm-farosatli, topqir, gapga usta.

wives [ˈwaɪvz] *pl* **wife** *dan*.

wizard [ˈwɪzəd] *n* jodugar, sehrgar, afsungar; avroqchi.

wizen(ed) [ˈwɪzn(d)] *a* 1) burushgan, ajin bosgan; 2) soʻlib qolgan, qurigan (*oʻsimlik haqida*).

wobble [ˈwɒbl] *n* tebratish; silkitish.

wobbly [ˈwɒbli] *a* liqillab (qimirlab) turadigan, boʻsh, liqildoq.

woe [wəʊ] *n* qaygʻu, gʻam, dard-alam, dogʻ.

woebegone [ˈwəʊbɪɡən] *a* qaygʻuli, xafa, gʻamgin, maʼyus.

woeful [ˈwəʊfl] *a* qaygʻuli, dard-alamli; achinarli; gʻamgin, motamsaro.

woke [wəʊk] *past., p. p.* **wake** **I** *dan*.

woken [ˈwəʊkən] *p. p.* **wake** **I** *dan*.

wolf [wʊlf] *n* (*pl* **-wolves**) boʻri.

wolfish [ˈwʊflɪʃ] *a* yovuz, vahshiyona, vahshiy; ~ **appetite** juda yaxshi ishtaha. ishtahasi karnay.

wolves [wʊlvz] *pl* **wolf** *dan*.

woman [ˈwʊmən] *n* (*pl* **women**) xotin kishi; ayol.

womanhood [ˈwʊmənɦud] *n* 1) voyaga (boʻyiga) yetganlik; 2) nazokat; 3) xotin-qizlar (jinsi).

womanly [ˈwʊmənli] *a* nozik, mayin, muloyim, yumshoq.

womb [wʊ:m] *n* *anat.* bachadon.

women [ˈwɪmən] *pl* **woman** *dan*.

womenfolk [ˈwɪmɪnfəʊk] *n pl* xotin-qizlar, ayollar.

won [wɒn] *v* yutmoq, ustun chiqmoq, gʻolib kelmoq; gʻalaba (zafar) qozonmoq.

wonder [ˈwʌndə] **1.** *n* ajablanish, hayron boʻlish, hayratda qolish; **no** ~ ajablanarli (ajablanadigan) joyi yoʻq, tabiiy; **2.** *v* ajablanmoq, hayratda qolmoq, qiziqmoq.

wonderful [ˈwʌndəfl] *a* hayron qolarlik, ajoyib, yaxshi, koʻrkam, goʻzal.

wont [wəʊnt] *n* odat, oʻrganish.

woo [wu:] *v* 1) ayolning koʻnglini ovlamoq; 2) oʻziga tegishini (xotin boʻlishini) soʻramoq.

wood [wud] *n* 1) oʻrmon; daraxtzor; 2) yogʻoch, taxta.

woodcock [ˈwudkɒk] *n* *zool.* oʻrmon loyxoʻragi, yakan tovuq.

woodcut [ˈwudkʌt] *n* yogʻochga oʻyma naqsh solish.

woodcutter [ˈwud,kʌtə] *n* yogʻoch (daraxt) kesuvchi ishchi.

wooded [ˈwudɪd] *a* oʻrmonli; serdaraxt, daraxtzor.

wooden [ˈwudn] *a* taxtadan (yogʻochdan) yasalgan.

woodland [ˈwudlənd] *n* oʻrmonli (serdaraxt, daraxtzor) joy.

woodpecker [ˈwud,pekə] *n* qizilishton.

wood-pulp [ˈwudpʌlp] *n* yogʻoch massasi, yogʻoch boʻtqa (*qogʻoz sanoatida*).

woodwinds [ˈwudwɪndz] *n pl* yogʻochdan yasalgan puflab chalinadigan musiqa asboblari.

woodwork [ˈwudwə:k] *n* yogʻochdan yasalgan (qilingan, ishlangan) buyumlar.

woodworking [ˈwud,wə:kɪŋ] *n* 1) yogʻoch-taxta bilan ishlash; 2) yogʻoch-taxtaga ishlov berish.

woof **I** [wu:f] = **weft**.

woof **II** [wu:f] *n* gavan, liman, bandargoh.

wool [wul] *n* jun, yung.

wool-gathering [ˈwul,gæðərɪŋ] **1.** *n* parishonlik, parishonxotirlik; **2.** *a* parishonxotir, xayoli qochgan.

woollen [ˈwulən] *a* junli, yungli, jundan qilingan.

woolly [ˈwuli] *n* jun sviter.

word [wɔ:d] *n* soʻz, kalima; ~ **for** ~ soʻzma-soʻz; **in one** ~ qisqasi, xullas.

wore [wɔ:] *past.* **wear** **2.** *dan*.

wording [ˈwɔ:dɪŋ] *n* tahrir, tahrir qilish.

work [wɔ:k] **1.** *n* ish, mehnat, yumush, faoliyat, xizmat; **2.** *v* ishlamoq, mehnat qilmoq; ~ **hard** (**at**) koʻp (tirishib) ishlamoq.

workable [ˈwɔ:kəbl] *a* oʻz xarajatini oʻzi koʻtaradigan, ziyon keltirmaydigan, foydali, daromadli.

worker [ˈwɔ:kə] *n* ishchi, xizmatchi, xodim.

working [ˈwɔ:kɪŋ] *a* 1) ishchi; ~ **day** ish kuni; 2) ishlash uchun moʻljallangan.

workings [ˈwɔ:kɪŋz] *n pl* *logʻ.* kovlanayotgan kon, qazilayotgan joy.

workmanship [ˈwɔ:kmənʃɪp] *n* mahorat, sanʼat, hunar; **acquisitive** ~ nafis (nozik) mahorat (sanʼat).

work-out [wə:kaut] *n sport.* mashg'ulot, shug'ulanish.

workshop [wə:kʃɒp] *n* 1) ustaxona, ishxona, do'kon; 2) sex; 3) seminar; 4) simpozium.

world [wə:ld] *n* dunyo, jahon, olam; ~ **Peace Congress** Jahon tinchlik tarafdorlarining kongressi; ~ **view** dunyoqarash; ~ **wide** olamshumul.

worldly-wise [ˌwɜ:ldlɪ'wɪz] *a* tajribali.

world-wide [ˌwɜ:ld'waɪd] *a* olamshumul, butun dunyo taniydigan, butun dunyoda.

worm [wɜ:m] **1. n** 1) qurt, chuvalchang, ipak qurt; 2) gijja; **2. v** o'rmalamoq; o'rmalab kirmoq.

wormwood [ˈwɜ:mwud] *n bot.* shuvoq, yovshan (*yovvoyi o'simlik*).

wormy [ˈwɜ:mi] *a* chirigan, qurtlagan.

worn I [wɜ:n] *n* kiyilgan, eskirgan.

worn II [wɜ:n] *p. p. wear 2. dan.*

worn-out [ˌwɜ:n'aut] *a* kiyilgan, eskirgan; to'zgan.

worried [ˈwɪrɪd] *a* bezovtalangan, notinch.

worry [ˈwɒrɪ] **1. n** xavotirlik, notinchlik; tashvish; **2. v** xavotir bo'lmoq; tashvishlanmoq; bezovta bo'lmoq.

worrying [ˈwɒrɪŋ] *n* xavotirlanish, bezovtalanish, tashvishlanish.

worse [wɜ:s] *a* yomon, yaramas.

worsen [ˈwɜ:sn] *v* 1) og'irlashmoq, yomonlashmoq, yomonlashib (og'irlashib) ketmoq; 2) yomonlashtirmoq, og'irlashtirmoq.

worship [ˈwɜ:ʃɪp] *n* ibodat, sig'inish va u bilan bog'liq diniy marosimlar.

worst [wɜ:st] *adv* (**bad ning orttirma darajasi**) juda yomon; eng yomon.

worsted [ˈwɜ:stɪd] *n* taralgan mayin jundan to'qilgan gazmol.

worth [wɜ:θ] *n* baho, narx, qiymat, qadr, qadr-qimmat.

worth-while [ˈwɜ:θ'waɪl] *a* (*diqqat-e'tiborga*) arziydigan, arziarli, arziguday, arzigudek; loyiq.

worthy [ˈwɜ:θɪ] *a* loyiq, munosib, arziydigan.

would [wud] **will** kelasi o'tgan zamon 2 va 3-shaxs birlik va ko'plik shakli yasovchi yordamchi fe'l.

would-be [ˈwudbi:] *adv* soxta, yolg'ondakam, yasama, munofiqona, soxtalik, qalbakilik.

wound I [wu:nd] **1. n** yara; jarohat; ~**ed** yarador; **2. v** yarador qilmoq; jarohat yetkazmoq.

wound II [waund] *past., p. p. wind II dan.*

wove [wəʊv] *past. weave 2. dan.*

woven [ˈwəʊvən] *p. p. weave 2. dan.*

wow [wau] *v* juda ham ajablantirmoq, hayratga solmoq, hayratda qoldirmoq, esankiratib (dovdiratib) qo'ymoq.

wraith [reɪθ] *n* 1) arvoq, sharpa; 2) xayolot, xayolda ko'ringan narsa.

wrangle [ˈræŋgl] **1. n** 1) nizo, kelishmovchilik, janjal; 2) tortishuv, aytishish, gap talashish; **2. v** tortishmoq, aytishmoq, gap talashmoq.

wrap [ræp] **1. n** 1) shol ro'mol; 2) katta qalin jun ro'mol; 3) o'rash, o'rab qo'yish; **2. v** 1) o'ramoq; 2) yo'rgaklamoq.

wrapper [ˈræpə] *n* 1) jild, muqova, o'rov; 2) bandlerol (*pochta orqali yuboriladigan narsa o'rovi va shunday o'rovda yuborilgan narsa*); 3) xalat.

wrapping [ˈræpɪŋ] *n pl* o'rash, o'rab qo'yish; ~ **paper** narsa o'raydigan qog'oz.

wrath [rɒθ] *n* nafrat, qahr, g'azab, qahr-g'azab.

wreak [ri:k] *v* erk bermoq, erkinlik bermoq, erkiga qo'yib bermoq; ~ **one's anger up on (upon) smb.** g'azabini kimgadir sochmoq; ~ **vengeance upon smb.** kimdandir qasd (o'ch) olmoq.

wreath [ri:θ] *n* gulchambar; bargak.

wreathe [ri:ð] *v* gulchambar qilmoq, to'qimoq, to'qib yasamoq.

wreck [rek] **1. n** halokat; halok bo'lish, barbod bo'lish; **2. v** 1) cho'ktirmoq (*paraxodni*); 2) halokatga uchramoq; 3) barbod bo'lmoq.

wreckage [ˈrekɪdʒ] *n* 1) halokat, halok bo'lish; 2) barbod bo'lish, puchga chiqish; 3) singan bo'lak; 4) eskilik asari.

wrecker [ˈrekə] *n* 1) zararkunanda, kushanda; 2) yengilgan, tor-mor bo'lgan kemalarni talaydigan bosqinchilar.

wrench [rentʃ] **1. n** siltash, siltab tortish; **2. v** siltamoq, siltab tortmoq.

wrestle [ˈresl] **1. n** kurash, bellashuv; **2. v** kurashmoq, bellashmoq.

wrestler [ˈreslə] *n sport.* kurashchi, kurashuvchi.

wrestling [ˈreslɪŋ] **1. pres. p. wrestle 2. dan;** **2. n sport.** kurash, kurashish.

wretch [retʃ] *n* 1) baxtsiz odam; **poor** ~ bechora, sho'rlik, baxtsiz; 2) razil (qabih, past) odam; 3) so'zl. yaramas, noqobil (*asosan, bolalarga nisbatan ishlatiladi*).

wretched [ˈretʃɪd] *a* ayanch, ayanchli, achinarli; nochor, ojiz.

wriggle [ˈrɪgl] *n* burilish, qayrilish, burilgan (egilgan) joy.

wring [rɪŋ] *v* (**wrung; wrung**) 1) siqib chiqarmoq; 2) buramoq, qayirmoq; 3) siqmoq, qismoq (*qo'lni*).

wrinkle I [ˈrɪŋkl] **1. n** 1) ajin, burushiq; 2) burushgan (g'ijimlangan) joy, burushiq, g'ijim; **2. v** ajin bosmoq.

wrinkle II [ˈrɪŋkl] *n so'zl.* foydali maslahat.

wrist [rɪst] *n* 1) bilak; 2) *tex.* sapfa (*o'q yoki valning podshipnikda aylanuvchi qismi, bo'yni*); 3) *attr:* qo'lga (bilakka) taqiladigan; qo'l...; ~ **watch** bilakka taqiladigan soat, qo'l soat.

wristlet [ˈrɪstlət] *n* bilaguzuk.

writ [rɪt] *n* 1) chaqiruv qog'ozi; 2) farmoyish, order.

write [raɪt] *v* (**wrote; writ; written**) yozmoq; ~ **down** yozib olmoq.

writer [ˈraɪtə] *n* 1) yozuvchi; 2) muallif.

write-up [ˈraɪtʌp] *n* 1) maqtab yozilgan maqola; 2) reklama qilish; 3) batafsil tasvirlamoq; 4) maqtab yozmoq (*matbuotda*).

writh [raɪð] *v* og'riqdan tirishib tipirchilamoq.
writing ['raɪtɪŋ] **1.** *pres.* **write** *dan*; **2.** *n* yozilgan narsa, insho, yozuv-chizuv.
written ['rɪtɪn] *p. p.* **write** *dan*.
writing-table ['raɪtɪŋ,teɪbl] *n* yozuv stoli.
wrong [rɒŋ] *a* noto'g'ri, xato, nohaq; **to do** ~ yanglishmoq, xato qilmoq.
wrongdoer ['rɒŋ,du:ə] *n* dilozor, jafokor, kimsani xafa qilgan, ranjitgan odam.
wrongdoing ['rɒŋ,du:ɪŋ] *n* 1) gunoh; 2) ayb, ayb ish, aybdor.
wrote [rəʊt] *past.* **write** *dan*.

Xx

X, x [eks] *n* (*pl* **Xs**, **X's** ['eksɪz]) 1) ingliz tili alifbosining yigirma to'rtinchi harfi; 2) X shaklidagi qandaydir narsa; 3) *mat.* iks noaniq miqdor, kenglik; *ko'ch.* qandaydir sir, qandaydir maxfiy narsa, qandaydir noma'lum narsa; 4) *amer.* o'n dollarli qog'oz pul; 5) xoch, salb, but, bir-birini kesib o'tgan ikki narsa, ikki chiziq; 6) yanglish, xato; 7) bolalarning kirishi man etilgan filmlar turkumi (*turi*).

Xanthippe [zæn'θɪpɪ] *n* Ksantippa; *ko'ch.* badjahl, serjahl, yomon, yovuz, ming'ir-ming'ir qiladigan, quloqni tinchitmaydigan, mijg'ov, janjalkash xotin (*ayol*).

xanthous ['zænθəs] *a* sariq, malla.

X-axis ['eks,æksɪs] *n* *mat.* absissa o'qi (*fazodagi nuqtaning joyini aniqlaydigan uch koordinatdan biri*).

X-bit ['eksbit] *n* *tog'*. parmaning salb (*krest*) shaklidagi boshchasi.

X-bracing ['eks,breɪsɪŋ] *n* *tex.* krest shaklidagi bog'lanish, kashak.

xebec ['zi:bek] *n* *tar.* shebeka (*O'rtayer dengizidagi yelkanli kemalarning bir turi*).

X-engine ['eks,ɛndʒɪn] *n* *tex.* silindrga X shaklida o'rnatilgan dvigatel.

xenial ['zi:nɪəl] *a* mehmondorlikka aloqamand (*taalluqli*) bo'lgan; ~ **customs** mehmondorchilik qonun-qoidalari.

xenogamy [zɛ'nɒgəmi] *n* *bot.* o'z-o'zidan changlanish.

xenomania [zɛnə'meɪniə] *n* barcha xorijiy kishilarga bo'lgan havas (*ishtiyiq*).

xenon ['zɛnɒn] *n* *kim.* kenon (*kimyoviy element, inert gaz*).

Yy

Y, y [waɪ] *n* (*pl* **Ys**, **Y's** ['waɪz]) 1) ingliz tili alifbosining yigirma beshinchi harfi; 2) Y shaklidagi biror narsani bildiradi; 3) *mat.* igrek, noma'lum qiymat, kattalik, miqdor.

yacht [jɒt] **1.** *n* *sport.* yaxta; **2.** *v* suzmoq, yaxtada yurmoq.

wrought-up [ˌrɔ:ʊtʌp] *a* nervga (*asabga*) oid.

wrung [rʌŋ] *v* o'ramoq, o'rmoq, pishitmoq, eshmoq, chiyratmoq.

wry [raɪ] *a* egri, qiyshiq, qing'ir, qing'ir-qiyshiq, egri-bugri; **a** ~ **smile** sun'iy kulgi, zo'rma-zo'raki kulish; masxaralash.

wych-elm ['wɪtʃɛlm] *n* *bot.* elma (*qayrag'ochning bir turi*).

wye [waɪ] *n* 1) *tex.* uchtalik (*trubadagi suv, gaz kabilarni uch tomonga ajratishga, bo'lib yuborishga moslashgan jo'mraksimon buyum*); 2) uchtalik; uchta bir xil narsadan iborat predmet.

xenophobia [zɛnə'fəʊbɪə] *n* xorijdan kelgan kishilarga nisbatan adovatli munosabatda bo'lish, xorijiy kishilarga nisbatan g'arazli munosabatda bo'lish.

Xerox [zɪərɒks] *n* 1) kseroks (*foto ko'chirmalarni rasmga tushiradigan asbob*); 2) fotoko'chirma.

xiphoid ['zɪfɔɪd] *a* *anat.* qilichga (*shamshirga*) o'xshagan, shamshirmand.

X-line ['ɛksləɪn] *n* *mat.* iks o'qi.

Xmas [krɪsməs] *n* 1) **Christmas** *so'zining qisqartirilgan shakli*; rojdestvo, milod (*Iso payg'ambarning tug'ilganiga bag'ishlangan xristianlar bayrami*); 2) rojdestvo (*milod*) bayramida bo'ladigan, rojdestvo (*milod*) bayramiga oid.

X-ray [eks'reɪ] **1.** *n* 1) (*odatda pl*) rentgen nurlari; 2) *attr.* rentgenga oid; ~ **therapy** rentgenoterapiya (*rentgen nurlari bilan davolash*); ~ **picture** rentgenogramma (*rentgen apparatida olingan surat*); ~ **photograph** rentgen surati (*rentgen apparatida olingan surat*); **2.** *v* nur sochmoq, rentgen nurlari yordamida tekshirib ko'rmoq.

xylanthrax [zɪl'æntɾæks] *n* yog'och ko'mir, pista ko'mir.

xylograph [zɪlɒgrə:f] *n* yog'ochga o'ymakorlik bilan tushirilgan (shakl, surat) naqsh.

xylography [zɪlɒgrə'fɪ] *n* ksilografiya (*yog'ochga o'yilgan naqsh va undan bosilgan surat*).

Xylonite ['zɪlɒnɪt] *n* selluloid (*sellulozadan tayyorlangan qattiq plastik material*).

xylophone ['zɪlɒfəʊn] *n* ksilofon (*changga o'xshagan musiqiy asbob*), yog'och chang.

xylose ['zɪlɒs] *n* *kim.* ksiloza.

xyster ['zɪstə] *n* *tib.* raspator.

yacht-club ['jɒtklʌb] *n* yaxt-klub (*1. suv sporti bilan shug'ullanadigan sport tashkiloti*; 2. *shu tashkilot joylashgan bino yoki suv stansiyasi*).

yachting ['jɒtɪŋ] *n* 1) yaxtada yurish, yaxtada suzish; 2) yelkanli qayiq sporti.

yachtsman [ˈjɑ:tsmən] *n* 1) yaxta egasi; 2) *sport*. yaxtachi, sportchi.
yaffil, **yaffle** [ˈjæfl] *n* yashil qizilishon.
yah [jɑ:] *int.* (*nafratlanish*, *jirkanishni bildiradi*) qoʻysangiz-chi, yogʻ-e, rostdanmi.
yahoo [jɑ: ˈhu:] *n amer.* qishloqda oʻsgan sodda odam, qishloqi.
yak [jæk] *n zool.* qoʻtos.
Yakut [jə ˈkut] **1.** *n* 1) yakut; yakut ayoli; 2) yakut tili; **2.** *a* yakutlarga (yakut xalqiga *yoki* Yakuti-yaga) oid; ~ *literature* yakut adabiyoti.
yam [jæm] *n bot.* 1) yams; 2) batat (*janub oʻsimligining bir turi va uning kartoshka taʼmli ildiz mevasi*).
yammer [jæmə] *v amer.* ogʻz. 1) shikoyat qilmoq, nolimoq, hasrat qilavermoq; 2) betinim (toʻxtovsiz) javramoq.
Yank [jæŋk] = **Yankee**
yank [jæŋk] **1.** *n* siltov, siltash, siltanish; **2.** *v* siltab tortmoq, siltamoq; ~ **in** qamab qoʻymoq; ~**off** tortib olib chiqmoq, sudrab chiqmoq.
Yankee [jæŋki] **1.** *n* yanki, amerikalik; **2.** *a* Amerikaga oid.
yankeefied [jæŋkɪfaɪd] *a* amerikalikka aylangan, amerikalashgan.
yap [jæp] **1.** *n* 1) hovillash, akillash, uvillash, hurish, hurgandek chiyillash; 2) ogʻz. safsata, bekor gap; 3) ogʻz. pechkaning ogʻzi; **2.** *v* 1) qattiq hovillamoq, akillamoq, hurgandek chiyillamoq; (*itlar haqida*); 2) ogʻz. valjiramoq, aljiramoq; ~ **away** toʻxtamay bekorchi gaplarni gapirmoq.
yapp [jæp] *n* yumshoq charm muqova.
yard I [jɑ:d] *n* yard (*uzunlik oʻlchovi, 914,4 mm ga teng*).
yard II [jɑ:d] *n* 1) hovli; 2) taxta-yogʻ och ombori; 3) park (*avtomobil va sh.k. transportlarni tuzatish joyi*); 4) *tem.y.* navlarga ajratish stansiyasi; 5) otar, qoʻton, molxona; **2.** *v* 1) molni hovliga haydamoq; 2) yogʻochlarni (kesilgan daraxtlarni) sudrab tashimoq.
yard-bird [jɑ:dbɜ:d] *n harb.* ogʻz. askarlikka endi chaqirilgan askar, yangi olingan askar.
yardman [ˈjɑ:dmən] *n* depo *yoki* park ishchisi.
yard-master [ˈjɑ:d,mɑ:stə] *n* stansiya dispetcheri.
yard-measure [ˈjɑ:d,mezə] *n* oʻlchash chizgʻichi *yoki* 1 yardga teng boʻlgan (metr, ruletka).
yardstick [ˈjɑ:dstɪk] *n* 1) oʻlchov, andaza, mezon; 2) oʻlchov chizgʻichi.
yard-wand [ˈjɑ:d,wɔ:nd] = **yard-measure**.
yardn [jɑ:n] **1.** *n* 1) yigirilgan ip, gʻaltak; 2) ogʻz. hikoya, latifa; **2.** *v* ertak aytmoq, valdiramoq, aljiramoq.
yarn-beam [ˈjɑ:nbi:m] *n* yigirilgan ipli toʻquv stanogi gʻaltagi.
yarn-dyed [ˈjɑ:ndaɪd] *a* boʻyab yigirilgan ip.
yarrow [ˈjærəu] *n bot.* oddiy dastorbosh boʻyimodaron (*oʻsimlik*).

yashmak [ˈjæʃmæk] *arab. n* chodir (*paranjisimon yopinchiq, chimmatsiz parani*).
yataghan [ˈjætəgən] *turk. n* egri qilich, shamshir.
yawl [jɔ:l] *n deng.* yal (*kemadagi maxsus qayiq*).
yawn [jɔ:n] **1.** *n* 1) esnash, esnoq tortish, esnoq; 2) *tex.* zazor (*mashina qismlari oʻrtasidagi juda tor tirgish*); **2.** *v* 1) esnamoq; **he ~ ed good night** u esnab xayrli tun tiladi; 2) chuqur (*tubsiz*) boʻlib koʻrinmoq; 3) katta (*keng*) ochmoq.
Y-axis [ˈwaɪ,æksɪs] *n mat.* ordinatalar oʻqi.
yclept [ɪˈklept] *a esk.* ataladigan, aytiladigan, nomlanadigan, deyiladigan.
yea [jeɪ] *n* rozilik; ijobiy (tasdiqlovchi) javob.
yeah [jeə] *part sl.* ha, shunday.
yea [ji:n] *v* qoʻzilamoq (*qoʻy, echki haqida*).
yea [ji:n] *n* uluq (echki bolasi), qoʻzichoq.
year [jɜ:] *n* 1) yil; ~ **by** ~ har yili; ~ **in** ~ **out** yildan-yilga; **from** ~ **to** ~; ~ **by** ~, ~ **after** ~ yil sayin; ~ **s ago** ancha ilgari; 2) *pl* yosh, yillar; **he looks young for his ~s** koʻrinishidan yoshga oʻxshaydi; **in** ~s yoshi qaytgan, qariy boshlagan.
year-book [ˈjɜ:buk] *n* yilnoma (*yilda bir marta chiqadigan toʻplam*).
yearling [ˈjɜ:lɪŋ] **1.** *n* 1) bir yoshli hayvon; 2) koʻchat; 3) *amer. harb. sl.* (*harbiy xizmatga*) chaqiriluvchi; **2.** *a* bir yashar, bir yoshli.
yearly [ˈjɜ:lɪ] **1.** *a* har yilgi, yilda bir marta boʻladigan, yillik; **2.** *adv* har yili, yilda bir marta.
yearn [jɜ:n] *v* 1) azob chekmoq, toliqmoq, tinkasi qurimoq, azoblanmoq; 2) sogʻinmoq, qoʻmsamoq; sogʻinib siqilmoq, diqqat boʻlmoq, zerikmoq; 3) orzemand boʻlmoq, zoʻr ishtiyok bilan orzu qilmoq.
yearning [ˈjɜ:nɪŋ] **1.** *pres., yearn dan*; **2.** *n* 1) kuchli xohish, qattiq xohish; 2) kuchli sogʻinish; **popular** ~s xalqning ezgu orzu-umidlari.
yeast [ji:st] *n* xamirturush, achitqi.
yeasty [ˈji:sti] **1.** *a* 1) koʻpikli, koʻpigi bor, serkoʻpik; 2) sayoq, daydi, beqaror, koʻchmanchi, qoʻnimsizlik; 3) boʻm-boʻsh, quruq, bemaʼni, behuda, ahamiyatsiz (*soʻz va sh. k.*).
yegg [jɛg] *n amer.* qulfbuzar oʻgʻri, bosqinchi, bosmachi, oʻgʻri.
yelk [jelk] *n* tuxunning sarigʻi.
yell [jel] **1.** *n* 1) qattiq qichqiriq, kuchli baqiriq; 2) *amer.* har bir kollejda qabul qilingan maʼqullash ovozlari (*talabalarning sport musobaqalarida aytiladigan*); **2.** *v* 1) chinqirmoq, qichqirmoq, dodlamoq, dod-voy qilmoq; 2) baqirmoq (*baland ovoz bilan*); **to** ~ **out curses** laʼnat soʻzlari yogʻdirmoq, laʼnatlamoq.
yellow [ˈjeləu] **1.** *a* 1) sariq; 2) ogʻz. qoʻrqoq, yuraksiz; **he has a ~ streak in him** u qoʻrqoq; 3) hasadli, ichi qora; qizgʻanadigan, rashkli, rashk qiladigan, shubhali, shubha tugʻdiradigan (*nigoh va sh.k.lar haqida*); **the** ~ **press** xususiy matbuot; **2.** *n* 1) sariqlik, zahillik, sariq rang;

2) tuxum sarig'i; 3) so'zl. qo'rqoqlik, yuraksizlik; 3. v 1) sarg'aymoq; 2) rangi ketmoq, zahillashmoq; 3) sariq rangga bo'yamoq.

yellowback [ˈjeləubæk] *n* 1) tuturiqsiz roman (*adabiy jihatdan ma'nosiz*); 2) sariq jildli fransuzcha roman.

yellow-bark oak [ˈjeləubɑ:k'əuk] *n bot.* baxmal dubi (*daraxt*).

yellow-bellied [ˈjeləu,belɪd] *a* qo'rqoq, yuraksiz.

yellow dog [ˈjeləu'dɔg] *n amer.* razil, pastkash odam; yuraksiz; jirkanch shaxs, razil odam.

yellow-dog fund [ˈjeləudɔg'fʌnd] *n amer.* pora uchun beriladigan summa.

yellow fever [ˈjeləu'fi:və] *n tib.* sariq (isitma) bezgak.

yellow-hammer [ˈjeləu,hæmə] *n* oddiy dehqon chumchuq (*qush*).

yellowish [ˈjeləuɪʃ] *a* sarg'ish, sariqqa moyil, sariqroq.

yellow jack [ˈjeləu,dʒæk] = **yellow fever**.

yellow-livered [ˈjeləu,lɪvəd] *a so'zl.* qo'rqoq, yuraksiz.

yellowness [ˈjeləunəs] *n* sariqlik, zahillik.

Yellow Pages [ˈjeləu'peɪdʒɪz] *n amer.* (*sariq ma'lumotnoma*) telefon ma'lumotnomasining sariq rangli qog'ozga yozilgan bo'limi.

yellowy [ˈjeləuɪ] = **yellowish**.

yelp [jelp] **1.** *n* 1) chiyillash, chinqirish; 2) vovulash, akillash, uvillash; **2. v** 1) chiyillamoq, chinqirmoq; 2) vovillamoq, angillamoq.

Yemeni [ˈjeməni] = **Yemenite**.

Yemenite [ˈjemənɪt] **1.** *a* Yamanga va yamanliklarga oid; **2. n** yamanlik, yaman; yamanlik ayol, yamanka.

yen I [jen] *n* (*pl o'zgarishsiz*) iyena (*Yaponiyada pul birligi*).

yen II [jen] **1.** *n* og'z. qattiq xohish; **2. v** chanqamoq, intilmoq (*nimadir qilishga*).

yeoman [ˈjəumən] *n* 1) kichik yer xo'jayini; 3) *amer. dengiz.* harbiy kotib; ~ **of the Guard** Angliyaning saroy soqchilari, qo'riqchilari; ~ **s' service** a) muhtojlarga (kambag'allarga, bechoralarga, qashshoqlarga) yordam; b) benuqson (bekam-ko'st, qusursiz) xizmat.

yeomanry [ˈjəumənri] **1)** *tar.* hududiy otlig qo'shin, askar; **2)** *harb.* hududiy ixtiyoriy ravishda tuzilgan bo'lim (qism).

yep [jep] *adv so'zl.* ha.

yep [jes] **1.** *adv* ha; **2. n** 1) ma'qullash, rozi bo'lish; 2) tasdiqlash, rozi bo'lish va sh.k. ma'nolarni bildiradi; ha shunday, xuddi shunday.

yes-man [ˈjesmæn] *n so'zl.* xushomadgo'y, laganbardor, birovning nog'orasiga o'ynovchi.

yesterday [ˈjestədi] **1.** *adv* 1) kecha; ~ **morning** kecha ertalab; 2) yaqinda, yaqindagina, hozirgina; **2. n** kechagi kun; ~**s' incident** kechagi hodisa, voqea.

yester-evening [ˈjestər'i:vniŋ] **1.** *n* kechagi oqshom; **2. adv** kecha kechqurun.

yesternight [ˈjestənaɪt] = **yester-evening**.

yester-year [ˈjestəjɪə] **1.** *n* o'tgan yil; **2. adv** o'tgan yili.

yestreen [je'stri:n] *shotl.* = **yester-evening**.

yet [jet] **1.** *adv* 1) hali, hanuzgacha, hamon; **he has not come** ~ u hanuzgacha kelmadi; **not** ~ hali ham yo'q; **never** ~ hech qachon, biror marta; ~ **more** undan ham ko'p; 2) undan tashqari; **he has** ~ **much to say** u hali ko'p narsani aytish kerak; 3) endi, allaqachon (*so'roq gaplarda*); **need you go** ~? Siz allaqachon ketishingiz kerak edimi? 4) yanada, yana; **this question is more important** ~ bu savol yanada muhimroq; **he will not accept help nor** ~ **advice** u yordam ham, maslahat ham olmaydi; 5) shu choqqacha, qachondir; **it is the largest specimen** ~ **found** bu shu paytgacha topilgan eng yirik nusxa; **as** ~ hali ham, shu paytgacha; **the scheme has worked well as** ~ bu chizma o'zini umuman oqlay oladi (*yaxshi ishlaydi*); 6) har holda, shunga qaramay, bunga qaramay; **it is strange and** ~ **true** bu g'alati, lekin aniq, to'g'ri; **2. cj.** biroq, har holda, bunga qaramay, lekin, ammo.

yew [ju:] *n bot.* tis (*issiq joylarda o'sadigan yog'ochi qattiq, doim yashil, igna bargli daraxt*).

yew-tree [ˈju:tri:] = **yew**.

Yiddish [ˈjɪdɪʃ] *n* yevrey tili, idish (*Yevropa, AQSH, Janubiy Afrika va Isroilda yashovchi bir qism yahudiylar tili*).

yield [ji:ld] **1. n** 1) meva yig'im-terimi, hosil; **a good** ~ **of wheat** bug'doyning mo'l hosili; 2) ishlab chiqarish miqdori, ishlab chiqarilgan yoki olingan mahsulotning miqdori; **milk** ~ bir sog'im sut, sog'ib olinadigan sut; 3) *iqd.* daromad, kirim, daromad keltirish, serdaromadlik; 4) oquvchanlik (suyulib) oqib ketish xususiyati; **2. v** 1) ishlab chiqarmoq, keltirmoq, topshirmoq (*meva, hosil, foyda*); **this land** ~ **s poorly** bu yer yomon hosil beradi; **to** ~ **no result** hech qanday natija bermasligi mumkin; 2) biror narsadan kechmoq, bahridan o'lmoq, rozi bo'lmoq, ko'nmoq, unamoq; **to** ~ **a point** (*bahsda*) yon bermoq; **to** ~ **to the advice** maslahatga amal qilmoq; **to** ~ **to none** hech kimga yon bermaslik, hech kimdan qolishmaslik (*chiroyda, yaxshilikda*); 3) asir tushmoq, taslim bo'lmoq; 4) biror narsa ta'sirida oson o'zgaradigan bo'lmoq, chidash berolmay turmoq, jilmoq, qo'zg'amoq; **the door** ~ **ed to a strong push** qattiq zarbadan eshik ochildi; **the disease** ~ **s to treatment** bu kasallikni davolasa bo'ladi; 5) *amer.* minbardan joy bermoq, minbarni bo'shatmoq; notiq (nutq so'zlovchi)ni gapining bo'lmoq (to'xtatmoq); ~ **up** a) dan bosh tortmoq, ni rad qilmoq; b) taslim bo'lmoq; c) kuchga yengilib topshirmoq; **to** ~ **up the ghost** jonini xudoga topshirmoq, o'lmoq.

yielding [ˈji:lɪŋ] **1.** *pres. p.* **yield** **2.** *dan:* **2. a** 1) ko'ngilchan, gapga ko'nadigan, yon beradigan, qobil, yumshoq tabiatli; 2) muloyim, mayin, yumshoq, ko'ngli bo'sh; 3) elastik, egiluvchan, tarang, dirkillama; prujinasimon, cho'ziluvchan, yig'iluvchan; 4) bardoshsiz, chidamsiz; 5) cho'kayotgan, botayotgan, o'tirayotgan, o'tirib (cho'kib) qolayotgan.

yip [jɪp] *n amer.* vovillash, akillash, uvillash.

yippee [ˈjɪpi:] *int.* ura! (*qichqiriq*).

yob [jɒb] = **yobbo**.

yobbo [ˈjɒbɒ] *n jarg.* 1) (*nafrat bilan, jirkanib aytiladigan so'z*) ona suti og'zidan ketmagan odam, xom, g'o'r odam, go'dak; 2) yomon (*shum, yaramas*) odam.

yoga [ˈjəʊgə] *n hind.* yoga (*Hindistonda o'z-o'zini mushohada qilish, qiynash, o'z fikri xayoliga cho'mish yo'li bilan «ilohiy kuch»larni egallash mumkin deb hisoblaydigan diniy-falsafiy ta'limot va unga amal qiluvchi odam*); **to practice** ~ yoga bilan shug'ullanmoq.

yogi [ˈjəʊɡɪ] *n hind.* yoga (*Hindistonda o'z-o'zini mushohada qilish, qiynash, o'z fikri xayoliga cho'mish yo'li bilan «ilohiy kuch»larni egallash mumkin, deb hisoblaydigan diniy-falsafiy ta'limot va unga amal qiluvchi odam*).

yog(h)urt [ˈjɒgət] *n turk.* qatiq, chuchuk qatiq.

yoke [jəʊk] **1. n** 1) bo'yinturuq, sirtmoq; 2) ikkita ketma-ket qo'shilgan ho'kiz; 3) zulm, jabr, asorat, istibdod; 4) qullik; **to endure (to shake off)** the ~ jabrga chidamoq, zulmga chidamoq; **to pass (yoki to come) under the ~** mag'lubiyatga ko'nikib ketmoq; 4) kishan, zanjir, band, tushov (*aloqa, bog'lanish*); 5) obkash; 6) ko'krakburma (*libosda*); 7) qo'sh ot; 8) *tex.* band, halqa, tutqich, dasta (*chelak, xandiq va b.*); 9) *av.* boshqarish dastasi; **2. v** 1) qo'shmoq, birlashtirmoq, birga qo'shmoq; 2) sirtmoq osmoq.

yokefellow [ˈjəʊkfeləʊ] *n* 1) o'rtoq (*ishda*); 2) umr yo'ldosh, rafiq, kuyov, er, xotin, rafika, qalliq.

yokel [ˈjəʊkl] *n* 1) qishloqda o'sgan odam; 2) sodda yigit, qishloqi.

yokemate [ˈjəʊkmet] = **yokefellow**.

yolk [jəʊk] *n* tuxum sarig'i.

yolk-bag [ˈjəʊkbæg] = **yolk-sac**.

yolk-sac [ˈjəʊksæk] *n biol.* murtak (embriyon) qopchig'i.

yon [jɒn] *esk. dial.* = **yonder**.

yonder [ˈjɒndə] **1.** *a* huv anavi; **2.** *adv* ana u yoqda, huv anavi yoqda.

yore [jɔ:] *n esk.* : **of** ~ ancha burun; **in days of** ~ qadimgi zamonda, ilgarigi vaqtlarda.

Yorkshire [ˈjɔ:kʃɪr] *n* yorkishir zotli oq cho'chqalar.

you [ju:] *pron.* siz, sizni, sizga; sen, seni, senga.

you'd [ju:d] = **you had**; **you would**.

you-know-what [ju:'nəʊwət] *n* gapirib bo'lmaydigan so'z va iboralar o'rinda qo'llaniladigan birikma.

you'll [ju:l] = **you will**; **you shall**

young [jʌŋ] **a** 1) yosh. yoshlik (o'spirinlik, yigitlik)ka oid: **he is ~ for his age** u ko'rinishida o'z yoshiga qaraganda yoshga o'xshaydi; ~ **man** yaxshi yigit! yigitcha! (*murojaat shakli*); **my ~ man (woman)** so'zl. mening sevgilim; ~ **ones** bolakaylar, qush bolalari, jo'jalar; yovvoyi hayvon bolasi; 2) yangi, yaqindagi; **the night is ~ hali** kech emas; 3) malakasiz, tajribasiz; ~ **camel** bo'taloq; ~ **generation** yosh avlod; ~ **tree** ko'chat; ~ **est** kenjatoy.

youngish [ˈjʌŋɪʃ] *a* yoshlardek, yoshdek, yosh ko'rinadigan.

youngling [ˈjʌŋlɪŋ] **1. n** *shoir.* 1) bola, bolakay; qush bolasi, jo'ja; 2) malakasiz (tajribasiz) inson; **2. a** yosh.

youngster [ˈjʌŋstə] *n* 1) o'g'il bola, o'spirin, yigitcha; 2) *amer.* harbiy dengiz flotining 2-bosqich talabasi.

your [jɔ:] *poss. pron.* sening, sizning.

yours [jɔ:z] *pron. poss* sizniki, seniki; **this book is ~** bu kitob sizniki; **I saw a friend of ~** Men sizning do'stingizni ko'rdim; **you and ~** siz va sizning yaqinlaringiz.

yourself [jɔ:'self] *pron. refl.* (*pl yourselves*) 1) o'zing, o'zingiz, o'zini-o'ziga; **have you hurt ~ ?** siz shikastlanmadingizmi? 2) *emph.* o'zi, o'zlari; **you told me so ~** buni menga o'zingiz aytdingiz; **have you been all by ~ the whole day?** siz kun bo'yi yolg'iz bo'ldingizmi?; **you are sure to do it all by ~** siz albatta buni biroving yordamisiz qila olasiz.

yourselves [jɔ:'selvz] *pron.* o'zlaringizni, o'zlaringizga, o'zlaringiz.

youth [ju:θ] *n* 1) yoshlik, o'spirinlik; **the fountain of ~** yoshlik sarchashmasi; 2) yosh yigit; 3) *attr.* yoshlar..., o'spirinlar...; ~ **organization** yoshlar tashkiloti; **a ~ festival** yoshlar festivali.

youthful [ˈju:θfəl] *a* 1) yosh, o'spirin; 2) yoshlik (o'spirinlik, yigitlik)ka oid; yoshlik...; 3) yangi, yaqindagi; eng yangi; 4) g'ayratli, faol.

yowl [jəʊl] **1. n** uvlash, uvillash; **2. v** uvlamoq, uvillamoq.

Y-shaped [ˈwaɪʃeɪpt] *a* Y-simon, ayrisimon.

yucca [jʌkə] *n bot.* yukka (*agavasimonlar oilasiga mansub doim yashil o'simlik va uning tolasi*).

yuck [jʌk] *int.* jirkanish belgisi.

yuft [jʌft] *n* bulg'ori charm, yumshoq charm.

yule [ju:l] *n* rojdestvo bayrami kunlari.

yule-log [ˈju:llɒg] *n* arafa kunlarida yoqiladigan katta g'ola.

yum [jʌm] *int.* shirin ta'm *yoki* muattar hiddan rohatlanishni ifoda etadi.

yummy [ˈjʌmɪ] *a so'zl.* mazali, totli, shirin.

yurt [jɜ:t] *n* o'tov.

Zz

Z, z [zed] (*pl* **Zs**, **Z's** [zedz]) *n* 1) ingliz tili alifbosing yigirma oltinchi harfi; 2) *mat.* zet, noma'lum miqdor, kattalik; 3) **Z** harfining shaklini bildiruvchi qandaydir narsa.

zany [ˈzɛni] *n* 1) *esk.* askiyachi, askiyaboz, qiziqchi, masxaraboz, hazilkash (*kuldirish uchun o'zini jinnilikka soluvchi*); 2) devonasifat, aqlsiz, esi past, jinni; 3) dzanni (*Italiya kulgili sahna asaridagi niqob kiygan malay, xizmatkor*).

zap [zæp] *v* 1) otib o'ldirmoq, o'ldirmoq, halok qilmoq; 2) mag'lubiyatga uchratmoq.

zariba [zəˈri:bə] *n arab.* 1) tikarli panjara; 2) qadimgi qal'a devori (*zich qoqilgan, yuqori qismi uchli qoziqlardan iborat yog'och devor*).

Z-bar [ˈzɛdba:] *n* **Z** shaklidagi po'lat.

zeal [zi:l] *n* g'ayrat, intilish, tirishish, hafsala, qunt, shijoat.

zealot [ˈzɛlət] *n* mutaassiblik tarafdori, biror ish yoki g'oyaga jon-dili bilan berilgan odam.

zealotry [ˈzɛlətri] *n* o'taketgan mutaassiblik.

zealous [ˈzɛləs] *a* 1) tirishqoq, g'ayratli, hafsali; 2) havasmand, qizg'anish hirsli bor, ishtiyoqi zo'r; **to be ~ for smth.** nimagadir ishtiyoqi baland bo'lgan, nimanidir juda xohlagan.

zebra [ˈzi:brə] *n zool.* zebra (*jutsimonlar oilasiga mansub, Afrikada yashaydigan targ'il yovvoyi ot*).

zebu [zi:bu:] *n zool.* zebu (*Janubiy Osiyo va Sharqning Afrikada baland tog'larda yashaydigan o'rkachli ho'kiz*).

zed [zed] *n* **Z** harfining nomi.

zee [zi:] *n amer.* **Z** harfining nomi.

Zeitgeist [ˈzɛitgɛist] *n nem.* zamon talabi, zamon ruhi.

Zen [zen] *n* budda dinining «dzen» mazhabi (*Yaponiyada*) tug'ilishni dil guvohligi bilan, oldindan aytib berish hissi bilan ko'z oldiga keltirishni targ'ib etadigan mazhabdir.

zenana [zeˈnɑ:nə] *hind.* **1.** a ayollar uchun, ayollarniki, ayollarga oid, ayollarga qarashli bo'lgan, ayollarga taalluqli bo'lgan, ayollarga doir; **2.** *n* ayollar xonasi, binoning ayollar uchun ajratilgan qismi, ayollar uchun mo'ljalangan joy, ichkari.

Zend [zend] *n* Avesto tili (*Avesto – zardusht dinining muqaddas kitobi*).

zenith [ˈzɛniθ] *n* 1) cho'qqi, yuqori darajada, qiyom, avj; **at the ~ of fame** shuhrat cho'qqisida, kamolot cho'qqisida; 2) zenit (*osmonning kuza-tuvchi tepasidagi eng baland nuqtasi*).

zenithal [ˈzɛniθl] *a astr.* zenitga oid, zenit...

zenith-distance [ˌzɛniθˈdɪstəns] *n* zenitgacha bo'lgan masofa, zenit masofasi.

zeolite [ˈzi:ələit] *n geol.* seolit.

zephyr [ˈzɛfə] *n* 1) zefir, shabada, sabo, mayin shabada, yoqimli shabada; 2) zefir (*nozlik ip gazla-*

ma); 3) zefir (*shakarga bosilgan quyuq shinni; shuningdek, qaymoq ko'pigidan hozirlangan pirojniyning bir turi*); 4) *shoir.* g'arb shamoli, kunbotar tomondan esgan shamol; 5) nakidka (*yelkaga tashlab yuriladigan yengsiz kiyim*), yopiq (*yostiqlik ustiga yopib qo'yiladigan ro'yoposh*); yengil shol ro'mol.

Zeppelin [ˈzɛpəlɪn] *n* seppelin (*qattiq qobiqli dirijabl*).

zero [ˈziərəʊ] *n* (*pl -os [-əʊz]*) 1) nol, hech narsa; **to reduce to ~** yo'qqa chiqarmoq; 2) nol bilan teng nuqta, nol nuqtasi; temperatura darajasining birinchi asosiy nuqtasi; **below ~** noldan past; 3) *attr.* ~ **setting** o'lchov asbobini nolga qo'yish; ~ **hour a) harb.** hujumning boshlanish vaqti, olg'a qadam qo'yish, oldinga chiqish (*otlanish va b.*); b) hal qiluvchi payt.

zero-gravity [ˌziərəʊˈgrævəti] *n* og'irligi yo'qlik, og'irligi bo'lmaganlik, vaznsizlik.

zeroize [ˈziərəʊz] *v* nolga keltirib qo'ymoq, nolga qo'ymoq.

zest [zɛst] **1.** *n* 1) mazasini oshiradigan narsa, xush-ta'm qiladigan narsa; 2) ta'mi o'tkirlik, nordonlik; **to give ~ to smth.** nimanidir havas qilmoq, nimagadir maza bag'ishlamoq; 3) shavq, havas; 4) issiq, harorat, kun issig'i, cho'g', qo'r, g'ayrat, shijoat; **he entered into the game with ~** u g'ayrat bilan o'yinga kirdi; 5) kuch-quvvat, g'ayrat-shijoat, faollik, qat'iyat, chaqqonlik, ephillik, ziyraklik; 6) havas, ishtiyoq, layoqat; **2.** *v* shavq bag'ishlamoq, zavq bag'ishlamoq, zavqi kelmoq.

zeugma [ˈzju:gmə] *n tilsh.* zevgma.

Zeus [zju:s] *n grek. afs.* Zevs (*yunon mifologiyasida oliy xudo*).

zibet [ˈzɪbɪt] *n zool.* sibet.

zigzag [ˈzɪgzæg] **1.** *a* egri-bugri, ilon izi, qing'ir-qiyshiq, siniq chiziq shaklidagi; **2.** *adv* egri-bugri bo'lib, qing'ir-qiyshiq bo'lib; **3.** *n* egri-bugri (siniq) chiziq.

zinc [zɪŋk] **1.** *n* 1) rux (*metall*); 2) *attr.* ruxdan yasalgan, ruxli, ruxga oid, rux...; **2.** *v* ruxdan yugurtirmoq, ruxdan qo'shmoq, ruxlamoq, rux bilan qoplamoq.

zinciferous [zɪŋ kɪfərəs] *a* rux aralashtirilgan, rux qo'shgan.

zincography [zɪŋ kɒgrəfi] *n* sinkografiya (*tipografiyada bosish uchun ruxdan klishe tayyorlash usuli*).

zing [zɪŋ] **1.** *n* baland va shiddatli tovush; **2.** *v* baland va shiddatli tovush chiqarmoq.

zinnia [ˈzɪniə] *n bot.* siniya (*bezatish uchun ishlatiladigan o'simlik*).

Zionism [ˈziəniʒm] *n* sionizm (*yahudiylarning XIX asr oxirida yuzaga kelgan reaksiya sho-vinistik ideologiyasi va siyosati*).

zip [zɪp] **1.** *n* 1) o'qlarning g'iz-g'iz ovozi, o'qlarning g'izillab o'tishi; 2) matoni qirqayotganda shatir-shutur chiqadigan tovush; 3) so'zl. g'ayrat,

quvvat, jo'shqinlik; 4) tugma o'rmda ishlatiladigan zanjir; 2. v 1) g'ayratli bo'lmoq; 2) yalt etmoq, ko'zga chalinmoq, tez o'tib ketmoq.

zip code [ˈzɪpkəʊd] *n amer.* aloqa bo'limining raqami (*pochta indeksi*).

zip-fastener [ˈzɪpfɑːsnə] = **zipper 1**).

zipper [ˈzɪpə] *n 1*) chaqmoqqa o'xshagan band; 2) botinkaning bog'ini chaqmoq shaklida bog'lash.

zippy [ˈzɪpɪ] *a so'zl.* tirik, jonli, chaqqon, tetik, serharakat, g'ayratli.

zircon [ˈzɜːkɒn] *n min.* sirkon (*sariq, qizil va kulrang tusli yaltiroq mineral*).

zirconium [zɜːˈkəʊniəm] *n kim.* sirkoniy (*kimyoviy element*).

zither [ˈzɪðə] *n sitra* (*cholg'u asbobi*).

zodiac [ˈzəʊdiæk] *n astr.* zodiak, burj (*quyoshning yillik harakati yo'lida bosib o'tadigan 12 yulduzlar turkumi majmuyi*). **signs of the** ~ zodiak belgilari (*o'n ikki burjdan har birining belgisi*).

zodiacal [zəʊˈdæɪkəl] *a astr.* zodiakka, burjga oid, zodiak...; burj...

zoic [zəʊɪk] *a geol.* toshga aylantirilgan narsalarni saqlaydigan, harakatsizlantirib qo'yilgan narsalarni saqlaydigan.

zombi(e) [ˈzɒmbɪ] *n 1*) tirilgan o'lik, zombi; 2) bema'ni inson, tentak, aqlsiz odam; g'alati inson, qiziq inson; 3) *harb.* yangi olingan askar.

zonal [zəʊnəl] *a* mintaqaviy, ma'lum bir mintaqaga xos (bog'liq) bo'lgan.

zone [zəʊn] **1.** *n 1*) zona, rayon, doira, mintaq, belbog', kamar, bel, yo'l, yo'l-yo'l, uzun chiziq, uzunchoq, kesim, sahifa; **temperate** ~s mo'tadil mintaq (*harorat*); 2) *amer.* aloqa bo'limining markazi; 3) *attr.* belbog', qiyiqcha, kamar; 4) mintaqaviy; ~ **time** mahalliy vaqt. **2.** *v 1*) mintaqalarga bo'lmoq, mintaqalarga ajratmoq; 2) mahalliy narxni belgilamoq, mahalliy narxni qo'y-moq.

zoo [zuː] *n so'zl.* hayvonot bog'i; **the Z** London-dagi hayvonot bog'i.

zoogeography [ˌzəʊdʒɪˈɒɡrəfi] *n* zoogeografiya (*hayvonlarning yer yuzida tarqalishini o'rgatadigan fan*).

zoological [ˌzəʊəˈlɒdʒɪkəl] *a* zoologiyaga oid, zoologik, zoologiya...; hayvonot...; ~ **magazine** zoologik jurnal; ~ **gardens** hayvonot bog'i.

zoologist [zəʊˈɒlədʒɪst] *n* zoolog (*zoologiya mutaxassisi*).

zoology [zəʊˈɒlədʒɪ] *n* zoologiya (*hayvonlar olamini o'rganuvchi fan*).

zoom [zuːm] **1.** *n* g'ivillash, g'o'ng'illash, vizillash; **2.** *v* g'ivillamoq, g'o'ng'illamoq, vizillamoq.

zoophyte [ˈzəʊəʊfaɪt] *n biol.* zoofit (*o'simlikni eslatuvchi hayvon*).

zoster [ˈzɒstə] *n* temiratki, lishay (*sal qizargan teri ustida pufakchalar paydo bo'lishi*).

zouave [zuˈɑːv] *n harb. tar.* zuav (*Shimoliy Afrikaga mansub bo'lgan fransuz mustamlakaviy qo'shinlarining soldati*).

zounds [zaʊndz] *int. og'z.* jin ursin!

Zulu [ˈzuːluː] **1.** *a* zulularga qarashli, zulularga oid, zuluslar...; **2.** *n 1*) zulus, zulus ayol; 2) zulus(lar) tili.

zygomata [zarˈɡəʊmətə] *n pl* yonoq (yuz) suyaklari.

zygote [ˈzɪɡəʊt] *n biol.* zigota (*urug'langan tuxum-hujayra*).

zyme [zɑɪm] *biol. kim.* ferment (*tirik hujayrada ishlab chiqariladigan va organizmda modda almashinuvini tartibga solib turadigan organik modda*).

zymosis [zarˈməʊsɪs] *n 1*) achish, oshish, ko'pchish (*xamir haqida*); 2) yuqumli kasallik.

zymotic [zarˈmɒtɪk] *a 1*) achitqiga oid, achitiladigan, achitadigan; 2) yuqumli; ~ **diseases** yuqumli kasalliklar.

***O‘ZBEKCHA-INGLIZCHA
LUG‘AT***

***UZBEK-ENGLISH
DICTIONARY***

Aa

A, **a** *n* the first letter of the Uzbek alphabet.

abad *n* eternity: **to~** for ever; **~ul-abad** for ever and ever.

abadiy I *a* 1) eternal, everlasting, permanent, perpetual; **~shuhrat** eternal fame; **~ravishda** forever, for ever and ever; **~qoldirmoq** immortalize; 2) forever, for good (*butunlay*).

abadiy II *adv* forever, permanently, eternally.

abadiya: **saodati** ~ eternal happiness (*well-being, prosperity; bliss, beatitude, felicity*).

abadiyan *adv* for ever, for good, for always; in (*for*) perpetuity.

abadiyat *n* eternity; immortality, eternalness.

abadiylash *n* immortalization, perpetuation.

abadiylashtirmoq *v* memorialize, keep someone's memory alive, perpetuate, immortalize; memorize.

abadiylik *n* eternity; immortality.

abadulabad *adv* for ever, for always; in (*for*) perpetuity.

abajur *n* lustre, chandelier, lampshade, shade.

abas *a* useless, unavailing, vain, idle.

abbat *n* 1) abbot; 2) (*Roman Catholic*) priest.

abbreviatura *n* abbreviation; acronym.

abdol *a* pious, devout; **~kishi** devotee.

aberratsion *a* aberrated, aberration, aberrational.

aberratsiya **1.** *n fiz.* aberration; **sferik** ~ spherical aberration; **2.** *a* aberrated, aberration, aberrational.

abgor *a* lamentable, deplorable; ruined; sad; **~bo'lmoq** ruin oneself; **~qilmoq** deprive (*of something*).

abgor-abgashta *adv* wandering, astray; harassed.

abgorlik *n* a sad state, a sorry plight

abira *n* great-grandson, great-granddaughter, great-grandchild.

abiturient *n* school-leaver; applicant to the University or Institute, (*university*) entrance candidate.

abjad *n* enumeration system in which each letter of the Arabic alphabet indicates a number from one to thousand.

abjaq: **~bo'lmoq** 1) be damaged; be injured; 2) break; get/be broken; crash (*mashina, samolyot haqida*); 3) (*bo'linmoq*) break up, divide; split up; 4) (*yaralanmoq*) hurt/bruise oneself badly; smash oneself up; come to nothing, be killed (*halokatgacha*); **~qilmoq yoki abjag'ini chiqarmoq** wreck, injure; break (*down*); disable.

abjaqlamoq *v* completely crush.

abjir *a* 1) adroit, clever, dexterous, deft; smart; **~barmoqlar** deft fingers; **~qadam** clever move; 2) dodgy; 3) quick, swift, agile.

abjirlik *n* 1) adroitness, dexterity, deftness; 2) dodginess; 3) agility, swiftness, quickness.

ablah I *n* fool, blockhead, dolt; **~kishi** *a*) swindler, villain, cheat, scoundrel, rascal; *b*) a wicked or malevolent person; a disreputable person.

ablah II *a* foolish, scoundrel, stupid, rascal, silly; villain; **~odam** a stupid man.

ablahlarcha *adv* foolishly, like a fool, like a scoundrel.

ablahlilik *n* foolishness, folly, stupidity.

ablahona *adv* foolishly, like a fool, stupidly; **~harakat qilmoq** act like a fool.

ablaq *a* dappled, mottled.

abolitsiya *n* abolition.

abonement *n* 1) subscription (*to, for*); **~daftar-chasi** subscription pocket-book; 2) season ticket (*for using a lot of times to the theatre*).

abonent *n* subscriber; **~bo'lmoq** subscribe (*for*).

aborigen *a* aboriginal; indigenous; native.

aborigenlar *n* aboriginals, aborigines; natives.

abort *n tib.* abortion; **~qilmoq** have an abortion.

abortiv **1.** *a tib.* abortive, abortifacient; ectrotic, rudimentary; **2.** *biol.* abbreviated.

abr *n* cloud; **~i navbahor** spring cloud.

abraziv **1.** *n* abrasant; **2.** *a* abrasive; **~materiallar** abrasive materials.

abrazivlar *n* abrasives, abrasive materials.

abrishim *n* kind of colour silk fabrics; **~to'n** a silk robe.

abro' *n* eyebrow; brow.

abro'kamon *n* bent (curved, winding, arched) eyebrows.

absenteizm *n* absenteeism.

absolut I *n filoz.* (*the*) absolute; **~konstruksiya yordamida qiyoslash** absolute comparison.

absolut II *a* absolute; **~haqiqat filoz.** absolute truth; **~nul fiz.** absolute zero; **~yer rentasi iqt.** absolute ground rent.

absolutizm *n siyos.* absolutism.

absorbsiya *n* absorption, absorbing; **suv ~si** water absorption; **havo ~si** air absorption; **gaz ~si** gas absorption.

abstrakt *a* abstract; abstracted, abstractedly; **~mehnat** abstract (*work*) labour; **~musiq** abstract/absolute music.

abstraktlamoq *v* abstract.

abstraktlashtirilmog *v* 1) abstract one's mind from: put aside; 2) overlook, lose sight of.

abstraktlashtirmoq *v* abstract.

abstraktlik *n* abstractness, abstractedness, abstractiveness.

abstraksionist *n* abstractionist; abstract artist.

abstraksionizm *n* abstractionism; abstract art.

abstraksiya *n* abstraction; **matematik** ~ mathematical abstraction.

absess *n tib.* abscess; **~ni kesmoq** to lance an abscess.

absissa *n mat.* absciss, abscissa; **~o'qi** axis of absciss.

abxaz **1.** *n* Abkhazian; **2.** *a* Abkhazian; **~tili** the Abkhazian language.

abzal *n* harness; **ot** ~i horse harness.
abzallamoq *v* saddle; **otni** ~ saddle the horse.
abzas *n* 1) indentation, indentation; ~ **qo'ymoq** indent; ~ **dan boshlamoq** indent a line; begin a new line/paragraph; 2) paragraph; **birinchi** ~ the first paragraph.
ada *n* father, pa, daddy.
adab *n* 1) breeding, good breeding; ~ **bilan** politely, courteously; 2) tact, politeness, civility.
adabiy *a* literary; ~ **til** literary language; ~ **faoliyat** literary activities; ~ **meros** literary property.
adabiyot *n* literature: **badiiy** ~ belles-lettres, fiction; **jahon** ~i word literature; ~ **to'garagi** literary circle.
adabiyotshunos *n* specialist in literature, literary critic; ~lik **tarixi** the history of literature.
adabiyotshunoslik *n* history of literature, literary criticism.
adabiyotchi *n* writer, man of letters, literature teacher.
adabiyotchilik *n* literary activity.
adabiy-publitsistik = **adabiy**.
adabli *a* well-bred, courteous; tactful, polite, modest, well mannered; ~ **qiz** a modest girl.
adablilik *n* breeding, good breeding, civility, politeness.
adabsiz *a* ill-bred, unmannerly, tactless; impolite, incivil, rude.
adabsizlik *n* indecent, improrer, ill breeding, rudeness, impoliteness.
adad *n* 1) number; 2) date; 3) number(s), quantity; 4) figure; 5) piece, amount.
adadsiz *a* countless, innumerable, numberless.
adam *n* non-existence; absence; lack; ~ **aylamoq** destroy; liquidate.
adaptatsiya *n* 1) *biol.* adaptation; **ko'z** ~si ocular adaptation; 2) adaptation, simplification (*text*); ~ **qilingan matn** the adapted text.
adash I *n* namesake; **u mening** ~im he is my namesake; **biz ikkimiz** ~miz you and I share the same name.
adash II *a* mix up; **etigim** ~ **bo'lib qolibdi** my boots substituted (*with smb.'s*).
adashish *n* mistake, error, mistaking, erring.
adashmoq *v* roam, wander, lose one's way, lose one's path, make a mistake, become lost.
adashtirilmoq = **adashtirmoq**.
adashtirmoq *v* mislead; lead astray; cause to stray.
addoiy *n* implore (*entreat, beseech, pray*) for you; ~ **o'g'lingiz** your son who implores for you.
adekvat *a* adequate; ~ **tarjima** adequate translation.
adekvatlik *n* accord, adequacy, conformity, correspondence, truth.
adenoidlar *n* *tib.* adenoid vegetation, adenoids; **burun kanallarining** ~i adenoids of nasal canals.
adenoma *n* adenoma.

adib *n* writer, man of letters, author.
adiba *n* (*lady*) writer, authoress.
adi-badi: ~ **aytmoq**, ~ **aytishmoq** talk rubbish, drivel, fuddle.
adiblik *n* authorship.
adibona *adv* literary, in a literary style.
adil *a* straight; upright, even, smooth.
adillik *n* straightness.
adinamiya *n* adynamy, adynamia; **umumiy** ~ general adynamia, general asthenia.
adip *n* edging; ~ **tutmoq** edge, trim.
adiplamoq *v* edge, trim.
adir *n* hill; knoll, hillock, a small mountain, slope.
adir-gazalar *n* hilly places, hillocks.
adirli *a* hilly.
adirlik *n* undulating ground.
adl *n* justice, truthfulness, veracity, fairness.
adl-insof *n* justice and conscience.
adliya *n* justice; ~ **vazirligi** The Ministry of Justice.
administratsiya *n* administration.
administrativ *a* administrative.
administrator *n* administrator.
administratorlik *n* administration; ~ **qilmoq** run by orders and decrees.
admiral *n* admiral; **flot** ~i Admiral of the Fleet.
admirallik *n* post of admiral, admiralty.
adno *a* low.
ado *n* fulfilment; completion; ~ **etmoq** carry out, fulfil; ~ **qilmoq** fulfill, complete.
adolat *n* 1) justice; 2) truth; correctness; ~ **bilan** with justice; ~ **sudini amalga oshirish** dispensation of justice.
adolatli *a* just, fair, right, correct.
adolatparvar *a* 1) just, fair, equitable; 2) true, right, correct.
adolatparvarlik *n* justice; ~ **bilan** justly.
adolatsiz *a* unjust, unfair, (*socially*) wrong.
adolatsizlik *n* injustice, unfairness.
adovat *n* enmity, hostility, animosity.
adovatchilik = **adovat**.
adovatli *a* hostile, inimical, enemy.
adovatsiz *a* free of enmity.
adovatsizlik *n* absence (*lack*) of enmity (*animosity, hostility*).
adoyi: ~ **tamom bo'lmoq** feel unhappy.
adras *n* adras (*a mixed cotton and silken material*); ~ **to'n** robe made of adras.
adrasbof *n* adras maker.
adrasman = **isiriq**.
adres *n* address; ~ **stoli** address bureau; ~ **daftari** directory; ~ **iga xat jo'natmoq** address a letter.
adresant *n* sender; addresser.
adresat *n* addressee.
adreslanmoq *v* be addressed.
adsorbsiya *n* *fiz. kim.* adsorption; **gaz** ~si gas adsorption; **fizika** ~si physical adsorption.
advokat *n* advocate, lawyer, barrister, attorney (*amer.*).

- advokatlik** *n* profession of barrister, legal profession; ~ **qilmoq** be a lawyer; work as a lawyer.
- advokatura** *n* legal profession; the bar.
- adyol** *n* 1) blanket; quilt; counterpane; **jun** ~ wool blanket; 2) cover, covering.
- adyunkt** *n* 1) *harb.* post graduate (*advanced student*) in a military academy/college; 2) junior scientific assistant.
- adyunktura** *n* post graduate (*advanced students*) work at a military academy/college.
- adyutant** *n* aide-de-camp; (*pl aides-de-camp*); adjutant; aide.
- aero-** *pref.* aero-; ~**dinamika** aerodynamics.
- aerobika** *n* aerobics; ~ **bilan shug'ullanmoq** do aerobics.
- aerodinamik** *a* aerodynamical; ~ **quvur** wind tunnel.
- aerodinamika** *n* aerodynamics.
- aerodrom** *n* airfield, aerodrome.
- aeroflot** *n* aerofleet.
- aerofotiyomka** *n* aerial (*air*) photography.
- aeroklub** *n* flying club.
- aeromexanika** *n* aeromechanics.
- aeronavigatsiya** *n* aeronavigation, air navigation.
- aeroplan** *n* (early type of) aircraft; plane; aero-plane; airplane.
- aeroport** *n* airport.
- aerostat** *n* balloon.
- aerostatika** *n* aerostatics.
- aerosiyomka** *n* aerial survey, airborne survey, aircraft survey; **ko'p kanalli** ~ multichannel aerial survey.
- aeroterapiya** *n* aerotherapy, aerotherapeutics.
- aerovokzal** *n* air terminal; airline terminal; ~**da** at an airline terminal; **Keling ~da uchrashamiz.** Let's meet at the airline terminal.
- aerochana** *n* aero-sleigh.
- afandi** *n* 1) gentleman; 2) teacher, mister.
- Afandi: Nasriddin** ~ Nasriddin Afandi (*a well-known hero of Uzbek tales and anecdotes*).
- affekt** *n* affect; fit of passion; **patologik** ~ pathologic affect.
- affiks** *n* affix; **so'z yasovchi** ~ word-building (*derivational*) affixes; **so'z o'zgartiruvchi** ~lar word-changing affixes.
- afif** *a* 1) virgin; 2) abstinent.
- afifa** *a* virgin.
- afisha** *n* bill, placard, poster; **teatr ~si** play bill.
- afkor** *n* opinion.
- Aflotun** Plato.
- aforistik** *a* aphoristic.
- aforizm** *n* aphorism.
- afrikalik** *n* African; **Afrika Qochoqlarini Joylashtirish va O'qitish Byurosi** Bureau for the Placement and Education of Afrika Refugees (*BPEAR*); **Afrika Iqtisodiy Komissiyasi** Economic Commission for Africa.
- afsar** *n* crown.
- afsona** *n* 1) legend; 2) fable, tale.
- afsonaviy** *a* legendary; ~ **qahramon** legendary hero.
- afsonavor** *a* legendary, mythic(al), fairy (*tale*); fabulous, fantastic, improbable.
- afsonachi** *n* tale-teller, story-teller, bard, teller of legends.
- afsun** *n* sorcery, witchcraft.
- afsungar** *n* magisian, sorcerer.
- afsunkor** = **afsungar**.
- afsunlamoq** *v* conjure, practise witchcraft; concoct.
- afsunchi** = **afsungar**.
- afsus** *n* regret, grief, pity, vexation; ~ **qilmoq** regret (*smth.*).
- afsuski** *adv* it is a pity, unfortunately.
- afsuslanmoq** *v* regret (*smth.*); deplore (*smth.*); be sorry (*for smb.*).
- afsusli** *a* sorrowful, regrettable, lamentable, deplorable.
- aft** (**yuz**, **chehra**) *n* face, facial, appearance; ~**idan** apparently, evidently; ~**ini burishtirmoq** twist one's face.
- aft-angor** appearance; look(s).
- aft-bashara** *n* 1) lineament; 2) physiognomy; 3) appearance.
- aft-bosh** *n* appearance.
- aftidan** *adv* apparently, seemingly.
- aftoda** *a* impoverished, collapsed, in ruins; ~ **bo'lmoq** be in a collapsed, get into trouble.
- aftodahol** = **aftoda**.
- afv** *n* forgiveness, pardon; absolution, excuse; ~ **etmoq** excuse.
- afyun** (**nasha**) *n* opium, opiate.
- afzal** *a* better; best, preferable; ~ **ko'rmoq** prefer (*to*).
- afzallik** *n* advantage; preference, superiority.
- afg'on I** *n* Afghan; ~ **tili** the Afghan language.
- afg'on II** *n* groaning, moaning; ~ **chekmoq** groan.
- afg'oniy** *n* 1) Afghan; 2) afghan (*monetary unit in Afghanistan*).
- afg'oncha** *a* Afghan; in Pashto; ~ **raqs** Afghan dance; ~ **gaplashmoq** speak Afghan.
- agar** *conj* if, in case; whether; but for; even if; ~ **taklif sizga ma'qul bo'lsa** If the proposal is acceptable to you; ~ **siz tirishib (qunt bilan) ishlasangiz muvaffaqiyatga erishasiz** If you work hard you will succeed.
- Agarda** = **agar**.
- agar-magar** if ifs and ans were pots and pans.
- agent** *n* 1) agent, factor; 2) secret service.
- agentlik** *n* agency.
- agentura** *n* 1) secret service; 2) agents; 3) secret agents; intelligens agency.
- agglutinativ** *a* agglutinative; ~ **tilar** agglutinative languages.
- agglutinatsiya** *n* agglutination.
- agitator** *n* propagandist, agitator.

- agitatorlik** *n* position or duties of the propagandist; ~ **qobiliyati** the propagandist's ability; ~ **qilmoq** 1) be a propagandist; 2) agitate, carry on agitation, carry on propaganda, campaign, keep up an agitation; 3) propagate.
- agitatsion** *a* agitational; propaganda.
- agitatsiya** *n* agitation, propaganda; **saylov oldi** ~**si** election campaign; ~ **olib bormoq** carry on propaganda; agitate (*for, again*).
- agitbrigada** *n* propaganda corps.
- agitpunkt** *n* propaganda station, agitation centre.
- aglomeratsiya** *n* agglomeration.
- agnostik I** *n* agnostic, the supporter of agnosticism.
- agnostik II** *a* agnostic.
- agnostitsizm** *n* agnosticism.
- agnoziya** *n tib.* agnosia; **ko'rish** ~**si** visual agnosia.
- agoniya** *n tib.* agony, pangs of death, death struggle, death throes.
- agrar** *a* agrarian.
- agrarchi** *n* agrarian.
- agregat** *n* aggregate, aggregation, unit.
- agreman** *n fr.* agrément, agreement.
- agressiv** *a* aggressive; ~ **siyosat** aggressive policy.
- agressivlik** *n* aggressiveness, animus, bellicosity, belligerence.
- agressiya** *n* aggression.
- agressiyachi** *n* aggressor, oppressor.
- agressor** = **agressiyachi**.
- agressorlik** *n* aggression, aggressiveness.
- agressiyachilik** = **agressorlik**.
- agrikultura** = **agrokultura**.
- agro-** *pref.* agri-, agro-, agricultural-; ~**kimyo** agricultural chemistry; agrochemistry; ~**fizika** agrophysics, agricultural physics.
- agrobiologik** *a* agrobiological.
- agrobiologiya** *n* agricultural biology, agrobiology.
- agrofizika** *n* agrophysics, agricultural physics.
- agrokimyo** *n* agricultural chemistry; agrochemistry
- agrokultura 1.** *n* agriculture; **2.** *a* agricultural; ~ **tadbirlari** agricultural actions (*arrangements*).
- agromeliorativ** *a* soil-conservational; ~ **ishlar** soil-conservational works.
- agromelioratsiya** *n* soil-conservation.
- agrometeorologiya** *n* agricultural meteorology.
- agronom** *n* agriculturist, agronomist; ~ **bo'lib ishlamoq** work as an agronomist.
- agronomik** *a* agricultural, agronomical.
- agronomiya** *n* agriculture, agronomy.
- agronomlik** *n* employment (*occupation*), activity of the agriculturist; ~ **qilmoq** work as an agronomist (*agriculturist*).
- agrosanoat** *a* agroindustrial; ~ **kompleksi** the agroindustrial complex.
- agrotexnik I** *n* agricultural technician, agrotechnician.
- agrotexnik II** *a* agrotechnical.
- agrotexnika** *n* agrotechnics.
- aha** *int.* aha.
- ahamiyat** *n* significance, importance; ~ **bermoq** attach importance to, pay heed to; ~**ga ega** important, having importance.
- ahamiyatli** *a* important, considerable, significant; grand; pompous.
- ahamiyatlilik** *n* importance, significance.
- ahamiyatsiz** *n* insignificant, unimportant, negligible.
- ahamiyatsizlik** *n* insignificance, unimportance, negligibility.
- ahbob** *n* friends.
- ahd** *n* agreement, contract; oath, promise, treaty; **tinchlik** ~**i** peace treaty; ~ **qilishmoq** arrange (*with*); settle (*with*); agree (*upon*).
- ahdlashmoq** *v* conclude, decide; come to an agreement (understanding), come to terms sign a treaty.
- ahdlashuvchi** *n* arranger.
- ahdnoma** *n* written contract, treaty, agreement.
- ahd-paymon** *n* arrangement, understanding, decision.
- ahil** *a* friendly; amicable; amicably, in harmony, harmoniously; ~ **bo'lib yashamoq** live by mutual understanding (consent); live in peace and friendship.
- ahillik** *n* close friendship, intimate friendship, friendly relation, mutual consent, agreement, accord, harmony.
- ahilchilik** *n* friendly terms; ~ **bilan** friendly, in a friendly manner.
- ahl** *n* people, **mehnat** ~**i** toilers, workers.
- ahmoq I** *n* fool
- ahmoq II** *a* foolish, stupid; ~**larning ahmog'i** perfect (*utter*) fool, silly, pumkin.
- ahmoqgarchilik** = **ahmoqlik**.
- ahmoqlik** *n* foolish, foolishness; ~ **qilmoq** play the fool; make a mistake.
- ahmoqona I** *adv* foolishly, stupidly.
- ahmoqona II** *a* foolish, stupid.
- ahmoqchilik** *n* foolish.
- aholi** *n* inhabitants, people, population; ~ **yashaydigan joy** settlement, populated area; **shahar** ~**si** towns folk, town people; **qishloq** ~**si** country-folk, country people.
- ahvol** *n* condition; circumstance, status, standing; situation; **ijtimoiy** ~ social situation; **oilaviy** ~ family status; **moddiy** ~ financial position; **qiyin** ~**ga tushib qolmoq** end up in difficult situation.
- ahvolot** = **ahvol**.
- ahyon** *adv* sometimes.
- ahyon-ahyonda** *adv* sometimes.
- ajab** *a* astonishing, surprising, striking, amazing, wonderful, strange; ~ **bo'pti!** it serves him right.
- ajablanarli** *a* striking, astonishing, attracting (*attention*), wonderful, attractive.
- ajablanmoq** *v* wonder (*at*), amazed (*at*), be (*get*) surprised.

ajablantirmoq *v* astonish, surprise, amaze.
ajabo *adv* 1) strange; amazingly; strangely;
 2) really.
ajabsinmoq = ajablanmoq.
ajabtovur *adv* rather good; quite well.
ajal *n* death-hour; death; decease, final hour;
uning ~i yetdi his final hour arrived.
ajam *n* Persian, Iranian
ajamiy *a* Irani, Iranian, Persian.
ajdaho *n* dragon.
ajdahor = ajdaho.
ajdar *n* dragon.
ajdarho = ajdaho.
ajdargul *n* snap-dragon.
ajdarnafs (badnafs) *a* voracious, gluttonous.
ajdod *n* ancestor.
aji-aji **1.** *n* children's game; **2.** *v* peep out, emerge,
 appear, come into view, become visible;
bulutlar orasidan ~ qilgan quyosh ko'rindi
 the sun peeped out from behind the clouds.
ajib *a* 1) astonishing, surprising, amazing; 2) won-
 derful, wondrous, marvellous;
aji-buji (qiyshiq) *a* clumsy, sloppy; clumsily,
 sloppily done; ~ **xat** scribbled letters; ~ **qilib**
yozmoq scribble, scrawl; ~ **surat** daub.
ajin *n* wrinkle; ~ **bosgan yuz** wrinkled face.
ajina *n* the evil spirit; witeh.
ajiotaj *n* agiotage, stock-jobbing.
ajiva *a* deformed; ~ **qilmoq** mock (*at*).
ajiva-jinni *a* half-witted, crazy.
ajnabiy I *n* foreigner.
ajnabiy II *a* foreign; ~ **tillar** foreign languages.
ajnos *n* sort, kind, variety; **uy-lari** house-hold things.
ajoyib *a* astonishing, surprising, striking, ama-
 zing; **qanday ~ rasm!** such (what) a marvellous
 painting!; ~ **ayol** fine woman.
ajoyib-g'aroyib *a* unusual, uncommon.
ajoyiblik = ajoyib.
ajoyibot *n* miracle.
ajoyibxona *n* cabinet of curiosities; museum.
ajr *n* retribution, requital.
ajralish *n* 1) separation; 2) parting.
ajralishmoq *v* part (*with*), separate, divorce.
ajralmas *a* inseparable, inalienable, imprescrip-
 tible; ~ **do'stlar** inseparable friends; ~ **qism**
 inseparable part.
ajralmoq *v* separate (*from*); disunite; part.
ajramoq = ajralmoq.
ajratgich *n* sifter; separator.
ajratilmoq = ajratmoq.
ajratish *n* separation, selection, emission.
ajratima *n* deduction.
ajratmoq *v* disjoin, dismember, disunite, separate,
 select, isolate disconnect, distinguish, divide.
ajrashmoq *v* 1) go away; 2) diverge, branch off;
 fork; 3) divorce.
ajrim *n* 1) determination; definition; 2) attribute;
 3) decision.

ajrimlik *n* exclusiveness; discrimination.
ajriq *n* *bot.* grass along the street.
ajriqzor *n* the place which is plentiful with the
 grass along the street.
ajuz-majuz winter's last weeks.
ajz *n* weakness, feebleness, debility; asthenia.
ajuz *n* old woman.
ajuza = ajuz.
aka *n* elder brother (*polite form of address for a*
man older than the speaker); **ular tug'ishgan**
 ~-uka they are brothers.
akademik I *a* academic(al); ~ **soat** academic hour.
akademik II *n* academician.
akademiya *n* Academy; **fanlar ~si** Academy of
 Sciences.
akademizm *n* academism.
akapella *n* *mus.* a cappella.
akas = akatsiya.
akasi *n* old fellow, old chap.
aka-singil brother and sister.
akatsiya *n* acacia.
aka-uka *n* brothers.
akashak *n* cramp, convulsion, spasm.
akbar *a* 1) great; higher; superior; 2) all up; end.
akillamoq (vovullamoq) *v* bark, yelp.
akillatmoq = akillamoq.
akineziya *n* *tib.* akinesia.
aklimatizatsiya *n* acclimatization
akkomodatsiya *n* accommodation, adjustment;
ko'rish ~si visual accommodation.
akkord I *n* *mus.* chord.
akkord II *n* accord, concord.
akkordeon *n* accordion.
akkordeonchi *n* accordion player.
akkreditiv *n* letter-of-credit (*form a bank or*
savings and loan).
akkreditatsiya *n* accreditation; ~ **olmoq** obtain
 accreditation.
akkumulator *n* accumulator, electrical storage
 battery (*for vehicles*).
akobir (yuqori martabali) *n* high-ranking person.
akrobat *n* acrobat.
akrobatik *a* acrobatic.
akrobatika *n* acrobatics.
akrobatchi = akrobat.
aks I *n* reflection, reverberation; ~ **etmoq** be
 reflected; ~ **sado** echo.
aks II (teskari) *a* opposite; ~ **holda** other wise.
aksa: ~ **urmoq** sneeze.
aksar *n* majority, greater (*parts*) number; most
 people; **shahrimizning ~ qishloqlarida** in most
 villages of our town.
aksariyat *n* majority; ~ **ovoz bilan** with majority
 of votes.
aksent (sheva) *n* accent; ~ **bilan so'zlamog** speak
 with an accent.
aksept *n* acceptance.
akseptlash *n* acceptance.

- aksiga** *adv* 1) the wrong side out; back to front; 2) on the contrary.
- aksilharakat** *n* opposition, resistance.
- aksilharakatchi** *n* reactionary.
- aksilinqilob** *n* counter-revolution; ~ **qilib** stage a counter-revolution.
- aksilinqilobchi** *n* counter-revolutionary.
- aksilinqilobiy** *a* counter-revolutionary.
- aksincha** *adv* oppositely, contrarily, wrongly; **u hamma ishni ~ qiladi** he does everything contrarily.
- aksioma** *n* axiom.
- aksioner** *n* shareholder, stockholder; ~**lar jamiyati** joint-stock company.
- aksiriq** *n* sneezing, sternutation.
- aksirish** *n* sneezing; sternutation.
- aksirmoq** *v* sneeze.
- aksirtirmoq** *v* sneeze; **aksirtiradigan gaz** sneezing gas.
- aksiz** *n* excise, excise-duty; ~ **yig'ini** excise.
- aksiya** (*qimmatli qog'oz*) *n* share, capital.
- aksiyachi** *n* stockholder.
- aksiyador** *n* stockholder; ~**lik jamiyati** joint-stock.
- aksiyali** *n* shareholder, stockholder.
- aksicha** *adv* oppositely, contrarily, wrongly
- akslk** *a* obstinacy, stubbornness; ~ **qilmoq** be obstinate.
- akt** *n* statement, indictment. *act*: ~ **tuzmoq** draw up a statement (*of the case*).
- aktiniy** *n* *kim*. actinium.
- aktiv I** *n* active; **partiya** ~*i* party activists.
- aktiv II** *a* active; ~ **jamoatchi** person active in public life.
- aktiv III** *adv* actively; ~ **qatnashmoq** take an active part (*in*).
- aktivist** *n* active worker, activist.
- aktivlashmoq** *v* liven up.
- aktivlashtirmoq** *v* make more active, stir up.
- aktivlik** *n* activity; **ommaning siyosiy aktivligi** political activity of the masses.
- aktrisa** *n* actress; ~ **tomoshaning tayanchi hisoblanadi** the actress is the main feature of the show.
- aktual** (*dolzarb*) *a* actual; present-day, ~ **masala** urgent issue.
- aktuallik** *n* actuality, urgency.
- aktuariy** *n* *mol*. actuary.
- aktyor** *n* actor.
- aktyorlik** *n* actor's skill, actor's mastership, actor's profession.
- akula** *n* shark.
- akustik** *a* *fiz*. acoustic.
- akustika** *n* *fiz*. acoustics.
- akusher** *n* accoucheur, obstetrician, ~ **ayol** midwife.
- akusher-ginekolog** *n* obstetrician-gynecologist.
- akusherka** (*doya*) *n* midwife.
- akusherlik** *a* midwifery; obstetrics; ~ **kurslari** obstetrics (*midwifery*) classes.
- akvalang** *n* aqualung, scuba; ~ **bilan suzish** scuba diving.
- akvanavt** *n* aquanaut, deep-sea explorer.
- akvarel** *a* water-colours; ~ **bo'yoq** water-colour; ~ **portret** portrait in water-colours.
- akvarium** *n* aquarium.
- akvatoriya** *n* defined area of water; water area.
- akveduk** *n* aqueduct bridge, water-conduit bridge, bridge aqueduct, aqueduct, conduit.
- alaf** (*o't*) *n* grass; ~ **bilan qoplangan** (*o'tli*) grassy.
- alahlamoq** *v* be delirious, rave.
- alahsiramoq** *v* slightly rave (*about*).
- alahsitmoq** *v* yurn off; **birovning biror narsasidan** ~ attract *smb.* away from smth.
- alal** *n* smooth cotton fabric.
- alaka-shalava** *a* disorderly, confused; untidy, slovenly.
- alaloqibat** *adv* at last, finally; in the end.
- alalxusus** (*ayniqsa*) *adv* especially.
- alam** *n* 1) pain, suffering; ~ **tortmoq** feel, have a pain; 2) vexation, annoyance.
- alam-achchiq** *n* deep mortification.
- alamangiz** *a* sorrowful, sad.
- alamdiyda** *n* suffering person.
- alamdor** *n* standard-bearer.
- alam-iztirob** *n* grief and alarm.
- alamli** *a* sorrowful, sad, tormented, suffering.
- alamnok** *a* poignant, agonizing, painfully moving.
- alamon** *n* crowd; masses, throng; ~ **qilmoq** lynch.
- alam-sitam** *n* pain, pang, suffering, stab; ~ **qilmoq** hurt.
- alamzada** *n* 1) suffering person; 2) offended (*with*).
- alamzadalik** = **alamzada**.
- alanga** (*olov*) *n* 1) flames, flare; excitement; ~ **olmoq** take catch fire; ~ **olib yonmoq** be ablaze; 2) fire.
- alanganalmoq** *v* take catch fire.
- alanganaltirmoq** *v* set on fire.
- alanganaluvchan** *a* combustible, ignitable, ignitable.
- alanganatmoq** *v* set on fire.
- alangali** *a* flaming, fiery; ~ **salom** the warmest regards.
- alang-jalang** *a* confused, embarrassed, perplexed; ~ **bo'lib qolmoq** get lost.
- alanglamoq** *v* look back, examine, observe, look about.
- alanglashmoq** = **alanglamoq**.
- alanglatmoq** = **alanglamoq**.
- alas** *n* methods which use quack doctors for curing the patients (*rotation of the lit cloth above the patient*): ~~~ **qilmoq** cure the patient with the methods of quack doctors.
- alas-alas** = **alas**.

- alaslamoq** *v* cure the patient with the methods of quack doctors.
- alast: mast-- bo'lmoq** get drunk.
- alaxsimoq** *v* be distracted.
- alaxsitmoq** *v* distract, **birovni biror narsadan** ~ distract somebody away from something.
- alay-balay** *n* anything such.
- alay-bulay** = **alay-balay**.
- alayhilla'na** *int.* damn it.
- alayhissalom** *int.* peace to him.
- alaykum** with you (*restricted usage to greeting and rejoinder to greeting*).
- alayno:** ~oshkor distinctly, plain.
- alash** *n* slaughter, massacre.
- alacha I** *n* alacha (*a hand-woven striped material*).
- alacha II** *n bot.* a type of melon.
- alachabof** *n* alacha maker.
- alag'da:** ko'ngil ~ 1) unsettled, disturbed, uneasy; 2) soul is not on a place; ~ **bo'lmoq** worry, be anxious/uneasy (*about*).
- alban I** *n* Albanian.
- alban II** *a* Albanian; ~ **tili** the Albanian language.
- albanlar** *n* the Albanians.
- albat** = **albatta**.
- albatta** *adv* without fail, of course, certainly.
- albatros** *n zool.* albatross; **katta** ~ a large albatross.
- albom** *n* album.
- albumin** *n kim.* albumen.
- aldam (g'irrom)** *n* fraud, deception, imposture; ~ **bilan** fraudulently.
- aldamoq** *v* deceive, cheat, lie; **sharmandalarcha** ~ lie through one's teeth.
- aldam-qaldam** *n* deception.
- aldanmoq** *n* be deceived.
- aldamchi** *n* deceiver, cheat, fraud, trickster, imposter.
- aldamchilik** *n* fraud, deception, deceit, lies.
- aldatmoq** = **aldamoq**.
- aldashmoq** *v* deceive, cheat, lie.
- aldoqchi** *n* deceiver, cheat, fraud, trickster, impostor.
- aldoqchilik** *n* trickery, imposture, knavery.
- aldovchi** = **aldoqchi**.
- alebastr** *n* alabaster.
- alfa** *n* alpha; ~ **nurlar** alpha rays.
- alfaterapiya** *n* alpha therapy, alpha-ray therapy.
- alfazarralar** *n* alpha particles.
- alfavit** *n* alphabet; ~ **tartibida** in alphabetical order, ABC.
- alfoz** *n* word.
- algebra** *n* algebra.
- algebraik** *a* algebraic (*al*).
- algoritm** *n mat.* algorithm; ~ **ning to'g'riligini tekshirish** algorithm validation.
- alhamdulillah(h)** God be praised!, thank goodness!, thank God!.
- alhol** *adv* now; at present, at this moments.
- alhosil** *adv* briefly; in short.
- ali:** ~ **desa, bali demoq** argue, not to concede in squabble.
- alibi** *n yur.* alibi.
- alif I** *n* the first letter of the Arabic alphabet.
- alif II** *n* drying oil.
- alifbe** *n* alphabet; ~ **kitobi** ABC book.
- alifbo** = **alifbe**.
- alik:** ~ **olmoq** answer to a greeting.
- aliment** *n* alimony; aliment.
- alizarin** *n* alizarin.
- alish** *n* watershed.
- alishish** *n* exchanging.
- alishmoq** *v* exchange, an act of exchanging.
- alishtirilmog** *v* exchange; swap; swop.
- alishtirmog** = **alishmoq**.
- aljimoq** *v* talk rubbish, babble, talk nonsense, idle take.
- aljiramoq** = **aljimoq**.
- aljitmoq** = **aljimoq**.
- alkaloid** *n kim.* alkaloid; **o'simlik** ~i plant alkaloid.
- alkimyo** *n* alchemy.
- alkogol** *n kim.* alcohol, spirit; **etil** ~i ethyl (*grain*) alcohol, ethanol.
- alkogolik** *n* alcoholic.
- alkogolizm** *n tib.* alcoholism; **surunkali** ~ chronic alcoholism.
- alla** *n* lullaby; ~ **aytmoq** sing a lullaby.
- allakim** *pron. indef.* someone, somebody; ~ **bilan** with somebody; ~ **to'g'risida** about somebody; ~ **ga** to somebody; ~ **dan olibdi** he took from somebody; ~ **ning** somebody's.
- allalamoq** *v* lull to sleep.
- allamahal** *n* late hour, late time, late evening; **qor bo'roni** ~ **gacha davom etdi** snow-storm continued till late evening.
- allanarsa** *pron. indef.* something; **Dilafruz** ~ **lar demoqchi** edi Dilafruz wanted to say something.
- allanevaqt** = **allavaqt**.
- allanecha (birqancha)** *pron. indef.* several, some, a few.
- allanechuk** *pron. indef.* something.
- allanima** *pron. indef.* something, anything, whatever
- alla-palla (kechki payt)** *n* late time, late hour (*evening, night*); **Mehmonlarning keldi-ketdisi kechasi** ~ **gacha davom etdi** Guest's coming and leaving continued till late night.
- allapayt** = **allavaqt**.
- allaqanaqa** = **allaqanday**.
- allaqanday** *pron. indef.* some, a; unknown, unfamiliar.
- allaqandoq** = **allaqanday**.
- allaqancha** = **allanecha**.
- allaqayda** = **allaqayerda**.
- allaqaydan** = **allaqayerdan**.

- allaqayerda** *adv* at someplace; (*so'roqda*) anywhere.
- allaqayerdan** *adv* from somewhere or anywhere.
- allaqayerga** *adv* somewhere; (*so'roqda*) anywhere.
- allaqayga** = **allaqayerga**.
- allaqayoqda** = **allaqayerda**.
- allaqayoqdan** = **allaqayerdan**.
- allaqayoqqa** = **allaqayerga**.
- allaqaysi** *pron. indef.* some, a; ~ **kishi sizni so'rayapti** someone is asking for you.
- allaqachon** *adv* once (*upon a time*), formerly; long ago; very long ago, long long ago; ages ago; ~**dan beri** long since; since olden times.
- allaqachongi** *adv* old, ancient; long standing, of long standing; ~ **xabar (voqea)** ancient events; ~ **do'st** an old friend; ~ **do'stlik** a long-standing (*an old*) friendship, a friendship of long standing.
- allavaqt** (*kech payt*) *n* late hour, late time, late evening; ~ **bo'lib qoldi** the time is already late; ~**gacha** till late evening; ~**gacha o'tirdik** we sat till late evening; ~**da** very late; **Botir ~da keldi** Botir came very late.
- allegorik** *adv* allegoric(al).
- allegoriya** *n* allegory.
- allergen** *n tib.* allergen, offending agent; **havo ~i** aeroallergen, inhalant allergen.
- allergik** *a tib.* allergic; ~ **kasallik** allergosis.
- allergiya** *n* allergy (*to*); **menda sutga ~m bor** I am allergic (*I have an allergy*) to milk.
- allergologik** *attr.* allergology, allergy; ~ **klinika** allergy clinic.
- allergologiya** *n* allergology; **kasbiy** ~ occupational allergology.
- alligator** *n* alligator; ~ **boqish** alligator farming; ~ **terisidan qilingan poyabzal** alligator shoes.
- alliteratsiya** *n* *adab* alliteration; **unli ~si** vocalic alliteration; **undosh ~si** consonantal alliteration.
- allo** *int.* hello! ~? **Bobur bilan gaplashsam bo'ladimi?** Hello can I speak to Bobur?
- allof** (*sotuvchi*) *n* corn-chandler, corn-dealer, flour-dealer, flour-seller.
- Alloh** *n* God, the Lord; **buni ~ biladi!** God knows!
- alloma** *n* learned, erudite, scholar; ~**lar** intellectuals.
- allotropik** *a kim.* allotropic.
- almanax** *n* literary miscellany; almanac.
- almashinmoq** *v* exchange, change, barter.
- almashish** *n* exchanging, bartering, changing.
- almashmoq** *v* change, exchange; **fikr** ~ exchange one's opinion.
- almashtirilmog** *v* be exchanged; be replaced.
- almashtirmog** *v* change, exchange, barter, alternation, substitution.
- almisoq** *a* ancient; ~**dan qolgan** antediluvian, very old.
- almoysi-aljoyi** *a* awkward, clumsy; ~ **xat** scrawl, inconvenient, uncomfortable.
- alohida** *adv* separate, detached; ~ **e'tibor bermoq** pay special attention; ~ **xona** single room.
- alohida-alohida** *a* 1) separate; 2) individual, single.
- alohidalik** *n* peculiarity, feature, oddity.
- alomat** (*baho*) *n* mark, indication, sign; symbol; **tenglik ~i** sign of equality, symbol.
- alomatli** *a* designated, marked, symbolical.
- alomatchoy** *n* burdock.
- aloqa** *n* connection, relation; **diplomatik** ~ diplomatic relations; ~**ni uzmoq** cut the connection; break with; ~ **bog'lamoq** set up a connection; ~ **xizmati** communication service; ~ **qilmog** make contact.
- aloqador** *a* constrained, connected, concerned, interested, embarrassed.
- aloqadorlik** *n* connection, association.
- aloqali** = **aloqador**.
- aloqsiz** *a* not constrained.
- aloqachi** *n* 1) signaller, signalman; 2) liaison; 3) communications worker.
- aloq-chaloq** : ~ **tushlar** anxiety dreams, nightmare.
- aloy** *n* aloe.
- alp** (*qahramon*) *n* hero; ~ **qomat** heroic figure.
- alping-talping** : ~ **yurmoq** tottering from side to side.
- alpinist** *n* mountaineer.
- alpinizm** *n* mountaineering.
- alpoz** *n* condition, state.
- alqandoz** *n* clown, affected person; all air and graces.
- alqandozlik** *n* affectation, pretence; ~ **qilmog** wriggle.
- alqissa** *adv* thus, so, in this way, accordingly.
- alqor** *n* mountain ram.
- alt** *n* 1) viola; 2) alto.
- alchi** *n* viola player.
- alternativ** *a* alternative.
- alternativa** *n* alternative.
- aluminium** *n* aluminium; aluminum.
- alvasti** (*ajina*) *n* demon, devil, chief of the genies, witch.
- alvido** (*xayr*) *int.* good bye!: farewell, adieu!
- altimetr** *n* altimeter; **radio** ~ radio altimeter; **akustik** ~ acoustic(al) altimeter.
- alvir-shalvir** *a* flabby, sagging.
- alvon** *a* red, scarlet, vermilion.
- alyans** *n* alliance, union; **harbiy** ~ military alliance; **siyosiy** ~ political alliance.
- alyor** (*go'shiq*) *n* song, singing.
- alyorchi** *n* a person who makes toasts, a person who is good at making toasts.
- alg'ov-dalg'ov** disorder, confusion, mess.
- amaki** *n* uncle.
- amakivachcha** *n* cousin.
- amal I** (*lavozim, mansab*) post, position.
- amal II** *n* action, operation, effect; act, performance, work, job; ~ **qilmog** act; ~ **qilinmog** be

- applied: **qonunga** ~ **qilmoq** keep to a rule; **~da bo'lib turgan qonunlar** acting laws; **~ga oshirmoq** carry out, implement; **~da bo'lmoq** be in use, be valid; **~da tatbiq qilmoq** put to use, utilize; **~dan tushmoq** get fired. lose a job; be outposted.
- amalda** *adv* practically; **~ko'rib chiqmoq** check up in practice.
- amaldor** *n* official, functionary.
- amaldorlik** *n* the position of official.
- amalgama** *n* amalgam; **mis** ~ copper amalgam; **kumush** ~ silver amalgam.
- amaliy** *a* practical; applied (*as opposed to theoretical*); realistic, effective; **~ mashg'ulot** practical training; **~ faoliyat** practical activity; **~ ish** practical work.
- amaliya** = **amaliyot**.
- amaliyot** *n* 1) activities; 2) occupation.
- amaliyotchi (tatbiqchi)** *n* practical worker.
- amaliyotchilik** *n* practical work.
- amaliyotparast** *n* hardhead.
- amaliyotparastlik** *n* narrow-minded attitude.
- amallab (zo'rg'a)** *adv* anyhow, hardly, not easily, in a difficult way.
- amallamoq** *v* contrive, manage; arrange a matter of business.
- amallanmoq** = **amallamoq**.
- amalparast** *n* careerist, office-seeker; place-hunter.
- amalparastlik** *n* self-seeking.
- amal-taqal**: **~ qilmoq** turn out; try to find a way out from difficult situation.
- ambrazura** *n* embrasure; **~dan o'q ochmoq** shoot from embrasure.
- ambulatoriya** *n* dispensary; **~ kasali** out-patient.
- Amerika** *n* America; **Shimoliy** ~ North America.
- amerikalik** *n* American; **~ ayol** American woman; **Amerika Mamlakatlari Madaniy Kengashi Ijroiya Qo'mitasi** Executive Committee of the Inter American Cultural Council (**CECIC**).
- ametropiya** *n* ametropia; **kombinatsion** ~ combined ametropia; **refraksion** ~ refractive ametropia.
- amfibiya** **1. n pl zool.** amphibia; **2. a zool.** amphibian.
- amfiteatr** *n* amphitheatre.
- amfora** *n* amphora.
- amin (ishonch)** *a* assured, sure, confident, positive, certain; **~ bo'lmoq** be sure/confident.
- aminlik** *n* confidence.
- amir (boshliq)** *n* 1) amir, commander, emir; 2) sovereign; **~i lashkar** military leader.
- amiri** *n* amiri (*1. a sort of water-melon; 2. a sort of grape*).
- amirkon** *a* varnish, lacquer; **~ teri** patent leather.
- amirlik** *n* emirate, command; **Buxoro amirligi** the emirate of Bukhara.
- amlok** *n* property, belongings.
- amlokdor (soliqchi)** *n* a tax-collector or estate owner in the khanate of Bukhara.
- amlokdorxona** *tar.* office of a landholder.
- amma** *n* aunt (*father's sister*).
- ammavachcha** *n* cousin.
- ammiak** *n* ammonia, ammonium hydrate.
- ammiakli** *a* ammonium; **~ selitra** ammonium nitrate.
- ammo** *cj* while; and; but, however.
- ammofos** *n* ammophos;
- ammo-lekin** = **ammo**.
- ammoniy** *n kim.* ammonium; **xlorli** ~ ammonium chloride, ammonium salt
- amnistiya (kechirish)** *n* amnesty; free pardon; **~ qilmoq** grant amnesty.
- amniyat (xabarsizlik)** *n* safety.
- amoma** *n* turban.
- amoral** *adv* non-moral. amoral; immoral.
- amorallik** *n* amorality; immorality.
- amorf** *a* amorphous.
- amortizator** *n* shock-absorber.
- amortizatsiya** *n* amortization; **~ qilmoq** amortize.
- amper** *n* ampere; **~ soat** ampere hour.
- amperli** *a fiz.* ampere; by (main) force of an ampere.
- ampermetr** *n* amperemeter, ammeter.
- amper-sekund** *n* ampere-second.
- amper-soat** *n* ampere hour.
- amplituda** *n* amplitude.
- amplua** *n teatr.* dramatic type/role/character, line of an actor.
- ampula** *n* ampule.
- amputatsiya** *n* amputation; **qo'l va oyoq ~si** quadruple amputation.
- amr (buyruq, farmon)** *n* order, command, edict, precepts; principality, jurisdiction; **imon** ~i precepts of the faith; **Imon ~iga bo'ysunuvchilik!** Obeying the precepts of the faith!
- amri-mahol (qiyin)** *a* unfeasible, unlikely, impossible; unfeasibility, unlikelihood, impossibility, difficult.
- amvol** *n* property; belongings; stock.
- amyoba** *n* amoeba.
- ana I** *adv* there; here:.
- ana II** *pron.* this, that; **~ shu** this, this one, this very.
- anabioz** *n biol.* anabiosis.
- anakonda** *n zool.* anaconda.
- anafora** *n* anaphora.
- analitik** *a* analytic(al); **~ usul** analytical method.
- analiz (tekshiruv)** *n* analysis; **~ qilmoq** analyse.
- analizator** *n* 1) *opt.* analyser; 2) *biol.* analyzer; **akustik** ~ acoustic analyzer.
- analogik** *a* analogous.
- analogiya** *n* analogy
- ana-mana** *this and that. nothing in particular. idle gossip.*
- ananas** *n* pineapple; ananas.

- anarxist** (*qadimshunos*) *n* anarchist.
anarxistik *a* anarchist.
anarxiya *n* anarchy.
anarxizm (*qadimshunoslik*) *n* anarchism.
anarxo-sindikalist *n* anarcho-syndicalist.
anarxo-sindikalistik *a* anarcho-syndicalistic(al).
anarxo-sindikalizm *n* anarcho-syndicalism.
anatom *n* anatomist.
anatomik *a* anatomical; ~ **teatr** anatomical theatre.
anatomyiya *n* anatomy; **odam** ~**si** human anatomy; **hayvon** ~**si** animal anatomy; **o'simlik** ~**si** plant anatomy.
anavi *pron. demonstr.* that.
anbah *n* mango; ~ **daraxti** mango tree.
anbar (*hid*) *n* ambergris.
anbarafshon *a* aromatic.
anbiyo *n* prophet; ~ **va avliyolar** prophets and holies.
andak (*ozgina*) *a* too little, too small; a bit a little.
andakkina = **andak**.
andalib = **bulbul**.
andarmon *a* 1) carried away (*by, with*); infatuated (*with, by*); keen (*on*); 2) busy.
andaryagiga *adv* wholesale.
andaryak = **andaryagiga**.
andava *n* darby; float, trowel, bricklayer's float, plastering trowel.
andavalamoq *v* plaster with trowel.
andaza (*o'lchov*) *n* measure; ~ **olmoq** take smb's measure.
andazali *a* 1) proportionate, commensurate; 2) moderate; temperate.
andazasiz *a* immeasurable.
andin = **undan**.
andisha (*nomus, or*) *n* sence, wisdom, shame, wise.
andishali (*or-nomusli*) *a* reasonable, sensible, wise, tactful, mind, intellect.
andishalilik *n* wisdom, wise.
andishasiz (*uyatsiz*) *a* rash, reckless, ill-advised, shameless, strive.
andishasizlik *n* impudence, insolence, recklessness.
andom (*tana, badan*) *n* build, frame; figure.
andoq = **shunday**.
andoza *n* measure.
anduh *n* grief, sorrow, distress, grieve, sad, mourning.
anemiya *n* anaemia; ~ **bilan og'rinoq** to develop anaemia.
anemometr *n* meteor. anemometer, wind gauge.
aneroid *n* aneroid, aneroid barometer.
anesteziya *n* anaesthesia; **mahalliy** ~ local anaesthesia.
ang (*hayronlik*) *n* prey, game (*animal, bird*); ~**da qolmoq** be unaware, ignorant; be sorrowful, be sad.
ang-ang *n* dog's whistle onomatopoeia; ~ **qilmoq** yelp (*about dog*).
angidrid *n* kim. anhydride; **borat kislotasining** ~**i** boric anhydride.
angillamoq *v* squeal, screech; squall, whimper, whine (*of a dog*).
angina *n* quinsy, tonsillitis.
angishvona *n* thimble.
anglab *adv* understanding that..., understandably.
anglamoq (*tushunmoq*) *v* understand; comprehend; realize.
anglanmoq = **anglamoq**.
anglatilmoq = **anglatmoq**.
anglatmoq *v* mean, make somebody understand; explain; **Bu nimani anglatadi?** What does it mean?
anglashilarli (*tushunarli*) *a* intelligible, clear.
anglashilmas *a* incomprehensible, inscrutable.
anglashilmaslik; ~ **darajada** it is incomprehensible, it is impossible to understand.
anglashilmoq *v* understand, comprehend.
anglashilmovchilik *n* misunderstanding.
anglashmoq *v* understand.
angor *a* angora; ~ **echki** angora goat; ~ **mushuk** angora cat.
angraymoq (*hayron qolmoq*) *v* look on in wonder or amazement, be astonished, be surprised.
angrov *n* gawk, gullible person.
anhor *n* large irrigation canal, stream, river; ~ **bo'yida dam olmoq** have a rest on the bank of a large canal
anilin I *n* aniline
anilin II *a* aniline; ~ **bo'yoqlar** aniline dye.
aniq *a* 1) exact, precise, accurate; ~ **vaqt** exact time; ~ **fanlar** exact sciences; 2) correct, right; ~ **nima bo'lganini bilmayman** I don't know exactly what happened.
aniqlamoq *v* specify, make more exact, accurate, define; precise, determine; clarify; explain; confirm, verify.
aniqlatmoq = **aniqlamoq**.
aniqlashmoq = **aniqlamoq**.
aniqlashmoq = **aniqlamoq**.
aniqlashtirilmog = **aniqlashtirmog**.
aniqlashtirmog = **aniqlashmoq**.
aniqlik *n* 1) exactness, precision; 2) accuracy; 3) exactitude; preciseness.
aniqlovchi *n* 1) *gram.* attribute; 2) determination; 3) decision.
aniqsizlik = **noaniqlik**.
anjir *n* 1) fig (*meva*); 2) (*daraxti*) fig-tree.
anjirzor fig orchard.
anjom *n* furniture; furnishings; items, implements; **uy** ~**i** household, instrument furnishings, tool.
anjom-ashyo *n* utensils; implements.
anjuman (*majlis*) *n* 1) meeting; 2) assembly; 3) collection; 4) forum; **yozuvchilar** ~**i** writer's forum.

anker I. *n* *tex.* anchor, holdfast; **2.** *a* anchor; ~ **bolt** anchor bolt.
anketa *n* form. questionnaire; ~ **to'ldirmoq** fill in a form; ~ **ma'lumotlari** biographical particulars.
anneksiya *n* annexation; ~ **qilmoq** annex.
annotatsiya *n* annotation; ~ **yozmoq** annotate.
annulatsiya *n* annulment; cancellation; nullification; abrogation, abolition.
anod I *n* anode.
anod II *a* anode; ~ **batareyasi** anode battery.
anomaliya *n* anomaly; **anatomik** ~**si** anatomical anomaly; **tish** ~**si** dental anomaly.
anonim *a* anonymous; ~ **xat** anonymous letter.
anonimka *n* (*libellous*) anonymous letter, poison-pen letter.
anons *n* announcement, notice; bill, poster; ~ **tarqatmoq** to issue/make an announcement.
anor *n* 1) pomegranate; ~ **suvi** pomegranate juice; 2) pomegranate tree.
anorganik *a* inorganic; ~ **kimyo** inorganic chemistry.
anormal *a* abnormal.
anorzor *n* pomegranate garden.
anov *pron. demonstr.* that.
anoyi (*ishonuvchi*) *a* credulous, gullible.
anoyilik = **anoyi**.
anqaymoq *v* be at a loss, look with amazement, be dumbfounded; **hayron bo'lib anqayib qolmoq** gape in amazement.
anqaytirmoq *v* shake, brandish.
anqimoq *v* be fragrant, smell sweet, smell.
anqitmoq = **anqimoq**.
anqo *n* fairy (*fabulous*) bird; ~**ning urug'i** a thing which is difficult to find it.
anqov (*garang*) *n* gawk, gullible person, simpleton, fool.
anqovlik *n* thoughtlessness, gullibility; ~ **qilmoq** gape (*about*).
anqovsiramog *v* pretend to be fool.
ansambl *n* ensemble, company, group; **ashula va raqs** ~**i** Song and Dance Company; **arxitektura** ~**i** group of buildings (*e.g. Registon*).
antagonist *n* antagonist.
antagonistik *a* antagonistic.
antagonizm *n* antagonism.
antarktika I *n* the Antarctic.
antarktika II *a* Antarctic.
antenna *n* aerial, antenna.
anti- *pref.* anti-; ~**fashist** anti-fascist.
antibiotik I *n* antibiotic; ~ **dori yozib bermoq** to prescribe antibiotics; ~ **dori qabul qilmoq** to take antibiotics.
antibiotik II *a* antibiotic; antibiotal; ~ **dori** drug, tablet, medicine; ~ **usul bilan davolash** antibiotic treatment.
antidemokratik *a* antidemocratic; ~ **kuchlar** antidemocratic forces.

antifashist *n* anti-fascist.
antifriz *n* antifreeze.
antigen *n* antigen.
antifriksion *a* *tex.* antifriction.
antiimperialistik *a* anti-imperialist; ~ **harakatlar** anti-imperialist movements.
antik (*qadimiy*) *a* antique; ancient; ~ **dunyo** antiquity (*the old World*), antique, out of a day.
antimaterialistik *a* anti-materialistic.
antimilitarizm *n* antimilitarism.
antinomiya *n* antinomy.
antipartiyalar *n* anti-party activists.
antipartiyaviy *a* anti-Party.
antipatiya *n* antipathy (*to, towards*).
antitana *n* antibody; **diagnostik** ~ screening antibodies
antiteza *n* *adab.* antithesis, contraposition.
antitezis *n* *filos.* antithesis.
antiqa *a* 1) thin, sparse; ~ **tish** widely spaced teeth; 2) odd, strange, queer.
antiqiy (*antiqa*) *a* funny, rum, out of the way.
antisaniar *a* insanitary; ~**iya holati** unsanitary conditions, unhygienic.
antisaniariya *n* insanitariness.
antisemit *n* anti-semite.
antisemitik *a* anti-semitic.
antisemitizm *n* anti-semitism.
antiseptik *a* antiseptic, anti-infective agent; ~ **dori-darmon** antiseptic.
antisiklon *n* anticyclone.
antologiya *n* anthology.
antonim *n* antonym.
antonovka *n* antonovka apples.
antrakt *n* 1) interval; 2) *mus.* entr'acte.
anratsit *n* anthracite.
antropolog *n* anthropologist.
antropologik *a* anthropological.
antropologiya *n* anthropology.
antropometrik *a* anthropometric.
antropometriya *n* anthropometry.
anuriya *n* anuria; **travmatik** ~ traumatic anuria.
anuv = **anavi**.
anvo *n* 1) sorts; kinds, varieties; 2) various, diverse; ~**i taomlar** various dishes (*meals, foods*).
anvoyi = **anvo**.
ang'ib *adv* looking about, watching carefully, lying in wait.
ang'irt *n* red duck, goose.
ang'iz *n* stubble.
anshlag *n* 1) *teatr.* the «sold out» notice; 2) (*gazetadagi katta sarlavha*) banner headline.
ancha *adv* 1) much, plenty of, a lot of; 2) very; ~ **yaxshi** very good; 3) enough, rather, a great number of; **u ~gina yaxshi kuylaydi** she sings fairly well.
anchaki = **anchayin**.
ancha-muncha *a* very much, quite lot, rather much.

- anchayin** *a* insignificant, unimportant, negligible, trifling, trivial, futile.
- an'ana** (*odat*) *n* tradition; ~**ga muvofiq** by tradition, according to tradition.
- an'anaviy** *a* traditional.
- an'anaviylik** *n* traditional, character.
- aorta** *n* aorta.
- aparteid** *n* apartheid.
- apatit** *n* apatite; ~ **qatamlari** apatite deposits.
- apatiya** *n* apathy.
- apellatsiya** *n* appeal; ~ **bermoq** appeal (*to*).
- apelsin** *n* orange; ~ **daraxti** orange-tree.
- apil-tapil** *adv* hastily, hurriedly; **biror ishni** ~ **bajarmoq** do things hastily.
- apir-shapir** (*shoshmoq*) *adv* hastily, hurriedly; ~ **yuvimmoq** wash hurriedly.
- apogey** *n* apogee.
- apopleksiya** *n* apoplexy; **barmoqlar** ~*si* apoplexy of fingers.
- apolitik** *n* indifferent to politics.
- apoy-chapoq** (*do'stona*) *adv* friendly; ~ **bo'lmoq** be on friendly terms with.
- aposterior** *n* aposteriori.
- aposteriorlik** *n* aposteriority.
- apostrof** *n* apostrophe.
- appa-adil** (*to'g'ri*) *a* quite right, quite so, quite true.
- appa-aralash** (*qo'shma*) *a* all mixed together.
- apparat** *n* apparatus; **davlat** ~*i* State machinery; machinery of the State; **telefon** ~*i* telephone apparatus; **foto**~ photo apparatus. camera.
- apparatchi** *n* (machinery) operator, man in charge of apparatus.
- apparatura** *n* apparatus.
- appendiks** *n anat.* appendix.
- appenditsit** (*ko'richak*) *n* appendicitis.
- applikatsiya** *n to'qim.* applique; motif, tab.
- aprel** *n* April; ~ **oyida** in April; **o'tgan yili** ~ **oyida** last April; **kelasi yili** ~ **oyida** next April.
- aprior** *n* apriori.
- apriorlik** *n* apriority.
- aprobatsiya** *n* approbation, approval; ~ **qilmoq** approbate, approve (*of*).
- aptechka** *n* medicine chest, first-aid outfit.
- apteka** *n* pharmacy, apothecary, chemist's (*shop*), drug-store; ~ **mollari** pharmaceutical goods.
- aptekachi** *n* chemist; druggist.
- aqalli** *a* even, level, smooth.
- aqba** *n* mountain path.
- aqida** *n* persuasion, belief, conviction; dogma; **diniy** ~*lar* religious dogmas.
- aqidaparastlik** *n* dogmatism.
- aqiq** *a* cornelian, sard.
- aqiqa** *n* celebration/entertainment in case of birth of child in the family.
- aqirin** *adv* slowly.
- aqirmoq** *v* bellow, howl (*about wild animals*).
- aql** *n* mind; brains; wit, intellect; **porloq** ~ lucid mind; ~**dan ozmoq** go mad, go insane; **sog'lom** ~ sensible mind, common sense; **o'tkir** ~ inquisitive mind; ~ **bilan** reasonably, wisely, sensibly, cleverly; ~ **tuzilishi** cast of mind; ~**i kalta odam** none too clever; ~**i kaltalik** narrow-mindedness; ~**i solim** sober, sober minded; sane-minded; ~**i solim inson** sensible person; man of common sense; ~ **yugirtirmoq** think, consider; ~**i shoshdi** he lost his head; ~**ni shoshiradigan** prodigious; ~**ga sig'adigan** wise, reasonable, judicious; ~**ga sig'maydigan** unreasonable; ~**ni rivojlantirmoq** cultivate the mind; ~**ni charxlash** intellectual discipline; ~**ni namoyon qilmoq** display one's intelligence; ~**i keyin kiradi** wise after the event.
- aqlan** *adv* mentally.
- aql-hush** *n* reason.
- aql-hushli** *a* clever, wise.
- aql-idrokli** *a* perceptive, perceptible, comprehensible, understandable; ~ **tantanasi** a perceptible victory; **aql-idrok bilan ish tutmoq** work perceptively.
- aqliy** *a* mental, intellectual; ~ **mehnat** mental work; brainwork; ~ **faoliyat** mental activities.
- aqlashmoq** *v* consult, ask advice (*of*); talk things over; seek advice (*from*).
- aqli** *a* clever, intelligent; sensible; ~ **odam** clever man, man of sense.
- aqlilik** *n* quick wits, quickness of wit.
- aqlsiz** *a* foolish, stupid, silly.
- aqlsizlik** *n* foolishness, folly, stupidity.
- aql-tushuncha** *n* reason.
- aql-zehn** *n* mind, intelligence.
- aqrab** *n* scorpion.
- aqrabo** *n* relative, relation.
- aqcha** *n* money; **qog'oz** ~ paper money.
- ar** (*100m2*) *n* are (*100 sq. m.*).
- arab** *n* Arab, Arabian; Arabic; ~ **tili** the Arabic language; ~ **dunyosi** the Arab World.
- arabi** *a* Arabian, Arabic.
- Arabiston** *n* Saudi Arabia.
- arabiy** *a* Arabian, Arabic; ~ **adabiyot** Arabic literature.
- arabizm** *n* Arabism.
- arabshunos** *n* Arabist, specialist in Arabic philology, Arabic philologist.
- arabcha** *a* Arabian, Arabic; ~ **raqamlar** Arabic numerals.
- arafa** *n* eve; the night before; the last day of Ramadan; **Yangi yil** ~*si* New Year's eve; ~**sida** on the eve.
- arafagarchilik** *n* troubles and cares connected with holiday's eve.
- aralash** *a* intermingled, fused, mixed; ~ **yem-xashak** mixed feed; ~ **son** mixed number; ~ **qilib yubormoq** mix, mix up; **qon** ~ **tupurmoq** spit blood; ~ **oila** an (*ethnically*) intermingled family.
- aralashiga** *a* wholesale; pell-mell.
- aralashish** *n* interference, intervention.

- aralashma** *a* mixture; medley; **yonuvchi** ~ gas mixture.
- aralashmaslik** *n* non-intervention, non-interference.
- aralashmoq** *v* mix; **olomon bilan aralashib ketmoq** mix up in the crowd.
- aralash-quralash** *a* mixed.
- aralashtirmoq** *v* mix together, mix up; involve.
- arang** *adv* hardly, with difficulty, only just; **u buni ~ ko'tardi** he could hardly lift it; **u o'zini yig'idan ~ to'xtatdi** he restrained his tears with difficulty.
- araq** *n* vodka; ~ **ichmoq** drink vodka.
- araq** *n* eaves.
- araqxo'r** *n* drunkard, taper, tippler.
- araqxo'rlik** *n* hard drinking, drunkenness; heavy drinking of alcohol or vodka.
- ar-ar I** : ~ **qilmoq** = **arillamoq**.
- ar-ar II** : ~ **terak** *n* lombardy poplar.
- arasot** *n* bustle, turmoil.
- arava** *n* cart, wagon; **bir ~ o'tin** cart loaded with wood; **soyabon** ~ van; **qo'l** ~ handcart; **otash** ~ train; **shayton** ~ bicycle; ~ **izi rut**; ~ **ngni tort!** be off!: ~ **ni g'ildiratmoq** set the wagon rolling; put into action.
- aravak** *n* ear-ring (*for nostril*).
- aravakash** *n* carter, drayman, coachman, driver.
- aravakashlik** *n* carrier's trade; ~ **qilmoq** be a carrier (*by*) trade.
- aravaso** *n* master who makes cart; a specialist who makes cart.
- aravaszlik** *n* cart making profession (*job*).
- aravacha** *n* small cart.
- araxis** *n* ground-nut, peanut; ~ **moysi** peanut oil.
- araxisli** (*yeryong'oq*) *a* peanut; ~ **tort** peanut cake.
- arayish** *a* superfluous, unnecessary, excess, surplus; redundant; ~ **ini olmoq** cut a superfluous part (*from smth.*).
- araz** *n* quarrel, offence, injury, insult, wrong; ~ **qilmoq** take offence.
- arazlamoq** *v* be at odds with *smb.*, be on bad terms with *smb.*
- arazlashmoq** *v* quarrel.
- arazchi** *a* touchy, susceptible, quick to take offence.
- arbitr** *n* arbiter, arbitrator.
- arbitraj** *n* arbitration.
- arbob** *n* specialist: (*public*) figure; **fan ~i** man of science, scientist; **jamoat ~i** public man; **davlat ~i** statesman; **siyosiy ~** political figure.
- ardob** *n* flour soup.
- ardoqlamoq** *a* cherish, foster; be fond of meaning.
- ardoqlanmoq** = **ardoqlamoq**.
- ardoqli** *a* honourable, cherished, respectable; ~ **mehmon** respectable guest.
- areal** *n* 1) *zool. bot.* natural habitat 2) *tilsh.* area.
- areometr** *n* *fiz.* areometer, hydrometer; **doimiy og'irlik ~i** constant-weight areometer.
- arfa** *n* harp; ~ **chaluvchi** harpist, harp-player.
- arfachi** *n* harpist, harp-player.
- argentalik** *n* Argentinean; ~ **ayol** Argentinean.
- argo** *n* argot, slang; **o'g'rilar ~si** thieves' argot/slang.
- argotizmlar** *n* *tilsh.* argotic/slang/cant expressions.
- argon** *n* argon.
- argument** *n* argument; ~ **keltirmoq** adduce an argument.
- argumentatsiya** *n* argumentation; reasoning.
- ari** *n* wasp; bee (*asalari*); ~ **uyasi** a nest of hornest; **tukli** ~ bumble-bee; **qizil** (*yoki qovoq*) ~ hornest; ~ **uyasiga tegmoq**, ~ **uyasini buzmoq** stir up a nest of hornest; bring a hornest's nest.
- arifmetik** *a* arithmetical; ~ **masala** arithmetical sum.
- arifmetika** *n* arithmetic; ~ **masalasi** arithmetical sum (*problem*).
- arillamoq** *v* yell, shout in a very loud voice.
- arimoq** *v* run low.
- ariq** *n* irrigation ditch, irrigation canal, brook, stream.
- ariqcha** *n* brooklet.
- aristokrat** *n* aristocrat.
- aristokratik** *a* aristocratic.
- aristokratiya** *n* aristocracy.
- aristokratlik** = **aristokratizm**.
- aristokratizm** *n* aristocratism.
- aritmia** *n* *tib.* arrhythmia; **nafas (olish) ~si** respiratory arrhythmia; **doimiy ~** continuous (*perpetual*) arrhythmia.
- aritmioq** *v* drain; **yerning zaxini** ~ drain land.
- arixona** *n* 1) place; 2) (*bee*) hive.
- ariya** *n* aria, air.
- ariza** *n* request, application, petition; ~ **bermoq** submit an application.
- arizaboz** *n* intriguer, caviler, pettifogger.
- arizabozlik** *n* litigiousness, malicious litigation.
- arizanavis** *n* scribe, scribbler.
- arizachi** *n* petitioner.
- arizacho'p** *n* long wooden case used for depositing petitions in a royal court.
- arichilik** = **asalarichilik**.
- arjumand** *a* dear; **farzandi** ~ dear son.
- ark** *n* stronghold, castle, citadel, fortress.
- arka** *n* *me'mor.* arch.
- arkon** *n* pillar; column; ~ **i davlat** high official.
- arktika** *n* the Arctica; the Arctic regions.
- arman** *n* Armenian; ~ **ayol** Armenian; ~ **tili** the Armenian language.
- armani** = **arman**.
- Armaniston** *n* Armenia.
- armatura** *n* steel frame work; fittings.
- armaturabop** *a* 1) fit to (*for*) armature, reinforcement; suitable to (*for*) armature, reinforce, reinforcing; 2) reinforce, reinforcing; ~ **temir** reinforcement metal.

- armaturachi** *n* constructional engineer, steel erector.
- armiya** *n* army; **harakatdagi** ~ army in the field; ~**dan bo'shatish** discharge from the army; **ishsizlar** ~**si** army of the unemployed; **dushman** ~**si** army of the enemy.
- armon** *n* dissatisfaction, discontentment; unfulfilled wish; unattained goal.
- armonli** with dissatisfied wishes.
- armonsiz** = **bearmon**.
- armug'on** *n* gift, present.
- arna** (*ariq*) *n* irrigation ditch, canal.
- aro** *prep.* among, amongst.
- aroba** = **arava**.
- arog** *n* vodka.
- arosat** = **arasot**.
- arpa** *n* barley.
- arpabodiyon** *n* anise.
- arpapoya** *n* 1) a barley field; 2) barley stalk.
- arqon** *n* lasso, rope; ~ **bilan bog'lamoq** rope; ~**ni tortmoq** draw a rope; **kir yoyiladigan** ~ clothes line.
- arqonlamoq** *v* tie (*to*), bind (*to*), fasten (*to*); **otni** ~ tether a horse.
- arqonlatmoq** = **arqonlamoq**.
- arqoq** *n* weft, woof.
- arra** *n* saw; **qo'l** ~ hand-saw; **mashina** ~ frame-saw.
- arrakash** *n* sawyer, wood-cutter, hand-sawyer.
- arrakashlik** *n* sawyer's, woodcutter's occupation (work, business); ~ **qilmoq** work as a sawyer.
- arralamoq** *v* saw; nag, pester, saw up, saw into pieces.
- arralash** *n* sawing.
- arrapusht** *n anat.* spinal/vertebral column, spine, backbone.
- arrachi** *n* sawyer, wood-cutter.
- arsenal** *n* arsenal.
- arslon** *n* lion; **urg'ochi** ~ lioness.
- arsloncha** *n* as (like) a lion.
- arslontoy** *n* lion cub, young lion, lion's whelp (*affectionate address to smb.*).
- artel** *n* artel: a work or business group; **qishloq xo'jalik** ~**i** agricultural artel; **hunarmandchilik** ~**i** craftsmen's artel.
- arteriya** *a* artery.
- artezian**: ~ **qudug'i** artesian well.
- artikl** *n tilsh.* article: **aniq** ~ definite article; **noaniq** ~ indefinite article.
- artikul** *n* 1) *yur.* nomenclature article, (*running*) code number; 2) *iqf.* marking of goods.
- artikulatsiya** *n tilsh.* articulation; **tovush** ~**si** sound articulation; **bo'g'in** ~**si** syllable articulation.
- artilleriya** *n* artillery; **tankka qarshi otadigan** ~ anti-tank artillery; **zenit** ~**si** antiaircraft artillery.
- artilleriyachi** *n* artilleryman, gunner.
- artilmoq** *v* 1) wipe, dry oneself; 2) become threadbare, dry oneself.
- artinmoq** = **artmoq**.
- artist** *n* artist, actor; performer; **xizmat ko'r-satgan** ~ meritorious (*deserved*) artist; **kino** ~**i** film star; **balet** ~**i** ballet dancer; **xalq** ~**i** People's artist.
- artistka** *n* actress; female performer; **kino** ~**i** film actress, filmstar.
- artistlik** **1.** *n* artist's position (*profession, occupation, calling, trade*); **2.** *a* artistic; ~ **mahorati** artistic mastery (*skill, technique*).
- artmoq** *v* wipe, dry, rub, scrape, peel; **kartoshka** ~ peel, scrape potatoes; **idishlarni** ~ wipe up the (*dishes*) crockery; **oyoqni** ~ wipe one's feet, **changni** ~ dust.
- artirmoq** = **artmoq**.
- artrit** *n tib.* arthritis; **revmatizm** (**bod kasali**) ~**i** rheumatic arthritis.
- artrologiya** *n tib.* arthrology.
- arfa** *n* harp; ~ **chalmoq** to play the harp.
- aruz** *n* aruz, a poetry metre (*alternate long and short syllables*).
- arvoh** *n* ghost, specter.
- arxaik** *a* archaic, antiquated.
- arxaizm** *n* archaism.
- arxar** *n zool.* argali.
- arxeolog** *n* archaeologist.
- arxeologik** *a* archaeological.
- arxeologiya** *n* archaeology.
- arximandrit** *n din.* archimandrite (*superior of large monastery in Orthodox Church*).
- arxipelag** *n* archipelago.
- arxitektonik** *a* architectonic, architectonical.
- arxitektonika** *n snt.* architectonics.
- arxitektor** *n* architect.
- arxitektorlik** *n* position or profession of an architect, architect's position or profession.
- arxitektura** *n* architecture.
- arxiv** *n* archives; **davlat** ~**i** State Archives.
- arxivshunoslik** *n* archival science.
- arxivarius** *n* archivist.
- arxivshunos** *n* archivist.
- arxivchi** *n* archivist.
- arxiyepiskop** *n cherk.* archbishop.
- arxiyerey** *n cherk.* bishop.
- aryergard** *n harb.* rearguard.
- arz** (**shikoyat**) *n* statement, declaration, complaint, oral declaration; ~ **qilmoq** make a complaint.
- arza** = **ariza**.
- arzanda** (**erkatoy**) *a* 1) darling; 2) dear, dearest, loved, beloved, dearly.
- arandayi-kiromanda** **1.** *a* beloved, loved, dear (*about children*); **2.** *n* pet, favourite.
- arz-dod** *n* 1) appeal; 2) complaint; ~ **qilmoq** make complaints (*against*); **3)** *yur.* action.
- arz-hol** *n* statement, declaration.
- arzigudek** = **arziydigan**.
- arzigulik** = **arziydigan**.
- arzigunday** = **arziydigan**.

arzimas *a* unworthy, improper, unbecoming.
arziymoq *v* be worthy, be proper, be fitting; **arziydigan qobiliyatli talabalar ko'p** there are many worthy and talented students.
arziymoq *v* 1) tremble; 2) miss a beat, go pit-a-pat.
arzirli = **arziydigan**.
arzitmoq *v* appreciate.
arziydigan *a* deserving, worthy, worth.
arznoma *n* application, statement.
arzon *a* cheap; low; inexpensive; ~ **narxga sotib olmoq** buy at a bargain.
arzon-garov *adv* cheap, cheaply.
arzonlatmoq = **arzonlashtirmoq**.
arzonlashmoq *v* fall in price, cheapen.
arzonlashtirmoq = **arzonlashmoq**.
arzonlik *n* cheapness (*of*); low prices (*for*).
arzonqo'l *a* cheap, inexpensive (*about man power*).
arzonsinmoq *v* 1) count, compute; 2) consider.
arzonchilik *n* cheapness (*of*); low prices (*for*), inexpensiveness.
arg'amchi I *n* 1) rope, line; string, cord; lashing; 2) tow.
arg'amchi II *n* tow-rope, tow-line.
arg'imchoq *v* play-swing, rope, swing.
arg'umoq *n* skipper, jumper; ~ **ot** fast horse.
arg'uvon *n* crimson, lime-tree, linden.
arsh *n* God's throne.
arshin *n* arshin (28 inches).
arsha *n* fir tree; ~ **bayrami** New Year's holiday, Christmas tree.
archazor *n* fir(-tree) wood.
archilmoq = **archimoq**.
archimoq *v* peel, skin, flay.
archmoq = **archimoq**.
asab *n* nerve; ~**ga tegmoq** get on smb's nerves; ~**lar sistemasi** the nervous system.
asabbuzar *n* man (*or woman*) who gets on smb's nerves.
asabiy *a* nervous; neural; **asab sistemasi** the nervous system; ~ **tutqanoq** attack of nerves; ~ **kasalliklar** nervous disease.
asabiyat *n* 1) nervousness; 2) nerve.
asabiylanmoq *v* be nervous, feel nervous.
asabiylantirmoq *v* get on smb's nerves.
asabiylashmoq *v* be nervous (*more and more*).
asabiylashtirmoq = **asabiylashmoq**.
asabiylilik *n* nervousness.
asad *n astr.* Leo.
asarlamoq *v* get impression.
asal *n* honey; ~ **oyi** honey moon; ~**dek shirin** honey-sweet.
asalari *n* bee; **ona** ~ green bee; ~ **qutisi** bee hive; ~ **kabi band** busy as bee.
asalarichi *n* bee-master, apiarist.
asalarichilik *n* bee-keeping, apiculture.

asar I = **iz**.
asar II *n* work track, print, creative work, composition; **musiqa** ~i musical composition; **abstrakt san'at** ~i abstract art work; **tanlangan** ~lar select works; **she'riy** ~lar poetic works.
asarsiz *a* traceless, without a trace.
asbest *n* asbestos.
asbob I *n* instrument; **jarrohlik** ~lari surgical instruments; **musiqa** ~lari musical instruments.
asbob II tool; **hunarmandchilik** ~lari tools; **qishloq xo'jalik** ~lari agricultural implement; **yomon ishchi o'z** ~lari bilan chiqisha olmaydi (*maqol*) an ill (*bad*) workman quarrels with his tools.
asbob III things; **ro'zg'or** ~lari household things.
asbob-anjom *n* equipment, outfit.
asbobsoz *n* toolmaker, instrument-maker.
asbobsozlik *n* tool-making, instrument-making (*industry*).
asbob-uskuna *n* equipment, outfit, machinery.
aseptika *n tib.* asepsis.
asetilen *n kim.* acetylene.
aseton *n kim.* acetone.
asfalasofilin 1. *n* hell, the nether world; **2.** *v* perish, die.
asfalt *n* asphalt; ~ **qilmoq** lay asphalt.
asfaltlamoq *v* asphalt, pave with asphalt.
asfaltlanmoq = **asfaltlamoq**.
asfaltlashtirish *n* paving, laying asphalt, black-topping.
asfiksiya *n* asphyxia; **oq** ~ white asphyxia, asphyxia pallida
asil I *a* real, original, essential, genuine, true; regular.
asil II *n* precious; ~ **tosh** precious stone.
asillik (*sof*) *n* high quality, dignity, merit, worthy (*of*).
asillik = **asl**.
asilzoda *n* nobleman, aristocrat.
asilzot *a* thoroughbred, pedigree (*hayvon to'g'risida*); pure-bread (*it to'g'risida*).
asimetriya *n* asymmetry.
asimetrik *a* asymmetric (*al*).
asir (*mahbus*) *n* captive, prisoner; **kimnidir** ~ **qilmoq** take *smb.* prisoner.
asira (*ayol mahbus*) *n* prisoner, captive.
asirlik *n* captivity.
askar *n* soldier, fighting, military man.
askarboshi *n* military leader, commander, head, chief.
askariy *a* army, military.
askarlik *n* military service; ~ **kiyimi** military uniform.
askarcha *a* military.
asket *n din.* ascetic, hermit, solitary.
asketizm *n din.* asceticism, austerity.
askiya *n* witticism, witty remark, mental sharpness, keenness, cleverness; a type of word game.

- askiyaboz** *n* person with sharp or quick wits; quick-witted.
- askiyabozlik** contest in sagacity, competition in wit.
- askiyachi** = **askiyaboz**.
- askiyachilik** = **askiyabozlik**.
- asl I** *n* essence, core, main, gist; ~**ini olganda** (**aytganda**) practically speaking.
- asl II** *n* original, origin, foundation, base, essential point, root; ~**i bilan solishtirmoq** compare with the original; ~ **nusxa** original.
- aslaha** (**uskuna**) *n* armaments, weaponry, weapons, arms.
- aslaha-anjom** *n* armament.
- aslahafurush** *n* a weapon seller.
- aslahalomoq** *v* arm; equip, fit out.
- aslahali** (**qurolli**) *a* armed.
- aslahaxona** *n* arsenal; armoury.
- aslan** = **aslida**.
- asli** = **asl**.
- aslida** *adv* virtually; at the bottom, in fact, factually.
- asliy**: ~ **sifat gram.** qualitative adjective.
- aslik** = **asl**.
- aslo** *adv* 1) quite, entirely, totally; 2) never, not at all (*with negated verb*)
- asno** (**vaqt**) *n* 1) period (*space*) stretch of time; 2) moment, instant.
- aso** *n* staff, crook.
- asorat** *n* influence; ~**ida bo'Imoq** be under the influence (*of*), after effects consequence.
- asos n** 1) base; bases; foundation; **bozor va boshqaruv ~lari** the principles, foundations of market and management; **shu ~da yoki shuning ~ida** on these grounds; ~ **soluvchi** founder; **tashkilotga ~ solindi** the organization was founded; 2) principles; fundamentals; ~ **qidirib topmoq** get to the bottom.
- asosan** *adv* chiefly, mainly, principally, in general, basically.
- asosiy** *a* main, chief; principal; basic, fundamental; ~ **qonun** basic law.
- asoslamoq** *v* 1) base. found; 2) ground, substantiate.
- asoslannoq** *v* 1) settle down (*in*); 2) be based (*on*), rest; be founded (*on*).
- asoslantirmoq** *v* 1) (*give*) prove, substantiate; ground, base; 2) argue.
- asosli** *a* well-founded, well-grounded; valid.
- asoslilik** *n* validity.
- asossiz** *a* groundless, unfounded; ~ **ayblash** unfounded accusation.
- asossizlik** *n* groundlessness, baselessness.
- asoschi** *n* founder, initiator.
- asov** *a* restive, jibbing; wild; ~ **ot** unbroken horse; ~ **daryo** ungovernable river.
- asovlashmoq** *v* run wild (*about plant*); become (*grew*) wild (*about animals*).
- asp** *n* knight (*in chess*); horse.
- aspalasofin** = **asfalasofin**.
- aspdor** *a* 1) stirrup; 2) orderly.
- aspekt** *n* aspect, perspective; **siyosiy** ~ the political end.
- aspijallob** *n* horse seller.
- aspijalloblik** *n* horse selling; ~ **qilmoq** profiteer, speculate (*in*).
- aspirant** *n* post-graduate (*student*).
- aspirantka** *n* post-graduate (*student*); candidate (*for women*).
- aspirantlik** *a* post-graduate.
- aspirantura** *n* post-graduate studentship, post graduate course, research studentship.
- aspirin** *n* aspirin.
- asqatmoq** *v* prove useful (*to*), come in handy/ useful (*to*), be of use (*to*); stand in good stead.
- asr** *n* century, age; ~**dayoq** as early as in the century.
- asralmoq** = **asramoq**.
- asramoq** *v* 1) bring up; 2) keep; 3) adopt (**boqib olmoq, bola qilib olmoq**).
- asrandi** *n* adopted child, foster child.
- asratmoq** = **asramoq**.
- asrdosh** *n* contemporary, modern.
- asriy** *a* 1) secular, ancient, age-old, century-old; century; 2) eternal, everlasting; perpetual.
- asror** *n* secret; mystery.
- asrchilik**: **o'rta** ~ the Middle Ages.
- assalom int.**: ~**u alaykum** hello! hi! good morning, good afternoon, good evening, good day.
- assambleya** *n* assembly; **Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh ~si** the General Assembly of the United Nations Organization.
- assimilatsiya** *n* 1) *tilsh.* assimilation; 2) anabolism; incorporation; constructive metabolism.
- assistent** *n* assistant.
- assistentlik** **1.** *n* assistant's position; **2.** *a* assistant; ~ **qilmoq** assist.
- assortiment** *n* assortment, range (*of goods*); choice; **bo'yoqlar ~i** assortment of paints.
- assotsiatsiya** *n* association, alliance, consortium; **advokatlar ~si** bar association.
- asta** *adv* slowly, quietly, calmly.
- asta-asta** **1.** *adv* quietly, softly, gently; faintly; silently; **2.** *a* calm, quiet, pacific.
- astagina** = **asta**.
- astalik** *n* slowness; ~ **bilan** slowly.
- astar** *n* lining.
- astar-avra** *n* inner and outer material.
- astarlik** *n* lining material.
- asta-sekin** *adv* very slowly, gradually, cautiously, quietly.
- astag'firulloh** = **astag'firullo**.
- astag'firullo** rescue my God.
- asteroid** *n astr.* asteroid.
- asti** = **aslo**.
- astma** *n tib.* asthma; **yurak ~si** cardiac asthma.

- astoydil** *adv* sincerely, frankly, candidly, with zeal, eagerly, with enthusiasm, with ardour.
- astoydillik** *n* seriousness, earnestness; gravity: ~ bilan religiously.
- astro-** *pref.* astro-;
- astrobiologiya** *n* astrobiology.
- astrobotanika** *n* astrobotany.
- astrolog** *n* astrologer.
- astrologiya** *n* astrology.
- astrolyabiya** *n* astrolabe.
- astronavi** *n* astronaut; spaceman.
- astronavtika** *n* astronautics.
- astronom** *n* astronomer.
- astronomik** *a* astronomic(al); ~ **observatoriya** astronomic(al) observatory.
- astronomiya** *n* astronomy.
- astrofizika** *n* astrophysics; **nazariy** ~ theoretical astrophysics.
- ataka** *n* attack; ~ **qilmoq** attack; **yon tomondan qilingan** ~ flank(*ing*) attack; **havo** ~si air attack.
- atak-chechak**: ~ **qilmoq** to put first steps (*about baby*).
- atala** *n* flour(y) soup.
- atalamoq** *v* 1) stir, agitate; 2) mix, mingle: blend (*with*).
- atalanmoq** = **atalamoq**.
- atalasimon** *a* pappy.
- atala-umoch** *n* different liquid soups.
- atalmoq** (**nomlanmoq**) *v* bear the name (*of*); be named.
- atama** (**termin**) *n* term, designation.
- ataman** *n* 1) ataman; 2) *so'z*l. (gang-)leader, (*robber*) chief.
- atamashunoslik** *n* science of terminology.
- atamoq** *v* 1) name; give name; 2) dedicate.
- atavizm** **I.** *n* *biol.* atavism; **2.** *a* atavistic; ~ **belgisi** atavistic sign.
- atavistik** *a* atavistic.
- atay** = **atayin**.
- ataydan** = **atayin**.
- atayin** *adv* intentionally, on purpose.
- atayka** *n* goose.
- ataylab** *adv* intentionally, on purpose.
- atashmoq** = **atamoq**.
- ateist** *n* atheist.
- ateistik** *a* atheistic, irreligious.
- ateizm** *n* atheism.
- atelye** *n* studio, workshop: **foto**~ photo studio; **kiyim** ~si dressmaking and tailoring establishment; **modalar** ~si fashion atelier house.
- ateroskleroz** *n* atherosclerosis; **umumiy** ~ general atherosclerosis
- atigi** *adv* only, just, merely.
- atigidan** = **atayin**.
- atir** *n* fragrance, perfume, scent; **hidli** ~ fragrant, sweet scented.
- atirgul** *n* rose: ~ **tikansiz bo'lmas** (**maqol**) no rose without a thorn.
- atir-upa** *n* cosmetic means, perfume and ceruse, powder.
- atlasfurush** *n* atlas seller.
- atlas I** *n* atlas.
- atlas II** *n* satin (**gazmol**), satin-cloth, varicolored cloth.
- atlet** *n* athlete.
- atletik** *a* athletic; ~ **gavda** athletic figure.
- atletika** *n* athletics; **yengil** ~ track-and-field athletics; **og'ir** ~ heavy athletics.
- atletikachi** *n* athlete; **yengil** ~ (*track and field*) athlete; **og'ir** ~ weight-lifter; athlete competing in weight-lifting or wrestling.
- atmosfera** *n* atmosphere.
- atmosferaviy** *a* atmospheric.
- ato**: ~ **qilmoq** grant (*to*); confer.
- atom** *n* atom; ~ **og'irligi** atomic weight; ~ **bomba**(si) atom bomb; ~ **urushi** atom war; ~ **energiyasi** atomic energy; ~ **quroli** atomic weapon; ~ **elektr stansiyasi** atomic electric power-station.
- atomboz** *n* 1) atomic scientist; 2) nuclear warnonger.
- atomistik** *a* atomistic.
- atomistika** *n* atomic theory, atomism; **fizik** ~ physical atomism; **kimyoviy** ~ chemical atomism.
- atomchi** *n* nuclear engineer.
- atoqli** *a* famous, renowned, celebrated, illustrious; ~ **olim** famous scientist.
- atorud** *n* mercury.
- atov** = **atamoq**.
- atribut** *n* attribute.
- atributiv** *a* *gram.* attributive.
- atrof** *n* 1) surroundings; circumference; suburb, circle: ~**dagi muhit** surrounding condition; 2) round about; ~**ida** about; ~**ga nazar solmoq** look about; ~ **Muhit Masalalari Bo'yicha Axborot Byurosi** Environment Information Bureau (*EIB*); ~ **Muhitni Himoya Qilish Bo'yicha Mufoviqlashtiruvchi Kengash** Environment Co-ordination Board; ~**dagi sharoitga moslash**(*tir*)moq acclimatize oneself to the surroundings; ~ **-muhitni muhofaza qilish** protecting the environment.
- atrofida I** *prep.* about; **yuz kilogramm** ~ about hundred kilogram(me)s.
- atrofida II** *adv* round, around; **uy** ~ around the house.
- atrofiya** *n* atrophy, atrophial; **ko'z** ~si phthisis of eye; **oq** ~ atrophie blanche, «white atrophy»; **fiziologik** ~ physiological atrophy.
- atroflab** *adv* 1) round, around, about; 2) go a roundabout way; make a detour; outflank(*ing*); (*about rule, law*) in contravention of (*the law*), going against (*the law*); ~ **o'tmoq** walk (a)round; ~ **o'ramoq** surround.
- atrofli**: ~ **ravishda** comprehensively (*thoroughly, closely, in detail*).

- atroflicha** *adv* thoroughly, in detail, from all sides.
- attang** *a* pity, annoyance; what a pity! **E, ~!** What a pity! It is a pity: ~ **u kelmayapti-da!** It is a pity that he has not come!
- attashe** *n* attache; **harbiy** ~ military attaché.
- attestat** *n* certificate (*of graduation from middle school*); proof of holding a scientific, military or special rank; **yetuklik** ~i school-leaving certificate.
- attestatsion** *attr.* attestive, attestative; attestation.
- attestatsiya** *n* 1) attestation; 2) certification of rank, recommendation (*for expertise in a certain field*).
- attor** *n* men's clothier, haberdasher (*seller or luxury clothing and grooming accessories*).
- attorlik** *n* haberdashery; ~ **do'koni** haberdasher's (*shop*).
- atraksion** *n* 1) attraction; 2) (**parkda**) park amusement, ride.
- audit** *n* audit, auditing.
- auditor** *n* auditor, certified public accountant; ~lik **firmasi** audit firm, auditor.
- auditoriya** *n* 1) lecture-hall, lecture-room; 2) audience (**tinglovchi**).
- aukcion** *n* auction; public sale: ~ **o'tkazmoq** hold an auction; ~**ga qo'ymoq** put up for auction; ~**da sotmoq** sell by auction.
- aut** *n sport. out.*
- autsayder** *n sport. outsider.*
- avangard I** *n* advance guard; advanced guard; innovation; vanguard.
- avangard II** *attr.* vanguard, van; ~ **janglar** advanced-guard actions.
- avangardizm** *n* avant-gardism, avant-garde.
- avanpost** *n* *harb.* outpost; **harbiy** ~ military outpost.
- avangardlik** *n* advance guard; advanced guard; vanguard; innovation; ~ **roli** leading role.
- avans** *n* advance-payment; ~ **olmoq** get money in advance (**yoki beforehand**)
- avantyura** *n* adventure, venture.
- avantyurachi** *n* adventurer
- avantyurist** *n* adventurer: **siyosiy** ~ *amer.* carpet-bagger.
- avantyuristik** *a* adventuristic
- avantyurizm** *n* adventurism, disposition to engage in ventures.
- avar I.** *n* Avar; **2.** *attr.* Avarian; ~ **tili** Avar, the Avarian language.
- avarlar** *n* the Avars.
- avara** *shev.* = **evara**.
- avariya** *n* wreck, crash, accident; ~**ga uchramoq** to have an accident, get into a crash (*wreck*).
- avaxta** *n* guard-room, guard-house.
- avaylab** *adv* with care, carefully, cautiously; ~ **ko'tarmoq** pick up carefully; ~ **xarajat qilmoq** spend cautiously.
- avaylamoq** *v* take care (*of*); spare; **o'z sog'lig'ini** ~ take care of one's health; **o'z kuchini** ~ spare one's strength.
- avag'a** *n* 1) great-great-grandson, great-great-granddaughter; 2) distant posterity; ~ **chavag'a** distant posterity.
- avbosh** *n* hooligan, ruffian.
- avboshlik** *n* hooliganism, ruffianism, ruffian behaviour.
- avgust** *n* August; ~ **oyida O'zbekistonda havu juda issiq bo'ladi** It is very hot in Uzbekistan in August.
- avia-** *pref. gram.* aero-, aerial, air-, aircraft; ~**pochta** air mail.
- aviabaza** *n* air base.
- aviabomb** *n* aircraft bomb.
- aviadesant** *n* 1) air/airborne landing; 2) airborne troops.
- aviadesantchi** *n* member of air/airborne landing; airborne trooper.
- aviakompaniya** *n* airline company.
- aviakompas** *n* aircraft compass.
- aviakonstruktor** *n* aircraft designer.
- avialiniya** *n* airline, air-route, airway; **Toshkent - London** ~si Tashkent - London airline.
- aviamodel** *n* aircraft model.
- aviamodelchi** *n* aircraft model constructor.
- aviamodelchilik** *n* aircraft modelling.
- aviamotor** *n* aircraft engine.
- aviamotorsozlik** *n* air-engine construction; ~ **zavodi** air-engine construction factory (*works*)
- avianos** *n* aircraft-carrier.
- avianoses** *n* aircraft carrier.
- aviapochta** *n* air mail; **men xatni ~ orqali jo'natdim** I sent a letter by air mail.
- aviasalon** *n* air show.
- aviator** *n* airman, aviator, pilot; (*about women*) airwoman, woman pilot.
- aviatrassa** *n* air route; airline.
- aviatsion** *attr* aircraft, aviation.
- aviatsiya** *n* aviation; ~ **sanoati** aircraft industry.
- aviazavod** *n* aircraft factory; aircraft works.
- avitaminoz** *n tib.* avitaminosis.
- avizo** *n it.* 1) *deng.* aviso, advice boat; 2) advice, advice note, note, letter of advice.
- avj** *n (the)* culmination; the highest point; summit; **O'tgan hafta paxta dalasida ish ~iga chiqdi** Last week the work reached the highest point in the cotton field; ~**iga chiqqan** in full swing; **o'zaro musobaqani keng ~ oldirmoq** spread out mutual competition.
- avjida** *adv* in full swing; **ish** ~ the work is in full swing.
- avjlanmoq** *v* 1) develop; 2) become stronger, intensify; gain strength; **shamol avjiga chiqdi** the wind became stronger.
- avjli** *adv mus.* with the highest note in a melody.

- avjsiz** *a mus.* without the highest note in a melody.
- avliyo** *n* holy; saint; sacred; ~ **burch** sacred duty.
- avliyonomo** *a* 1) blissful beatific; 2) simple.
- avlo** *a* 1) better, best; 2) preferable, preferred; 3) excellent, splendid.
- avlod** *n* descendant, generation; **yosh** ~ young generation.
- avlod-ajdod** *n* generation.
- avom** *n* the common people; ~ **tili** popular speech.
- avra** *n* cover; outside; top, right side.
- avra-astar** *n* cover (*outside, top, right side*) and lining (*of clothes and blanket*).
- avral I** *n* clear lower desks evolution.
- avral II** *attr* emergency.
- avramoq** *v* persuade, win over.
- avrat** *n* 1) woman; 2) women.
- avratpo'sh** *n* clothes.
- avrash** *n* 1) beginning to speak; 2) fraud, deception.
- avrash-aldashlar** *n* deceits and shift.
- avroqchi** *n* 1) sorcerer, magician, wizard; 2) deceiver, cheat, fraud, trickster.
- avrag'ich = avroqchi.**
- avrog'ich = avroqchi.**
- avsat** *a* middle.
- avstraliyalik** *n* Australian person.
- avstriyalik** *n* Austrian person.
- avtobaza** *n* motor depot.
- avtobiografik** *a* autobiographic(*al*).
- avtobiografiya** *n* autobiography.
- avtoblokirovka** *n* atomic block system.
- avtobus** *n* bus, omnibus, motor bus; autobus.
- avtodrom** *n* motordrome; **sinov** ~i automobile testing ground.
- avtodo'kon** *n* automotive shop.
- avtogen** *n* autogenous.
- avtograf** *n* autograph.
- avtografik** *a* autographic; ~ **qo'lyozma** autographic manuscript.
- avtoinspeksiya** *n* traffic police; motor licencing and inspection department; roadworthiness inspection.
- avtokamera** *n* inner tube.
- avtokar** *n* motor trolley; company truck; motor-truck; autotruck, powered industrial car.
- avtoklav** *n* *tex.* autoclave.
- avtokolonna** *n* motor transport column.
- avtokorxon** *n* auto-repair shop.
- avtokran** *n* *tex.* mobile crane; autocrane; motorized crane, truck crane; autocrane; truck-mounted crane.
- avtol** *n* 1) *kim.* autol; 2) *tex.* motor oil.
- avtokachka** *n* auto rocking, auto tossing.
- avtomagistral** *n* express-way, highway, motor-way, motor road, trunk road.
- avtomashina** *n* motor vehicle, automobile.
- avtomat I** *n* machinegun.
- avtomat II** *a* automatic.
- avtomat-telefon** *n* automatic telephone (*appar*): public callbox (*budka*).
- avtomat-spravochnik** *n* automatic directory.
- avtomatik** *adv* automatic, selfacting; ~ **telefon stansiyasi** automatic telephone exchange; ~ **ravishda** automatically.
- avtomatika** *n* automatics, automation, automatic control engineering.
- avtomatizm** *n* 1) automatism; 2) *comp.* automatic performance; 3) *iqt.* automatic performance, automaticity.
- avtomatlashmoq** *v* be automatized.
- avtomatlashtirilmog** *v* get automatized.
- avtomatlashtirish** *n* automation.
- avtomatlashtirmog** *v* automatize.
- avtomatchi** *n* 1) automated machine operator; 2) *harb.* submachine gunner.
- avtomobil** *n* car; auto car, automobile; ~ **zavodi** motor automobile works, motor-car factory, automobile factory, automobile plant.
- avtomobilsoz** *n* auto maker.
- avtomobilsozlik** *n* motor-car construction.
- avtonazorat** *n* 1) automatic control; 2) traffic police; motor licencing and inspection department; roadworthiness inspection; **davlat** ~i state traffic police.
- avtonom** *a* autonomous; ~ **respublika** autonomous republic; ~ **viloyat** autonomous region.
- avtonomist** *n* autonomist.
- avtonomiya** *n* autonomy.
- avtonomiyali** *a* autonomous.
- avtonomiyachi = avtonomist.**
- avtonomlik** *n* autonomy, isolation.
- avtopark** *n* motor pool, vehicle fleet.
- avtopilot** *n* automatic pilot, autopilot; ~**da uchmoq** fly by the autopilot.
- avtopoilk** *n* *q.-x.* automatic drinking bowl; self-filling drinker; autodrinker, self-drinker, automatic drinking bowl.
- avtoportret** *n* self-portrait.
- avtopoyga** *n* motor-races, auto-race.
- avtopritsep** *n* trailer.
- avtor** *n* author.
- avtoralli** *n* rally, auto rally.
- avtoferat** *n* synopsis of thesis (*prepared by candidate*).
- avtoremont 1.** *n* vehicle repair; **2.** *a* (motor-)car repair service; ~ **zavodi** (motor-) car repair service factory (*works*).
- avtoritar** *a* authoritarian; ~ **kapitalizm** authoritarian capitalism; ~ **davlat** authoritarian state.
- avtoritarizm** *n* authoritarianism.
- avtorlik** *n* authorship.
- avtoruchka** *n* fountain-pen, ink-pen.
- avtosalon** *n* 1) (*ko'rgazma*) automobile show, auto show, motor show; 2) (*do'kon*) automobile sales centre.

